ISSN 2010-9601

MOLIYA

ILMIY JURNAL

Научный журнал «Финансы»

«Finance» scientific journal



4

2026

TOSHKENT

ILMIY JURNAL ***4*/2026**

MOLIYA

Muassis: **Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**

Tahririyat ijodiy jamoasi:
Bosh muharrir: *A.Karimov*
Bosh muharrir o‘rinbosari: *G‘.Tashmanov*
Texnik muharrir: *K.Rasulova*

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2008 yil 24 martda 0519-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

2008 yildan nashr qilinadi, bir yilda 6 marta chiqadi.

O‘zbekiston hududida tarqatiladi.

«Moliya» ilmiy jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komis- siyasi Rayosatining 2013 yil 13 dekabrdagi 201/3-sonli qaroriga binoan iqtisod fanlari bo‘yicha fan doktori ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan ilmiy maqolalari e’lon qilinishi zarur bo‘lgan ilmiy jur- nallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Web-sayt: *http://moliya.tsue.uz*
e-mail: moliya_jurnal@mail.ru
Obuna indeksi – 1204

Tahririyat manzili: 100084, Toshkent sh., A.Temur ko‘chasi, 60ª-uy Tel.: (+998 71) 234-66-89

TAHRIR KENGAShI RAISI:

T.Z.Teshabayev – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

TAHRIR KENGAShI A'ZOLARI:

A.A.Karimov – Bosh muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
G'.D.Tashmanov — Bosh muharrir o'rinbosari, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
G.Q.Abduraxmanova — Ilmiy ishlar va innovasiyalar bo'yicha prorektor iqtisodiyot fanlari doktori, professor
N.X.Xaydarov — iqtisodiyot fanlari doktori, professor
T.S.Malikov — iqtisodiyot fanlari doktori, professor
E.G'.Nabiyev — iqtisodiyot fanlari doktori, professor
G.N.Axunova — iqtisodiyot fanlari doktori, professor
K.B.O'razov - iqtisodiyot fanlari doktori, professor
B.E.Toshmurodova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sh.Z.Abdullayeva – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
A.Z.Avloqulov — iqtisodiyot fanlari doktori, professor
J.I.Karimqulov — iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sh.A.Allayarov- iqtisodiyot fanlari doktori, professor
F.T.Muxamedov — iqtisodiyot fanlari doktori, professor
D.R.Rustamov – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
X.M.Shennayev — iqtisodiyot fanlari doktori, professor
M.A.Ikramov — iqtisodiyot fanlari doktori, professor
I.K.Ochilov — iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
M.M.Tulaxodjayeva — iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Z.A.Sagdullayeva — iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
X.Qobulov — iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
I.G'.Kenjayev – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
D.A.Mirzayev — iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Asif Mahbub Karim– Malayziya, Bayneriy menejment va tadbirkorlik universiteti professori
Adriana Grigoressu – Ruminiya, Siyosiy tadqiqotlar va davlat boshqaruvi milliy universiteti professori
Y.B.Maley – Belorussiya, Polosk davlat univesiteti dotsenti
Elcin Aykas Alp – Turkiya, Istanbul Tijorat Universiteti professori
Tae-Hyoung Mun — Janubiy Korea, Mokvuon universiteti professori
N.K.Muraviskaya — Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti professori
K.Taygashinova – Qozog'iston, Almata iqtisodiy-gumanitar universiteti professori

M U N D A R I J A **Betlar**

А.А.Каримов, Н.К.Ризаев, Ф.Х.Азимов, Молиявий инвестициялар ҳисобини халқаро стандартларга мувофиқ такомиллаштириш **4**

N.B.Xo‘jabekov, Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda umumiy nazorat ostidagi biznes birlashishlarini hisobga olish: yangidan tashkil etilgan bosh korxona (NEWCO)lar bo‘yicha amaliy yondashuvlar **14**

У.С.Матчанов, Государственное регулирование энергетического сектора Узбекистана в условиях либерализации: международный опыт и современные вызовы **22**

Х.М.Ёдгоров, Дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида умумий ишлаб чиқариш харажатлари бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш **31**

Б.Э.Избасаров, МҲХС-6 талаблари асосида геология-қидирув харажатларини ҳисобга олиш услубиятини такомиллаштириш **39**

N.Sh.Xujanazarova, Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning ilmiy, tarixiy, zamonaviy va moliyaviy qarashlari evolyutsiyasi **52**

D.A.Turumova, Tijorat banklarida daromad va xarajatlarni hisobda aks ettirishning tashkiliy jihatlari **63**

F.F.Usmonov, A.M.Karimova, Improving the corporate lending system for small and medium-sized enterprises in Uzbekistan **75**

I.A.Abdug‘aniyev, O‘zbekiston korxonalarida raqamli infratuzilmaga bog‘liq operatsion xavflar **85**

M.I.Ismoilova, Davlat budjetini natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish asosida boshqarish **94**

D.R.Kenjaeva, Islom moliyasining yevropa iqtisodiyotidagi o‘rni va rivojlanish tendensiyalari: buyuk britaniya, lyuksemburg va germaniya tajribasi **102**

Т.С.Маликов, А.А.Каримов, “Илмий кенгаш”ми ёки “Ихтисослаш(тирил)ган кенгаш”? **111**

A.A.Ostonokulov, Davlat tibbiyot tashkilotlarida moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari kompleks tahlilining boshqaruv qarorlariga ta’siri **113**

L.M.Axmedov, To‘lanmagan ustav kapitalini tan olish va 8340 “To‘lanmagan kapital” hisobvarag‘i **124**

I.B.Jumaniyazov, To‘qimachilik sanoati korxonalarida xarajatlar hisobini takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlari va boshqaruv samaradorligini oshirish **134**

К.С.Расулова, Инвестиционная привлекательность регионов Узбекистана **146**

M.M.Muxammadjanov, Ekologik xarajatlarning iqtisodiy mazmuni va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishning metodologik asoslari **156**

Q.A.Davlyatov, Oilaviy tadbirkorlik sub’ektlarini kreditlashda kelajakdagi daromadlardan ta’minot sifatida foydalanish mexanizmi **163**

M.T.Abdujaborova, Korxona to‘lov qobiliyati tahlilining metodologiyasi **169**

L.M.Xasanova, Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish **179**

B.N.Boboxo‘jayev, F.K.Boboxo‘jayeva, Bozor konyunkturasidan kelib chiqib marketing strategiyasini belgilash *(O‘zbekiston qandolat mahsulotlari bozori misolida statistik va strategik tahlil)* **185**

Б.Ю.Махсудов, Номолиявий ҳисоботни шакллантиришнинг такомиллаштириш масалалари **196**

Р.Ў.Холпўлотов, Молиявий инструментлар ҳисобини ёритиб беришни методологиясини халқаро стандартларга асосан такомиллаштириш **209**

Х.Ш.Рахмонов, Порядок ведения учёта налога за пользование водными ресурсами и его практические проблемы **221**

B.Ch.Raxmatullaev, Hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari **230**

A.X.Sattorov, Auditorlik tekshiruvi natijalarini hujjatlashtirish jarayonini takomillashtirish **242**

Д.Насиров, Н.Бабекова, М.Носирова, Оценка инвестиционной привлекательности туристических проектов с учётом сезонности выручки и территориальной концентрации спроса **251**

I.G‘.Kenjayev, O.O.Atayeva, O‘zbekistonda sug‘urta bozorini raqamlashtirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari **261**

Л.Ш.Сабирова, Н.К.Шаисламова, О введении образования в интересах устойчивого развития **267**

Каримов Акром Аббасович - иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, “Молиявий ҳисоб ва ҳисобот” кафедраси профессори. ТДИУ. Karimovaa53@mail.ru

Ризаев Нурбек Кадирович - иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, “Банк иши ва бухгалтерия ҳисоби” кафедраси профессори. ТКХУ rizayevnk220874@gmail.com

Азимов Фахриддин Хамроевич - Самарқанд Давлат ветеринария медицинаси чорвачилик ва биотехнологиялар университети тадқиқотчиси

МОЛИЯВИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАР ҲИСОБИНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРГА МУВОФИҚ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Каримов Акром Аббасович - доктор экономических наук, профессор, профессор кафедры «Финансовый учет и отчетност» ТГЭУ Karimovaa53@mail.ru

Ризаев Нурбек Кадирович - доктор экономических наук, профессор, профессор кафедры «Банковское дело и бухгалтерский учет». ТМУК. rizayevnk220874@gmail.com

Азимов Фахриддин Хамроевич — научный сотрудник Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ФИНАНСОВЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В СООТВЕТСТВИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ

Karimov Akrom Abbasovich - Doctor of Economics, Professor, Professor of the Financial accounting and reporting. TSUE Karimovaa53@mail.ru

Rizaev Nurbek Kadirovich - Doctor of Economics, Professor, Professor of the Department of Banking and Accounting. KIUT. rizayevnk220874@gmail.com

Azimov Fakhriddin Khamroevich - Researcher at Samarkand State University of Veterinary Medicine, Animal Husbandry and Biotechnology

IMPROVEMENT OF FINANCIAL INVESTMENT ACCOUNTING IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS

Аннотация: Мазкур мақолада узоқ муддатли молиявий инвестициялар тушунчаси? еларнинг аҳамияти ва моҳияти, узоқ муддатли молиявий инвестицияларни ҳисобга олишнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари, бухгалтерия ҳисобида тан олиш ва баҳолаш, шунингдек, уларни киримга олиш ва ҳисобдан чиқариш тартиблари ҳамда қайта баҳолаш масалалари кенг тадқиқ этилган. Узоқ муддатли молиявий инвестициялар ҳисобини такомиллаштиришда уларни счётларда акс эттириш ҳамда халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш юзасидан илмий таклиф ва тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: инвестиция, баҳолаш, тан олиш, счётлар режаси, қайта баҳолаш, акция, облигация.

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается концепция долгосрочных финансовых инвестиций. Обсуждаются их значение и сущность, нормативно-правовая база учета долгосрочных финансовых инвестиций, их признание и оценка в бухгалтерском учете, а также процедуры их включения и списания, и вопросы переоценки. Приводятся научные предложения и рекомендации по совершенствованию учета долгосрочных финансовых инвестиций, их отражению в отчетности и улучшению на основе международных стандартов.

Ключевые слова: инвестиции, оценка, признание, план счетов, переоценка, акции, облигации.

Abstract: This article extensively studies the concept of long-term financial investments. Their importance and essence, the regulatory and legal framework for accounting for long-term financial investments, recognition and valuation in accounting, as well as the procedures for their inclusion and write-off, and issues of revaluation. Scientific proposals and recommendations are given on improving the accounting for long-term financial investments, reflecting them in the accounts and improving them based on international standards.

Keywords: investment, valuation, recognition, chart of accounts, revaluation, stock, bond.

КИРИШ.

Бугунги кунда жаҳон миқиёсида инвестициялар ҳажми тобора ошиб бормоқда, статистик маълумотларга қараганда асосий капиталга қилинган инвестициялар ҳажми бўйича АҚШ (384,7 млрд.долл.) Сингапур (175,2 млрд.долл.), Гонгонк (111,2 млрд.долл) каби давлатлар еткачилик қилмоқда, лекин шунга қарамасдан умумий олганда ўтган 2024 йилда БМТнинг Савдо ва тараққиёт конференцияси ҳисоб-китобига кўра, ўтган 2024 йилда жаҳондаги тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар 11,0 фоизга пасайиб, 1,5 трлн.долларни ташкил этган. Албатта бунинг ўзига ҳос қатор омиллари бўлиб, бу мамлакатлар ўртасидаги ўзаро урушлар, иқтисодий бўхронлар, савдо тўсиқларининг кучайиши ва геосиёсий кескинликлар билан изоҳланади. Умумий инвестицияларнинг 6,9 трлн.долл. номоддий активларга тўғри келган бўлса, 4,7 трлн.долл. эса моддий (материал кўринишидаги) активларга тўғри келади. [1]. Натижада, бугун жаҳонда инвестициялар ҳажмининг ортиб бориши, улардан самарали фойдаланиш ва уларнинг бухгалтерия ҳисобини ҳамда таҳлил қилиш услубиётини молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари талаблари асосида ташкил этишга катта эътибор қаратилган.

Жаҳонда йирик компаниялар, акциядорлик жамиятлари ахборотдан фойдаланувчиларга бухгалтерия ҳисобининг мухим объектлардан бири инвестицияларни тан олиш, уларни баҳолаш, киримга олиш ва ҳисобдан чиқариш ҳамда молиявий ҳисоботларда тўғри акс эттирилишига оид ишончли ахборотларни шакллантиришга оид илмий тадқиқотлар амалга оширилмоқда. Молиявий ҳисоботларнинг шаффофлигини таъминлаш, молиявий ҳисоботнинг

халқаро стандартларига мувофиқ ҳисоб юритиш, рақамли технологиялар асосида автоматлаштирилган ҳисоб тизимларини жорий этиш ҳамда сунъий интеллект воситаларидан фойдаланиш жараёнида инвестициялар ҳисобини халқаро стандартлар талаблари асосида юритиш, мувофиқлаштириш, тан олиш, баҳолаш моделини қўллаш, уларни ҳизмат муддатларини аниқлаш, киримга олиш тартибини такомиллаштириш, компаниялар ҳисоб сиёсатида акс эттириш услубиёти ва молиявий ҳисоботларда ёритиб бериш асосида молиявий барқарорлигини ошириш масалалари долзарбдир.

МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ.

Инвестициялар тушунчаси ва уларнинг аҳамияти ва зарурияти тўғрисида аввалги бобда кенгроқ ёритиб берилди, шундай бўлсада уларнинг хусусиятлари ва бухгалтерия ҳисобида акс эттириш масалаларига тўхталиб ўтилади. Демак, инвестициялар – бу иқтисодий ва бошқа фаолият объектларига киритиладиган моддий ва номоддий неъматлар ҳамда уларга доир ҳуқуқлар бўлиб, бухгалтерия ҳисобида асосан молиявий қўйилма сифатида қайд этилади. Молиявий қўйилма - корхонанинг қимматли қоғозларни сотиб олиш учун қилган харажатлари (пул маблағларини қўшма корхоналар, акционер жамиятлари, ширкатларнинг асосий воситалари, номоддий ва бошқа активларига қўшиш), бошқа корхоналарга қарз бериш тарзида берилган дебитор қарзлар сифатида акс эттирилади. Молиявий қўйилмалар содир бўлганлигини тасдиқловчи ҳужжатлар бўлиб олинган акциялар, турли сертификатлар, облигациялар, амалга оширилган қўйилмалар суммасига берилган гувоҳномалар, қарз бериш бўйича шартномалар ҳисобланади.

Республикамизда инвестициялар ҳисоби ва таҳлилини ташкил этиш ва уни юритишнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари тўлиқ яратилган. Аввало бунда Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги” қонунни келтириб ўтиш жоиз. Мазкур қонунинг 4-моддасида *Бухгалтерия ҳисоби барча хўжалик операцияларини яхлит, узлуксиз, ҳужжатлар асосида ҳисобга олиш йўли билан бухгалтерия ахборотини йиғиш, қайд этиш ва умумлаштиришнинг тартибга солинган тизимидан, шунингдек унинг асосида молиявий ва бошқа ҳисоботни тузишдан иборатдир” деб таъриф берилган*. [2]. *Демоқчимизки, инвестицияларни жалб қилиниши ва улардан самарали фойдаланиш жараёни корхонада содир бўладиган хўжалик операциялари, яъни иқтисодий ходисалар асосида юз беради.*

Мазкур операциялар натижасида инвестициялар баҳоланиб корхонанинг балансига олинади, яъни корхона активлари сифатида тан олинади. Айнан юқоридаги қонунда бу 7-моддасида алоҳида тўхталиб ўтилади: “Активлар, мажбуриятлар, хусусий капитал, захиралар, даромадлар, харажатлар, фойда, зарарлар ва уларнинг ҳаракати билан боғлиқ хўжалик операциялари бухгалтерия ҳисобининг объектларидир” [3]. *Шунингдек, инвестициялар бухгалтерия ҳисобининг янги объектларидан бири сифатида талқин қилинади. Бухгалтерия ҳисоби миллий стандартлари (БҲМС) асосида ҳисобот топширувчи корхоналарда инвестициялар учун унинг узоқ муддатли ва қисқа муддатли активлар сифатида акс эттирилиши белгилаб қўйилган.*

Қонуннинг 9-моддасида эса, “Бухгалтерия ҳисобини юритиш қоидалари бухгалтерия ҳисоби стандартлари, шу жумладан кичик тадбиркорлик субъектлари учун соддалаштирилган бухгалтерия ҳисобини юритиш стандарти билан белгиланади” деб кўрсатилган. Инвестициялар ҳисобини юритишда республикамизда бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти ишлаб чиқилган. Аввалига мазкур стандарт “Молиявий инвестицилар ҳисоби” (12-сон БҲМС) номи билан ишлаб чиқилган ва амалиётга жорий этилган эди (1999 йил 16 январ, 536-сон).

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги ПҚ-4611-сон “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ҳамда 2025 йил 15 сентябрдаги 282-сон “Молиявий ҳисоб тизимини халқаро талаб ва стандартларга мувофиқ такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорлари асосида амалдаги бухгалтерия ҳисоби миллий стандартларини (БҲМС) халқаро стандартларга (МҲХС) мувофиқлаштириш вазифаси белгилаб олинган бўлиб, ҳозирда амалдаги БҲМСлар босқичма-босқич халқаро стандартларга мослаштириб борилмоқда.

Айнан инвестицияларга оид БҲМС қоидалари ҳам Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг 2024 йил 14 июндаги 138-сон буйруғи асосида халқаро талабларга мувофиқ қайта ишлаб чиқилди ва жорий этилди. Ушбу стандартнинг *2-моддасида бюджет, суғурта ташкилотлари, банклар ва бошқа кредит ташкилотларидан ташқари мулкчилик шаклидан қатъий назар республикамизда фаолият юритаётган барча юридик шахсларда (ташкилот) молиявий инвестицияларини ҳисобга олиш усулини аниқлаш ва уларни молиявий ҳисоботларда акс эттириш тартибини белгилаш бош мақсад қилиб олинган*.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Мазкур мақолани ёзишда инвестициялар, жумладан узоқ муддатли молиявий инвестицияларни тан олиш, уларни баҳолаш, счётларда акс эттириш, сотиб олиш ва бозор қийматлари ўртасидаги фарқларни даромад ва харажат сифатида қайд этиш, ҳамда молиявий ҳисоботларда акс эттиришни такомиллаштиришда олимларнинг назарий ёндошувлари чуқур тадқиқ этилди. Шунингдек, узоқ муддатли молиявий инвестицияларни ҳисобга олишда таҳлилнинг гуруҳлаштириш, таққослаш, индукция, дедукция, қиёсий таҳлил қилиш, балансни динамик ва горизонтал таҳлил қилиш усулларидан фойдаланилди.

НАТИЖА ВА МУҲОКАМА.

Корхоналарда инвестициялар ҳисобини, жумладан қисқа муддатли (жорий) инвестицияларни ҳисобини юритишда қуйидаги бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартлари қоидаларидан кенг фойдаланилади:

1-сонли БҲМС "Молиявий ҳисоботни тақдим этиш ва ҳисоб сиёсати" (АВ томонидан 06.08.2024 й. 3544-сон билан рўйхатга олинган иқтисодиёт ва молия вазирининг 14.06.2024 й. 130-сон буйруғига 1-илова);

8-сонли БҲМС "Консолидациялашган молиявий ҳисоботлар ва шўъба хўжалик жамиятларига инвестициялар ҳисоби" (АВ томонидан 26.07.2024 й. 3537-сон билан рўйхатга олинган иқтисодиёт ва молия вазирининг 14.06.2024 й. 135-сон буйруғи билан тасдиқланган);

12-сон БХМС "Молиявий инвестицияларни ҳисобга олиш" (АВ томонидан 18.07.2024 й. 3531-сон билан рўйхатга олинган молия вазирининг 14.06.2024 й. 138-сон буйруги билан тасдикланган);

17-сонли БҲМС "Капитал қурилишнинг пудрат шартномалари" (АВ томонидан 23.07.2024 й. 3533-сон билан рўйхатга олинган иқтисодиёт ва молия вазирининг 14.06.2024 й. 140-сон буйруғи билан тасдиқланган);

21-сонли БҲМС «Хўжалик юритувчи субъектларда бухгалтерия ҳисобининг ҳисобварақлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқнома»ни тасдиқлаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 27 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3593).

Мазкур стандартлар ичида энг муҳими бу 12-сон БҲМС “Молиявий инвестицияларни ҳисобга олиш” бўлиб, стандартга асосан, корхона молиявий инвестициялар ҳисобини БҲМСга мувофиқ юритиши ҳамда улар қуйидаги масалаларни ўз ичига олиши белгилаб қўйилган:

молиявий инвестицияларни (қисқа муддатли ва узоқ муддатли) тоифаларига қараб таснифлаш;

молиявий инвестициялар қийматини аниқлаш ва уларни молиявий ҳисоботларда акс эттириш;

молиявий инвестицияларни бир тоифадан бошқасига ўтказиш;

молиявий инвестициялар қийматининг қайтарилмайдиган пасайиши.

Стандартда молиявий инвестициялар бўйича қуйидаги атамадан фойдаланилади:

“Молиявий инвестициялар - ташкилот тасарруфидаги даромад олишга (фоиз, роялти, дивиденд ва ижара ҳақи шаклида) мўлжалланган, инвестиция қилинган капитал қийматининг ортиши ёки инвестиция қилувчи компаниянинг бошқа наф олиш учун фойдаланадиган активлар”.

Ўз навбатида стандарт узоқ муддатли молиявий инвестицияларга ҳам таърифини келтириб ўтади, мазкур таърифга кўра узоқ муддатли молиявий инвестициялар сифатида қисқа муддатли (жорий) молиявий инвестициялардан ташқари барча молиявий инвестициялар сифатида келтириб ўтилган.

1-жадвал

“Жиззах аккумлятор заводи” АЖда узоқ муддатли инвестициялар таркибининг динамик ўзгариши

минг сўм ҳисобида

Кўрсаткичлар	2021 йил	2022 йил	2023 йил	2024 йил	2025 йил	2026 йил
Узоқ муддатли инвестициялар, жами:	**1008590**	**1260696**	**1041106**	**1061106**	**20000**	**20000**
Ўзгариши, фоизда	**100,0**	**124,9**	**82,5**	**101,9**	**18,8**	**100.0**
қимматли қоғозлар (0610)	0	0	0	0	0	0
Шўъба хўжалик жамиятларига инвестициялар (0620)	1008590	219590	-	20000	20000	20000
қарам хўжалик жамиятларига инвестициялар (0630)	0	0	0	0	0	0
Чет эл капитали мавжуд бўлган корхоналарга инвестициялар (0640)	0	0	0	0	0	0
Бошқа узоқ муддатли инвестициялар (0690)	0	1041106	1041106	1041106	0	0

Жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, “Жиззах аккумлятор заводи” АЖда инвестициялар, жумладан молиявий инвестициялар ҳолати таҳлил қилинганда корхонада сўнгги беш йилда уларнинг ҳажми пасайган. Корхонада қимматли қоғозлар мавжуд эмас, лекин шўъба хўжалик жамиятларига инвестициялар (0620) деярли ҳар йили корхона

балансида мавжуд бўлган. Шунингдек, корхонада бошқа узоқ муддатли инвестициялардан ҳам барқарор равишда фойдаланиб келинган.

“Жиззах аккумлятор заводи” АЖда узоқ муддатли молиявий инвестициялар ҳисобини юритиш учун 21-сон БҲМС «Хўжалик юритувчи субъектларда бухгалтерия ҳисобининг ҳисобварақлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқнома»га асосан қуйидаги счётларда юритиш кўзда тутилган:

0610- “Қимматли қоғозлар”;

0620- “Шўъба хўжалик жамиятларига инвестициялар”;

0630- “Қарам хўжалик жамиятларига инвестициялар”;

0640-“Чет эл капитали мавжуд корхоналарга инвестициялар”;

0690- “Бошқа узоқ муддатли инвестициялар”.

Қуйида ушбу счётлар нима мақсадда қўлланишига тўхталиб ўтамиз:

0610 «Қимматли қоғозлар» счётида облигациялар, акциялар ва бошқа қимматли қоғозларга қилинган узоқ муддатли инвестицияларнинг мавжудлиги ва ҳаракати ҳисобга олинади.

0620 «Шуъба хўжалик жамиятларига инвестициялар», 0630 «Қарам хўжалик жамиятларига инвестициялар», 0640 «Чет эл капитали иштирокидаги ташкилотларга инвестициялар» счётлар шуъба ва қарам хўжалик жамиятлари ҳамда чет эл капитали иштирокидаги ташкилотларга қилинган узоқ муддатли инвестицияларнинг мавжудлиги ва ҳаракати ҳисобга олинади.

0690 «Бошқа узоқ муддатли инвестициялар» счётида эса юқорида келтирилган счётларда назарда тутилмаган бошқа узоқ муддатли инвестициялар ҳисобга олинади

Уларнинг харид қилиниши пул маблағларини ҳисобга олувчи счётлар билан боғланган ҳолда узоқ муддатли инвестицияларни ҳисобга олувчи счётларнинг дебетида ҳисобга олинади, узоқ муддатли инвестицияларнинг ҳисобдан чиқарилиши, текинга берилиши, устав капиталига улуш сифатида берилиши оқибатида чиқиб кетиши эса - ушбу счётларнинг кредитида акс эттирилади.

Масалан, “Жиззах аккумлятор заводи” АЖда номинал қиймати 10 млн сўмлик облигациялар 8 млн сўмга сотиб олинди. Ҳизматлар учун комиссион тўлов 500 минг сўм. Ушбу облигациялар 18 ойда қайтарилади. Натижада ҳар ойда фоиз сифатида 1972,2 минг сўм тўланади (10 млн.сўм-8 млн.сўм-500 минг сўм/18).

Корхона бухгалтери томонидан қуйидаги ўтказмалар берилади:

- *облигацияларни сотиб олиш:*

Дебет 0610 – “Қимматли қоғозлар” – 8 млн.сўм

Кредит 5110 – “Ҳисоблашиш счёти” – 8 млн.сўм

- *комиссион тўлов:*

Дебет 0610 – “Қимматли қоғозлар” – 1972,2 сўм.

Кредит 5110 – “Ҳисоблашиш счёти” – 1972,2 сўм.

Ҳар ойда фоиз суммаси даромадга ўтказилади. 18 ойдан сўнг фойдага умумий суммада 35500 минг сўм ўтказилади, облигацияларнинг сотиб олиш қиймати эса унинг номинал қийматига тенглашади.

Дебет 0610 – “Қимматли қоғозлар” – 1972,2 сўм.

Кредит 9560 – “Қимматбаҳо қоғозларни қайта баҳолашдан даромадлар” – 1972,2 сўм.

-облигацияларни қайтариш:

Дебет 5110 – “Ҳисоблашиш счёти” – 10 млн.сўм.

Кредит 9220 – “Бошқа активларни тугатилиши” – 10 млн.сўм

- *қайтарилган облигацияларни балансдан чиқарилиши:*

Дебет 9220 – “Бошқа активларни тугатилиши” – 10 млн.сўм

Кредит 0610 – “Қимматли қоғозлар” – 10 млн.сўм

Тадқиқотлар шуни кўрсатмоқдаки, юқоридаги иқтисодий ходисалар натижасида “Жиззах аккумлятор заводи” АЖда облигацияларни қайтаришда фойда ёки зарар кўрсатилади, лекин ҳақиқатда корхона ҳисоб-китоб счётига облигацияларнинг номинал қиймати келиб тушганда сарфланган маблағдан 35500 минг сўм кўп олди. Демак, ушбу даромад 18 ойнинг молиявий натижаларида акс эттириши лозим, лекин ҳақиқатда бу даромад фақат 18 ойлик муддат охирида келиб тушган. Фикримизча юқоридаги муомаларданни счётларда акс эттириш услубиётига тузатиш киритиш зарур деб ҳисоблаймиз.

Бизнинг фикримизга кўра, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари (МҲХС) бўйича қоидалари бўйича, ушбу облигацияларни қайтаришдаги олинган даромадларни бухгалтерия счётларида қуйидагича акс эттириш лозим бўлади:

Биринчи, ҳар ойда облигациялар бўйича фоиз ўтказиб бориладм ва бу 18 ойдан сўнг облигациялар нархи унинг номинал қийматига тенглашади:

Дебет 0610 – “Қимматли қоғозлар” – 1972,2 сўм.

Кредит 6230 – “Муддати узайтирилган даромадлар” – 1972.2 сўм.

Иккинчи, корхонада 18 ойдан сўнг облигацияларни қайтаришга 10 млн.сўм келиб тушди.

Дебет 5110 – “Ҳисоблашиш счёти” – 10 млн.сўм.

Кредит 9220 – “Бошқа активларни тугатилиши” – 10 млн.сўм.

Учинчи, Қайтарилган облигацияларнинг баланс қийматига:

Дебет 9220 - “Бошқа активларни тугатилиши” – 10 млн.сўм.

Кредит 0610 – “Қимматли қоғозлар” – 10 млн.сўм.

“Жиззах аккумлятор заводи” АЖда сўнгги беш йилда ўзининг шўъба хўжалик жамиятларига инвестицияларни амалга оширган. Масалан 2021 йилда 1008590 минг сўмлик инвестиция қилинган бўлса, бу 2026 йилга келиб 20000 минг сўмга тенг бўлган. Корхона бухгалтери томонидан ушбу иқтисодий ҳодисалар қуйидаги бухгалтерия ўтказмалари билан расмийлаштирилиб келинган:

- *шўъба хўжалик жамиятларига инвестициялар амалга оширилди (келишувлар асосида):*

Дебет 0620 – “Шўъба хўжалик жамиятларига инвестициялар” счёти -20000 минг сўм.

Кредит 5110 – “Ҳисоблашиш счёти” – 20000 минг сўм.

Маълумки, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги ПҚ-4611-сон “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ҳамда 2025 йил 15 сентябрдаги 282-сон “Молиявий ҳисоб тизимини халқаро талаб ва стандартларга мувофиқ такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорлари асосида республикамизда бухгалтерия ҳисоби тизими халқаро стандартларга мувофиқлаштирилмоқда. Айнан бухгалтерия ҳисоби миллий стандартлари (БҲМС) асосида молиявий ҳисоботларни тузиб тақдим этадиган корхоналарда қўлланилаётган счётлар режаси (21-сон БҲМС)ни халқаро стандарт талабларига мувофиқлаштириб бориш талаби қўйилган. Халқаро стандартларда активларни қадрсизланиши бўйича алоҳида тартиб қоидалар мавжуд (36-сон БҲХС Активларни қадрсизланиши). Демак, молиявий инвестицияларни ҳисобга олувчи счётлар таркибида қўшимча ишчи счётларни очиш зарурияти юзага келмоқда. Шу жиҳатдан қаралганда бугунги кунда узоқ муддатли инвестицияларни қадрсизланиши ва у

билан боғлиқ резервларни яратиш бўйича амалдаги 21-сон БҲМС Ҳисобварақлар режасида маълумотлар берилмаган.

Халқаро стандарт қоидаларига кўра, корхона активлар қарсизланиш мумкин, бунда қуйидаги икки атама қўлланилади:

Қадрсизланишдан зарар - бу актив ёки пул маблағларини ҳосил қилувчи бирлик баланс қийматининг унинг қопланадиган қийматидан ортган суммасидир.

Қопланадиган қиймат - актив ёки пул маблағларини ҳосил қилувчи бирликнинг ҳисобдан чиқариш сарфлари чегирилган ҳаққоний қиймати ва фойдаланиш қийматидан каттасидир

Шунингдек, 9-сон МҲХС “Молиявий инструментлар” номли стандартда ҳам қуйидагилар ифодаланган: “Ташкилот 4.1.2 ва 4.1.2А бандларга мувофиқ баҳоланадиган молиявий актив, ижара бўйича дебитор қарздорлик, 2.1(ё), 4.2.1(в) ёки 4.2.1(г) бандларга мувофиқ қадрсизланиш қўлланадиган молиявий кафолат шартномаси ва қарз мажбурият ёки шартнома бўйича активга нисбатан *кутилаётган кредит зарарлари* бўйича баҳоланадиган резервни тан олиши лозим.” Ўз навбатида мазкур стандартга кўра, корхона тан олиши лозим бўлган ҳисобот санасига зарарлар бўйича баҳоланадиган резервни тузатиш учун талаб этиладиган суммани кутилаётган кредит зарарларининг (ёки уларнинг тикланиши) *қадрсизланишдан фойда ёки зарарни* фойда ёки зарар таркибида тан олиниши кўзда тутилган.

Демак, корхонада ҳар бир ҳисобот даври якунига активлар, яъни молиявий активлар (инвестициялар) қадрсизланганлигининг бирор аломати мавжудлиги ёки мавжуд эмаслигини баҳолаб боради, агар шундай ҳолатлар мавжуд бўлса, ўз навбатида корхона молиявий активларни (инвестициялар)нинг қопланадиган қийматини баҳолайди. Шунингдек, инвестицияларнинг қопланадиган қиймати унинг баланс қийматидан кам бўлса, инвестициянинг баланс қиймати унинг қопланадиган қийматига қадар камайтирилишини талаб этади. Демак, бундай камайиш қадрсизланишдан зарар ҳисобланади. Айнан манашу зарарни қоплаш мақсадида қадрсизланиш бўйича резервни шакллантиришни мақсадга мувофиқдир.

Таклиф: Бизнинг фикримича “Жиззах аккумлятор заводи” АЖнинг ҳисоб сиёсатига киритиш ва амалиётда қўллаш мақсадида 0611 - “Узоқ муддатли инвестицияларнинг қадрсизланиши бўйича резерв” номли янги ишчи счётни киритишни таклиф этамиз. Мазкур 0611 – “Узоқ муддатли инвестицияларнинг қадрсизланиши бўйича резерв” улушли қатнашиш усулида ҳисобга олинадиган ёки бошланғич қиймат бўйича ҳисобга олинадиган улушли инструментларга инвестицияларнинг қадрсизланиши бўйича резервлар ҳисоби учун фойдаланиш учун мақсад қилинган. Мазкур тартибдан халқаро амалиётда тўлиқ фойдаланилади.

Таклиф этилаётган счёт қуйидаги ёзув билан расмийлаштирилади:

“Жиззах аккумлятор заводи” АЖда ҳисобот даври учун 20 млн.сўм қийматда қадрсизланиш резерви яратилди (харид қилинган акциялар қиймати 200 млн сўмга тенг бўлган, мазкур активлар биринчи чоракда кейин қайта баҳолаш санасида 180 млн. сўмни ташкил қилган):

Дебет 9430 - “Бошқа операцион харажатлар” счёти – 20 млн.сўм

Кредит 0611 - “Узоқ муддатли инвестицияларнинг қадрсизланиши бўйича резерв” счёти – 20 млн.сўм.

“Жиззах аккумлятор заводи” АЖда нинг иккинчи чорак якунида сотиб олинган акциялар қиймати 195 млн.сўмга ортган. Уҳолда қадрсизланиш бўйича яратилган резерв суммаси 15 млн.сўмга камайтирилади.

Дебет 0611 - “Узоқ муддатли инвестицияларнинг қадрсизланиши бўйича резерв” счёти – 15 млн.сўм.

Кредит Харажатларни ҳисобга олувчи тегишли счётлар – 15 млн.сўм

Кредит 0611 - “Узоқ муддатли инвестицияларнинг қадрсизланиши бўйича резерв” счёти – 20 млн.сўм.

Тадқиқотлар шуни кўрсатмоқдаки. узоқ муддатли инвестицияларни ҳисобини юритиш билан боғлиқ яна бир муаммо шундаки, уларни амортизацияланишидир (эскириши). Ушбу тартиб ҳам бизнинг миллий стандартларда назарда тутилмаган. Халқаро стандартларда эса қуйидаги қоидалар мавжуд:

Агар қадрсизланишдан зарарнинг ҳисоб баҳоси у билан боғлиқ активнинг баланс қийматидан катта бўлса, фақат ва фақат агар у бошқа стандарт орқали талаб этилса, ташкилот мажбуриятни тан олиши лозим.

Қадрсизланишдан зарар тан олингандан сўнг, актив учун эскириш (амортизация) суммасига активнинг тугатиш қиймати чегирилган ҳолда (агар мавжуд бўлса) ўзгартирилган баланс қийматини унинг қолган фойдали хизмат муддати мобайнида тизимли равишда тақсимлаш учун келгуси даврларда тузатиш киритилади .

Шу мақсадда корхоналарнинг инвестицияларни ҳисобга олувчи счётлар таркибида янги 0612 - “Амортизацияланадиган қийматда баҳоланадиган узоқ муддатли молиявий инвестициялар” деб номланган ишчи счётни киритиш таклиф этилмоқда. Мазкур счёт амортизацияланадиган қийматда баҳоланадиган узоқ муддатли молиявий инвестициялар ҳисоби учун фойдаланилади.

ХУЛОСА.

Бизнинг фикримизча узоқ муддатли молиявий инвестицияларни қадрсизланишида қуйидаги кўрсаткичлар бир вақтнинг ўзида мавжуд бўлса, резерв (захира) яратилиши керак деб ҳисоблаймиз:

Биринчидан, ҳисобот даври давомида молиявий инвестицияларнинг тахминий қиймати сезиларли даражада камайиши содир бўлганда;

Иккинчидан, кетма-кет иккита ҳисобот санасида инвестицияларнинг тахминий қиймати баланс қийматидан сезиларли даражада пасайиб кетишиши аниқланганда;

Учинчидан, корхонанинг ҳисобот санасида молиявий инвестицияларнинг тахминий қиймати келажакда ошишига ишониш учун асос яратадиган ҳеч қандай маълумотга эга эмас деб баҳоланганда.

Демак, юқоридаги таклиф этилган янги ишчи счётларни “Жиззах аккумлятор заводи” АЖнинг ҳисоб сиёсатига киритиш ва амалиётда қўлланилиши натижасида қуйидагиларни таъминлайди:

Биринчи, амалдаги счётлар режасини халқаро стандартларга яқинлаштириш имкониятини беради;

Иккинчи, инвесторлар учун корхона ҳақидаги маълумотлар шаффофлигини ошириради;

Учинчи, мазкур счётлар орқали турли ташкилотлар кесимида қиёсланувчанлик (таққослаш) таъминланади;

Тўртинчи, ушбу счёт узоқ муддатли инвестицияларни қадрсизланиши бўйича зарарларни олдини олиш учун резервларни шакллантириш имкониятини яратади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР.

1. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг* 2020 йил 24 февралдаги ПҚ-4611-сон “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори.
2. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг* 15 сентябрдаги 282-сон “Молиявий ҳисоб тизимини халқаро талаб ва стандартларга мувофиқ такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонунига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 13.04.2016 йил ЎРҚ-404-сон. Бухгалтерия ҳисоби. 4-модда. https://lex.uz/docs/2931253
4. 36-сон БҲХС “Активларни қадрсизланиши”. 62-63-бандлар.
5. 9-сон МҲХС «Молиявий инструментлар». Қадрсизланиш. 5.5-банд.
6. 1-сонли БҲМС "Молиявий ҳисоботни тақдим этиш ва ҳисоб сиёсати" (АВ томонидан 06.08.2024 й. 3544-сон билан рўйхатга олинган иқтисодиёт ва молия вазирининг 14.06.2024 й. 130-сон буйруғига 1-илова);
7. 8-сонли БҲМС "Консолидациялашган молиявий ҳисоботлар ва шўъба хўжалик жамиятларига инвестициялар ҳисоби" (АВ томонидан 26.07.2024 й. 3537-сон билан рўйхатга олинган иқтисодиёт ва молия вазирининг 14.06.2024 й. 135-сон буйруғи билан тасдиқланган);
8. 12-сон БХМС "Молиявий инвестицияларни ҳисобга олиш" (АВ томонидан 18.07.2024 й. 3531-сон билан рўйхатга олинган молия вазирининг 14.06.2024 й. 138-сон буйруги билан тасдикланган);
9. 17-сонли БҲМС "Капитал қурилишнинг пудрат шартномалари" (АВ томонидан 23.07.2024 й. 3533-сон билан рўйхатга олинган иқтисодиёт ва молия вазирининг 14.06.2024 й. 140-сон буйруғи билан тасдиқланган);
10. 1-сонли БҲМС «Хўжалик юритувчи субъектларда бухгалтерия ҳисобининг ҳисобварақлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқнома»ни тасдиқлаш тўғрисида (Ўз Рес АВ 2024 йил 27 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3593).

Nizomiddin Xo‘jabekov Begbutaevich, iqtisod fanlari nomzodi, “Amulet-Audit” MChJ Auditorlik tashkiloti auditori, hnizomiddin7@yahoo.com, ORCID:0009-0005-6112-5207

KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HISOBOTDA UMUMIY NAZORAT OSTIDAGI BIZNES BIRLASHISHLARINI HISOBGA OLISH: YANGIDAN TASHKIL ETILGAN BOSH KORXONA (NEWCO)LAR BO‘YICHA AMALIY YONDASHUVLAR

Низомиддин Хужабеков Бегбутаевич, кандидат экономических наук, аудитор аудиторской организации ООО «Amulet-Audit», ORCID:0009-0005-6112-5207

УЧЕТ ОБЪЕДИНЕНИЙ БИЗНЕСА ПОД ОБЩИМ КОНТРОЛЕМ В КОНСОЛИДИРОВАННОЙ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ: ПРАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ВНОВЬ СОЗДАННОЙ МАТЕРИНСКОЙ КОМПАНИИ (NEWCO)

Nizomiddin Hujabekov Begbutaevich, PhD in accounting, Auditor, Amulet-Audit LLC Audit Organisation

ACCOUNTING FOR BUSINESS COMBINATIONS UNDER COMMON CONTROL IN CONSOLIDATED FINANCIAL STATEMENTS: PRACTICAL APPROACHES TO NEWCO

Annotatsiya

Maqolada umumiy nazorat ostidagi biznes birlashishlarini, ayniqsa yangi tashkil etilgan bosh korxona (keyingi o‘rinlarda — «NewCo») ishtirokidagi qayta tashkil etishlarni konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari tadqiq etilgan. MHXS (IFRS) 3ning qo‘llanish doirasi va MHXS (IAS) 8 bo‘yicha hisob siyosatini ishlab chiqish ierarxiyasi asosida operatsiyalarni tasniflashning besh bosqichli algoritmi taklif qilingan. Hisobning avvalgi balans qiymatlari va xarid usullari qiyoslanib, hisob qiymatlari manbai, kapitaldagi farq, taqqoslama axborot va hujjatlashtirish tartibi yoritilgan. NewConing bitimlarda yuridik jihatdan xaridor bo‘lishi uni buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan avtomatik ravishda xaridorga aylantirmasligi hamda tanlangan yondashuv operatsiyaning iqtisodiy mazmuni bilan asoslanishi lozimligi xulosa qilingan.

Kalit so‘zlar: umumiy nazorat, biznes birlashishi, NewCo, avvalgi balans qiymati usuli, xarid usuli, kapitalni qayta tashkil etish, qayta tashkil etish rezervi, gudvill, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot,MHXS (IFRS) 3,MHXS (IAS) 8.

Аннотация

В статье исследуется учет объединений бизнеса под общим контролем, прежде всего реорганизаций с участием вновь созданной материнской компании (NewCo). На основе сферы применения МСФО (IFRS) 3 и иерархии разработки учетной политики по МСФО (IAS) 8 предложен пятиэтапный алгоритм классификации операций. Сопоставлены метод предыдущей балансовой стоимости и метод приобретения; рассмотрены источник стоимостных показателей, разница в капитале, сравнительная информация и документирование решений. Сделан вывод, что юридический статус NewCo как покупателя

не означает ее автоматического признания приобретателем для целей учета, а выбранный подход должен отражать экономическое содержание операции.

Ключевые слова: общий контроль, объединение бизнеса, NewCo, метод балансовой стоимости, метод приобретения, реорганизация капитала, резерв реорганизации, гудвилл, консолидированная финансовая отчетность, МСФО (IFRS) 3, МСФО (IAS) 8.

Abstract The article examines the accounting for business combinations under common control, with particular emphasis on restructurings involving a newly formed parent company (NewCo). Based on the scope of IFRS 3 and the accounting-policy hierarchy in IAS 8, a five-step classification algorithm is proposed. The predecessor carrying amount and acquisition approaches are compared, including the source of carrying amounts, equity differences, comparative information and documentation. The article concludes that NewCo's legal status as acquirer does not automatically make it the accounting acquirer; the selected policy should reflect the economic substance of the transaction.

Keywords: common control, business combination, NewCo, predecessor carrying amounts, acquisition method, capital reorganisation, reorganisation reserve, goodwill, consolidated financial statements, IFRS 3, IAS 8.

Qisqartirilgan atamalar: MHXS — Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari; MHXS (IFRS) 3 — «Biznes birlashishlari»; MHXS (IFRS) 10 — «Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot»; MHXS (IAS) 8 — «Hisob siyosati, buxgalteriya baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar»; MHXS (IAS) 32 — «Moliyaviy instrumentlar: taqdim etish».

KIRISH

Korporativ guruhlarda biznesni bir yuridik shaxsdan boshqasiga o‘tkazish, NewCo tashkil etish, sho‘ba korxonalarni yagona boshqaruv ostida jamlash va IPO oldidan biznes tuzilmani qayta tashkil etish keng uchraydi. Agar yakuniy nazorat bitimdan oldin ham, keyin ham bir tomonda qolsa, mazkur operatsiya biznesni uchinchi tomondan xarid qilishdan farq qiladi: guruhga tashqaridan yangi resurs jalb qilinmaydi, faqat resurslarning yuridik joylashuvi yoki moliyalashtirish shakli o‘zgaradi xolos.

Ta’kidlash joizki, MHXS (IFRS) 3ning amal qilish doirasi umumiy nazorat ostidagi biznes birlashishlarini qamrab olmaydi. Bunday birlashishda korxonalar yoki bizneslar bitimdan oldin va keyin ayni bir tomon nazoratida bo‘lishi, nazorat esa vaqtinchalik bo‘lmasligi kerak [1, 2(c)-band va B1–B4-bandlar]. Biroq qabul qiluvchi korxona unga o‘tkazilayotgan aktiv va majburiyatlarni qaysi qiymatda tan olishi, yangi gudvill hisoblashi, to‘lov bilan sof aktivlar farqini qay tartibda aks ettirishi va taqqoslama ma’lumotlarni taqdim etish masalalari maxsus standart(lar) bilan belgilanmagan.

MHXSga muvofiq, agar hisobga olish uchun tegishli standartlarda maxsus talab mavjud bo‘lmagan holatda MHXS (IAS) 8ning 10–12-bandlari qo‘llanishi lozim. Rahbariyat professional mulohaza asosida dolzarb va ishonchli axborot beradigan hisob siyosatini ishlab chiqib, o‘xshash masalalarni tartibga soluvchi standartlar hamda Konseptual asosning tamoyil va qoidalarini hisobga olishi lozim [2, 4]. Shu sababli nima sababdan xarid usuli yoki avvalgi balans qiymatlari usulining tanlangani asoslanishi kerak.

Mazkur mavzu O‘zbekiston uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda davlat ishtirokidagi korxonalarni qayta guruhlash, xoldinglar tuzish, xususiylashtirish va kapital bozoriga olib chiqish jarayonlarida yakuniy nazorat o‘zgarmaydigan qayta tashkil etishlar soni ko‘paymoqda. MHXSni qo‘llash bo‘yicha PQ-4611 va PQ-282-sonli Prezident qarorlarining qabul qilinishi natijasida MHXS bo‘yicha hisobot tuzuvchi korxonalar doirasi kengaymoqda [14, 15]. Bunday sharoitda NewCo operatsiyalarini yagona mezonlar bo‘yicha tasniflash va hujjatlashtirish konsolidatsiyalashgan hisobotlarning taqqoslanuvchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi — umumiy nazorat ostidagi biznes birlashishlarini, xususan NewCo ishtirokidagi operatsiyalarni konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda aks ettirish uchun izchil algoritm ishlab chiqish hisoblanadi. Shu maqsadda me'yoriy qoidalar, hisob usullari, balans qiymatlarining manbai, kapitaldagi farq va taqqoslama axborotni taqdim etish tartibi o'zaro bog'liq holda o'rganildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlarda umumiy nazorat ostidagi birlashishlarni hisobga olishdagi asosiy muammo aktiv va majburiyatlarni baholashga nisbatan yagona yondashuv yo'qligi bilan izohlanadi. Amaliyotda haqqoniy qiymatga asoslangan xarid usuli va tarixiy qiymatlarni aks ettirishga asoslangan balans qiymati usuli qo'llaniladi. MHXS standartlarini qabul qiluvchi Kengash (IASB)ning 2020-yildagi muhokamaga qo'ygan hujjati, hisobga bo'lgan yondashuvlarning xilma-xilligi o'xshash operatsiyalarni taqqoslashni qiyinlashtirayotganini ko'rsatadi [7].

Ta'kidlash joizki, hisob usulini faqat umumiy nazorat mavjudligiga qarab tanlash yetarli hisoblanmaydi. Agar biznes birlashishi operatsiyasi pul oqimlariga sezilarli ta'sir qilsa, nazorat kuchiga ega bo'lmagan aksiyadorlar mavjud bo'lsa yoki bitim kapital bozoriga chiqish bilan bog'liq bo'lsa, haqqoniy qiymat bo'yicha axborot foydalanuvchilar uchun foydaliroq bo'lishi mumkin. Guruh resurslari faqat qayta joylashtirilib, yakuniy mulkdorlar manfaatlari o'zgarmasa, avvalgi balans qiymatlari uzluksizlikni yaxshiroq ifodalaydi [10, 11].

Nazorat qiluvchi tomon nuqtayi nazaridan yondashilganda, eng yuqori darajadagi bosh korxonaning konsolidatsiyalashgan hisobotidagi ko'rsatkichlar, jumladan avval tan olingan gudvill va haqqoniy qiymat tuzatishlarini aks ettiradi. Bu, ayniqsa, birja listingi oldidan tuzilgan guruhlarda oldingi davrlar bo'yicha uzluksiz axborot taqdim etishga yordam beradi [11].

Tadqiqotlar tanlangan hisob usuli aktivlar, kapital, rentabellik va keyingi davr xarajatlariga ta'sir qilishi sababli, boshqaruv tomonidan guruh ko'rsatkichlarini maqsadli shakllantirish rag'batini yuzaga keltirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shu bois hisob siyosati faqat hisob usuli nomini keltirish bilan cheklanmay, qiymatlar manbai, kapitaldagi farq, taqqoslama axborot sanasi va bitim xarajatlari hisobini ham belgilashi lozim [9, 12].

Kengash 2020-yilda xarid va balans qiymati usullarini qo'llash bo'yicha mavzuni muhokamaga qo'ygan bo'lsa-da, ammo 2023-yil noyabrda yangi talablar ishlab chiqmaslikka qaror qildi va loyiha 2024-yil aprelda yakunlandi [8]. Shuning uchun muhokama hujjatida bayon etilgan yondashuvlar MHXSning majburiy talabi sifatida emas, balki MHXS (IAS) 8 bo'yicha hisob siyosatini ishlab chiqishda qo'llaniladigan tahliliy manba sifatida hisoblanishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda me'yoriy-huquqiy va qiyosiy tahlil, iqtisodiy mazmun bo'yicha guruhlash hamda ikkiyoqlama yozuv usullari qo'llanildi. MHXS (IFRS) 3ning qo'llanish doirasi, MHXS (IAS) 8 bo'yicha hisob siyosati ierarxiyasi, MHXS (IFRS) 10dagi nazorat tushunchasi va NewCo ishtirokidagi biznes birlashishlarida xaridorni aniqlashga oid B18-band qoidalari o'zaro bog'liq holda o'rganildi [1–3].

Qiyosiy tahlilda avvalgi balans qiymatlari va xarid usullari: baholash bazasi, gudvill, kapitaldagi farq, taqqoslama axborot hamda moliyaviy natijaga ta'siri bo'yicha o'zaro solishtirildi.

Tadqiqotning obyekti bo'lib, biznes aktiv va majburiyatlarini qabul qiluvchi korxonaning konsolidatsiyalashgan hisoboti hisoblanadi. Yuqori darajadagi guruh hisobotida ichki biznes o'tkazmalari eliminatsiya qilinsa-da, tashqi qarz, bitim xarajatlari, soliq oqibatlari va nazorat kuchiga ega bo'lmagan ulushlar saqlanib qolishi mumkin. Shu bois tahlilda hisobot darajasi alohida inobatga olindi.

TAHLIL VA NATIJALARI

1. NORMATIV CHEGARA VA HISOB OBYEKTINI ANIQLASH

Qayd etish lozimki, biznes birlashishlari bo‘yicha operatsiyaning yuridik shakli va nomlanishi uning buxgalteriya tasnifini belgilamaydi. Avvalambor, o‘tkazilayotgan to‘plamning biznes ta’rifiga muvofiqligi tekshirilishi lozim. Agar faqat aktivlar yoki aktivlar guruhi o‘tkazilsa, tegishli aktiv va majburiyat standartlari qo‘llanadi. Mabodo, biznes o‘tkazilsa, yakuniy nazoratning bitimdan oldin va keyin bir tomonda qolishi hamda vaqtinchalik emasligi baholanadi [1].

1-jadval.

Umumiy nazorat ostidagi birlashish operatsiyasini tasniflash chegaralari

Qo‘yilayotgan savol	Javob ijobiy (Ha) bo‘lgandagi oqibat	Javob salbiy (Yo‘q) bo‘lgandagi oqibat
O‘tkazilayotgan to‘plam biznes hisoblanadimi?	Keyingi bosqichda nazorat tahlil qilinadi	Tegishli aktiv/majburiyat standartlari qo‘llanadi
Yakuniy nazorat oldin ham keyin ham bir tomonda qolganmi?	Umumiy nazorat ostidagi biznes birlashishi yoki qayta tashkil etish operatsiyasi ehtimoli yuqori	MHXS (IFRS) 3 doirasidagi odatdagi biznes birlashishi ehtimoli yuqori
Nazorat vaqtinchalik emasmi?	Umumiy nazorat ostidagi biznes birlashishi mezoniga javob beradi	Bitimlarni yagona reja sifatida qayta baholash zarur
NewCo faqat aksiya chiqarish uchun tuzilganmi?	Buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan NewCo avtomatik ravishda xaridor deb hisoblanmaydi	Pul to‘lovi yoki qarz jalb qilish NewConing roliga iqtisodiy mazmun bag‘ishlashi mumkin
Yagona mavjud hisobot subyekti davom etyaptimi?	Kapitalni qayta tashkil etish/davomiylik hisobi ustuvor hisoblanadi	Bir nechta biznes jamlansa umumiy nazorat ostidagi biznes birlashishi hisobi talab qilinadi

Manba: MHXS (IFRS) 3ning 2(c), B1–B4 va B18-bandlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi [1].

Biznes birlashishini amalga oshirish maqsadida NewConing tashkil etilishi uni avtomatik ravishda buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan xaridorga aylantirmaydi. Agar NewCo faqat aksiyalar chiqarish uchun tuzilgan bo‘lsa, MHXS (IFRS) 3ning B18-bandiga ko‘ra, oldindan mavjud korxonalardan biri xaridor deb aniqlanadi; NewCo pul yoki boshqa aktivlarni o‘tkazsa yoxud o‘z zimmasiga majburiyat olgan holatlarda, u xaridor hisoblanishi mumkin [1, B18-band]. Umumiy nazorat ostidagi birlashishlar MHXS (IFRS) 3 doirasiga kirmasa-da, mazkur qoidadan MHXS (IAS) 8 bo‘yicha hisob siyosatini ishlab chiqishda uslubiy mo‘ljal sifatida foydalanish mumkin.

2. HISOB SIYOSATINI TANLASH VA QIYMATLAR MANBAI

Avvalgi balans qiymatlari usuli qo‘llanilganda aktiv va majburiyatlar qayta baholanmaydi, yangi gudvill tan olinmaydi. Biznes xaridi uchun amalga oshirilgan to‘lov, chiqarilgan kapital va qabul qilingan sof aktivlar o‘rtasidagi farq foyda yoki zararda emas, kapitalning qayta tashkil etish rezervi yoki mazmunan mos boshqa qismida aks ettiriladi. Mualliflik yondashuviga ko‘ra, qiymatlar odatda yakuniy bosh korxonaning eng yuqori darajadagi konsolidatsiyalashgan hisobotidan olinib, avval tan olingan gudvill va konsolidatsiya tuzatishlari saqlab qolinadi.

Agar yuqori darajada konsolidatsiyalashgan hisobot tuzilmasa yoki foydalanuvchilar boshqa hisobotga tayanadigan bo‘lsa, ko‘rsatkichlar boshqa manbadan olinishi mumkin. Bu qaror hisob siyosatida asoslanishi va o‘xshash operatsiyalarga izchil ravishda qo‘llanilishi lozim.

2-jadval.

Umumiy nazorat ostidagi biznes birlashishlari uchun qo‘llaniladigan hisob usullarining asosiy farqlari

Mezon	**Avvalgi balans qiymati usuli**	**Xarid usulini o‘xshashlik bo‘yicha qo‘llash**
Baholash	Mavjud balans qiymatlari; yangidan qayta baholash amalga oshirilmaydi	Identifikatsiya qilinadigan aktiv va majburiyatlar xarid sanasidagi haqqoniy qiymatda tan olinadi
Gudvill	Yangi gudvill yuzaga kelmaydi; ilgari tan olingan tegishli mavjud gudvill saqlab qolinishi mumkin	Qarshi to‘lov va haqqoniy qiymatdagi sof aktivlar farqidan yangi gudvill yuzaga kelishi mumkin
To‘lovdagi farq	Kapitalda qayta tashkil etish rezervi/mulkdorga taqsimot/mulkdor tomonidan kiritilgan badal sifatida tan olinadi	Usul yaxlit qo‘llansa, xarid hisobi tamoyillari amal qiladi; umumiy nazorat xususiyati alohida yoritiladi
Taqqoslama axborot	Retrospektiv tarzda yoki bitim sanasidan boshlab taqdim etiladi va hisob siyosatida belgilanadi	Odatda xarid sanasidan boshlab taqdim etiladi
Axborot mantiqi	Guruh resurslarining uzluksizligi	Qabul qiluvchi korxonadagi iqtisodiy o‘zgarish va haqqoniy qiymatning hisobot foydalanuvchilari uchun ahamiyati

Manba: Kengash (IASB)ning muhokama hujjati va loyiha xulosalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan [7, 8]. Jadvaldagi yondashuvlar majburiy MHXS talabi hisoblanmaydi.

Xarid usulini o‘xshashlik bo‘yicha qo‘llashni tanlagan korxona MHXS (IFRS) 3 talablaridan faqat o‘ziga qulay elementlarni ajratib olmasligi kerak. Xaridor, xarid sanasi, identifikatsiya qilinadigan aktiv va majburiyatlar, nazorat qilinmaydigan ulush, qarshi to‘lov va gudvill o‘zaro bog‘liq tarzda hisoblanishi lozim. Biroq MHXS (IFRS) 3 umumiy nazorat bitimiga bevosita tatbiq etilmagani sababli, mazkur yondashuvning MHXS (IAS) 8 asosida ishlab chiqilgan hisob siyosati ekani va umumiy nazorat xususiyati izohlarda yoritiladi.

3. NEWCO ISHTIROKIDAGI OPERATSIYALARNING BESH BOSQICHLI ALGORITMI

Tahlil natijasida muallif tomonidan NewCo operatsiyalarini tasniflash uchun quyidagi besh bosqichli amaliy algoritm taklif etiladi:

1. O‘tkazilayotgan obyektni aniqlash: alohida aktiv, aktivlar guruhi yoki biznes.
2. Yakuniy nazoratni bitimdan oldin va keyin tekshirish, vaqtinchalik nazorat belgilarini baholash.
3. NewConing vazifasini aniqlash: faqat aksiya chiqaruvchi huquqiy vositami, moliyalashtiruvchi xarid vositasimi yoki mustaqil biznesmi.
4. Bitimda yagona mavjud hisobot subyekti davom etayotganini yoki bir nechta mustaqil biznes jamlanayotganini belgilash.
5. Qabul qiluvchi korxona foydalanuvchilari, nazorat qilinmaydigan ulushlar, to‘lovning bozor xususiyati va operatsiya maqsadi asosida hisob siyosatini tanlash va yoritish.

Ta’kidlash joizki, yuqoridagi algoritmda to‘rtinchi bosqich hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar biznesdagi tarkibiy o‘zgarish natijasida NewCo ustiga faqat bitta mavjud biznes qo‘yilsa, iqtisodiy jihatdan o‘sha biznes davom etadi va operatsiya ko‘p hollarda kapitalni qayta tashkil etish sifatida

aks ettiriladi. Agar NewCo ostida avval alohida hisobot bergan ikki yoki undan ortiq biznes jamlansa, bitimda bizneslar haqiqatan birlashadi; umumiy nazorat saqlangan bo‘lsa, qabul qiluvchi korxona MHXS (IAS) 8 asosida umumiy nazorat ostidagi biznes birlashishi bo‘yicha hisob siyosatini ishlab chiqadi/qo‘llaydi.

4. HISOB SIYOSATI VA AXBOROTNI YORITISH PAKETI

Umumiy nazorat ostidagi biznes birlashishi operatsiyasi bo‘yicha qabul qilingan qaror auditor yoki moliyaviy hisobotdan foydalanuvchi uning qanday asosda qabul qilinganini tushunishi va tekshirishi imkonini beradigan hujjatlar bilan asoslanishi kerak. Buning uchun muallif tomonidan hisob siyosatiga qo‘shimcha ravishda «Umumiy nazorat ostidagi biznes birlashishlari bo‘yicha memorandumi»ni tayyorlash taklif etiladi. Memorandum bitimning huquqiy shaklini emas, balki nazorat zanjiri, o‘tkazilayotgan biznes, NewConing vazifasi, hisobot darajasi va foydalanuvchilarga ta’sirini e’tibor markaziga qo‘yadi.

3-jadval.

NewCo ishtirokidagi umumiy nazorat ostidagi biznes birlashishini hisobga olishda tekshiriladigan asosiy masalalar

№	Tekshiriladigan masala	Asos bo‘ladigan hujjatlar	Hisob bo‘yicha qabul qilinadigan qaror
1	Bitimdan oldin va keyin korxonalar ustidan yakuniy nazorat kimga tegishli bo‘lganA	Ta’sis hujjatlari, aksiyadorlar reyestri, guruhning egalik sxemasi va vakolatli organlar qarorlari	Operatsiya MHXS (IFRS) 3 doirasiga kirishi yoki umumiy nazorat ostidagi birlashish sifatida hisobga olinishi aniqlanadi
2	NewCoga o‘tkazilayotgan korxona yoki aktivlar majmuasi biznes ta’rifiga javob beradimiA	Aktivlar ro‘yxati, shartnomalar, xodimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar va asosiy jarayonlar tavsifi	Operatsiya biznes birlashishi yoki aktivlar xaridi sifatida tasniflanadi
3	NewCo qanday maqsadda tashkil etilgan va bitimda qanday vazifani bajaradiA	NewCo ustavi, aksiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qaror, to‘lov hujjatlari, kredit shartnomalari va boshqaruv organlari tarkibi	NewConing faqat huquqiy vosita ekani yoki xaridor sifatida iqtisodiy mazmunga egaligi baholanadi
4	O‘tkazilayotgan aktiv va majburiyatlarning balans qiymati qaysi hisobot ma’lumotlaridan olinadiA	Oldingi konsolidatsiyalashgan hisobot, konsolidatsiya registrlari, hisob siyosatlari va avvalgi xarid hisob-kitoblari	Aktiv va majburiyatlarni baholash bazasi, shuningdek avval tan olingan gudvill va konsolidatsiya tuzatishlarining hisobi belgilanadi
5	To‘langan haq, sof aktivlar va chiqarilgan kapital o‘rtasida farq mavjudmiA	Bitim shartnomasi, aksiyalar chiqarish hujjatlari, kapitalga oid qarorlar va buxgalteriya ma’lumotlari	Farqning qo‘shilgan kapital, mulkdorlarga taqsimot yoki kapitalning boshqa tarkibiy qismida aks ettirilishi asoslanadi
6	Operatsiya hisobotda qaysi sanadan boshlab va qanday taqdim etiladiA	Bitim sanasiga oid hujjatlar, taqqoslama hisobotlar, hisob siyosati va moliyaviy hisobot izohlari	Taqqoslama ma’lumotlarni taqdim etish tartibi hamda bitimning maqsadi, usuli, summalari, tashqi qarz va nazorat kuchiga ega bo‘lmagan ulushlar bo‘yicha yoritiladigan axborot belgilanadi

Manba: MHXS (IAS) 8 va Kengash (IASB)ning umumiy nazorat ostidagi biznes birlashishlari bo‘yicha loyiha materiallarini tahlil qilish asosida muallif tomonidan tuzilgan [2, 7, 8].

Moliyaviy hisobot izohlarida kamida operatsiyaning tabiati va maqsadi, birlashish sanasi, umumiy nazoratni amalga oshiruvchi tomon, bitimdan oldingi va keyingi tuzilma, tanlangan hisob usuli va uning asosi, qiymatlar manbai, kapitalda tan olingan farq, taqqoslama axborotni tayyorlash tartibi hamda bog‘liq tomonlar bilan operatsiyalar yoritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Agar NewCo tashqi qarz jalb qilgan bo‘lsa, likvidlik va kovenantlarga ta’siri; IPO amalga oshiriladigan bo‘lsa, aksiyalar emissiyasi va emissiya xarajatlari alohida ko‘rsatiladi [5,6].

Muallif taklifiga ko‘ra, guruh hisob siyosatida NewCo ishtirokidagi operatsiyalar uning vazifasi va iqtisodiy mazmuniga qarab uch toifaga ajratilishi lozim. Birinchi toifaga mavjud bitta biznes ustidan yuridik bosh korxona sifatida tashkil etilgan NewCo kiradi. Bunday operatsiya kapitalni qayta tashkil etish sifatida baholanadi. Ikkinchi toifa umumiy nazorat ostidagi bir nechta biznesni qabul qiluvchi NewConi qamrab oladi. Bunday birlashish uchun MHXS (IAS) 8ga muvofiq ishlab chiqilgan hisob siyosati qo‘llanadi. Uchinchi toifaga pul mablag‘lari yoki qarz jalb qilish hisobiga tashqi biznesni sotib oluvchi va mustaqil iqtisodiy vazifani bajaruvchi NewCo kiradi. Operatsiyaning aniq shartlariga qarab, bunday NewCo MHXS (IFRS) 3 bo‘yicha xaridor sifatida tan olinishi mumkin. Ushbu tasnif bir xil yuridik shaklda rasmiylashtirilgan, ammo iqtisodiy mazmuni turlicha bo‘lgan operatsiyalarni o‘zaro farqlash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot MHXSda umumiy nazorat ostidagi biznes birlashishlarini baholash va taqdim etishning maxsus modeli belgilanmaganini ko‘rsatdi. Kengash ushbu loyihani 2024-yilda yangi talablar qabul qilmasdan yakunlagani sababli korxonalar MHXS (IAS) 8ga muvofiq dolzarb, ishonchli va izchil hisob siyosatini ishlab chiqishi lozim. Kengashning 2020-yildagi muhokama hujjatidagi xarid va balans qiymati modellari majburiy MHXS talabi emas, balki hisob siyosatini ishlab chiqishda foydalaniladigan tahliliy manba hisoblanadi.

NewConing yuridik bitimlarda xaridor bo‘lishi uni avtomatik ravishda buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan xaridorga aylantirmaydi. Agar NewCo mavjud bitta biznesning yuridik bosh korxonasi sifatida faqat aksiya yoki ulushlar chiqarsa, operatsiya kapitalni qayta tashkil etish sifatida baholanadi. Mabodo, NewCo tarkibida bir nechta biznes jamlansa, umumiy nazorat ostidagi biznes birlashishi yuzaga keladi va bunda hisob siyosati, ko‘rsatkichlar manbai hamda taqqoslama axborotni taqdim etish tartibini belgilash lozim.

Tadqiqot natijasida quyidagi to‘rtta mualliflik taklifi ishlab chiqildi. Birinchidan, guruh hisob siyosatiga biznes ta’rifi, yakuniy nazorat, NewConing vazifasi, hisobot subyektining davomiyligi va foydalanuvchilarga ta’sirni baholovchi besh bosqichli algoritmni kiritish taklif etildi. Ikkinchidan, avvalgi balans qiymatlari usulida ko‘rsatkichlar manbasini oldindan belgilash va, odatda, yakuniy bosh korxonaning konsolidatsiyalashgan hisobotidagi gudvill hamda tuzatishlarni aks ettirish lozim. Uchinchidan, to‘langan haq bilan sof aktivlar balans qiymati o‘rtasidagi farqni avtomatik ravishda gudvill yoki foyda deb tan olmasdan, iqtisodiy mazmuniga ko‘ra kapital tarkibida aks ettirish taklif etildi. Bunda tashqi qarz guruh hisobotida saqlanib qolgan holda, guruh ichidagi to‘lov eliminatsiya qilinishi kerak. To‘rtinchidan, har bir ahamiyatli umumiy nazorat ostidagi biznes birlashishi yoki NewCo operatsiyasi bo‘yicha nazorat zanjiri, hisob usuli, hisob-kitoblar va yoritiladigan axborotni qamrab oluvchi memorandum tayyorlash maqsadga muvofiq.

Umuman, NewCo operatsiyalarini hisobga olishda yuridik shakldan ko‘ra operatsiyaning iqtisodiy mazmuni, biznes faoliyatining davomiyligi va hisobot subyektidagi haqiqiy o‘zgarishlarni aniqlash

muhimdir. Taklif etilgan algoritm va nazorat hujjatlari bunday operatsiyalarni shaffof, taqqoslanuvchan va tekshiriladigan tarzda hisobga olishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. IFRS Foundation. IFRS 3 Business Combinations. Issued Standards, 2025. URL: https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-3-business-combinations/ (murojaat sanasi: 04.08.2026).
2. IFRS Foundation. IAS 8 Accounting Policies, Changes in Accounting Estimates and Errors. Issued Standards, 2025. URL: https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-8-basis-of-preparation-of-financial-statements/ (murojaat sanasi: 04.08.2026).
3. IFRS Foundation. IFRS 10 Consolidated Financial Statements. Issued Standards, 2025. URL: https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-10-consolidated-financial-statements/ (murojaat sanasi: 04.08.2026).
4. IFRS Foundation. Conceptual Framework for Financial Reporting. London, 2018. URL: https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/conceptual-framework/ (murojaat sanasi: 04.08.2026).
5. IFRS Foundation. IAS 32 Financial Instruments: Presentation. Issued Standards, 2025. URL: https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-32-financial-instruments-presentation/ (murojaat sanasi: 04.08.2026).
6. IFRS Foundation. IAS 24 Related Party Disclosures. Issued Standards, 2025. URL: https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-24-related-party-disclosures/ (murojaat sanasi: 04.08.2026).
7. IASB. Discussion Paper DP/2020/2 Business Combinations under Common Control. IFRS Foundation, London, 2020. URL: https://www.ifrs.org/content/dam/ifrs/project/business-combinations-under-common-control/discussion-paper-bcucc-november-2020.pdf.
8. IASB. Project Summary: Business Combinations under Common Control. IFRS Foundation, April 2024. URL: https://www.ifrs.org/content/dam/ifrs/project/business-combinations-under-common-control/project-summary-bcucc.pdf.
9. Rave C. Business Combinations under Common Control: Practice, Determinants, and Earnings Quality. Berlin: Peter Lang, 2022. DOI: 10.3726/b19704.
10. Tan P.H., Lim C.Y., Zhang T.C. Business Combinations under Common Control. Parts 1–2. ISCA Journal, 2021. URL: https://ink.library.smu.edu.sg/soa_research/1933/.
11. Seah-Tan S. Business Combinations under Common Control: A Controlling Entity Cost Approach. Australian Accounting Review, 2021, 31(4), 328–331. DOI: 10.1111/auar.12354.
12. Bellandi F. Business Combinations under Common Control: The Gain/Loss Group Perspective. International Journal of Business and Management, 2021, 16(11), 59–76. DOI: 10.5539/ijbm.v16n11p59.
13. Oliveira A.A., Rodrigues J.M. Critérios Contábeis acerca das Operações de Business Combination Under Common Control segundo o DP/2020/2 do IASB. Revista de Contabilidade da UFBA, 2023, 17(1). DOI: 10.9771/rcufba.v17i1.53857.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori. URL: https://lex.uz/docs/4746047.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabrdagi PQ-282-son «Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. URL: https://lex.uz/Pages/GetPdf.aspxAfile=LexUz_7967227.pdf.

Матчанов Умирзак Сейтжанович,
PhD, соискатель Ташкентского государственного технического университета
otzma1212@gmail.com
ORCID: 0009-0005-5277-6606

ГОСУДАРСТВЕННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ

Matchanov Umirzak Seytjanovich,
PhD, Toshkent davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi
otzma1212@gmail.com
ORCID: 0009-0005-5277-6606

O‘ZBEKISTON ENERGETIKA SEKTORINI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH: XALQARO TAJRIBA VA ZAMONAVIY MUAMMOLAR

Matchanov Umirzak Seitzhanovich
PhD, Independent Researcher,
Tashkent State Technical University.
otzma1212@gmail.com
ORCID: 0009-0005-5277-6606

STATE REGULATION OF UZBEKISTAN'S ENERGY SECTOR UNDER LIBERALIZATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND CONTEMPORARY CHALLENGES

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston Respublikasi energetika tarmog‘ini liberallashtirish sharoitida davlat tomonidan tartibga solishning zamonaviy yondashuvlari tadqiq etilgan. Elektroenergetika bozorini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rib chiqilgan, davlat tomonidan tartibga solishning xalqaro tajribasi hamda uni milliy sharoitlarga moslashtirish masalalari tahlil qilingan. Raqobat muhitini rivojlantirish, tarif siyosatini takomillashtirish, xususiy investitsiyalarni jalb etish va energetik xavfsizlikni ta’minlash bilan bog‘liq asosiy muammolar aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *davlat tomonidan tartibga solish; elektroenergetika; elektroenergetika bozorini liberallashtirish; energetika siyosati; xalqaro tajriba; elektroenergetika bozori; tariflarni tartibga solish; energetik xavfsizlik; raqobat muhiti.*

Аннотация. *В статье исследуются современные подходы к государственному регулированию энергетического сектора Республики Узбекистан в условиях либерализации отрасли. Рассмотрены основные направления реформирования электроэнергетического рынка, проанализирован международный опыт организации государственного регулирования и его адаптации к национальным условиям. Выявлены ключевые вызовы, связанные с*

развитием конкурентной среды, совершенствованием тарифной политики, привлечением частных инвестиций и обеспечением энергетической безопасности.

Ключевые слова: *государственное регулирование; электроэнергетика; либерализация рынка электроэнергии; энергетическая политика; международный опыт; электроэнергетический рынок; тарифное регулирование; энергетическая безопасность; конкурентная среда.*

Abstract. *This article examines contemporary approaches to the state regulation of the electric power sector in the Republic of Uzbekistan under the conditions of industry liberalization. It explores the main directions of electricity market reform, analyzes international experience in the organization of state regulation, and assesses its adaptation to national conditions. The study identifies the key challenges associated with the development of a competitive market environment, the improvement of tariff policy, the attraction of private investment, and the enhancement of energy security.*

Keywords: *state regulation; electric power industry; electricity market liberalization; energy policy; international experience; electricity market; tariff regulation; energy security; competitive environment.*

Введение

Электроэнергетика является стратегически важной отраслью экономики, определяющей устойчивое развитие промышленности, инвестиционную привлекательность и энергетическую безопасность государства. В условиях глобального энергетического перехода многие страны проводят реформы, направленные на либерализацию электроэнергетических рынков, повышение эффективности государственного регулирования и привлечение частных инвестиций. В Республике Узбекистан осуществляется поэтапное реформирование электроэнергетики, включающее развитие конкурентных механизмов, совершенствование тарифной политики, привлечение независимых производителей электроэнергии и внедрение современных методов управления отраслью. В этих условиях особое значение приобретает формирование эффективной системы государственного регулирования, обеспечивающей баланс интересов государства, бизнеса и потребителей. Международный опыт показывает, что успешная либерализация электроэнергетики возможна только при наличии эффективных институтов регулирования, прозрачной нормативно-правовой базы и последовательной государственной политики. Однако применение зарубежных моделей требует их адаптации к национальным условиям и уровню развития энергетического сектора.

Анализ (обзор) литературы по теме. Теоретические и практические аспекты государственного регулирования и либерализации электроэнергетики нашли отражение в трудах зарубежных ученых, среди которых **П. Джоско [5]**, **Д. Ньюбери [6]**, **Т. Бесли**, **Ж.-Ж [7]. Лаффон** и **Д. Тироль [8]**. Значительный вклад в изучение проблем энергетической политики, энергетической безопасности и рыночных преобразований внесли **Д. Хелм**, **Ф. Скукани** и **Д. Виккерс**. В работах отечественных ученых М.А.Икрамова, А.М.Кадырова, Г.Ж. Аллаевой, Г.А.Хамдамовой, М.С.Саиткомолова [9,10] и других рассматриваются вопросы реформирования электроэнергетического сектора Узбекистана, повышения его инвестиционной привлекательности и совершенствования государственного регулирования.

Методология исследования

Методологической основой исследования послужили современные теории государственного регулирования, институциональной экономики и рыночной либерализации электроэнергетики. В процессе исследования использованы общенаучные и специальные методы, включая системный и сравнительный анализ, методы научного обобщения,

логического и структурно-функционального анализа, а также экономико-статистические методы обработки данных. Для оценки особенностей реформирования электроэнергетики Республики Узбекистан применен сравнительный анализ с опытом стран. Информационной базой исследования послужили нормативно-правовые акты Республики Узбекистан, материалы международных организаций, официальные статистические данные, научные публикации отечественных и зарубежных авторов.

Результат и обсуждение

Узбекистан не является первой страной, реализующей реформы по либерализации электроэнергетической отрасли. За последние десятилетия аналогичные преобразования были проведены в Великобритании, Норвегии, Швеции, Германии, США, Австралии, Турции, Казахстане, Российской Федерации и ряде других государств. Международный опыт свидетельствует, что успешная либерализация требует поэтапного реформирования отрасли, создания независимого регулятора, развития конкурентной среды и сохранения государственного контроля над естественно-монопольными сегментами электроэнергетики [13].

Наиболее показательным считается опыт Великобритании, где в начале 1990-х годов была проведена одна из первых комплексных реформ электроэнергетики. До начала преобразований отрасль имела схожие черты с современной моделью Узбекистана: государство полностью контролировало производство, передачу и распределение электроэнергии, устанавливало тарифы и осуществляло централизованное управление через Центральный совет по электроэнергетике. В результате реформ были разделены функции генерации, передачи и сбыта электроэнергии, создан конкурентный оптовый рынок и независимый регулирующий орган, что способствовало повышению эффективности отрасли и привлечению частных инвестиций.

Значительный интерес представляет опыт стран Северной Европы, прежде всего Норвегии и Швеции, где была сформирована одна из наиболее эффективных моделей либерализованного рынка электроэнергии. Создание общего скандинавского рынка **Nord Pool** обеспечило прозрачное ценообразование, развитие конкуренции и повышение надежности энергоснабжения при сохранении государственного контроля над магистральными электрическими сетями. Особого внимания заслуживает опыт Германии, где либерализация сопровождалась масштабной модернизацией энергетической инфраструктуры и активным развитием возобновляемых источников энергии. Государственное регулирование было переориентировано с прямого управления отраслью на создание рыночных условий, стимулирование инвестиций и обеспечение энергетической безопасности [11].

Для Узбекистана особую практическую ценность представляет опыт Российской Федерации и Казахстана. Электроэнергетические системы этих стран длительное время развивались на основе советской модели управления и характеризовались государственной монополией, централизованным тарифным регулированием и отсутствием конкурентного рынка. В России реформы были реализованы раньше, что позволило накопить значительный опыт по разделению видов деятельности, формированию оптового рынка электроэнергии и совершенствованию государственного регулирования. Казахстан также последовательно внедрил конкурентные механизмы в сфере генерации при сохранении государственного контроля над передачей электроэнергии и регулированием деятельности системного оператора [20].

Анализ международного опыта показывает, что универсальной модели либерализации электроэнергетики не существует. Каждая страна адаптирует реформы к своим экономическим, институциональным и социальным условиям. Для Республики Узбекистан наиболее целесообразным является использование лучших зарубежных практик с учетом национальных особенностей, что позволит минимизировать риски реформ, обеспечить повышение эффективности электроэнергетического комплекса, привлечь инвестиции и укрепить энергетическую безопасность страны.

За последние годы отрасль находится в стадии масштабной трансформации, обусловленной ростом внутреннего спроса на электроэнергию, реализацией программы либерализации энергетического рынка, привлечением частных инвестиций и переходом к низкоуглеродной модели развития. Вместе с тем динамичное развитие экономики и увеличение численности населения формируют новые вызовы, требующие совершенствования механизмов государственного регулирования и модернизации электроэнергетического комплекса.

Нормативно-правовая база последних лет свидетельствует о последовательном формировании институциональных условий для либерализации электроэнергетической отрасли в Республике Узбекистан. Ключевым документом является **Закон Республики Узбекистан «Об электроэнергетике» № ЗРУ-939 от 7 августа 2024 года,** который определяет правовые основы функционирования электроэнергетического рынка, закрепляет принципы развития конкурентной среды, регулирует деятельность участников рынка и создает условия для привлечения частных инвестиций. Важным этапом реформ также стало **Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-166 от 16 июня 2023 года «О дополнительных мерах по внедрению рыночных механизмов в сферу энергетики»,** предусматривающее поэтапную либерализацию рынка электроэнергии, совершенствование тарифной политики и развитие конкурентных отношений в отрасли. Кроме того, **Указ Президента Республики Узбекистан № УП-58 от 28 марта 2024 года «О мерах по ускорению рыночных реформ и гармонизации национального законодательства с требованиями Всемирной торговой организации»** предусматривает дальнейшее совершенствование институциональной среды, повышение прозрачности государственного регулирования и создание эффективных механизмов конкурентного функционирования энергетического рынка.

По данным Министерства энергетики Республики Узбекистан, в 2025 году производство электроэнергии достигло 86,7 млрд кВт/ч, что почти на 6 % превышает показатель предыдущего года. При этом объем производства электроэнергии на солнечных и ветровых электростанциях увеличился более чем в два раза и превысил 10,5 млрд кВт/ч, а совокупная выработка электроэнергии из возобновляемых источников достигла 16,8 млрд кВт/ч [15]. Данные показатели свидетельствуют о постепенном изменении структуры генерации и ускорении энергетического перехода. По оценкам Министерства энергетики и Международного энергетического агентства (IEA), к 2030 году внутренний спрос может превысить 115–117 млрд кВт/ч, что почти на треть выше уровня 2025 года [12]. Основными факторами роста являются ускоренное промышленное развитие, увеличение объемов цифровой экономики, расширение электрификации транспорта, повышение уровня жизни населения и активное развитие жилищного строительства. В этих условиях существующие генерирующие мощности требуют дальнейшего расширения и технологического обновления.

Таблица 1

Основные показатели развития электроэнергетики Республики Узбекистан[1]

Показатель	2023	2024	2025
Производство электроэнергии, млрд кВт/ч	77,9	81,5	86,7
Производство электроэнергии из ВИЭ, млрд кВт/ч	2,5	4,9	16,8
Производство солнечной и ветровой энергии, млрд кВт/ч	1,6	4,9	10,5
Доля ВИЭ в производстве электроэнергии, %	3,2	6,0	19,4
Ввод новых генерирующих мощностей, МВт	1700	2788	более 3000

н.

Анализ данных таблицы показывает, что в 2023–2025 годах электроэнергетическая отрасль демонстрирует устойчивую положительную динамику. Производство электроэнергии увеличилось почти на 11 %, а объем генерации из возобновляемых источников энергии вырос более чем в шесть раз. Это свидетельствует о высокой эффективности государственной политики по диверсификации энергетического баланса и привлечению частных инвестиций в строительство солнечных и ветровых электростанций. Вместе с тем увеличение объемов производства сопровождается опережающим ростом внутреннего спроса, что требует дальнейшего расширения генерирующих мощностей, модернизации электрических сетей и совершенствования механизмов государственного регулирования отрасли.

Проводимые в Республике Узбекистан реформы электроэнергетической отрасли направлены на создание конкурентного рынка, повышение инвестиционной привлекательности и обеспечение энергетической безопасности страны. По данным Министерства энергетики Республики Узбекистан, за январь–ноябрь 2025 года в топливно-энергетический комплекс было привлечено **8,8 млрд долларов США** иностранных инвестиций, из которых **6,3 млрд долларов** направлено в электроэнергетику, **4,7 млрд долларов** – на реализацию проектов в сфере «зеленой» энергетики, а **2,5 млрд долларов** – в нефтегазовую отрасль [15].

В рамках реализации государственной инвестиционной программы в 2025 году предусмотрен запуск **58 крупных энергетических проектов** общей стоимостью **40,5 млрд долларов США**. В их числе строительство пяти солнечных электростанций суммарной мощностью **1413 МВт**, четырех ветровых электростанций мощностью **752 МВт**, шести гидроэлектростанций общей мощностью **168 МВт**, трех тепловых электростанций мощностью **1167,3 МВт**, а также десяти систем накопления энергии общей мощностью **1245 МВт** [15]. Реализация данных проектов направлена на повышение надежности энергоснабжения, диверсификацию структуры генерации и увеличение доли возобновляемых источников энергии в энергетическом балансе страны.

Важной особенностью инвестиционной политики 2025 года стало расширение сотрудничества с ведущими международными энергетическими компаниями и финансовыми институтами. В реализации проектов принимают участие такие компании, как **Masdar (ОАЭ), ACWA Power (Саудовская Аравия), Voltalia и EDF (Франция), TotalEnergies, China Energy, Datang, Siemens Energy, Aksa Enerji и Cengiz Enerji (Турция)** [16]. Их участие способствует внедрению современных технологий, повышению эффективности управления

[1] Составлено по данным Министерства энергетики Республики Узбекистан

проектами и ускорению перехода Узбекистана к конкурентному и экологически устойчивому рынку электроэнергии.

Однако переход от централизованной модели управления к рыночным механизмам сопровождается рядом экономических, институциональных и технологических вызовов, требующих комплексного государственного регулирования. Анализ отечественного и зарубежного опыта позволяет выделить наиболее значимые проблемы, оказывающие влияние на устойчивость функционирования электроэнергетического комплекса.

1. Рост спроса на электроэнергию. Одним из основных вызовов является устойчивый рост внутреннего потребления электроэнергии. По прогнозам к 2030 году спрос может достичь 115–117 млрд кВт/ч, что почти на 35 % превышает уровень 2025 года [12]. Рост обусловлен индустриализацией, цифровизацией, развитием энергоемких производств и увеличением числа потребителей, что требует ускоренного развития генерирующих мощностей и электросетевой инфраструктуры.

2. Высокая степень износа энергетической инфраструктуры. Несмотря на масштабные инвестиции последних лет, значительная часть объектов электроэнергетики была построена в 1970–1980-х годах. Износ энергетической инфраструктуры повышает эксплуатационные расходы, увеличивает потери электроэнергии и снижает надежность энергоснабжения. Модернизация объектов повышает эффективность использования энергоресурсов и сокращает выбросы парниковых газов [18].

3.Совершенствование тарифной политики. Переход к либерализованному рынку невозможен без реформирования системы тарифообразования. В Узбекистане проводится поэтапная тарифная реформа, направленная на установление экономически обоснованных цен при сохранении социальной защиты населения и баланса между финансовой устойчивостью энергетических предприятий и доступностью электроэнергии.

4. Привлечение частных инвестиций. Развитие электроэнергетической отрасли требует значительных капитальных вложений. До 2030 года потребность в инвестициях в электроэнергетический сектор Узбекистана может превысить 40 млрд долларов США. Для их привлечения развиваются механизмы государственно-частного партнерства и независимые производители электроэнергии (IPP), однако необходимы дальнейшее совершенствование законодательства, повышение прозрачности регулирования и снижение инвестиционных рисков [17].

5. Интеграция возобновляемых источников энергии. Ускоренное развитие солнечной и ветровой энергетики является одним из приоритетов государственной политики. К концу 2025 года установленная мощность объектов возобновляемой энергетики значительно увеличилась, а производство электроэнергии на солнечных и ветровых электростанциях превысило 10 млрд кВт/ч [15]. **Вместе с тем зависимость возобновляемых источников энергии от погодных условий требует развития систем накопления энергии, маневренных генерирующих мощностей и интеллектуального управления энергосистемой.**

6. Снижение технологических потерь. Одной из важнейших задач остается сокращение потерь электроэнергии при передаче и распределении. Реализация программ модернизации сетевого хозяйства, внедрение современных силовых трансформаторов, цифровых подстанций и интеллектуальных приборов учета позволит существенно повысить эффективность функционирования распределительных сетей и снизить объем коммерческих потерь.

7. Цифровая трансформация отрасли. В условиях либерализации возрастает значение цифровых технологий. Использование интеллектуальных сетей (Smart Grid), автоматизированных систем коммерческого учета электроэнергии (АСКУЭ), цифровых подстанций, технологий искусственного интеллекта и прогнозной аналитики позволяет повысить надежность энергоснабжения, сократить эксплуатационные расходы и обеспечить прозрачность функционирования рынка электроэнергии.

8. Опыт Великобритании, Норвегии, Германии, Турции и Казахстана показывает, что эффективность либерализации зависит от качества государственного регулирования. Приоритетами являются формирование прозрачной институциональной среды, развитие конкуренции, совершенствование антимонопольного контроля, защита прав потребителей и стимулирование инноваций.

Выводы и предложения

Реформирование электроэнергетической отрасли Узбекистана сопровождается не только положительными изменениями, но и возникновением новых вызовов, обусловленных ростом спроса на электроэнергию, модернизацией инфраструктуры, развитием конкурентной среды и интеграцией возобновляемых источников энергии. В этой связи особую актуальность приобретает анализ ключевых проблем отрасли и определение приоритетных направлений их решения с учетом международного опыта и национальных особенностей.

На основе проведенного анализа в таблице обобщены ключевые вызовы электроэнергетической отрасли Республики Узбекистан и предложены приоритетные направления их решения с учетом международного опыта и национальных особенностей.

Таблица 2

Основные вызовы электроэнергетической отрасли Узбекистана и направления их решения.[2]

Вызовы	Возможные направления решения
Рост спроса на электроэнергию	Ввод новых генерирующих мощностей, развитие накопителей энергии
Износ инфраструктуры	Комплексная модернизация электростанций и электрических сетей
Несовершенство тарифной политики	Переход к экономически обоснованным тарифам при адресной социальной поддержке
Недостаток инвестиций	Развитие ГЧП, привлечение независимых производителей (IPP), совершенствование инвестиционного законодательства
Интеграция ВИЭ	Развитие накопителей энергии, цифровое управление энергосистемой
Потери электроэнергии	Модернизация сетей, внедрение Smart Grid и интеллектуальных счетчиков
Цифровизация отрасли	Развитие цифровых платформ управления и автоматизированных систем учета
Совершенствование государственного регулирования	Создание независимого регулятора, развитие конкурентного рынка и совершенствование нормативно-правовой базы

[2] Составлено автором

Проведенный анализ показывает, что дальнейшее развитие электроэнергетической отрасли Республики Узбекистан напрямую зависит от эффективности проводимых институциональных реформ, совершенствования системы государственного регулирования и формирования современной модели управления отраслью. В условиях динамичного роста спроса на электроэнергию, реализации масштабных инвестиционных проектов и активного перехода к рыночным механизмам особое значение приобретает создание благоприятной институциональной среды, обеспечивающей баланс интересов государства, бизнеса и потребителей.

Либерализация электроэнергетического рынка должна осуществляться комплексно и сопровождаться последовательной модернизацией генерирующей, передающей и распределительной инфраструктуры, широким внедрением цифровых технологий управления, автоматизированных систем учета и мониторинга, а также развитием интеллектуальных энергетических сетей. Не менее важным направлением является расширение участия частного капитала на основе механизмов государственно-частного партнерства, повышения инвестиционной привлекательности отрасли и создания прозрачных, предсказуемых условий для отечественных и зарубежных инвесторов.

Важную роль в повышении эффективности функционирования отрасли играет внедрение современных инструментов государственного регулирования, основанных на принципах экономической эффективности, конкурентности, прозрачности и устойчивого развития. Совершенствование тарифной политики, развитие конкурентной среды, повышение качества корпоративного управления и внедрение современных механизмов регулирования рынка будут способствовать росту производительности, снижению технологических потерь и повышению надежности энергоснабжения.

Использование передового международного опыта с учетом национальных социально-экономических особенностей, ресурсного потенциала и стратегических приоритетов Республики Узбекистан позволит сформировать устойчивую, конкурентоспособную и инвестиционно- привлекательную электроэнергетическую систему. Такая система будет способна обеспечить высокий уровень энергетической безопасности страны, повысить эффективность использования энергетических ресурсов, ускорить переход к экологически устойчивой модели развития и создать необходимые условия для долгосрочного экономического роста, повышения благосостояния населения и укрепления конкурентоспособности национальной экономики.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

[1]. **Закон Республики Узбекистан «Об электроэнергетике» № ЗРУ-939 от 7 августа 2024 года.**

[2] Указ Президента Республики Узбекистан. О Стратегии «Узбекистан – 2030» 11 сентября 2023 г., № УП-158

[3] **Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-166 от 16 июня 2023 года «О дополнительных мерах по внедрению рыночных механизмов в сферу энергетики».**

[4] **Указ Президента Республики Узбекистан № УП-58 от 28 марта 2024 года «О мерах по ускорению рыночных реформ и гармонизации национального законодательства с требованиями Всемирной торговой организации»**

[5] Joskow P. L. Incentive Regulation in Theory and Practice: Electricity Distribution and Transmission Networks // In: Economic Regulation and Its Reform. University of Chicago Press, 2014.

[6] Newbery D. M. Privatization, Restructuring and Regulation of Network Utilities. MIT Press, 1999.

[7] Besley T., Coate S. Independent versus Accountable Regulators: Theory and Evidence // Journal of the European Economic Association. 2003. Vol. 1(5). P. 1176–1206.

[8] Laffont J.-J., Tirole J. A Theory of Incentives in Procurement and Regulation. Cambridge (MA): MIT Press, 1993.

[9] Khamdamova Gavkhar Absamatovna. Energy efficiency in the industrial sector: conceptual foundations and empirical research. American Journal of Business Management, Economics and Banking. ISSN (E): 2832-8078 Volume 32, January – 2025.

[10] Khamdamova Gavkhar Absamatovna. Global practice of applying approaches to energy efficiency improvement in energy companies. International Journal of Management and Economics Fundamental (ISSN: 2771-2257). https://theusajournals.com/index.php/ijmef

[11] Centralized and decentral approaches to succeed the 100% energiewende in Germany in the European context: A model-based analysis of generation, network, and storage investments. Mario Kendziorski, Leonard Göke, Christian von Hirschhausen, Claudia Kemfert, Elmar Zozmann. 2022.

[12] International Energy Agency (IEA). *Uzbekistan Energy Profile*, 2025.

[13] World Bank. Uzbekistan Country Climate and Development Report. Washington, DC, 2024.

[14] Asian Development Bank. Uzbekistan: Energy Sector Assessment, Strategy and Road Map. Manila, 2024.

[15] Министерство энергетики Республики Узбекистан. Итоги деятельности энергетического сектора за 2025 год. Ташкент, 2025.

[16] **Министерство инвестиций, промышленности и торговли Республики Узбекистан.** Инвестиционные проекты в энергетическом секторе Республики Узбекистан, 2025.

[17] **World Bank.** *Uzbekistan to Invest in Modernizing Electricity Distribution Networks with World Bank Support.* 15 May 2025.

[18] **Asian Development Bank (ADB).** *Uzbekistan: Energy Sector Assessment, Strategy and Road Map.* Manila: ADB, 2024.

[19] International Energy Agency (IEA). Energy Policy Review: Uzbekistan. Paris: IEA, 2024.

[20] **International Energy Agency (IEA).** *Russian Electricity Reform: Emerging Challenges and Opportunities.* Paris: OECD/IEA, 2005.

[21] Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан. Социально-экономическое развитие Республики Узбекистан в 2025 году. Ташкент, 2025.

Ёдгоров Хушвакт Мансурович
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
мустақил тадқиқотчиси
yodgorovkhushvaqt@gmail.com
ORCID: 0009-0000-1926-4610

ДОРИ ВОСИТАЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ КОРХОНАЛАРИДА УМУМИЙ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ХАРАЖАТЛАРИ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Ёдгоров Хушвакт Мансурович
Научный соискатель, Самаркандского института
экономики и сервиса
yodgorovkhushvaqt@gmail.com
ORCID: 0009-0000-1926-4610

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ОБЩЕПРОИЗВОДСТВЕННЫХ РАСХОДОВ В ПРЕДПРИЯТИЯ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ПРЕПАРАТОВ

Yodgorov Khushvakt Mansurovich
Scientific applicant, Samarkand Institute of Service
and Economics
yodgorovkhushvaqt@gmail.com
ORCID: 0009-0000-1926-4610

IMPROVEMENT OF ACCOUNTING OF GENERAL PRODUCTION FACILITIES IN A DRUG PRODUCTION ENTERPRISES

Аннотация. Ушбу мақолада дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида умумий ишлаб чиқариш харажатларининг аҳамияти ва жами ишлаб чиқариш харажатлари таркибидаги салмоғи, дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида умумий ишлаб чиқариш хўжаликларининг вазифалари бўйича таснифлаш орқали ҳар бир жараёнларни алоҳида ҳисобга олишга қаратилган янги ишчи счётлар очиш тавсия этилган. Умумий ишлаб чиқариш харажатлари бухгалтерия ҳисобини юритишга оид ишлаб чиқилган мазкур счётлар режасининг бухгалтерия ёзувларида қўлланилиши дори воситалари саноати корхоналарининг амалий мисоллари ёрдамида кўрсатиб берилган.

Калит сўзлар: дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналари, фармацевтика маҳсулотлари, дори воситалари, тайёр маҳсулот, умумий ишлаб чиқариш, дори воситалари ишлаб чиқариш жараёнлари, дори воситалари ишлаб чиқариш харажатлари бухгалтерия ҳисоби.

Аннотация. В данной статье рассматривается важность общих производственных затрат на фармацевтических предприятиях и их доля в совокупных производственных затратах, а также рекомендуется открытие новых рабочих счетов, направленных на раздельный учет каждого процесса путем их классификации по функциям общих производственных мощностей на фармацевтических предприятиях. Применение

разработанного плана счетов для учета общих производственных затрат в бухгалтерском учете иллюстрируется на практических примерах из фармацевтических предприятий.

Ключевые слова: предприятия по производству лекарственных препаратов, фармацевтическая продукция, лекарства, готовая продукция, общее производство, процессы производства лекарственных препаратов, учет себестоимости производства лекарственных препаратов.

Abstract. This article discusses the importance of general production costs in pharmaceutical enterprises and their share in the total production costs, and recommends opening new working accounts aimed at separately accounting for each process by classifying them by the functions of general production facilities in pharmaceutical enterprises. The application of this chart of accounts developed for accounting of general production costs in accounting records is illustrated using practical examples from pharmaceutical enterprises.

Keywords: drug production enterprises, pharmaceutical products, drugs, finished products, general production, drug production processes, drug production costs accounting.

Кириш. Бугунги кунда мамлакат ҳудудида саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришни кенг жорий этиш орқали аҳоли фаровонлигини таъминлаш, уларнинг иш билан бандлик даражасини оширишга қаратилган қатор ислоҳотлар амалга оширилиб келинмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2026 йил 05 февралда қабул қилинган Фармонда “маҳаллий маҳсулотлар ишлаб чиқарилишини кенгайтириш, саноат тармоқлари ва аҳоли истеъмоли учун зарур бўлган маҳсулотларни ўзлаштириш ҳамда ишлаб чиқариш ҳажмларини кўпайтиришда бозор механизмларини кенг жорий қилиш, маҳаллий тадбиркорлик субъектлари ва йирик корхоналар ўртасида саноат кооперациясини тизимли кенгайтириш, давлат харидларида маҳаллий маҳсулотлар харидини рағбатлантириш ҳамда қўллаб-қувватлашни такомиллаштириш”[1] бўйича мақсад ва вазифалар келтирилган. Ушбу мақсад ва вазифалардан келиб чиққан ҳолда айтиш мумкинки, мамлакат иқтисодий ривожи бевосита маҳаллий маҳсулотлар ишлаб чиқарувчи корхоналар фаолияти билан бевосита боғлиқ бўлиб, саноат маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи корхоналар сонини ошириш, маҳаллий маҳсулотлар сифатини ошириш, айниқса озиқ-овқат маҳсулотлари хавфсизлигига эришиш мамлакат олдидаги долзарб вазифаларга айланиб бормоқда. Ушбу маҳсулотлар таркибига дори воситалари алоҳида аҳамият касб этиб, Республикада фаолият кўрсатаётган дори воситалари ишлаб чиқарувчи корхоналарда ишлаб чиқариш жараёнларини халқаро даражада ташкиллаштириш, энг арзон ва сифатли дори воситалари ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш, бунда харажатларни оқилона бошқариш орқали маҳсулотлар таннархини пасайишига олиб келиш каби долзарб вазифалар ётмоқда.

Адабиётлар шарҳи. 2-сон “Захиралар” БҲХСда доимий ва ўзгарувчан устама харажатлар бухгалтерия ҳисобини юритишга оид қоидалар мавжуд. Мазкур халқаро стандартда қуйидаги қоидалар келтирилган: “доимий ишлаб чиқариш устама сарфларининг қайта ишлаш таннархига олиб борилиши ишлаб чиқаришнинг меъёрий қуввати асосида белгиланади. Ўзгарувчан ишлаб чиқариш устама сарфлари ишлаб чиқариш қувватларидан ҳақиқатда фойдаланиш асосида ҳар бир маҳсулот таннархига олиб борилади”[2].

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маҳаллий ишлаб чиқариш ва саноат кооперациясини янги тизим асосида ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. 2026 йил 05 февраль. ПФ-17-сон.

[2] 2-сон “Захиралар” БҲХС. Ўзбекистон Республикаси молия вазирининг 2022 йил 10 ноябрдаги 61-сон буйруғига 3-ИЛОВА.

Хорижий мамлакатлар олимларнинг бу борадиги илмий изланишлари муҳим аҳамиятга эга, жумладан А.В.Ильиналар умумий ишлаб чиқариш харажатларига “ишлаб чиқаришни ташкил этиш, уларни сақлаш ҳамда бошқариш учун умумий ишлаб чиқариш цехлари харажатлари. Умумий хўжалик харажатлари ишлаб чиқаришни бошқариш мақсадида амалга оширилади”[3], деб тавсифлайди.

Б.А.Ҳасанов ва А.А.Хашимов каби олимлар томонидан умумий ишлаб чиқариш харажатлари “одатда, бошқарув ҳисоби тизимида ҳисобот даври ичида умумишлаб чиқариш харажатлари сметаси тузилиб, унга асосан сметадаги харажатлар ҳақиқатда эришилган маҳсулот ҳажми ва ҳақиқий харажатлар билан таққосланиб, тузатиб борилади”[4] деб тавсифланган.

К.Б.Уразов умумишлаб чиқариш харажатларини “барча асосий ва ёрдамчи ишлаб чиқариш цехларини бошқарувига ва уларни ташкил этишга таалуқли бўлган, шунингдек уларга хизмат кўрсатувчи бўлинмаларнинг харажатлари”[5] деб таърифлайди. Мазкур таърифда олимнинг умумий ишлаб чиқариш хўжаликлари кенг кўламли иқтисодий жараёнларда иштирок этиб, барча ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш хўжаликларига таълуқли фаолиятлар бўйича харажатларига оид қарашларини тушуниш мумкин.

Бошқа бир олим А.Н.Махмудов умумий ишлаб чиқариш харажатларини бажарилган ишлаб чиқариш буюртмаларининг қиймати бўйича тақсимлаш масалаларига оид тавсияларини саноат корхоналари мисолида ишлаб чиқган. Олимнинг фикрича, “текширилаётган харажатлардаги ўзгаришлар ва бир қатор билвосита харажатлар хизмат кўрсатиш ва ёрдамчи жараёнларни амалга ошириш соҳаларидан ташқарида пайдо бўлади, яъни тўғридан - тўғри асосий ишлаб чиқариш бўлинмаларида амалга оширилмайди”[6]. Бундан кўриниб турибдики, саноат корхоналарида билвосита харажатлар бошқа хўжаликлар фаолиятини амалга оширишда аҳамиятга молик хизматларни кўрсатади.

Б.Ф.Боронов эса, “ишлаб чиқариш корхоналарида умумишлаб чиқариш харажатлари корхонанинг асосий ва ёрдамчи ишлаб чиқариш бўлимларида ишлаб чиқариш жараёнида қатнашадиган асбоб-ускуналарни сақлаш, уларнинг бутлигини таъминлаш мақсадида ташкил этилади”[7], деб таъкидлайди.

Д.Г.Худайназарова юқоридаги олимлардан фарқли фармацевтика корхоналари фаолиятларини тадқиқ этган ҳолда умумий ишлаб чиқариш харажатлари бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш бўйича илмий ва амалий тавсияларни ишлаб чиқган: “таъминот босқичи таркиби билвосита харажатлардан ташкил топган бўлиб, фармацевтика корхоналарида ушбу харажатларни хом ашё ва материалларнинг бошланғич қийматига олиб бориш усулини ишлаб чиқиш зарурияти мавжуд”[8] деб келтирилган. Бироқ, фармацевтика

[3] Ильина А.В., Ильшева Н.Н. Управленческий учет. Учебное пособие. -Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2016. – 180 с.

[4] Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. –Toshkent. A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. 2005 y. -260 b.

[5] Уразов К.Б., Пўлатов М.Э. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. –Т.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi” -2021, 560 бет. 295-бет.

[6] Махмудов А.Н. Саноат корхоналарида харажатларни маҳсулот таннархига тақсимлаш методологиясини такомиллаштириш истиқболлари. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. -2022, № 3, май-июнь (№ 00059).

[7] Боронов Б.Ф. Маҳсулот таннархини ҳисоблашда умумишлаб чиқариш харажатларининг ўрни ва уларнинг ҳисобини такомиллаштириш // «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали. – Тошкент, 2022. - № 6. 31-42-бетлар.

[8] Xudaynazarova D.G. Farmatsevtika korxonalarida xom ashyo va materiallarning boshlang‘ich qiymatini aniqlashning ilmiy-uslubiy asoslari. // “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnal. – Toshkent, 2025 – yil № 13. – B. 1152-1160

корхоналарида умумий ишлаб чиқариш харажатларининг асосий фаолият жараёнларига таъсири ва фармацевтика маҳсулотлари таннархига олиб боришнинг услубий тартиблари бўйича тавсиялар ишлаб чиқилмаган.

Тадқиқот методологияси. Дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида умумий ишлаб чиқариш харажатлари бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш бўйича олиб борилган тадқиқот ишида илмий абстракциялаш, иқтисодий таҳлил, монографик кузатув, қиёслаш, индукция ва дедукция каби тадқиқот усулларидан фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар муҳокамаси. Олиб борилган илмий изланишлар натижасида дори воситалари ишлаб чиқариш жараёнларининг ўзига хос жиҳатларидан келиб чиққан ҳолда умумий ишлаб чиқариш хўжалиги ва унинг таркибидаги ҳар бир бўлимлар бўйича харажатлар бухгалтерия ҳисобини алоҳида юритиш бўйича тадқиқот ишлари олиб бориш зарурияти мавжуд деб ҳисобланди. Шунинг учун, умумий ишлаб чиқариш харажатларини счётлар режаси ҳамда бухгалтерия ёзувларида акс эттириш бўйича тавсиялар ишлаб чиқилди (1-жадвалга қаранг):

1-жадвал.

Дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида умумий ишлаб чиқариш харажатлари бухгалтерия ҳисобини юритиш бўйича тавсия этилган счётлар режаси[9]

Амалдаги тартиб бўйича счётлар режаси		**Тавсия этилган счётлар режаси**	
Т/р	**Номи**	**Т/р**	**Номи**
2500	**Умумий ишлаб чиқариш харажатлари**	**2500**	**Умумий ишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга олувчи счётлар**
2510	Умумий ишлаб чиқариш харажатлари	2510	Муҳандислик бўлими харажатлари
		2520	**Сифат департаменти харажатларини ҳисобга олувчи счётлар**
		2521	Интеграциялашган бошқарув тизими бўлими харажатлари
		2522	Сифат назорати бўлими харажатлари

Корхоналарда умумий ишлаб чиқариш харажатларини ҳар бир бўлим бўйича алоҳида ҳисобга олиш бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботлари шаффофлигини оширишга хизмат қилади деб ҳисоблаймиз.

Мазкур счётлар режасининг корхоналар бухгалтерия ёзувларида ёритилиши қуйида келтирилган жадвалда ўз аксини топган (2-жадвалга қаранг):

2-жадвал.

“Samarkand-England Eco-Medical” ҚК МЧЖда умумий ишлаб чиқариш харажатлари бухгалтерия ҳисобини юритиш бўйича тавсия этилган счётлар бухгалтерия ёзувларида қўлланилиши[10]

№	**Операция мазмуни**	**Дебет**	**Кредит**	**Минг сўмда**
Муҳандислик бўлимига оид хўжалик операциялари				
1	Муҳандислик бўлими ходимларига иш ҳақи ҳисобланди	2510	6710	88 573,22

[9] Дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналари маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.
[10] Дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналари маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.

2	Муҳандислик бўлими ходимларига ҳисобланган иш ҳақидан ижтимоий солиқ ҳисобланди	2510	6710	10 628,79
3	Муҳандислик бўлимида коммунал тўловлар ҳисобланди	2510	6990	400 983,96
4	“Ҳаво сиқиш компрессори (модел:ZP55-PNB)” ускунасига амортизация ҳисобланди	2510	0230	18 343,27
5	“E7-24 моделли ҳаво филтр” эҳтиёт қисмлари муҳандислик бўлими томонидан ҳисобдан чиқарилди	2510	1040	1 293,92
6	Муҳандислик бўлими харажатлари инфузион дори воситалари тайёрлаш цехига тақсимланди	2011	2510	338 924,7
7	Муҳандислик бўлими харажатлари инфузион дори воситалари бирламчи қадоқлаш цехига тақсимланди	2012	2510	23 288,08
8	Муҳандислик бўлими харажатлари инфузион дори воситалари иккиламчи қадоқлаш цехига тақсимланди	2013	2510	53 645,75
Интеграциялашган бошқарув тизими бўлимига оид хўжалик операциялари				
9	Интеграциялашган бошқарув тизими бўлими ходимларига иш ҳақи ҳисобланди	2521	6710	95 602,55
10	Интеграциялашган бошқарув тизими бўлими ходимларига ҳисобланган иш ҳақидан ижтимоий солиқ ҳисобланди	2521	6520	11 472,30
11	“Намлик ўлчагич (термогигрометр)” ускунасига амортизация ҳисобланди	2521	0210	262,76
12	“Веницит эритмаси 100мл” материаллари интеграциялашган бошқарув тизими бўлими томонидан ҳисобдан чиқарилди	2521	1090	1 939,59
13	“Фармацевтика маҳсулотлари хавфсизлиги маркази” Давлат муассасаси томонидан дори воситаларини руйхатдан ўтказиш бўйича тўловлар ҳисобланди	2521	6990	4 120,00
14	Интеграциялашган бошқарув тизими бўлими харажатлари инфузион дори воситалари тайёрлаш цехига тақсимланди	2011	2521	73 934,97
15	Интеграциялашган бошқарув тизими бўлими харажатлари инфузион дори воситалари бирламчи қадоқлаш цехига тақсимланди	2012	2521	5 080,19
16	Интеграциялашган бошқарув тизими бўлими харажатлари инфузион дори воситалари иккиламчи қадоқлаш цехига тақсимланди	2013	2521	11 702,59
Сифат назорати бўлимига оид хўжалик операциялари				
17	Сифат назорати бўлими ходимларига иш ҳақи ҳисобланди	2522	6710	143 403,75
18	Сифат назорати бўлими ходимларига ҳисобланган иш ҳақидан ижтимоий солиқ ҳисобланди	2522	6520	17 208,45
19	“Инфрақизил стерилизаторли Б2 синфли ламинар ҳаво оқими” ускунасига амортизация ҳисобланди	2522	0230	714,51
20	Дори воситалари таҳлил натижалари учун “метанол ВЭЖХ учун градиент” материали ҳисобдан чиқарилди	2522	1090	2 402,6

21	Дори воситаларини таҳлилдан ўтказиш (аутсорсинг хизматлари) бўйича тўловлар ҳисобланди	2522	6990	3 697,6
22	Сифат назорати бўлими харажатлари инфузион дори воситалари тайёрлаш цехига тақсимланди	2011	2522	109 162,34
23	Сифат назорати бўлими харажатлари инфузион дори воситалари бирламчи қадоқлаш цехига тақсимланди	2012	2522	7 500,73
24	Сифат назорати бўлими харажатлари инфузион дори воситалари иккиламчи қадоқлаш цехига тақсимланди	2013	2522	17 278,46

* 2011, 2012, 2013, 2510, 2521, 2522-счётлар режасининг номланиши 1-жадвалда келтирилган.

Ушбу хўжалик операциялари натижалари дори воситалари таннархига умумий ишлаб чиқариш харажатлари таъсирини таҳлил қилишга, ишлаб чиқариш харажатлари бўйича аниқ ҳисоб-китобларни амалга оширишга, билвосита харажатларни назорат қилиш ва уларни бошқаришга имконият беради.

Тадқиқотлар давомида дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида умумий ишлаб чиқариш харажатлари таркибини таҳлил қилиш мақсадида қуйидаги жадвал ишлаб чиқилди (3-жадвалга қаранг):

3-жадвал.

“Samarkand-England Eco-Medical” ҚК МЧЖда 2026 йил март ойида умумий ишлаб чиқариш харажатлари таркиби[11]

Умумий ишлаб чиқариш хўжалиги таркиби	Моддий харажатлар		Меҳнат ҳақи харажатлари		Бошқа харажатлар	
	Минг сўмда	Улуши %	Минг сўмда	Улуши %	Минг сўмда	Улуши %
Муҳандислик бўлими	94 942,99	64,65	172 234,07	39.90	400 983,96	90,64
Интеграциялашган бошқарув тизими бўлими	1 344,70	0,92	108 002,46	25,02	32 092,93	7,25
Сифат назорати бўлими	50 565,46	34,43	151 453,90	35,08	9 304,80	2,10
Жами:	**146 853,15**	**100**	**431 690,43**	**100**	**442 381,69**	**100**

Ушбу билвосита харажатлар таркибидан кўриш мумкинки, ишлаб чиқариш цехларида харажатларнинг улуши турлича бўлиб, умумий ишлаб чиқариш харажатлари таркибида меҳнат ҳақи ва бошқа харажатларнинг улуши энг катта ҳиссани ташкил этмоқда. Умумий ишлаб чиқариш харажатлари бўлимлар бўйича таҳлил қилинадиган бўлса, унда муҳандислик бўлими бўйича харажатлар барча харажатлар таркиби бўйича энг аҳамиятли ҳисобланади. Корхонада сифат назорати бўлимининг улуши ҳам салмоқли ҳиссани ташкил этиб, моддий ва меҳнат ҳақи харажатлари таркибида жами харажатларнинг учдан бир қисмини ташкил этмоқда. Дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида интеграциялашган бошқарув тизими бўлимининг улуши бошқа бўлимларга нисбатан энг паст кўрсаткич бўлиб ҳисобланади. Бироқ, меҳнат ҳақи харажатлари ушбу бўлимда салмоқли ҳиссани ташкил этиб, жами меҳнат ҳақи харажатларининг тўртдан бирини ташкил этмоқда.

[11] Дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналари маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.

Хулоса. Дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналари фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари инобатга олинган ҳолда олиб борилган илмий изланишлар натижаси асосида қуйидаги илмий хулосаларга келинди.

* дори воситалари ишлаб чиқариш харажатлари бевосита ва билвосита харажатлардан ташкил топган бўлиб, бевосита харажатлар таркибида моддий харажатларнинг улуши бошқа харажат моддаларига нисбатан баланд. Хусусан, мазкур тадқиқот ишида аниқ бўлдики, моддий харажатлар улуши жами бевосита ишлаб чиқариш харажатларнинг 73,2 фоизини ташкил этмоқда. Бироқ, ушбу моддий харажатлар қиймати билвосита харажатлар таркибида энг паст улушни ташкил этиб, 2,1 фоизни ташкил этганлигини кўриш мумкин. Дори воситалари ишлаб чиқариш харажатлари таркибида меҳнат ҳақи харажатлари ўртача 20 фоизни ташкил этиб, тайёр маҳсулотлар таннархига салмоқли ҳиссани ташкил этади. Таҳлиллар яна шуни кўрсатдики, корхоналарда умумий ишлаб чиқариш харажатлари дори воситалари таннархига сезиларли даражада таъсир кўрсатиб, ўртача 27 %ни ташкил этади.

* тадқиқотлар натижасида умумий ишлаб чиқариш хўжалиги ва унинг таркибидаги ҳар бир бўлимлар бўйича харажатлар бухгалтерия ҳисобини алоҳида юритиш мақсадида умумий ишлаб чиқариш харажатларини счётлар режаси ҳамда бухгалтерия ёзувларида акс эттириш бўйича тавсиялар ишлаб чиқилди. Корхоналарда умумий ишлаб чиқариш харажатларини ҳар бир бўлим бўйича алоҳида ҳисобга олиш бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботлари шаффофлигини оширишга хизмат қилади деб ҳисоблаймиз.

* дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида биз томонимиздан тавсия этилган счётлар режаси ва дори воситалари таннархини ҳисоблаш усулларини корхоналарнинг амалиётига жорий этиш орқали дори воситаларини бухгалтерия ҳисобида акс эттириш тартиби ишлаб чиқилди. Мазкур илмий-амалий тавсиялар дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналари бухгалтерия ҳисобида дори воситалари таннархини ушбу маҳсулотларнинг ҳар бир тури бўйича яққол очиб беришга ва ишончли ахборотларни тақдим этишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маҳаллий ишлаб чиқариш ва саноат кооперациясини янги тизим асосида ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. 2026 йил 05 февраль. ПФ-17-сон.

2. 2-сон “Захиралар” БҲХС. Ўзбекистон Республикаси молия вазирининг 2022 йил 10 ноябрдаги 61-сон буйруғига 3-ИЛОВА.

3. Ильина А.В., Ильшева Н.Н. Управленческий учет. Учебное пособие. -Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2016. – 180 с.

4. Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. –Toshkent. A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. 2005 y. -260 b.

5. Уразов К.Б., Пўлатов М.Э. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. –Т.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi” -2021, 560 бет. 295-бет.

6. Махмудов А.Н. Саноат корхоналарида харажатларни маҳсулот таннархига тақсимлаш методологиясини такомиллаштириш истиқболлари. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. -2022, № 3, май-июнь (№ 00059).

7. Боронов Б.Ф. Маҳсулот таннархини ҳисоблашда умумишлаб чиқариш харажатларининг ўрни ва уларнинг ҳисобини такомиллаштириш // «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали. – Тошкент, 2022. - № 6. 31-42-бетлар.

8. Xudaynazarova D.G. Farmatsevtika korxonalarida xom ashyo va materiallarning boshlang‘ich qiymatini aniqlashning ilmiy-uslubiy asoslari. // “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnal. – Toshkent, 2025 – yil № 13. – B. 1152-1160.

9. Боронов, Б. Ф. "Ёғ-мой маҳсулотлари ҳисоби методологиясини такомиллаштириш." *Т.: ТМИ, иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация,-244 б* (2023).

10. Уразов, К. Б., and Б. Ф. Боронов. "РЕСПУБЛИКА ОЗИҚ-ОВҚАТ САНОАТИДА ЁҒ-МОЙ МАҲСУЛОТЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ТУРЛАРИ." *Экономика и социум* 6-2 (97) (2022): 714-719.

11. Боронов, Бобур Фарходович. "Ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобининг назарий ва методологик асосларини такомиллаштириш." *ISSN 2181-3191 VOLUME 1, ISSUE 7 OCTOBER 2022* (2022): 202284

12. Farxodovich, Boronov Bobur, Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, and Yodgorov Xushvaqt Mansurovich. "Farmasevtika korxonalarida buxgalteriya hisobining o‘ziga xos xususiyatlari." *FRONTIERS OF KNOWLEDGE AND INTERDISCIPLINARY DISCOVERY* 1.1 (2025): 282-289

13. Boronov, B. (2019). THEORETICAL AND CONCEPTUAL BASES OF ACCOUNTING FINANCIAL ASSETS. *International Finance and Accounting*, *2019*(4), 6.

14. Боронов, Бобур Фарходович. "ЁҒ-МОЙ САНОАТИ КОРХОНАЛАРИДА БИЛВОСИТА ХАРАЖАТЛАР ҲИСОБИ ВА УЛАРНИНГ ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ." *Экономика и финансы (Узбекистан)* 9 (157) (2022): 21-28.

Избасаров Баходир Эргашевич
Мустақил тадқиқотчи, Тошкент Кимё халқаро университети.
E-mail: izbasarovbahodir71@gmail.com
ORCID: 0009-0006-0174-8995

МҲХС-6 ТАЛАБЛАРИ АСОСИДА ГЕОЛОГИЯ-ҚИДИРУВ ХАРАЖАТЛАРИНИ ҲИСОБГА ОЛИШ УСЛУБИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Избасаров Баходир Эргашевич
Независимый исследователь, Международный университет Кимё в Ташкенте.
E-mail: izbasarovbahodir71@gmail.com
ORCID: 0009-0006-0174-8995

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ УЧЁТА ЗАТРАТ НА ГЕОЛОГОРАЗВЕДОЧНЫЕ РАБОТЫ НА ОСНОВЕ ТРЕБОВАНИЙ МСФО (IFRS) 6

Bahodir Ergashevich Izbasarov
Independent Researcher, Kimyo International University in Tashkent.
E-mail: izbasarovbahodir71@gmail.com
ORCID: 0009-0006-0174-8995

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR ACCOUNTING FOR EXPLORATION COSTS BASED ON THE REQUIREMENTS OF IFRS 6

Аннотация: *Ушбу мақолада геология-қидирув ишларида харажатларни ҳисобга олишнинг халқаро тажрибаси, хусусан, МҲХС-6 "Фойдали қазилмаларни баҳолаш ва қидириш" стандарти талаблари асосида қидирув харажатларини тан олиш, баҳолаш ва ҳисобда акс эттириш масалалари тадқиқ этилган. Геология соҳасида қидирув харажатларининг инвестицион хусусияти, уларни капиталлаштириш мезонлари ҳамда натижасиз қидирув ишлари харажатларини ҳисобдан чиқариш тартиби таҳлил қилинган. Тадқиқот натижасида МҲХС-6 талабларини миллий ҳисоб амалиётига мослаштириш, "Successful Efforts" усули асосида геологик харажатларни иқтисодий натижа билан боғлиқ ҳолда акс эттириш ва қидирув активларининг ҳаққонийлигини таъминлаш бўйича илмий таклифлар ишлаб чиқилган.*

Калит сўзлар: *МҲХС-6, геология-қидирув ишлари, қидирув активлари, харажатларни капиталлаштириш, Successful Efforts усули, бухгалтерия ҳисоби, молиявий ҳисобот, активларни баҳолаш.*

Аннотация: *В данной статье исследован международный опыт учета затрат на геологоразведочные работы, в частности вопросы признания, оценки и отражения в бухгалтерском учете затрат на разведку на основе требований МСФО 6 «Разведка и оценка*

запасов полезных ископаемых». Проанализированы инвестиционный характер затрат на геологоразведочные работы, критерии их капитализации, а также порядок списания затрат по безрезультатным разведочным работам. По результатам исследования разработаны научные предложения по адаптации требований МСФО 6 к национальной практике бухгалтерского учета, отражению геологоразведочных затрат в соответствии с экономическими результатами на основе метода ***Successful Efforts*** *и обеспечению достоверной оценки разведочных активов.*

Ключевые слова: *МСФО 6, геологоразведочные работы, разведочные активы, капитализация затрат, метод* ***Successful Efforts****, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, оценка активов.*

Abstract: *This article examines the international experience of accounting for geological exploration expenditures, particularly the issues of recognition, measurement, and accounting treatment of exploration expenditures based on the requirements of* ***IFRS 6 "Exploration for and Evaluation of Mineral Resources."*** *The study analyzes the investment nature of exploration expenditures in the geological sector, the criteria for their capitalization, and the procedures for writing off expenditures related to unsuccessful exploration activities. Based on the research findings, scientific proposals have been developed to adapt the requirements of IFRS 6 to national accounting practices, recognize geological exploration expenditures in accordance with economic outcomes using the* ***Successful Efforts*** *method, and ensure the reliable measurement of exploration assets.*

Keywords: *IFRS 6, geological exploration activities, exploration assets, capitalization of expenditures, Successful Efforts method, accounting, financial reporting, asset measurement.*

Кириш

Минерал ресурсларни излаш, аниқлаш ва уларнинг иқтисодий жиҳатдан ўзлаштириш имкониятларини баҳолаш билан боғлиқ геология-қидирув ишлари замонавий иқтисодиётда стратегик аҳамиятга эга бўлган йўналишлардан бири ҳисобланади. Ер қаъридан самарали фойдаланиш, янги конларни аниқлаш ва мавжуд минерал-хомашё базасини кенгайтириш мамлакатнинг саноат салоҳияти, энергетик ва иқтисодий хавфсизлиги ҳамда узоқ муддатли ривожланиш истиқболларини белгилаб берувчи муҳим омиллардан саналади.[19] Шу боис геология-қидирув фаолиятига йўналтирилаётган инвестицияларнинг самарадорлигини таъминлаш, улардан фойдаланиш жараёнида шаклланадиган харажатларни тўғри ҳисобга олиш ва молиявий ахборотларнинг шаффофлигини таъминлаш алоҳида илмий ва амалий аҳамият касб этади.

Геология-қидирув ишларининг ўзига хост ия соҳасини ривожлантириш шундан иборатки, мазкур фаолият катта миқдордаги молиявий ресурсларни талаб қилади, бироқ сарфланган маблағларнинг келгусида иқтисодий самара келтириши доимо ҳам кафолатланмайди. Қидирув ишларининг дастлабки босқичларида геологик маълумотларни тўплаш, таҳлил қилиш, бурғилаш ишларини амалга ошириш, лаборатория тадқиқотларини ўтказиш ва фойдали қазилмалар захираларини баҳолаш учун сезиларли харажатлар амалга оширилади. Бироқ ушбу жараёнлар натижасида ҳар доим ҳам саноат аҳамиятига эга бўлган конлар аниқланмаслиги мумкин. Шу сабабли геология-қидирув ишлари юқори даражадаги инвестиция таваккалчилиги мавжуд бўлган фаолият турларидан бири сифатида баҳоланади.

Бундай шароитда геология-қидирув жараёнида юзага келадиган харажатларни бухгалтерия ҳисобида тўғри акс эттириш масаласи муҳим аҳамият касб этади. Чунки қидирув

ишларига сарфланган маблағларнинг қайси қисми келгусида иқтисодий манфаат келтириши мумкин бўлган актив сифатида тан олиниши, қайси қисми эса ҳисобот даври харажатлари сифатида эътироф этилиши молиявий ҳисобот кўрсаткичларига бевосита таъсир қилади.[2] Харажатларни нотўғри таснифлаш ёки уларни асоссиз равишда капиталлаштириш ташкилот активларининг ҳақиқий қийматини бузиб кўрсатиши, молиявий натижаларнинг нотўғри шаклланиши ва инвесторлар томонидан қабул қилинадиган қарорларнинг асосланганлигига салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

Шу нуқтаи назардан геология-қидирув харажатларини ҳисобга олишда уларнинг иқтисодий мазмунини чуқур таҳлил қилиш, харажатларни тан олиш мезонларини белгилаш ва уларни молиявий ҳисоботда ишончли акс эттириш муҳим вазифалардан бири ҳисобланади. Айниқса, қидирув жараёнининг турли босқичларида амалга ошириладиган харажатларнинг хусусияти бир-биридан фарқ қилиши сабабли, уларни ҳисобга олишда умумий ёндашувлардан ташқари соҳанинг ўзига хос хусусиятларига мос келувчи махсус услубий ёндашувларни қўллаш зарур.

Халқаро амалиётда минерал ресурсларни излаш ва баҳолаш билан боғлиқ харажатларни ҳисобга олиш масалалари МҲХС 6 “Фойдали қазилмаларни қидириш ва баҳолаш” (IFRS 6 “Exploration for and Evaluation of Mineral Resources”) стандарти асосида тартибга солинади.[25] Мазкур стандарт геология-қидирув фаолияти билан боғлиқ харажатларни тан олиш, баҳолаш, уларни актив сифатида акс эттириш ва кейинги ҳисобини юритиш бўйича асосий қоидаларни белгилайди.[1] IFRS 6 стандарти ташкилотларга қидирув ва баҳолаш харажатларини ҳисобга олишда муайян ёндашувни танлаш имконини берса-да, ушбу харажатларнинг иқтисодий мазмунини тўғри ифодалаш, активларнинг қадрсизланишини баҳолаш ва молиявий ҳисоботларда ишончли ахборот тақдим этиш талабларини белгилаб беради. [3]

Мазкур стандарт талабларидан келиб чиққан ҳолда халқаро амалиётда геология-қидирув харажатларини ҳисобга олишнинг турли усуллари шаклланган бўлиб, улар орасида “Successful Efforts” усули алоҳида аҳамиятга эга. [20],[21],[22],[23] Ушбу ёндашувга кўра, иқтисодий жиҳатдан самарали натижа берган қидирув ишларига тегишли харажатлар актив сифатида тан олинади, натижасиз деб топилган қидирув ишлари бўйича харажатлар эса ҳисобдан чиқарилади.[4] Мазкур усул харажатлар ва улар натижасида олинган иқтисодий манфаатлар ўртасидаги боғлиқликни янада аниқроқ ифодалаш имконини беради.

Ўзбекистонда ҳам геология соҳасини ривожлантириш, минерал ресурслардан самарали фойдаланиш ва соҳага инвестицияларни жалб қилиш жараёнлари бухгалтерия ҳисобини халқаро талаблар асосида такомиллаштириш заруратини юзага келтирмоқда.[18] Хусусан, геология-қидирув харажатларини ҳисобга олишда МҲХС-6 талабларини миллий ҳисоб амалиётига мослаштириш, қидирув активларини баҳолаш мезонларини такомиллаштириш ва харажатларнинг иқтисодий мазмунига асосланган ҳисоб тизимини шакллантириш долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Шу муносабат билан мазкур мақолада МҲХС-6 талаблари асосида геология-қидирув харажатларини ҳисобга олишнинг услубий жиҳатлари тадқиқ қилиниб, халқаро тажриба ва миллий ҳисоб амалиёти қиёсий таҳлил қилинади ҳамда геология-қидирув харажатларини ҳисобга олиш тизимини такомиллаштиришга қаратилган илмий-амалий таклифлар ишлаб чиқилади.

Адабиётлар шарҳи

Геология-қидирув ишларида харажатларни ҳисобга олиш масалалари бухгалтерия ҳисоби назарияси, молиявий ҳисобот стандартлари ва қазиб чиқариш саноатидаги ҳисоб амалиётининг муҳим йўналишларидан бири сифатида хорижий ва маҳаллий олимлар томонидан кенг ўрганилган. Айниқса, минерал ресурсларни қидириш ва баҳолаш жараёнида юзага келадиган харажатларни тан олиш, уларни актив сифатида шакллантириш, капиталлаштириш мезонларини белгилаш ҳамда молиявий ҳисоботда ишончли акс эттириш масалалари халқаро ҳисоб тизимида алоҳида тадқиқот объекти бўлиб келмоқда.

Геология-қидирув ишларининг иқтисодий хусусияти оддий ишлаб чиқариш жараёнларидан фарқ қилади. Чунки мазкур соҳада амалга оширилган харажатлар келгусида иқтисодий наф келтириши ҳам, муайян сабабларга кўра самарасиз якунланиши ҳам мумкин. Шу сабабли қидирув харажатларини ҳисобга олишда харажат ва актив ўртасидаги чегарани белгилаш, уларнинг келгуси иқтисодий манфаат билан боғлиқлигини баҳолаш ҳамда ҳисоб сиёсатида акс эттириш масалалари бухгалтерия ҳисоби назариясида муҳим илмий йўналиш сифатида шаклланган.

Бухгалтерия ҳисоби назариясининг ривожланиши жараёнида харажатларни тан олиш ва баҳолаш тамойиллари кўплаб иқтисодчи олимларнинг илмий ишларида ўз аксини топган. Жумладан, **Luca Pacioli** томонидан асос солинган иккиёқлама ёзув тизими кейинги даврларда активлар, мажбуриятлар ва харажатларни тизимли ҳисобга олишнинг назарий асосларини шакллантирди.[8] Ушбу ёндашув бухгалтерия ҳисобининг асосий вазифаси сифатида хўжалик операцияларини ишончли акс эттириш, иқтисодий ресурсларнинг ҳаракатини назорат қилиш ва молиявий натижаларни аниқлаш зарурлигини белгилаб берди.

Харажатлар ҳисоби ва бошқарув ҳисоби соҳасидаги замонавий илмий қарашлар **Charles T. Horngren**нинг тадқиқотларида кенг ёритилган. Олим харажатларни иқтисодий мазмунига кўра таснифлаш, уларни юзага келиш сабаблари бўйича таҳлил қилиш ва бошқарув қарорларини қабул қилиш жараёнида харажатлар ахборотидан самарали фойдаланиш масалаларига катта эътибор қаратган.[6] Унинг илмий ёндашувлари геология-қидирув ишларида харажатларнинг турлари, уларнинг шаклланиш босқичлари ва иқтисодий самарадорлигини баҳолаш учун назарий асос бўлиб хизмат қилади.

Қидирув ва баҳолаш харажатларини ҳисобга олишда муҳим илмий йўналишлардан бири харажатларнинг натижа билан боғлиқлигини таъминлаш масаласидир. Бу борада **Robert S. Kaplan** ва **Robin Cooper** томонидан ишлаб чиқилган фаолиятга асосланган калькуляция (Activity-Based Costing - ABC) концепцияси алоҳида аҳамиятга эга.[7] Мазкур ёндашув харажатларни уларни келтириб чиқарувчи фаолият турлари асосида тақсимлашни назарда тутади. Геология-қидирув соҳасида ушбу усулдан фойдаланиш бурғилаш ишлари, геофизик тадқиқотлар, лаборатория таҳлиллари, геологик изланишлар ва бошқа жараёнлар бўйича харажатларни аниқ баҳолаш имконини беради.

Минерал ресурсларни қидириш ва баҳолаш билан боғлиқ ҳисоб масалалари халқаро молиявий ҳисобот тизимида асосан **IFRS 6 “Exploration for and Evaluation of Mineral Resources”** стандарти орқали тартибга солинади. Ушбу стандарт қидирув ва баҳолаш фаолияти билан боғлиқ харажатларни тан олиш, баҳолаш ва молиявий ҳисоботда акс эттиришнинг асосий тамойилларини белгилайди. IFRS 6 стандартининг жорий этилиши қазиб чиқариш саноатида ҳисоб амалиётини халқаро талабларга мувофиқлаштириш, турли мамлакатларда фаолият юритувчи компанияларнинг молиявий ҳисоботларини таққослаш

имкониятини ошириш ва инвесторларга ишончли ахборот тақдим этиш зарурати билан боғлиқ.

Халқаро адабиётларда IFRS 6 талаблари асосида қидирув харажатларини ҳисобга олишнинг бир нечта ёндашувлари тадқиқ қилинган. Улар орасида “**Successful Efforts”** усули ва “**Full Cost”** усули кенг тарқалган ҳисоб усуллари сифатида қаралади. [20],[21],[22],[23] Successful Efforts усулига кўра, фақат иқтисодий жиҳатдан самарали натижа берган қидирув ишлари билан боғлиқ харажатлар актив сифатида капиталлаштирилади, натижасиз қидирув ишларига сарфланган маблағлар эса харажат сифатида ҳисобдан чиқарилади. Бу ёндашув активларнинг ҳақиқий қийматини акс эттириш ва молиявий ҳисоботда ортиқча активлар шаклланишининг олдини олиш имконини беради.

“Full Cost” усули эса маълум бир географик ҳудудда амалга оширилган барча қидирув харажатларини ягона актив сифатида капиталлаштириш имконини беради. Мазкур усул айрим ҳолатларда инвестицияларни узоқ муддатли истиқбол нуқтаи назаридан баҳолаш имконини берса-да, натижасиз қидирув ишлари харажатларининг активлар таркибида сақланиб қолиши эҳтимолини оширади. Шу сабабли халқаро амалиётда ушбу усулларнинг афзаллик ва камчиликлари кенг муҳокама қилиниб келинмоқда.

Қидирув харажатларини ҳисобга олиш масалалари бўйича рус олимлари томонидан ҳам муҳим илмий тадқиқотлар амалга оширилган. Хусусан, **Я.В. Соколов** бухгалтерия ҳисоби назарияси, ҳисоб объектларининг иқтисодий мазмуни ва ҳисоб ахборотининг ишончлилиги масалаларини тадқиқ қилган. Унинг қарашларида бухгалтерия ҳисоби иқтисодий жараёнларни акс эттирувчи ахборот тизими сифатида баҳоланиб, ҳар бир ҳисоб объектининг иқтисодий моҳиятини тўғри белгилаш зарурлиги таъкидланган. [9]

В.Ф. Палий, М.И. Кутер ва **В.Б. Ивашкевич**нинг илмий ишларида харажатларни ҳисобга олиш, бошқарув ҳисоби, активларни баҳолаш ва молиявий ҳисоботни шакллантириш масалалари кенг ёритилган. Уларнинг тадқиқотлари харажатларни таснифлаш, ҳисоб объектларини белгилаш ва ички назорат тизимини такомиллаштириш бўйича муҳим назарий асосларни шакллантирган. [10],[11],[12]

Ўзбекистонлик олимларнинг ишларида ҳам бухгалтерия ҳисоби, аудит ва молиявий ҳисобот тизимини такомиллаштириш масалалари кенг тадқиқ этилган. Хусусан, **Н.К. Ризаев, А.Н. Ибрагимов, М. Пардаев** ва **Р. Дусмуратов**нинг илмий ишларида миллий ҳисоб тизимини халқаро стандартлар талаблари асосида ривожлантириш, бухгалтерия ҳисобининг услубий асосларини такомиллаштириш ва аудит жараёнларини самарали ташкил этиш масалалари ёритилган. [13],[14],[15],[16]

Шу билан бирга, мавжуд илмий тадқиқотларни таҳлил қилиш натижасида шуни таъкидлаш мумкинки, геология-қидирув ишларида айнан МҲХС-6 талаблари асосида харажатларни ҳисобга олиш услубиятини такомиллаштириш масалалари ҳали етарлича тадқиқ этилмаган. Айниқса, қидирув харажатларини геологик объектлар кесимида ҳисобга олиш, “Successful Efforts” усулини миллий амалиётга мослаштириш, қидирув активларининг қадрсизланишини баҳолаш ва уларнинг молиявий ҳисоботда акс эттирилишини такомиллаштириш бўйича илмий-амалий ёндашувлар янада чуқур ўрганишни талаб қилади.

Шу сабабли мазкур тадқиқотда МҲХС-6 талаблари асосида геология-қидирув харажатларини ҳисобга олиш услубиятини такомиллаштириш, халқаро тажрибани миллий ҳисоб амалиёти билан уйғунлаштириш ва соҳада қўллаш мумкин бўлган самарали ҳисоб механизмларини ишлаб чиқиш масалаларига алоҳида эътибор қаратилади.

Методология

Мазкур тадқиқотнинг методологик асоси МҲХС-6 “Фойдали қазилмаларни қидириш ва баҳолаш” стандарти талаблари асосида геология-қидирув харажатларини ҳисобга олиш услубиятини такомиллаштиришга қаратилган назарий ва амалий ёндашувларни қамраб олади. Тадқиқот жараёнида геология-қидирув ишларининг иқтисодий мазмуни, улар билан боғлиқ харажатларнинг шаклланиш хусусиятлари, қидирув активларини тан олиш мезонлари ҳамда халқаро молиявий ҳисобот стандартлари талаблари ўзаро боғлиқ ҳолда ўрганилди.

Геология-қидирув фаолиятининг асосий хусусияти шундан иборатки, ушбу жараёнда амалга оширилган харажатлар келгусида иқтисодий наф келтириши мумкин бўлган активларни шакллантириши ёки натижасиз якунланиши эҳтимоли мавжуд. Шу сабабли тадқиқот методологиясида харажатларнинг иқтисодий моҳиятини аниқлаш, уларни капиталлаштириш ёки ҳисобот даври харажатлари сифатида тан олиш масалаларига алоҳида эътибор қаратилди.

Тадқиқотда илмий билишнинг умумий ва махсус усулларидан фойдаланилди. Хусусан, илмий абстракция, тизимли ёндашув, қиёсий таҳлил, индукция ва дедукция, иқтисодий таҳлил ҳамда меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларни ўрганиш усуллари қўлланилди. Мазкур усуллар орқали геология-қидирув харажатларини ҳисобга олишнинг мавжуд ҳолати баҳоланди, халқаро тажриба ўрганилди ва миллий ҳисоб амалиётини такомиллаштириш бўйича илмий хулосалар шакллантирилди.

Илмий абстракция усули геология-қидирув харажатларининг иқтисодий мазмунини чуқур англаш ва уларни бухгалтерия ҳисоби объекти сифатида тавсифлаш имконини берди. Ушбу усул ёрдамида қидирув жараёнида юзага келадиган турли харажат турлари умумлаштирилиб, уларнинг актив сифатида тан олинишига таъсир этувчи асосий омиллар аниқланди.

Тизимли ёндашув асосида геология-қидирув харажатларини ҳисобга олиш жараёни яхлит тизим сифатида кўриб чиқилди. Бунда қидирув ишларининг бошланишидан тортиб, геологик маълумотларни баҳолаш, қидирув активларини шакллантириш, уларнинг қадрсизланишини аниқлаш ва молиявий ҳисоботда акс эттиришгача бўлган жараёнлар ўзаро боғлиқ ҳолда таҳлил қилинди. Бу ёндашув харажатлар ҳисоби нафақат бухгалтерия вазифаси, балки бошқарув қарорларини қабул қилиш учун муҳим ахборот манбаи эканлигини асослаш имконини берди.

Қиёсий таҳлил усулидан фойдаланиш орқали МҲХС-6 талаблари ва миллий бухгалтерия ҳисоби амалиёти ўртасидаги ўхшаш ҳамда фарқли жиҳатлар ўрганилди. Шунингдек, халқаро амалиётда қўлланиладиган “Successful Efforts” усули, “Full Cost” усули ва бошқа ёндашувларнинг мазмун-моҳияти таҳлил қилиниб, уларнинг геология-қидирув соҳасида қўллаш имкониятлари баҳоланди.

Тадқиқотда индукция ва дедукция усулларидан ҳам самарали фойдаланилди. Индуктив ёндашув орқали геология-қидирув ташкилотларида харажатларни ҳисобга олиш жараёнида учрайдиган алоҳида ҳолатлар ўрганилиб, улар асосида умумий илмий хулосалар ишлаб чиқилди. Дедуктив ёндашув эса МҲХС-6 да белгиланган умумий тамойилларни геология-қидирув харажатларини ҳисобга олиш амалиётига татбиқ этиш имконини берди.

Тадқиқотнинг асосий методологик йўналишларидан бири халқаро молиявий ҳисобот стандартларини таҳлил қилиш ҳисобланади. МҲХС-6 стандартида белгиланган қидирув ва баҳолаш харажатларини тан олиш, уларнинг бошланғич қийматини шакллантириш, кейинги

баҳолаш тартиби ва қадрсизланишини текшириш талаблари ўрганилди. [1],[3] Шу билан бирга, мазкур стандартнинг миллий ҳисоб тизимида қўлланилиши билан боғлиқ услубий масалалар таҳлил қилинди.

Тадқиқотнинг ахборот базасини МҲХС-6 “Фойдали қазилмаларни қидириш ва баҳолаш” стандарти, Ўзбекистон Республикасининг бухгалтерия ҳисоби соҳасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари, миллий бухгалтерия ҳисоби стандартлари, геология соҳасига оид услубий материаллар, хорижий ва маҳаллий олимларнинг илмий ишлари ташкил этди. [17]

Тадқиқотда қўлланилган усулларнинг мазмуни ва улардан фойдаланиш мақсади қуйидаги жадвалда келтирилган.

1-жадвал

Геология-қидирув харажатларини ҳисобга олиш тадқиқотида қўлланилган методологик ёндашувлар[1]

Методологик усуллар	**Усулнинг мазмуни**	**Тадқиқотда қўлланилиш мақсади**
Илмий абстракция	Ўрганилаётган объектнинг муҳим иқтисодий хусусиятларини ажратиб олиш ва умумлаштириш усули	Геология-қидирув харажатларининг иқтисодий мазмунини очиб бериш, уларни ҳисоб объекти сифатида тавсифлаш
Тизимли ёндашув	Объектни ўзаро боғлиқ элементлардан ташкил топган ягона тизим сифатида ўрганиш	Қидирув харажатларининг шаклланиши, тан олиниши ва ҳисоботда акс этиш жараёнларини комплекс таҳлил қилиш
Қиёсий таҳлил	Турли ҳисоб тизимлари ва ёндашувларни солиштириш усули	МҲХС-6 талаблари билан миллий ҳисоб амалиёти ўртасидаги фарқларни аниқлаш
Индукция усули	Алоҳида ҳолатлар асосида умумий илмий хулосалар чиқариш	Геология-қидирув ташкилотларидаги амалий муаммоларни умумлаштириш
Дедукция усули	Умумий назарий қоидаларни муайян ҳолатларга татбиқ этиш	МҲХС-6 тамойилларини геология-қидирув харажатлари ҳисобига жорий этиш имкониятларини баҳолаш
Иқтисодий таҳлил	Харажатларнинг таркиби, динамикаси ва самарадорлигини ўрганиш усули	Қидирув харажатларининг инвестицион хусусияти ва иқтисодий натижадорлигини баҳолаш
Меъёрий-ҳуқуқий таҳлил	Қонунчилик ва стандартлар талабларини ўрганиш усули	МҲХС-6 ва миллий меъёрий ҳужжатлар асосида ҳисоб тизимининг ҳуқуқий асосларини таҳлил қилиш

[1] Тадқиқотчининг ишланмалари

Шундай қилиб, танланган методологик ёндашувлар геология-қидирув харажатларини ҳисобга олишнинг назарий ва амалий жиҳатларини чуқур ўрганиш, МҲХС-6 талабларини миллий ҳисоб амалиёти билан уйғунлаштириш ҳамда соҳада харажатлар ҳисобини такомиллаштириш бўйича илмий асосланган таклифлар ишлаб чиқиш имконини берди.

Натижалар ва муҳокама

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, геология-қидирув ишларида харажатларни ҳисобга олиш жараёни оддий ишлаб чиқариш фаолиятига нисбатан мураккаб иқтисодий хусусиятларга эга бўлиб, уларни молиявий ҳисоботда акс эттиришда махсус услубий ёндашувларни қўллашни талаб қилади. Геология-қидирув ишларининг асосий хусусияти шундаки, ушбу жараёнга йўналтирилган маблағлар келгусида иқтисодий наф келтириши мумкин бўлган қидирув активларини шакллантириши ёки кутилган натижани бермаслиги мумкин.[5] Шу сабабли мазкур харажатларни ҳисобга олишда уларнинг иқтисодий мазмунини тўғри баҳолаш, актив сифатида тан олиш мезонларини белгилаш ва молиявий ҳисоботларда ҳаққоний акс эттириш муҳим аҳамият касб этади.[23]

Таҳлиллар натижасида аниқландики, миллий ҳисоб амалиётида геология-қидирув харажатларини акс эттириш масалаларида айрим услубий муаммолар мавжуд. Хусусан, қидирув ва баҳолаш ишлари билан боғлиқ харажатларни капиталлаштириш, уларни жорий давр харажатлари сифатида тан олиш ҳамда натижасиз қидирув ишлари бўйича харажатларни ҳисобдан чиқариш жараёнларида ягона ёндашувнинг тўлиқ шаклланмаганлиги кузатилмоқда. Бу эса турли ташкилотларда ҳисоб сиёсатларининг фарқ қилишига, активлар қийматининг нотўғри шаклланишига ва молиявий ҳисобот кўрсаткичларининг таққосланувчанлиги пасайишига олиб келиши мумкин.

МҲХС-6 “Фойдали қазилмаларни қидириш ва баҳолаш” стандарти талабларини ўрганиш натижасида мазкур стандарт геология-қидирув харажатларини ҳисобга олишда корхоналарга муайян ҳисоб сиёсати доирасида қарор қабул қилиш имкониятини бериши аниқланди.[20] Шу билан бирга, стандарт қидирув активларини тан олишда харажатларнинг келгуси иқтисодий наф келтириш эҳтимоли, уларнинг ишончли баҳоланиши ва актив сифатида назорат қилиниши каби мезонларга алоҳида аҳамият қаратади.

Тадқиқот жараёнида геология-қидирув харажатларини ҳисобга олишда “Successful Efforts” усулини қўллаш имкониятлари ҳам таҳлил қилинди.[21] Мазкур ёндашувнинг асосий афзаллиги шундаки, у қидирув ишларининг ҳақиқий иқтисодий натижасини ҳисобда акс эттириш имконини беради. Унга кўра, фақат истиқболли ва келгусида даромад олиш имкониятини яратувчи объектлар бўйича харажатлар капиталлаштирилади, иқтисодий самара бермаган қидирув ишларига сарфланган маблағлар эса ҳисобот даври харажатлари сифатида тан олинади. Бу эса активларнинг ортиқча баҳоланишининг олдини олиб, молиявий ҳисобот ишончлилигини оширишга хизмат қилади.

Геология-қидирув харажатларини таҳлил қилиш натижасида уларни ҳисобга олишда қуйидаги асосий муаммолар ва уларни бартараф этиш йўналишлари аниқланди.

2-жадвал

МҲХС-6 талаблари асосида геология-қидирув харажатларини ҳисобга олишда аниқланган муаммолар ва такомиллаштириш йўналишлари2

Т/р	Аниқланган муаммо	Муаммонинг келиб чиқиш сабаблари[2]	Таклиф этилаётган такомиллаштириш йўналиши	Кутилаётган самара
1	Қидирув харажатларини актив ёки давр харажати сифатида тан олишда ягона ёндашувнинг мавжуд эмаслиги	Геология-қидирув ишларининг ноаниқ натижага эга эканлиги ва баҳолаш мезонларининг етарли даражада ишлаб чиқилмаганлиги	МҲХС-6 талаблари асосида харажатларни тан олиш мезонларини аниқ белгилаш	Молиявий ҳисоботда активлар ва харажатларнинг ҳаққоний акс этиши таъминланади
2	Қидирув активларининг баҳоланишида услубий фарқларнинг мавжудлиги	Миллий ҳисоб амалиётида халқаро ёндашувларнинг тўлиқ жорий этилмаганлиги	Successful Efforts усули элементларини миллий ҳисоб тизимига мослаштириш	Иқтисодий самара бермаган объектлар бўйича ортиқча капиталлаштириш камаяди
3	Харажатларни геологик объектлар кесимида таҳлил қилиш имкониятининг чекланганлиги	Аналитик ҳисоб тизимининг етарлича ривожланмаганлиги	Харажатларни қидирув майдонлари, геологик объектлар ва лойиҳалар бўйича алоҳида ҳисобга олиш	Бошқарув қарорларининг асосланганлиги ва харажатлар назорати яхшиланади
4	Натижасиз қидирув ишлари бўйича харажатларни ҳисобдан чиқариш механизмининг такомиллашмаганлиги	Қидирув натижаларини баҳолаш ва қадрсизланишни аниқлаш жараёнидаги мураккабликлар	Қидирув активларининг қадрсизланишини баҳолаш тартибини такомиллаштириш	Активлар қиймати реал ҳолатга мос равишда шаклланади
5	Рақамли ҳисоб ва назорат воситаларидан фойдаланиш даражасининг пастлиги	Автоматлаштирилган ҳисоб тизимларининг чекланган қўлланилиши	Электрон ҳисоб платформалари ва рақамли аудит технологияларини жорий этиш	Ҳисоб маълумотларининг тезкорлиги ва шаффофлиги ошади

Жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, геология-қидирув харажатларини ҳисобга олишдаги асосий муаммолар нафақат бухгалтерия ҳисобининг техник жиҳатлари,

[2] Тадқиқотчининг ишланмалари

балки харажатларнинг иқтисодий мазмунини тўғри баҳолаш билан ҳам боғлиқ. Шу сабабли мазкур соҳада ҳисоб тизимини такомиллаштириш жараёнида халқаро стандартлар талабларини миллий иқтисодий шароитлар билан уйғунлаштириш муҳим аҳамият касб этади.

Тадқиқот натижасида шу хулосага келиндики, МҲХС-6 талабларини миллий ҳисоб амалиётига татбиқ этиш геология-қидирув ишларида харажатларнинг шаффоф ва ишончли акс эттирилишини таъминлаш имконини беради. Айниқса, қидирув активларини тан олишда аниқ мезонларни белгилаш, уларнинг қадрсизланишини мунтазам баҳолаш ва харажатларни натижалар билан боғлиқ ҳолда ҳисобга олиш молиявий ҳисобот сифатини оширади.

Шунингдек, геология-қидирув харажатларини аналитик ҳисобга олиш тизимини такомиллаштириш орқали ҳар бир қидирув объекти бўйича харажатлар самарадорлигини баҳолаш имконияти кенгаяди. Бу эса нафақат бухгалтерия ҳисобининг ахборот функциясини кучайтиради, балки инвестиция қарорларини қабул қилиш жараёнида раҳбарият ва манфаатдор томонлар учун ишончли маълумотлар базасини шакллантиради.

Умуман олганда, тадқиқот натижалари МҲХС-6 талаблари асосида геология-қидирув харажатларини ҳисобга олиш услубиятини такомиллаштириш учун комплекс ёндашув зарурлигини кўрсатди. Халқаро тажрибани миллий ҳисоб амалиётига мослаштириш, Successful Efforts усулидан самарали фойдаланиш, аналитик ҳисобни ривожлантириш ва рақамли технологияларни жорий этиш соҳадаги ҳисоб тизимининг самарадорлиги ҳамда молиявий ҳисоботларнинг ишончлилигини оширишга хизмат қилади.

Хулоса

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, геология-қидирув ишларида харажатларни ҳисобга олиш масаласи бухгалтерия ҳисобининг энг мураккаб ва ўзига хос йўналишларидан бири ҳисобланади. Чунки мазкур соҳада амалга ошириладиган харажатлар оддий ишлаб чиқариш харажатларидан фарқли равишда юқори даражадаги ноаниқлик, катта инвестиция ҳажми ва узоқ муддатли иқтисодий самара кутиш жараёни билан тавсифланади. Шу сабабли геология-қидирув ишларига сарфланган маблағларнинг бухгалтерия ҳисобида тўғри акс эттирилиши нафақат ҳисобот маълумотларининг ишончлилиги, балки инвестиция қарорларининг асосланганлиги ва корхона молиявий ҳолатининг ҳаққоний баҳоланиши учун ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Тадқиқот давомида МҲХС-6 “Фойдали қазилмаларни қидириш ва баҳолаш” стандарти талаблари асосида геология-қидирув харажатларини ҳисобга олишнинг назарий ва услубий жиҳатлари ўрганилди.[1],[2] Таҳлиллар натижасида мазкур стандарт қидирув ва баҳолаш фаолияти билан боғлиқ харажатларни тан олиш, уларни актив сифатида шакллантириш, кейинги баҳолаш ва молиявий ҳисоботларда акс эттириш бўйича муҳим қоидаларни белгилаши аниқланди. Шу билан бирга, МҲХС-6 корхоналарга ҳисоб сиёсатини шакллантиришда муайян эркинлик берса-да, харажатларнинг иқтисодий мазмунини тўғри баҳолаш, активларнинг ҳаққонийлигини таъминлаш ва молиявий ҳисоботнинг шаффофлигини оширишни талаб қилади.

Тадқиқот натижасида геология-қидирув харажатларини ҳисобга олишда асосий эътибор харажатларни капиталлаштириш ва уларни жорий давр харажатлари сифатида тан олиш ўртасидаги тўғри чегарани белгилашга қаратилиши лозимлиги асосланди. Амалиётда қидирув жараёнида амалга оширилган барча харажатларни актив сифатида эътироф этиш активларнинг сунъий равишда оширилишига, аксинча, барча харажатларни дарҳол ҳисобдан чиқариш эса корхонанинг ҳақиқий инвестицион салоҳиятини нотўғри акс эттириши мумкин.

Шу боис харажатларни тан олишда уларнинг келгусида иқтисодий наф келтириш эҳтимоли, қидирув натижалари ва геологик объектнинг истиқболлилиги асосий мезон сифатида қаралиши зарур.

Мақолада халқаро амалиётда кенг қўлланиладиган “Successful Efforts” усулининг геология-қидирув харажатларини ҳисобга олишдаги аҳамияти ҳам ўрганилди.[20],[21],[22] Ушбу усулнинг асосий устунлиги шундаки, у харажатларни ҳақиқий иқтисодий натижа билан боғлиқ ҳолда акс эттириш имконини беради. Яъни, истиқболли деб топилган ва келгусида даромад олиш имкониятини яратувчи қидирув объектлари бўйича харажатлар капиталлаштирилади, иқтисодий самара бермаган объектларга тегишли харажатлар эса ҳисобдан чиқарилади. Бу ёндашув молиявий ҳисоботларда активларнинг ҳаққоний қийматини шакллантириш ва манфаатдор фойдаланувчилар учун ишончли ахборот тақдим этиш имконини беради.

Шунингдек, тадқиқот натижалари геология-қидирув харажатларини ҳисобга олишда аналитик ҳисоб тизимини такомиллаштириш зарурлигини кўрсатди. Харажатларни фақат умумий кўринишда акс эттириш уларнинг самарадорлигини баҳолаш, алоҳида қидирув объектлари бўйича натижадорликни аниқлаш ва бошқарув қарорларини қабул қилиш имкониятларини чеклайди. Шу муносабат билан харажатларни геологик лойиҳалар, қидирув майдонлари, харажат марказлари ва технологик жараёнлар кесимида юритиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Бундай ёндашув корхона раҳбариятига мавжуд ресурслардан самарали фойдаланиш ва инвестиция йўналишларини белгилашда муҳим ахборот манбаи бўлиб хизмат қилади.

Тадқиқот натижаларидан келиб чиқиб, геология-қидирув харажатларини ҳисобга олиш тизимини такомиллаштириш учун МҲХС-6 талабларини миллий бухгалтерия ҳисоби амалиётига босқичма-босқич мослаштириш зарурлиги аниқланди.[1],[17],[18] Бунда халқаро стандартларни тўғридан-тўғри жорий этиш билан чекланиб қолмасдан, миллий иқтисодиёт шароити, геология соҳасининг ташкилий хусусиятлари ва корхоналарнинг ҳисоб юритиш имкониятларини инобатга олган ҳолда услубий тавсиялар ишлаб чиқилиши мақсадга мувофиқ.

Тадқиқот асосида қуйидаги илмий-амалий таклифларни шакллантириш мумкин:

геология-қидирув харажатларини тан олиш ва баҳолаш бўйича МҲХС-6 талабларига асосланган ягона услубий ёндашувни шакллантириш;

қидирув активларини капиталлаштиришда иқтисодий самарадорлик ва келгуси наф олиш имкониятини баҳолаш мезонларини аниқ белгилаш;

“Successful Efforts” усули элементларини миллий ҳисоб амалиётига мослаштириш ва натижасиз қидирув ишлари харажатларини ўз вақтида ҳисобдан чиқариш механизмларини такомиллаштириш;

геология-қидирув харажатларини объектлар ва лойиҳалар кесимида юритиш имконини берувчи аналитик ҳисоб тизимини ривожлантириш;

қидирув активларининг қадрсизланишини баҳолаш ва уларни молиявий ҳисоботда ҳаққоний акс эттириш бўйича назорат механизмларини кучайтириш;

рақамли бухгалтерия тизимлари ва автоматлаштирилган аудит воситаларидан фойдаланиш орқали ҳисоб жараёнларининг шаффофлиги ва самарадорлигини ошириш.

Умуман олганда, МҲХС-6 талаблари асосида геология-қидирув харажатларини ҳисобга олиш услубиятини такомиллаштириш корхоналарнинг молиявий ҳисоботларида ишончли ва таққосланадиган ахборот шаклланишига, қидирув активларининг ҳаққоний

баҳоланишига ҳамда инвестиция қарорларининг сифатини оширишга хизмат қилади. Халқаро тажрибани миллий ҳисоб амалиёти билан уйғунлаштириш, харажатларни иқтисодий натижа билан боғлиқ ҳолда акс эттириш ва замонавий ҳисоб технологияларини жорий этиш геология соҳасида бухгалтерия ҳисобининг самарадорлигини оширишнинг муҳим шартларидан бири ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. International Accounting Standards Board (IASB). IFRS 6 Exploration for and Evaluation of Mineral Resources. London: IFRS Foundation, 2025.

2. International Accounting Standards Board (IASB). Conceptual Framework for Financial Reporting. London: IFRS Foundation, 2018.

3. International Accounting Standards Board (IASB). IAS 36 Impairment of Assets. London: IFRS Foundation, 2025.

4. International Accounting Standards Board (IASB). IAS 16 Property, Plant and Equipment. London: IFRS Foundation, 2025.

5. International Accounting Standards Board (IASB). IAS 38 Intangible Assets. London: IFRS Foundation, 2025.

6. Horngren C.T., Datar S.M., Rajan M.V. Cost Accounting: A Managerial Emphasis. 16th ed. Pearson Education, 2018.

7. Kaplan R.S., Cooper R. Cost & Effect: Using Integrated Cost Systems to Drive Profitability and Performance. Boston: Harvard Business School Press, 1998.

8. Pacioli L. Summa de Arithmetica, Geometria, Proportioni et Proportionalità. Venice, 1494.

9. Sokolov Я.В. Основы теории бухгалтерского учета. Москва: Финансы и статистика, 2005.

10. Палий В.Ф. Международные стандарты финансовой отчетности. Москва: ИНФРА-М, 2019.

11. Кутер М.И. Теория бухгалтерского учета. Москва: Финансы и статистика, 2018.

12. Ивашкевич В.Б. Бухгалтерский управленческий учет. Москва: Магистр, 2019.

13. Ризаев Н.К. Молиявий ҳисоб ва халқаро стандартлар асосида уни такомиллаштириш масалалари. Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2020.

14. Ибрагимов А.Н. Бухгалтерия ҳисоби назарияси. Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2021.

15. Пардаев М.Қ. Бухгалтерия ҳисоби назарияси. Тошкент: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси адабиёт жамғармаси нашриёти, 2020.

16. Дусмуратов Р.Д. Аудит назарияси ва амалиёти. Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2021.

17. Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонуни. ЎРҚ-404-сон, 13 апрель 2016 йил (кейинги ўзгартиш ва қўшимчалар билан).

18. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ер қаъридан фойдаланиш ва геология соҳасини ислоҳ қилишга оид фармон ва қарорлари. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси (lex.uz).

19. Ўзбекистон Республикаси Кончилик кодекси (амалдаги таҳрир).

20. Deloitte. IFRS in Your Pocket 2024. London: Deloitte IAS Plus, 2024.

21. KPMG. Insights into IFRS. 22nd ed. KPMG International, 2024.

22. Ernst & Young (EY). International GAAP 2024. John Wiley & Sons, 2024.

23. PwC. Manual of Accounting – IFRS 2024. PricewaterhouseCoopers, 2024.

24. United Nations. United Nations Framework Classification for Resources (UNFC). Geneva: UNECE, 2023.

25. Society of Petroleum Engineers (SPE), World Petroleum Council (WPC), American Association of Petroleum Geologists (AAPG), Society of Petroleum Evaluation Engineers (SPEE). Petroleum Resources Management System (PRMS). 2018.

Xujanazarova Nargis Shohmurodovna,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
email: nargizanazarova933@gmail.com
ORCID:0000-0002-4129-7627

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY, TARIXIY, ZAMONAVIY VA MOLIYAVIY QARASHLARI EVOLYUTSIYASI

Хужаназарова Наргис Шохмуродовна,
Исследователь Ташкентского государственного экономического университета,
email: nargizanazarova933@gmail.com
ORCID:0000-0002-4129-7627

ЭВОЛЮЦИЯ НАУЧНЫХ, ИСТОРИЧЕСКИХ, СОВРЕМЕННЫХ И ФИНАНСОВЫХ ВЗГЛЯДОВ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Khujanazarova Nargis Shohmurodovna,
Tashkent State University of Economics,
independent researcher,
email: nargizanazarova933@gmail.com
ORCID:0000-0002-4129-7627

THE EVOLUTION OF SCIENTIFIC, HISTORICAL, CONTEMPORARY, AND FINANCIAL PERSPECTIVES ON ENSURING FOOD SECURITY

Annotatsiya.
Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi vaqt o'tishi bilan sezilarli darajada rivojlanib, oddiy oziq-ovqat yetishmovchiligining oldini olish masalasidan iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy, texnologik va ekologik omillarni qamrab oluvchi kompleks tizimga aylandi. Dastlab asosiy e'tibor oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmini oshirish va ocharchilik xavfini kamaytirishga qaratilgan bo'lsa, agrar fan, sug'orish, mexanizatsiya, biotexnologiya va "Yashil inqilob" rivoji natijasida qishloq xo'jaligi mahsuldorligi sezilarli oshdi. Shu bilan birga, tuproq degradatsiyasi, suv tanqisligi va ekologik muammolar kabi yangi xavflar ham kuchaydi. Bugungi kun talabi oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat mahsulotlarning mavjudligi, balki ularning aholiga iqtisodiy jihatdan qulayligi, sifati, ozuqaviy qiymati va barqaror ishlab chiqarilish xalqaro standartlarga rioya qilish, sun'iy intellekt, aniq dehqonchilik, IoT, masofadan zondlash va raqamli monitoring kabi texnologiyalar resurslardan samarali foydalanish hamda ishlab chiqarish barqarorligini oshirishda muhim vositaga aylanmoqda. Investitsiyalar, imtiyozli kreditlar, sug'urta va davlat hamda xususiy moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari alohida ahamiyatga ega. Shu sababli zamonaviy oziq-ovqat xavfsizligi ilm-fan, innovatsiya, samarali siyosat va barqaror moliyalashtirishni yagona tizimda uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, ilmiy qarashlar, tarixiy evolyutsiya, zamonaviy yondashuvlar, qishloq xo'jaligi moliyasi, investitsiyalar, oziq-ovqat tizimlari, chidamlilik, barqaror rivojlanish.

Аннотация.

Понятие продовольственной безопасности со временем претерпело значительные изменения, трансформировавшись из задачи предотвращения дефицита продовольствия в комплексную систему, охватывающую экономические, социальные, научные, технологические и экологические аспекты. Изначально основное внимание уделялось увеличению объемов производства продовольствия и снижению риска голода. Однако развитие аграрной науки, ирригации, механизации, биотехнологий и достижения «Зеленой революции» способствовали существенному росту сельскохозяйственной продуктивности. Одновременно усилились новые вызовы, связанные с деградацией почв, дефицитом водных ресурсов и экологическими проблемами. В современных условиях продовольственная безопасность предполагает не только физическую доступность продуктов питания, но и их экономическую доступность для населения, высокое качество, питательную ценность, устойчивость производства и соблюдение международных стандартов. Такие современные технологии, как искусственный интеллект, точное земледелие, Интернет вещей (IoT), дистанционное зондирование и цифровой мониторинг, становятся важными инструментами повышения эффективности использования ресурсов и устойчивости сельскохозяйственного производства. Особое значение также приобретают инвестиции, льготное кредитование, страхование, а также механизмы государственной и частной финансовой поддержки. В связи с этим современное обеспечение продовольственной безопасности требует комплексного объединения научных достижений, инноваций, эффективной государственной политики и устойчивых механизмов финансирования в рамках единой системы.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, развитие сельского хозяйства, научные подходы, историческая эволюция, современные подходы, финансирование сельского хозяйства, инвестиции, продовольственные системы, устойчивость, устойчивое развитие.

Annotation.

The concept of food security has undergone substantial transformation over time, evolving from a primary concern with preventing food shortages into a comprehensive framework encompassing economic, social, scientific, technological, and environmental dimensions. In its early stages, attention was largely focused on increasing food production and reducing the risk of hunger. However, advances in agricultural science, irrigation, mechanization, biotechnology, and the Green Revolution significantly increased agricultural productivity. At the same time, new challenges emerged, including soil degradation, water scarcity, and growing environmental pressures. Today, food security encompasses not only the physical availability of food but also its economic accessibility, quality, nutritional value, sustainability of production, and compliance with international standards. Emerging technologies such as artificial intelligence, precision agriculture, the Internet of Things (IoT), remote sensing, and digital monitoring are becoming essential tools for improving resource efficiency and strengthening the sustainability and resilience of agricultural production. Financial mechanisms, including investment, concessional lending, agricultural insurance, and public and private financial support, are also becoming increasingly important. Therefore, ensuring food security in the modern era requires an integrated approach that combines scientific advances, technological innovation, effective public policies, and sustainable financing mechanisms within a unified and resilient food system.

Keywords: food security, agricultural development, scientific approaches, historical evolution, contemporary approaches, agricultural finance, investment, food systems, resilience, sustainable development.

KIRISH

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarda mo`ljallangan Yangi O`zbekiston taraqqiyot strategiyasi to`g`risida” gi farmonida [1], mamlakat agrar sohasini barqaror rivojlantirish va iqtisodiy o`sish sur`atlarini oshirishga qaratilgan ustuvor yo`nalishlar belgilab berilgan. Xususan, qishloq xo`jaligida yillik o`sish darajasini kamida 5 foizga yetkazish, yuqori qo`shilgan qiymatli va eksportbop mahsulotlar yetishtirish hajmini kengaytirish, meva – sabzavotchilikni ilmiy va innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish hamda mavjud resurs va ishlab chiqarish salohiyatidan to`liq foydalanish orqali mahalliy sanoat tarmoqlarining eksport salohiyatini kuchaytirish vazifalari aniq belgilangan. Mazkur chora-tadbirlar agrar sektorda qo`shimcha qiymat zanjirini shakilantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar taklifini ko`paytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qishloq xo`jaligida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, investitsiya muhitini yaxshilash va zamonaviy infratuzilmalarni joriy etish orqali mamlakat iqtisodiyotida barqaror o`sishni ta`minlash ko`zda tutilgan. Bugungi kunda O`zbekiston Respublikasining turli hududlarida oziq-ovqat xavfsizligini ta`minlash hamda uning moliyaviy qo`llab-quvvatlash tizimini shakllantirish va takomillashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Dissertatsiya tadqiqot ishi nazariy va uslubiy asoslari ilmiy jihatdan mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, tovar ayirboshlash jarayonlarini jadallashtirish, shuningdek agrar sohada innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xorijiy investitsiyalarini jalb qilish mexanizmlarini ilmiy-amaliy jihatdan ishlab chiqarishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlarda oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi asosan, ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan yondashuvdan ko‘p o‘lchovli iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, moliyaviy va institutsional tizimga aylandi. Uning zamonaviy talqini nafaqat oziq-ovqat mahsulotlarining jismoniy mavjudligini, balki aholining iqtisodiy jihatdan ulardan foydalanish imkoniyati, xarid qila olish qobiliyati, ta’minot barqarorligi, ishlab chiqarish tizimlarining barqarorligi hamda oziq-ovqat bozorlarining ichki va tashqi shoklarga nisbatan chidamliligini ham qamrab oladi. Shu sababli oziq-ovqat xavfsizligini tahlil qilish iqtisodiy tafakkurning tarixiy rivojlanishini zamonaviy moliyaviy, texnologik va ma’lumotlarga asoslangan resurslarni taqsimlash mexanizmlari bilan integratsiya qilish imkonini beruvchi fanlararo iqtisodiy yondashuvni talab etadi. Oziq-ovqat xavfsizligini tushunishning intellektual asoslari XVIII asr oxiri va XIX asr davomida shakllangan klassik iqtisodiy tafakkurning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur davr Sanoat inqilobi, bozorlarning kengayishi, demografik o‘zgarishlar hamda qishloq xo‘jaligi va sanoat ishlab chiqarishidagi tub transformatsiyalar bilan tavsiflanadi. Adam Smit [2], Jan-Batist Sey [3], David Rikardo [4], Jeremi Bentam [5], Robert Ouen [6], Antuan Ogyusten Kurno [7], Pyer-Fransua Verhulst [8], Tomas Robert Maltus [9], Jon Styuart Mill [10] va boshqa nufuzli olimlar ishlab chiqarish, aholi dinamikasi, bozor almashinuvi, daromadlarni taqsimlash, resurslarni taqsimlash va iqtisodiy muvozanatni tushuntirishga qaratilgan analitik yondashuvlarning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar. Ularning nazariy qarashlari keyingi iqtisodiy maktablarning shakllanishi uchun muhim konseptual asoslarni yaratdi.

Mazkur ilmiy ishlar orasida Adam Smitning “Xalqlar boyligi” (The Wealth of Nations) asari [11], iqtisodiy fan tarixida alohida o‘rin egallaydi. Smitning tadqiqotlari iqtisodiyotni mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida tizimli ravishda shakllantirishga xizmat qildi hamda markazlashmagan bozor

munosabatlarining muvofiqlashtiruvchi funksiyasini ta’kidladi. Uning “ko‘rinmas qo‘l” (“invisible hand”) konsepsiyasi keyinchalik iqtisodiy nazariyaning eng ta’sirchan konsepsiyasiga aylandi. Klassik talqinda ushbu konsepsiya asosan shaxsiy manfaatlarga asoslangan individual iqtisodiy qarorlar bozor mexanizmlari, raqobat, narx-navo signallari va ixtiyoriy ayirboshlash orqali iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirishga qanday hissa qo‘shishi mumkinligini ifodalaydi. Shu nuqtayi nazardan, iqtisodiy muvofiqlashtirish bozor ishtirokchilarining xatti-harakatlarini to‘liq belgilab beruvchi yagona markazlashgan boshqaruv organining mavjudligini majburiy ravishda talab etmaydi deb ta`kidlab o`tgan.

Keyinchalik klassik yondashuv XIX asrda shakllangan neoklassik iqtisodiyotning rivojlanishi uchun intellektual asos bo‘lib xizmat qildi. Neoklassik maktab individual tanlov, chegaraviy naflilik, narx barqarorligi muvozanati va resurslarni taqsimlash masalalarini yanada formal va tizimli tarzda tadqiq etdi. Iqtisodiy tafakkurning ushbu rivojlanish bosqichlarida bozor tobora ko‘proq markazlashmagan qarorlarni muvofiqlashtirish va cheklangan resurslarni taqsimlashga qodir mexanizm sifatida o‘rganildi. Shu nuqtayi nazardan, ishlab chiqarish, iste’mol, narxlar, investitsiyalar va resurslarni taqsimlash o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik iqtisodiy moliyaviy barqarorlik va turmush farovonlikni tushunishning markaziy elementiga aylandi. Mazkur g‘oyalarning tarixiy evolyutsiyasi zamonaviy oziq-ovqat xavfsizligi tadqiqotlari uchun zamin yaratdi. Zamonaviy oziq-ovqat tizimlari ishlab chiqaruvchilar, iste’molchilar, moliyaviy institutlar, davlat idoralari, logistika xizmatlari, qishloq xo‘jaligi korxonalari, ishlab chiqarish resurslarini yetkazib beruvchilar, savdo tashkilotlari va xalqaro bozorlarni o‘z ichiga oluvchi murakkab tarmoqlar orqali faoliyat yuritadi. Ularning ishlash jarayonlari nafaqat an’anaviy narx - navo mexanizmlarini, balki moliyaviy instrumentlar, kreditlarni taqsimlash, raqamli platformalar, real vaqt rejimidagi axborot tizimlari, prognozlash analitikasi va algoritmik qaror qabul qilish jarayonlari ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada zamonaviy iqtisodiy muvofiqlashtirish mexanizmlari tobora ko‘proq ma’lumotlarga asoslangan va texnologiyalar vositasida amalga oshiriladigan xususiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqan holda, klassik “ko‘rinmas qo‘l” konsepsiyasini sun’iy intellekt va algoritmik iqtisodiy tizimlarning rivojlanishi orqali qayta ko‘rib chiqish mumkin. Zamonaviy iqtisodiyot tobora ko‘proq sun’iy intellekt (AI) endashuvi bilan, katta ma`lumotlar bazasi (big data), mashinali o‘qitish, prognozlash modellari, avtomatlashtirilgan risklarni baholash, algoritmik narx belgilash, kredit reyting tizimlari, raqamli moliyaviy platformalar va yirik hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish texnologiyalariga tayanmoqda. Ushbu aqilli texnologiyalar doimiy ravishda axborotni qayta ishlaydi va kreditlarni taqsimlash, investitsiyalar, iste’mol qilish, ishlab chiqarish, sug‘urta, moliyaviy risklar hamda iqtisodiy resurslardan to`liq foydalanish imkoniyatlariga oid qarorlarga ta’sir ko‘rsatadi. Binobarin, iqtisodiy muvofiqlashtirishning tobora muhim tarkibiy qismi endilikda faqat to`satdan eki spontan bozor o‘zaro ta’siri va kuzatiladigan narx signallari orqali emas, balki real vaqt rejimida narh navoni tez aniqlash, xatti-harakatlarni prognozlash, risklarni baholash va qarorlar qabul qilishga ta’sir ko‘rsatadigan hisoblash tizimlari orqali ham amalga oshirilmoqda.

Mazkur transformatsiya “sun’iy intellektga asoslangan ko‘rinmas iqtisodiy qo‘l” (AI-driven invisible economic hand) konsepsiyasini shakllantirish uchun nazariy va amaliy asos yaratadi. Smitning dastlabki talqinidan farqli ravishda, ushbu zamonaviy mexanizm faqat markazlashmagan bozor muvofiqlashtirilishining konsepsiyasi bo‘lib qolmaydi. Aksincha, u iqtisodiy xatti-harakatlarni shakllantirishda tobora muhim rol o‘ynayotgan o‘zaro bog‘langan raqamli infratuzilmalar, algoritmlar, sun’iy intellekt tizimlari, moliyaviy texnologiyalar, ma’lumotlar bazalari, rag‘batlantirish mexanizmlari va avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish jarayonlarining majmuaviy ta’sirini ifodalaydi. Shu sababli mazkur konsepsiya klassik iqtisodiy nazariya bilan raqamli iqtisodiyotning

shakllanayotgan arxitekturasi o‘rtasida muhim nazariy-analitik ko‘prik vazifasini bajarishi mumkin. Sun’iy intellektga asoslangan ko‘rinmas iqtisodiy qo‘l bank tizimi, moliyaviy bozorlar, qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish va kichik hamda o‘rta biznes subyektlarini moliyalashtirish sohalarida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Mazkur tarmoqlarda algoritmik tizimlar kredit riskini baholash, potensial qarz oluvchilarni aniqlash, bozor sharoitlarini prognozlash, moliyaviy resurslarni optimal taqsimlash, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidagi risklarni monitoring qilish va investitsion qarorlarni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Xususan, qishloq xo‘jaligida sun’iy intellektning masofadan zondlash, Internet of Things (IoT), iqlim ma’lumotlari, fermer xo‘jaliklari darajasidagi ma’lumotlar va raqamli moliyaviy xizmatlar bilan integratsiyasi ishlab chiqarish qarorlarini moliyaviy mexanizmlar bilan o‘zaro bog‘lash uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi. Bunday integratsiya kapitalni yanada aniqroq taqsimlashga va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining o‘zgaruvchan iqtisodiy hamda ekologik sharoitlarga moslashish salohiyatini oshirishga zamon talabiga moslab xizmat qilishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, klassik “ko‘rinmas qo‘l” dan sun’iy intellekt vositasida muvofiqlashtiriladigan mexanizmga o‘tish bozor kuchlarining to‘liq o‘rnini bosishni emas, balki ushbu kuchlar faoliyat yuritadigan axborot infratuzilmasining texnologik transformatsiyasini anglatadi. Narx – navo, raqobat, risk va resurslar, soliq taqsimlash kabi fundamental iqtisodiy funksiyalar o‘z ahamiyatini saqlab qoladi, biroq ularning o‘zaro ta’siri tobora ko‘proq an’anaviy inson qaror qabul qilish imkoniyatlaridan yuqori bo‘lgan miqyos va tezlikda axborotni qayta ishlashga qodir hisoblash tizimlari orqali vositalashtirilmoqda. Shunga muvofiq, mazkur tadqiqot oziq-ovqat xavfsizligiga oid iqtisodiy qarashlarning tarixiy va nazariy evolyutsiyasini, ayniqsa iqtisodiy resurslarni taqsimlash va safarbar etishda moliyaviy mexanizmlarning roliga alohida e’tibor qaratgan holda o‘rganishni maqsad qiladi. Tadqiqot, shuningdek, klassik bozor mexanizmlariga asoslangan muvofiqlashtirishdan zamonaviy ma’lumotlarga asoslangan va algoritmik jihatdan vositalashtirilgan iqtisodiy tizimlarga o‘tish jarayonini tahlil qiladi. Klassik iqtisodchilarning tarixiy ilmiy hissalarini sun’iy intellekt, moliyaviy texnologiyalar, qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish va raqamli iqtisodiy infratuzilmadagi zamonaviy rivojlanishlar bilan bog‘lash orqali tadqiqot zamonaviy iqtisodiyot sharoitida sun’iy intellektga asoslangan ko‘rinmas iqtisodiy qo‘l oziq-ovqat xavfsizligi natijalariga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini tushuntirishga qaratilgan konseptual asosni ishlab chiqishni ko‘zda tutadi.

Tadqiqotning markaziy gipotezasi quyidagicha ifodalanadi “sun’iy intellekt markazlashmagan iqtisodiy muvofiqlashtirishni asosan narxlar orqali vositalashtiriladigan mexanizmdan tobora ko‘proq ma’lumotlarga asoslangan va prognozlash imkoniyatiga ega bo‘lgan tizimga aylantirmoqda. Mazkur tizim kreditlarni taqsimlash, moliyaviy risklarni baholash, investitsion xatti-harakatlar, iste’mol modellari, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga oid qarorlar va iqtisodiy resurslarning taqsimlanishiga deyarli real vaqt rejimida ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega. Ushbu transformatsiya oziq-ovqat xavfsizligi uchun, ayniqsa moliyalashtirish imkoniyati, qishloq xo‘jaligi mahsuldorligi, texnologiyalarni joriy etish va institutsional salohiyat oziq-ovqat tizimlarining barqarorligi va chidamliligini belgilovchi muhim omillar bo‘lib qolayotgan rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyotlari uchun sezilarli ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Shu sababli tadqiqot oziq-ovqat xavfsizligini iqtisodiy tafakkurning kengroq evolyutsiyasi doirasida ko‘rib chiqildi. Bunda klassik bozor muvofiqlashtirish nazariyalaridan raqamlashtirish, moliyaviy innovatsiyalar, sun’iy intellekt va algoritmik qaror qabul qilish bilan tavsiflanadigan zamonaviy modellarga o‘tish jarayoni tahlil qilindi. Bunday yondashuv “ko‘rinmas qo‘l” konsepsiyasini nafaqat klassik iqtisodiyotning tarixiy prinsipi sifatida, balki bozorlar, moliyaviy

institutlar, ma’lumotlar, texnologiyalar va insonning iqtisodiy xatti-harakatlari o‘rtasidagi tobora murakkablashib borayotgan o‘zaro aloqalarni tahlil qilish uchun dinamik nazariy konsepsiya sifatida qayta talqin qilish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda foydalanilgan metodologiya tavsifiy usulga asoslangan bo‘lib, ma’lumotlarni to‘plash jarayonida adabiyotlarni o‘rganish va tegishli manbalarni tahlil qilish usullaridan foydalanilgan. Adabiyotlarni o‘rganish usuli ilmiy manbalarni izlash, tanlash, o‘qib chiqish, muhim ma’lumotlarni qayd etish va ularni tizimlashtirish kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotda klassik iqtisodiy tafakkur tarixiga oid ilmiy adabiyotlar, maqolalar va boshqa ishonchli manbalardan olingan ma’lumotlar jamlanib, tahlil qilindi hamda tadqiqot maqsadlariga muvofiq umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALARI

Klassik tafakkur tarixi Karl Marks [12], xususan, uning mashhur “Kapital” asari, shuningdek, Jon Meynard Keyns [13] “Экономические возможности для наших внуков” kabi ko‘plab nufuzli olimlarning g‘oyalarini qamrab oladi. Gedonistik tafakkur bilan muayyan xususiyatlarni baham ko‘ruvchi individualizm tushunchasi qadimgi Yunonistonga borib taqaladi. Gesiod [14] o‘zining didaktik dostoni “Mehnatlar va kunlar” asarida qishloq xo‘jaligi amaliyotlarini, jumladan, mavsumiy taqvim va dala ishlarini tashkil etishni batafsil bayon qilgan. Shuningdek, u jamoaning yashab qolishi qishloq xo‘jaligi mahsuldorligi va ilohiy marhamatga bog‘liqligini ta’kidlagan. Bundan tashqari, qadimgi yunon tafakkurida polis doirasida zarur resurslarni ta’minlash hamda moddiy boyliklarni adolatli taqsimlash bilan bog‘liq muhim masalalar ham yoritilgan.

Klassik iqtisodiy tafakkurning rivojlanish tarixi Karl Marks [12], ayniqsa uning mashhur “Kapital” asari, shuningdek, Jon Meynard Keyns [13]ning “Iqtisodiy imkoniyatlar: nabiralarimiz uchun” (“Экономические возможности для наших внуков”) nomli asarida ilgari surilgan qarashlar kabi muhim ilmiy g‘oyalarni o‘z ichiga oladi. Individualizm g‘oyasining ayrim jihatlari gedonistik qarashlar bilan mushtarak bo‘lib, uning ildizlari qadimgi Yunoniston falsafiy tafakkuriga borib taqaladi.

Qadimgi yunon mutafakkiri Gesiod [14] “Mehnatlar va kunlar” nomli didaktik dostonida qishloq xo‘jaligi faoliyatining turli jihatlarini, jumladan, mavsumiy ishlar taqvimi, yerga ishlov berish va dala ishlarini tashkil etish masalalarini batafsil yoritgan. Uning qarashlarida jamiyatning farovonligi va barqaror hayoti, avvalo, qishloq xo‘jaligi mahsuldorligi hamda ilohiy marhamat bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etilgan. Shu bilan birga, qadimgi yunon iqtisodiy tafakkurida polis doirasida aholining zarur ehtiyojlarini qondirish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va moddiy boyliklarni adolatli taqsimlash kabi muhim iqtisodiy masalalar ham muhim o‘rin egallagan.

Klassik iqtisodiy maktab vakillarining asosiy qarashlaridan biri bozor mexanizmining o‘zini-o‘zi muvozanatlashtirish, ya’ni iqtisodiy nomutanosibliklarni ichki mexanizmlar orqali bartaraf etish qobiliyatiga ega ekanligi haqidagi g‘oyadir. Jan Batist Sey tomonidan ilgari surilgan “bozor qonuni”ga ko‘ra, taklif o‘z talabini yuzaga keltiradi. Ushbu tamoyil iqtisodiyotning umumiy faoliyatini tushuntirishda muhim nazariy asoslardan biri hisoblangan. Klassik maktab nazariyasiga muvofiq, iqtisodiyotdagi narxlar va ish haqi nisbatan moslashuvchan bo‘lib, bozor sharoitlarining o‘zgarishiga tezda javob bera oladi. Shu sababli, vaqtinchalik nomutanosibliklar bozor mexanizmi orqali asta-sekin bartaraf etilishi mumkin, degan qarash shakllangan. Adam Smit esa zamonaviy iqtisodiy fan shakllanishining eng muhim namoyandalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Uning

“Xalqlar boyligi” (“The Wealth of Nations”) asari iqtisodiy erkinlik, shaxsiy manfaat va bozorning o‘z-o‘zini tartibga solish mexanizmlarini nazariy jihatdan asoslashda katta ahamiyat kasb etdi. Xususan, Smit tomonidan ilgari surilgan “ko‘rinmas qo‘l” konsepsiyasi individual manfaatlarni ko‘zlash orqali umumiy iqtisodiy manfaatlarning ham shakllanishi mumkinligini tushuntiradi. Mazkur yondashuv keyingi iqtisodiy nazariyalarning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

1-jadval

Klassik iqtisodiy tizimning asosiy xususiyatlari va uning tarkibiy jihatlari

Klassik iqtisodiy maktabni rivojlanish davri	**Asosiy ma`nbalar**	**Asosiy jihatlar va xususiyatlari**
XVIII asr oxiri va XIX asr	Adam Smith (1766-1834)	1. Iqtisodiyot asarini 1776 ezgan. 2.“Xalqlar boyligi” asaridagi iqtisodiy qarashlar “Xalqlar boyligi” asarida erkin bozor, mehnat taqsimoti, xalqaro savdo va kapital jamg‘arishni iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillari sifatida ko‘rsatgan. U davlatning iqtisodiyotga ortiqcha aralashuvini cheklash tarafdori bo‘lib, shaxsiy manfaat va erkin raqobat bozorni “ko‘rinmas qo‘l” orqali muvozanatlashtirishini ta’kidlagan. Smitning fikricha, mehnat taqsimoti ishlab chiqarish unumdorligini oshirish va iqtisodiy o‘sishni tezlashtirishni, erkin xalqaro savdo esa mamlakatlarga mahsulotlarni nisbatan arzon narxda olish, xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. U monopoliyani tanqid qilib, raqobatni cheklash va iste’molchilar manfaatlariga zarar yetkazishini qayd etgan. Shu bilan birga, davlat xarajatlarini ta’minlash uchun adolatli va daromadga mutanosib soliq tizimi zarurligini e’tirof etgan. Tejash, kapital jamg ‘arish va investitsiyani uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishning muhim sharti deb bilgan. Kapitalning ishlab chiqarishga yo‘naltirilishi mehnat unumdorligi, daromad va jamiyat farovonligini oshiradi. Shuningdek, u ish haqi va aholi o‘sishi o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor berib, yuqoriroq ish haqi aholi ko‘payishi uchun qulay sharoit yaratishini ta’kidlagan.
	Jeremy Bentham (1748-1832)	1. “Axloq va qonunchilik tamoyillariga kirish” asarida utilitarizm g‘oyasini asosiy axloqiy tamoyil sifatida ilgari suradi. Uning fikricha, inson faoliyatining asosiy maqsadi baxt va qoniqish darajasini imkon qadar oshirish, azob-uqubat va salbiy holatlarni esa kamaytirishdan iborat. Ya’ni, jamiyat va shaxs uchun eng maqbul harakat ko‘pchilikning umumiy farovonligi va baxtini ta’minlaydigan harakat hisoblanadi. 2. “Sudxo‘rlikdan himoya qilish” nomli asarida

		(1787), foiz stavkalari masalasiga o‘z munosabatini bildiradi. U puldan foydalanish uchun olinadigan foizni haddan tashqari qat’iy tartibga solish zarur emasligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ayrim shaxslar yuqori foiz evaziga ham mablag‘olishga ixtiyoriy ravishda rozi bo‘lishlari mumkin. Shuning uchun bunday kelishuvlarni to‘liq taqiqlash har doim ham asosli emas.
	Thomas Robert Malthus (1766-1834)	1.Mashhur “Aholi soni to‘g‘risida esse” (“An Essay on the Principle of Population”) asari 1798-yilda nashr etilgan. Mazkur asarda olim aholi sonining o‘sishi bilan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish o‘rtasidagi nomutanosiblikka e’tibor qaratadi. Uning fikricha, yer kabi tabiiy ishlab chiqarish resurslari cheklangan bo‘lsa-da, aholi soni tez sur’atlarda ko‘payishi mumkin. Maltus aholi geometrik progressiya asosida, oziq-ovqat ishlab chiqarish esa nisbatan sekin, ya’ni arifmetik progressiya asosida ortadi, deb hisoblagan. Shu sababli, uzoq muddatda aholi sonining haddan tashqari ko‘payishi oziq-ovqat yetishmovchiligi, qashshoqlik va jamiyatdagi boshqa ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Maltus bunday xavflarning oldini olish uchun aholi o‘sishini tartibga solish zarurligini ta’kidlagan. U, xususan, nikoh yoshini kechiktirish va oilalarda farzandlar sonini cheklashni taklif qilgan. 2. “Siyosiy iqtisodiyot tamoyillari” (“Principles of Political Economy”) asari esa 1820-yilda nashr etilgan. Ushbu asarda u kapitalistlarning daromadlari, jamg‘arish va investitsiya jarayonlari o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilgan. Uning qarashlariga ko‘ra, kapital egalari daromadlarining ma’lum qismini iste’mol yoki ishlab chiqarishga yo‘naltirish o‘rniga jamg‘arishga moyil bo‘lishi mumkin. Bu holat iqtisodiyotda talab va investitsiya o‘rtasida nomutanosiblik yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi ehtimolini oshiradi. Daromadlarning jamiyatdagi taqsimlanishi iqtisodiy barqarorlikka ta’sir ko‘rsatishini ham qayd etgan. Shu nuqtayi nazardan, u daromadlarni qayta taqsimlash orqali iqtisodiy muvozanatni ta’minlash mumkinligini ilgari surgan. Uning fikricha, daromadlarning turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasida oqilona taqsimlanishi umumiy talabni qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiy faollikni

		rag‘batlantirishga yordam berishi mumkin.
	Jean Baptiste Say (1767-1832)	1.“Traité d’économie politique” kitobi 1803 yilda nashr etilgan. Ushbu qonun ishlab chiqarish qiymati har doim daromadga teng bo‘lishi haqidagi farazga asoslanadi. Muvozanat holatida ishlab chiqarish o‘z talabini shakllantirishga intiladi. Nazariya va modellar doimiy ravishda real faktlar hamda kuzatuvlar asosida tekshirib borilishi kerak. 2. U “tadbirkor” (entrepreneur) tushunchasini iqtisodiyotga kiritgan. Tadbirkor katta imkoniyatlarni izlash va ulardan foydalanish orqali maksimal foyda olishga intiluvchi shaxs sifatida tavsiflanadi. Bozor qonuni makroiqtisodiy modellar, jumladan, biznesdagi tebranishlar va iqtisodiy o‘sishni tushuntirishning muhim asoslaridan biri hisoblanadi.
	Robert Owen (1771-1858)	1. 1813-yilda nashr etilgan “Jamiyatning yangi qarashlari” (“A New View of Society”) asarida u inson xarakterining shakllanish jarayonini yoritib, shaxsning xarakteri va xulq-atvoriga ijtimoiy muhit katta ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlagan. Bu omillar, o‘z navbatida, iste’molchilarning xatti-harakatlari va tanlovlariga ham ta’sir qiladi. 2. U jamoat fondini tashkil etgan, unga ishchilar o‘z ish haqining oltidan bir qismini ajratib borganlar. Ushbu mablag‘lar ishchilar uchun zarur ijtimoiy sharoitlarni ta’minlash, turli qulayliklar yaratish hamda bepul tibbiy xizmat ko‘rsatishga sarflangan. Bundan tashqari, u 10 yoshdan kichik bolalarning mehnat qilishiga chek qo‘ygan va o‘z korxonalarida bepul ta’lim tizimini yo‘lga qo‘ygan. Shuningdek, aholining kundalik ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlarni o‘zlari ishlab chiqarishi va tashqi bozordan imkon qadar kam mahsulot xarid qilishi tamoyiliga asoslangan o‘zini o‘zi ta’minlovchi jamoalar tashkil etilishiga asos solgan.
	David Ricardo (1772-1823)	1817-yilda yozilgan uning mashhur “Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish tamoyillari” (Principles of Political Economy and Taxation) asarida daromadlarning taqsimlanishi masalasi keng yoritilgan. Muallif daromad taqsimotini uchta asosiy yo‘nalish — renta nazariyasi, ish haqi nazariyasi va foyda nazariyasi orqali

		tushuntirib bergan.
	Antoine Augustin Cournot (1801-1877)	1.Iqtisodiy muammolarni matematik usullar yordamida tahlil qilish yo‘nalishini rivojlantirdi. Bu yondashuv 1838-yilda nashr etilgan “Recherches sur les principes mathématiques de la théorie des richesses” (“Boylik nazariyasining matematik tamoyillariga oid tadqiqotlar”) asarida batafsil yoritilgan. 2. Mikroiqtisodiy tahlilni rivojlantirib, korxona darajasida talab, xarajatlar va ishlab chiqarish hajmini aniqlash, shuningdek, bozorda muvozanatning shakllanishini tahlil qildi.
	John Struart Mill (1806-1873)	Oo‘zgaruvchan xarajatlar bilan doimiy xarajatlar o‘rtasidagi farqni ajratib ko‘rsatdi. Mukammal raqobat sharoitida alohida sotuvchi taklif qilayotgan mahsulot miqdorini o‘zgartirish orqali bozor narxiga ta’sir ko‘rsata olmaydi. -1843-yilda “Mantiq tizimi” (A System of Logic) asari nashr etildi. -1844-yilda “Siyosiy iqtisodiyotning hal etilmagan masalalari” (Unsettled Questions of Political Economy) asari chop etildi. -1848-yilda “Siyosiy iqtisodiyot tamoyillari va ularning ijtimoiy falsafaga tatbiqlari” (Principles of Political Economy with Some of Their Applications to Social Philosophy) asari nashr qilindi. -1859-yilda “Erkinlik haqida” (*On Liberty*) asari e’lon qilindi. Ushbu asarlarida u miqyos samaradorligi, talab elastikligi, iqtisodiyotda turli tanlovlar o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi natijasida yuzaga keladigan muammolar hamda muqobil xarajatlar kabi muhim iqtisodiy tushunchalarni rivojlantirdi. Uning qarashlari zamonaviy iqtisodiy tafakkurning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. U zamonaviy iqtisodiyot uchun yangi yondashuvni ilgari surib, bozor qonuniyatlarini hisobga olish va ularga hurmat bilan yondashish, talab va taklifni shakllantiruvchi omillarni chuqur anglash, xalqaro savdo jarayonlarining qanday kechishini tahlil qilish zarurligini ta’kidladi. Shu bilan birga, u iqtisodiy tizimlarda davlatning rolini hamda iqtisodiy jarayonlarning markazida turgan **inson** va uning manfaatlarini e’tibordan chetda qoldirmaslik kerakligini uqtirdi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Klassik iqtisodiy maktab iqtisodiy tafakkur tarixidagi zamonaviy iqtisodiy nazariyaning shakllanishida muhim o‘rin tutuvchi yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Klassik iqtisodiy qarashlar iqtisodiy tizimning mohiyatini ishlab chiqarish, taqsimot va iste’mol jarayonlari orqali tushuntirishga harakat qiladi. Ishlab chiqarish muammosi bozor talabiga mos ravishda tovar va xizmatlarni kerakli miqdorda ishlab chiqarish masalasini qamrab oladi. Ishlab chiqaruvchilar va korxonalar iste’molchilarning qaysi turdagi tovar va xizmatlarga ehtiyoj sezishini hamda ularning qancha miqdorda talab qilinishini oldindan to‘g‘ri baholashi lozim. Bu orqali ortiqcha ishlab chiqarish yoki mahsulot yetishmovchiligining oldini olish va bozorda muvozanatni ta’minlash mumkin. Taqsimot muammosi esa ishlab chiqarilgan tovarlarni iste’molchilarga kerakli miqdorda, o‘z vaqtida va sifatini saqlagan holda yetkazib berishni tashkil etish bilan bog‘liq. Samarali taqsimot tizimi mahsulotlarning iste’molchiga xavfsiz, o‘z vaqtida va tegishli hajmda yetib borishini ta’minlashi kerak. Iste’mol bilan bog‘liq iqtisodiy muammo esa ishlab chiqarilgan mahsulotning bozorda qanchalik samarali iste’mol qilinishini aniqlashdan iborat. Agar mahsulotga talab yetarli bo‘lmasa yoki uning narxi o‘rtacha iste’molchi uchun juda yuqori bo‘lsa, u sotilmay qolishi va natijada resurslarning isrof bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli iqtisodiy muammolar faqat ishlab chiqaruvchilar faoliyati bilan cheklanmaydi. Iste’molchilarning daromadlarini oshirish ham muhim ahamiyatga ega, chunki ularning xarid qobiliyati zarur tovar va xizmatlarni sotib olish imkoniyatini belgilaydi.

Klassik iqtisodiy maktab XVIII asr oxiri va XIX asrda, ya’ni sanoat inqilobi davrida shakllangan. Klassik maktab vakillarining qarashlariga ko‘ra, iqtisodiyotda ishlab chiqarish hajmi va narxlarning muvozanatga kelishi, avvalo, iqtisodiyotning to‘liq bandlik sharoitida faoliyat yuritishi bilan bog‘liq. Bunday muvozanatga bozor mexanizmlarining erkin ishlashi, talab va taklifning o‘zaro ta’siri hamda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish orqali erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1]. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarda mo`ljallangan Yangi O`zbekiston taraqqiyot strategiyasi to`g`risida” gi farmoni. https://lex.uz/docs/5841063
[2]. Adam Smit, https://www.investopedia.com/updates/adam-smith-economics/
[3]. Jan-Batist Sey, https://www.econlib.org/library/Say/sayT.html?chapter_num=1#book-reader
[4]. David Rikardo, https://en.wikipedia.org/wiki/On_the_Principles_of_Political_Economy_and_Taxation
[5]. Jeremi Bentam, https://en.wikipedia.org/wiki/Doctor_Who_Appreciation_Society
[6]. Robert Ouen, https://en.wikipedia.org/wiki/Entrepreneurship
[7]. Antuan Ogyusten Kurno, https://vikent.ru/author/2055/
[8]. Pyer-Fransua Verhulst, https://en.wikipedia.org/wiki/Mathematician
[9] Tomas Robert Maltus, https://globalistika.ru/tpost/xrdejk9u61-maltus-tomas-robert-1766-1834
[10] Jon Stuart Mill, https://en.wikipedia.org/wiki/Utilitarianism_(book)
[11] Adam Smitning *“Xalqlar boyligi”* (*The Wealth of Nations*) asari https://www.britannica.com/money/the-Wealth-of-Nations
[12] Karl Marks, “Kapital” asari, https://uz.wikipedia.org/wiki/Kapital_(kitob)
[13] Jon Meynard Keyns “Экономические возможности для наших внуков”, https://www.imf.org/ru/publications/fandd/issues/2024/06/economic-possibilities-for-my-grandchildren-kristalina-georgieva
[14] Gesiod, didaktik dostoni “Mehnatlar va kunlar”, http://az.lib.ru/w/weresaew_w_w/text_0300.shtml

Turumova Dildora Abdumannonovna
Jizzax politexnika instituti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi o‘qituvchisi,
Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
dildoraturumova1985@gmail.com
ORCID: 0009-0004-8497-8395

TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD VA XARAJATLARNI HISOBDA AKS ETTIRISHNING TASHKILIY JIHATLARI

Турумова Дилдора Абдуманноновна
Преподаватель кафедры «Экономика и менеджмент» Джизакского политехнического института Независимый исследователь Академии банковского и финансового дела
E-mail: dildoraturumova1985@gmail.com
ORCID: 0009-0004-8497-8395

ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ АСПЕКТЫ ПРИЗНАНИЯ ДОХОДОВ И РАСХОДОВ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

Turumova Dildora Abdumannonovna
Lecturer at the Department of Economics and Management, Jizzakh Polytechnic Institute
Independent Researcher at the Banking and Finance Academy
Email: dildoraturumova1985@gmail.com
ORCID: 0009-0004-8497-8395

ORGANIZATIONAL ASPECTS OF RECOGNITION OF INCOME AND EXPENSES IN COMMERCIAL BANKS

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tijorat banklarida daromad va xarajatlarni buxgalteriya hisobida aks ettirishning tashkiliy-uslubiy jihatlari tadqiq etilgan. Bank faoliyatining moliyaviy natijalarini shakllantirishda foizli va foizsiz daromadlar, foizli va foizsiz xarajatlarning iqtisodiy mazmuni, ularni tan olish va tegishli buxgalteriya hisobvaraqlarida aks ettirish tartibi tahlil qilingan. Tadqiqotda tijorat banklarida daromad va xarajatlarni hisobga olishda hisoblash usulidan foydalanish, daromad va xarajatlarni operatsiyalar turlari bo‘yicha analitik guruhlash hamda hisobot davri yakunida moliyaviy natijalarni shakllantirish mexanizmi ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, 2025-yil 21-iyulda 3336-3-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni inobatga olgan holda bank hisobvaraqlar rejasini takomillashtirishning tashkiliy jihatlari yoritilgan. Amaliy misollar asosida daromad va xarajatlarni hisobga olish provodkalari hamda 31206-“Sof foyda (zarar)” hisobvarag‘i orqali moliyaviy natijani aniqlash tartibi ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijasida daromad va xarajatlar hisobini avtomatlashtirish, analitik hisobni bank mahsuloti, mijoz*

segmenti va xizmat turi kesimida tashkil etish hamda MHXS talablariga uyg‘unlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *tijorat banki, bank daromadlari, bank xarajatlari, foizli daromad, foizsiz daromad, foizli xarajat, foizsiz xarajat, buxgalteriya hisobi, hisobvaraqlar rejasi, moliyaviy natija, sof foyda, 31206-hisobvaraq, MHXS, bank xizmatlari.*

Аннотация. *В данной статье исследуются организационно-методические аспекты отражения доходов и расходов коммерческих банков в бухгалтерском учёте. Проанализированы экономическое содержание процентных и непроцентных доходов, процентных и непроцентных расходов, а также порядок их признания и отражения на соответствующих бухгалтерских счетах при формировании финансовых результатов банковской деятельности. В исследовании рассмотрены использование метода начисления при учёте доходов и расходов коммерческих банков, их аналитическая группировка по видам операций, а также механизм формирования финансовых результатов по итогам отчётного периода. Кроме того, освещены организационные аспекты совершенствования Плана счетов бухгалтерского учёта банков с учётом изменений и дополнений, зарегистрированных 21 июля 2025 года под № 3336-3. На основе практических примеров показаны бухгалтерские проводки по учёту доходов и расходов, а также порядок определения финансового результата посредством счёта 31206 «Чистая прибыль (убыток)». По результатам исследования разработаны предложения по автоматизации учёта доходов и расходов, организации аналитического учёта в разрезе банковских продуктов, клиентских сегментов и видов услуг, а также его гармонизации с требованиями МСФО.*

Ключевые слова: *коммерческий банк, доходы банка, расходы банка, процентный доход, непроцентный доход, процентные расходы, непроцентные расходы, бухгалтерский учёт, План счетов, финансовый результат, чистая прибыль, счёт 31206, МСФО, банковские услуги.*

Abstract. *This article examines the organizational and methodological aspects of accounting for income and expenses in commercial banks. It analyzes the economic substance of interest and non-interest income, as well as interest and non-interest expenses, along with the procedures for their recognition and recording in the relevant accounting accounts in the process of forming the financial results of banking activities. The study considers the use of the accrual basis of accounting for income and expenses in commercial banks, their analytical grouping by types of operations, and the mechanism for determining financial results at the end of the reporting period. In addition, the organizational aspects of improving the Chart of Accounts for banks are highlighted, taking into account the amendments and additions registered on July 21, 2025, under No. 3336-3. Based on practical examples, accounting entries for recording income and expenses are presented, along with the procedure for determining the financial result through account 31206, “Net Profit (Loss).” Based on the research findings, recommendations are developed for automating income and expense accounting, organizing analytical accounting by banking product, customer segment, and type of service, and aligning accounting practices with the requirements of IFRS.*

KIRISH

Tijorat banklari mamlakat moliya tizimining asosiy institutsional bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib, ularning moliyaviy barqarorligi va samaradorligi, avvalo, daromadlar hamda xarajatlarning oqilona boshqarilishi bilan belgilanadi. Bank faoliyatining yakuniy moliyaviy natijasi daromadlarning shakllanishi, xarajatlarning nazorat qilinishi va ular o‘rtasidagi nisbatning maqbulligiga bevosita bog‘liq. Shu sababli banklarda daromad va xarajatlarni to‘g‘ri tan olish, baholash, guruhlash,

hujjatlashtirish va hisobvaraqlarda aks ettirish masalalari nafaqat buxgalteriya hisobi, balki bank menejmenti va moliyaviy nazoratning ham muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobining huquqiy asoslari “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun bilan belgilanadi [1]. Mazkur qonun 2016-yil 13-apreldagi O‘RQ-404-son bilan yangi tahrirda qabul qilingan. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish jarayonida banklarda hisob siyosatini va hisobvaraqlar rejasini xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda [2].

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma’lumotlariga ko‘ra, tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasini MHXSga muvofiqlashtirish va bank operatsiyalarini hisobvaraqlarda shaffof aks ettirish maqsadida muntazam ravishda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritib borilmoqda. Jumladan, Markaziy bank boshqaruvining 2025-yil 16-iyundagi 12/10-son qarori bilan 2021-yil 18-noyabrdagi 20/4-son qaror bilan tasdiqlangan tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi [4]. Mazkur hujjat Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 21-iyulda 3336-3-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Bank tizimida daromadlar va xarajatlar hajmining o‘sib borishi mazkur masalaning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Markaziy bankning 2026-yil 1-iyul holatidagi ma’lumotlariga ko‘ra, bank sektorida foizli daromadlar 71 792 mlrd so‘m, foizli xarajatlar 51 513 mlrd so‘m, foizsiz daromadlar 52 155 mlrd so‘m, foizsiz xarajatlar 16 348 mlrd so‘mni tashkil etgan. Operatsion xarajatlar esa 16 828 mlrd so‘mga yetgan. Mazkur ko‘rsatkichlar bank daromadlari va xarajatlarini to‘g‘ri hisobga olish hamda ularning tarkibini boshqarish masalasining dolzarbligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi tijorat banklarida daromad va xarajatlarni buxgalteriya hisobida aks ettirishning tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish, amaldagi hisobvaraqlar rejasi asosida daromad va xarajatlarni guruhlash hamda moliyaviy natijani shakllantirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

— bank daromad va xarajatlarining iqtisodiy mazmunini aniqlash;
— foizli va foizsiz daromad hamda xarajatlarni tasniflash;
— ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini o‘rganish;
— amaldagi hisobvaraqlar rejasidagi o‘zgarishlarning mazmunini tahlil qilish;
— daromad va xarajatlarning moliyaviy natijaga ta’sirini aniqlash;
— banklarda daromad va xarajatlar hisobini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklarida daromad va xarajatlarni hisobga olish masalalari bank buxgalteriyasi, moliyaviy hisobot va bank faoliyatini tahlil qilishga oid ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan [3].

O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni buxgalteriya hisobini tashkil etish va moliyaviy hisobotni shakllantirishning huquqiy asoslarini belgilab beradi. Mazkur qonun banklarda ham hisob siyosatini shakllantirish, xo‘jalik operatsiyalarini hujjatlashtirish va moliyaviy axborotning ishonchliligini ta’minlash uchun fundamental huquqiy manba hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank tizimiga oid hisobotlarida tijorat banklarida hisobvaraqlar rejasini MHXS talablariga moslashtirish jarayoni izchil davom etayotgani qayd etilgan. Xususan, 2024-yilda hisobvaraqlar rejasiga o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga ajratilgan kreditlarni alohida hisobga olish, moliyaviy aktivlar va boshqa bank operatsiyalarining shaffof hisobini ta’minlashga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritilgan.

2025-yilgi 12/10-son qaror esa hisobvaraqlar rejasini zamonaviy iqtisodiy munosabatlar va mikromoliya banklari faoliyatiga moslashtirishni davom ettirdi. Ushbu o‘zgartirishlarda ayrim

hisobvaraqlar nomlari iqtisodiyotdagi institutsional o‘zgarishlarga muvofiqlashtirilgan, jumladan “tijorat banklari” atamasi ayrim hisobvaraqlarda “banklar” atamasi bilan almashtirilgan.

Bank buxgalteriyasi bo‘yicha o‘quv adabiyotlarida daromadlar odatda foizli va foizsiz daromadlarga, xarajatlar esa foizli, foizsiz va operatsion xarajatlarga ajratiladi. Jumladan, 45261-hisobvaraq kafolatlar va kafilliklar bo‘yicha xizmatlardan olinadigan daromadlarni, 45294-hisobvaraq esa boshqa xizmatlar va vositachilikdan olinadigan daromadlarni hisobga olish uchun qo‘llanilishi ko‘rsatilgan.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ham bank daromadlarining foizli va foizsiz tarkibini optimallashtirish, xarajatlarni boshqarish va foydalilikni oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Djamalova (2025) tijorat banklarida daromad va xarajatlarni tahlil qilishda foizli daromadlar, foizsiz daromadlar, foizli va foizsiz xarajatlarning o‘zaro nisbatini baholash zarurligini ta’kidlaydi [7].

Xalqaro amaliyotda esa bank daromadlarini tan olishda moliyaviy instrumentlarning mohiyati muhim ahamiyatga ega. IFRS 9 talablariga ko‘ra, amortizatsiyalangan qiymatda baholanadigan moliyaviy aktivlar bo‘yicha foiz daromadi samarali foiz stavkasi usulidan foydalanib hisoblanadi. Bu yondashuv banklarda foizli daromadni faqat pul mablag‘i kelib tushgan paytda emas, balki tegishli moliyaviy aktiv bo‘yicha iqtisodiy manfaat yuzaga kelishi bilan bog‘liq holda tan olish zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, IAS 1 moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda daromad va xarajatlarning taqdim etilishi hamda foyda yoki zarar ko‘rsatkichlarini shakllantirishga doir umumiy talablarni belgilaydi[8].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda bank daromad va xarajatlarining iqtisodiy mazmuni hamda alohida hisobvaraqlarda yuritilishi yetarli darajada yoritilgan bo‘lsa-da, 2025-yildagi hisobvaraqlar rejasi o‘zgarishlarini hisobga olgan holda daromad va xarajatlarni “bank mahsuloti – xizmat turi – mijoz segmenti – filial – daromad/xarajat markazi” kesimida integratsiyalashgan tarzda hisobga olish masalasi yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi.

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, iqtisodiy tahlil, guruhlash, taqqoslash, sintez, induksiya va deduksiya usullari tashkil etdi.

Tadqiqot obyekti sifatida tijorat banklarida daromadlar, xarajatlar va moliyaviy natijalarni shakllantirish jarayoni olindi.

Tadqiqot predmeti tijorat banklarida daromad va xarajatlarni tan olish, baholash, hujjatlashtirish, hisobvaraqlarda aks ettirish va moliyaviy natijaga olib borish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotda normativ-huquqiy manbalar, Markaziy bankning bank sektori statistik ma’lumotlari, hisobvaraqlar rejasi, bank buxgalteriyasiga oid ilmiy va o‘quv adabiyotlari hamda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari o‘rganildi.

Bank daromadlari quyidagi asosiy guruhlarga ajratildi:

1. kredit operatsiyalari bo‘yicha foizli daromadlar;
2. banklararo operatsiyalar bo‘yicha foizli daromadlar;
3. qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha foizli daromadlar;
4. REPO va boshqa moliyaviy operatsiyalar bo‘yicha daromadlar;
5. vositachilik va komission daromadlar;
6. kafolat va kafillik xizmatlari bo‘yicha daromadlar;
7. valyuta operatsiyalaridan olingan foyda;

8. investitsiyalardan olingan daromad va dividendlar;
9. boshqa foizsiz daromadlar.

Xarajatlar esa:

1. depozitlar bo‘yicha foizli xarajatlar;
2. banklararo kreditlar bo‘yicha foizli xarajatlar;
3. chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha xarajatlar;
4. ish haqi va ijtimoiy xarajatlar;
5. ijara va kommunal xarajatlar;
6. xizmat safari va transport xarajatlari;
7. reklama va axborot xarajatlari;
8. amortizatsiya va ta’mirlash xarajatlari;
9. boshqa operatsion xarajatlar

bo‘yicha guruhlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1. Tijorat banklarida daromadlarni hisobga olishning tashkiliy jihatlari

Bank daromadlari bank faoliyati natijasida iqtisodiy manfaatlarning ko‘payishini ifodalovchi ko‘rsatkich bo‘lib, ular bankning kredit, investitsiya, vositachilik, valyuta va boshqa operatsiyalaridan shakllanadi.

2026-yil holatida bank sektorida daromadlarning tarkibida foizli daromadlar asosiy o‘rinlardan birini egallamoqda. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yil 1-iyul holatida foizli daromadlar 71 792 mlrd so‘mga, foizsiz daromadlar esa 52 155 mlrd so‘mga yetgan. Bu bank daromadlarini faqat kredit foizlari bilan bog‘lab qo‘ymasdan, komission, vositachilik, valyuta va boshqa xizmatlardan olinadigan daromadlarni ham tizimli boshqarish zarurligini ko‘rsatadi [6].

1-jadval

Tijorat banklari daromadlarining asosiy tarkibi

Daromad guruhi	Iqtisodiy mazmuni	Hisobga olish yo‘nalishi
Kreditlar bo‘yicha foizli daromadlar	Kreditdan foydalanish uchun olinadigan foiz	Foizli daromad hisobvaraqlari
Banklararo operatsiyalar daromadi	Markaziy bank va boshqa banklardagi mablag‘lar bo‘yicha daromad	Foizli daromad hisobvaraqlari
Qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha daromad	Qarzdorlik qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha foiz	Foizli daromad
Faktoring va trast xizmatlari	Moliyaviy vositachilik xizmatlari	Foizsiz daromad
Kafolat va kafilliklar	Bank kafolati va kafilligi uchun komission haq	Foizsiz daromad
Valyuta operatsiyalari	Valyuta kursi va operatsiyalaridan foyda	Foizsiz/tijorat daromadi
Investitsiyalar	Dividend va investitsiya natijasidagi foyda	Foizsiz daromad
Boshqa xizmatlar	Hisob-kitob, inkasso, axborot va boshqa xizmatlar	Komission daromad

Manba: Muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.

Bank daromadlarini hisobga olishda asosiy tashkiliy talab — har bir operatsiyani dastlabki hujjatlar asosida tegishli analitik hisobvaraqda aks ettirishdir. Bunda daromadning turi, valyutasi, mijoz segmenti, bank mahsuloti, filial va xizmat ko‘rsatish kanali bo‘yicha analitik ma’lumotlarni shakllantirish maqsadga muvofiq.

2. Kreditlar bo‘yicha foizli daromadlar

Bank daromadlarining eng muhim manbalaridan biri kredit operatsiyalaridan olinadigan foizli daromadlardir.

Masalan, bank xususiy korxonaga qisqa muddatli kredit berdi va kredit bo‘yicha 35 mln so‘m foiz daromadini hisoblab chiqdi.

Buxgalteriya yozuvi:

Debet: 16309 – Kreditlar bo‘yicha hisoblangan foizlar – 35 000 000 so‘m.

Kredit: 42601 – Xususiy korxonalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo‘yicha foizli daromadlar – 35 000 000 so‘m.

Mazkur yozuvda daromadning tan olinishi bilan bir vaqtda bankning foizlarni olish huquqi yuzaga keladi.

Jismoniy shaxsga qisqa muddatli kredit bo‘yicha 25 mln so‘m foiz hisoblanganda:

Debet: 16309 – Kreditlar bo‘yicha hisoblangan foizlar – 25 000 000 so‘m.

Kredit: 42001 – Jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo‘yicha foizli daromadlar – 25 000 000 so‘m.

Bu yerda dastlabki materialdagi “uzoq muddatli kredit” iborasi **“qisqa muddatli kredit”** sifatida tuzatildi, chunki 42001 hisobvarag‘i aynan qisqa muddatli kreditlar bo‘yicha foizli daromadlarni ifodalaydi. Jismoniy shaxslarga kreditlar bo‘yicha 42001 hisobvarag‘idan foydalanish amaliy manbalarda ham qayd etilgan.

3. Banklararo operatsiyalar bo‘yicha daromadlar

Tijorat banklari Markaziy bank va boshqa banklardagi mablag‘larini joylashtirish orqali ham foizli daromad oladi.

Masalan, Markaziy bankdagi muddatli depozit bo‘yicha 10 mln so‘m foiz hisoblandi:

Debet: 16301 – Markaziy bankdan olinishi lozim bo‘lgan hisoblangan foizlar – 10 000 000 so‘m.

Kredit: 40205 – Markaziy bankdagi depozitlar bo‘yicha foizli daromadlar – 10 000 000 so‘m.

Boshqa bankdagi vakillik hisobvarag‘i bo‘yicha 5 mln so‘m foiz daromadi hisoblanganda:

Debet: 16303 – Boshqa banklardan olinishi lozim bo‘lgan hisoblangan foizlar – 5 000 000 so‘m.

Kredit: 40401 – Boshqa banklardagi vakillik hisobvaraqlari bo‘yicha foizli daromadlar – 5 000 000 so‘m.

4. Qimmatli qog‘ozlar va moliyaviy operatsiyalardan olinadigan daromadlar

Tijorat banklari qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilish, REPO bitimlari va boshqa moliyaviy instrumentlar orqali daromad olishi mumkin.

Masalan, bank tomonidan sotib olingan qarz qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha 45 mln so‘m foiz daromadi hisoblandi:

Debet: 16305 – Qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha hisoblangan foizlar – 45 000 000 so‘m.

Kredit: tegishli qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha foizli daromad hisobvarag‘i – 45 000 000 so‘m.

Xalqaro amaliyotda bunday daromadlarni hisobga olishda samarali foiz stavkasi usulidan foydalanish muhim hisoblanadi. IFRS 9 moliyaviy aktivlar bo‘yicha foiz daromadini samarali foiz usulida hisoblashni belgilaydi.

5. Foizsiz daromadlarning hisobini tashkil etish

Bank faoliyatining diversifikatsiyalashuvi natijasida foizsiz daromadlarning ahamiyati ortmoqda.

Masalan, faktoring operatsiyasi bo‘yicha 15 mln so‘m daromad hisoblandi:

Debet: 16401 – Hisoblangan vositachilik haqi va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlar – 15 000 000 so‘m.

Kredit: 45217 – Sotib olingan debitorlik qarzlari – faktoring bo‘yicha daromadlar – 15 000 000 so‘m.

Kafolat va kafillik xizmatlari bo‘yicha daromadlarni hisobga olishda 45261 hisobvarag‘i qo‘llanilishi bank buxgalteriyasi bo‘yicha manbalarda tasdiqlangan.

Masalan, bank kafolat xizmati uchun 12 mln so‘m komission daromad hisoblaganda:

Debet: 16401 – Hisoblangan vositachilik haqi va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlar – 12 000 000 so‘m.

Kredit: 45261 – Kafolatlar va kafilliklar bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirishda ko‘rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlar – 12 000 000 so‘m.

Boshqa ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha 5 mln so‘m daromad:

Debet: 16401 – 5 000 000 so‘m.

Kredit: 45294 – Boshqa ko‘rsatilgan xizmatlar va vositachilik uchun olingan daromadlar – 5 000 000 so‘m.

45294 hisobvarag‘ining boshqa xizmatlar va vositachilik daromadlarini hisobga olishda qo‘llanilishi bank buxgalteriyasi manbalarida ham ko‘rsatilgan.

6. Tijorat banklarida xarajatlarni hisobga olish

Bank xarajatlari bankning moliyaviy resurslarini jalb qilish, xizmatlarni tashkil etish va bank faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq sarflardan tashkil topadi.

Bank sektorining 2026-yil 1-iyul holatidagi ma’lumotlari foizli xarajatlarning 51 513 mlrd so‘mga, foizsiz xarajatlarning 16 348 mlrd so‘mga, operatsion xarajatlarning 16 828 mlrd so‘mga yetganini ko‘rsatadi.

2-jadval

Tijorat banklari xarajatlarining asosiy tarkibi

Xarajat guruhi	Asosiy manbalar	Boshqaruv yo‘nalishi
Depozitlar bo‘yicha foizlar	Talab qilib olinguncha, muddatli va jamg‘arma depozitlar	Resurslar qiymatini boshqarish
Banklararo kreditlar bo‘yicha foizlar	Boshqa banklardan jalb qilingan mablag‘lar	Likvidlikni boshqarish
Qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha xarajatlar	Bank chiqargan qimmatli qog‘ozlar	Kapital bozorini boshqarish
Ish haqi	Bank xodimlari mehnati	Mehnat unumdorligi
Ijara va kommunal xarajatlar	Bino va infratuzilma	Operatsion samaradorlik
Reklama	Marketing faoliyati	Mijozlar bazasini kengaytirish

Transport va xizmat safari	Bank faoliyati	Hududiy operatsiyalar
Boshqa operatsion xarajatlar	Bankning kundalik faoliyati	Xarajatlarni optimallashtirish

Manba: Muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.

7. Depozitlar bo‘yicha foizli xarajatlar

Bankning eng yirik xarajatlaridan biri jalb qilingan depozitlar bo‘yicha foiz to‘lovlari hisoblanadi.

Masalan, talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit bo‘yicha 5 mln so‘m foiz hisoblandi:

Debet: 50108 – tegishli depozitlar bo‘yicha foizli xarajatlar – 5 000 000 so‘m.

Kredit: 22402 – Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar bo‘yicha hisoblangan foizlar – 5 000 000 so‘m.

Muddatli depozit bo‘yicha 50 mln so‘m foiz hisoblanganda:

Debet: 51108 – tegishli muddatli depozitlar bo‘yicha foizli xarajatlar – 50 000 000 so‘m.

Kredit: 22405 – Muddatli depozitlar bo‘yicha hisoblangan foizlar – 50 000 000 so‘m.

8. Banklararo kreditlar bo‘yicha foizli xarajatlar

Banklar likvidlikni ta’minlash maqsadida boshqa banklardan yoki Markaziy bankdan mablag‘ jalb qilishi mumkin.

Masalan, boshqa bankdan olingan qisqa muddatli kredit bo‘yicha 5 mln so‘m foiz hisoblandi:

Debet: 53106 – Boshqa banklardan olingan qisqa muddatli kreditlar bo‘yicha foizli xarajatlar – 5 000 000 so‘m.

Kredit: 22410 – Olingan kreditlar bo‘yicha hisoblangan foizlar – 5 000 000 so‘m.

Markaziy bankdan olingan kredit bo‘yicha 15 mln so‘m foiz hisoblanganda:

Debet: 53101 – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan olingan qisqa muddatli kreditlar bo‘yicha foizli xarajatlar – 15 000 000 so‘m.

Kredit: 22410 – Olingan kreditlar bo‘yicha hisoblangan foizlar – 15 000 000 so‘m.

9. Bankning operatsion va ma’muriy xarajatlari

Bankning kundalik faoliyatini tashkil etishda ish haqi, ijtimoiy himoya, ijara, kommunal xizmatlar, transport, reklama, xizmat safari va boshqa xarajatlar yuzaga keladi.

Masalan, bank xodimlariga 25 mln so‘m ish haqi hisoblandi:

Debet: 56102 – Ish haqi – 25 000 000 so‘m.

Kredit: 29803 – Bank xodimlari bilan hisob-kitoblarda to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘lar – 25 000 000 so‘m.

Bank tomonidan reklama uchun 5 mln so‘m xarajat hisoblanganda:

Debet: 56402 – Reklama va e’lon xarajatlari – 5 000 000 so‘m.

Kredit: 29806 – To‘lash uchun hisoblangan boshqa foizsiz xarajatlar – 5 000 000 so‘m.

Xizmat safari uchun 5 mln so‘m sarflanganda:

Debet: 56302/56306 – Xizmat safari bilan bog‘liq xarajatlar – 5 000 000 so‘m.

Kredit: tegishli pul mablag‘lari hisobvarag‘i – 5 000 000 so‘m.

10. Daromad va xarajatlarni hisobga olishning taklif etilayotgan tashkiliy modeli

Tadqiqot natijasida banklarda daromad va xarajatlarni faqat sintetik hisobvaraqlar bo‘yicha yuritish moliyaviy natijani boshqarish uchun yetarli emasligi aniqlandi.

Shu sababli quyidagi besh bosqichli analitik modelni joriy etish taklif etiladi:

1-bosqich — hisobvaraq

Daromad yoki xarajat tegishli buxgalteriya hisobvarag‘ida aks ettiriladi.

2-bosqich — bank mahsuloti

Kredit, depozit, plastik karta, pul o‘tkazmasi, kafolat, faktoring, valyuta operatsiyasi va boshqa mahsulotlar bo‘yicha ajratiladi.

3-bosqich — mijoz segmenti

Jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, kichik biznes, korporativ mijozlar va boshqa segmentlar bo‘yicha guruhlanadi.

4-bosqich — hudud/filial

Daromad va xarajatlar filiallar va hududlar kesimida aniqlanadi.

5-bosqich — daromad/xarajat markazi

Har bir bank mahsulotining qancha daromad yaratgani va unga qancha xarajat sarflangani aniqlanadi.

3-jadval

Daromad va xarajatlarni takomillashtirilgan analitik hisobga olish modeli

Hisob elementi	**An’anaviy yondashuv**	**Taklif etilayotgan yondashuv**
Hisobvaraq	Asosiy mezon	Asosiy mezon
Operatsiya turi	Mavjud	Mavjud
Bank mahsuloti	Cheklangan	Majburiy analitik kesim
Mijoz segmenti	Qisman	Majburiy
Filial	Alohida hisobotlarda	Integratsiyalashgan
Daromad markazi	Cheklangan	Joriy etiladi
Xarajat markazi	Cheklangan	Joriy etiladi
Mahsulot rentabelligi	Qo‘lda tahlil qilinadi	Avtomatik aniqlanadi

Manba: Muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.

Mazkur model bank rahbariyatiga qaysi mahsulotlar yuqori daromad keltirayotganini, qaysi mahsulotlar esa katta operatsion xarajat talab qilayotganini aniqlash imkonini beradi.

11. Bankning moliyaviy natijasini shakllantirish

Tijorat banklarining moliyaviy natijasi daromadlar va xarajatlarning hisobot davri yakunidagi farqi asosida shakllanadi.

Umumiy ko‘rinishda:

SF = D – X

bu yerda:

SF – sof moliyaviy natija;

D – hisobot davrida tan olingan daromadlar;

X – hisobot davrida tan olingan xarajatlar.

Hisobot davrida daromad hisobvaraqlarining qoldig‘i moliyaviy natija hisobvarag‘iga, xarajat hisobvaraqlarining qoldig‘i esa tegishli tarzda moliyaviy natijaga yopiladi.

Banklarda joriy yil sof foydasini hisobga olish uchun **31206 – “Sof foyda (zarar)”** hisobvarag‘idan foydalaniladi. Ushbu hisobvaraqning qo‘llanilishi 2025-yilgi bank buxgalteriyasi bo‘yicha ilmiy manbalarda ham qayd etilgan.

12. 31206-“Sof foyda (zarar)” hisobvarag‘i bo‘yicha amaliy hisob-kitob

Tadqiqot doirasida shartli tijorat bankining hisobot davridagi daromadlari **168 046 250 so‘m**, xarajatlari esa **145 000 000 so‘m** deb olindi.

Bankning hisobot davri boshida 31206-hisobvaraq bo‘yicha kredit qoldig‘i **4 550 000 so‘m**ni tashkil etgan.

Bunda:

Daromadlar:

168 046 250 so‘m

Xarajatlar:

145 000 000 so‘m

Joriy davr natijasi:

168 046 250 – 145 000 000 = **23 046 250 so‘m**

Davr boshidagi qoldiq bilan:

4 550 000 + 23 046 250 = **27 596 250 so‘m**

Demak, shartli bank hisobot davrini **27 596 250 so‘m sof foyda** bilan yakunlagan.

4-jadval

31206-“Sof foyda (zarar)” hisobvarag‘i bo‘yicha yakuniy hisob-kitob

Ko‘rsatkich	Debet, so‘m	Kredit, so‘m
Davr boshiga qoldiq	–	4 550 000
Daromadlar	–	168 046 250
Xarajatlar	145 000 000	–
Aylanma	145 000 000	168 046 250
Davr oxiridagi sof foyda	–	**27 596 250**

Manba: Muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.

Ushbu natijadan ko‘rinadiki, bankning daromadlari xarajatlardan 23 046 250 so‘mga yuqori bo‘lgan. Davr boshidagi 4 550 000 so‘mlik kredit qoldiq hisobga olinganda yakuniy foyda **27 596 250 so‘m**ni tashkil etadi.

Mazkur hisob-kitob shartli amaliy misol sifatida keltirilmoqda.

13. Natijalar muhokamasi

Tadqiqot natijalari bank daromadlari va xarajatlarini hisobga olishda uchta asosiy muammo mavjudligini ko‘rsatdi.

Birinchidan, daromad va xarajatlarni faqat umumiy hisobvaraqlar bo‘yicha yuritish bank mahsulotlarining haqiqiy rentabelligini aniqlash imkoniyatini cheklaydi.

Ikkinchidan, bank xizmatlari raqamlashtirilayotgan sharoitda daromad va xarajatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida shakllantirishga bo‘lgan ehtiyoj ortmoqda.

Uchinchidan, milliy hisobvaraqlar rejasining MHXS bilan uyg‘unlashuvi natijasida banklarda moliyaviy aktivlar, foizli daromadlar va moliyaviy xarajatlarni tan olishning iqtisodiy mazmuniga yanada katta e’tibor qaratish talab qilinmoqda.

Markaziy bankning 2026-yilgi statistik ma’lumotlari ham bank sektorida foizli va foizsiz daromadlar hajmi o‘sayotganini ko‘rsatadi. 2026-yil 1-iyul holatida foizli daromadlar 71 792 mlrd so‘m, foizsiz daromadlar 52 155 mlrd so‘m bo‘lgan. Foizli xarajatlar esa 51 513 mlrd so‘mni tashkil etgan. Bu holat banklar uchun sof foiz marjasi bilan bir qatorda foizsiz daromadlar manbalarini rivojlantirish ham strategik ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

2026-yil boshidagi ma’lumotlarda ham bank sektorining sof foydasi 15 502 mlrd so‘mni tashkil etgani, foizli daromadlar 127 702 mlrd so‘m va foizli xarajatlar 89 703 mlrd so‘m bo‘lgani qayd etilgan.

Shunday qilib, bankning moliyaviy natijasini oshirish faqat daromadlarni ko‘paytirish hisobiga emas, balki resurslar qiymatini kamaytirish, operatsion xarajatlarni optimallashtirish va har bir bank mahsulotining rentabelligini aniqlash orqali amalga oshirilishi lozim.

ILMIY YANGILIK

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

1. Tijorat banklarida daromad va xarajatlarni hisobga olishning integratsiyalashgan tashkiliy modeli ishlab chiqildi. Mazkur model “hisobvaraq – bank mahsuloti – mijoz segmenti – filial – daromad/xarajat markazi” ketma-ketligiga asoslanadi.

2. Bank daromad va xarajatlarini foizli va foizsiz guruhlar bilan cheklanmasdan, bank mahsulotining rentabelligi bo‘yicha tahlil qilish taklif qilindi.

3. Daromad va xarajatlarning analitik hisobini raqamlashtirish orqali har bir bank mahsuloti bo‘yicha daromad, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajat va sof marjani avtomatik aniqlash mexanizmi taklif etildi.

4. 2025-yilgi 3336-3-son o‘zgartirishlardan kelib chiqib, banklarda hisobvaraqlar rejasini yangilash jarayonini doimiy monitoring qilish va ichki hisob siyosatini unga mos ravishda yangilab borish zarurligi asoslandi.

5. Moliyaviy natijani shakllantirishda 31206-“Sof foyda (zarar)” hisobvarag‘ining ma’lumotlarini bank mahsulotlari va xarajat markazlari kesimida shakllantiriladigan boshqaruv hisobotlari bilan integratsiya qilish taklif qilindi.

XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, tijorat banklarining moliyaviy natijasini shakllantirishda daromad va xarajatlarni to‘g‘ri tan olish va hisobga olish bank faoliyatining shaffofligi hamda moliyaviy barqarorligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Ikkinchidan, bank daromadlarida kredit operatsiyalaridan olinadigan foizli daromadlar muhim o‘rin tutsa-da, zamonaviy bank faoliyatida komission, vositachilik, valyuta, kafolat va boshqa xizmatlardan olinadigan foizsiz daromadlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Uchinchidan, bank xarajatlarini faqat summasi bo‘yicha emas, balki ular qaysi bank mahsulotini yaratish bilan bog‘liqligi bo‘yicha ham hisobga olish zarur.

To‘rtinchidan, hisobvaraqlar rejasining muntazam ravishda yangilanib borishi banklarning ichki hisob siyosati va dasturiy ta’minotini ham doimiy ravishda moslashtirishni talab qiladi. 2025-yil 21-iyulda 3336-3-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan o‘zgartirishlar bu jarayonning davomiyligini ko‘rsatadi.

Beshinchidan, MHXSga yaqinlashish sharoitida foizli daromad va xarajatlarni tan olishda iqtisodiy mazmun ustuvor bo‘lishi lozim. Xususan, IFRS 9 moliyaviy aktivlar bo‘yicha foiz daromadlarini samarali foiz stavkasi usuli orqali aniqlashga alohida e’tibor beradi.

Shundan kelib chiqib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- tijorat banklarida daromad va xarajatlarning analitik hisobini bank mahsuloti kesimida tashkil etish;
- har bir bank mahsuloti uchun alohida daromad va xarajat markazlarini joriy etish;
- daromad va xarajatlarni filial, mijoz segmenti va xizmat kanali bo‘yicha avtomatik guruhlash;
- bankning ichki hisob siyosatini hisobvaraqlar rejasiga kiritilayotgan o‘zgartirishlarga muvofiq muntazam yangilash;
- daromad va xarajatlar ma’lumotlarini boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimlari bilan integratsiyalash;

— foizsiz daromadlarni oshirishga qaratilgan raqamli bank xizmatlari rentabelligini alohida baholash;
— xarajatlarni boshqarishda “xarajat – mahsulot – daromad” bog‘liqligini aniqlash;
— 31206-“Sof foyda (zarar)” hisobvarag‘i ma’lumotlarini boshqaruv hisobotlari bilan integratsiya qilish;
— MHXS talablari asosida foizli daromad va xarajatlarni tan olish metodologiyasini takomillashtirish;
— banklarda daromad va xarajatlarni real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beruvchi raqamli analitik platformalarni joriy etish.

Umuman olganda, tijorat banklarida daromad va xarajatlar hisobini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishi ularni faqat buxgalteriya hisobining obyekti sifatida emas, balki bank mahsulotlari rentabelligini boshqarishning axborot bazasi sifatida shakllantirishdan iborat. Bunday yondashuv bankning moliyaviy natijalarini obyektiv baholash, xarajatlarni optimallashtirish, foydalilikni oshirish va bankning raqobatbardoshligini mustahkamlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1]. O‘zbekiston Respublikasi. (2016). *Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida*gi Qonun, O‘RQ-404-son, 13-aprel 2016-yil. Toshkent.

[2]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son qarori. *Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida*. Toshkent.

[3]. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2021). *Tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi*. 2021-yil 18-noyabrdagi 20/4-son qaror, Adliya vazirligida 2021-yil 26-noyabrda 3336-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

[4]. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). *Tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida*. 2025-yil 16-iyundagi 12/10-son qaror, Adliya vazirligida 2025-yil 21-iyulda 3336-3-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

[5]. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). *2024 yilda bank tizimi rivojlanishi va moliyaviy barqarorligi*. Toshkent.

[6]. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). *Profitability indicators of banking sector*. 1 July 2026 holatidagi ma’lumotlar.

[7]. Djamalova, L. K. (2025). Tijorat banklarida daromadlar va xarajatlar hisobi. *Modern Science and Research, 2*(7), 168–176.

[8]. International Accounting Standards Board. (2022). *IFRS 9: Financial Instruments*. IFRS Foundation.

[9]. International Accounting Standards Board. (2024). *IAS 1: Presentation of Financial Statements*. IFRS Foundation.

[10]. Abduvaxidov, F. T., Umarov, Z. A., & Djurayev, K. N. (2010). *Banklarda buxgalteriya hisobi*. Toshkent.

[11]. Navro‘zova, K. N. (2006). *Bank hisobi*. Toshkent.

[12].O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). *Profitability indicators of banking sector: January 1, 2025 and January 1, 2026*. Toshkent.

Usmonov Faridun Firdavsievich
3rd-year student, group BI-223
Samarkand Institute of Economics and Service
E-mail: Usmanovdeka3110@gmail.com

Academic supervisor:
Karimova Aziza Makhomadrizoevna
DSc (Economics), Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
E-mail: karimova.aziza2105@gmail.com

IMPROVING THE CORPORATE LENDING SYSTEM FOR SMALL AND MEDIUM-SIZED ENTERPRISES IN UZBEKISTAN

Usmonov Faridun Firdavsievich
BI-223 guruh, 3-kurs talabasi,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Elektron pochta: Usmanovdeka3110@gmail.com

Ilmiy rahbar:
Karimova Aziza Maxomadrizoevna
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Elektron pochta: karimova.aziza2105@gmail.com

O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA KORXONALAR UCHUN KORPORATIV KREDIT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Усмонов Фаридун Фирдавсиевич
Студент 3-го курса, группа BI-223
Самаркандский институт экономики и сервиса
E-mail: Usmanovdeka3110@gmail.com

Научный руководитель:
Каримова Азиза Махомадризоевна
Доктор экономических наук, профессор,
Самаркандский институт экономики и сервиса
E-mail: karimova.aziza2105@gmail.com

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО КРЕДИТОВАНИЯ МАЛЫХ И СРЕДНИХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье анализируются современное состояние и основные проблемы корпоративного кредитования малого и среднего бизнеса в Узбекистане. Рассмотрены динамика банковского кредитования, меры государственной поддержки и участие

международных финансовых институтов. В качестве основных ограничений выделены недостаточная финансовая прозрачность заёмщиков, несовершенство оценки кредитоспособности и слабое развитие факторинга и лизинга. Предложены меры по внедрению альтернативного скоринга и расширению кредитных гарантий.

Ключевые слова: корпоративное кредитование, малый и средний бизнес, кредитные гарантии, факторинг, лизинг, альтернативный скоринг, Узбекистан.

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni korporativ kreditlashning hozirgi holati va asosiy muammolari tahlil qilingan. Tadqiqotda kreditlash dinamikasi, davlat va xalqaro moliya institutlarining qo'llab-quvvatlash mexanizmlari baholanib, moliyaviy shaffoflikning pastligi, kreditga layoqatlilikni baholash usullarining eskirganligi hamda faktoring va lizingning sust rivojlanganligi asosiy cheklovlar sifatida aniqlangan. Muqobil skoring, kredit kafolatlari va nobank moliyalashtirish vositalarini kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: korporativ kreditlash, kichik va o'rta biznes, kredit kafolatlari, faktoring, lizing, muqobil skoring, O'zbekiston.

Abstract. The article analyzes the current state and key problems of corporate lending to small and medium-sized enterprises (SMEs) in Uzbekistan. It examines the dynamics of bank lending, government support measures, and the participation of international financial institutions. The main constraints identified are the insufficient financial transparency of borrowers, the imperfection of creditworthiness assessment, and the weak development of factoring and leasing. Measures are proposed for introducing alternative scoring and expanding credit guarantees.

Keywords: corporate lending, small and medium-sized business, credit guarantees, factoring, leasing, alternative scoring, Uzbekistan.

Introduction. Small and medium-sized business is one of the main sources of employment, entrepreneurial initiative, and economic diversification. At the same time, this segment more often than others faces limited access to external financing. According to World Bank data, micro, small, and medium-sized enterprises account for more than 90% of the total number of enterprises in Uzbekistan, provide about 75% of employment, and generate approximately 55% of gross domestic product [9]. Despite the sector's significant role, only about 10% of small enterprises and 16% of medium-sized enterprises have access to credit. More than a third of businesses lack bank accounts, and less than 30% of sales are conducted electronically, which narrows the information base for assessing solvency and increases credit risk [9; 10].

According to estimates by international organizations, the credit resource needs of Uzbekistan's SME sector amount to about USD 13 billion, while the financing deficit is estimated at approximately USD 6 billion. Certain programs use a broader methodology and estimate unmet financing demand at up to USD 10.5 billion [9; 11]. The scale of this gap shows that growth in lending volumes alone does not eliminate institutional and informational constraints. The relevance of this study stems from the need to shift from a predominantly quantitative expansion of credit supply toward qualitative improvement of banking technologies. National practice is still dominated by methods based on balance-sheet and collateral analysis, while the assessment of actual cash flows, behavioral characteristics, and digital data is used to a limited extent. In addition, factoring, leasing, and credit-risk-sharing mechanisms remain underdeveloped.

Literature review. The problem of small and medium-sized enterprises' access to bank financing occupies an important place in the world economic literature. T. Beck and A. Demirgüç-Kunt show that financial constraints affect small enterprises disproportionately more than large companies, hindering their growth, investment activity, and job creation [5]. The authors attribute

this to higher information asymmetry, a limited collateral base, and the higher unit costs banks incur in analyzing small borrowers.

A. Berger and G. Udell developed a conceptual framework for SME lending technologies, distinguishing between approaches based on “hard” formalized information and methods that use “soft” information generated in the course of a bank's long-term relationship with a client [5]. This approach is particularly relevant for Uzbekistan, where insufficient digitalization of business operations limits the volume of verifiable data on a borrower's cash flows and business activity.

L. Klapper substantiates the importance of factoring as a financing tool for enterprises that lack sufficient credit history or liquid collateral [6]. Unlike a conventional bank loan, factoring financing relies to a greater extent on the quality of accounts receivable. Leasing plays a similar role in the renewal of fixed assets, linking financing to a specific asset.

Studies by Sh.S. Azimova and D.B. Nazarova note that commercial banks in Uzbekistan widely apply ratio analysis of financial statements, while cash-flow analysis and credit scoring methods are used inconsistently [7]. This reduces the accuracy of borrower assessment, especially for enterprises with seasonal turnover, a short operating history, or incomplete financial reporting.

Thus, existing research thoroughly reveals the nature of SMEs' financial constraints and individual instruments for overcoming them. At the same time, there remains a need for a comprehensive assessment that combines the dynamics of bank lending, national government support measures, alternative scoring methods, non-bank instruments, and modern international risk-sharing mechanisms as applied to Uzbekistan.

Research methodology. The study is based on a combination of general scientific and special methods. Analysis, synthesis, and generalization of the scientific literature were applied to systematize theoretical approaches. The regulatory and legal framework was studied using content analysis of decrees of the President of the Republic of Uzbekistan, official materials of the Central Bank, and documents of development institutions.

The quantitative part of the study was carried out on the basis of comparative and dynamic analysis of statistical indicators for 2021–2025 and early 2026. Data from the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, the World Bank, the International Finance Corporation, and publications containing information on the structure of business lending were used as the informational base. Indicators were compared by loan portfolio volume, the share of individual borrower categories, access to banking products, and the scale of international programs.

A problem-oriented approach was used to identify the causes of limited access to credit. Barriers were grouped into four areas: informational constraints, imperfect creditworthiness assessment methods, insufficient development of alternative financing, and unequal access among different groups of entrepreneurs. Comparing national practice with international mechanisms made it possible to formulate practical recommendations.

A limitation of the study is the heterogeneity of open statistical data: some indicators reflect loans disbursed during a period, while others reflect the accumulated portfolio as of a specific date. Therefore, the comparative calculations are used to identify general trends and should not be interpreted as fully identical statistical series.

Results and discussion. Uzbekistan's government policy is aimed at expanding financial support for entrepreneurship and building specialized infrastructure. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. UP-193 of 10 November 2023 provides for improving the system of support for small and medium-sized businesses, developing guarantee, compensation, and other instruments, and strengthening the role of development institutions [1]. Resolution of the President

No. PP-306 of 14 September 2023 established measures of financial and institutional support for small business, including mechanisms for continuous project support and the mobilization of state and international resources [2].

The significance of these decisions lies not only in reducing the cost of credit but also in building the infrastructure for selecting, preparing, and supporting projects. However, the effectiveness of legal mechanisms depends on the uniformity of banking practice, the transparency of criteria, and the ability of support institutions not to replace market risk assessment but to complement it with guarantees, advisory assistance, and digital data.

Analysis of the research conducted indicates growth in the absolute volumes of business lending. After the pandemic-related decline, loans to small business entities amounted to UZS 59,552.1 billion in 2021. In 2023, about UZS 160 trillion was directed toward financing entrepreneurial activity within approximately 581 thousand projects [8]. At the same time, the structure of disbursements remained uneven: small enterprises accounted for 23.4%, medium-sized enterprises for 16.2%, while the share of large business reached 54.6% [8].

Table 1.

Dynamics and structure of business lending in Uzbekistan (2021–2025)

Indicator	2021	2023	2025 / early 2026	Share / note
Loans to small enterprises, bln UZS	59,552.1	—	—	23.4% (small, 2023)
Loans to entrepreneurial activity, total, trln UZS	—	≈160	—	≈581 thousand projects
Accumulated SME loan portfolio, trln UZS / share of GDP	—	—	218 (12% of GDP)	as of May 2026
Total loan portfolio of the banking system, trln UZS	—	—	604	+13.3% in 2025
Share of medium-sized enterprises in the loan portfolio	—	—	—	16.2% (2023)
Share of large business in the loan portfolio	—	—	—	54.6% (2023)
Share of individuals (entrepreneurial purposes)	—	—	—	5.9% (2023)

Source: compiled by the author based on data from the Central Bank of the Republic of Uzbekistan.

As of May 2026, the loan portfolio directed to small and medium-sized businesses reached UZS 218 trillion, equivalent to 12% of GDP. The total loan portfolio of the banking system stood at UZS 604.0 trillion as of 1 January 2026, having grown by about 13% over the year. A simple

comparison of the two figures shows that the SME portfolio is equivalent to approximately 36% of the total banking loan portfolio; however, this estimate is approximate given differences in dates and methodology.

The results obtained confirm that the quantitative expansion of lending is proceeding fairly quickly, but its structure is changing more slowly. The concentration of a substantial share of resources among large borrowers is explained by more transparent reporting, a developed collateral base, and lower unit costs for banks in analyzing transactions. Consequently, expanding SME lending requires technologies capable of reducing the cost of information collection and more accurately differentiating risk.

The key constraints on SME access to bank financing are examined below.

The first constraint relates to the insufficient financial transparency of borrowers. The absence of bank accounts among a significant share of enterprises and the low share of electronic sales limit the volume of formalized information on revenue and payment discipline. As a result, banks raise collateral requirements or are forced to apply more costly individual analysis methods.

The second constraint lies in the methodological lag of creditworthiness assessment models. Liquidity, autonomy, and coverage ratios are necessary, but they mainly reflect an enterprise's condition as of the reporting date. For enterprises with seasonal turnover, analysis of cash flows, account movements, tax and utility payments, contracts, and digital business activity is more informative.

The third constraint is the weak development of alternative financing instruments. Factoring allows accounts receivable to be converted into working capital, while leasing enables equipment financing based on the value of the asset itself. International experience shows that such products are especially important for enterprises with a limited credit history and insufficient collateral. In Uzbekistan, the volume of banks' leasing and factoring operations grew in 2025, but remains small relative to the total loan portfolio.

The fourth constraint relates to the gender gap. Women own nearly a third of registered SME entities but receive about 14% of loans in this segment. Possible causes include lower representation in the formal sector, a limited collateral base, a shorter credit history, and insufficient adaptation of banking products to the characteristics of women's entrepreneurship.

In May 2026, a digital financial platform was launched through which an entrepreneur can submit an application and compare offers from several banks. Integration of the platform with government information systems is expected to reduce the volume of required documents and speed up application review. Starting 1 December 2026, the introduction of alternative scoring incorporating artificial intelligence elements is planned, taking into account business activity, turnover, tax and utility payments, and other digital data.

This approach is consistent with the Berger and Udell model: digital data expand the set of “hard” information and partly replace the costly collection of “soft” information [9]. At the same time, automation should not lead to non-transparent rejections. Banks need to ensure the quality of source data, the explainability of scoring decisions, the protection of personal and commercial information, and a procedure for reviewing decisions in the event of an error.

Credit risk sharing remains an important direction. In December 2025, the World Bank approved a USD 100 million loan and a USD 5 million grant for Uzbekistan under the FINGROW project. By 2030, the project is expected to expand access to credit for approximately 7,000 enterprises, including 4,500 companies led by women and youth [9; 10].

IFC also uses direct financing and guarantee instruments. An agreement with Hamkorbank provides for financing of up to USD 50 million, with 35% of funds earmarked for women-led enterprises [8]. In July 2026, IFC provided Ipak Yuli Bank with a two-tranche guarantee facility of USD 18 million to build an SME loan portfolio of approximately USD 100 million in local-currency equivalent. The mechanism is expected to mobilize about USD 82 million in additional lending.

The advantage of a partial guarantee is that it reduces the bank's risk without eliminating the need for borrower analysis. For a sustainable effect, it is advisable to complement international schemes with a national guarantee mechanism featuring uniform loss-sharing requirements, coverage limits, and a performance evaluation system.

Conclusions and proposals. The study shows that the system of corporate lending to small and medium-sized businesses in Uzbekistan is characterized by steady growth in volumes and expanding government and international support. At the same time, quantitative dynamics have not yet ensured equitable access to financing. The main reasons remain the informational opacity of some borrowers, the limitations of traditional analysis models, the insufficient spread of factoring and leasing, and disparities in access among different groups of entrepreneurs.

A key condition for further development is a technological change in the lending process. Integration of banking and government data, cash-flow analysis, and explainable alternative scoring can reduce assessment costs and expand the pool of creditworthy borrowers. However, digitalization must be accompanied by data protection, quality control of models, and the possibility of reviewing automated decisions.

Expanding partial credit guarantees, developing factoring and leasing, improving SME financial transparency, and creating targeted products for women entrepreneurs will help diversify financing sources and reduce the sector's structural dependence on collateral-based bank credit. Consequently, the priority should be not only the further mobilization of credit resources but also improving the quality of financial intermediation, so that financing terms correspond to actual risk and the enterprise's life cycle.

Based on the analysis, it is proposed, first, to move toward a combined creditworthiness assessment that unites financial ratios, cash-flow analysis, transactional data, and industry indicators. The scoring model should not only generate a final score but also display the risk factors influencing the decision.

Second, partial credit guarantees should be expanded through a national system involving the entrepreneurship development company, commercial banks, and international institutions. Coverage should be differentiated by enterprise size, operating history, region, and the project's innovative and export orientation.

Third, it is necessary to develop the legal, digital, and accounting infrastructure for factoring and leasing. An electronic register of receivables assignment, standardized contracts, and bank access to verified accounts-receivable data can reduce operational risks and expand working-capital financing.

Fourth, it is advisable to stimulate the financial formalization of SMEs: the use of bank accounts, non-cash payments, electronic invoices, and digital reporting. These measures create a reliable information trail and reduce uncertainty for the lender.

Fifth, banks should develop separate products for women entrepreneurs and young companies, combining lending with advisory support, financial-planning training, and partial guarantees. Evaluation of such programs should be based not only on disbursement volumes but also on repayment rates, jobs created, and the sustainability of financed enterprises.

REFERENCES

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. UP-193 of 10 November 2023 “On Measures to Improve the System of Financial Support for Small and Medium-Sized Business.”

2. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PP-306 of 14 September 2023 “On Measures of Financial and Institutional Support for the Development of Small Business.”

3. Aimbetov A.D. Dynamics of SME Lending Development in Uzbekistan // Innovations in Science and Technologies. 2025. Vol. 2. No. 8. P. 74–79.

4. Beck T., Demirgüç-Kunt A. Small and Medium-Size Enterprises: Access to Finance as a Growth Constraint // Journal of Banking & Finance. 2006. Vol. 30. No. 11. P. 2931–2943.

5. Berger A.N., Udell G.F. A More Complete Conceptual Framework for SME Finance // Journal of Banking & Finance. 2006. Vol. 30. No. 11. P. 2945–2966.

6. Klapper L. The Role of Factoring for Financing Small and Medium Enterprises // Journal of Banking & Finance. 2006. Vol. 30. No. 11. P. 3111–3130.

7. Azimova Sh.S., Nazarova D.B. Analysis and Assessment of the Creditworthiness of Business Entities by Commercial Banks of the Republic of Uzbekistan // Young Scientist. 2021. No. 40 (382). P. 55–59.

8. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Information on Types of Loans as of 1 January 2026. URL: https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/3326290/

9. World Bank. Improved Access to Finance to Help 7,000 Businesses in Uzbekistan Grow and Create Jobs [Press release]. Washington, D.C., 15 December 2025. URL: https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2025/12/15/improved-access-to-finance-to-help-7000-businesses-in-uzbekistan-grow-and-create-jobs

10. World Bank. Uzbekistan — Access to Finance for Jobs and Growth (FINGROW) Project (P511700): Project Appraisal Document. Washington, D.C., 2025. URL: https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099112125171546006

11. International Finance Corporation. IFC Supports Smaller Businesses and Women Entrepreneurs in Uzbekistan [Press release]. Tashkent, 19 June 2024. URL: https://www.ifc.org/en/pressroom/2025/ifc-supports-smaller-businesses-and-women-entrepreneurs-in-uzbekistan

12. International Finance Corporation. IFC Helps Expand Financing for Uzbekistan's Small Businesses under First Investment through the Catalytic First Loss Guarantee [Press release]. Tashkent, 20 July 2026. URL: https://www.ifc.org/en/pressroom/2026/ifc-helps-expand-financing-for-uzbekistan-s-small-businesses-under-first-investmen

Abdug‘aniyev Ibrohim Abdug‘affor o‘g‘li
Milliy statistika qo‘mitasi, bosh mutaxassis
Email: ibrohimabduganiyev2003@gmail.com

O‘ZBEKISTON KORXONALARIDA RAQAMLI INFRATUZILMAGA BOG‘LIQ OPERATSION XAVFLAR

Абдуганиев Иброхим Абдугаффор угли
Национальный комитет по статистике, главный специалист
Email: ibrohimabduganiyev2003@gmail.com

ОПЕРАЦИОННЫЕ РИСКИ, СВЯЗАННЫЕ С ЦИФРОВОЙ ИНФРАСТРУКТУРОЙ, НА ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА

Abdug‘aniyev Ibrohim Abdug‘affor o‘g‘li
National Statistics Committee, Chief Specialist
Email: ibrohimabduganiyev2003@gmail.com

OPERATIONAL RISKS ASSOCIATED WITH DIGITAL INFRASTRUCTURE IN ENTERPRISES IN UZBEKISTAN

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston korxonalarining iqtisodiy xavfsizligi doirasida raqamli infratuzilmaga bog‘liq operatsion xavflar nazariy jihatdan o‘rganilgan. Ilmiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish, normativ hujjatlar mazmunini o‘rganish va mantiqiy umumlashtirish asosida uzilish sababi, biznes operatsiyasidagi cheklanish va iqtisodiy oqibat o‘rtasidagi bog‘lanish yoritilgan. Ma’lumotning ishonchliligi va muqobil bajarish imkoniyatiga asoslangan qaror qabul qilish tartibi taklif etilgan. Har bir qaror cheklashga qaratilgan xavf, saqlanib qoladigan xavf va bajarilgan ishni tekshirish belgisi ajratilgan. Tartibning qo‘llanishi shartli savdo vaziyatida buyurtmani qayd etish, tasdiqlash, mahsulotni jo‘natish va qaydlarni solishtirish bosqichlari orqali izohlangan. Mas’uliyatni taqsimlash, tashqi xizmatlar bilan ishlash va iqtisodiy oqibatlarni qayd etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tavsiyalarning amaliy samaradorligi o‘lchanmagan.

Kalit so‘zlar: raqamli infratuzilma, operatsion xavf, iqtisodiy xavfsizlik, faoliyat uzluksizligi, biznes operatsiyasi, ma’lumotlar ishonchliligi, muqobil bajarish usuli, boshqaruv qarori.

Аннотация. В статье теоретически рассматриваются операционные риски, связанные с цифровой инфраструктурой, в контексте экономической безопасности предприятий Узбекистана. На основе сравнительного анализа научной литературы, изучения содержания нормативных документов и логического обобщения раскрыта взаимосвязь между причиной сбоя, ограничениями выполнения хозяйственной операции и экономическими последствиями. Предложен порядок принятия решений, основанный на достоверности данных и наличии альтернативного способа выполнения операции. Для каждого решения выделены риск, на ограничение которого оно направлено, сохраняющийся риск и признак, позволяющий проверить выполнение решения. Применение предложенного порядка пояснено на примере условной торговой ситуации, охватывающей регистрацию и подтверждение заказа, отгрузку товара и сверку записей. Разработаны рекомендации по распределению ответственности,

взаимодействию с внешними поставщиками услуг и учёту экономических последствий. Практическая эффективность рекомендаций не измерялась.

Ключевые слова: цифровая инфраструктура, операционный риск, экономическая безопасность, непрерывность деятельности, хозяйственная операция, достоверность данных, альтернативный способ выполнения операции, управленческое решение.

Abstract. The article provides a theoretical examination of operational risks associated with digital infrastructure in the context of enterprise economic security in Uzbekistan. Comparative analysis of academic literature, examination of regulatory documents and logical synthesis are used to explain the relationship between the cause of a disruption, constraints on a business operation and economic consequences. A decision-making procedure based on information reliability and the availability of an alternative way to perform an operation is proposed. For each decision, the risk it aims to limit, the risk that remains and a criterion for verifying implementation are identified. The procedure is illustrated through a hypothetical trading scenario covering order recording, confirmation, goods dispatch and record reconciliation. Recommendations address the allocation of responsibilities, arrangements with external service providers and the recording of economic consequences. The practical effectiveness of the recommendations has not been measured.

Keywords: digital infrastructure, operational risk, economic security, business continuity, business operation, information reliability, alternative operating method, management decision.

Kirish. Raqamli infratuzilma korxonalarda axborot almashinuvi, hisob-kitob va boshqa kundalik operatsiyalarni tashkil etishda muhim o‘rin tutadi. Aloqa tarmoqlari, dasturiy tizimlar va ma’lumotlarni saqlash vositalari bilan bog‘liq uzilishlar biznes operatsiyalarining bajarilishini cheklashi hamda ishlarni tiklash uchun qo‘shimcha resurslar talab qilishi mumkin. Bunday sharoitda raqamli vositalar bilan ular xizmat qiladigan biznes jarayonlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni hisobga olish faoliyat uzluksizligini rejalashtirishning muhim shartidir.[1] Shu jihatdan raqamli infratuzilmaga bog‘liq operatsion xavflarni boshqarish korxonaning majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishi va qo‘shimcha xarajatlarni cheklashi bilan bog‘liq iqtisodiy xavfsizlik masalasi sifatida qaraladi.

O‘zbekistonda raqamli infratuzilmani rivojlantirish va korxonalarga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son farmoni bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ma’lumotlar uzatish tarmog‘ini kengaytirish va tizimlarning ishonchliligini ta’minlash nazarda tutilgan. Shuningdek, korxona ta’minoti bosqichlarini avtomatlashtirish, logistika va xarid xarajatlarini qisqartirish hamda zamonaviy axborot tizimlari yordamida ishlab chiqarishdagi to‘xtalishlarni kamaytirish vazifalari belgilangan.[2]

Ushbu vazifalar korxonalarda raqamli vositalarning barqaror ishlashi va uzilish sharoitida biznes operatsiyalarini boshqarish tartibini o‘rganishning dolzarbligini ko‘rsatadi. Bunda muhim masala — operatsiyani davom ettirish uchun zarur shartlarni aniqlash, qabul qilinadigan qarorning qaysi xavfni cheklashga qaratilganini va undan keyin qanday xavf saqlanib qolishini asoslashdir. Maqolaning maqsadi raqamli infratuzilmaga bog‘liq operatsion xavflarning biznes jarayonlari va xarajatlarga ehtimoliy ta’sirini nazariy jihatdan yoritish hamda operatsiyani davom ettirish shartlariga

[1] Swanson M., Bowen P., Phillips A. W., Gallup D., Lynes D. Contingency Planning Guide for Federal Information Systems. — NIST Special Publication 800-34, Revision 1. — National Institute of Standards and Technology, 2010. — 2010-yil 11-noyabrda yangilangan nashr. Foydalanilgan qismlar: 3.2–3.5-bo‘limlar; jarayonlar va tiklash ustuvorligi bo‘yicha — 3.2-bo‘lim. https://csrc.nist.gov/pubs/sp/800/34/r1/upd1/final

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. — 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son farmon. — Foydalanilgan tahrir: 2026-yil 25-iyul. Foydalanilgan qismlar: 1-ilova, 2.1 va 2.3-paragraflar. https://lex.uz/docs/-5030957

asoslangan qaror qabul qilish tartibini taklif etishdan iborat. Buning uchun mavjud nazariy yondashuvlar o‘rganilib, ma’lumotning ishonchliligi, muqobil bajarish imkoniyati va boshqaruv mas’uliyatini hisobga olgan holda faoliyat uzluksizligini ta’minlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Metodologiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi: tadqiqot obyekti sifatida raqamli infratuzilmaga bog‘liq biznes operatsiyalarini belgilash, ilmiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish, normativ hujjatlar mazmunini o‘rganish, operatsiyani bajarish shartlarini tasniflash va mantiqiy umumlashtirish. Qiyosiy tahlil orqali iqtisodiy xavfsizlik, resurslar va boshqaruv mas’uliyatiga oid yondashuvlar taqqoslandi, hujjatlar tahlili orqali raqamli infratuzilmani rivojlantirishga doir vazifalar aniqlashtirildi. Ma’lumotning ishonchliligi va muqobil bajarish imkoniyatiga ko‘ra qaror qabul qilish holatlari ajratildi. Shartli savdo vaziyatida buyurtmani qayd etish, tasdiqlash, mahsulotni jo‘natish va tizim tiklangach qaydlarni solishtirish bosqichlari ko‘rib chiqildi. Har bir qaror cheklashga qaratilgan xavf, saqlanib qoladigan xavf va qaror bajarilganini tekshirish belgisi sifat jihatidan tavsiflandi. Ushbu usullar operatsion xavflarni boshqarish bo‘yicha nazariy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qildi. Tavsiyalarning amaliy samaradorligi korxona ma’lumotlari asosida o‘lchanmagan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash masalasi mahalliy tadqiqotlarda resurslardan foydalanish va boshqaruvni tashkil etish bilan bog‘liq holda yoritiladi. F. N. Bayboboeva korxonaning barqaror faoliyatini mehnat, moddiy, moliyaviy, intellektual va axborot resurslarining o‘zaro bog‘liqligi orqali izohlaydi. Muallif xavfsizlikni ta’minlovchi funksional elementlarni korxonaning biznes maqsadlariga muvofiqlashtirishga e’tibor qaratadi. Ushbu yondashuv raqamli infratuzilmaga bog‘liq xavflarni korxonaning boshqa resurslari va faoliyat yo‘nalishlari bilan birgalikda o‘rganishga asos bo‘ladi.[3]

X. F. Uktamov sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda boshqaruv qarorlarini qabul qilish, muvofiqlashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish masalalariga urg‘u beradi. Uning tadqiqotida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlovchi bo‘linmaning rahbariyat, iqtisodiy bo‘lim va buxgalteriya bilan hamkorligi ko‘rib chiqiladi. Bayboboevaning resurslar o‘rtasidagi bog‘liqlikka asoslangan yondashuvini Uktamovning tashkiliy boshqaruvga oid qarashlari to‘ldiradi. Bu qarashlar raqamli tizimlar bilan bog‘liq muammolarni hal etishda mas’uliyat va bo‘linmalar hamkorligini o‘rganish uchun ahamiyatlidir.[4]

Sh. K. Jalilov va F. I. Gulbayeva raqamli transformatsiyani boshqarishda xodimlarning o‘zgarishlarga tayyorgarligi, mavjud tizimlarni yangilash va texnologiyalarni korxona maqsadlariga moslashtirish masalalarini yoritadi. Mualliflar yangi raqamli vositalarni joriy etishdan oldin amaldagi jarayonlar va korxona ehtiyojlarini o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi. Mazkur yondashuv avvalgi qarashlarni raqamlashtirish sharoitida davom ettirib, xodimlar tayyorgarligi va tashkiliy muvofiqlikni xavflarni o‘rganishning muhim yo‘nalishlari sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi.[5]

---

[3] Bayboboeva F. N. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning yo‘nalishlari va funktsional elementlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2023. — 11-jild, 3-son. Foydalanilgan betlar: 265–267. https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit/article/view/303

[4] Uktamov X. F. Sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning ilmiy-nazariy asoslari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2023. — 11-jild, 3-son. Foydalanilgan betlar: 273–275. https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit/article/view/304

[5] Jalilov Sh. K., Gulbayeva F. I. Sanoat korxonalarida raqamli transformatsiyani boshqarishning samaradorlik modellari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. — 2024. — 2-jild, 11-son. Foydalanilgan betlar: 156–159. https://sci-p.uz/index.php/eitt/article/view/1846

Operatsion xavf tushunchasini aniqlashtirishda Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasining yondashuvi ham ahamiyatga ega. Unda operatsion xavf ichki jarayonlar, insonlar va tizimlardagi kamchiliklar yoki tashqi hodisalar oqibatida yuzaga keladigan yo‘qotish xavfi sifatida izohlanadi. Banklar uchun ishlab chiqilgan ushbu ta’rif maqolada xavf manbalarini farqlash uchun tushunchaviy asos sifatida qo‘llanadi.[6]

Ko‘rib chiqilgan yondashuvlar resurslar xavfsizligi, boshqaruv mas’uliyati va raqamli o‘zgarishlarga tayyorgarlik masalalarini o‘zaro bog‘laydi. Bizning fikrimizcha, ularni birgalikda qo‘llash raqamli infratuzilmaga bog‘liq operatsion xavflarni tizimlashtirish hamda faoliyat uzluksizligini ta’minlashga qaratilgan tavsiyalarni asoslash imkonini beradi.

Tahlil va natijalar.

Raqamli infratuzilmaga bog‘liq operatsion xavflarni korxona iqtisodiy xavfsizligi doirasida o‘rganish uchun texnik nosozlik kundalik operatsiyalarning bajarilishiga qanday ta’sir qilishini aniqlash zarur. Bunda tahlil obyekti sifatida alohida biznes operatsiyasini olish maqsadga muvofiq: buyurtmani qabul qilish, ombordan mahsulot chiqarish yoki hisob-kitobni bajarish. Bunday yondashuv axborot, mehnat va moliyaviy resurslarning o‘zaro bog‘liqligi hamda bo‘linmalar faoliyatini muvofiqlashtirishga oid nazariy qarashlarga tayanadi.3,4

Maqolada operatsion xavfni uchta bog‘langan jihat orqali tahlil qilish taklif etiladi: uzilishga sabab bo‘lgan omil, uning muayyan operatsiyani bajarishga ta’siri va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy oqibat. Masalan, internetning uzilishi — sabab; buyurtmani tasdiqlashning kechikishi — jarayondagi cheklanish; tushumning kechikishi yoki ma’lumotni qayta kiritish uchun qo‘shimcha mehnat sarfi — ehtimoliy iqtisodiy oqibatdir. Ushbu ajratish bir texnik hodisani avtomatik ravishda korxonaning umumiy zarari sifatida baholashdan saqlaydi.

Xavf sababini aniqlashda texnik va tashkiliy omillar birgalikda ko‘rib chiqiladi. Dastur ishlayotgan bo‘lsa ham, xodimning undan foydalanish tartibini bilmasligi yoki ma’lumotni tekshirish uchun mas’ul shaxs belgilanmagani operatsiyani bajarishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu bois tizimni yangilash, xodimlarni tayyorlash va vazifalarni taqsimlash o‘zaro muvofiqlashtirilishi lozim. Bu yondashuv raqamli o‘zgarishlarni korxona ehtiyojlari va xodimlar tayyorgarligi bilan bog‘lash haqidagi tavsiyalarga asoslanadi.5

Faoliyat uzluksizligini rejalashtirishda muhim jarayonlar, zarur resurslar va tiklash ustuvorligini aniqlash tayanch tamoyil hisoblanadi.1 Mazkur tamoyilni korxonaning kundalik boshqaruviga moslashtirish uchun har bir operatsiya bo‘yicha ikkita savolga javob berish taklif etiladi: **Ishni bajarish uchun yetarli va ishonchli ma’lumot mavjudmi? Operatsiyani muqobil usulda bajarish imkoniyati bormi?** Birinchi savol ma’lumotning mavjudligi bilan birga uning to‘liqligi va dolzarbligini ham qamrab oladi. Ikkinchi savolga javob berishda muqobil usulning ishlashi tekshirilgani, korxona tartiblariga mosligi va mas’ul xodimga ma’lumligi hisobga olinadi.

Operatsiyani davom ettirish haqida qaror qabul qilishda zarur ma’lumotning ishonchliligi va muqobil bajarish imkoniyati birgalikda ko‘rib chiqiladi. Ma’lumot aynan bajariladigan operatsiya uchun yetarli, to‘liq va dolzarb bo‘lishi kerak. Muqobil usul esa korxonaning belgilangan tartibiga mos, zarur vositalar bilan ta’minlangan va mas’ul xodimga ma’lum bo‘lishi lozim. Ushbu shartlar asosida boshqaruv qarorini, u cheklashga qaratilgan xavfni hamda qaror bajarilganini tekshirish belgisini ajratib ko‘rsatish taklif etiladi (1-jadval).

[6] Basel Committee on Banking Supervision. Revisions to the Principles for the Sound Management of Operational Risk. — Bank for International Settlements, 2021. — Mart. Foydalanilgan qismlar: 1-band (2-bet) va 54-band (15-bet). https://www.bis.org/publications/202103-guidelines-revisions-principles-sound-management-operational-risk.pdf

1-jadval.

Raqamli uzilish sharoitida operatsiyani boshqarish qarorlari va ularning xavflarga kutilayotgan ta’siri

Operatsiyani bajarish shartlari	Taklif etilayotgan boshqaruv qarori	Qaror cheklashga qaratilgan xavf	Saqlanib qoladigan xavf	Qaror bajarilganini tekshirish belgisi
Ma’lumot ishonchli, muqobil usul mavjud	Operatsiyani muqobil usulda bajarish, natijasini qayd etish va tizim tiklangach solishtirish.	Operatsiyaning bajarilmay qolishi yoki bajarilgan ishning qaydsiz qolishi.	Muqobil tartibda ishlash va ma’lumotlarni asosiy tizimga kiritishdagi xatolar.	Bajarilgan operatsiya qaydi mavjud; tizim tiklangach uning mazmuni va takroran kiritilmagani tekshirilgan.
Ma’lumot ishonchli, muqobil usul mavjud emas	Bajarilishi kutilayotgan operatsiyani qayd etish, ma’lumotlarni saqlash va zarur vositani tiklashni tashkil etish.	Kutilayotgan ishning hisobdan chetda qolishi yoki uni bajarish uchun zarur ma’lumotning yo‘qolishi.	Operatsiyaning kechikishi, buyurtmaning bekor qilinishi va tiklash uchun qo‘shimcha xarajatlar.	Kutilayotgan operatsiya qayd etilgan; vosita tiklangach uning bajarilgan yoki bekor qilingan holati aniqlashtirilgan.
Ma’lumot mavjud emas yoki ishonchliligi tasdiqlanmagan, muqobil usul mavjud	Zarur ma’lumotni tekshirish; tasdiqlanmaguncha operatsiyani yakunlamaslik.	Noto‘g‘ri ma’lumot asosida buyurtmani tasdiqlash yoki mahsulotni jo‘natish.	Ma’lumotni aniqlashtirish davridagi kechikish va tekshirishda xatoga yo‘l qo‘yish.	Ma’lumot manbasi va tekshirgan mas’ul xodim qayd etilgan; operatsiya tasdiqlangan ma’lumot asosida bajarilgan.
Ishonchli ma’lumot ham, muqobil usul ham mavjud emas	Operatsiyani vaqtincha to‘xtatish; ma’lumot va bajarish vositasini tiklash vazifalarini mas’ullar o‘rtasida taqsimlash.	Zarur shartlar ta’minlanmagan holda operatsiyani bajarishga urinishdan kelib chiqadigan qo‘shimcha xatolar.	Faoliyatdagi to‘xtalish, majburiyatlarning kechikishi va tiklash xarajatlari.	Operatsiya qayta boshlanishidan oldin ma’lumotning ishonchliligi va bajarish vositasining ishlashi tekshirilgan.

Manba: olib borilgan nazariy tadqiqotlar asosida muallif taklifi.

Jadvaldagi holatlar har bir operatsiyaga alohida qo‘llanadi. Masalan, shartli savdo vaziyatida mijozning murojaatini qayd etish uchun mahsulot nomi, talab qilingan miqdor va bog‘lanish ma’lumotlari yetarli bo‘lishi mumkin. Buyurtmani tasdiqlash uchun esa ombordagi qoldiq va avvalgi buyurtmalar uchun ajratilgan mahsulot miqdori ham tekshirilishi kerak. Shuning uchun bir xil uzilish

sharoitida buyurtmani qayd etishni davom ettirish, uni tasdiqlashni esa vaqtincha kutish haqidagi qarorlar bir-biriga zid hisoblanmaydi.

Qarorning xavfga ta’siri uning qaysi oqibatni cheklashga qaratilgani orqali izohlanadi. Muqobil usulda ishlash operatsiyaning to‘xtab qolishini cheklashga qaratilsa, ma’lumot tasdiqlanguncha kutish noto‘g‘ri buyurtma yoki jo‘natish bilan bog‘liq xatolarni cheklashga xizmat qiladi. Biroq kutish qarori kechikish xavfini kamaytirmaydi va kutish uzaygan sari mijozning buyurtmadan voz kechish ehtimoli saqlanadi. Demak, bir xavfni cheklashga qaratilgan qarorni korxonaning barcha operatsion xavflarini kamaytiruvchi chora sifatida baholash asosli emas.

Jadvalning oxirgi ustunida boshqaruv qarori bajarilganini tekshirish uchun tavsiya etilayotgan belgilar keltirilgan. Operatsiyaning qayd etilishi, ma’lumotning tekshirilishi yoki vositaning tiklanishi tegishli ish bajarilganini ko‘rsatadi; bu belgilar xavfning kamayish miqdorini o‘lchamaydi. Jadvalda qarorlarning ta’siri nazariy jihatdan tavsiflangan. Ularning amaldagi samaradorligini baholash uchun uzilishlar, kechikkan operatsiyalar, qayd xatolari va qo‘shimcha xarajatlar bo‘yicha korxona ma’lumotlari talab etiladi.

Taklif etilgan qaror qabul qilish tartibini savdo korxonasining buyurtmani bajarish jarayoniga oid shartli vaziyat orqali tushuntirish mumkin. Faraz qilaylik, korxonada buyurtmalar va ombor hisobi onlayn tizimda yuritiladi. Internet uzilishi sababli tizimdan foydalanish cheklangan, ammo elektr ta’minoti va mobil telefon aloqasi mavjud. Mijoz buyurtma qilayotgan mahsulotning nomi va miqdori ma’lum, biroq ombordagi joriy qoldiq hamda avvalgi buyurtmalar uchun ajratilgan mahsulot miqdorini tizim orqali tekshirish imkoni yo‘q. Bunday vaziyatda buyurtmani qayd etish, tasdiqlash va mahsulotni jo‘natish bo‘yicha qarorlar alohida qabul qilinishi taklif etiladi.

Buyurtmani qayd etish bosqichida savdo uchun mas’ul xodim mijozning murojaatini telefon orqali qabul qilib, vaqtinchalik qayd varaqasiga kiritadi. Unda buyurtmaning qayd raqami, qabul qilingan vaqti, mahsulot nomi, miqdori va mijoz bilan bog‘lanish ma’lumotlari ko‘rsatiladi. Buyurtma tekshirishni kutayotgan sifatida belgilanadi va mijozga uning bajarilishi hali tasdiqlanmagani bildiriladi. Bu qaror murojaatning qayd etilmay qolish xavfini cheklashga qaratiladi. Biroq mahsulot mavjudligi tekshirilmagani sababli buyurtmaning bajarilish muddati bo‘yicha noaniqlik saqlanadi.

Buyurtmani tasdiqlash bosqichida ombor uchun mas’ul xodim mahsulotning mavjud miqdorini va uning boshqa buyurtmalar uchun ajratilgan qismini aniqlashtirishi kerak. Mahsulotni joyida sanash uning qancha qismi avvalgi buyurtmalar uchun band qilinganini ko‘rsatmaydi. Shu sababli jismoniy qoldiq haqidagi ma’lumot mavjud buyurtma qaydlari bilan solishtiriladi. Agar muqobil qaydlarning to‘liqligi va dolzarbligi tasdiqlansa, savdo uchun mas’ul xodim buyurtmani mavjud imkoniyat doirasida tasdiqlashi mumkin. Ushbu ma’lumotlar ishonchli bo‘lmasa, tasdiqlash kutiladi. Bu qaror bajarish imkoniyati tekshirilmagan buyurtma bo‘yicha majburiyat olish xavfini cheklashga qaratiladi, ammo kutish tufayli mijozning buyurtmadan voz kechish ehtimoli saqlanadi.

Mahsulotni jo‘natish bosqichida tasdiqlangan buyurtma, tekshirilgan qoldiq va jo‘natishni korxonaning belgilangan tartibida rasmiylashtirish imkoniyati birgalikda hisobga olinadi. Ushbu shartlar mavjud bo‘lsa, ombor mas’uli jo‘natiladigan mahsulotning nomi va miqdorini buyurtma bilan solishtirib, bajarilgan operatsiyani vaqtinchalik qaydda belgilaydi. Rasmiylashtirish imkoniyati bo‘lmasa, mahsulot mavjudligining o‘zi jo‘natishni boshlash uchun yetarli asos sifatida olinmaydi. Solishtirish va bajarilgan ishni belgilash noto‘g‘ri mahsulot jo‘natish hamda bir buyurtmani takroran bajarish xavflarini cheklashga qaratiladi. Shu bilan birga, vaqtinchalik qaydlarni yuritishda xodim xatosi yuz berishi mumkinligi hisobga olinadi.

Tizim tiklangach, hisob yuritish uchun mas’ul xodim vaqtinchalik qaydlarni asosiy tizim bilan solishtiradi. Har bir buyurtmaning qayd raqami bo‘yicha uning qabul qilingani, tasdiqlangani va jo‘natilgani tekshiriladi; tizimda mavjud yozuv takroran kiritilmaydi. Aniqlangan tafovutlar tegishli savdo yoki ombor xodimi bilan birgalikda aniqlashtiriladi. Bajarilishi kechikkan va bekor qilingan buyurtmalar, shuningdek, qaydlarni tiklashga sarflangan qo‘shimcha mehnat alohida qayd etiladi. Shu tariqa mazkur shartli vaziyatda qarorning maqsadi, uni bajarish sharti va undan keyin saqlanib qoladigan xavf har bir operatsiya bo‘yicha ajratib ko‘rsatiladi.

Tashqi xizmatga bog‘liq operatsiyalarda korxonaning o‘z imkoniyati bilan bajaradigan ishlari va yetkazib beruvchi bajarishi kerak bo‘lgan ishlar ham ajratiladi. Banklar uchun ishlab chiqilgan operatsion xavfni boshqarish tamoyillarida tashqi xizmat shartnomalarida mas’uliyat, ma’lumotlarga egalik va faoliyatni davom ettirish choralarini belgilash nazarda tutilgan.6 Ushbu tamoyildan kelib chiqib, korxona o‘z operatsiyalari bo‘yicha yetkazib beruvchiga murojaat qilish tartibi, tiklash shartlari va boshqa xizmatga o‘tish imkoniyatini oldindan aniqlashtirishi tavsiya etiladi. Masalan, muammo tashqi platformaning o‘zida bo‘lsa, internet kanalini almashtirishning o‘zi shu platformadagi operatsiyani tiklamaydi.

Taklif etilgan tartibni qo‘llash uchun har bir muhim operatsiya uchun qayd varaqasini yuritish mumkin. Unda foydalaniladigan raqamli vosita, zarur ma’lumot, muqobil bajarish usuli, mas’ul xodim va ish yakunlanganini tekshirish sharti ko‘rsatiladi. Uzilish sodir bo‘lganda ushbu qayd varaqasiga bajarilishi kechikkan ishlar va tiklash uchun sarflangan qo‘shimcha resurslar kiritiladi. Bu taklif bo‘linmalar hamkorligiga oid yondashuvni aniq vazifa va javobgarlik darajasida qo‘llashga qaratilgan.4

Iqtisodiy oqibatlarni qayd etishda qo‘shimcha tiklash xarajatlari, qayta bajarilgan ishlar va tushumning kechikishini alohida ko‘rsatish taklif etiladi. Kechiktirilgan buyurtma keyinchalik bajarilsa, uning qiymatini yo‘qotilgan tushum sifatida qayd etish asosli bo‘lmaydi. Bekor qilingan buyurtma esa alohida holat sifatida tekshiriladi. Shuningdek, korxonaning odatiy xarajatlari bilan aynan uzilish sababli yuzaga kelgan qo‘shimcha sarflar farqlanadi. Bunday qaydlar keyinchalik uzilish oqibatlarini tahlil qilish uchun ma’lumotlarni tizimli ravishda qayd etishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning nazariy-amaliy natijasi — raqamli uzilish sababini alohida biznes operatsiyasi bilan bog‘lash, ikki shart asosida operatsiyani davom ettirish haqida qaror qabul qilish va iqtisodiy oqibatlarni alohida qayd etishni birlashtirgan boshqaruv tartibidir. Uni O‘zbekiston korxonalarida qo‘llashda faoliyat turi, mavjud resurslar va ichki ish tartiblari hisobga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqotda raqamli infratuzilmaga bog‘liq operatsion xavflar uzilish sababi, alohida biznes operatsiyasidagi cheklanish va ehtimoliy iqtisodiy oqibat o‘rtasidagi bog‘lanish orqali yoritildi. Ma’lumotning ishonchliligi va muqobil bajarish imkoniyatiga asoslangan qaror qabul qilish tartibi taklif etildi. Ushbu tartibda operatsiyani bajarish shartlari, boshqaruv qarori, qaror cheklashga qaratilgan xavf, saqlanib qoladigan xavf va bajarilgan ishni tekshirish belgisi birgalikda ko‘rsatiladi. Bu yondashuv raqamli uzilish paytida qaysi operatsiyani davom ettirish mumkinligini va qaysi shartlarni avval ta’minlash zarurligini aniqlashtirishga qaratilgan.

Shartli savdo vaziyatini ko‘rib chiqish orqali bir uzilish sharoitida turli operatsiyalar uchun turlicha qaror zarurligi izohlandi. Mijozning murojaatini qayd etish uchun yetarli ma’lumot mavjud bo‘lishi mumkin, biroq buyurtmani tasdiqlash va mahsulotni jo‘natish qo‘shimcha tekshiruvlarni talab qiladi. Shuningdek, bir xavfni cheklash boshqa xavflarning ham kamayganini anglatmaydi. Ma’lumot tasdiqlanguncha kutish noto‘g‘ri buyurtma yoki jo‘natish bilan bog‘liq xatolarni

cheklashga qaratiladi, ammo operatsiyaning kechikishi va mijozning buyurtmadan voz kechish ehtimoli saqlanadi. Shu sababli boshqaruv qarorida uning foydali ta’siri bilan birga saqlanib qoladigan cheklanishlar ham hisobga olinishi lozim.

Taklif etilgan tartibni korxonada qo‘llash uchun avvalo muhim biznes operatsiyalarini aniqlash tavsiya etiladi. Har bir operatsiya bo‘yicha foydalaniladigan raqamli vosita, zarur ma’lumot, muqobil bajarish usuli, mas’ul xodim va natijani tekshirish sharti qayd varaqasida ko‘rsatilishi mumkin. Buyurtmani qayd etish, tasdiqlash va mahsulotni jo‘natish kabi bosqichlar alohida ajratilishi kerak. Bu vazifalar bo‘yicha mas’uliyatning aniq belgilanishi uzilish paytida kim ma’lumotni tekshirishi, kim qaror qabul qilishi va kim bajarilgan ishni qayd etishini oldindan aniqlashtiradi.

Muqobil ishlash tartibiga o‘tishdan oldin uning amalda bajarilishi uchun zarur vositalar va ma’lumotlar mavjudligi tekshirilishi lozim. Xodimlarni tayyorlash ham aynan shu tartibga bog‘lanishi kerak. Operatsiyani qayd etish imkoniyati uning bajarilishini tasdiqlash uchun avtomatik asos sifatida olinmasligi zarur. Masalan, buyurtmaning vaqtinchalik ro‘yxatga kiritilishi mahsulot mavjudligi tekshirilganini yoki uning jo‘natilganini anglatmaydi. Har bir bosqichning bajarilgan holati tegishli qayd bilan tasdiqlanishi tavsiya etiladi.

Tizim tiklangach, vaqtinchalik qaydlarni asosiy tizimdagi yozuvlar bilan solishtirish ishni yakunlashning majburiy ichki bosqichi sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq. Bunda buyurtmaning qayd raqami, mahsulot nomi, miqdori va bajarilish holati tekshiriladi. Mavjud yozuvni takroran kiritmaslik, qayd etilmay qolgan operatsiyalarni aniqlash hamda tafovutlarni mas’ul xodimlar bilan aniqlashtirish zarur. Ushbu tekshiruvlar qarorning bajarilishi va hisobda aks etishini nazorat qilishga xizmat qiladi.

Tashqi raqamli xizmatlardan foydalanishda korxona va yetkazib beruvchining vazifalarini oldindan kelishish tavsiya etiladi. Uzilish haqida xabar berish, xizmatni tiklash, ma’lumotlardan foydalanish va boshqa xizmatga o‘tish shartlari aniqlashtirilishi lozim. Korxona o‘z imkoniyatlari bilan bartaraf eta oladigan cheklanishlar yetkazib beruvchining ishtirokini talab qiladigan holatlardan ajratilishi kerak. Shu asosda tiklash ishlari muammoning haqiqiy sababiga yo‘naltiriladi.

Iqtisodiy oqibatlarni qayd etishda qo‘shimcha tiklash xarajatlari, ishlarni qayta bajarishga sarflangan mehnat, tushumning kechikishi va bekor qilingan buyurtmalar alohida ko‘rsatilishi zarur. Keyinchalik bajarilgan buyurtmaning qiymatini yo‘qotilgan tushum sifatida qayd etish asosli bo‘lmaydi. Korxonaning odatiy xarajatlari bilan aynan uzilish sababli yuzaga kelgan qo‘shimcha sarflar ham farqlanishi kerak. Bunday qaydlar uzilish oqibatlarini keyinchalik korxonaning haqiqiy ma’lumotlari asosida tahlil qilish uchun xizmat qiladi.

Taklif etilgan tartibni O‘zbekiston korxonalarida qo‘llash faoliyat turi, mavjud resurslar va ichki ish tartiblariga moslashtirishni talab etadi. Tadqiqotda qarorlarning xavflarga ta’siri nazariy jihatdan izohlandi. Qarorning bajarilganini tasdiqlovchi qayd yoki tekshiruv belgisi xavfning kamayish darajasini o‘lchamaydi. Amaliy samaradorlikni baholash uchun operatsiyalarning kechikishi, qayd xatolari va qo‘shimcha xarajatlar haqidagi kuzatuv ma’lumotlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Swanson M., Bowen P., Phillips A. W., Gallup D., Lynes D. Contingency Planning Guide for Federal Information Systems. — NIST Special Publication 800-34, Revision 1. — National Institute of Standards and Technology, 2010. — 2010-yil 11-noyabrda yangilangan nashr. https://csrc.nist.gov/pubs/sp/800/34/r1/upd1/final.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. — 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son farmon. — Foydalanilgan tahrir: 2026-yil 25-iyul. https://lex.uz/docs/-5030957.

3. Bayboboeva F. N. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning yo‘nalishlari va funktsional elementlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2023. — 11-jild, 3-son. — B. 262–268. https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit/article/view/303.

4. Uktamov X. F. Sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning ilmiy-nazariy asoslari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2023. — 11-jild, 3-son. — B. 269–276. https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit/article/view/304.

5. Jalilov Sh. K., Gulbayeva F. I. Sanoat korxonalarida raqamli transformatsiyani boshqarishning samaradorlik modellari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. — 2024. — 2-jild, 11-son. — B. 152–159. https://sci-p.uz/index.php/eitt/article/view/1846.

6. Basel Committee on Banking Supervision. Revisions to the Principles for the Sound Management of Operational Risk. — Bank for International Settlements, 2021. — Mart. https://www.bis.org/publications/202103-guidelines-revisions-principles-sound-management-operational-risk.pdf.

Ismoilova Mohiraxon Iqbol qizi,
TDIU MMT-59/24 guruhi talabasi
mohiraismoilova562@gmail.com
ORCID: 0009-0009-1411-7190

DAVLAT BUDJETINI NATIJAGA YO‘NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISH ASOSIDA BOSHQARISH

Исмоилова Мохирахон Икбол кизи,
студентка группы ТДИУ ММТ-59/24
mohiraismoilova562@gmail.com
ORCID: 0009-0009-1411-7190

УПРАВЛЕНИЕ ГОСУДАРСТВЕННЫМ БЮДЖЕТОМ НА ОСНОВЕ БЮДЖЕТИРОВАНИЯ, ОРИЕНТИРОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТ

Ismoilova Mohiraxon Iqbol qizi,
Student of TDIU MMT-59/24 group
mohiraismoilova562@gmail.com
ORCID: 0009-0009-1411-7190

MANAGING THE STATE BUDGET THROUGH PERFORMANCE-BASED BUDGETING

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat budjetini natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish asosida boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda an’anaviy budjetlashtirishning cheklovlari, budjet mablag‘lari, davlat faoliyati va erishiladigan natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlik hamda natijadorlik ko‘rsatkichlaridan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishning xalqaro amaliyoti Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a’zo mamlakatlar misolida tahlil qilinib, natijadorlik ma’lumotlarining budjet mablag‘larini taqsimlash, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ko‘p yillik rejalashtirishdagi o‘rni baholangan.

Kalit so‘zlar: natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish, davlat budjeti, budjet mablag‘lari, natijadorlik ko‘rsatkichlari, budjet xarajatlari, budjet jarayoni, davlat xarajatlari, budjet samaradorligi, natijalarni baholash, moliyaviy resurslar, hisobdorlik, IHTT.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты управления государственным бюджетом на основе бюджетирования, ориентированного на результативность. Исследуются ограничения традиционного подхода к бюджетированию, взаимосвязь между бюджетными ресурсами, деятельностью государственных органов и достигнутыми результатами, а также значение показателей результативности в управлении бюджетными средствами. Международная практика бюджетирования, ориентированного на результативность, анализируется на примере стран ОЭСР, при этом особое внимание уделяется использованию информации о результативности при распределении бюджетных ресурсов, принятии управленческих решений и среднесрочном планировании.

Ключевые слова: бюджетирование, ориентированное на результативность, государственный бюджет, бюджетные ресурсы, показатели результативности, бюджетные

расходы, бюджетный процесс, государственные расходы, эффективность бюджета, оценка результативности, финансовые ресурсы, подотчётность, ОЭСР.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of managing the state budget through results-based budgeting. The study discusses the limitations of traditional budgeting, the relationship between budget resources, government activities and achieved results, and the importance of performance indicators in budget management. The international practice of results-based budgeting is analyzed based on OECD countries, with particular attention given to the use of performance information in budget allocation, managerial decision-making and multi-year planning.

Keywords: results-based budgeting, state budget, budget resources, performance indicators, budget expenditures, budget process, public expenditure, budget efficiency, performance evaluation, financial resources, accountability, OECD.

KIRISH

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan har qanday xarajat, avvalo, muayyan iqtisodiy yoki ijtimoiy natijaga erishishga xizmat qilishi lozim. Budjetdan ajratilgan mablag‘larning o‘zi yakuniy natija emas, balki davlat oldiga qo‘yilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moliyaviy vosita hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, davlat xarajatlarining samaradorligini baholashda ularning yaratgan ijtimoiy hamda iqtisodiy qaytimi tushunchalari muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy qaytim xarajatlar natijasida ishlab chiqarish, bandlik, daromadlar, mehnat unumdorligi yoki iqtisodiy faollikning ortishi kabi o‘zgarishlarda namoyon bo‘lsa, ijtimoiy qaytim aholining turmush darajasi, davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati va inson kapitali rivojlanishidagi ijobiy natijalarni ifodalaydi. Mazkur natijalar qanchalik yuqori bo‘lsa, sarflangan budjet mablag‘larining maqsadga muvofiqligi va samaradorligini shunchalik yuqori baholash mumkin. Bu esa ko'p jihatdan mavjud moliyaviy resurslarning qaysi yo‘nalishlarga va qanday mezonlar asosida safarbar etilishiga bog‘liq. Ayniqsa, iqtisodiy ehtiyojlarning kengayib borishi bilan bir qatorda davlatning moliyaviy imkoniyatlari cheklangan sharoitda budjet mablag‘laridan foydalanish masalasi oddiy moliyalashtirish jarayonidan kengroq mazmun kasb etib boradi. Ushbu jarayonda asosiy e’tibor qancha mablag‘ sarflanganiga emas, balki sarflangan mablag‘ evaziga qanday iqtisodiy va ijtimoiy samara yaratilganiga qaratilmoqda. Shu jihatdan davlat budjetini resurslarni taqsimlashning an'anaviy vositasi sifatida talqin qilishdan tashqari, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini amaliy natijalar bilan bog‘lovchi boshqaruv instrumenti sifatida ham qaralishi lozim. Biroq amaliyotda davlat xarajatlarining samaradorligini faqat ajratilgan mablag‘larning belgilangan maqsadlar uchun sarflangani yoki budjet mablag‘larining to‘liq o‘zlashtirilgani bilan izohlab bo‘lmaydi. Mablag‘larning o‘zlashtirilishi moliyaviy intizomni ifodalashi mumkin, biroq ularning iqtisodiy yoki ijtimoiy natija yaratganini avtomatik ravishda anglatmaydi. Masalan, ma’lum bir davlat dasturi doirasida rejalashtirilgan mablag‘ning to‘liq sarflanishi uning oldiga qo‘yilgan maqsadlarga to‘liq erishilganligini bildirmaydi. Shu sababli zamonaviy davlat moliyasida budjet xarajatlarini baholash mezoni sifatida “qancha mablag‘ sarflandi?” degan savol bilan bir qatorda “ushbu mablag‘ evaziga qanday natijaga erishildi?” degan savolning ham markaziy o‘rin egallashi talab etiladi. Mazkur yondashuv budjet resurslarini shakllantirish va taqsimlash jarayonida natijadorlikni oldindan belgilash, uni o‘lchash hamda erishilgan natijalarni keyingi moliyaviy qarorlar bilan bog‘lash zaruratini yuzaga keltiradi. Aynan shu ehtiyoj natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish yondashuvining shakllanishiga asos bo‘lgan.

Natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish — budjet resurslarini davlat siyosatining aniq maqsadlari va ularga erishish natijalarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar bilan bog‘lashga asoslangan budjetlashtirish yondashuvidir. [1]

Ushbu yondashuvda budjet dasturlarini shakllantirish, mablag‘larni taqsimlash va ularning ijrosini baholash jarayonlari yagona natijadorlik mezonlari bilan o‘zaro bog‘lanadi. Bu esa budjet qarorlarining asoslanganligini oshirish bilan birga, davlat xarajatlarining jamiyat uchun yaratadigan qiymatini aniqlash imkonini kengaytiradi. Natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishning muhim jihati shundaki, u budjet jarayonining alohida bosqichini emas, balki rejalashtirishdan tortib mablag‘larni taqsimlash, ijro etish, monitoring qilish va yakuniy natijalarni baholashgacha bo‘lgan jarayonni yagona mantiqiy tizimga birlashtirishga intiladi. Bunda davlat dasturlarining maqsadlari aniq shakllantirilishi, ushbu maqsadlarga mos natija ko‘rsatkichlari belgilanib, ajratiladigan resurslar bilan kutilayotgan natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlik asoslanishi lozim.

Mazkur yondashuvning ahamiyati davlat budjeti oldida bir vaqtning o‘zida ko‘plab va o‘zaro raqobatlashuvchi ehtiyojlar mavjud bo‘lgan sharoitda yanada ortadi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, infratuzilma, ijtimoiy himoya, bandlik va iqtisodiy rivojlanish kabi yo‘nalishlarning har biri muayyan moliyaviy resurslarni talab etadi. Shu bois, budjet mablag‘larini faqat mavjud ehtiyojlar o‘rtasida taqsimlash bilan cheklanmay, yuqori ijtimoiy-iqtisodiy samara keltirishi kutilayotgan yo‘nalishlarni aniqlash va ularni ustuvor moliyalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish aynan shu orqali budjet siyosatini resurslarni taqsimlash vositasidan strategik ustuvorliklarni belgilash va kutilayotgan natijalarga erishishni ta’minlash mexanizmiga aylantirish imkonini beradi. O‘zbekistonda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish doirasida ham budjet jarayonining natijadorligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 210-son qarori bilan tasdiqlangan “2025–2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi”da davlat moliyasini mamlakatning strategik maqsadlari bilan uyg‘unlashtirish, budjet jarayonlarini takomillashtirish va davlat resurslaridan samarali foydalanish mexanizmlarini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. [2]

ADABIYOTLAR TAHLILI

Davlat moliyasini boshqarish sohasida ko'p yillik tajribaga ega amerikalik mutaxasis Stiv Montano an’anaviy budjetlashtirish amaliyotini tahlil qilar ekan, inkremental budjetlashtirish yondashuvida o‘tgan davrda shakllangan budjet taqsimotlari joriy ehtiyojlarni belgilash uchun asosiy mezon sifatida qabul qilinishini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, bunday yondashuv sodda va qulay bo‘lishiga qaramay, vaqt o‘tishi bilan avvalgi xarajatlar tarkibining saqlab qolinishga olib kelishi va jamiyat ehtiyojlaridagi o‘zgarishlarni budjetda yetarlicha aks ettirmasligi mumkin. Natijada ustuvorligi oshib borayotgan xizmatlar yetarli darajada moliyalashtirilmasligi, dasturlarning jamiyat uchun yaratgan haqiqiy qiymatini baholash imkoniyatlari cheklanishi hamda tarkibiy moliyaviy muammolarni hal qilish o‘rniga bir marttalik daromad manbalaridan foydalanish kabi qisqa muddatli yechimlarga murojaat qilish kuchayishi mumkin. Montanoning yondashuvida muammoning asosiy yechimi budjet mablag‘larini shunchaki avvalgi taqsimot asosida oshirish emas, balki ularni erishilishi lozim bo‘lgan natijalar bilan bog‘lashdan iborat. Muallif natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishni resurslarni avvalo jamiyat uchun eng muhim bo‘lgan natijalarni aniqlash va ushbu natijalarga erishishga yo‘naltirishga asoslangan yondashuv sifatida ko‘rsatadi. Bunda dastlab ustuvor yo‘nalishlar manfaatdor tomonlar ishtirokida belgilanadi, keyinchalik mavjud dasturlar ushbu ustuvorliklar bilan bog‘lanadi va ularning ta’siri hamda xarajatlarga nisbatan yaratadigan qiymati baholanadi. Shundan so‘ng mablag‘larni yuqori ta’sirga ega dasturlar tomon qayta yo‘naltirish imkoniyati yuzaga keladi. Muallifning ushbu fikrlaridan kelib chiqadigan muhim xulosa shundaki, natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishda budjetning muvaffaqiyati faqat xarajatlarning tasdiqlangan limit doirasida amalga oshirilishi bilan emas, balki ushbu xarajatlarning belgilangan ustuvor

natijalarga qanchalik hissa qo‘shishi bilan baholanadi. Shu orqali budjetlashtirish jarayoni oddiy mablag‘ taqsimotidan strategik resurs boshqaruvi vositasiga aylanadi. Montano, shuningdek, mazkur yondashuv idoralararo hamkorlikni kuchaytirishi, manfaatdor tomonlarga mablag‘larning qanday natijalar uchun sarflanayotganini tushunarliroq ko‘rsatishi va jamiyat ehtiyojlari o‘zgarganda resurslarni tezroq qayta yo‘naltirish imkonini berishini qayd etadi. Montanoning qarashlari natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishni oddiy budjet tuzish texnikasi emas, balki resurslarni taqsimlash mezonlarini o‘zgartiruvchi davlat boshqaruvi usuli sifatida talqin qilish imkonini beradi. Muallif ta’kidlagan “xarajat qilindi” mezonidan “qanday natijaga erishildi?” savoliga o‘tish ushbu yondashuvning an’anaviy budjetlashtirishdan asosiy farqini ifodalaydi. [3]

Ushbu yondashuvni amaliyotga qanday joriy etish mumkinligi masalasida davlat moliyasi mutaxasisi Mark Robinson natija tushunchasining budjet bilan bog‘lanishiga oid muhim konseptual muammoni ko‘rsatib bergan. Robinsonning ta’kidlashicha, natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishni budjet mablag‘larini to‘g‘ridan-to‘g‘ri kutilayotgan natijalarga ajratish bilan tenglashtirish noto‘g‘ri tushuncha hisoblanadi. Uning fikricha, budjet mablag‘lari davlat tomonidan bevosita natijalarni “ishlab chiqarish” uchun emas, balki muayyan xizmat va faoliyatlarni moliyalashtirish uchun sarflanadi. Keyinchalik aynan shu moliyalashtirilgan xizmat va faoliyatlar orqali belgilangan maqsadlarga erishish hamda kutilgan natijalarni yuzaga chiqarish ko‘zda tutiladi. Muallif aynan shu farqni e’tibordan chetda qoldirish natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishni amaliyotga joriy etishda jiddiy xatolarga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. Robinson bu farqni bir qancha amaliy misollar orqali asoslagan. Masalan, maktab ta’limi xarajatlari bir faoliyat sifatida iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy tenglik, gender tengligi va kambag‘allikni qisqartirish kabi bir nechta natijalarga bir vaqtning o‘zida hissa qo‘shishi mumkin. Shunday sharoitda ta’lim uchun ajratilgan mablag‘ning qaysi qismi aynan qaysi natijaga ta'sir qilayotganini aniq belgilashning obyektiv usuli mavjud emas. Shu sababli budjetni natijalar kesimida shakllantirish g‘oyasi nazariy jihatdan jozibador ko‘rinsa-da, uni real budjet taqsimotiga integratsiya qilishda muammo yuzaga keladi. Xuddi shunday muammo onalar va tug‘ilgan chaqaloqlar o‘limini kamaytirish misolida ham namoyon bo‘ladi. Ushbu natijaga erishish faqat onalar salomatligiga ixtisoslashgan xizmatlar bilan emas, balki umumiy klinikalar, kasalxonalar, profilaktik tadbirlar, toza suv ta’minoti, kambag‘allikni kamaytirish, ayollar huquqlarini yaxshilash va boshqa ko‘plab davlat faoliyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Demak, davlat tomonidan amalga oshirilgan bir xarajat ko‘pincha bir nechta natijaga ta’sir qilgani sababli, mablag‘larni faqat natijalar bo‘yicha ajratish budjetning real ishlash mexanizmiga mutloq mos kelmaydi. Montano budjetlashtirishda asosiy e’tibor xarajatning o‘zidan natijaga ko‘chishi kerakligini ko‘rsatsa, Robinson bu natijaga budjet mablag‘larini to‘g‘ridan-to‘g‘ri natijalarga biriktirish orqali emas, balki natijalarga olib boruvchi faoliyatlar va ularni amalga oshiruvchi davlat tashkilotlari orqali erishilishini ta’kidlaydi. Shu jihatdan, Robinson belgilangan yakuniy natijalarni budjet mablag‘larini taqsimlashning bevosita birligi sifatida emas, balki davlat faoliyatining strategik mezonlari sifatida ko‘rish zarurligini asoslaydi. Uning fikricha, samarali natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimi faoliyat va natijalarni o'zaro bog'laydigan dasturiy budjetlashtirish shakliga yaqinlashishi lozim. Bunda budjet mablag‘lari bevosita alohida natijaga erishish uchun emas, balki unga erishishni ta’minlaydigan o‘zaro bog‘liq faoliyatlar majmuasiga yo‘naltiriladi. Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishning asosiy mohiyati moliyaviy resurslar, davlat faoliyati va natijalar o'rtasida anniq mantiqiy bog'liqlikni shakllantirishda namoyon bo'ladi. [4]


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishning davlat budjetini boshqarishdagi o‘rni va samaradorligini baholash uchun tizimli, qiyosiy va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini xalqaro tashkilotlarning ochiq statistik ma’lumotlari, ilmiy adabiyotlar hamda natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishga oid tadqiqotlar tashkil etdi. Xalqaro amaliyotni baholashda IHTT mamlakatlari bo‘yicha natijadorlik ma’lumotlaridan foydalanish darajasi, budjet mablag‘larini taqsimlash va boshqaruv qarorlarida qo‘llanishi qiyosiy tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar statistik guruhlash va umumlashtirish asosida tahlil qilinib, natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishning budjet samaradorligi va hisobdorlikni oshirishdagi ahamiyati baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Davlat va mahalliy boshqaruv organlari borgan sari murakkablashib borayotgan moliyaviy bosimlarga duch kelmoqda. Operatsion xarajatlarning ortib borishi, infratuzilmaning eskirishi, kadrlar bilan bog‘liq muammolar hamda aholi talablarining o‘sib borishi shundoq ham cheklangan budjet imkoniyatlariga qo‘shimcha bosim yuklamoqda. Daromadlarning o‘sish sur’atlari mavjud ehtiyojlar va talablarning o‘sishiga mos kelmagan sharoitda an’anaviy budjetlashtirish yondashuvlari, ya’ni avvalgi yil budjet ko‘rsatkichlarini asos qilib olib, ularga bosqichma-bosqich o‘zgartirishlar kiritish mavjud resurslarning aynan qaysi yo‘nalishlarga eng ko‘p zarurligini aniqlash imkonini bermaydi. Natijada mavjud mablag‘larni aholi farovonligi va hayot sifatini sezilarli darajada oshiradigan yo‘nalishlarga samarali taqsimlash yanada murakkablashadi. Reaktiv, ya’ni faqatgina yuzaga kelgan muammolarga javob berishga asoslangan budjetlashtirishdan voz kechish uchun davlat tashkilotlariga xarajatlarni erishiladigan natijalar bilan uyg‘unlashtiradigan, yuqori ta’sirga ega dastur va loyihalarga ustuvorlik beradigan hamda murakkab budjet qarorlarining asoslarini aniq va asosli tarzda izohlash imkonini beradigan tizimli yondashuv zarur. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladigan yondashuv natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish sifatida namoyon bo'ldi. Shu bois so‘nggi yillarda, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda, davlat budjetini boshqarishda natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishga qiziqish va undan foydalanish ko‘lami tobora ortib bormoqda. Ushbu tendensiya Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mamlakatlarida natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishning qo‘llanilish ko‘lami yillar davomida kengayib borganida ham o‘z aksini topadi.



1-rasm. IHTT mamlakatlarida natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish yondashuvlaridan foydalanish [5]

2023-yilda IHTT tomonidan o‘tkazilgan natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish bo‘yicha so‘rovnomada ishtirok etgan 33 ta mamlakatning 28 tasida (85 foiz) natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishning muayyan shakli amaliyotga joriy etilgan. Eng keng tarqalgan yondashuv natijadorlikka asoslangan axborotdan foydalanishni nazarda tutuvchi budjetlashtirish bo‘lib, u 33 ta mamlakatning 14 tasida (42 foiz) qo‘llaniladi. Mazkur yondashuv doirasida budjet qarorlarini qabul qilish jarayonida moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan birga natijadorlik to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham budjet hujjatlarida aks ettiriladi. 33 ta mamlakatning 7 tasi esa (21 foiz) taqdimotga yo‘naltirilgan yondashuvdan foydalanadi. Bunda natijadorlikka oid ma’lumotlar asosiy budjet hujjatidan alohida shaklda, qo‘shimcha ma’lumot sifatida taqdim etiladi. Xuddi shunday miqdordagi mamlakatlarda (7 ta) boshqaruvga yo‘naltirilgan yondashuv qo‘llanilib, natijadorlik ko‘rsatkichlaridan, asosan, tashkilotlar darajasida faoliyat samaradorligini boshqarish maqsadida foydalaniladi. Ushbu yondashuvda budjet mablag‘larini avtomatik ravishda qisqartirishdan ko‘ra, belgilangan natijalarga erishilmagan holatlarning asosiy sabablarini aniqlash va tushunishga ko‘proq e’tibor qaratiladi.

Natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish doirasida shakllantiriladigan ma’lumotlar davlat moliyasini boshqarishning turli bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin. Natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishni amaliyotga joriy etgan IHTT mamlakatlarining uchdan ikki qismidan ko‘prog‘ida, ya’ni 28 ta mamlakatdan 20 tasida (71 foiz) ushbu ma’lumotlardan yillik budjet mablag‘larini taqsimlash bo‘yicha qarorlarni shakllantirishda foydalaniladi. Shuningdek, ushbu 28 ta mamlakatning 16 tasida (57 foiz) natijadorlik to‘g‘risidagi ma’lumotlar boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini samarali tashkil qilishga xizmat qiladi. E’tiborlisi shundaki, mamlakatlarning qariyb uchdan bir qismida, ya’ni 28 ta mamlakatdan 9 tasida (32 foiz) mazkur ma’lumotlardan budjetni ko‘p yillik rejalashtirish jarayonida foydalaniladi. (2-rasm)



2-rasm. Natijadorlikka oid ma’lumotlardan foydalanish yo‘nalishlari [6]

Natijadorlik ma’lumotlarining fiskal siyosatdagi muhim o‘rni sababli, mamlakatlar natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishni tashkil etishda ma’lumotlarning sifatini ta’minlovchi turli ichki hisobdorlik mexanizmlaridan foydalanishlarini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, yuqorida keltirilgan

natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishni joriy etgan mamlakatlarning qariyb 80 foizida moliya vazirliklari va tarmoq vazirliklari o‘rtasida natijadorlik to‘g‘risidagi ma’lumotlarning sifatini oshirishga qaratilgan muntazam muhokamalar o‘tkazib boriladi. 13 ta mamlakatda budjet hujjatlariga kiritiladigan natijadorlik to‘g‘risidagi ma’lumotlar yuqori martabali mansabdor shaxs tomonidan tasdiqlanishi talab etiladi. Bu o'z o'rnida mazkur ma’lumotlarning shakllantirilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni oshiruvchi qo‘shimcha mexanizmni yaratadi. Shuningdek, mamlakatlarnin 32 foizida belgilangan natijadorlik ko‘rsatkichlariga erishilmagan taqdirda tarmoq vazirliklariga nisbatan muayyan choralar qo‘llaniladi. Bunday choralar natijalarga erishish jarayonini yanada sinchiklab ko‘rib chiqilishiga va kelgusida budjet mablag‘larini taqsimlashda tegishli o‘zgartirishlar kiritilishiga olib keladi.

Tashqi hisobdorlik va shaffoflik natijadorlik to‘g‘risidagi hisobotlarning keng miqyosda e’lon qilinishi orqali ta’minlanadi. IHTTning natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishni qo‘llayotgan 28 ta mamlakatidan 24 tasida bunday ma’lumotlar jamoatchilik uchun ochiq tarzda taqdim etiladi. Ma’lumotlar sifati va shaffofligini oshirishga xizmat qiladigan yangi shakllanayotgan amaliyotlardan biri 12 ta mamlakatda qo‘llanilayotgan interaktiv veb-platformalar asosidagi axborot panellaridan foydalanishdir. Mazkur vositalar tashqi foydalanuvchilarga natijadorlik to‘g‘risidagi ma’lumotlarni vizual shaklda ko‘rib chiqish hamda belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishilgan yoki erishilmaganini tezkor baholash imkonini beradi. Mamlakat parlamenti ham hisobdorlikni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, tahlil uchun olingan mamlakatlarning 19 tasida (68 foiz) natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish bilan bog‘liq ma’lumotlar muntazam ravishda parlamentga taqdim etiladi. 9 ta mamlakatda (32 foiz) parlamentlar doirasida eshituvlar o‘tkazilsa, 8 ta mamlakatda (29 foiz) natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishga oid ma’lumotlari yuzasidan parlament muhokamalari tashkil etiladi. Biroq fuqarolik jamiyati bilan tizimli hamkorlik darajasi hanuz past bo‘lib, bunday tashabbuslar mavjudligi bor-yo‘g‘i 3 ta mamlakatda qayd etilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish davlat budjeti mablag‘larini shunchaki taqsimlash emas, balki ularni aniq maqsadlar, kutilayotgan natijalar va natijadorlik ko‘rsatkichlari bilan bog‘lashga xizmat qiluvchi boshqaruv yondashuvidir. Xalqaro amaliyot tahlili mazkur yondashuvning keng qo‘llanilayotganini hamda natijadorlik to‘g‘risidagi ma’lumotlar budjet mablag‘larini taqsimlash, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ko‘p yillik rejalashtirish jarayonlarida tobora muhim o‘rin egallayotganini ko‘rsatdi.

Shu bilan birga, natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishning samaradorligi faqat natija ko‘rsatkichlarini shakllantirish bilan emas, balki ularning budjet qarorlarida amaliy qo‘llanilishi, ma’lumotlar sifatining ta’minlanishi va tegishli hisobdorlik mexanizmlari bilan chambarchas bog‘liq. Xususan, xalqaro tajribada natijadorlik ma’lumotlaridan foydalanish amaliyoti keng tarqalgan bo‘lsa-da, ularni budjet jarayonining barcha bosqichlariga to‘liq integratsiya qilish hamda fuqarolik jamiyatining ushbu jarayondagi ishtirokini ta’minlash masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Mazkur tajribani O‘zbekiston sharoitida qo‘llash budjet mablag‘larining natijadorligini oshirish, resurslarni ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirish va qabul qilinayotgan budjet qarorlarining asoslanganligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

O‘tkazilgan tahlil va aniqlangan muammolardan kelib chiqib, natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish mexanizmini takomillashtirish hamda budjet qarorlarining natijadorligini oshirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

✓ Budjet dasturlarini shakllantirishda “resurs → faoliyat → natija” zanjirini majburiy asoslash. Bunda har bir dastur bo‘yicha ajratiladigan mablag‘, amalga oshiriladigan faoliyat va

kutilayotgan natijalar yagona mantiqiy tizimda aks ettirilib, mablag‘larning belgilangan natijaga qanday ta’sir ko‘rsatishi asoslanishi lozim.

✓ Natijadorlik ko‘rsatkichlarini keyingi budjet qarorlarida qo‘llash mexanizmini joriy etish. Buning uchun budjet dasturlarini qayta ko‘rib chiqishda erishilgan natijalar, xarajatlar va kutilgan natijalar o‘rtasidagi nisbat tahlil qilinib, natijasi yuqori dasturlarni kengaytirish yoki resurslarni ularga qayta yo‘naltirish amaliyotini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

✓ Natijadorlikka erishilmagan dasturlarni avtomatik qisqartirish o‘rniga ularni sabablar asosida qayta baholash. Bunda dastur natijasining bajarilmaganlik sabablari aniqlanib, zarur hollarda uning mazmuni, ko‘rsatkichlari yoki moliyalashtirish hajmi qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. IHTT. Performance Budgeting in OECD Countries. Paris: OECD publishing, 2007.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2025-2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 210-son qarori, 08.04.2025-y. https://lex.uz/uz/docs/-7469803

3. Stiv Montano. How to strengthen your government’s fiscal stability with outcome-based budgeting. AQSH: MGO LLP, 2026. https://www.mgocpa.com/perspective/build-fiscal-stability-outcome-based-budgeting/

4. Mark Robinson. The illusion of outcome-based budgeting. Elektron maqola, 2021. https://blog.pfmresults.com/the-illusion-of-outcome-based-budgeting/

5. IHTT. Performance budgeting. Elektron resurs, 2026. https://www.oecd.org/en/topics/sub-issues/performance-budgeting.html

6. IHTT. Government at a Glance 2025. Paris:OECD Publishing, 2025. https://doi.org/10.1787/0efd0bcd-en.

Kenjaeva Durdona Ravshan qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Mustaqil izlanuvchi
ORCID: 0009-0002-6412-083X
kenjaevadurdona1@gmail.com

ISLOM MOLIYASINING YEVROPA IQTISODIYOTIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: BUYUK BRITANIYA, LYUKSEMBURG VA GERMANIYA TAJRIBASI

Кенжаева Дурдона Равшан кизи
Ташкентский государственный экономический университет, соискатель
ORCID: 0009-0002-6412-083X
kenjaevadurdona1@gmail.com

РОЛЬ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ИСЛАМСКИХ ФИНАНСОВ В ЕВРОПЕЙСКОЙ ЭКОНОМИКЕ: ОПЫТ ВЕЛИКОБРИТАНИИ, ЛЮКСЕМБУРГА И ГЕРМАНИИ

Kenjaeva Durdona Ravshan qizi
Tashkent State University of Economics,
Independent researcher
ORCID: 0009-0002-6412-083X
kenjaevadurdona1@gmail.com

THE ROLE AND DEVELOPMENT TRENDS OF ISLAMIC FINANCE IN THE EUROPEAN ECONOMY: THE EXPERIENCE OF THE UNITED KINGDOM, LUXEMBOURG, AND GERMANY

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom moliyasining Yevropa iqtisodiyotidagi o‘rni va rivojlanish tendensiyalari Buyuk Britaniya, Lyuksemburg va Germaniya tajribasi asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotda qiyosiy, statistik va institutsional tahlil hamda xalqaro tajribani umumlashtirish usullaridan foydalanilgan. Islom moliyasining rivojlanishiga ta’sir etuvchi huquqiy-regulyativ muhit, soliq neytralligi, islomiy bank infratuzilmasi, sukuk va kapital bozori hamda davlat va regulyator qo‘llab-quvvatlashi qiyosiy baholangan. Tahlil natijalari Yevropada islom moliyasining rivojlanishi nafaqat unga bo‘lgan talab, balki qulay huquqiy, soliq va institutsional sharoitlarning mavjudligiga ham bog‘liqligini ko‘rsatdi. Buyuk Britaniya, Lyuksemburg va Germaniya tajribasini umumlashtirish asosida O‘zbekistonda islom moliyasini an’anaviy moliya tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so`zlar: islom moliyasi, islomiy bank, sukuk, Yevropa, Buyuk Britaniya, Lyuksemburg, Germaniya, kapital bozori, soliq neytralligi, moliyaviy integratsiya, O‘zbekiston.

Аннотация. В статье исследуются роль и тенденции развития исламских финансов в европейской экономике на примере Великобритании, Люксембурга и Германии. В исследовании применены методы сравнительного, статистического и институционального анализа, а также обобщения международного опыта. Проведена сравнительная оценка

правовой и регуляторной среды, налоговой нейтральности, инфраструктуры исламского банкинга, рынка сукук и капитала, а также государственной и регуляторной поддержки. Результаты исследования показывают, что развитие исламских финансов в Европе определяется не только спросом на соответствующие финансовые услуги, но и наличием благоприятных правовых, налоговых и институциональных условий. На основе обобщения опыта Великобритании, Люксембурга и Германии разработаны научно-практические предложения по поэтапной интеграции исламских финансов в традиционную финансовую систему Узбекистана.

Ключевые слова: исламские финансы, исламский банкинг, сукук, Европа, Великобритания, Люксембург, Германия, рынок капитала, налоговая нейтральность, финансовая интеграция, Узбекистан.

Abstract. This article examines the role and development trends of Islamic finance in the European economy based on the experience of the United Kingdom, Luxembourg, and Germany. The study employs comparative, statistical, and institutional analysis, as well as the generalization of international experience. The legal and regulatory environment, tax neutrality, Islamic banking infrastructure, sukuk and capital markets, and government and regulatory support are comparatively assessed. The findings indicate that the development of Islamic finance in Europe depends not only on demand for Shariah-compliant financial services but also on the availability of favorable legal, tax, and institutional conditions. Based on the experience of the United Kingdom, Luxembourg, and Germany, scientific and practical recommendations are developed for the gradual integration of Islamic finance into Uzbekistan's conventional financial system.

Keywords: Islamic finance, Islamic banking, sukuk, Europe, United Kingdom, Luxembourg, Germany, capital market, tax neutrality, financial integration, Uzbekistan.

Kirish.

So‘nggi yillarda islom moliyasi jahon moliya tizimining muqobil va tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Uning rivojlanishi faqat musulmon aholisi ko‘pchilikni tashkil etadigan mamlakatlar bilan chegaralanmay, Yevropaning rivojlangan moliyaviy markazlariga ham kirib bordi. Buyuk Britaniya, Lyuksemburg va Germaniya tajribasi islom moliyasi an’anaviy moliyaviy tizim bilan parallel faoliyat yuritishi va xalqaro kapital oqimlarini jalb qilish vositasi sifatida foydalanilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Xo`sh, Musulmon aholisi ko‘pchilikni tashkil etmaydigan(1-rasm) rivojlangan iqtisodiyotlarda islom moliyasining muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga qaysi iqtisodiy va institutsional omillar ta’sir qiladi va ushbu tajribaning qaysi elementlarini O‘zbekiston sharoitida qo‘llash mumkin?



1-rasm. Yevropada musulmonlar aholisi soni ulushi (2020)

Manba: www.Per Research Center.org

Yevropada bu borada Buyuk Britaniya alohida o‘rin egallaydi. Mamlakat islomiy bank faoliyatini umumiy moliyaviy tartibga solish tizimiga integratsiya qilish bilan birga, davlat darajasida sukuk instrumentidan ham foydalangan. Buyuk Britaniya hukumati 2014-yilda 200 mln funt sterlinglik birinchi suveren sukukni chiqarib, islom dunyosidan tashqarida suveren sukuk chiqargan birinchi mamlakatga aylandi. 2021-yilda esa 500 mln funt sterlinglik ikkinchi suveren sukuk joylashtirildi. Ushbu emissiyaga Buyuk Britaniya, Yaqin Sharq va Osiyodagi investorlar tomonidan talab bildirilgan. [1]**Buyuk Britaniya** tajribasining yana bir muhim jihati islomiy banklar uchun markaziy bank likvidlik infratuzilmasining yaratilganidir. Bank of England 2021-yilda foizli operatsiyalarda qatnasha olmaydigan banklar uchun **Alternative Liquidity Facility (ALF)**ni ishga tushirdi. Ushbu mexanizmda banklarning depozitlari yuqori sifatli Shariatga muvofiq aktivlar, jumladan Islom taraqqiyot banki sukuklari bilan ta’minlanadi. 2025-yil iyulida ALF hajmi 200 mln funtdan 550 mln funtgacha oshirildi, 2026-yil fevralida esa undan foydalanish bo‘yicha o‘rtacha jami depozitlar 531 mln funtga yetdi. [2]

Lyuksemburg esa islom moliyasini, ayniqsa, xalqaro kapital bozori va investitsiya fondlari infratuzilmasi bilan integratsiya qilish tajribasi bilan ajralib turadi. Luxembourg Stock Exchange ma’lumotlariga ko‘ra, u 2002-yilda sukukni listing qilgan Yevropadagi birinchi fond birjasi bo‘lgan. Bu Lyuksemburgning xalqaro sukuk emitentlarini Yevropa kapital bozori bilan bog‘lovchi markazlardan biriga aylanishiga zamin yaratgan.

Buyuk Britaniya, Germaniya va Lyuksemburg tajribasi Yevropada islom moliyasining rivojlanishiga faqat diniy omil sifatida yondashish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Uning rivojlanishida xalqaro investorlarni jalb qilish, kapital bozorini diversifikatsiya qilish, moliyaviy inklyuziyani oshirish va mamlakatning xalqaro moliyaviy markaz sifatidagi raqobatbardoshligini mustahkamlash kabi iqtisodiy manfaatlar ham mavjud. Tadqiqotning maqsadi -Buyuk Britaniya, Lyuksemburg va Germaniya tajribasi asosida islom moliyasining Yevropa iqtisodiyotidagi o‘rni va rivojlanish xususiyatlarini qiyosiy baholash, uning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi institutsional omillarni aniqlash hamda O‘zbekiston moliya tizimi uchun amaliy xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi.

Islom moliyasining Yevropada shakllanishi va rivojlanishi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda asosiy e’tibor Shariatga muvofiq moliyaviy mahsulotlarni an’anaviy huquqiy va bank tizimiga moslashtirish, soliq neytralligini ta’minlash, tartibga solish mexanizmlarini shakllantirish hamda islomiy moliyaviy institutlarning raqobatbardoshligini oshirish masalalariga qaratilgan.

K. Bälz (2007) Yevropada islom moliyasining rivojlanishini Buyuk Britaniya va Germaniya institutsional muhiti bilan bog‘liq holda o‘rgangan. Muallif islomiy moliyaviy mahsulotning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun u bir vaqtning o‘zida Shariat talablariga hamda faoliyat yuritayotgan mamlakatning huquqiy va tartibga solish tizimiga moslashtirilishi zarurligini ta’kidlaydi. [3] **S. Adebesin** (2024) Buyuk Britaniyadagi to‘liq islomiy banklar faoliyatiga foiz stavkalarining ta’sirini empirik usulda o‘rgangan. Tadqiqotda 2008-2021-yillarni qamrab oluvchi **60 ta kuzatuv** va to‘rtta to‘liq islomiy bank ma’lumotlaridan foydalanilgan. Random Effects modeli natijalariga ko‘ra, foiz stavkalari bilan islomiy banklar moliyalashtirish faoliyati o‘rtasida salbiy,

[1] https://www.gov.uk/government/news/uk-bolsters-islamic-finance-offering-with-second-sukuk?utm
[2] The Alternative Liquidity Facility | Bank of England – the UK's central bank
[3] Bälz, K. (2007). *Islamic Finance for European Muslims: The Diversity Management of Shari'ah-Compliant Transactions*. Chicago Journal of International Law, 7(2).

biroq statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lmagan bog‘liqlik aniqlangan. [4]Ushbu natija islomiy banklar foizsiz tamoyilga asoslangan bo‘lsa-da, ular faoliyat yuritayotgan an’anaviy moliyaviy muhitdagi makroiqtisodiy sharoitlardan butunlay ajralgan emasligini ko‘rsatadi.

Baig O.R., Muneeza A., Hassan M.K. va Biancone P. (2024) Yevropaning 12 ta mamlakatidagi islom moliyasining holatini qiyosiy baholagan. Tadqiqot natijasida **Buyuk Britaniya va Lyuksemburg Yevropada islom moliyasi eng rivojlangan birinchi guruh**, Fransiya ikkinchi guruh, Germaniya va boshqa qator davlatlar esa rivojlanish darajasi nisbatan past bo‘lgan uchinchi guruhga kiritilgan.[5] Bu natija islom moliyasining rivojlanishini faqat mamlakatdagi musulmon aholining mavjudligi bilan tushuntirish yetarli emasligini, huquqiy va moliyaviy infratuzilma ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

S. Abrorov va J. Imamnazarov (2022) O‘zbekistonda islom moliyasini joriy etish imkoniyatlarini o‘rganib, islom moliya tizimining xalqaro miqyosda rivojlanishi, islomiy moliya institutlari va islomiy darchalarning kengayishi hamda islomiy qimmatli qog‘ozlarning xalqaro fond bozorlaridagi o‘rnini tahlil qilgan. Mualliflar O‘zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish imkoniyatlarini so‘rov natijalari asosida ham baholagan. Ushbu tadqiqot Yevropa mamlakatlarida shakllangan tajribani O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish masalasini o‘rganish uchun muhim nazariy asos yaratadi. [6]

Yana bir mahalliy tadqiqot **M. Abdul Jalil (2025)** tomonidan O‘zbekiston Milliy universitetida amalga oshirilgan. Unda islomiy bo‘lmagan iqtisodiyotlarda islom moliyasini joriy etish modellari qiyosiy o‘rganilib, Buyuk Britaniya, Malayziya, Bahrayn, Singapur va Nigeriya tajribasi tahlil qilingan. [7]Muallif dual bank tizimi, gibrid model, *regulatory sandbox* va boshqa institutsional mexanizmlarni O‘zbekistonning huquqiy-iqtisodiy muhiti nuqtai nazaridan baholagan. Bu tadqiqot **Buyuk Britaniya tajribasi va O‘zbekiston uchun model** bog‘liqligini asoslashda biz uchun juda foydali.

Xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, Yevropada islom moliyasining rivojlanish darajasi musulmon aholining sonigagina emas, balki **huquqiy moslashuv, soliq neytralligi, regulyator yondashuvi, kapital bozori infratuzilmasi va davlatning institutsional qo‘llab-quvvatlashiga** ham bog‘liq. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar esa mamlakatda islomiy moliyaviy xizmatlarga talab va ularni joriy etish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatib, tegishli huquqiy va institutsional infratuzilmani shakllantirish zarurligiga urg‘u bergan.

Tadqiqot metodologiyasi .

Mazkur tadqiqotda islom moliyasining Yevropa iqtisodiyotidagi o‘rni va rivojlanish xususiyatlarini aniqlash maqsadida **qiyosiy tahlil, statistik tahlil, institutsional tahlil va xalqaro tajribani umumlashtirish** usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida Buyuk Britaniya, Lyuksemburg va Germaniya tanlandi. Ushbu mamlakatlarning tanlanishi Yevropada islom moliyasining turli rivojlanish modellarini namoyon etishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning axborot bazasini mamlakatlarning moliyaviy regulyatorlari va fond bozorlari, xalqaro moliya tashkilotlari hamda ilmiy adabiyotlarda e’lon qilingan ma’lumotlar tashkil etadi.

[4] Adebesin, S. (2024). *Quantifying the Effect of Interest Rate on Islamic Banks Financing in the United Kingdom*. European Journal of Islamic Finance, 11(3), 47-61. DOI: 10.13135/2421-2172/8706

[5] Baig, O. R., Muneeza, A., Hassan, M. K., & Biancone, P. (2024). *The State of Islamic Finance in Europe*. In *Islamic Finance in Eurasia*, pp. 7–27. Edward Elgar Publishing.


[6] Abrorov, S., & Imamnazarov, J. (2022). *Islamic Finance: New Prospects for Uzbekistan*. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(12), 255-265.

[7] Mahama, A. J. (2025). Comparative models and methodologies for the introduction of Islamic finance in non-Islamic economies: A systematic analysis of global practices. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 3(5), 14-26.

Xususan, Buyuk Britaniya bo‘yicha Bank of England, Lyuksemburg bo‘yicha Luxembourg Stock Exchange, shuningdek, islom moliyasi bo‘yicha xalqaro tashkilotlarning statistik va tahliliy materiallaridan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Buyuk Britaniyada islom moliyasining rivojlanish modeli. Buyuk Britaniya qonunchiligida murabaha, ijara va kamayib boruvchi mushoraka kabi moliyalashtirish shakllarining amaldagi huquqiy tizimda ishlashi uchun mexanizmlar yaratilgan. Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq ayrim islomiy moliyalashtirish operatsiyalarida aktivning bir necha marta o‘tkazilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha soliq yukini kamaytiruvchi qoidalar mavjud. Buyuk Britaniya tajribasida sukuk bozori ham alohida ahamiyatga ega. 2014-yilda hukumat 200 mln funt sterlinglik birinchi **suveren sukukni** joylashtirdi. Investorlar buyurtmalari qariyb 2,3 mlrd funtga yetgan, ya’ni emissiya hajmidan 11 martadan ko‘proq talab shakllangan. Sukukning daromadlilik stavkasi 2,036% bo‘lib, o‘xshash muddatdagi davlat obligatsiyalari daromadliligiga mos belgilangan. [8] 2021-yilda esa Buyuk Britaniya 500 mln funt sterlinglik ikkinchi suveren sukukni chiqardi. Unga 625 mln funtdan ortiq buyurtma kelib tushgan. Mazkur sukukning daromadlilik stavkasi 0,333% etib belgilanib, yana o‘xshash muddatdagi davlat obligatsiyasi daromadliligiga tenglashtirilgan. [9] Shuning hisobiga islomiy banklar ulushi yil sayin oshib bormoqda (2-rasm).



2-rasm. Buyuk Britaniyada islomiy banklar aktivlari ulushi, mlrd funt sterling (2020 yil)

Bu ma’lumotlar muhim ilmiy xulosani beradi: Buyuk Britaniya sukukdan an’anaviy davlat qarzini to‘liq almashtiruvchi instrument sifatida emas, balki investorlar bazasini diversifikatsiya qilish va mamlakatning xalqaro islom moliyasi markazi sifatidagi mavqeini mustahkamlash vositasi sifatida foydalangan. Buyuk Britaniya hukumatining 2026-2027-yil qarz boshqaruvi hisobotida ham ikkinchi sukuk 2026-yil iyulida muddati tugashi va hozircha yangi suveren sukuk chiqarish rejalashtirilmagani qayd etilgan.

Lyuksemburg -kapital bozori va sukuk listingi modeli. Lyuksemburg tajribasi Buyuk Britaniyadan biroz farq qiladi. Bu mamlakatda islom moliyasining xalqaro kapital bozori bilan integratsiyasi va sukuk instrumentlarini Yevropa investorlariga olib chiqish yo‘nalishi alohida ahamiyat kasb etadi. Luxembourg Stock Exchange (LuxSE) 2002-yilda sukukni listing qilgan Yevropadagi birinchi fond birjasi bo‘lgan. Hozirgi vaqtda LuxSE sukuk emitentlariga Yevropa

[8] https://www.gov.uk/government/news/government-issues-first-islamic-bond?utm_source
[9] https://www.gov.uk/government/news/uk-bolsters-islamic-finance-offering-with-second-sukuk?utm

Ittifoqining tartibga solinadigan *Bourse de Luxembourg* bozori, *Euro MTF* hamda *LuxSE Securities Official List* orqali xalqaro kapital bozorlariga chiqish imkoniyatlarini taklif qiladi. [10]Muhim jihati shundaki, Lyuksemburgda tegishli xususiyatlarga ega sukuklar listing jarayonida an'anaviy obligatsiyalar bilan bir xil umumiy tartibga solish doirasiga kiritilishi mumkin. Bundan tashqari, yashil, ijtimoiy yoki barqarorlik maqsadlariga mos sukuklar **Luxembourg Green Exchange (LGX)**da ham namoyish etilishi mumkin. Demak, Lyuksemburg modeli islom moliyasining rivojlanishi uchun albatta yirik ichki islomiy bank sektoriga ega bo'lish shart emasligini ko'rsatadi. Mamlakat xalqaro kapital bozoriga kirish infratuzilmasini yaratish orqali sukuk emitentlari va xalqaro investorlar o'rtasida moliyaviy vositachi markaz vazifasini bajarishi mumkin.

Germaniya tajribasi. Germaniya holati esa Yevropada islom moliyasining rivojlanishi avtomatik jarayon emasligini ko'rsatadigan muhim qiyosiy misoldir. Germaniya yirik va rivojlangan moliyaviy tizimga ega bo'lishiga qaramay, islom moliyasining institutsional rivojlanish ko'lami Buyuk Britaniya darajasiga yetmagan. Germaniya tajribasining tarixiy jihatdan muhim hodisalaridan biri Saksoniya-Anhalt federal yeri tomonidan 2004-yilda sukuk chiqarilgani hisoblanadi. Keyinchalik mamlakatda to'liq Shariat tamoyillariga muvofiq bank faoliyatini yo'lga qo'yishga qaratilgan institutlar shakllangan. Biroq ilmiy adabiyotlarda Germaniyada islomiy moliyaviy mahsulotlarni mavjud soliq va huquqiy tizimga moslashtirish bilan bog'liq muammolar Buyuk Britaniyaga nisbatan sezilarliroq bo'lgani ko'rsatiladi. Shu sababli Germaniya tajribasi maqolamiz uchun ayniqsa muhim: **iqtisodiyot hajmining kattaligi yoki potensial talabning mavjudligi o'z-o'zidan rivojlangan islom moliyasi bozorini shakllantirmaydi.** Buning uchun huquqiy moslashuv va regulyator infratuzilmasi ham talab etiladi. Quyida turli mezonlar asosida Buyuk Britaniya, Lyuksemburg va Germaniyaning mezonlarga ko`ra va qaysi yo`nalishda rivojlanganiga ko`ra tahlil qilamiz (1-jadval)

1-jadval.

Buyuk Britaniya, Lyuksemburg va Germaniya davlatlarining Islom moliyasining qaysi jihati rivojlanishi

Mezon	Buyuk Britaniya	Lyuksemburg	Germaniya
Islom moliyasining asosiy modeli	Bank + kapital bozori	Kapital bozori va xalqaro listing	Nisbatan cheklangan bank modeli
Huquqiy moslashuv	Yuqori	Yuqori	O'rtacha
Soliq neytralligi	Rivojlangan	Rivojlangan	Nisbatan cheklangan
Islomiy bank infratuzilmasi	Rivojlangan	Cheklangan	Cheklangan
Sukuk bozoridagi tajriba	2 ta suveren sukuk	Xalqaro sukuk listing markazi	Dastlabki mintaqaviy tajriba mavjud
Davlat/regulyator ishtiroki	Yuqori	Yuqori	O'rtacha
Asosiy ustunlik	Kompleks islom moliyasi ekotizimi	Xalqaro kapital bozori infratuzilmasi	Yirik potensial moliya bozori
Asosiy cheklov	Bozor an'anaviy moliyaga nisbatan kichik	Ichki islomiy bank sektori kichik	Institutsional moslashuv nisbatan sust

Manba: muallif tomonidan Buyuk Britaniya hukumati, Bank of England, Luxembourg Stock Exchange hamda ilmiy adabiyotlar ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jadvaldan ko`rinadiki, **Buyuk Britaniya tajribasi** huquqiy jihatdan hamda soliq neytralligi bilan ilg`or. Asosiy e`tiborini bozordagi talabni qoplashga qaratgan holda islom moliyasi mavjud

[10] https://www.luxse.com/gateway-to-the-eu/islamic-finance?utm

boshqa Yevropa mamlakatlaridan nisbatan oldinda**. Lyuksemburg tajribasi** islom moliyasini rivojlantirishning boshqa modelini namoyon etadi. Mamlakatda yirik ichki islomiy bank sektorini shakllantirishdan ko‘ra, mavjud xalqaro moliya markazi infratuzilmasidan sukuk va boshqa Shariatga muvofiq investitsiya instrumentlarini xalqaro kapital bozoriga olib chiqishda foydalanilgan. **Germaniya tajribasi** esa aksincha, yirik va rivojlangan moliya bozori mavjudligining o‘zi islom moliyasining keng rivojlanishini kafolatlamasligini ko‘rsatadi. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan huquqiy va soliq xususiyatlari islomiy moliya mahsulotlarining an’anaviy mahsulotlarga nisbatan qo‘shimcha tranzaksiya xarajatlariga duch kelishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu holat islom moliyasini rivojlantirish uchun **talabning o‘zi emas, balki talabni real moliyaviy mahsulotga aylantirish imkonini beradigan institutsional muhit** ham zarurligini anglatadi.

Tadqiqotimizning asosiy savoliga javob esa quyidagi jadvalda(2-jadval)

2-jadval. Mamlakatlar aholi soni, dini va Islom moliya aktivlari ulushining bog`liqligi

O‘rin	Davlat	Aholi soni*	Musulmonlar ulushi*	Musulmon aholi soni*	Islom moliyasi ko‘rsatkichi
1	TR **Turkiya**	≈85 mln	≈97–99%	≈82–84 mln	**$107 mlrd jami IF aktivlari (2023)**
2	GB **Buyuk Britaniya**	≈67 mln	≈6%	≈4 mln	**$42,6 mlrd jami IF aktivlari (2023)**
3	US **AQSh**	≈340 mln	≈1%	≈4 mln	**$9,7 mlrd jami IF aktivlari (2023)**
—	RU **Rossiya**	≈146 mln	≈10%	≈14–15 mln	**$0,25 mlrd (16 mlrd RUB), Sberbank islom moliyasi aktivlari (2019)**
—	LU **Lyuksemburg**	≈0,65 mln	≈3%	≈20 ming	Jami IF aktivlari bo‘yicha alohida LSEG qiymati ochiq hisobotda berilmagan
—	DE **Germaniya**	≈84 mln	≈6–7%	≈5–6 mln	Jami IF aktivlari bo‘yicha alohida LSEG qiymati ochiq hisobotda berilmagan
—	FR **Fransiya**	≈68 mln	≈9%	≈6 mln	Jami IF aktivlari bo‘yicha alohida LSEG qiymati ochiq hisobotda berilmagan

Turkiyaning **$107 mlrd** ko‘rsatkichi LSEGning 2023-yil jami islom moliyasi aktivlari reytingidan olingan. Buyuk Britaniya **$42,6 mlrd**, AQSh **$9,7 mlrd** bilan musulmon bo‘lmagan davlatlar orasidagi eng yirik islom moliyasi bozorlaridan bo‘lgan Yana juda foydali **2024-yilgi bir xil ko‘rsatkich** bor: agar jami islom moliyasi aktivlari o‘rniga “islomiy investitsiya fondlari aktivlari (AuM)”ni olsak, LSEG bo‘yicha Buyuk Britaniya **$42 mlrd**, AQSh **$11 mlrd**, Turkiya **$19 mlrd**. Yevropa mintaqasi jami **$64 mlrd**, Amerika esa $11 mlrd islomiy fond aktivlariga ega. Bu ko‘rsatkichlar aynan bir yil va bir metodologiyada hisoblangan. Yana shuni ta`kidlash mumkinki, islom moliyasi rivojlanishi musulmom aholi soniga emas balki ayni mamlakat iqtisodiy, huquqiy tayyorgarligida.

Yevropa tajribasining O‘zbekiston uchun ahamiyati. O‘zbekiston uchun uch mamlakat tajribasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish maqsadga muvofiq emas. Aksincha, ularning samarali elementlarini milliy moliya tizimining xususiyatlariga moslashtirish zarur. Qiyosiy tahlil asosida O‘zbekiston uchun quyidagi modelni taklif qilish mumkin:

Buyuk Britaniya tajribasidan bank tizimi va regulyator mexanizmlarini; Lyuksemburg tajribasidan sukuk va kapital bozori infratuzilmasi; Germaniya tajribasidan huquqiy va soliq to‘siqlarini oldindan aniqlash bo`yicha tajribalarini o`rganish ayni muddao.

Bu yondashuv O‘zbekiston uchun islom moliyasini rivojlantirishni faqat yangi banklar ochish bilan cheklamasdan, **yaxlit islomiy moliya ekotizimini shakllantirish** zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Markaziy bankining 2026-yildagi rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatda islom moliyasini rivojlantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda: islomiy mikromoliya yo‘nalishidan keyin islomiy bank faoliyati uchun huquqiy asos shakllantirildi, keyingi yo‘nalish sifatida esa islomiy kapital bozori va sukuk instrumentlarini rivojlantirish ko‘zda tutilmoqda. Markaziy bank va IFSB hamkorligida 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan milliy islom moliyasi yo‘l xaritasi ustida ish olib borilishi ham institutsional yondashuv kuchayayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar .

Islom moliyasining Yevropa iqtisodiyotidagi rivojlanishi mamlakatdagi musulmon aholi soni bilangina emas, balki yaratilgan **huquqiy, soliq, institutsional va moliyaviy infratuzilma** bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Buyuk Britaniya, Lyuksemburg va Germaniya tajribasining qiyosiy tahlili ushbu mamlakatlarda islom moliyasining turlicha rivojlanish modeli shakllanganini ko‘rsatadi. Buyuk Britaniyada islomiy bank xizmatlari va kapital bozori instrumentlarini an’anaviy moliya tizimiga integratsiya qilishga asoslangan kompleks model shakllangan bo‘lsa, Lyuksemburg xalqaro sukuk listingi va investitsiya infratuzilmasiga ixtisoslashgan. Germaniya tajribasi esa rivojlangan moliya bozori mavjudligining o‘zi islom moliyasining keng rivojlanishi uchun yetarli emasligini ko‘rsatadi.

Yevropa mamlakatlari tajribasi va o‘tkazilgan qiyosiy tahlil asosida O‘zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi **amaliy takliflar** ishlab chiqildi:

1. **Islomiy moliyaviy operatsiyalar uchun soliq neytralligini ta’minlash.** Murabaha, ijara va boshqa aktivga asoslangan operatsiyalarda mulkning bir necha bosqichda o‘tkazilishi natijasida an’anaviy moliyalashtirishga nisbatan qo‘shimcha soliq yuki yuzaga kelmasligi uchun tegishli mexanizmlarni takomillashtirish lozim.
2. **Islom moliyasi bozorini xalqaro kapital bilan integratsiya qilish.** Lyuksemburg tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekistonda chiqariladigan sukuk va boshqa Shariatga muvofiq investitsiya instrumentlarining xalqaro investorlar uchun ochiqligini oshirish hamda ularni xalqaro kapital bozorlariga olib chiqish mexanizmlarini rivojlantirish lozim.
3. **Kadrlar va professional infratuzilmani rivojlantirish.** Islom moliyasi bo‘yicha bank mutaxassislari, auditorlar, yuristlar, risk-menejerlar hamda Shariat ekspertlarini tayyorlash tizimini rivojlantirish bozorning barqaror faoliyat yuritishi uchun zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bälz, K. (2007). Islamic Finance for European Muslims: The Diversity Management of Shari‘ah-Compliant Transactions. *Chicago Journal of International Law, 7*(2), Article 11.
2. Sobol, I. (2015). Islamic Banking in the European Union Countries. *European Integration Studies*, No. 9, 184-197. DOI: 10.5755/j01.eis.0.9.12806.

3. Mahama, A. J. (2025). Comparative models and methodologies for the introduction of Islamic finance in non-Islamic economies: A systematic analysis of global practices. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 3(5), 14-26.
4. Antoniazzi, S. (2022). Islamic Banks and the European Banking Union: An Overview of Critical Issues and Perspectives. *European Journal of Islamic Finance, 9*(1), 37–55. DOI: 10.13135/2421-2172/6424.
   Baig, O. R., Muneeza, A., Hassan, M. K., & Biancone, P. (2024). The State of Islamic Finance in Europe. In M. K. Hassan, P. Biancone & A. Muneeza (Eds.), *Islamic Finance in Eurasia*, 7-27. Edward Elgar Publishing. Nashriyotdagi manba
5. Adebesin, S. (2024). Quantifying the Effect of Interest Rate on Islamic Banks Financing in the United Kingdom. *European Journal of Islamic Finance, 11*(3), 47–61. DOI: 10.13135/2421-2172/8706.
6. Abrorov, S., & Imamnazarov, J. (2022). Islamic Fintech Instruments: New Opportunities for Digital Economy of Uzbekistan. *Proceedings of the 5th International Conference on Future Networks and Distributed Systems*, 663–667. Association for Computing Machinery. DOI: 10.1145/3508072.3508203.
7. Abrorov, S., & Imamnazarov, J. (2022). Islamic Finance: New Prospects for Uzbekistan. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3*(12). DOI: 10.17605/OSF.IO/QW6EH.
8. Asadov, A., Turaboev, I., & Yildirim, R. (2024). Prospects of Islamic Capital Market in Uzbekistan: Issues and Challenges. *International Journal of Islamic and Middle Eastern Finance and Management, 17*(1), 102–123. DOI: 10.1108/IMEFM-04-2022-0145.
9. Asadov, A. (2024). Empirical Analysis of Demand for Sukuk in Uzbekistan. *Economies, 12*(8), 220. DOI: 10.3390/economies12080220.
11. Bank of England. *What is Islamic finance?* — Buyuk Britaniyada islomiy moliya tamoyillari va bank tizimidagi o‘rniga oid rasmiy material.
12. Bank of England. *The Alternative Liquidity Facility* — islomiy banklar uchun Shariatga muvofiq likvidlik mexanizmi bo‘yicha rasmiy ma’lumot.
13. HM Treasury, UK Government. *Government issues first Islamic bond* (2014)
14. Luxembourg Stock Exchange. *Islamic Finance — Gateway to the EU* — Lyuksemburgda sukuk listingi va islomiy kapital bozori infratuzilmasiga oid rasmiy manba.

МАЛИКОВ Т.С.
иқтисод фанлари доктори, профессор,
“Молия” илмий мактаби раҳбари

КАРИМОВ А.А.
иқтисод фанлари доктори, профессор
“Бухгалтерия ҳисоби” илмий мактаби раҳбари

“ИЛМИЙ КЕНГАШ”МИ ЁКИ “ИХТИСОСЛАШ(ТИРИЛ)ГАН КЕНГАШ”?

2027 йилнинг 1 январидан бошлаб диссертациялар ҳимояси бўйича кўпгина ўзгаришларнинг бўлиши кўзда тутилаётганлиги илм аҳли вакилларига яхши таниш. Зеро, бу янгиликлар оммавий ахборот воситалари, жумладан, ижтимоий тармоқлар орқали ҳам кенг ёритилиб, муҳокама қилинмоқда. Лекин, назаримизда, бир муҳим масала (муаммо) эсдан чиқаётгандек. Гап бу ўринда ўша ҳимоялар содир бўлаётган кенгашларнинг қандай номланаётганлиги ҳақида кетмоқда.

Шу муносабат билан, дастлаб, шуни қайд этиш лозимки, олдин узоқ йиллар давомида, хусусан, Шўролар даврида шундай кенгашлар “Ихтисослаш(тирил)ган кенгаш” номига эга эди. Бундай номланиш, аслида, “исми жисмига монанд” бўлиб, ҳеч кимда бирор-бир жиддий эътироз туғдирмаган. Худди узукка кўз қўйгандек, бир-бирига ярашиб турган. Кенгашларнинг таркибий аъзолари эса фақат алоҳида олинган фан у ёки бу соҳасининг таниқли мутахассисларидан иборат бўлган...

Нима бўлди-ю, мустақиллик шарофати ила ҳамма жабҳаларда ўзгаришлар амалга оширила бошланди. Лекин, афсуски, баъзи ҳолларда бу жараёнда айрим масалаларга етарли даражада жиддий эътибор берилмади. Хусусан, бундай ёндашувлар диссертациялар ҳимояси амалга ошириладиган Кенгашларнинг номланишига ҳам ўз таъсирини кўрсатмасдан қолмади. Лекин бу ерда, бизнингча, “ўзгартириш” жараёнида, афсуски, қош қўяман деб кўз чиқарилди, холос.

Маълумки, анчадан буён диссертациялар ҳимояси содир бўладиган кенгашларнинг номи Илмий кенгаш деб аталиб келинмоқда. Буни, жуда нари борса, мустақиллигимизнинг дастлабки йиллари учун ёки тегишли соҳалар бўйича олим-у, уламоларнинг етарли эмаслиги шароитида ўз маъносига эга деб қабул қилиш мумкин. Лекин ўтган йиллар давомида бу йўналишларда кескин ўзгаришлар содир бўлди. Фанларнинг ҳар бир соҳаси бўйича кўплаб фан докторлари ва профессорлар етишиб чиқди. Бундай шароитда диссертациялар ҳимоялари содир бўлаётган кенгашларнинг “Илмий кенгаш” деб аташ ва шунга мос равишда улар аъзолари таркибини шакллантиришга ҳеч қандай ҳожат қолмади. Бироқ, шундай бўлишига қарамасдан, бундай номланишга, унинг тўғри ёки нотўғри, мақсадга мувофиқ ёки мувофиқ эмас эканлигига деярли ҳеч ким ҳамон муносабат билдираётгани йўқ. Баъзи ҳолларда эса, аксинча, уларнинг айнан шундай номланаётганлигига ич-ичидан “суюниб” келаётганлар ҳам орамизда – етарли (йўқ эмас).

Бизнингча, диссертациялар ҳимояси содир бўлаётган кенгашларнинг ҳозирги реал шароитда “Илмий кенгаш” деб аталиши (номланиши) НОТЎҒРИ ва бундай номланиш ўзининг етарли даражадаги мантиқий асосига ҳам эга эмас. У, маълум маънода қўйиб берилса, илм-фан тараққиётига эмас, балки унинг таназзулига хизмат қилиши мумкин. Зеро, ана шундай

номланиш илм-фан тараққиётига тўсқинлик қилувчи жуда кўп салбий ҳодисаларнинг содир бўлишига кенг йўл очиб беради. Қуйида уларнинг айримлари хусусида тўхталиб ўтамиз.

Ҳимоя кенгашининг “Илмий кенгаш” деб номланиши унинг аъзолари таркиби сифатига, салбий маънода, кескин таъсир кўрсатади. Хусусан, бундай номланиш кенгаш аъзоларининг таркибига фақат ўз соҳасининг “қассоб”ларини эмас, балки шундай “хислат”га эга бўлмаган бошқа мутахассисларнинг ҳам киришига имкон беради. Бунинг эса, бошқа шароитлар тенг бўлган тақдирда, фан шу соҳасининг тараққиётига хизмат қилиши – даргумон. Зеро, турли “хислат”га эга бўлганларнинг бир “Илмий кенгаш”га бириктирилиши натижасида, охир-оқибатда, ҳар ким унда ўз “дард”ини айтиб йиғлашига олиб келадики, бу билан шу соҳа фанини ривожлантиришнинг иложи йўқ. Ёки унда ҳар ким “илм араваси”ни ўз томонига тортишга ҳаракат қиладики, бунинг натижасида бу “арава” ўрнидан қўзғалмайди.

Бунинг устига, шу тарзда иш юритилганда ўзбекона “Чумчуқ сўйса ҳам қассоб сўйсин” “муваффақиятли” рад этилади. Ҳолбуки, бу бекордан-бекорга айтилмаган. У – аксиома. У исбот талаб этмайди.

Кенгаш “Ихтисослаш(тирил)ган кенгаш” деб аталса, унда нима бўлади? Унда, ҳеч бўлмаганда, шу биргина сўзнинг қўшиб ишлатилиши Кенгаш таркибининг, узр, “винегрет” бўлмаслигига биринчи тўсиқ бўлади, унинг таркибига фақат “қассоб”ларнинг тўпланишига шарт-шароитни автоматик тарзда яратади. Зеро, номланишнинг ўзи шуни тақозо этади (талаб қилади). Ва аксинча, унинг таркибига “бошқа”ларнинг “кириб” қолишига маънавий имконни қолдирмайди. Бундан эса илм-фан ва унинг тараққиёти фақат ютади.

Қисқаси, юқорида баён қилинганлардан келиб чиқадиган мантиқий хулоса шуки, диссертациялар ҳимояси амалга ошириладиган “Илмий кенгаш”лар номини “Ихтисослаш(тирил)ган кенгаш” деб ўзгартириш мақсадга мувофиқ ва шунга мос равишда улар аъзоларининг таркиби ҳам шакллантирилмоғи лозим. Ўшанда сих ҳам куймайди, кабоб ҳам!

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, kafedra professori, a.ostonokulov@tsue.uz,
ORCID: 0000-0003-2792-3174

DAVLAT TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY HISOBOT KO‘RSATKICHLARI KOMPLEKS TAHLILINING BOSHQARUV QARORLARIGA TA’SIRI

Остонокулов Азамат Абдукаримович
Ташкентский государственный экономический университет, профессор кафедры, a.ostonokulov@tsue.uz, ORCID: 0000-0003-2792-3174

ВЛИЯНИЕ КОМПЛЕКСНОГО АНАЛИЗА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЁТНОСТИ НА УПРАВЛЕНЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ В ГОСУДАРСТВЕННЫХ МЕДИЦИНСКИХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich
Tashkent State University of Economics, Professor, a.ostonokulov@tsue.uz,
ORCID: 0000-0003-2792-3174

THE IMPACT OF COMPREHENSIVE FINANCIAL REPORTING ANALYSIS ON MANAGEMENT DECISIONS IN PUBLIC MEDICAL INSTITUTIONS

Annotatsiya. Maqolada davlat tibbiyot tashkiloti moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining kompleks tahlili boshqaruv qarorlariga qanday ta’sir etishi respublika ixtisoslashtirilgan reabilitatsiya markazining 2019–2025-yillardagi balansi, smeta ijrosi, moliyaviy natijalar va nomoliyaviy aktivlar harakati hisobotlari asosida baholanadi. O‘nta qaror yo‘nalishi uchun signal ko‘rsatkichlari va ikki darajali chegaraviy qiymatlar belgilanib, signal paydo bo‘lgan yildan ko‘rsatkich me’yorga qaytgan yilgacha o‘tgan vaqt boshqaruv javobining kechikishi sifatida o‘lchandi. 70 kuzatuvning 24 tasida signal, shundan 9 tasida xavfli signal qayd etildi. Muassasa vakolatidagi operatsion yo‘nalishlarda - likvidlik, kreditor qarz, zaxiralar, o‘z daromadi va smeta ijrosida - javob bir yil ichida hisobotda aks etgan, tuzilmaviy yo‘nalishlarda o‘rtacha kechikish 2,5 yilni tashkil etgan, aktivlarni yangilash esa to‘rt yil davomida hal etilmagan. 2024-yilda 18 478,3 mln. so‘mlik xarid eskirishni 61,5 dan 51,4 foizga kamaytirgan, ammo yil oxiridagi majburiyat hisobiga moliyalashtirilgani sababli absolyut likvidlik 0,04 ga tushgan va 4 076,2 mln. so‘m zarar yuzaga kelgan. Eskirishni 60 foizdan oshirmaslik uchun yillik xarid haqiqiy o‘rtacha darajadan 3,1 barobar ko‘p bo‘lishi zarur. Integral indeks xavfli signallar bilan kuchsiz bog‘langan ($\rho = -0{,}21$), shu bois qaror uchun indeks va signal qoidalarini birga qo‘llash taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy hisobot; kompleks tahlil; boshqaruv qarori; erta ogohlantirish; signal matritsasi; aktivlarni yangilash; likvidlik; tibbiyot muassasasi.

Аннотация. В статье оценивается, каким образом комплексный анализ показателей финансовой отчётности государственной медицинской организации влияет на управленческие решения; оценка проведена на основе баланса, отчёта об исполнении сметы, отчёта о финансовых результатах и отчёта о движении нефинансовых активов республиканского специализированного реабилитационного центра за 2019–2025 годы. Для десяти направлений принятия решений определены сигнальные показатели и двухуровневые пороговые значения, а время, прошедшее от года появления сигнала до года возврата показателя в нормативную зону, измерено как запаздывание управленческой реакции. Из 70 наблюдений сигнал зафиксирован в 24 случаях, из них в 9 - опасного уровня. По оперативным направлениям, находящимся в компетенции учреждения, - ликвидность, кредиторская задолженность, запасы, собственные доходы и исполнение сметы - реакция отразилась в отчётности в течение одного года; по структурным направлениям среднее запаздывание составило 2,5 года, а обновление активов оставалось нерешённым в течение четырёх лет. В 2024 году приобретение на сумму 18 478,3 млн. сумов снизило степень износа с 61,5 до 51,4 процента, однако, поскольку оно было профинансировано за счёт обязательств, возникших в конце года, абсолютная ликвидность упала до 0,04, а убыток составил 4 076,2 млн. сумов. Чтобы износ не превышал 60 процентов, ежегодные приобретения должны в 3,1 раза превышать фактический средний уровень. Интегральный индекс слабо связан с опасными сигналами ($\rho = -0{,}21$), в связи с чем для принятия решений предлагается совместное применение индекса и сигнальных правил.

Ключевые слова: финансовая отчётность; комплексный анализ; управленческое решение; раннее предупреждение; матрица сигналов; обновление активов; ликвидность; медицинское учреждение.

Abstract. The paper examines how comprehensive analysis of financial reporting indicators feeds into management decisions in a public medical institution in Uzbekistan, using its 2019–2025 statutory reports. Ten decision areas were linked to signal indicators with two-level thresholds, and the time from the first signal to the indicator’s return to the normal zone was used as the response lag. Signals appeared in 24 of 70 observations, 9 of them critical. Operational areas within the institution’s authority responded within one year, structural areas took 2.5 years on average, and asset renewal remained unresolved for four years. A large purchase in 2024 cut the depreciation ratio from 61.5 to 51.4 per cent but, financed through year-end payables, pushed the cash ratio to 0.04 and produced a deficit. Holding depreciation at 60 per cent requires purchases 3.1 times the historical average. The composite index is only weakly related to critical signals, so both tools should be used together.

Keywords: financial reporting; management decisions; early warning; composite index; asset renewal; public hospital.

KIRISH

Moliyaviy hisobot tahlili o‘z-o‘zidan maqsad emas: uning qiymati tahlil natijasida qanday qaror qabul qilingani va bu qaror keyingi davr ko‘rsatkichlarida qanday aks etgani bilan o‘lchanadi. Davlat tibbiyot tashkilotlarida esa hisobot ko‘pincha yuqori turuvchi organga topshiriladigan majburiy hujjat sifatida qaraladi, tahlil smeta ijrosi va kreditor qarz qoldig‘ini tekshirish bilan cheklanadi. Natijada aktivlar eskirishi, hisob-kitoblarning cho‘zilishi yoki pul mablag‘larining yetishmasligi haqidagi signal hisobotda bir necha yil oldin paydo bo‘lsa-da, boshqaruv javobi kechikadi yoki umuman bo‘lmaydi.

Davlat sektorida moliyaviy ko‘rsatkichlarni qaror qabul qilish bilan bog‘lashga qaratilgan tadqiqotlar ikki yo‘nalishda rivojlangan. Birinchisi - moliyaviy holatni erta ogohlantirish tizimlari. Grouvz, Godsi va Shulman munitsipalitetlar moliyaviy holatini ko‘rsatkichlar tizimi orqali kuzatishni taklif etgan [4]; Kloxa, Vaysert va Klayn mahalliy hokimiyatlar uchun moliyaviy tanglikni oldindan aniqlaydigan kompozit tizimni ishlab chiqib, uni amaliy ma’lumotlarda sinagan [8]; Safra-Gomes va hammualliflar esa ko‘rsatkichlarni chegaraviy qiymatlar bilan solishtirib, ogohlantirish darajalarini belgilaydigan tizimni taklif qilgan [20]. Shifoxonalar uchun moliyaviy koeffitsientlar tahlili Kleverli va hammualliflar ishlarida boshqaruv amaliyotiga aylantirilgan [2], Deng esa Xitoy davlat shifoxonalari moliyaviy barqarorligini entropiya vaznli integral indeks orqali baholagan [3].

Ikkinchi yo‘nalish - samaradorlik axborotidan foydalanish nazariyasi. Saymon boshqaruv qarorini cheklangan axborot sharoitidagi tanlov sifatida ta’riflagan [16]; yangi davlat boshqaruvi islohotlari ko‘rsatkichlarga asoslangan boshqaruvni tarqatgan bo‘lsa-da [5], Moynixen ko‘rsatkichlar yig‘ilishi ulardan foydalanishni kafolatlamasligini ko‘rsatgan [10]. Kroll tizimli sharhida axborotdan foydalanish rahbar tashabbusi, tashkiliy salohiyat va axborotning qaror davriga mos kelishiga bog‘liqligini qayd etgan [9]. Van Xelden va Rayxard davlat sektori hisobotidan foydalanuvchilar ehtiyojini tahlil qilib, rahbarlar byudjet ijrosidan ko‘ra kelgusi qarorlar uchun zarur ko‘rsatkichlarga qiziqishini ta’kidlagan [18]. Stekkolini hisob axborotining ommaviy boshqaruvdagi o‘rnini qayta ko‘rib chiqishga chaqirgan [17], Barbera va hammualliflar esa moliyaviy zarbalarga javob strategiyalari tashkilot salohiyatiga bog‘liqligini aniqlagan [1]; xalqaro standartlar ham hisobotni qaror qabul qilish uchun foydalilik orqali ta’riflaydi [7].

O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimi moliyalashtirilishi davlat buyurtmasi va tibbiy sug‘urta mexanizmlariga o‘tmoqda [19], byudjet tashkilotlari hisoboti tartibi yangilangan [23]. Mahalliy tadqiqotlarda byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobi [13], byudjet hisobi va hisobotining samaradorligi [14], hisobotning tahliliy imkoniyatlari [15] va davlat auditining hisobot axborotiga tayanishi [11] o‘rganilgan. Biroq kompleks tahlil natijalarini aniq boshqaruv qarorlari bilan bog‘laydigan, signal paydo bo‘lganidan qaror natijasi hisobotda ko‘ringunicha o‘tgan vaqtni o‘lchaydigan empirik ish mavjud emas.

Tadqiqot maqsadi - davlat tibbiyot tashkiloti moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining kompleks tahlili boshqaruv qarorlariga qanday ta’sir etishini real hisobot ma’lumotlari asosida baholash. Uch savolga javob izlandi: (1) kompleks tahlil qaysi qaror yo‘nalishlarida qachon signal bergan; (2) signal paydo bo‘lgach, boshqaruv javobi qancha vaqtda hisobotda aks etgan; (3) hal etilmagan signallar uchun zarur qarorning miqdoriy ko‘lami qanday.

MATERIALLAR VA USULLAR

Ma’lumotlar bazasi. Empirik baza sifatida Nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazining 2019–2025-yillar uchun yillik hisobotlari olindi: balans (1-shakl), xarajatlar smetasi ijrosi (2-shakl), moliyaviy natijalar hisoboti va nomoliyaviy aktivlar harakati (5-shakl) [24]. Barcha summalar million so‘mda, joriy narxlarda keltirilgan; real taqqoslash uchun Markaziy bankning yillik inflyatsiya ko‘rsatkichlari zanjiri qo‘llandi (2019 = 1; 2025-yilda 1,759) [22]. Oldingi tadqiqot bosqichida shu hisobotlar asosida olti blokdan iborat o‘n sakkiz ko‘rsatkich va integral kompleks indeks (IKI) hisoblangan: bloklar min–max usulida normallashtirilib, teng vaznda jamlangan [12; 24].

Qaror yo‘nalishlari va signal qoidalari. Kompleks tahlilni boshqaruv amaliyotiga bog‘lash uchun o‘nta qaror yo‘nalishi ajratildi va har biriga uni eng aniq tavsiflaydigan bitta ko‘rsatkich biriktirildi (1-jadval). Har bir ko‘rsatkich uchun ikki daraja belgilandi: ogohlantirish chegarasi

rahbariyat e’tiborini talab qiladi, xavfli chegara esa zudlik bilan qaror qabul qilishni taqozo etadi [8; 20]. Chegaralar uch manbaga tayandi: me’yoriy mulohaza (masalan, eskirish 50 foizdan oshganda aktivning yarmidan ko‘prog‘i iste’mol qilingan bo‘ladi; debitor qarzning 30 kunlik davri oylik hisob-kitob davriga mos keladi), moliyaviy tahlil adabiyotidagi an’anaviy qiymatlar (absolyut likvidlikning 0,2 lik quyi chegarasi) [2] hamda kuzatuv qatorining o‘z taqsimoti.

1-jadval

Qaror yo‘nalishlari, signal ko‘rsatkichlari va chegaraviy qiymatlar[1]

№	Qaror yo‘nalishi	Ko‘rsatkich	Ogohlantirish / xavfli chegara	Qaror turi	Qaror darajasi
1	Aktivlarni yangilash	A1 eskirish, %	≥ 50 / ≥ 60	yangilash dasturi, xarid rejasi	M + Y
2	Debitor qarzni boshqarish	B3 aylanish, kun	> 30 / > 45	hisob-kitob intizomi, shartnoma shartlari	M
3	Likvidlikni ta’minlash	B1 absolyut likvidlik	< 1,0 / < 0,2	to‘lov jadvali, pul buferi	M + MO
4	Kreditor qarz intizomi	C2 qarz yuki, %	> 5 / > 10	majburiyat limiti, xarid muddati	M + MO
5	Zaxiralarni boshqarish	E3 aylanish, kun	> 150 / > 200	xarid hajmi va davriyligi	M
6	O‘z daromadini rivojlantirish	D1 ulush, %	< 50 / < 45	pullik xizmatlar, narx siyosati	M
7	Natijani ta’minlash	F1 marja, %	< 0 / < −5	xarajatni qayta taqsimlash	M
8	Kapital xarajatni rejalashtirish	E2 ulush, %	< 8 / < 5	smetada kapital modda	Y + MO
9	Shtat va mehnat xarajati	E1 ulush, %	> 65 / > 70	shtat jadvali, tariflash	Y
10	Smeta ijrosi intizomi	D3 uzilish, %	> 10 / > 15	moliyalashtirish grafigi	MO

M - muassasa rahbariyati; Y - yuqori turuvchi organ; MO - moliya organi va g‘aznachilik.

Signal darajasi har yil uchun uch toifada aniqlandi: me’yor (0), ogohlantirish (1), xavfli (2). Qaror yo‘nalishlari ikki guruhga oldindan ajratildi. Tezkor, ya’ni operatsion qarorlar (likvidlik, kreditor qarz, zaxiralar, o‘z daromadi, smeta ijrosi) muassasa vakolatida bo‘lib, bir moliya yili ichida amalga oshirilishi mumkin. Tuzilmaviy qarorlar (aktivlarni yangilash, kapital xarajat, shtat, debitor qarz, moliyaviy natija) esa yuqori turuvchi organ, buyurtmachi yoki tarif siyosatiga bog‘liq.

Boshqaruv javobini o‘lchash. Boshqaruv qarorining o‘zi hisobotda qayd etilmaydi, lekin uning oqibati ko‘rsatkichda ko‘rinadi. Shu sababli javob sifatida ko‘rsatkichning me’yor zonasiga qaytishi olindi, kechikish esa birinchi signal yili bilan me’yorga qaytgan yil orasidagi farq sifatida hisoblandi. Kuzatuv oxirigacha me’yorga qaytmagan yo‘nalish hal etilmagan deb belgilandi. Kompleks indeks va signallar orasidagi bog‘liqlik Spirmen rang korrelyatsiyasi bilan baholandi.

[1] Muallif ishlanmasi

Chegaralarning ixtiyoriyligi natijaga ta’sirini tekshirish uchun barcha chegaralar ko‘rsatkich kuzatuv oralig‘ining 10 foizi miqdorida qattiqroq va yumshoqroq tomonga siljitildi.

Hal etilmagan eng muhim yo‘nalish - aktivlarni yangilash uchun zarur qaror ko‘lami eskirishning dinamik tenglamasi orqali baholandi:

$$D_{t+1} = D_t + \delta \cdot G_t; \quad G_{t+1} = D_{t+1} / k^*; \quad A_{t+1} = G_{t+1} - G_t$$

bu yerda G - asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati, D - to‘plangan eskirish, k* - maqsadli eskirish koeffitsienti, A - maqsadni ushlab turish uchun zarur yillik xarid. Eskirish sur’ati $\delta = 0{,}137$ sifatida 2025-yildagi haqiqiy qiymat bo‘yicha olindi (2020–2025-yillarda 0,095–0,184, o‘rtachasi 0,131).



1-rasm. Moliyaviy hisobot tahlilidan boshqaruv qaroriga o‘tish sikli[2]

Tenglama chiqib ketishlarni hisobga olmagani uchun baho yuqori chegara hisoblanadi. Tahlil tizimi 1-rasmda tasvirlangan.

NATIJALAR

Signallar matritsasi. Yetti yil va o‘nta yo‘nalishdan iborat 70 kuzatuvning 24 tasida (34,3 %) signal qayd etildi, ulardan 9 tasi xavfli darajada (2-rasm). Signallar vaqt bo‘yicha tasodifiy taqsimlanmagan. 2019–2021-yillarda ular asosan operatsion yo‘nalishlarda - natija, o‘z daromadi, mehnat xarajati, zaxiralar va smeta ijrosida - paydo bo‘lgan. 2021-yildan boshlab eskirish va kapital xarajat bo‘yicha surunkali signallar shakllangan, 2022–2024-yillarda ularga debitor qarz qo‘shilgan. 2024-yil beshta signal, shu jumladan to‘rtta xavfli signal bilan eng og‘ir yil bo‘ldi.

Ko‘rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
1. Aktivlarni yangilash (A1)	44,2	50,0	56,4	58,6	61,5	51,4	58,8
2. Debitor qarzni boshqarish (B3)	4,7	3,9	10,3	43,7	62,6	56,9	9,0
3. Likvidlikni ta’minlash (B1)	1,45	2,44	2,47	1,90	4,79	0,04	2,28
4. Kreditor qarz intizomi (C2)	4,0	1,0	3,1	3,0	1,6	19,3	2,1
5. Zaxiralarni boshqarish (E3)	71	127	253	93	103	127	123
6. O‘z daromadini rivojlantirish (D1)	54,0	40,6	57,1	58,0	52,6	50,5	49,8
7. Natijani ta’minlash (F1)	–0,7	–1,6	4,1	8,4	10,5	–8,7	2,3
8. Kapital xarajatni rejalashtirish (E2)	13,5	8,3	7,9	7,1	7,0	8,4	3,6
9. Shtat va mehnat xarajati (E1)	57,0	69,8	65,0	62,0	63,9	58,5	64,4
10. Smeta ijrosi intizomi (D3)	14,4	6,8	11,0	9,8	2,2	0,8	0,7

me’yor ogohlantirish xavfli

2-rasm. Qaror yo‘nalishlari bo‘yicha signallar matritsasi, 2019–2025-yillar[3]

Kataklarda ko‘rsatkichning haqiqiy qiymati keltirilgan.

Signaldan qarorgacha: kechikish. 2-jadval har bir yo‘nalish bo‘yicha birinchi signaldan me’yorga qaytishgacha bo‘lgan yo‘lni ko‘rsatadi. Operatsion yo‘nalishlarning barchasida javob bir yil ichida hisobotda aks etgan. 2021-yilda zaxiralar 1 965,1 mln. so‘mga yetib, aylanish davri 253

[2] Muallif ishlanmasi

[3] Nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi yillik moliyaviy hisobotlari asosida muallif hisob-kitobi

kunni tashkil etgan bo‘lsa, keyingi yili qoldiq 1 125,8 mln. so‘mgacha qisqargan va davr 93 kunga tushgan. 2020-yilda o‘z daromadi ulushi 40,6 foizga pasaygan, 2021-yilda esa 57,1 foizga tiklangan. Smeta ijrosidagi uzilish 2019-yildagi 14,4 foizdan 2025-yilda 0,7 foizgacha izchil qisqargan.

2-jadval

Signallar va boshqaruv javobining hisobotdagi aksi[4]

Qaror yo‘nalishi	Birinchi signal	Me’yorga qaytish	Kechikish, yil	Hisobotda aks etgan natija
3. Likvidlik	2024 (2)	2025	1	kreditor qarz to‘langan, likvidlik 2,28 ga tiklangan
4. Kreditor qarz	2024 (2)	2025	1	qarz yuki 19,3 % dan 2,1 % ga
5. Zaxiralar	2021 (2)	2022	1	zaxira 1 965,1 dan 1 125,8 mln. so‘mga
6. O‘z daromadi	2020 (2)	2021	1	ulush 40,6 % dan 57,1 % ga; 2025-yilda 49,8 %
10. Smeta ijrosi	2019 (1)	2020	1	uzilish 14,4 % dan 6,8 % ga; 2021-yilda takror
7. Natija	2019 (1)	2021	2	marja −1,6 % dan 4,1 % ga; 2024-yilda −8,7 %
9. Mehnat xarajati	2020 (1)	2022	2	ulush 69,8 % dan 62,0 % ga
2. Debitor qarz	2022 (1)	2025	3	davr 62,6 kundan 9,0 kunga
8. Kapital xarajat	2021 (1)	2024	3	2025-yilda 3,6 % - xavfli
1. Aktivlarni yangilash	**2021 (1)**	**—**	**≥ 4**	**2024-yilda 51,4 %, 2025-yilda yana 58,8 %**


Qavs ichida birinchi signal darajasi: 1 - ogohlantirish, 2 - xavfli.

Tuzilmaviy yo‘nalishlarda o‘rtacha kechikish 2,5 yilni tashkil etdi, aktivlarni yangilash esa to‘rt yil davomida hal etilmay qoldi (5-rasm, b). Debitor qarz aylanish davri 2019-yildagi 4,7 kundan 2023-yilda 62,6 kungacha cho‘zilgan; 30 kunlik me’yordan ortiq qarz 2022–2024-yillarda mos ravishda 1 446,0, 3 915,9 va 3 469,1 mln. so‘mni yoki yillik xarajatlarning 4,1, 10,0 va 6,8 foizini tashkil etgan (3-rasm, b). Hisobot debitorlar tarkibini ochib bermaydi. Hisob-kitoblar 2025-yilda to‘liq undirilib, davr 9,0 kunga qisqargan.

2024-yil qarori: bir muammoning yechimi boshqasini keltirib chiqardi. Eskirish 2023-yilda 61,5 foiz bilan xavfli chegaradan oshgach, 2024-yilda 18 478,3 mln. so‘mlik asosiy vosita sotib olindi. Bu 2019–2023-yillardagi o‘rtacha yillik xaridan 19 barobar ko‘p bo‘lib, eskirishni 51,4 foizgacha pasaytirdi (3-rasm, a). Xarid qiymatining faqat 10,6 foizi (1 964,2 mln. so‘m) smetaning kapital xarajat moddasi orqali o‘tgan, qolgan qismi byudjetdan tashqari mablag‘lar va yil oxiridagi majburiyatlar hisobiga qoplangan. Oqibatda kreditor qarz 641,0 dan 9 858,1 mln. so‘mga oshdi, pul mablag‘lari 3 073,5 dan 352,0 mln. so‘mga kamaydi, absolyut likvidlik 4,79 dan 0,04 ga, sof aktivlar

[4] Muallif hisob-kitobi

ulushi 97,4 dan 71,9 foizga tushdi, moliyaviy natija esa −4 076,2 mln. so‘mlik zarar bilan yopildi (3-rasm).



3-rasm. Aktivlarni yangilash, debitor qarz va likvidlik bo‘yicha qaror holatlari, 2019–2025-yillar[5]

Uzuq chiziq - ogohlantirish, nuqtali chiziq - xavfli chegara.

Qaror bir yo‘nalishdagi xavfli signalni bartaraf etib, boshqa uch yo‘nalishda - likvidlik, kreditor qarz va natijada - xavfli signal paydo qildi. Ikki signal o‘zaro bog‘liq bo‘lgan: agar 2024-yil oxirida debitor qarz 30 kunlik me’yorda bo‘lganida, qo‘shimcha 3 469,1 mln. so‘m pul kelib tushib, absolyut likvidlik 0,04 emas, 0,39 ni tashkil etgan bo‘lar edi. 2025-yilda majburiyatlar 1 134,8 mln. so‘mgacha qisqardi va likvidlik 2,28 ga tiklandi. Biroq xarid 3 905,7 mln. so‘mga, kapital xarajat ulushi esa 3,6 foizga tushib, eskirish yana 58,8 foizga ko‘tarildi. Shunday qilib, aktivlarni yangilash tizimli dastur emas, balki bir martalik tadbir sifatida amalga oshirilgan. Muassasaning pul qoldig‘i kuzatuv davrining birorta yilida bir oylik xarajatni qoplamagan: bu nisbat 0,08 (2024) dan 0,94 (2023) gacha o‘zgargan.

Yangilash qarorining miqdoriy ko‘lami. Eskirishni maqsadli darajada ushlab turish uchun zarur yillik xarid 3-jadval va 4-rasmda keltirilgan. Eskirishni hech bo‘lmaganda 60 foizdan oshirmaslik uchun 2026-yilda 12 124,2 mln. so‘mlik xarid talab etiladi; bu 2019–2025-yillardagi o‘rtacha xariddan (3 892,0 mln. so‘m) 3,1 barobar, medianadan (1 331,5 mln. so‘m) 9,1 barobar ko‘p va 2025-yil daromadlarining 22,2 foiziga teng. Eskirishni 50 foizgacha qaytarish esa daromadning 47,9 foizini talab qiladi va amalda muassasa imkoniyatidan tashqarida.

3-jadval


Eskirishni maqsadli darajada ushlab turish uchun zarur asosiy vosita xaridi, mln. so‘m[6]

Maqsadli eskirish, %	2026-yil	2027-yil	2028-yil	Uch yil jami	2026-yil xaridi 2025-yil daromadiga nisbatan, %
50	26 191,8	23 127,2	29 464,1	78 783,1	47,9
55	18 518,6	19 113,4	23 874,4	61 506,3	33,9
60	**12 124,2**	**16 060,6**	**19 727,7**	**47 912,5**	**22,2**
65	6 713,6	13 684,7	16 569,1	36 967,4	12,3

[5] Nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi yillik moliyaviy hisobotlari asosida muallif hisob-kitobi


[6] Muallif hisob-kitobi

(δ = 0,137). Taqqoslash uchun: 2019–2025-yillarda haqiqiy yillik xarid o‘rtacha 3 892,0 mln so‘m.



4-rasm. Maqsadli eskirish ssenariylari bo‘yicha zarur yillik xarid va haqiqiy xarid darajasi[7]

Integral indeks va signallar. Integral indeks va signallar soni orasidagi rang korrelyatsiyasi −0,48 ga (p = 0,28), xavfli signallar soni bilan esa atigi −0,21 ga (p = 0,66) teng bo‘ldi (5-rasm, a). 2023-yilda indeks kuzatuv davridagi eng yuqori qiymatga (0,698) yetgan, ammo aynan shu yili ikki xavfli signal - eskirish va debitor qarz bo‘yicha - qayd etilgan. 2025-yilda indeks 0,603 bilan 2019-yil darajasidan yuqori bo‘lsa-da, kapital xarajat bo‘yicha xavfli signal saqlangan. Demak, integral indeks yuqori ko‘rsatkichli bloklar hisobiga past bloklarni «yashiradi» va qaror qabul qilish uchun yetarli emas.



5-rasm. Integral indeks, signallar soni va qaror yo‘nalishlari bo‘yicha kechikish[8]
Shtrixlangan ustun - kuzatuv oxirigacha hal etilmagan yo‘nalish.

Chegaralar qattiqroq qilinganda signallar soni 33 taga (xavfli - 14), yumshatilganda 16 taga (xavfli - 7) o‘zgardi, 70 katakdan mos ravishda 14 va 10 tasining darajasi o‘zgardi. Biroq asosiy xulosa barqaror qoldi: operatsion yo‘nalishlarda kechikish har uchala variantda bir yilga teng, debitor qarz bo‘yicha uch yil, aktivlarni yangilash esa asosiy va qattiq variantlarda hal etilmagan, yumshoq variantda uch yilda me’yorga qaytgan.

[7] Muallif hisob-kitobi
[8] Muallif hisob-kitobi

MUHOKAMA

Natijalar kompleks tahlilning boshqaruv qarorlariga ta’siri assimetrik ekanini ko‘rsatadi. Muassasa vakolatidagi operatsion masalalarda hisobot signali bir yil ichida javob topgan: bu Kroll ta’kidlagan omil - axborotning qaror davriga mos kelishi va qaror qabul qiluvchining o‘z vakolatiga ega bo‘lishi bilan izohlanadi [9]. Tuzilmaviy masalalarda esa signal yillar davomida saqlanib qolgan, chunki qaror resursi muassasadan tashqarida - yuqori turuvchi organning investitsiya rejasi, buyurtmachining to‘lov intizomi yoki tariflarda joylashgan. Bu Barbera va hammualliflar tavsiflagan «moslashuvchan» emas, balki «reaktiv» javob uslubiga mos keladi [1].

2024-yilgi holat erta ogohlantirish tizimlari adabiyotidagi muhim mulohazani tasdiqlaydi: ko‘rsatkichlarni alohida kuzatish bir muammoni hal etib, boshqasini keltirib chiqaradigan qarorlarga olib keladi [8; 20]. Yirik xarid eskirishni kamaytirgan, lekin moliyalashtirish manbai likvidlik bilan birga rejalashtirilmagan. Shu ma’noda kompleks tahlilning qiymati alohida ko‘rsatkichlarda emas, ular orasidagi bog‘lanishni ko‘rsatishida.

Integral indeks bilan signallar orasidagi kuchsiz bog‘liqlik OECD qo‘llanmasidagi ogohlantirishga mos keladi: kompozit ko‘rsatkich umumiy tendensiyani ifodalash uchun qulay, lekin kompensatsion jamlash tufayli alohida bloklardagi og‘ir holatni yashiradi [12]. Shu sababli boshqaruv uchun indeks va signal qoidalari birga qo‘llanishi zarur: indeks yo‘nalishni, signal esa aniq qaror nuqtasini ko‘rsatadi. Van Xelden va Rayxard ta’kidlaganidek, rahbarlarga keyingi qaror uchun zarur ko‘rsatkich kerak [18]; signal matritsasi aynan shu vazifani bajaradi.

Tadqiqotning cheklovlari bor. Birinchidan, tahlil bitta muassasaning yetti yillik ma’lumotiga asoslangan, shu bois kechikish baholari statistik umumlashma emas, balki holat tahlili natijasidir. Ikkinchidan, boshqaruv qarorining o‘zi emas, uning hisobotdagi oqibati kuzatilgan; ko‘rsatkichning me’yorga qaytishi tashqi omillar, jumladan moliyalashtirish tartibining o‘zgarishi hisobiga ham ro‘y berishi mumkin. Uchinchidan, yangilash ehtiyoji chiqib ketishlarni hisobga olmagan holda baholangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davlat tibbiyot tashkiloti moliyaviy hisobotining kompleks tahlili boshqaruv qarorlariga ta’sirini real hisobot ma’lumotlarida o‘lchadi va quyidagi xulosalarga keldi. Birinchidan, 2019–2025-yillarda 70 kuzatuvning 24 tasida signal qayd etilgan va ularning ko‘pchiligi hisobotda bir necha yil oldin ko‘ringan. Ikkinchidan, muassasa vakolatidagi operatsion yo‘nalishlarda javob bir yil ichida kelgan, tuzilmaviy yo‘nalishlarda o‘rtacha kechikish 2,5 yil, aktivlarni yangilash esa to‘rt yil davomida hal etilmagan. Uchinchidan, 2024-yilgi yangilash qarori eskirishni 10,1 foiz bandga kamaytirgan, ammo uch yo‘nalishda xavfli signal keltirib chiqargan va bir yildan so‘ng samarasi yo‘qolgan. To‘rtinchidan, eskirishni 60 foizdan oshirmaslik uchun yillik xarid haqiqiy o‘rtacha darajadan uch barobar ko‘p bo‘lishi kerak. Beshinchidan, integral indeks xavfli signallar bilan deyarli bog‘lanmagan va o‘zi yolg‘iz qaror uchun asos bo‘la olmaydi.

Natijalar asosida 2025-yil hisobotiga tayangan qaror paneli ishlab chiqildi (4-jadval). Uning mohiyati shundaki, har bir signal aniq qaror, miqdoriy mo‘ljal va mas’ul darajaga ega bo‘lishi kerak.

4-jadval

2025-yil hisoboti asosidagi boshqaruv qarorlari paneli[9]

Qaror yo‘nalishi	2025-yil qiymati	Holat	Tavsiya etilgan qaror	Miqdoriy mo‘ljal	Daraja
8. Kapital xarajat	3,6 %	xavfli	smetada kapital moddani tiklash	≥ 8 % (≥ 2 210 mln. so‘m)	Y + MO
1. Aktivlarni yangilash	58,8 %	ogohlantirish	uch yillik bosqichma-bosqich yangilash dasturi	2026-yilda ≥ 12 124 mln. so‘m	M + Y
6. O‘z daromadi	49,8 %	ogohlantirish	pullik xizmatlar tarkibi va narxini qayta ko‘rish	≥ 50 %	M
3. Likvidlik	2,28; 0,58 oy	me’yor	pul buferini shakllantirish	≥ 4 449 mln. so‘m (bir oylik xarajat)	M + MO
4. Kreditor qarz	2,1 %	me’yor	yirik xaridni yil oxiriga qoldirmaslik	≤ 5 %	M + MO
2. Debitor qarz	9,0 kun	me’yor	choraklik monitoring	≤ 30 kun	M

Amaliy takliflar quyidagilardan iborat. Birinchi, yillik hisobotga ilova sifatida o‘nta yo‘nalishdan iborat signal matritsasini tuzish va uni yuqori turuvchi organga hisobot bilan birga taqdim etishni joriy qilish lozim. Ikkinchi, xavfli signal ikki yil ketma-ket saqlangan yo‘nalish bo‘yicha qaror yuqori turuvchi organ darajasiga ko‘tarilishi kerak, chunki tuzilmaviy muammolar muassasa vakolatida hal etilmayapti. Uchinchi, aktivlarni yangilash bir martalik xarid emas, balki eskirish sur’atiga bog‘langan ko‘p yillik dastur sifatida rejalashtirilishi va uning moliyalashtirish manbai likvidlik bilan birga baholanishi zarur. To‘rtinchi, har bir yirik xarid qarori oldidan kompleks tahlil asosida uning likvidlik, kreditor qarz va moliyaviy natijaga ta’siri oldindan hisoblanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Barbera, C., Jones, M., Korac, S., Saliterer, I., Steccolini, I. Governmental financial resilience under austerity in Austria, England and Italy: how do local governments cope with financial shocks? // Public Administration. - 2017. - Vol. 95, № 3. - P. 670–697.

2. Cleverley, W. O., Song, P. H., Cleverley, J. O. Essentials of Health Care Finance. - 8th ed. - Burlington: Jones & Bartlett Learning, 2018. - 606 p.

3. Deng, Y. Spatio-temporal evolution of financial sustainability in Chinese public hospitals: evidence from provincial panel data (2010–2022) // Frontiers in Public Health. - 2025. - Vol. 13. - Art. 1665487. - DOI: 10.3389/fpubh.2025.1665487.

4. Groves, S. M., Godsey, W. M., Shulman, M. A. Financial indicators for local government // Public Budgeting & Finance. - 1981. - Vol. 1, № 2. - P. 5–19.

5. Hood, C. The «New Public Management» in the 1980s: variations on a theme // Accounting, Organizations and Society. - 1995. - Vol. 20, № 2–3. - P. 93–109.

[9] Muallif ishlanmasi

6. IMF. Uzbekistan: Staff Concluding Statement of the 2026 Article IV Mission. - Washington, DC: IMF, 13.04.2026.

7. IPSASB. The Conceptual Framework for General Purpose Financial Reporting by Public Sector Entities. - New York: IFAC, 2023. - 78 p.

8. Kloha, P., Weissert, C. S., Kleine, R. Developing and testing a composite model to predict local fiscal distress // Public Administration Review. - 2005. - Vol. 65, № 3. - P. 313–323.

9. Kroll, A. Drivers of performance information use: systematic literature review and directions for future research // Public Performance & Management Review. - 2015. - Vol. 38, № 3. - P. 459–486.

10. Moynihan, D. P. The Dynamics of Performance Management: Constructing Information and Reform. - Washington, DC: Georgetown University Press, 2008. - 256 p.

12. OECD, JRC. Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide. - Paris: OECD Publishing, 2008. - 162 p.

13. Ostonokulov, A. Improvement of methodology for accounting of extra-budgetary resources of public educational and medical institutions // E3S Web of Conferences. - 2021. - Vol. 296. - Art. 06029. - DOI: 10.1051/e3sconf/202129606029.

14. Ostonokulov, A., Kuliboyev, A. Modern issues of accounting and reporting in the budget system // GSC Advanced Research and Reviews. - 2026. - Vol. 26, № 3. - P. 145–150. - DOI: 10.30574/gscarr.2026.26.3.0070.

15. Rizayev N. Q. Moliyaviy hisobotning tahliliy imkoniyatlari va ularni kengaytirish yo‘llari // Iqtisodiyot va ta’lim. - 2022. - № 2. - B. 214–221.

16. Simon, H. A. Administrative Behavior: A Study of Decision-Making Processes in Administrative Organization. - New York: Macmillan, 1947. - 259 p.

17. Steccolini, I. Accounting and the post-new public management: re-considering publicness in accounting research // Accounting, Auditing & Accountability Journal. - 2019. - Vol. 32, № 1. - P. 255–279.

18. van Helden, J., Reichard, C. Making sense of the users of public sector accounting information and their needs // Journal of Public Budgeting, Accounting & Financial Management. - 2019. - Vol. 31, № 4. - P. 478–495.

19. WHO Regional Office for Europe. Transforming the Health System in Uzbekistan: Two-Year Implementation Review. - Copenhagen: WHO, 2023.

20. Zafra-Gómez, J. L., López-Hernández, A. M., Hernández-Bastida, A. Developing an alert system for local governments in financial crisis // Public Money & Management. - 2009. - Vol. 29, № 3. - P. 175–181.

Axmedov Latayibxon Mamitxonovich
“Vatan” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti vazifasini bajaruvchi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
Email: tayyibuzb69@gmail.com
ORCID: 0009-0006-8478-5571

TO‘LANMAGAN USTAV KAPITALINI TAN OLISH VA 8340 “TO‘LANMAGAN KAPITAL” HISOBVARAG‘I

Ахмедов Латайбхон Мамитхонович
И.о. доцента кафедры экономики Университета «Ватан», независимый исследователь Ташкентского государственного экономического университета
Электронная почта: tayyibuzb69@gmail.com
ORCID: 0009-0006-8478-5571

ПРИЗНАНИЕ НЕОПЛАЧЕННОГО УСТАВНОГО КАПИТАЛА И СЧЁТ 8340 «НЕОПЛАЧЕННЫЙ КАПИТАЛ»

Latayibxon M. Axmedov
Associate Professor, Department of Economics, “Vatan” University, Independent Researcher, Tashkent State University of Economics
Email: tayyibuzb69@gmail.com
ORCID: 0009-0006-8478-5571

RECOGNITION OF UNPAID SHARE CAPITAL AND ACCOUNT 8340 “CAPITAL UNDER PAYMENT”

Annotatsiya. Maqolada xususiy kapitalning normativ ta’rifi bilan uni hisobvaraqlar rejasida tan olish tartibi o‘rtasidagi qarama-qarshilik tadqiq etilgan. Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asosning 64-bandi xususiy kapitalni qoldiq ulush sifatida ta’riflaydi, 21-son buxgalteriya hisobining milliy standartida esa to‘lanmagan ustav kapitali 4610 hisobvarag‘ida aktiv sifatida tan olinadi. Muallif modeli hamda “O‘zkimyosanoat” AJ tarkibidagi o‘nta jamiyatning 2019–2025-yillardagi yillik moliyaviy hisobotlari (buxgalteriya balanslari) asosida bu qarama-qarshilikning sof aktivlar ko‘rsatkichiga ta’siri o‘lchangan hamda 8340 “To‘lanmagan kapital” kontr-kapital hisobvarag‘ini joriy etish, uning yozuvlari, o‘tish tartibi va analitik registri taklif qilingan. Model boshqa shartlar teng bo‘lganda aktiv usulida sof aktivlar kontr-kapital usuliga nisbatan to‘lanmagan hissalar summasiga yuqori chiqishini, ya’ni bu ko‘rsatkich kapitalning haqiqatda to‘langanlik darajasini aks ettirmasligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: xususiy kapital, to‘lanmagan kapital, qoldiq ulush, tan olish mezoni, kontr-kapital hisobvarag‘i, sof aktivlar, aksiyadorlik jamiyati, hisobvaraqlar rejasi.

Аннотация. В статье исследуется противоречие между нормативным определением собственного капитала и порядком его признания в плане счетов. Пункт 64 Концептуальной основы подготовки и представления финансовой отчётности определяет собственный капитал как остаточную долю, тогда как в национальном стандарте бухгалтерского учёта № 21 неоплаченный уставный капитал признаётся активом на счёте 4610. На основе авторской модели и годовых финансовых отчётов (бухгалтерских балансов) десяти акционерных обществ, входящих в АО «Узкимёсаноат», за 2019–2025 годы измерено влияние этого противоречия на показатель чистых активов и предложено введение контрпассивного счёта 8340 «Неоплаченный капитал» с порядком записей, переходной проводкой и аналитическим регистром. Модель показала, что при прочих равных условиях чистые активы при активном методе превышают их величину при контрпассивном методе на сумму неоплаченных вкладов, то есть данный показатель не отражает фактическую степень оплаты капитала.

Ключевые слова: собственный капитал, неоплаченный капитал, остаточная доля, критерий признания, контрпассивный счёт, чистые активы, акционерное общество, план счетов.

Abstract. The paper examines the contradiction between the normative definition of equity and the way equity is recognised in the national chart of accounts. Paragraph 64 of the Conceptual Framework for the preparation and presentation of financial statements defines equity as a residual interest, whereas National Accounting Standard No. 21 recognises unpaid share capital as an asset in account 4610. Using the author's model and annual financial statements (balance sheets) for 2019–2025 of ten joint-stock companies within Uzkimyosanoat JSC, the study measures the effect of this contradiction on reported net assets and proposes the introduction of a contra-equity account 8340 "Unpaid capital" together with its posting scheme, transition entry and analytical register. The model shows that, all else being equal, net assets under the asset method exceed those under the contra-equity method by the amount of unpaid contributions; hence, the indicator does not reflect the extent to which capital has actually been paid in.

Keywords: equity, unpaid capital, residual interest, recognition criterion, contra-equity account, net assets, joint-stock company, chart of accounts.

Kirish

Xususiy kapital buxgalteriya hisobining eng qadimiy obyektlaridan biri bo‘lsa-da, uning ta’rifi va tan olish mezonlari hisob metodologiyasining hal etilmagan masalalari qatorida qolmoqda. O‘zbekistonda bu masala hozirgi kunda amaliy ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabrdagi “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-282-son qarori [11] asosida milliy moliyaviy hisobot standartlari tizimi shakllantirildi va uning asosiy hujjatlari 2027-yil 1-yanvardan kuchga kiradi. Aksiyadorlik jamiyatlari esa jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar sifatida O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrdagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini O‘zbekiston Respublikasida qo‘llash uchun tan olish to‘g‘risida”gi 61-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3400) bilan tan olingan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha moliyaviy hisobot tayyorlaydi [15].

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2026-yil 6-maydagi 362-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos” (ro‘yxat raqami 3854) hujjatining 64-bandi xususiy kapitalni subyekt aktivlaridan uning barcha majburiyatlari chegirib tashlangandan keyingi qoldiq ulush sifatida ta’riflaydi [12]. Ta’riflar

darajasida milliy tizim xalqaro yondashuvni to‘liq qabul qilgan. Biroq hisobvaraqlar rejasi darajasida qarama-qarshi yechim saqlanib qolgan: O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-noyabrdagi 191-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan 21-son buxgalteriya hisobining milliy standarti “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma” (ro‘yxat raqami 3593) hujjatiga muvofiq ta’sischilarning ustav kapitaliga ulushlari bo‘yicha qarzi 4610 hisobvarag‘ida aktiv (A) turida hisobga olinadi va ustav kapitalining e’lon qilingan hajmi 4610 hisobvarag‘i debeti hamda 8310, 8320, 8330 hisobvaraqlari krediti bo‘yicha aks ettiriladi [14].

Natijada hali haqiqatda kelib tushmagan resurs aktiv sifatida tan olinadi va xususiy kapital to‘lanmagan qismni ham o‘z ichiga olgan e’lon qilingan summada ko‘rsatiladi. Bu esa aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatidagi qonuniy nazorat mexanizmiga – O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-apreldagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi 223-I-son Qonunining 32-moddasida belgilangan zaxira fondi va sof aktivlar bo‘yicha talablarga bevosita ta’sir qiladi [10]. Tadqiqotning maqsadi mazkur qarama-qarshilikni normativ va miqdoriy jihatdan asoslash hamda uni bartaraf etishning hisob yechimini ishlab chiqishdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi uch vazifa belgilandi: rasmiy hujjatlardagi tavsiflarni yagona tan olish mezoniga solishtirish, tan olish usulining hisobot ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘lchash va hisobvaraq, hisobot satri hamda analitik registr ko‘rinishidagi yechimni asoslash.

Mavzuga doir adabiyotlar sharhi

Kontr-kapital hisobvarag‘ining nazariy asosi ikki qator hisobvaraqlar nazariyasiga borib taqaladi. Komkova [5] kapital iqtisodiy kategoriya sifatida tan olinganiga qaramay, uning ko‘p o‘lchovli mohiyatini ifodalovchi ta’rif shakllanmaganini va kapital hisobvarag‘i boshqa barcha hisobvaraqlardan ajratilganda debet va kredit mazmuni teskari ma’no kasb etishini ko‘rsatadi. Getman [4] ustav kapitalini kamaytirish amaliyotini tahlil qilib, ta’rifdagi noaniqlik moliyaviy natijaning noto‘g‘ri aks etishiga olib kelishini asoslaydi.

Milliy tadqiqotlarda masala boshqa jihatlardan o‘rganilgan. Bakiyeva va Rizayev [2] xususiy kapitalni uni shakllantiruvchi hisobvaraqlar va balans satrlari ro‘yxati orqali tavsiflaydi, Ermatov [3] esa maqsadli tushumlar va kelgusi xarajatlar zaxiralari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha majburiyat ekanini asoslab, xususiy kapitalning olti elementli tarkibini taklif qiladi. Sherimbetov [9] ustav kapitalining shakllanishi va o‘zgarishi hisobini, Axmadjonov [1] aksiyadorlik jamiyatlarida xususiy kapital tarkibi va shakllanish manbalarini, Primqulova [7] kapital hisoboti shaffofligini, Nasriyeva va Mavlyanova [6] hamda Qurbonov [8] kapital samaradorligi va optimal tarkibini tadqiq etgan.

Biroq sanab o‘tilgan ishlarning hech birida to‘lanmagan ustav kapitalini xususiy kapitaldan chegirma sifatida tan olish masalasi ko‘rilmagan: barcha tadqiqotlarda kapital tarkibi amaldagi hisobvaraqlar rejasi qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilinadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi ayni shu bo‘shliqni to‘ldirishga – tan olish mezonini hisobvaraqlar rejasiga bog‘lashga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning obyekti aksiyadorlik jamiyatlarida xususiy kapital hisobi, predmeti esa to‘lanmagan ustav kapitalini tan olish va uni hisobotda taqdim etish tartibidir. Tadqiqotda uchta usul birgalikda qo‘llanildi. Birinchisi – normativ qiyosiy tahlil: to‘lanmagan ustav kapitalining tavsifi to‘rtta rasmiy hujjatning beshta qoidasida yagona mezonlar asosida solishtirildi. Ikkinchisi – modellashtirish: bir xil xo‘jalik holati amaldagi va taklif etilayotgan tan olish usullarida hisoblanib, hisobot ko‘rsatkichlaridagi farq o‘lchandi. Uchinchisi – empirik tahlil: “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati tarkibiga kiruvchi yoki kirgan o‘nta aksiyadorlik jamiyati tanlandi; har bir

jamiyatning bir yillik buxgalteriya balansi alohida kuzatuv birligi sifatida olindi. Jami 54 ta yillik moliyaviy hisobot to‘plandi; ulardan xususiy kapital bo‘limining barcha satrlari to‘ldirilganlari tahlilga kiritildi: “O‘zkimyosanoat” AJ – 6, “Navoiyazot” AJ – 6, “Farg‘onaazot” AJ – 6, “Jizzax plastmassa” AJ – 7, “O‘zkimyosanoatloyiha” AJ – 7, “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ – 5, “Elektrokimyozavod” QK AJ – 5, “Maxam-Chirchiq” AJ – 4, “Ammofos-Maxam” AJ – 4, “Samarqandkimyo” AJ – 2 hisobot. Hisobotlar soni jamiyatlar kesimida bir xil emas, chunki ayrim jamiyatlar butun davr mobaynida aksiyadorlik jamiyati shaklida faoliyat ko‘rsatmagan yoki hisobotini portalda e’lon qilmagan; “Samarqandkimyo” AJning 2021 va 2022-yil hisobotlarida xususiy kapital bo‘limining satrlari to‘ldirilmagani uchun ular tahlildan chiqarildi. Barcha ko‘rsatkichlar Korporativ ma’lumotlarning yagona portalida e’lon qilingan hisobotlar asosida hisoblandi [18]; taxminiy qiymatlardan foydalanilmadi.

Tahlil va natijalar

Bir xil iqtisodiy holat rasmiy hujjatlarda uch xil – aktiv, kapitaldan chegirma va nazorat mezoni sifatida tavsiflanadi (1-jadval).

1-jadval

To‘lanmagan ustav kapitalining normativ hujjatlardagi tavsifi[1]

Hujjat va bandi	Tavsifi	Ta’rifga muvofiqligi
“Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos”, 2026-yil 6-may, 362-son buyruq, 64-band	qoldiq ulush (aktivlar – majburiyatlar)	asos hujjat
21-son buxgalteriya hisobining milliy standarti, 2024-yil 14-noyabr, 191-son buyruq, hisobvaraqlar rejasi	4610 hisobvarag‘i, aktiv (A)	muvofiq emas
21-son buxgalteriya hisobining milliy standarti, 8600 guruh	sotib olingan xususiy aksiyalar, kontr-passiv (KP)	muvofiq, lekin faqat o‘z aksiyalari uchun
Kichik va o‘rta biznes uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standarti, 22.7(a)-band	xususiy kapitaldan chegirma	muvofiq
“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun, 1996-yil 26-aprel, 223-I-son, 17-, 31- va 32-moddalar	to‘lov muddati va sof aktivlar testi	hisob yechimini talab qiladi

1-jadvaldan ko‘rinadiki, milliy hisobvaraqlar rejasining o‘zida kontr-kapital hisobvarag‘i amaliyoti allaqachon mavjud: 8600 “Sotib olingan xususiy aksiyalar” guruhi kontr-passiv (KP) turida berilgan va xususiy kapitalni kamaytiradi [14]. Demak, to‘lanmagan kapital uchun kontr-kapital hisobvarag‘ini joriy etish milliy rejaga yot yechim emas, balki unda mavjud yondashuvni izchil davom ettirishdir. Bu yechim xalqaro standartlarga ham mos keladi: kichik va o‘rta biznes uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartining 22.7(a)-bandi to‘lanmagan summani xususiy kapitaldan

[1]Muallif tomonidan [10; 12; 14; 17] manbalar asosida tuzilgan.

chegirma sifatida taqdim etishni talab qiladi [17], 32-son buxgalteriya hisobining xalqaro standarti “Moliyaviy instrumentlar: taqdim etish” esa kapital instrumentini qoldiq ulushni tasdiqlovchi shartnoma deb belgilaydi [16].

Ikki usulning hisob yozuvlaridagi farqi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

To‘lanmagan ustav kapitalini hisobga olishning amaldagi va taklif etilayotgan yozuvlari[2]

Xo‘jalik hodisasi	Amaldagi tartib (21-son buxgalteriya hisobining milliy standarti)	Taklif etilayotgan tartib
Aksiyalar joylashtirildi, to‘lov majburiyati yuzaga keldi	Dt 4610 – Kt 8310, 8320, 8330	Dt 8340 – Kt 8310, 8320, 8330
Aksiyalar haqi pul mablag‘lari bilan to‘landi	Dt 5010–5530 – Kt 4610	Dt 5010–5530 – Kt 8340
Aksiyalar haqi mol-mulk bilan to‘landi	Dt 0110–0190, 1010–2990 – Kt 4610	Dt 0110–0190, 1010–2990 – Kt 8340
Muddati o‘tgan to‘lanmagan qoldiq	aktiv tarkibida saqlanadi	8340 hisobvarag‘i qoldig‘i sifatida kapitaldan chegiriladi
O‘tish davri yozuvi (2027-yil 1-yanvar holatiga)	nazarda tutilmagan	Dt 8340 – Kt 4610

Tan olish usulining tanlanishi hisobot ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Buni e’lon qilingan ustav kapitali 10 000 000 ming so‘m bo‘lib, uning 4 000 000 ming so‘mi to‘langan, 6 000 000 ming so‘mi esa to‘lanmagan shartli misolda ko‘rib chiqamiz (3-jadval).

3-jadval

Tan olish usulining hisobot ko‘rsatkichlariga ta’siri (summalar ming so‘mda)[3]

Ko‘rsatkich	Aktiv usuli (4610)	Kontr-kapital usuli (8340)	Farqi
Jami aktivlar	10 000 000	4 000 000	6 000 000
Xususiy kapital	10 000 000	4 000 000	6 000 000
Sof aktivlar	10 000 000	4 000 000	6 000 000
Jamiyat tasarrufidagi haqiqiy resurslar	4 000 000	4 000 000	farq yo‘q
Zaxira fondining eng kam miqdori (ustav kapitalining 15 foizi)	1 500 000	1 500 000	farq yo‘q
Zaxira fondi eng kam miqdorining hisobotdagi xususiy kapitalga nisbati	15,0 foiz	37,5 foiz	22,5 foiz punkti

3-jadvaldan ko‘rinadiki, aktiv usulida jami aktivlar, xususiy kapital va sof aktivlar to‘lanmagan summa, ya’ni 6 000 000 ming so‘m miqdorida oshirib ko‘rsatiladi, jamiyat tasarrufidagi

[2]Amaldagi yozuvlar [14] manba asosida, taklif etilayotgan yozuvlar muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

[3]Muallif modeli; zaxira fondi me’yori 223-I-son Qonunning 32-moddasi talabi asosida hisoblangan.

haqiqiy resurslar esa ikkala usulda bir xil qoladi. Natijada zaxira fondining qonuniy me’yori haqiqatda shakllangan kapitalga nisbatan ancha yuqori yukni anglatadi, biroq bu holat amaldagi hisobotda ko‘rinmaydi.

223-I-son Qonunning amaldagi tahriridagi 32-moddasiga ko‘ra, jamiyat sof aktivlarining qiymati buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bo‘yicha aktivlar va majburiyatlarning umumiy summalari o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Ikkinchi va undan keyingi har bir moliya yili tugaganidan so‘ng tasdiqlash uchun taqdim etilgan yillik buxgalteriya balansi yoki auditorlik tekshiruvi natijasiga muvofiq sof aktivlar ustav kapitalidan kam bo‘lsa, jamiyat ustav kapitalini sof aktivlari qiymatidan oshmaydigan miqdorgacha kamaytirishi shart [10, 32-modda]. Biroq muallif tomonidan o‘rganilgan normativ hujjatlar doirasida (lex.uz, 2026-yil 23-sentabr holatiga) sof aktivlarni hisoblashda qo‘llaniladigan tuzatishlarni barcha aksiyadorlik jamiyatlari uchun batafsil belgilovchi amaldagi metodik hujjat aniqlanmadi. Demak, hisoblashning qonuniy asosi mavjud, biroq Qonundagi umumiy qoidani batafsillashtiruvchi metodik hujjat tekshirilgan manbalarda topilmadi.

Ushbu masalani biznesning bozor qiymatini baholashdan ajratish zarur. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining 2023-yil 25-oktabrdagi 01/11-14/29-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standarti (ro‘yxat raqami 3487, 2023-yil 28-dekabr) tarkibidagi 9-son Milliy baholash standarti “Biznesni va biznesda ishtirok etish huquqi qiymatini baholash” sof aktivlar usulini nazarda tutadi. Bunda aktivlar va majburiyatlarning bozor qiymatlariga asoslangan baholash amalga oshiriladi. Shu sababli mazkur usulni Qonunning 32-moddasidagi buxgalteriya ma’lumotlariga asoslangan hisob-kitob bilan aynanlashtirish mumkin emas [10, 32-modda; 19].

Milliy amaliyotda to‘lanmagan kapitalni sof aktivlar hisobidan chiqarishning tarixiy tarmoq tajribasi mavjud. Davlat mulki qo‘mitasi tomonidan 1998-yil 15-dekabrda 15-son bilan va Moliya vazirligi tomonidan 1999-yil 20-sentabrda tasdiqlangan “Investitsion fondning sof aktivlarini baholash tartibi to‘g‘risida”gi nizom (ro‘yxat raqami 840, 1999-yil 25-noyabr) 3.1-bandida muassislarning ustav kapitaliga hissalar bo‘yicha qarzdorligi hisobga olinadigan aktivlar tarkibidan chiqarilgan [20, 3.1-band va 1-ilova]. Biroq nizom investitsiya fondlariga taalluqli bo‘lgan va O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2025-yil 29-martdagi 7-mh-son “Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning davlat reyestridan chiqarish to‘g‘risida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3615) asosida 2025-yil 1-iyuldan davlat reyestridan chiqarilgan [21]. Shu sababli u amaldagi majburiy qoida sifatida emas, balki taklif etilayotgan yondashuvni qiyosiy asoslovchi tarixiy manba sifatida keltirilmoqda.

Sof aktivlar ustav kapitalidan kamayganda kapitalni kamaytirish talabi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar uchun ham O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 21-apreldagi O‘RQ-1137-son “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonuni 20-moddasida bevosita belgilangan [22]. Muallif modelida boshqa kapital komponentlari va moliyaviy natijalar mavjud bo‘lmagan sharoitda to‘lanmagan qismni aktiv sifatida hisobga olish sof aktivlarni e’lon qilingan ustav kapitaliga tenglashtiradi. Bu barcha jamiyatlarda sof aktivlar doimo ustav kapitaliga teng bo‘lishini anglatmaydi. Muammoning mohiyati shundaki, boshqa shartlar teng bo‘lganda to‘lanmagan hissalar aktivlar tarkibida saqlansa, sof aktivlar kontr-kapital usuliga nisbatan shu summa miqdorida yuqori chiqadi va kapitalning haqiqatda to‘langanlik darajasini aks ettirmaydi.

Empirik tahlil natijalari nazorat mexanizmining amalda zaif ishlayotganini ko‘rsatadi (4-jadval).

4-jadval

“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati tarkibidagi o‘nta jamiyat bo‘yicha natijalar (2019–2025-yillar)[4]

Ko‘rsatkich	Natija
Ustav kapitalining xususiy kapitaldagi ulushi (410 va 480-satrlar)	0,57 foizdan 135,44 foizgacha
Sotib olingan xususiy aksiyalar satri (440) nolga teng yillik hisobotlar ulushi	100 foiz (barcha hisobotlarda)
Qo‘shilgan kapital satri (420) nolga teng yillik hisobotlar ulushi	88,5 foiz
Maqsadli va kutilayotgan tushumlar (460 va 470-satrlar) noldan farqli yillik hisobotlar ulushi	80,8 foiz
Ushbu satrlarning xususiy kapitaldagi eng yuqori ulushi	71,1 foiz («Samarqandkimyo» AJ, 2019-yil)
Zaxira fondi ustav kapitalining 15 foizidan kam bo‘lgan yillik hisobotlar	5 ta (6,45–8,94 foiz)
Xususiy kapitali ustav kapitalidan kam bo‘lgan yillik hisobotlar (223-I-son Qonunning 32-moddasiga ko‘ra ustav kapitalini kamaytirish talabi yuzaga keladigan holatlar)	5 ta
Qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha daromad hisoblangani to‘g‘risidagi muhim faktlar (2016–2026) va ulardan dividend haqiqatda to‘langani to‘g‘risidagi xabarlar	59 ta / 0 ta

Ustav kapitalining xususiy kapitaldagi ulushi 100 foizdan oshgan (eng yuqori qiymati 135,44 foiz) holatlar ustav kapitalining bir qismi to‘plangan zararlar hisobiga yo‘qotilganini, ya’ni sof aktivlar sharti bajarilmayotganini ko‘rsatadi. Bunday sharoitda to‘lanmagan kapitalning aktiv sifatida saqlanishi buzilish ko‘lamini to‘liq aks ettirmaslikka olib kelishi mumkin. Hisobotlarning 80,8 foizida maqsadli va kutilayotgan tushumlar mavjud bo‘lishi va ularning kapitalning 71,1 foizigacha yetishi Ermatovning [3] bu moddalarni majburiyat deb tasniflash haqidagi xulosasiga miqdoriy asos beradi, holbuki an’anaviy milliy yondashuvda [2] ular kapital tarkibida qaraladi. Ikkala muammoning manbai umumiy: moddalar xususiy kapital ta’rifi bilan solishtirilmasdan kapital tarkibiga kiritiladi.

4-jadvalning oxirgi qatori ham e’tiborga molik: 2016–2026-yillarda e’lon qilingan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha daromad hisoblangani to‘g‘risidagi 59 ta muhim faktning birortasi bo‘yicha dividend haqiqatda to‘langani haqidagi xabar aniqlanmadi. 223-I-son Qonunning 54-moddasiga ko‘ra jamiyat ta’sis chog‘idagi ustav fondi to‘liq to‘lanmaguncha, shuningdek sof aktivlar qiymati ustav fondi va zaxira fondi summasidan kam bo‘lganda dividend to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli emas [10, 54-modda]. Demak, to‘lanmagan kapital va sof aktivlarning to‘g‘ri aks ettirilishi dividend siyosati uchun ham bevosita ahamiyatga ega.

Taklif etilayotgan hisobvaraqning amalda ishlashi uchun analitik registr shakli ham zarur (5-jadval).

[4]Muallif tomonidan [18] manba ma’lumotlari asosida hisoblangan.

5-jadval

8340 “To‘lanmagan kapital” hisobvarag‘i bo‘yicha analitik registrning taklif etilayotgan rekvizitlari[5]

Rekvizit	Mazmuni va nazorat vazifasi
Emissiya raqami va ro‘yxatga olingan sanasi	majburiyatning yuzaga kelish asosi
Aksiya turi va sinfi	oddiy yoki imtiyozli aksiyalar bo‘yicha ajratish
Joylashtirilgan aksiyalar soni va nominal qiymati	e’lon qilingan kapital summasi
Haqi to‘langan aksiyalar soni va summasi	kapitalning haqiqatda shakllangan qismi
Qonunchilik va emissiya qarorida belgilangan to‘lov muddati	223-I-son Qonunning 17- va 31-moddalari talablari bajarilishini nazorat qilish
Muddati o‘tgan qoldiq va uning muddati	kapitaldan chegirma summasi va yuzaga kelgan tavakkalchilik

Olingan natijalar nazariy jihatdan ikki qator hisobvaraqlar nazariyasiga mos keladi: kapital hisobvarag‘i boshqa hisobvaraqlardan ajratilganda [5] to‘lanmagan qism mustaqil aktivga aylanmaydi, balki kapitalning o‘z ichidagi chegirma sifatida qoladi. Getmanning ustav kapitalini kamaytirish bo‘yicha xulosasi [4] ham shu yo‘nalishda: ta’rif bilan hisob tartibi o‘rtasidagi uzilish moliyaviy natija va kapital ko‘rsatkichlarining buzilishiga olib keladi. Tadqiqotning cheklovi – empirik baza bitta tarmoq xoldingi va ochiq hisobot satrlari bilan chegaralangan: emissiya qarorlari hamda aksiyadorlar reyestri darajasidagi ma’lumotlar tahlilga kiritilmagan. Keyingi tadqiqotlarda taklif etilgan hisobvaraqni boshqa tarmoqlardagi aksiyadorlik jamiyatlari ma’lumotlarida sinovdan o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, 2024-yil 14-noyabrdagi 191-son buyruq bilan tasdiqlangan 21-son buxgalteriya hisobining milliy standarti hisobvaraqlar rejasining 8300 guruhiga 8340 “To‘lanmagan kapital” kontr-passiv (KP) hisobvarag‘ini kiritish maqsadga muvofiq. Amaldagi rejada 8300 guruhida faqat 8310, 8320 va 8330 hisobvaraqlari mavjud, shuning uchun 8340 raqami bo‘sh va guruh mantiqiga mos keladi [14]. Hisobvaraq aksiyalar joylashtirilganda debetlanadi, haqi to‘langanda kreditlanadi.

Ikkinchidan, o‘tish davri uchun alohida yozuv belgilanishi zarur: 2027-yil 1-yanvar holatiga 4610 hisobvarag‘idagi qoldiqlar Dt 8340 – Kt 4610 yozuvi bilan xususiy kapitaldan chegirmaga o‘tkaziladi. Bu yozuv aktivlarning oshirib ko‘rsatilishini bir martalik bartaraf etadi va o‘tish sanasidagi qoldiqlar izchilligini saqlaydi.

Uchinchidan, moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda ustav kapitali satridan keyin “To‘lanmagan kapital (chegiriladi)” satrini kiritish taklif etiladi. Bu yondashuv ustav kapitalining ro‘yxatga olingan huquqiy miqdorini o‘zgartirmasdan, uning to‘lanmagan qismini alohida ko‘rsatadi. Qonunning 32-moddasidagi hisoblash qoidasi [10] bilan bog‘liq holda, muallif taklifi sof aktivlarni

[5]Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

aniqlashda to‘lanmagan hissalarning ta’sirini ochiq aks ettirishga qaratilgan. Bu amaldagi umumiy majburiy tartib emas, hisob va hisobotni takomillashtirish bo‘yicha taklifdir.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2026-yil 23-iyuldagi 392-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan 1-son Milliy moliyaviy hisobot standarti “Moliyaviy hisobotda ma’lumotlarni taqdim etish va oshkor qilish” (ro‘yxat raqami 3923) hujjatining xususiy kapitaldagi o‘zgarishlar hisoboti bo‘yicha talablariga muvofiq har bir kapital komponenti harakati ochib berilishi shart [13], shuning uchun 5-jadvalda taklif etilgan analitik registr izohlar tarkibida oshkor etiladigan ma’lumot manbai sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, hisobvaraqlar rejasi “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos” hujjatining 64-bandidagi ta’rif bilan 2027-yil 1-yanvarga qadar muvofiqlashtirilishi lozim [11; 12]. Aks holda ta’riflar darajasida erishilgan izchillik hisobvaraqlar darajasida yo‘qoladi va hisobot ma’lumotlarining ishonchliligi pasayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Axmadjonov F.A. Aksiyadorlik jamiyatlarida xususiy kapitalning tarkibi va shakllanish manbalari // Лучшие интеллектуальные исследования. – 2026. – 70(7). – https://journalss.org/index.php/luch/article/view/33424

2. Bakiyeva X.A., Rizayev N.Q. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – T.: Iqtisod-Moliya, 2007. – 124 b. – http://ilmiy.bmti.uz/blib/files/81/Buxgalteriya%20hisobi%20nazariyasi%20(2).pdf

3. Ermatov A.A. Xususiy kapital tarkibiy elementlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida shakllantirish masalalari // Raqamli iqtisodiyot. – 2024. – № 7. – B. 532–539. – https://old-infocom.uz/wp-content/uploads/2024/07/Raqamli-iqtisodiyot-7-son-533-540.pdf

4. Гетман В.Г. Совершенствование учёта уставного капитала // Всё для бухгалтера. – 2016. – № 4. – С. 39–43.

5. Комкова Ж.Л. Бухгалтерский учёт собственного капитала: диалектика развития: дис. … канд. экон. наук. – Краснодар: Кубанский государственный университет, 2010.

6. Nasriyeva Z.A., Mavlyanova D.M. Strategik boshqaruvda xususiy kapital samaradorligini baholash // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024. – № 3. – B. 89–99. – https://media.neliti.com/media/publications/663400-strategik-boshqaruvda-xususiy-kapital-sa-1dddcbf5.pdf

7. Primqulova Z.F. Xususiy kapital hisobi va hisobotini takomillashtirish. – Zenodo, 2025. – https://zenodo.org/records/21769335

8. Qurbonov X. Xususiy kapitalning optimal tarkibining aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy barqarorligiga ta’siri // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2025. – 3(12). – https://zenodo.org/records/18150639

9. Sherimbetov I. Ustav kapital hisobini takomillashtirish // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2025. – 3(12). – https://doi.org/10.5281/zenodo.17952342

10. O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, 1996-yil 26-aprel, 223-I-son (2014-yil 6-maydagi O‘RQ-370-son Qonun bilan tasdiqlangan yangi tahriri, keyingi o‘zgartishlar bilan). – https://lex.uz/docs/-2382409 (murojaat sanasi: 2026-yil 23-sentabr).

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2025-yil 15-sentabr, PQ-282-son. – https://lex.uz/uz/docs/-7728924

12. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos”, 2026-yil 6-may, 362-son buyruq (ro‘yxat raqami 3854). – https://lex.uz/uz/docs/8261487

13. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining buyrug‘i bilan tasdiqlangan 1-son Milliy moliyaviy hisobot standarti “Moliyaviy hisobotda ma’lumotlarni taqdim etish va oshkor qilish”, 2026-yil 23-iyul, 392-son buyruq (ro‘yxat raqami 3923). – https://lex.uz/uz/docs/8405084

14. O‘zbekiston Respublikasining 21-son buxgalteriya hisobining milliy standarti “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma”, iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-noyabrdagi 191-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3593). – https://lex.uz/docs/-7282737

15. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini O‘zbekiston Respublikasida qo‘llash uchun tan olish to‘g‘risida”gi buyrug‘i, 2022-yil 10-noyabr, 61-son (ro‘yxat raqami 3400). – https://buxgalter.uz/oz/doc?id=708834

16. International Accounting Standard 32 “Financial Instruments: Presentation”. – IFRS Foundation, 2026. – https://www.ifrs.org/content/dam/ifrs/publications/html-standards/english/2026/issued/ias32.html

17. Module 22 – Liabilities and Equity: IFRS for SMEs Accounting Standard. – IFRS Foundation, 2021. – https://www.ifrs.org/content/dam/ifrs/supporting-implementation/smes/module-22.pdf

18. Korporativ ma’lumotlarning yagona portali. Aksiyadorlik jamiyatlarining yillik moliyaviy hisobotlari. – https://openinfo.uz

19. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining “O‘zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i, 2023-yil 25-oktabr, 01/11-14/29-son (ro‘yxat raqami 3487, 2023-yil 28-dekabr). 9-son Milliy baholash standarti “Biznesni va biznesda ishtirok etish huquqi qiymatini baholash”. – https://lex.uz/uz/docs/6720235 (murojaat sanasi: 2026-yil 23-sentabr).

20. “Investitsion fondning sof aktivlarini baholash tartibi to‘g‘risida”gi nizom (Davlat mulki qo‘mitasi, 1998-yil 15-dekabr, 15-son; Moliya vazirligi, 1999-yil 20-sentabr; ro‘yxat raqami 840, 1999-yil 25-noyabr). 3.1-band va 1-ilova. 2025-yil 1-iyuldan davlat reyestridan chiqarilgan. – https://lex.uz/uz/docs/476428 (rus tilidagi matn; murojaat sanasi: 2026-yil 23-sentabr).

21. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining “Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning davlat reyestridan chiqarish to‘g‘risida”gi buyrug‘i, 2025-yil 29-mart, 7-mh-son (ro‘yxat raqami 3615). 2-band va ilova. – https://lex.uz/uz/docs/7451692 (murojaat sanasi: 2026-yil 23-sentabr).

22. O‘zbekiston Respublikasining “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonuni, 2026-yil 21-aprel, O‘RQ-1137-son. 20-modda. – https://lex.uz/en/docs/8151376 (murojaat sanasi: 2026-yil 23-sentabr).

Jumaniyazov Iskandar Bohodirovich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Moliyaviy tahlil kafedrasi dotsenti v.v.b., PhD

TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Джуманиязов Искандар Боходирович,
и. о. доцента кафедры финансового анализа Ташкентского государственного экономического университета, PhD

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ УЧЕТА ЗАТРАТ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ И ПОВЫШЕНИЮ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ

Iskandar B. Jumaniyazov, Acting Associate Professor, Department of Financial Analysis, Tashkent State University of Economics, PhD

MODERN APPROACHES TO IMPROVING COST ACCOUNTING IN TEXTILE INDUSTRY ENTERPRISES AND INCREASING MANAGEMENT EFFICIENCY

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati korxonalarida xarajatlar hisobini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari hamda mavjud muammolari tahlil qilingan. Xususan, xomashyo xarajatlarini hisobga olish, bilvosita xarajatlarni taqsimlash, energiya resurslari xarajatlarini nazorat qilish, tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash va boshqaruv hisobini rivojlantirish bilan bog‘liq dolzarb masalalar yoritilgan. Tadqiqotda Process Costing, Standard Costing va Activity-Based Costing (ABC) usullarining afzalliklari asoslab berilgan hamda ERP, Business Intelligence (BI), RFID va IoT kabi raqamli texnologiyalarni xarajatlar hisobiga integratsiyalash zarurati ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, to‘qimachilik korxonalarida xarajatlar hisobini takomillashtirishning konseptual modeli va amaliy mexanizmi ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari mahsulot tannarxini aniq hisoblash, resurslardan samarali foydalanish, boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish va korxonalarning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik sanoati, xarajatlar hisobi, mahsulot tannarxi, Process Costing, Standard Costing, Activity-Based Costing (ABC), boshqaruv hisobi, ERP tizimlari, Business Intelligence, RFID, energiya xarajatlari, tugallanmagan ishlab chiqarish, xarajat markazlari, raqamli transformatsiya, raqobatbardoshlik.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты организации учета затрат на предприятиях текстильной промышленности Узбекистана, а также существующие проблемы. В частности, рассматриваются актуальные вопросы, связанные с учетом затрат на сырье, распределением косвенных затрат, контролем затрат на энергоресурсы, оценкой незавершенного производства и развитием управленческого учета. В исследовании обосновываются преимущества методов калькуляции себестоимости по

процессам, стандартной калькуляции себестоимости и калькуляции себестоимости по видам деятельности (ABC), а также указывается необходимость интеграции цифровых технологий, таких как ERP, бизнес-аналитика (BI), RFID и IoT, в учет затрат. Также разработана концептуальная модель и практический механизм совершенствования учета затрат на текстильных предприятиях. Результаты исследования служат для точного расчета себестоимости продукции, эффективного использования ресурсов, повышения качества управленческих решений и укрепления конкурентоспособности предприятий.

Ключевые слова: текстильная промышленность, учет затрат, калькуляция себестоимости продукции, калькуляция себестоимости по процессам, стандартная калькуляция себестоимости, калькуляция себестоимости по видам деятельности (ABC), управленческий учет, системы ERP, бизнес-аналитика, RFID, затраты на энергию, незавершенное производство, центры затрат, цифровая трансформация, конкурентоспособность.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of cost accounting in textile enterprises in Uzbekistan, as well as existing challenges. Specifically, it addresses current issues related to raw material costing, indirect cost allocation, energy cost control, work-in-progress valuation, and the development of management accounting. The study substantiates the advantages of process-based costing, standard costing, and activity-based costing (ABC) methods, and highlights the need to integrate digital technologies such as ERP, business intelligence (BI), RFID, and IoT into cost accounting. A conceptual model and practical mechanism for improving cost accounting in textile enterprises are also developed. The research results serve to accurately calculate product costs, efficiently utilize resources, improve the quality of management decisions, and strengthen enterprise competitiveness.

Keywords: textile industry, cost accounting, product costing, process costing, standard costing, activity-based costing (ABC), management accounting, ERP systems, business intelligence, RFID, energy costs, work in progress, cost centers, digital transformation, competitiveness.

KIRISH.

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotida to‘qimachilik sanoati strategik tarmoqlardan biri hisoblanib, eksport salohiyatini oshirish, qo‘shimcha qiymat yaratish va yangi ish o‘rinlarini tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. “So‘nggi yillarda tarmoqni modernizatsiya qilish, paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirish hamda tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq mazkur islohotlarga qaramasdan, korxonalarda xarajatlar hisobini tashkil etishda qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Ushbu muammolar mahsulot tannarxini aniqlash aniqligi, boshqaruv qarorlarining sifati va korxonalarning moliyaviy natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda” [1].

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, “xarajatlar hisobining samaradorligi, avvalo, korxonada shakllangan axborot tizimi, buxgalteriya hisobi metodologiyasi hamda boshqaruv hisobi elementlarining rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. To‘qimachilik korxonalarida ishlab chiqarishning ko‘p bosqichli texnologiyasi, yarim tayyor mahsulotlar harakatining murakkabligi va resurs sarfining yuqori ulushi xarajatlar hisobini tashkil etishni yanada murakkablashtiradi” [2].

To‘qimachilik sanoatida ishlab chiqarish tannarxining asosiy qismini paxta tolasi, ip-kalava, bo‘yoq moddalar va yordamchi materiallar tashkil etadi. Ayrim korxonalarda xomashyo harakati ustidan nazoratning yetarli darajada avtomatlashtirilmagani moddiy resurslar hisobida tafovutlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Ayniqsa, ishlab chiqarish jarayonida tabiiy yo‘qotishlar, texnologik chiqindilar va qayta ishlanadigan qoldiqlarni hisobga olish metodikasining yetarlicha takomillashmaganligi mahsulot tannarxining sun’iy ravishda oshishiga yoki kamayishiga olib kelishi mumkin.

“Masalan, ip yigirish sexida hosil bo‘ladigan tolali chiqindilar ayrim korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiruvchi omil sifatida hisobga olinsa, boshqa korxonalarda ular umuman alohida hisobga olinmaydi. Natijada tannarx ko‘rsatkichlari bir xil texnologiyaga ega korxonalar o‘rtasida sezilarli farq qiladi. Shu sababli xomashyo harakatini raqamlashtirish, RFID texnologiyalari va avtomatlashtirilgan ombor tizimlarini joriy etish xarajatlar hisobining ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi” [3].

MAVZUGA OID ADBIYOTLAR SHARHI.

To‘qimachilik sanoati korxonalarida xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini shakllantirish masalalari xorijiy iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. C.T. Horngren, S.M. Datar va M.V. Rajan xarajatlarni hisobga olish va boshqarishning nazariy asoslarini tadqiq etib, ishlab chiqarish xarajatlarini to‘g‘ri tasniflash va mahsulot tannarxini aniqlash boshqaruv qarorlarining axborot bazasini shakllantirishini ta’kidlaydi [1]. C. Drury esa boshqaruv va xarajatlar hisobida kalkulyatsiya usullarini tanlash, xarajatlarni nazorat qilish hamda ishlab chiqarish samaradorligini baholash masalalariga alohida e’tibor qaratadi [2].

R.S. Kaplan va R. Cooper tomonidan ishlab chiqilgan Activity-Based Costing (ABC) konsepsiyasi bilvosita xarajatlarni ularni yuzaga keltiruvchi faoliyatlar va xarajat drayverlari asosida taqsimlash imkonini beradi. Mazkur yondashuv mahsulot tannarxini aniqroq shakllantirish va mahsulotlar rentabelligini baholash uchun muhim metodik asos hisoblanadi [3]. B.H. Maskell, B.L. Baggaley va L. Grasso esa Lean Accounting konsepsiyasi orqali ishlab chiqarishdagi ortiqcha xarajatlarni kamaytirish, qiymat yaratmaydigan jarayonlarni aniqlash va boshqaruv axborotining amaliy ahamiyatini oshirish masalalarini yoritgan [4].

D.R. Hansen, M.M. Mowen va D.L. Heitger tadqiqotlarida xarajatlarni boshqarish, me’yoriy xarajatlar, faoliyatga asoslangan kalkulyatsiya hamda xarajatlar haqidagi axborotdan boshqaruv qarorlarida foydalanish masalalari tizimli ravishda asoslangan [5]. Shuningdek, IAS 2 “Inventories” standarti zaxiralar tannarxini shakllantirish, ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash va tugallanmagan ishlab chiqarishni baholashning xalqaro moliyaviy hisobotdagi asosiy talablarini belgilaydi [6].

Umuman, o‘rganilgan manbalar xarajatlarni jarayonlar, faoliyatlar va xarajat markazlari kesimida hisobga olish, zamonaviy kalkulyatsiya usullaridan foydalanish hamda raqamli axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan boshqaruv hisobini shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mazkur yondashuvlarni O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining texnologik xususiyatlari, energiya sarfi, xomashyo tarkibi va ko‘p bosqichli ishlab chiqarish jarayonlariga moslashtirish masalalari qo‘shimcha ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Mazkur holat tadqiqotning ilmiy-amaliy yo‘nalishini belgilaydi.

TADQIQOT METODLARI VA MATERIALLAR.

Tadqiqot davomida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Jumladan: ilmiy abstraksiyalash; qiyosiy tahlil; tizimli yondashuv; iqtisodiy-mantiqiy tahlil; induksiya va deduksiya usullari; ilmiy adabiyotlarni o‘rganish va umumlashtirish metodlari qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini xarajatlar hisobi va boshqaruv hisobi bo‘yicha xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Shuningdek, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS, IFRS), boshqaruv hisobi nazariyalari va O‘zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi sohasidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlari o‘rganildi.

Tahlil va natijalar. To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini shakllantirishdagi eng muhim muammolardan biri umumishlab chiqarish xarajatlarini asosli taqsimlash hisoblanadi.

“Amaliyotda ko‘plab korxonalar quyidagi taqsimlash bazalaridan foydalanadi: ishchilarning asosiy ish haqi; mashina-soatlar; ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi; to‘g‘ridan-to‘g‘ri material xarajatlari.

Biroq zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida avtomatlashtirish darajasining ortishi natijasida bilvosita xarajatlar ulushi tobora oshib bormoqda. Shu sababli an’anaviy taqsimlash usullari mahsulotlarning haqiqiy tannarxini to‘liq aks ettirmaydi” [4].

Masalan, ikki xil gazlama ishlab chiqarishda uskunalarni sozlash uchun sarflangan vaqt keskin farq qilishi mumkin. Ammo umumishlab chiqarish xarajatlari faqat ish haqi asosida taqsimlansa, mahsulot tannarxi noto‘g‘ri shakllanadi.

Mazkur muammoni bartaraf etishda Activity-Based Costing (ABC) tizimini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Energiya resurslari xarajatlarini hisobga olish muammolari. To‘qimachilik sanoati elektr energiyasi va tabiiy gazni ko‘p iste’mol qiluvchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa: ip yigirish; bo‘yash; bug‘ bilan ishlov berish; quritish jarayonlarida energiya xarajatlari mahsulot tannarxining muhim qismini tashkil etadi.

Ko‘plab korxonalarda energiya xarajatlari sexlar kesimida emas, balki umumiy ishlab chiqarish xarajati sifatida hisobga olinadi. Natijada qaysi texnologik bosqich eng ko‘p energiya iste’mol qilayotganini aniqlash qiyinlashadi.

“Energiya monitoringi tizimlarini joriy etish orqali har bir sex, uskuna yoki texnologik liniya bo‘yicha real vaqt rejimida energiya sarfini hisobga olish mumkin. Bu esa energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish uchun muhim axborot bazasini yaratadi” [4].

Tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash muammolari. To‘qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish uzluksiz davom etishi sababli hisobot davri oxirida katta hajmdagi tugallanmagan ishlab chiqarish mavjud bo‘ladi.

“Amaliyotda quyidagi kamchiliklar uchraydi: tayyorlik darajasini noto‘g‘ri baholash; yarim tayyor mahsulotlarni hisobdan chiqarishdagi xatolar; texnologik bosqichlar bo‘yicha xarajatlarni noto‘g‘ri taqsimlash. Natijada hisobot davridagi ishlab chiqarish tannarxi sun’iy ravishda oshishi yoki kamayishi mumkin. Shu bois xalqaro amaliyotda qo‘llaniladigan “ekvivalent birliklar usuli (Equivalent Units of Production)”ni kengroq joriy etish maqsadga muvofiqdir” [4].

Boshqaruv hisobining yetarli darajada rivojlanmaganligi. Ko‘pgina korxonalarda xarajatlar hisobi asosan moliyaviy hisobot tuzishga yo‘naltirilgan. Biroq “zamonaviy boshqaruv sharoitida rahbariyat quyidagi ma’lumotlarga ehtiyoj sezadi: mahsulot rentabelligi; buyurtmalar foydaliligi; xarajat markazlari faoliyati; javobgarlik markazlari natijalari; marjinal daromad. Mazkur ma’lumotlar esa faqat boshqaruv hisobi rivojlangan korxonalarda shakllantiriladi. Shu sababli moliyaviy hisob bilan bir qatorda boshqaruv hisobi tizimini ham rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir” [5].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarda xarajatlar hisobi avtomatlashtirilgan axborot tizimlari asosida yuritilishi lozim.

Ammo ayrim korxonalarda: ma’lumotlar qo‘lda kiritiladi; ishlab chiqarish hisobi bilan buxgalteriya hisobi integratsiyalashmagan; ombor hisobi alohida yuritiladi; real vaqt rejimida tahliliy hisobotlar shakllantirilmaydi.

Natijada boshqaruv qarorlari kechikadi hamda inson omili bilan bog‘liq xatolar ortadi.

ERP tizimlari (masalan, SAP S/4HANA, Oracle ERP Cloud, Microsoft Dynamics 365 yoki 1C: ERP) ni joriy etish ushbu muammolarni sezilarli darajada kamaytiradi.


Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Xarajatlarni hisobga olishda Activity-Based Costing (ABC) usulini bosqichma-bosqich joriy etish.
2. ERP tizimlarini ishlab chiqarish va buxgalteriya hisobi bilan to‘liq integratsiyalash.
3. Xomashyo harakatini RFID va shtrix-kod texnologiyalari asosida nazorat qilish.
4. Energiya resurslarini alohida xarajat markazlari kesimida hisobga olish.
5. Tugallanmagan ishlab chiqarishni ekvivalent birliklar usuli asosida baholash.
6. Xarajat markazlari va javobgarlik markazlari bo‘yicha boshqaruv hisobotlarini shakllantirish.
7. Sun’iy intellekt va biznes tahlili (Business Intelligence) vositalaridan foydalangan holda xarajatlarni prognozlash va tahlil qilish. Mazkur takliflarning amalga oshirilishi mahsulot tannarxining ishonchli hisoblanishini ta’minlaydi, resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi hamda korxonalarning raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

1-rasmda to‘qimachilik sanoati korxonalarida xarajatlar hisobini takomillashtirishning konseptual modeli taklif etilgan.

Yuqoridagi konseptual model shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik sanoati korxonalarida xarajatlar hisobini takomillashtirish *uchta asosiy yo‘nalish* uyg‘unligiga tayanadi:

1. *Metodologik takomillashtirish* – Process Costing, Standard Costing va ABC Costing usullarini kompleks qo‘llash.
2. *Raqamli transformatsiya* - ERP, Business Intelligence (BI), RFID va IoT texnologiyalarini joriy etish orqali xarajatlar hisobining tezkorligi va aniqligini oshirish.
3. *Boshqaruv hisobini rivojlantirish* - xarajat markazlari, javobgarlik markazlari va rentabellik tahlili asosida boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash.
4. Taklif etilgan konseptual model to‘qimachilik sanoati korxonalarida xarajatlar hisobini zamonaviy boshqaruv talablari asosida tashkil etishning yaxlit tizimini ifodalaydi. Modelning birinchi elementi ***tashqi muhit omillari*** bo‘lib, ular korxona xarajatlar hisobini tashkil etishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bozor talabi, raqobat muhiti, narxlarning o‘zgarishi, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) talablari hamda davlatning sanoat siyosati xarajatlar hisobi metodologiyasini tanlash va takomillashtirish zaruratini belgilaydi.
5. Modelning markaziy qismi ***to‘qimachilik korxonasida xarajatlar hisobi*** hisoblanadi. Mazkur bosqichda ishlab chiqarish xarajatlari iqtisodiy mazmuniga ko‘ra xomashyo, mehnat, umumishlab chiqarish va energiya xarajatlari kabi asosiy elementlar bo‘yicha hisobga olinadi. Bunday tasnif xarajatlarning tarkibini aniqlash, ularni nazorat qilish hamda mahsulot tannarxini ishonchli hisoblash imkonini beradi.



1-rasm. To‘qimachilik sanoati korxonalarida xarajatlar hisobini takomillashtirishning konseptual modeli

Keyingi bosqich ***xarajatlar markazlari bo‘yicha hisobni tashkil etish***dan iborat. Ushbu yondashuvda xarajatlar alohida sexlar, texnologik jarayonlar yoki javobgarlik markazlari kesimida guruhlanadi. Natijada har bir tarkibiy bo‘linmaning xarajatlari va resurslardan foydalanish samaradorligini baholash imkoniyati yaratiladi.

Modelda xarajatlarni hisobga olish va taqsimlashning uchta zamonaviy usuli o‘zaro integratsiyalashgan holda qo‘llaniladi. ***Process Costing*** uzluksiz va ommaviy ishlab chiqarish sharoitida mahsulot tannarxini texnologik bosqichlar bo‘yicha aniqlash imkonini beradi. ***Standard Costing*** tizimi me’yoriy xarajatlarni belgilash hamda amaldagi xarajatlarning me’yorlardan og‘ishini aniqlash orqali xarajatlar ustidan nazoratni kuchaytiradi. ***ABC Costing*** usuli esa bilvosita xarajatlarni ularni yuzaga keltiruvchi faoliyat turlari va xarajat drayverlari asosida taqsimlab, mahsulot tannarxini

yanada aniq hisoblashni ta’minlaydi. Ushbu uch usulning kompleks qo‘llanilishi xarajatlar hisobining aniqligi va boshqaruv ahamiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Konseptual modelning muhim tarkibiy qismi ***ERP va raqamli boshqaruv tizimlari*** hisoblanadi. SAP, Oracle, 1C: ERP va Microsoft Dynamics kabi korporativ axborot tizimlari ishlab chiqarish, ombor, moliya va buxgalteriya ma’lumotlarini yagona axborot bazasida integratsiyalash imkonini beradi. Natijada xarajatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar real vaqt rejimida shakllantiriladi, hisob-kitoblarning aniqligi ortadi hamda inson omili ta’siri kamayadi.

Raqamlashtirilgan axborot bazasi asosida ***boshqaruv hisobotlari va tahlil*** shakllantiriladi. Mazkur bosqichda mahsulot tannarxi, xarajat markazlari faoliyati va rentabellik ko‘rsatkichlari kompleks tahlil qilinadi. Ushbu tahliliy ma’lumotlar korxona rahbariyatiga ishlab chiqarish samaradorligini baholash, resurslardan foydalanish darajasini aniqlash hamda iqtisodiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Modelning yakuniy bosqichi ***boshqaruv qarorlarini qabul qilish***dan iborat bo‘lib, unda tahlil natijalari asosida xarajatlarni optimallashtirish, mahsulot tannarxini pasaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksport bozorlari uchun raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va korxona foydasini ko‘paytirish bo‘yicha strategik hamda operativ qarorlar ishlab chiqiladi.


Shunday qilib, taklif etilgan konseptual modelning barcha tarkibiy elementlari uzviy bog‘langan yagona boshqaruv tizimini tashkil etadi. Tashqi muhit omillari xarajatlar hisobining metodologik asoslarini belgilaydi, xarajatlar hisobi va zamonaviy kalkulyatsiya usullari ishonchli axborot bazasini yaratadi, ERP tizimlari ushbu jarayonni raqamlashtiradi, boshqaruv tahlili esa olingan ma’lumotlarni strategik qarorlarga aylantiradi. Natijada korxonada xarajatlarni samarali boshqarish, tannarxni optimallashtirish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmi shakllanadi.

MUHOKAMA.

To‘qimachilik korxonalarida xarajatlar hisobini takomillashtirish mexanizmini quyidagicha aks ettirish mumkin (2-rasm).

2-rasmda to‘qimachilik korxonalarida xarajatlar hisobini takomillashtirish mexanizmi bosqichma-bosqich amalga oshirilishi tavsiya etilgan. Mazkur mexanizm xarajatlarni to‘g‘ri hisobga olish, ularni zamonaviy usullar asosida tahlil qilish, ERP va boshqa raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash orqali mahsulot tannarxini pasaytirish va korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlar ustidan nazoratni kuchaytirish va korxonaning raqobatbardoshligini ta’minlash imkoniyati yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, to‘qimachilik sanoati korxonalarida xarajatlar hisobini tashkil etishdagi muammolar, asosan, xomashyo hisobining yetarlicha avtomatlashtirilmaganligi, bilvosita xarajatlarni taqsimlash usullarining eskirganligi, energiya xarajatlarini tahlil qilish imkoniyatlarining cheklanganligi hamda boshqaruv hisobining to‘liq shakllanmaganligi bilan bog‘liq. Ushbu muammolarni zamonaviy boshqaruv hisobi usullari, xalqaro tajriba va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali bartaraf etish mumkin. Natijada mahsulot tannarxi yanada aniq hisoblanadi, boshqaruv qarorlarining sifati yaxshilanadi va korxonaning moliyaviy natijalari barqarorlashadi.



2-rasm. To‘qimachilik korxonalarida xarajatlar hisobini takomillashtirish mexanizmi

Xarajatlar hisobini takomillashtirishning xalqaro tendensiyalari. Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligi nafaqat mahsulot sifati va narxiga, balki xarajatlarni samarali boshqarish darajasiga ham bevosita bog‘liq. Shu sababli rivojlangan davlatlarda xarajatlar hisobini tashkil etish an’anaviy buxgalteriya hisobi doirasidan chiqib, korxonaning strategik boshqaruv tizimining muhim elementi sifatida qaralmoqda. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, “tannarxni pasaytirishning asosiy omili xarajatlarni kamaytirish emas, balki ularni ilmiy asosda boshqarish va resurslardan oqilona foydalanishdir” [1].

“AQSh, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi sanoati rivojlangan davlatlarda xarajatlar hisobi zamonaviy boshqaruv konsepsiyalari bilan integratsiyalashgan. Ushbu mamlakatlarda korxonalar Activity-Based Costing (ABC), Target Costing, Kaizen Costing, Life Cycle Costing hamda Lean Accounting kabi usullardan keng foydalanmoqda. Mazkur yondashuvlar nafaqat mahsulot tannarxini aniqlash, balki xarajatlarning yuzaga kelish sabablarini aniqlash va ularni optimallashtirishga xizmat qiladi” [2].

To‘qimachilik sanoatida ishlab chiqarish jarayonlarining murakkabligi va ko‘p bosqichliligi hisobga olinsa, xalqaro tajriba asosida xarajatlar hisobini takomillashtirish O‘zbekiston korxonalari uchun ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

MHXS (IFRS) talablari asosida xarajatlar hisobini tashkil etish. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari korxonalarda moliyaviy axborotning shaffofligi, taqqoslanuvchanligi va ishonchliligini ta’minlashga qaratilgan. Ayniqsa, *2-son “Zaxiralar” BHMS* ishlab chiqarish xarajatlarini mahsulot tannarxiga kiritishning asosiy qoidalarini belgilaydi.

Mazkur standartga muvofiq mahsulot tannarxiga quyidagilar kiritiladi: “xomashyo va materiallar xarajatlari; ishlab chiqarish ishchilarining mehnatiga haq to‘lash xarajatlari; o‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlari; ishlab chiqarish quvvatining normal darajasidan kelib chiqib taqsimlangan doimiy ustama xarajatlar. Bunda ma’muriy xarajatlar, sotish xarajatlari hamda ishlab

chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa xarajatlar mahsulot tannarxiga kiritilmaydi, balki ular yuzaga kelgan davr xarajatlari sifatida e’tirof etiladi” [6].

To‘qimachilik korxonalarida ushbu yondashuvni qo‘llash mahsulot tannarxini xalqaro talablarga muvofiq shakllantirish va investorlar uchun ishonchli moliyaviy axborotni taqdim etishga xizmat qiladi.

Activity-Based Costing usulining amaliy ahamiyati. Zamonaviy ishlab chiqarishda bilvosita xarajatlarning ulushi yil sayin ortib bormoqda. Natijada an’anaviy taqsimlash usullari ayrim mahsulotlar tannarxini noto‘g‘ri hisoblashga olib kelishi mumkin. Shu sababli ko‘plab xorijiy korxonalar Activity-Based Costing (ABC) usulini amaliyotga joriy etmoqda.

ABC usulining asosiy tamoyili xarajatlarni ularni yuzaga keltiruvchi faoliyat turlari orqali mahsulotlarga taqsimlashdan iborat.

To‘qimachilik korxonasida quyidagi faoliyatlar xarajat markazlari sifatida ajratilishi mumkin: xomashyoni qabul qilish; laboratoriya sinovlari; uskunalarni sozlash; sifat nazorati; ichki logistika; qadoqlash; ombor xizmatlari.

Masalan, “mahsulotning murakkab dizayni ko‘proq sifat nazorati va uskunalarni qayta sozlashni talab qilsa, aynan shu xarajatlar ushbu mahsulot tannarxiga yuklanadi. Natijada korxona qaysi mahsulotlar yuqori foyda keltirayotganini aniq baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi” [3].

Lean Accounting konsepsiyasining ahamiyati. So‘nggi yillarda ishlab chiqarishda "Lean Manufacturing" tamoyillari keng qo‘llanilmoqda. Ushbu konsepsiyaning asosiy maqsadi qo‘shimcha qiymat yaratmaydigan operatsiyalarni qisqartirish va resurslardan maksimal darajada samarali foydalanishdir.

“Lean Accounting mazkur yondashuvning buxgalteriya hisobi tizimidagi davomi hisoblanadi. U quyidagi yo‘nalishlarda samaradorlikni oshiradi: ortiqcha zaxiralarni kamaytirish; ishlab chiqarish siklini qisqartirish; nuqsonli mahsulotlar ulushini kamaytirish; resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish; boshqaruv hisobotlarini soddalashtirish.

To‘qimachilik sanoatida Lean Accounting tamoyillarini joriy etish, ayniqsa eksportga yo‘naltirilgan korxonalarda mahsulot tannarxini kamaytirish va ishlab chiqarish unumdorligini oshirish imkonini beradi” [4].

ERP tizimlari asosida xarajatlar hisobini avtomatlashtirish. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish korxonalarining aksariyatida xarajatlar hisobi ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlari orqali yuritilmoqda.

“ERP tizimlarining afzalliklari quyidagilardan iborat: buxgalteriya va boshqaruv hisobining integratsiyasi; real vaqt rejimida xarajatlarni monitoring qilish; ishlab chiqarish rejalashtirishni avtomatlashtirish; ombor hisobi va logistika jarayonlarini birlashtirish; boshqaruv hisobotlarini avtomatik shakllantirish.

To‘qimachilik korxonalarida ERP tizimlari xomashyo qabul qilingan paytdan boshlab tayyor mahsulot sotilishigacha bo‘lgan barcha jarayonlarni yagona axborot bazasida aks ettiradi. Natijada: mahsulot tannarxini hisoblash tezlashadi; inson omili bilan bog‘liq xatolar kamayadi; boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifati oshadi” [5].

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida xalqaro tajribani qo‘llash istiqbollari. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirish, tayyor mahsulot eksportini ko‘paytirish hamda xalqaro standartlarni joriy etish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda.

Biroq ayrim korxonalarda quyidagi muammolar saqlanib qolmoqda: zamonaviy boshqaruv hisobi usullarining yetarlicha qo‘llanilmasligi; ERP tizimlarining to‘liq joriy etilmaganligi; xarajat

markazlari bo‘yicha analitik hisobning rivojlanmaganligi; mahsulot rentabelligini tahlil qilish tizimining cheklanganligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiq: MHXS talablarini bosqichma-bosqich joriy etish; Activity-Based Costing usulidan foydalanish; xarajat markazlari bo‘yicha boshqaruv hisobotlarini shakllantirish; ERP va Business Intelligence tizimlarini joriy etish; iqtisodchilar va buxgalterlarning malakasini muntazam oshirish.

Bu chora-tadbirlar korxonalarda xarajatlar hisobining shaffofligini va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy xarajatlar hisobi faqat mahsulot tannarxini hisoblash vositasi emas, balki strategik boshqaruvning muhim axborot manbai hisoblanadi. To‘qimachilik sanoatida *ABC Costing, Lean Accounting, ERP* tizimlari va MHXS talablarini uyg‘un qo‘llash mahsulot tannarxini aniqroq hisoblash, resurslardan oqilona foydalanish va korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalarida ushbu yondashuvlarni bosqichma-bosqich joriy etish xarajatlar hisobini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish hamda eksport salohiyatini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

To‘qimachilik sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining eksportga yo‘naltirilgan va yuqori qo‘shimcha qiymat yaratuvchi strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va tayyor mahsulot eksportini kengaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu tarmoq korxonalarida boshqaruv tizimini takomillashtirishni, jumladan, xarajatlar hisobini zamonaviy talablar asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, xarajatlar hisobi korxonaning moliyaviy natijalarini shakllantirish, mahsulot tannarxini ishonchli aniqlash va boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslashning muhim vositasi hisoblanadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, xarajatlar hisobini tashkil etishning metodologik asoslari milliy buxgalteriya hisobi standartlari hamda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) talablariga asoslanadi. Xarajatlarni iqtisodiy elementlari, kalkulyatsiya moddalari, ishlab chiqarish hajmiga bog‘liqligi hamda mahsulot tannarxiga kiritilish usullariga ko‘ra tasniflash ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilish va nazorat qilish uchun zarur axborot bazasini shakllantiradi. Ayniqsa, to‘qimachilik korxonalarida xomashyo, energiya va mehnat xarajatlarining salmoqli ulushi ularni hisobga olishning aniq va tizimli mexanizmini joriy etishni talab qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ishlab chiqarishning uzluksiz texnologik xususiyati sababli to‘qimachilik sanoatida *jarayonlar bo‘yicha xarajatlar hisobi (Process Costing)* eng maqbul usullardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, *Standard Costing* usuli xarajatlarni me’yorlar bilan taqqoslash va og‘ishlarni aniqlash imkonini beradi, *Activity-Based Costing (ABC)* usuli esa bilvosita xarajatlarni mahsulotlar bo‘yicha aniqroq taqsimlashga xizmat qiladi. Ushbu usullarni kompleks qo‘llash korxonalarda mahsulot tannarxini aniq hisoblash, resurslardan samarali foydalanish va rentabellikni oshirish imkonini beradi.

O‘rganish natijasida aniqlanishicha, amaliyotda xarajatlar hisobini tashkil etishda bir qator muammolar mavjud. Jumladan, xomashyo va materiallar harakatini hisobga olishning ayrim bosqichlari yetarli darajada avtomatlashtirilmagan, bilvosita xarajatlarni taqsimlash usullari zamonaviy ishlab chiqarish sharoitlariga to‘liq moslashtirilmagan, energiya resurslari bo‘yicha analitik hisobning rivojlanmaganligi xarajatlar tarkibini chuqur tahlil qilish imkoniyatini cheklaydi. Bundan tashqari, ko‘plab korxonalarda boshqaruv hisobi elementlari yetarli darajada

shakllanmaganligi sababli rahbariyat operativ va strategik qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan tahliliy ma’lumotlarni to‘liq ololmaydi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatdiki, rivojlangan mamlakatlarda xarajatlar hisobi korxona boshqaruvining strategik vositasi sifatida qaraladi. *ABC Costing, Target Costing, Lean Accounting, Life Cycle Costing* kabi zamonaviy usullarni qo‘llash, ERP tizimlari bilan integratsiyalashgan boshqaruv hisobi va Business Intelligence texnologiyalaridan foydalanish xarajatlarni nazorat qilish, mahsulot tannarxini optimallashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tajribalarni O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalarida bosqichma-bosqich joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, to‘qimachilik korxonalarida xarajatlar hisobini takomillashtirishning konseptual modeli ishlab chiqildi. Mazkur model xarajatlar markazlari bo‘yicha hisobni tashkil etish, jarayonlar bo‘yicha tannarxni shakllantirish, ABC va Standard Costing usullarini qo‘llash, ERP tizimlari orqali hisob jarayonlarini avtomatlashtirish hamda boshqaruv hisobotlarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv mahsulot tannarxini aniq hisoblash, resurslardan oqilona foydalanish va korxonaning moliyaviy natijalarini yaxshilash imkonini beradi.

Shuningdek, SWOT-tahlil natijalari tarmoqda xarajatlar hisobini rivojlantirish uchun zarur ichki imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatdi. Kuchli jihatlar sifatida ishlab chiqarishning me’yorlashtirilganligi, paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatining rivojlanishi va ishlab chiqarish bosqichlari bo‘yicha xarajatlarni hisobga olish imkoniyati e’tirof etildi. Zaif jihatlar esa avtomatlashtirish darajasining pastligi, boshqaruv hisobi tizimining yetarli rivojlanmaganligi hamda bilvosita xarajatlarni taqsimlashdagi kamchiliklar bilan bog‘liq. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish, xalqaro standartlarga moslashish va eksport salohiyatini oshirish tarmoq uchun muhim imkoniyatlar hisoblanadi.

XULOSA.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Xarajatlar hisobini tashkil etishda *Process Costing, Standard Costing* va *ABC Costing* usullarini kompleks qo‘llash.
2. Xarajatlarni javobgarlik markazlari va xarajat markazlari bo‘yicha hisobga olish tizimini joriy etish.
3. Xomashyo va materiallar harakatini RFID, shtrix-kod va IoT texnologiyalari asosida nazorat qilish.
4. ERP va Business Intelligence platformalarini buxgalteriya hamda boshqaruv hisobi tizimlari bilan integratsiyalash.
5. Energiya resurslari xarajatlarini alohida tahliliy hisob obyektlari sifatida yuritish.
6. Tugallanmagan ishlab chiqarishni xalqaro amaliyotdagi ekvivalent birliklar usuli asosida baholash.
7. Xarajatlarni prognozlash va tahlil qilishda raqamli analitika vositalaridan foydalanishni kengaytirish.
8. Korxona mutaxassislarining boshqaruv hisobi va xalqaro standartlar bo‘yicha malakasini muntazam oshirish.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik sanoati korxonalarida xarajatlar hisobini zamonaviy metodologik yondashuvlar asosida takomillashtirish mahsulot tannarxining ishonchliligini oshiradi, resurslardan foydalanish samaradorligini yaxshilaydi,

boshqaruv qarorlarining sifatini yuksaltiradi va korxonalarning ichki hamda tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Horngren C.T., Datar S.M., Rajan M.V. *Cost Accounting: A Managerial Emphasis*. 16th ed. Pearson, 2018. 971 p.

2. Colin Drury. *Management and Cost Accounting.* 11th edn. Cengage Learning Emea 2021, 512 p.

3. Kaplan R. S., Cooper R. *Cost & Effect: Using Integrated Cost Systems to Drive Profitability and Performance*. Boston: Harvard Business School Press, 1998. 357 p.

4. Maskell B. H., Baggaley B. L., Grasso L. *Practical Lean Accounting: A Proven System for Measuring and Managing the Lean Enterprise, Second Edition.* CRC Press, 2017. 475 p.

5. Hansen D.R., Mowen M.M., Heitger D.L. *Cornerstones of Cost Management*. Cengage, 2021. 1136 p.

6. International Accounting Standards Board. *IAS 2 - Inventories.* Latest consolidated edition. https://www.icaew.com/technical/corporate-reporting/ifrs/ifrs-accounting-standards-tracker/ias-2-inventories

Расулова Комолахон Сиражевна
Email: kamolaxonrasulova20@gmail.com

ИНВЕСТИЦИОННАЯ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТЬ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА

Rasulova Komolakhon Siradjevna
Email: kamolaxonrasulova20@gmail.com

INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF UZBEKISTAN'S REGIONS

Rasulova Komolaxon Sirajevna
Email:kamolaxonrasulova20@gmail.com

O‘ZBEKISTON MINTAQALARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGI

Аннотация

В статье исследуется современное состояние инвестиционной привлекательности регионов Республики Узбекистан, рассматриваются основные экономические, инфраструктурные, ресурсные и институциональные факторы, определяющие способность территорий привлекать и эффективно использовать инвестиционные ресурсы. Особое внимание уделяется территориальной дифференциации инвестиционной активности, развитию специальных экономических зон, человеческого капитала, транспортной инфраструктуры, промышленной и аграрной специализации регионов. На основе официальных статистических данных выявлены регионы, характеризующиеся наиболее высоким объемом инвестиций, а также определены основные ограничения, препятствующие более равномерному распределению инвестиционных потоков. Предложены направления совершенствования региональной инвестиционной политики, включая развитие региональных инвестиционных платформ, повышение качества инвестиционной инфраструктуры, расширение государственно-частного партнерства, поддержку экспортно ориентированных производств и усиление цифровизации инвестиционных процессов.

Ключевые слова: инвестиционная привлекательность, региональная экономика, инвестиции, прямые иностранные инвестиции, инвестиционный климат, Узбекистан, специальные экономические зоны, региональное развитие, инфраструктура, государственно-частное партнерство.

Abstract

This article examines the current state of the investment attractiveness of the regions of the Republic of Uzbekistan and analyses the key economic, infrastructural, resource-related and institutional factors that determine the ability of these territories to attract and make effective use of investment resources. Particular attention is paid to the regional differentiation of investment activity, the development of special economic zones, human capital, transport infrastructure, and the industrial and agricultural specialisation of the regions. Based on official statistical data, the regions characterised by the highest volume of investment have been identified, and the main constraints hindering a more even distribution of investment flows have been determined. A number of recommendations are put forward for improving regional investment policy, including the development of regional investment platforms, improving the quality of investment infrastructure,

expanding public-private partnerships, supporting export-oriented industries, and enhancing the digitalisation of investment processes.

Keywords: investment attractiveness, regional economy, investment, foreign direct investment, investment climate, Uzbekistan, special economic zones, regional development, infrastructure, public-private partnership.

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi hududlarining investitsiya jozibadorligining hozirgi holati tahlil qilinadi va ushbu hududlarning investitsiya resurslarini jalb qilish hamda ulardan samarali foydalanish imkoniyatini belgilovchi asosiy iqtisodiy, infratuzilmaviy, resurslarga oid hamda institutsional omillar ko'rib chiqiladi. Maxsus e'tibor investitsiya faoliyatining mintaqaviy differensiyalashuviga, maxsus iqtisodiy zonalarni rivojlantirishga, inson kapitaliga, transport infratuzilmasiga hamda mintaqalarning sanoat va qishloq xo'jaligi ixtisoslashuviga qaratilgan. Rasmiy statistika ma'lumotlariga asoslanib, eng katta investitsiya hajmiga ega hududlar aniqlangan va investitsiya oqimlarining yanada teng taqsimlanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy cheklovlar aniqlangan. Mintaqaviy investitsiya siyosatini takomillashtirish bo'yicha bir qator tavsiyalar keltirilgan, jumladan mintaqaviy investitsiya platformalarini rivojlantirish, investitsiya infratuzilmasining sifatini oshirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, eksportga yo'naltirilgan sanoatni qo'llab-quvvatlash va investitsiya jarayonlarini raqamlashtirishni kuchaytirish.

Kalit so'zlar: investitsiya jozibadorligi, mintaqaviy iqtisodiyot, investitsiya, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya, investitsiya muhiti, O'zbekiston, maxsus iqtisodiy zonalar, mintaqaviy rivojlanish, infratuzilma, davlat-xususiy sheriklik.

ВВЕДЕНИЕ

В условиях усиления глобальной конкуренции за капитал инвестиции становятся одним из важнейших факторов устойчивого социально-экономического развития территорий. Для государств с формирующейся рыночной экономикой способность отдельных регионов привлекать внутренние и иностранные инвестиции непосредственно связана с созданием новых рабочих мест, развитием промышленности, увеличением экспортного потенциала, внедрением современных технологий и повышением уровня жизни населения.

Для Узбекистана данная проблема приобретает особое значение. Экономические реформы последних лет сопровождаются либерализацией предпринимательской деятельности, расширением участия частного сектора, развитием государственно-частного партнерства, модернизацией инфраструктуры и активным привлечением иностранного капитала. В 2025 году общий объем реализованных в стране инвестиций достиг 43,1 млрд долларов США, что на 24% больше показателя предыдущего года. Из этой суммы 38,2 млрд долларов пришлось на прямые иностранные инвестиции. Одновременно инвестиционная активность распределяется между регионами неравномерно. Различия обусловлены уровнем экономического развития, ресурсным потенциалом, транспортной доступностью, наличием промышленной базы, качеством трудовых ресурсов, емкостью потребительского рынка и институциональными условиями ведения бизнеса. Поэтому повышение инвестиционной привлекательности регионов следует рассматривать не только как инструмент привлечения капитала, но и как механизм пространственного выравнивания экономического развития страны.

ЛИТИРАТУРНЫЙ ОБЗОР

Инвестиционная привлекательность стала одним из центральных понятий современной региональной экономики, поскольку способность территории привлекать, удерживать и эффективно использовать инвестиции все в большей степени определяет ее конкурентоспособность, возможности занятости населения, технологическую модернизацию и долгосрочный экономический рост. Для Узбекистана данный вопрос приобрел особое значение, поскольку страна одновременно осуществляет либерализацию экономики, сокращает роль государства, развивает частное предпринимательство, привлекает прямые иностранные инвестиции (ПИИ), расширяет механизмы государственно-частного партнерства и стремится сократить социально-экономические различия между регионами. Литературный обзор по вопросам инвестиционной привлекательности в широком смысле можно разделить на пять взаимосвязанных исследовательских направлений: (1) классические и неоклассические теории распределения капитала, (2) теории размещения и регионального развития, (3) институциональный подход и теория трансакционных издержек, (4) теории международного бизнеса и прямых иностранных инвестиций и (5) современные подходы, основанные на региональной конкурентоспособности, инфраструктуре, человеческом капитале, инновациях и качестве институтов. Узбекская научная литература постепенно перешла от преимущественно макроэкономической трактовки инвестиционного климата к более дифференцированному региональному подходу. Ранние исследования были сосредоточены главным образом на ранжировании регионов по экономическому потенциалу и инвестиционной активности, тогда как более современные исследования все чаще акцентируют внимание на качестве институтов, инфраструктуре, инвестиционных рисках, специальных экономических зонах, человеческом капитале, логистике, доступе к финансированию и способности региональных администраций преобразовывать инвестиции в устойчивые экономические результаты. Значимость этого перехода особенно заметна в современной политике государства. Обновленная Стратегия «Узбекистан — 2030» относит экономическую модернизацию, привлечение инвестиций, развитие частного сектора и интеграцию в глобальные производственные цепочки к числу стратегических приоритетов страны. В 2026 году правительство также инициировало разработку стратегий развития для всех 14 административно-территориальных единиц, установив требование учитывать в региональных стратегиях географические особенности, человеческий капитал, экономический потенциал, ограничения и точки роста.

Анализ литературы показывает, что региональную инвестиционную привлекательность не следует интерпретировать исключительно как объем инвестиций, уже полученных регионом. Скорее, ее следует понимать как многомерную способность территории формировать условия, при которых инвесторы воспринимают имеющиеся возможности как достаточно прибыльные, предсказуемые, безопасные и устойчивые с учетом соответствующих рисков и издержек. Хотя термин «инвестиционная привлекательность» является относительно современным, его интеллектуальные основы восходят к классическим теориям капитала, специализации, рынков и экономического развития.

Теория специализации Адама Смита является важной концептуальной основой для понимания региональной инвестиционной привлекательности. Его положение о том, что специализация и разделение труда повышают производительность, предполагает, что территории с более крупными рынками, развитой специализацией и сформированными

производственными сетями способны создавать более сильные экономические стимулы для инвестирования.

Применительно к Узбекистану логика Смита позволяет предположить, что привлекательность региона зависит не только от наличия природных ресурсов, но и от способности территории организовать производство на основе своих сравнительных преимуществ. Например, сельскохозяйственные регионы могут стать более привлекательными для инвестиций, если инвестиционные потоки направляются не только в первичное производство, но и в переработку продуктов питания, логистику, упаковку, инфраструктуру холодовой цепи и экспортно ориентированные агропромышленные кластеры. Богатый ресурсами регион может обладать значительным потенциалом, однако регион, способный объединить ресурсы, поставщиков, трудовые ресурсы, логистику и рынки, может иметь более высокую фактическую инвестиционную привлекательность.

Теория сравнительных преимуществ Давида Рикардо также представляет собой важную основу для анализа. Регионы располагают различными ресурсными возможностями и альтернативными издержками, поэтому теоретически инвестиции должны направляться в те виды деятельности, в которых территория обладает относительно более сильными преимуществами. Для Узбекистана данный подход особенно актуален, поскольку региональная специализация существенно различается. Навоийская область обладает значительными минерально-сырьевыми и промышленными преимуществами; Ташкент располагает доступом к крупным рынкам, развитой инфраструктурой и мощной промышленной базой Самарканд сочетает потенциал туризма, сельского хозяйства и сферы услуг; регионы Ферганской долины характеризуются высокой плотностью населения, промышленными традициями и значительным аграрным потенциалом; в то же время другие территории обладают сравнительно более сильными возможностями в области возобновляемой энергетики, сельского хозяйства или логистики. Однако современная региональная теория инвестиций выходит за рамки статического сравнительного преимущества. Одним из ключевых вопросов становится то, каким образом регионы могут трансформировать существующие сравнительные преимущества в динамические конкурентные преимущества посредством технологий, инфраструктуры, институтов, развития навыков и инноваций.

Инвестиционная привлекательность по своей природе является пространственным явлением. Инвесторы вкладывают средства не в абстрактную национальную экономику, а выбирают конкретные города, районы, промышленные зоны и производственные площадки. Поэтому классическая теория размещения производства по-прежнему сохраняет высокую актуальность. Теория промышленного размещения Альфреда Вебера подчеркивала значение транспортных издержек, стоимости рабочей силы и факторов агломерации при определении местоположения производства. Современная региональная экономика расширила данный подход, включив в него доступ к рынкам, инфраструктуру, знания, институты и экономические сети. Для Узбекистана это имеет важное значение так как два региона, функционирующие в рамках одного и того же национального законодательства, могут обладать совершенно разным уровнем инвестиционной привлекательности вследствие различий в специфических территориальных условиях. К таким условиям относятся близость к основным рынкам, транспортные и логистические издержки, доступность и надежность электроэнергии, наличие водных ресурсов, телекоммуникационная инфраструктура, доступность промышленной земли, наличие квалифицированной рабочей силы, близость к

поставщикам, экспортная инфраструктура, доступ к финансовым учреждениям, качество муниципальных услуг и эффективность деятельности органов местного управления. Следовательно, региональная инвестиционная политика не может быть сведена исключительно к национальным налоговым льготам.

МЕТОД ИССЛЕДОВАНИЯ

Методология, использованная в исследовании, основана на описательном методе. В процессе сбора данных были использованы методы изучения литературы и анализа соответствующих источников. Метод изучения литературы включает такие этапы, как поиск и отбор научных источников, их изучение, фиксация важной информации и ее систематизация. В рамках данного исследования были собраны и проанализированы сведения из научной литературы, статей и других надежных источников, посвященных истории классической экономической мысли, после чего они были обобщены в соответствии с целями исследования.

Среди зарубежных исследователей особое значение для понимания решений относительно размещения прямых иностранных инвестиций (ПИИ) имеет Джон Х. Даннинг. Эклектическая парадигма Даннинга, широко известная как OLI-парадигма, объясняет международное производство через три группы преимуществ:

- Преимущества собственности (O — Ownership advantages) технологические, управленческие, финансовые, брендовые и организационные преимущества компаний;
- Преимущества размещения (L — Location advantages) характеристики принимающей территории;
- Преимущества интернализации (I — Internalization advantages) преимущества, связанные с осуществлением операций внутри компании, а не с полной опорой на рыночные механизмы.

Компонент размещения имеет особое значение для оценки инвестиционной привлекательности регионов. Подход Даннинга предполагает, что инвесторы сравнивают территории с учетом совокупности их ресурсов, рынков, инфраструктуры, институциональной среды и условий производства. OLI-парадигма остается одной из наиболее влиятельных концептуальных моделей в исследованиях международных инвестиций. Применительно к Узбекистану концепция Даннинга показывает, что для привлечения ПИИ недостаточно предлагать инвесторам только природные ресурсы или налоговые льготы. Регион должен обладать комплексом преимуществ размещения, включающим развитую инфраструктуру, квалифицированную рабочую силу, доступ к рынкам, надежную институциональную среду и возможности интеграции в производственные цепочки. Это позволяет сформулировать важное исследовательское положение как Инвестиционная привлекательность региона повышается тогда, когда его специфические преимущества размещения дополняют преимущества собственности потенциальных инвесторов.

Например, технологическая компания может придавать большее значение наличию квалифицированного человеческого капитала и цифровой инфраструктуры, чем низкой стоимости земельных ресурсов. В то же время инвестор в горнодобывающую отрасль может отдавать приоритет запасам полезных ископаемых, энергетической инфраструктуре и транспортной связанности региона.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Еще одним влиятельным зарубежным исследователем является Майкл Портер, чьи труды кардинально изменили представление о конкурентоспособности территорий. Портер утверждает, что географическая концентрация взаимосвязанных компаний, поставщиков, университетов, учреждений и организаций поддержки может создавать значительные конкурентные преимущества. Его теория кластеров демонстрирует, что территориальный фактор сохраняет свою важность даже в условиях глобализации, поскольку компании получают преимущества благодаря близости к специализированным поставщикам, знаниям, трудовым ресурсам и соответствующим институтам. Данная теория имеет большое значение для Узбекистана. Вместо того чтобы рассматривать регионы исключительно как конкурентов за привлечение отдельных инвестиционных проектов, региональная политика может быть ориентирована на формирование специализированных инвестиционных экосистем, объединяющих предприятия, образовательные и научные учреждения, инфраструктуру, поставщиков и государственные институты.

Таблица-1

Потенциальная инвестиционная экосистема

Специализация региона	**Экосистема**
Навои	горнодобывающая промышленность, металлургия, химическая промышленность, возобновляемая энергетика.
Tashkent region	Manufacturing, logistics, automotive, industrial technology
Samarkand	Tourism, food processing, services, logistics
Fergana Valley	Textiles, food processing, light manufacturing, agro-industry
Bukhara	Tourism, petrochemicals, agriculture and food processing
Kashkadarya	Energy, petrochemicals, agriculture
Karakalpakstan	Renewable energy, agriculture, water-efficient technologies, logistics

Таким образом, подход Портера предполагает, что целью должно быть не просто максимальное увеличение объёма инвестиций, а привлечение таких инвестиций, которые способны укреплять региональные кластеры и создавать положительные побочные эффекты (spillover effects). Традиция институциональной экономики, пожалуй, даёт наиболее важное объяснение тому, почему территории с сопоставимыми физическими ресурсами могут демонстрировать совершенно разные результаты в привлечении инвестиций. Douglass C. North утверждал, что институты структурируют экономическое взаимодействие, определяют трансакционные и производственные издержки, снижают неопределённость и влияют на прибыльность и осуществимость экономической деятельности. Поэтому права собственности, правовые нормы и механизмы их обеспечения становятся фундаментальными факторами экономической эффективности.

С этой точки зрения инвестиционная привлекательность региона зависит от таких вопросов, как:

1. Насколько быстро инвестор может получить земельный участок?
2. Насколько предсказуемы административные процедуры?
3. Насколько эффективно обеспечивается исполнение контрактов?
4. Насколько надёжно защищены права собственности?
5. Насколько прозрачен процесс принятия решений на местном уровне?
6. Насколько быстро решаются проблемы инвесторов?
7. Насколько предсказуемы налоговые и регуляторные требования?
8. Насколько эффективно местные органы власти координируют вопросы инфраструктуры и коммунальных услуг?

Данная институциональная интерпретация особенно актуальна для Узбекистана, поскольку национальные инвестиционные реформы всё в большей степени ориентированы на защиту прав инвесторов, упрощение административных процедур и расширение участия частного сектора. Например, оценка инвестиционного климата, подготовленная Государственным департаментом США, отмечает прогресс Узбекистана в либерализации экономики с 2017 года, но одновременно указывает на то, что выборочные стимулы и индивидуальный подход к поддержке отдельных инвестиционных проектов могут ограничивать проведение более широких реформ деловой среды. Таким образом, возникает важное для исследования различие:

Инвестиционные стимулы могут компенсировать некоторые недостатки в краткосрочной перспективе, однако именно качество институтов определяет, будут ли инвестиции устойчивыми и эффективными в долгосрочной перспективе.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Современные исследователи считают, что инвестиционная привлекательность региона определяется не только ресурсами и льготами, но и его способностью к развитию, инновациям, цифровизации, повышению производительности и совершенствованию институтов. Государственная политика Узбекистана всё больше ориентируется на повышение ответственности региональных хокимиятов за привлечение и эффективное использование инвестиций. Важным становится не объём инвестиций, а их вклад в промышленность, занятость, экспорт и развитие территорий. Ташкентская область демонстрирует высокий инвестиционный потенциал, но требует более равномерного распределения инвестиций между районами. Навоийская область показывает преимущества сочетания природных ресурсов, энергетики, промышленности и инфраструктуры. Предприниматели и инвесторы, включая Franklin Templeton и Uzum, подчёркивают значение человеческого капитала, цифровизации, финансовой инфраструктуры, прозрачности и благоприятной деловой среды.

Международные организации также отмечают прогресс реформ в Узбекистане, однако сохраняются проблемы государственного участия, институционального развития и улучшения бизнес-среды. Таким образом, инвестиционную привлекательность регионов Узбекистана следует рассматривать как динамический процесс, основанный на ресурсах, институтах, инновациях, инфраструктуре и способности региона создавать долгосрочные экономические результаты.

Таблица-2

Рассмотренная литература позволяет объединить основные детерминанты инвестиционной привлекательности регионов в семь групп.

Измерение	Основные переменные	Основная теоретическая основа
Экономическое	ВВП, размер рынка, производительность, доходы, экономический рост	Классическая экономическая теория
Ресурсное	Полезные ископаемые, земельные, водные и сельскохозяйственные ресурсы	Теория сравнительных преимуществ
Географическое	Географическое положение, логистика, доступ к рынкам	Теория размещения; Даннинг
Инфраструктурное	Энергетика, автомобильные и железные дороги, ИКТ, промышленные зоны	Региональная экономика
Институциональное	Права собственности, регулирование, бюрократия, качество государственного управления	Дуглас Норт
Человеческий капитал	Качество рабочей силы, образование, навыки, предпринимательство	Теория эндогенного роста
Конкурентная экосистема	Кластеры, поставщики, инновации, университеты	Портер; теория региональной конкурентоспособности

Таким образом, литература подтверждает необходимость многомерного подхода к оценке инвестиционной привлекательности региона:

Инвестиционная привлекательность региона = f(Экономический потенциал + Географическое положение + Инфраструктура + Институты + Человеческий капитал + Рыночные возможности + Инновации + Риски + Управленческий потенциал). Важно отметить, что данные факторы не следует рассматривать исключительно как независимые переменные. Их взаимодействие формирует кумулятивные преимущества региона.

Например:

Инфраструктура → снижение транзакционных издержек → повышение прибыльности инвестиций → увеличение объёма инвестиций → развитие поставщиков → рост занятости → увеличение региональных доходов → расширение рынка → дальнейший рост инвестиций. Таким образом формируется кумулятивный цикл инвестиционной привлекательности.

Литературный обзор показывает, что инвестиционная привлекательность представляет собой не отдельный экономический показатель, а многомерную характеристику территории, формируемую посредством взаимодействия экономического потенциала, географического положения, институтов, инфраструктуры, человеческого капитала, доступа к рынкам, инноваций, качества государственного управления и ожиданий инвесторов. Классические экономисты объясняют значение специализации и сравнительных преимуществ. Теория размещения раскрывает причины пространственных различий между территориями. Дж. Даннинг объясняет, почему транснациональные корпорации выбирают определённые территории для размещения своей деятельности. М. Портер демонстрирует значение кластеров и региональных конкурентных экосистем. Д. Норт показывает, что институты и транзакционные издержки фундаментальным образом влияют на инвестиционные решения. Современные представители региональной экономики дополняют данный подход такими факторами, как человеческий капитал, инновации, инфраструктура, связанность территорий и динамическая конкурентоспособность. Узбекские учёные всё чаще адаптируют данные теоретические подходы к национальным и региональным условиям. Мустафакулов [6], акцентирует внимание на методологических подходах к оценке инвестиционной привлекательности регионов развивает концептуальное разграничение между инвестиционным климатом и инвестиционной привлекательностью, Сабиров [7], исследует международные методологии и условия инвестирования в регионах, Наврузов [8], связывает региональную инвестиционную привлекательность с прямыми иностранными инвестициями (ПИИ); современные исследователи всё больше внимания уделяют институциональным, финансовым и инфраструктурным механизмам формирования инвестиционной привлекательности [9].

Государственный подход добавляет к данному анализу важное практическое измерение. В рамках современной реформаторской повестки региональные хокимы всё в большей степени должны выступать не только в качестве административных руководителей, но и как менеджеры инвестиционного развития территорий. Государственная политика также постепенно переходит от простого привлечения инвестиций к отбору более качественных инвестиционных проектов, способных создавать рабочие места, увеличивать экспорт, обеспечивать технологическую модернизацию и формировать дополнительную региональную добавленную стоимость [10]. Опыт Uzum демонстрирует возрастающую роль цифровой инфраструктуры, технологий, финансовых рынков и предпринимательских экосистем [11].

Инвестиционная привлекательность регионов Узбекистана следует рассматривать не как статичное наличие инвестиционных ресурсов, а как динамическую способность территории и её институтов преобразовывать экономический, пространственный, человеческий, инфраструктурный и технологический потенциал в предсказуемые, прибыльные, устойчивые и социально продуктивные инвестиционные возможности. Данная концепция создаёт более прочную основу для формирования Индекса инвестиционной привлекательности регионов Узбекистана, проведения сравнительного анализа 14 регионов, выявления инвестиционных разрывов и разработки дифференцированной инвестиционной политики для высокоразвитых, развивающихся и структурно отстающих территорий [12]. Международные инвесторы как Franklin Templeton, подчёркивают значение институциональных реформ, корпоративного управления, человеческого капитала и открытого диалога с инвесторами, улучшают работу получая максимальны результат в бизнесе [13].

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

[1]. Porter, M. E. (2000). Location, Competition, and Economic Development: Local Clusters in a Global Economy. Economic Development Quarterly.

[2]. Porter, M. E. (2000). Location, Competition, and Economic Development: Local Clusters in a Global Economy. Economic Development Quarterly.

[3]. North, D. C. (1991). Institutions. Journal of Economic Perspectives, 5(1), 97–112.

[4]. North, D. C. (1987). Institutions, Transaction Costs and Economic Growth. Economic Inquiry, 25, 419–428.

[5]. Martin, R., & Sunley, P. Research on regional competitiveness, clusters and dynamic comparative advantage.

[6]. Mustafakulov, S. (2017). Investment Attractiveness of Regions: Methodic Aspects of the Definition and Classification of Impacting Factors. European Scientific Journal, 13(10), 433.

[7]. Sabirov, O. Sh. Increasing Investment Attractiveness and Creating a Favorable Investment Climate.

[8]. Navruzov, I. A. The Role of Regional Investment Attractiveness in Attracting Foreign Direct Investment to the Country.

[9]. Kenjayev, I. E. (2026). Current State, Institutional Foundations and Development Prospects of Attracting Foreign Investment to the Region.

[10]. Mukhammadiev, U. (2026). Directions for Enhancing Investment Climate Attractiveness: Institutional and Financial Mechanisms in the Context of Uzbekistan’s Regions.

[11]. O'razaliyev, J. O. (2026). Institutional and Infrastructural Mechanisms for Enhancing Regional Investment Attractiveness: Conceptual Evidence from Uzbekistan.

[12]. Government of Uzbekistan — *Uzbekistan–2030 Strategy*.

[13]. Franklin Templeton — Uzbekistan National Investment Fund and investor perspective.

Muxammadjanov Muzaffar Muxammadsolixovich
Toshkent davlat agrar universiteti mustaqil izlanuvchisi

EKOLOGIK XARAJATLARNING IQTISODIY MAZMUNI VA ULARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Мухаммаджанов Музаффар Мухаммадсолихович
независимый соискатель Ташкентского государственного аграрного университета

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЗАТРАТ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИХ ОТРАЖЕНИЯ В БУХГАЛТЕРСКОМ УЧЕТЕ

Muxammadjanov Muzaffar Muxammadsolixovich
Independent Researcher at Tashkent State Agrarian University

THE ECONOMIC CONTENT OF ENVIRONMENTAL COSTS AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR THEIR REFLECTION IN ACCOUNTING

Annotatsiya. Mazkur maqolada korxonalarda ekologik xarajatlarning iqtisodiy mazmuni, shakllanish omillari hamda buxgalteriya va boshqaruv hisobidagi o‘rni tadqiq etilgan. Ekologik xarajatlar resurslardan foydalanish, chiqindilar, emissiyalarni nazorat qilish, tozalash, utilizatsiya, tiklash va ekologik majburiyatlarni bajarish bilan bog‘liq kompleks iqtisodiy resurslar sifatida yoritilgan. Environmental Management Accounting (EMA) va Material Flow Cost Accounting (MFCA) konsepsiyalari asosida monetar va fizik axborotni integratsiyalash zarurligi asoslangan. Shuningdek, ekologik xarajatlarning mahsulot tannarxi, ishlab chiqarish va davr xarajatlari hamda aktiv va majburiyatlar bilan bog‘liqligi tahlil qilingan. O‘zbekiston qonunchiligi va ekologik rag‘batlantirish mexanizmlari asosida ekologik xarajatlarning analitik hisobini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik xarajatlar, ekologik boshqaruv hisobi, buxgalteriya hisobi, EMA, MFCA, ekologik to‘lovlar, chiqindilar, tannarx, ekologik samaradorlik.

Аннотация. В статье исследуются экономическое содержание экологических затрат, факторы их формирования и место в бухгалтерском и управленческом учёте. Экологические затраты рассматриваются как совокупность ресурсов, связанных с использованием природных ресурсов, образованием отходов, контролем выбросов, очисткой, утилизацией, восстановлением окружающей среды и выполнением экологических обязательств. Рассмотрены концепции экологического управленческого учёта (EMA) и учёта затрат по потокам материалов (MFCA), обоснована необходимость интеграции денежной и физической информации. Проанализирована связь экологических затрат с себестоимостью продукции, производственными и периодическими расходами, активами и обязательствами. На основе законодательства Республики Узбекистан разработаны предложения по совершенствованию аналитического учёта экологических затрат.

Ключевые слова: экологические затраты, экологический управленческий учёт, бухгалтерский учёт, EMA, MFCA, экологические платежи, отходы, себестоимость, экологическая эффективность.

Abstract. This article examines the economic substance of environmental costs, their formation factors, and their role in accounting and management. Environmental costs are viewed as resources associated with natural resource use, waste generation, emission control, treatment, recycling, environmental restoration, and compliance with environmental obligations. The study considers Environmental Management Accounting (EMA) and Material Flow Cost Accounting (MFCA) and substantiates the integration of monetary and physical information. The relationship between environmental costs and production costs, product cost, period expenses, assets, and liabilities is analyzed. Based on the legislation of Uzbekistan, recommendations are developed to improve the analytical accounting of environmental costs.

Keywords: environmental costs, environmental management accounting, accounting, EMA, MFCA, environmental payments, waste management, production cost, environmental efficiency.

KIRISH

Sanoat ishlab chiqarishining kengayishi tabiiy resurslardan foydalanish hajmining ortishi, energiya va material sarfining ko‘payishi, chiqindilar hosil bo‘lishi hamda atmosfera va suv resurslariga ta’sirning kuchayishi bilan birga kechmoqda. Shu sababli ekologik omil korxonaning faqat ijtimoiy yoki texnik faoliyatiga emas, balki uning xarajatlari, mahsulot tannarxi, moliyaviy natijalari va investitsion qarorlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadigan iqtisodiy omilga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining amaldagi 34-moddasida “tabiiy resurslardan foydalanish, atrof-muhitni ifloslantirish, chiqindilarni joylashtirish va issiqxona gazlari ajratmalari bilan bog‘liq to‘lovlar hamda tabiiy resurslarni muhofaza qilish va qayta tiklash uchun to‘lovlar nazarda tutilgan. Qonunda tegishli to‘lovlarni amalga oshirish korxonani ekologik tadbirlarni bajarish yoki yetkazilgan zararni qoplash majburiyatidan ozod qilmasligi ham belgilangan” [1].

Mazkur norma ekologik xarajatlarning iqtisodiy mazmuni faqat davlat budjetiga yoki tegishli jamg‘armalarga amalga oshiriladigan to‘lovlar bilan chegaralanmasligini ko‘rsatadi. Korxonalar ekologik talablarni bajarish uchun tozalash uskunalari, filtrlar, monitoring vositalari va chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalariga mablag‘ yo‘naltiradi, laboratoriya va ekologik audit xizmatlaridan foydalanadi hamda chiqindilarni tashish va utilizatsiya qilish bilan bog‘liq xarajatlarni amalga oshiradi.

Shu jihatdan ekologik xarajatlarni buxgalteriya hisobida alohida iqtisodiy mazmunga ega bo‘lgan obyekt sifatida identifikatsiya qilish va ularni boshqaruv axboroti bilan bog‘lash dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik xarajatlarni hisobga olish masalasi xalqaro ilmiy va professional adabiyotlarda asosan ekologik boshqaruv hisobi konsepsiyasi doirasida rivojlangan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti tomonidan tayyorlangan *Environmental Management Accounting: Procedures and Principles* nashrida “ekologik boshqaruv hisobining asosiy vazifasi ekologik xarajatlar va sarflarni aniqlash hamda ularni korxona faoliyatini boshqarish uchun foydali axborotga aylantirish bilan bog‘langan” [4].

Mazkur yondashuvning muhim jihati shundaki, ekologik xarajatlar an’anaviy xarajatlar tizimida umumiy ustama xarajatlar tarkibida “yashirinib” qolishi mumkin. Natijada boshqaruv xodimlari muayyan ishlab chiqarish jarayoni yoki mahsulotning haqiqiy ekologik qiymatini yetarlicha baholay olmaydi.

IFAC tomonidan 2005-yilda e'lon qilingan *International Guidance Document: Environmental Management Accounting* ekologik boshqaruv hisobini iqtisodiy va ekologik ko'rsatkichlarni yagona boshqaruv tizimida birlashtiruvchi yondashuv sifatida izohlaydi. IFAC materiallarida "energiya, suv, materiallar va chiqindilar oqimlari to'g'risidagi fizik axborotni tegishli xarajatlar, daromadlar va tejamkorlik ko'rsatkichlari bilan bog'lashga alohida e'tibor qaratiladi" [5].

Ekologik xarajatlarni aniqlashning rivojlangan vositalaridan biri Material Flow Cost Accounting hisoblanadi. ISO 14051:2011 standarti "materiallar oqimi va zaxiralarini fizik birliklarda kuzatish hamda ushbu oqimlar bilan bog'liq xarajatlarni baholash uchun umumiy metodologik asosni belgilaydi. Standart 2025-yilda qayta ko'rib chiqilgan va amaldagi holatda tasdiqlangan" [6].

"MFCA konsepsiyasining amaliy ahamiyati shundaki, u faqat chiqindini utilizatsiya qilish xarajatini emas, balki chiqindi tarkibida yo'qotilayotgan xomashyo, energiya, mehnat va ishlab chiqarish ustama xarajatlarini ham aniqlash imkonini beradi. IFAC ham MFCAni iqtisodiy samaradorlik va resurslardan foydalanish samaradorligini birgalikda tahlil qilish imkonini beruvchi vosita sifatida ko'rsatadi" [8].

Buxgalteriya nuqtayi nazaridan ekologik xarajatlarni mahsulot tannarxiga kiritish masalasida xarajatning iqtisodiy tabiati asosiy mezon bo'lishi lozim. 2-son "Zaxiralar" nomli BHXS (IAS 2 "Inventories")da "zaxiralar tannarxi xarid qilish, qayta ishlash va zaxiralarni mavjud joyi hamda holatiga keltirish bilan bog'liq boshqa xarajatlarni qamrab olishi belgilangan. Qayta ishlash xarajatlariga bevosita mehnat va tegishli ishlab chiqarish ustama xarajatlari ham kiradi" [7].

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili ekologik xarajatlarni uchta o'zaro bog'liq axborot guruhi - *puldagi xarajatlar, fizik resurs oqimlari va boshqaruv ko'rsatkichlari* asosida shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, guruhlash, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish va iqtisodiy tasniflash usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini ekologik boshqaruv hisobi, MFCA va moliyaviy hisobning tegishli xalqaro tamoyillari tashkil etdi.

Ekologik xarajatlarning iqtisodiy mazmunini aniqlashda xarajatning: yuzaga kelish sababi; ishlab chiqarish jarayoniga bog'liqligi; ekologik maqsadi; fizik resurs oqimi bilan aloqasi; kelgusidagi iqtisodiy manfaat yoki majburiyat bilan bog'liqligi; mahsulot tannarxiga ta'siri asosiy mezon sifatida qabul qilindi.

Tadqiqot doirasida ekologik xarajatlarni "ekologik ta'sir → fizik resurs oqimi → puldagi xarajat → mahsulot/tannarx → moliyaviy natija → boshqaruv qarori" ketma-ketligida ko'rib chiqish taklif etiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ekologik xarajatlarni faqat "tabiatni muhofaza qilish xarajatlari" degan yagona guruhga birlashtirish boshqaruv uchun yetarli axborot bermaydi. Chunki chiqindilarni oldini olishga yo'naltirilgan xarajat bilan mavjud chiqindilarni utilizatsiya qilish xarajatining iqtisodiy vazifasi bir xil emas.

Shu sababli ekologik xarajatlarni quyidagi asosiy guruhlarga ajratish taklif etiladi (1-jadval).

1-jadval

Ekologik xarajatlarning iqtisodiy mazmuniga ko‘ra tasnifi

Ekologik xarajatlar guruhi	Mazmuni	Buxgalteriya hisobi uchun ahamiyati
Oldini olish xarajatlari	Ifloslanish va chiqindi hosil bo‘lishini kamaytirishga qaratilgan texnik va tashkiliy tadbirlar	Kelgusidagi ekologik xavflarni kamaytirishni baholash imkonini beradi
Monitoring va nazorat	Emissiya, oqova suv, chiqindi va resurs sarfini o‘lchash hamda nazorat qilish	Ekologik ko‘rsatkichlarni xarajatlar bilan bog‘lash imkonini beradi
Tozalash xarajatlari	Havoni, suvni va ishlab chiqarish muhitini tozalash bilan bog‘liq xarajatlar	Ishlab chiqarish va davr xarajatlarini tegishli obyektlar bo‘yicha ajratishga yordam beradi
Chiqindilarni boshqarish	Yig‘ish, tashish, saqlash, qayta ishlash va utilizatsiya	Chiqindi bilan bog‘liq xarajatlarning haqiqiy qiymatini aniqlashga imkon beradi
Tiklash va rekultivatsiya	Tabiiy muhitni tiklash, hududni rekultivatsiya qilish	Kelgusidagi majburiyatlar va tegishli xarajatlarni baholashga xizmat qiladi
Ekologik to‘lovlar	Ifloslantirish, resurslardan foydalanish va boshqa ekologik majburiy to‘lovlar	Majburiy to‘lovlarni alohida nazorat qilish imkonini beradi
Ekologik audit va sertifikatlash	Ekologik audit, ekspertiza, sertifikatlash va konsalting	Ekologik boshqaruv tizimining samaradorligini baholash imkonini beradi
Ekologik innovatsiyalar	Resurs tejamkor va ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish	Xarajat va investitsiya qarorlarining ekologik samaradorligini baholashga xizmat qiladi

Manba: muallif tomonidan xalqaro EMA va MFCA yondashuvlari hamda O‘zbekiston qonunchiligi asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur tasnifdan foydalanish korxona ekologik xarajatlarining tarkibini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, monitoring xarajatlari ekologik riskni aniqlashga xizmat qilsa, tozalash va utilizatsiya xarajatlari ko‘proq mavjud ekologik ta’sirning oqibatlarini boshqarishga qaratiladi. Ekologik innovatsiyalarga sarflangan mablag‘ esa xarajat yoki kapital qo‘yilma sifatida uning iqtisodiy mohiyatiga qarab baholanishi kerak.

Ekologik xarajatlarni hisobga olishda muhim masalalardan biri ularning mahsulot tannarxiga munosabatidir. Bunda “ekologik” degan belgi xarajatni avtomatik ravishda tannarxga yoki davr xarajatlariga kiritish uchun asos bo‘la olmaydi. Xarajatning ishlab chiqarish jarayonidagi vazifasi va mahsulotni tayyor holatga keltirishdagi roli aniqlanishi kerak.

2-jadvalda ekologik xarajatlarning hisobda aks ettirilish yo‘nalishlari keltirilgan.

2-jadval

Ekologik xarajatlarning hisobda aks ettirilish yo‘nalishlari

Xarajatning xususiyati	Misol	Hisobga olishda asosiy mezon
Mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq	Texnologik tozalash, ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash	Muayyan mahsulot yoki texnologik jarayon bilan bog‘liqligi
Ishlab chiqarish jarayoniga bilvosita bog‘liq	Umumiy ekologik monitoring, ekologik nazorat	Xarajat markazi yoki taqsimlash bazasi
Korxona faoliyatini umumiy ta’minlovchi	Ekologik audit, sertifikatlash, konsalting	Xarajatlarning davrga yoki funksional yo‘nalishga mansubligi
Ekologik majburiyat bilan bog‘liq	Kompensatsiya to‘lovlari, zararlarni qoplash	Majburiyatning yuzaga kelish asosi
Resurs tejamkorlikka yo‘naltirilgan	Energiya samarador uskunalar, chiqindini kamaytiruvchi texnologiyalar	Xarajat yoki kapital xarakterining mavjudligi
Kelgusidagi ekologik natijaga yo‘naltirilgan	Rekultivatsiya, hududni tiklash tadbirlari	Kelgusidagi iqtisodiy va ekologik manfaatlar hamda majburiyatlar

Manba: muallif ishlanmasi.

2-son BHXS (IAS 2) talablaridan kelib chiqib, “ishlab chiqarish jarayonida mahsulotni mavjud holati va joyiga keltirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ekologik xarajatlar tegishli sharoitlarda ishlab chiqarish tannarxining tarkibiy qismi sifatida qaralishi mumkin. Biroq ekologik audit, umumiy boshqaruv monitoringi yoki korxonaning umumiy ekologik hisobotini tayyorlash kabi xarajatlarni mahsulot bilan bevosita bog‘lash har doim ham asosli emas” [7].

O‘zbekiston qonunchiligidagi amaldagi normalar ham ekologik xarajatlarning iqtisodiy ahamiyatini kuchaytirmoqda. Xususan, 2026-yil 28-fevraldagi Vazirlar Mahkamasining 85-son qarori “sanoat korxonalarining atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha harakatlarini rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etdi. Qarorda monitoring stansiyalari, chang-gaz va lokal oqova suv tozalash uskunalarini o‘rnatgan ayrim korxonalar uchun kompensatsiya to‘lovlarini qaytarish mexanizmlari nazarda tutilgan” [2].

Bu holat ekologik xarajatlarni faqat “majburiy sarf” sifatida emas, balki kelgusidagi iqtisodiy manfaatlar bilan bog‘liq boshqaruv obyekti sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, 2024-yil 30-dekabrdagi 916-son Vazirlar Mahkamasi qarori “chiqindilar, xavfli mahsulotlar va kimyoviy moddalar muomalasi bilan bog‘liq davlat nazoratini takomillashtirishga qaratilgan. Hujjatda xavfli chiqindilar va mahsulotlarning tegishli ro‘yxatlari hamda ekologik sertifikatlashtirish bilan bog‘liq talablar belgilangan” [3].

Shu asosda korxonalarda ekologik xarajatlar hisobini uchta axborot qatlamida tashkil etish maqsadga muvofiq:

1) Monetar axborot - ekologik tadbirlar, xizmatlar, to‘lovlar, materiallar va boshqa xarajatlarning puldagi qiymati.

2) Fizik axborot - xomashyo, suv, energiya, chiqindi, emissiya va boshqa resurslarning kg, tonna, m^3, kVt/soat kabi o‘lchov birliklaridagi hajmi.

3) Boshqaruv axboroti - xarajat markazi, mahsulot turi, texnologik jarayon, tannarx, ekologik samaradorlik va investitsiya natijalari.

Aynan fizik va monetar axborotning integratsiyasi MFCA konsepsiyasining asosiy afzalliklaridan biridir. ISO 14051 bo‘yicha “material oqimlari fizik birliklarda kuzatiladi va ular bilan bog‘liq xarajatlar ham baholanadi. Bu esa resurs yo‘qotishlarining korxona moliyaviy natijalariga ta’sirini aniqlash imkonini beradi” [6].

Masalan, ishlab chiqarish jarayonida 100 tonna xomashyoning 15 tonnasi chiqindiga aylansa, chiqindining iqtisodiy qiymati faqat uni tashish yoki utilizatsiya qilish xarajatidan iborat emas. Unda xomashyoning qiymati, ushbu xomashyoni qayta ishlash uchun sarflangan energiya, mehnat va ishlab chiqarish ustama xarajatlarining ma’lum qismi ham mujassam bo‘ladi. Shu sababli MFCA yondashuvi chiqindining “yashirin xarajatlari”ni aniqlash imkonini beradi.

Mazkur yondashuv korxona rahbariyatiga qaysi texnologik jarayon resurslarning eng katta yo‘qotilishiga sabab bo‘layotganini, qaysi mahsulot ekologik xarajatlarni ko‘proq shakllantirayotganini va qaysi ekologik investitsiyalar xarajatlarni kamaytirishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari ekologik xarajatlarni korxona xarajatlarining oddiy tarkibiy elementi sifatida emas, balki moliyaviy, fizik va boshqaruv axborotini birlashtiruvchi kompleks iqtisodiy kategoriya sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatdi.

Birinchidan, ekologik xarajatlar faqat ekologik to‘lovlardan iborat emas. Ular ekologik xavflarni oldini olish, monitoring, tozalash, chiqindilarni boshqarish, utilizatsiya, rekultivatsiya, ekologik audit, innovatsiyalar va ekologik majburiyatlarni bajarish bilan bog‘liq xarajatlarni ham qamrab oladi.

Ikkinchidan, ekologik xarajatlarni hisobga olishda ularning iqtisodiy mazmuni asosiy mezon bo‘lishi kerak. Xarajatning “ekologik” ekanligi uni avtomatik ravishda tannarxga yoki davr xarajatlariga kiritish uchun yetarli emas. Xarajatning ishlab chiqarish jarayoni, mahsulot va kelgusidagi iqtisodiy manfaatlar bilan aloqasi aniqlanishi lozim.

Uchinchidan, ekologik xarajatlarning analitik hisobini xarajat turi bilan bir qatorda ekologik faoliyat turi, texnologik jarayon, xarajat markazi, mahsulot turi va fizik resurs oqimlari bo‘yicha tashkil etish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston sharoitida ekologik xarajatlar hisobini takomillashtirishda xalqaro EMA va MFCA yondashuvlaridan foydalanish mumkin. Bunda ularni milliy buxgalteriya hisobi, ekologik qonunchilik va korxonalarning axborot imkoniyatlariga moslashtirish muhimdir.

Muallifning taklifiga ko‘ra, *ekologik xarajatlar - korxonaning ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyati jarayonida atrof-muhitga salbiy ta’sirni oldini olish, kamaytirish, nazorat qilish va bartaraf etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni boshqarish hamda ekologik majburiyatlarni bajarish uchun sarflanadigan, pulda baholanadigan iqtisodiy resurslar bo‘lib, ular moliyaviy natijalarni shakllantirish bilan bir qatorda ekologik va boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta’minlovchi hisob obyektidir.*

Shunday qilib, ekologik xarajatlarni *“ekologik ta’sir → fizik resurs oqimi → puldagi xarajat → tannarx → moliyaviy natija → boshqaruv qarori”* zanjirida aks ettirish korxonada ekologik va iqtisodiy boshqaruvni integratsiyalash uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunш, 754-XII-son, 1992-yil 9-dekabr, amaldagi tahrir. https://lex.uz/ru/docs/-107115

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-fevraldagi “Sanoat korxonalarining atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish harakatlarini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 85-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-8068163.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi hududida chiqindilar, ayrim turdagi xavfli mahsulot va kimyoviy moddalar muomalasi bilan bog‘liq nazoratni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 916-son qarori. https://lex.uz/docs/-7308091.

4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti (UN DESA- United Nations Department of Economic and Social Affairs). https://www.un.org/development/desa/en/about/who-we-are.

5. Buxgalterlarning xalqaro federatsiyasi (IFAC- International Federation of Accountants). https://www.ifac.org/node

6. International Organization for Standardization (ISO). (2011). *ISO 14051:2011 Environmental management - Material flow cost accounting - General framework*. Geneva: ISO. Standart 2025-yilda qayta ko‘rib chiqilib, amaldagi holatda tasdiqlangan. https://www.iso.org/standard/50986.html?utm_

7. IFRS Foundation. IAS 2 Inventories. International Financial Reporting Standards Foundation. https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-2-inventories/

8. IFAC. Extending Environmental Cost Accounting to the Supply Chain. IFAC Knowledge Gateway. Material Flow Cost Accounting and environmental cost management. IFAC - Environmental Cost Accounting and MFCA. https://www.ifac.org/knowledge-gateway/discussion/extending-environmental-cost-accounting-supply-chain

Davlyatov Qahramon Abdumavlyanovich
Toshkent davlat iqtisodiyot
unversiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: qahramon260277@gmail.com
ORCID:0009-0008-3783-4574

OILAVIY TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINI KREDITLASHDA KELAJAKDAGI DAROMADLARDAN TA'MINOT SIFATIDA FOYDALANISH MEXANIZMI

Давлятов Кахрамон Абдумавлянович
независимый исследователь
Ташкентского государственного
экономического университета
E-mail: qahramon260277@gmail.com
ORCID:0009-0008-3783-4574

МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ БУДУЩИХ ДОХОДОВ В КАЧЕСТВЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРИ КРЕДИТОВАНИИ СУБЪЕКТОВ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

Davlyatov Kahramon Abdumavlyanovich
Independent Researcher at Tashkent State
Universityof Economics
E-mail: qahramon260277@gmail.com
ORCID:0009-0008-3783-4574

A MECHANISM FOR USING FUTURE INCOME AS COLLATERAL IN LENDING TO FAMILY ENTREPRENEURSHIP ENTITIES

Annotatsiya: Mazkur maqolada oilaviy tadbirkorlik sub'ektlari loyihalarini bank kreditlari hisobidan moliyalashtirish amaliyotida mavjud muammolar tahlil qilinib, ularni hal etishning zamonaviy mexanizmlari tadqiq etilgan. Xususan, kredit ta'minoti yetarli bo'lmagan, ammo iqtisodiy jihatdan samarali va barqaror pul oqimlarini shakllantirish salohiyatiga ega bo'lgan loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Maqolada oilaviy tadbirkorlik sub'ektlarining kelajakdagi daromadlarini (pul oqimlarini) garov ob'ekti sifatida qabul qilish mexanizmini joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari ishlab chiqilgan hamda uni bank kreditlash amaliyotiga tatbiq etish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari banklar kredit portfeli sifatini oshirish, kredit resurslaridan samarali foydalanish va oilaviy tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: oilaviy tadbirkorlik, bank, kredit, kredit ta'minoti, kredit risk, garov, kelajakdagi daromadlar, pul oqimlari.

Аннотация. В настоящей статье проанализированы существующие проблемы практики финансирования проектов субъектов семейного предпринимательства за счёт банковских кредитов и исследованы современные механизмы их решения. В частности, рассмотрены возможности финансирования проектов, не обладающих достаточным залоговым обеспечением, но имеющих высокий экономический потенциал и способность

генерировать стабильные денежные потоки. Разработаны организационно-экономические основы внедрения механизма принятия будущих доходов (денежных потоков) субъектов семейного предпринимательства в качестве объекта залога, а также предложены рекомендации по его внедрению в практику банковского кредитования. Результаты исследования направлены на повышение качества кредитного портфеля банков, эффективности использования кредитных ресурсов и расширение доступа субъектов семейного предпринимательства к финансовым ресурсам.

Ключевые слова: семейное предпринимательство, банк, кредит, кредитное обеспечение, кредитный риск, залог, будущие доходы, денежные потоки.

Abstract. This article analyzes the existing challenges in financing family entrepreneurship projects through bank loans and examines modern mechanisms for addressing these challenges. In particular, it explores financing opportunities for projects that lack sufficient collateral but demonstrate strong economic viability and the capacity to generate stable future cash flows. The study develops the organizational and economic framework for introducing a mechanism that recognizes the future income (cash flows) of family entrepreneurship entities as collateral and provides practical recommendations for its implementation in banking lending practices. The research findings contribute to improving the quality of banks' loan portfolios, enhancing the efficiency of credit resource utilization, and expanding access to financial resources for family entrepreneurship entities.

Keywords: family entrepreneurship, bank, credit, credit security, credit risk, collateral, future income, cash flows.

Kirish

Mamlakatimizda xususiy mulkni qo‘llab-quvvatlash, aholi bandligini ta’minlash va daromadlarini oshirishda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mazkur sohani moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida tijorat banklari tomonidan imtiyozli va tijorat kreditlari ajratish hajmi izchil oshib bormoqda. Shu bilan birga, oilaviy tadbirkorlik sub’ektlarining aksariyatida likvid garov ta’minotining yetarli emasligi ularning bank kreditlaridan foydalanish imkoniyatlarini cheklamoqda.

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘plab istiqbolli biznes loyihalari iqtisodiy samaradorligi yuqori bo‘lishiga qaramasdan, yetarli garov ta’minoti mavjud emasligi sababli moliyalashtirilmay qolmoqda. Bu holat bank kreditlari orqali tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash samaradorligini pasaytirib, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda aholi daromadlarini oshirish imkoniyatlarini cheklamoqda. Shu bois kredit ta’minotini baholashda an’anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda qarz oluvchining kelajakda shakllanadigan barqaror pul oqimlari va daromadlarini ham inobatga olish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasida kreditlashning **cash-flow lending** va **project finance** kabi yondashuvlari keng qo‘llanilib, ularda kredit qaytarilishining asosiy manbai sifatida loyihaning kelajakdagi pul oqimlari baholanadi. Bu esa yuqori istiqbolga ega, ammo yetarli garov ta’minotiga ega bo‘lmagan tadbirkorlik sub’ektlarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. O‘zbekistonda ham bank tizimida loyihaviy yondashuvlarni joriy etish, xususan, tijorat banklari huzurida "loyihalar fabrikasi" faoliyatini tashkil etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar mazkur mexanizmlarni tatbiq etish uchun muhim zamin yaratmoqda.

Shundan kelib chiqib, oilaviy tadbirkorlik sub’ektlari loyihalarini bank kreditlari hisobidan moliyalashtirishda kelajakdagi daromadlarni garov ob’ekti sifatida qabul qilish mexanizmini ishlab

chiqish, uning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish hamda bank amaliyotiga joriy etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish mazkur tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik sub’ektlarini bank kreditlari orqali moliyalashtirish, kredit ta’minotini baholash hamda kredit riskini boshqarish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan. Biroq so‘nggi yillarda tadqiqotlar an’anaviy garovga asoslangan kreditlashdan (asset-based lending) qarz oluvchining kelajakdagi pul oqimlari va daromadlarini baholashga asoslangan kreditlash (cash-flow lending) modellariga o‘tish tendensiyasi kuchayib borayotganini ko‘rsatmoqda.

Amerikalik iqtisodchilar Allen N. Berger va Gregory F. Udell kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishga bag‘ishlangan tadqiqotlarida kreditlash texnologiyalarining turli modellarini tahlil qilib, kredit qaytarilishini ta’minlashda korxonaning kelajakdagi pul oqimlari muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslab bergan. Mualliflar kredit ajratishda garov bilan bir qatorda qarz oluvchining moliyaviy holati, biznesning barqarorligi va kelajakdagi daromadlarini kompleks baholash zarurligini ta’kidlaydilar.

Thorsten Beck va Asli Demirgüç-Kunt tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda kichik biznes sub’ektlarining asosiy muammolaridan biri tashqi moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi ekanligi qayd etilgan. Ular axborot asimmetriyasini kamaytirish, zamonaviy kreditlash texnologiyalarini joriy etish hamda kredit ta’minotini diversifikatsiya qilish kichik biznesning moliyaviy resurslarga erishish imkoniyatlarini kengaytirishini ilmiy jihatdan asoslaganlar.

Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) ekspertlari tayyorlagan tadqiqotlarda k**ichik va o‘rta biznes sub’ektlarini** kreditlash texnologiyalari tahlil qilinib, kreditlash texnologiyalari, moliyaviy hisobotlarga asoslangan kreditlash va kelajakdagi pul oqimlariga asoslangan kreditlash kabi modellarda kredit qaytarilishining asosiy manbai sifatida kelajakdagi pul oqimlari qaralishi ta’kidlangan. Shu bilan birga, garov ta’minoti kredit risklarini kamaytiruvchi qo‘shimcha vosita sifatida baholanadi.

Loyihaviy moliyalashtirish (Project finance) sohasidagi ilmiy yondashuvlarga ko‘ra, kreditlashda asosiy e’tibor loyihaning kelajakdagi daromadlari va pul oqimlarining barqarorligiga qaratiladi. Bunda kreditning qaytarilishi qarz oluvchining mavjud aktivlariga emas, balki amalga oshirilayotgan loyihaning iqtisodiy samaradorligi va kelajakda shakllanadigan pul oqimlariga bog‘liq bo‘ladi. Bu yondashuv yuqori istiqbolga ega, ammo yetarli garov ta’minotiga ega bo‘lmagan tadbirkorlik sub’ektlarini moliyalashtirishda samarali vosita hisoblanadi.

Oilaviy biznesni bank kreditlari bilan ta’minlashga bag‘ishlangan so‘nggi tadqiqotlar ham banklar kredit berishda faqat garov qiymatini emas, balki qarz oluvchining kelajakdagi daromadlari, biznes modeli va boshqaruv salohiyatini ham baholashga o‘tayotganini ko‘rsatadi. Bu yondashuv, ayniqsa, oilaviy tadbirkorlik sub’ektlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda oilaviy tadbirkorlik sub’ektlarini moliyalashtirish bo‘yicha ilmiy ishlar asosan imtiyozli kreditlar, davlat dasturlari, kredit ajratish amaliyoti va garov ta’minoti masalalariga bag‘ishlangan. Biroq oilaviy tadbirkorlik sub’ektlari loyihalarini moliyalashtirishda kelajakdagi daromadlarni garov ob’ekti sifatida qabul qilishning huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlari yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu bois mazkur maqolada xalqaro tajriba va zamonaviy kreditlash texnologiyalari asosida ushbu mexanizmni O‘zbekiston bank amaliyotiga joriy etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda oilaviy tadbirkorlik sub'ektlari loyihalarini bank kreditlari hisobidan moliyalashtirishda kelajakdagi daromadlarni garov ob'ekti sifatida qabul qilish mexanizmini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, mantiqiy yondashuv, induksiya va deduksiya, umumlashtirish, ilmiy abstraksiya hamda iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Xususan, O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashning amaldagi mexanizmi rivojlangan davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, garov ta'minotining mavjud amaliyoti, kredit qaytarilishiga ta'sir etuvchi omillar hamda kelajakdagi pul oqimlarini baholash mexanizmlari tizimli ravishda tahlil etildi.

Tahlil va natijalar

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlik sub'ektlarini bank kreditlari hisobidan moliyalashtirish hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Davlat tomonidan imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va kafillik mexanizmlarining joriy etilishi natijasida mazkur sohani moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko'lami kengaydi. Biroq amaliyotda kredit ajratish jarayonida asosiy muammolardan biri sifatida yetarli likvid garov ta'minotining mavjud emasligi saqlanib qolmoqda. Natijada iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan ko'plab loyihalar moliyalashtirilmay qolmoqda.

Tijorat banklari amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, kredit berishda asosiy e'tibor mavjud mol-mulk garoviga qaratiladi. Kelajakdagi daromadlar, pul oqimlari va loyihaning iqtisodiy samaradorligi esa aksariyat hollarda yordamchi omil sifatida baholanadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik va o'rta biznes sub'ektlarini moliyalashtirishda an'anaviy garovga asoslangan kreditlashdan tashqari **cash-flow lending** va **project finance** yondashuvlari keng qo'llaniladi. Xususan, AQSh, Kanada va Buyuk Britaniya tijorat banklari kredit ajratishda qarz oluvchining moliyaviy hisobotlari bilan bir qatorda kelajakdagi pul oqimlari, biznes-model, mahsulotga bo'lgan bozor talabi va shartnomaviy daromadlarini kompleks baholaydi. Bunda kreditning qaytarilish manbai sifatida mavjud garov emas, balki loyihani amalga oshirish natijasida shakllanadigan kelajakdagi daromadlar asosiy omil sifatida qaraladi.

Germaniya, Niderlandiya va Fransiya kabi Yevropa davlatlarida ham kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishda cash-flow lending texnologiyalari keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, davlat kafillik fondlari va eksport-kredit agentliklari ishtirokida banklar iqtisodiy samaradorligi yuqori, ammo garov ta'minoti yetarli bo'lmagan loyihalarni moliyalashtirish amaliyotini yo'lga qo'ygan. Bu mamlakatlarda kredit berish to'g'risida qaror qabul qilishda loyihaning kelajakdagi pul oqimlari, investitsiyaning rentabelligi va risklarni boshqarish mexanizmlari muhim mezon hisoblanadi.

Yaponiya va Janubiy Koreyada esa texnologik va innovatsion korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida intellektual mulk ob'ektlari, uzoq muddatli yetkazib berish shartnomalari hamda kelajakdagi tushumlar asosida kreditlash mexanizmlari rivojlangan. Xitoyda so'nggi yillarda inklyuziv moliya siyosati doirasida kichik biznes sub'ektlarini moliyalashtirishda raqamli ma'lumotlar, savdo aylanmasi, elektron to'lovlar tarixi va prognoz qilingan pul oqimlariga asoslangan kredit skoringi keng joriy qilinmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida oilaviy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashda kelajakdagi daromadlarni kredit ta'minotining qo'shimcha ob'ekti sifatida qabul qilish mexanizmi taklif etildi. Ushbu mexanizmga ko'ra, bank kredit ajratishda loyihaning biznes-rejasi, prognoz qilingan pul oqimlari, mahsulotga bo'lgan bozor talabi, sotib oluvchilar bilan tuzilgan shartnomalar, qarz

oluvchining moliyaviy intizomi hamda sohaviy risklarni kompleks baholaydi. Baholash natijalari ijobiy bo‘lgan hollarda kelajakdagi daromadlar kredit ta’minotining bir qismi sifatida e’tirof etiladi.

Taklif etilayotgan mexanizmni amalga oshirish uchun loyihalarni baholashning yagona metodikasini ishlab chiqish, prognoz qilingan pul oqimlarining ishonchliligini baholash mezonlarini belgilash, monitoring tizimini kuchaytirish hamda sug‘urta va kafillik institutlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bilan birga, banklar qoshida tashkil etilayotgan "Loyihalar fabrikasi" faoliyatini ushbu mexanizm bilan integratsiya qilish loyihalar sifatini oshirish va kredit risklarini kamaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kelajakdagi daromadlarni baholashga asoslangan kreditlash mexanizmini joriy etish oilaviy tadbirkorlik sub’ektlarining moliyaviy resurslarga yetish imkoniyatlarini kengaytiradi, iqtisodiy samaradorligi yuqori bo‘lgan loyihalarni moliyalashtirish hajmini oshiradi, bank kredit portfelining sifatini yaxshilaydi hamda mamlakatda oilaviy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mazkur xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, kelajakdagi pul oqimlarini baholashga asoslangan kreditlash mexanizmlari iqtisodiy jihatdan samarali, ammo garov ta’minoti yetarli bo‘lmagan loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu tajribani O‘zbekistonda oilaviy tadbirkorlik sub’ektlarini kreditlash amaliyotiga bosqichma-bosqich tatbiq etish ularning moliyaviy resurslarga yetish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Ushbu mexanizmning joriy etilishi natijasida garov ta’minoti yetarli bo‘lmagan, ammo iqtisodiy jihatdan samarali va barqaror daromad keltirish salohiyatiga ega oilaviy tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga, tijorat banklarining kredit risklarini boshqarish sifati oshadi, kredit portfelining barqarorligi ta’minlanadi hamda mamlakatda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qo‘shimcha moliyaviy imkoniyatlar yaratiladi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda oilaviy tadbirkorlik sub’ektlarini bank kreditlari hisobidan moliyalashtirish hajmi ortib borayotgan bo‘lsa-da, kredit resurslaridan foydalanishda garov ta’minotining yetarli emasligi asosiy cheklovchi omillardan biri bo‘lib qolmoqda. Amaldagi kreditlash tizimida asosiy e’tibor mavjud likvid mol-mulk garoviga qaratilganligi sababli iqtisodiy jihatdan samarali, barqaror pul oqimlarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘lgan ko‘plab loyihalar moliyalashtirilmay qolmoqda.

Xalqaro tajriba tahlili AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Kanada, Janubiy Koreya va Xitoy kabi davlatlarda **cash-flow lending** hamda **project finance** yondashuvlari samarali qo‘llanilayotganini ko‘rsatdi. Mazkur yondashuvlarda kredit ajratishda qarz oluvchining kelajakdagi pul oqimlari, biznes-modeli, bozor salohiyati va loyihaning iqtisodiy samaradorligi asosiy baholash mezonlaridan biri hisoblanadi. Bu esa garov ta’minoti cheklangan, ammo istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatini kengaytiradi.

Tadqiqot davomida oilaviy tadbirkorlik sub’ektlarini kreditlashda kelajakdagi daromadlarni kredit ta’minotining qo‘shimcha ob’ekti sifatida qabul qilish mexanizmi taklif etildi. Taklif etilayotgan mexanizm banklarga kredit risklarini kompleks baholash, istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda kredit portfelining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Oilaviy tadbirkorlik sub’ektlarini kreditlashda kelajakdagi daromadlarni kredit ta’minotining qo‘shimcha ob’ekti sifatida tan olishga oid huquqiy va uslubiy asoslarni takomillashtirish.

2. Tijorat banklari uchun kelajakdagi pul oqimlarini baholashning yagona metodikasi hamda risklarni baholash mezonlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

3. Tijorat banklari qoshida tashkil etilayotgan **«Loyihalar fabrikasi»** faoliyatini taklif etilayotgan mexanizm bilan integratsiya qilish orqali biznes-rejalar va investitsiya loyihalarining sifatini oshirish.

4. Kredit risklarini kamaytirish maqsadida davlat kafilligi, sug‘urta kompaniyalari va kafillik fondlari ishtirokini kengaytirish hamda kelajakdagi daromadlarga asoslangan kreditlash mexanizmlarini ular bilan uyg‘unlashtirish.

5. Kelajakdagi daromadlar monitoringini raqamlashtirish, bank hisobvaraqlari aylanmasi, elektron hisob-fakturalar va soliq ma’lumotlaridan foydalangan holda kredit monitoringi tizimini takomillashtirish.

Taklif etilayotgan mexanizmning amaliyotga joriy etilishi oilaviy tadbirkorlik sub’ektlarining moliyaviy resurslarga yetish imkoniyatlarini kengaytiradi, iqtisodiy samaradorligi yuqori bo‘lgan loyihalarni moliyalashtirish hajmini oshiradi, bank kredit portfelining sifatini yaxshilaydi hamda mamlakatda xususiy sektor va oilaviy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining **«Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»**gi Qonuni. – T.: 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Garov to‘g‘risida»gi Qonuni. – T.: 1998 (o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan).
1. Berger A.N., Udell G.F. *A More Complete Conceptual Framework for SME Finance*. *Journal of Banking & Finance*, 2006.
2. Berger A.N., Udell G.F. *A More Complete Conceptual Framework for Financing of Small and Medium Enterprises*. World Bank Policy Research Working Paper No. 3795, 2005.
3. Berger A.N., Udell G.F. *Small Business Credit Availability and Relationship Lending*. *The Economic Journal*, 2002.
4. IFC. *Access to Finance for SMEs – Lending Technologies*.
5. *What Drives Bank Financing in Family Firms? A Systematic Review and Research Agenda*. *Journal of Family Business Strategy*, 2025.

Abdujaborova Ma’mura Toshmuxamadovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti,
PhD, e-mail: maamura@bk.ru
ORCID: 0009-0009-5880-4961

KORXONA TO‘LOV QOBILIYATI TAHLILINING METODOLOGIYASI

Абдужаборова Маъмура Тошмухамадовна
доцент Ташкентского государственного
экономического университета, PhD,
e-mail: maamura@bk.ru
ORCID: 0009-0009-5880-4961

МЕТОДОЛОГИЯ АНАЛИЗА ПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ

Abdujaborova Ma’mura Toshmuxamadovna
Associate professor of Tashkent State University of
Economics, PhD, e-mail: maamura@bk.ru
ORCID: 0009-0009-5880-4961

METHODOLOGY FOR THE ANALYSIS OF AN ENTERPRISE’S SOLVENCY

Annotatsiya. Maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga muvofiq korxona to‘lov qobiliyatini tahlil qilish masalalari tadqiq etilgan va tahlilni to‘rt bosqichda amalga oshirishni nazarda tutuvchi metodologiya taklif etilgan. Tahlilning birinchi bosqichida ko‘rsatkichlar MHXS 9 va MHXS 16 talablariga muvofiq moslashtiriladi, ikkinchi bosqichida to‘lov qobiliyati operatsion va erkin pul oqimlari asosida baholanadi, uchinchi bosqichida likvidlilik va rentabellikning maqbul nisbati mezoni qo‘llaniladi, to‘rtinchi bosqichida esa, koeffisientlar valyuta kursi va foiz stavkasining keskin o‘zgarishiga nisbatan sinovdan o‘tkaziladi. Metodologiyaning amaliy ahamiyati an’anaviy koeffisientlar aniqlay olmaydigan pul oqimi bilan tasdiqlanmagan likvidlilik o‘sishi, aktivlar sifatining pasayishi va qarz majburiyatlari tarkibidagi o‘zgarishlarni aniqlash imkonini berishi bilan belgilanadi.

Kalit so‘zlar: to‘lov qobiliyati, operatsion pul oqimi, erkin pul oqimi, likvidlilik, rentabellik, kutilayotgan kredit yo‘qotishlari, MHXS 16, stress-test, moliyaviy holat.

Аннотация. В статье исследованы вопросы анализа платежеспособности предприятия в соответствии с требованиями международных стандартов финансовой отчетности и предложена методология проведения анализа в четыре этапа. На первом этапе показатели корректируются согласно требованиям МСФО 9 и МСФО 16, на втором платежеспособность оценивается на основе операционного и свободного денежного потока, на третьем применяется критерий оптимального соотношения ликвидности и рентабельности, на четвертом коэффициенты проверяются на устойчивость к шокам валютного курса и процентной ставки. Практическая значимость методологии определяется тем, что она позволяет выявить не подтвержденный денежным потоком рост ликвидности, снижение качества активов и изменения в структуре долговых обязательств, не обнаруживаемые традиционными коэффициентами.

Ключевые слова: платежеспособность, операционный денежный поток, свободный денежный поток, ликвидность, рентабельность, ожидаемые кредитные убытки, МСФО 16, стресс-тест, финансовое состояние.

Abstract. The article examines enterprise solvency analysis in line with the requirements of International Financial Reporting Standards and proposes a four-stage analytical methodology. At the first stage, indicators are adjusted under IFRS 9 and IFRS 16; at the second, solvency is assessed using operating and free cash flows; at the third, a criterion for the optimal liquidity–profitability ratio is applied; at the fourth, the ratios are tested against exchange-rate and interest-rate shocks. The practical significance of the methodology lies in its ability to reveal liquidity growth unsupported by cash flow, deteriorating asset quality and changes in the structure of debt obligations that traditional ratios fail to detect.

Key words: solvency, operating cash flow, free cash flow, liquidity, profitability, expected credit losses, IFRS 16, stress test, financial condition.

KIRISH

To‘lov qobiliyati korxona moliyaviy holatining eng muhim tavsiflaridan biri bo‘lib, uning majburiyatlarini belgilangan muddatlarda va to‘liq hajmda bajara olish imkoniyatini ifodalaydi. Kreditorlar, investorlar va kontragentlarning qarorlari aynan ushbu tavsif to‘g‘risidagi axborotga tayanadi, to‘lov qobiliyatining noto‘g‘ri baholanishi esa, kredit resurslarining samarasiz taqsimlanishiga va to‘lovga qobiliyatsizlik belgilarining kech aniqlanishiga olib keladi. Valyuta kursi va foiz stavkalarining tebranishi, korxonalar faoliyatidagi tarkibiy o‘zgarishlar mazkur muammoning dolzarbligini yanada oshiradi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tilishi [1] tahlilchilarga pul oqimlari, kutilayotgan kredit yo‘qotishlari, ijara majburiyatlari hamda moliyaviy risklarga sezgirlik to‘g‘risida keng ko‘lamli axborotni taqdim etdi. Shunga qaramay, to‘lov qobiliyatini tahlil qilish amaliyotida asosan balans moddalaridan bevosita hisoblanadigan va faqat hisobot sanasidagi holatni aks ettiruvchi koeffisientlar qo‘llanilmoqda, mazkur axborot imkoniyatlari esa, tahlil jarayoniga yetarli darajada jalb etilmayapti. Natijada to‘lov qobiliyati to‘g‘risidagi xulosalar korxonaning haqiqiy moliyaviy holatini to‘liq aks ettirmasligi mumkin.

Mazkur maqolada pul oqimlari tahlili, likvidlilik va rentabellik muvozanatini baholash, ko‘rsatkichlarni MHXS talablariga muvofiq qayta hisoblash hamda stress-test usullarini yagona izchil tartibga birlashtiruvchi to‘lov qobiliyati tahlili metodologiyasi taklif etiladi va uning amaliy qo‘llanish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda to‘lov qobiliyatini baholashning an’anaviy yondashuvi balans aktivlarini likvidlilik darajasi, majburiyatlarni esa, qoplash muddati bo‘yicha guruhlash hamda hisoblangan likvidlilik koeffisientlarini me’yoriy qiymatlar bilan solishtirishga asoslanadi. A.D. Sheremet va Ye.V. Negashev tahlilni ketma-ket bloklar sifatida tashkil etishni taklif qiladi, biroq bloklar xulosalarini yagona bahoga birlashtirish qoidalari aniq belgilanmagan [19]. Muallifning oldingi ishlarida to‘lov qobiliyati [3], pul oqimlari [2], o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’minlanganlik [5] va bankrotlik ehtimolini bashoratlash modellari [4] alohida yo‘nalishlar sifatida o‘rganilgan.

Pul oqimi ko‘rsatkichlari asosida to‘lovga qobiliyatsizlikni oldindan aniqlash imkoniyatlari xorijiy empirik tadqiqotlarda keng muhokama qilingan. W. Beaver pul oqimining jami qarzga nisbati korxona inqirozini oldindan aniqlovchi eng kuchli ko‘rsatkichlardan biri ekanini ko‘rsatgan [7], E. Altman esa, ko‘p omilli diskriminant model orqali bankrotlik ehtimolini baholashga asos solgan [6]. Shu bilan birga, C. Casey va N. Bartczak operatsion pul oqimi ma’lumotlari hisoblash usulidagi

koeffisientlarga nisbatan qo‘shimcha prognoz kuchini har doim ham bermasligini aniqlagan [8]. Ushbu natija pul oqimi ko‘rsatkichlarini balans koeffisientlari o‘rniga emas, ular bilan birgalikda, qiyosiy tarzda qo‘llash zarurligini asoslaydi.

Likvidlilik va rentabellik o‘rtasidagi ziddiyat aylanma kapitalni boshqarish nazariyasining markaziy masalalaridan biri hisoblanadi [13]. H. Shin va L. Soenen AQSh korxonalarida [12], M. Deloof Belgiya korxonalarida [9], I. Lazaridis va D. Tryfonidis Afina birjasi kompaniyalarida [11] pul aylanish sikli qisqarishi bilan rentabellik o‘sishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlagan; A. Eljelly esa, rivojlanayotgan bozor misolida likvidlilik va rentabellikning teskari bog‘liqligini tasdiqlagan [10]. Ammo bu tadqiqotlar tanlanma darajasidagi regressiya natijalarini beradi va muayyan korxona uchun likvidlilik qaysi nuqtadan boshlab qimmatga tushishini ko‘rsatuvchi amaliy mezonni taklif qilmaydi.

MHXS 9 kutilayotgan kredit yo‘qotishlariga asoslangan oldinga qaratilgan qadrsizlanish modelini [14], MHXS 16 esa, operatsion ijarani balansda tan olishni [15] joriy etdi. S. Penman va K. Subramanyam hisobot ma’lumotlarini tahlil maqsadlarida tuzatishlar kiritib qayta hisoblash zarurligini ta’kidlaydi [16; 17]. Stress-test usuli asosan bank nazorati amaliyotida rivojlangan [18], nomoliyaviy korxonalar tahlilida esa, mahalliy amaliyotda deyarli qo‘llanilmaydi. Biroq pul oqimlari tahlili, likvidlilik va rentabellik muvozanatini baholash, MHXS talablariga muvofiq ko‘rsatkichlarni qayta hisoblash va stress-test usullarini to‘lov qobiliyati tahlilining yagona tizimiga birlashtiruvchi metodologiya hozirga qadar ishlab chiqilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, koeffisientlar usuli, gorizontal va vertikal tahlil, zanjirli o‘rniga qo‘yish usulidagi omilli tahlil, shartli optimallashtirish, ssenariy tahlili (stress-test) hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

To‘lov qobiliyatini tahlil qilishning amaldagi yondashuvi bir qator metodologik kamchiliklarga ega. Birinchidan, joriy likvidlilik koeffisienti muayyan hisobot sanasidagi holatni qayd etuvchi, vaqt bo‘yicha o‘zgarishlarni hisobga olmaydigan ko‘rsatkich bo‘lib, majburiyatlarni qoplashning asosiy manbai hisoblangan operatsion pul oqimlarining yetarliligini aks ettirmaydi. Shuningdek, hisobot sanasi oldidan majburiyatlarni qayta tasniflash yoki qisqa muddatli qarzlarni muddatidan oldin qoplash hisobiga ushbu koeffisient qiymatini sun’iy ravishda oshirish mumkin. Ikkinchidan, likvidlilik va rentabellik ko‘rsatkichlari bir-biridan ajratilgan holda talqin qilinadi, holbuki ulardan birining oshirilishi ikkinchisining pasayishiga olib keladi va ularning maqbul nisbatini belgilovchi mezon mavjud emas. Uchinchidan, tahlilda aktivlar va majburiyatlar sifati hisobga olinmaydi: debitorlik qarzlari kutilayotgan kredit yo‘qotishlari chegirilmagan holda to‘liq qiymatda olinadi, MHXS 16 bo‘yicha tan olingan ijara majburiyatlari esa, qarz yukini baholashda inobatga olinmaydi. Bundan tashqari, koeffisientlarning valyuta kursi va foiz stavkasi o‘zgarishiga nisbatan sezgirligi baholanmaydi.

Ushbu kamchiliklarni ketma-ket bartaraf etish maqsadida to‘rt bosqichdan iborat to‘lov qobiliyati tahlili metodologiyasi taklif etiladi (1-jadval). Bosqichlar ketma-ketligi mantiqan asoslangan: avval tahlil bazasi MHXS talablariga keltiriladi, so‘ngra majburiyatlarni qoplashning real manbai baholanadi, keyin likvidlilik darajasining rentabellikka ta’siri aniqlanadi va nihoyat olingan natijalarning tashqi omillar keskin o‘zgarishiga barqarorligi tekshiriladi. Har bir bosqich natijasi keyingisi uchun boshlang‘ich axborot vazifasini bajaradi.

1-jadval

Korxona to‘lov qobiliyatini tahlil qilish metodologiyasining bosqichlari

Bosqich	Maqsadi	Asosiy ko‘rsatkichlar	Baholash mezoni
1. MHXS 9 va MHXS 16 bo‘yicha moslashtirish	Aktivlar va majburiyatlar sifatini tahlil bazasiga kiritish	Moslashtirilgan K_{jl}; sof qarz / EBITDA; foizlarni qoplash koeffisienti	An’anaviy va moslashtirilgan qiymat o‘rtasidagi farq
2. Pul oqimlari asosida to‘lov qobiliyati	Majburiyatlarni qoplashning real manbaini baholash	K_{opo}, EPO, T, K_{mt}; “$K_{jl} – K_{opo}$” matritsasi	$K_{opo} \geq 1$; EPO > 0; $T \leq M_k$; $K_{mt} \geq 1$
3. Likvidlilik–rentabellik muvozanati	Ortiqcha aylanma mablag‘ va uning rentabellikka ta’sirini aniqlash	ROA, JA_{ort}, $dROA/dK_{jl}$	$K_{jl}^{me'yor} \cdot QMM \leq JA \leq k_{me'yor} \cdot ST$
4. Makroiqtisodiy stress-test	Koeffisientlarning keskin o‘zgarishlarga sezgirligini aniqlash	Stress sharoitidagi K_{jl}, sof qarz / EBITDA, foizlarni qoplash	Me’yoriy chegaradan chiqish

Metodologiyaning birinchi bosqichida joriy aktivlar debitorlik qarzlari bo‘yicha kutilayotgan kredit yo‘qotishlari (ECL) rezerviga kamaytiriladi, qarz yukiga esa, MHXS 16 bo‘yicha tan olingan ijara majburiyatlari (IM) qo‘shiladi:

$$K_{jl}^{m} = (JA_{ya} – ECL) / QMM$$

$$SQ / EBITDA = (KQ + IM – PM) / EBITDA$$

$$FQK = OF / (F + F_{ij})$$

bu yerda: JA_{ya} – joriy aktivlarning yalpi qiymati; ECL – kutilayotgan kredit yo‘qotishlari rezervi; QMM – qisqa muddatli majburiyatlar; SQ – sof moliyaviy qarz; KQ – kredit va qarzlar; PM – pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari; FQK – foizlarni qoplash koeffisienti; OF – operatsion foyda; F, F_{ij} – kreditlar va ijara majburiyatlari bo‘yicha foiz xarajatlari. ECL miqdori hisobot izohlaridagi muddatlar bo‘yicha guruhlangan zaxira matritsasidan olinadi.

Ikkinchi bosqichda to‘lov qobiliyati operatsion va erkin pul oqimlari asosida hisoblanadigan to‘rtta o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkich orqali baholanadi:

$$K_{opo} = OFSPO / QMM_{o'rt}, \quad QMM_{o'rt} = (QMM_{bosh} + QMM_{oxir}) / 2$$

$$EPO = OFSPO – KX$$

$$T = (KQ – PM) / EPO$$

$$K_{mt} = (OFSPO + F_t + S_t) / (Q_a + F_t + D_t + S_t)$$

bu yerda: OFSPO – operatsion faoliyatdan sof pul oqimi; KX – asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni xarid qilishga sarflangan mablag‘lar; EPO – erkin pul oqimi; T – sof moliyaviy qarzni erkin pul oqimi hisobidan qoplash muddati, yil; F_t, S_t, D_t – to‘langan foizlar, foyda solig‘i va dividendlar; Q_a – kreditlarning asosiy summasi bo‘yicha to‘lovlar. $K_{opo} \geq 1$ operatsion pul oqimi qisqa muddatli majburiyatlarni to‘liq qoplashini, EPO ≤ 0 esa, investitsiyalar va qarzni qoplash tashqi manbalar hisobiga amalga oshirilishini bildiradi.

T ko‘rsatkichi kreditlarning qarz summalari bo‘yicha tortilgan qolgan o‘rtacha muddati (M_k) bilan solishtiriladi; EPO ≤ 0 bo‘lgan yillarda u hisoblanmaydi. Balans va pul oqimi baholarini

qiyoslash uchun K_{jl} va K_{opo} o‘zgarish yo‘nalishlarini birlashtiruvchi dinamik matritsa qo‘llaniladi (2-jadval).

2-jadval

“K_{jl} – K_{opo}” dinamik matritsasi asosida to‘lov qobiliyati holatini tahlil qilish

	K_{opo} o‘smoqda	**K_{opo} pasaymoqda**
K_{jl} o‘smoqda	**Ijobiy o‘zgarish:** balans va pul oqimi bahosi bir yo‘nalishda yaxshilanadi	**Pul oqimi bilan tasdiqlanmagan ijobiy o‘zgarish:** balans bahosi yaxshilanadi, real pul oqimi qisqaradi; zaxira va debitorlik o‘sishini tekshirish zarur
K_{jl} pasaymoqda	**Balansda aks etmagan ijobiy o‘zgarish:** pul oqimi o‘sishi balans koeffisientida aks etmaydi	**Salbiy o‘zgarish:** ikkala baho pasayadi, to‘lovga qobiliyatsizlik xavfi ortadi

Uchinchi bosqichda likvidlilik va rentabellik o‘rtasidagi bog‘liqlik baholanadi. Mazkur bog‘liqlik ikki teskari zanjir orqali namoyon bo‘ladi: likvidlilikni oshirish joriy aktivlar va aktivlar jamini ko‘paytirib, aylanuvchanlik orqali aktivlar rentabelligini (ROA = ROS × AT) pasaytiradi; rentabellikka intilish esa, pul aylanish sikli va pul mablag‘lari zaxirasini kamaytirib, to‘lovga qobiliyatsizlik xavfini oshiradi. Shu sababli mezon ikki tomonlama cheklovli optimallashtirish masalasi sifatida ifodalanadi:

$$\mathbf{ROA = SF / (UMA + JA) \rightarrow max,\ \ K_{jl}^{me'yor} \cdot QMM \le JA \le k_{me'yor} \cdot ST}$$

bu yerda: SF – sof foyda; UMA – uzoq muddatli aktivlar; ST – sotishdan tushum; $k_{me'yor}$ – joriy aktivlarning tushumga me’yoriy nisbati (bazis yil darajasi yoki tarmoq medianasi). Quyi chegara likvidlilik talabini, yuqori chegara aylanuvchanlik talabini ifodalaydi. JA = K_{jl} · QMM almashtirishidan so‘ng aktivlar rentabelligining joriy likvidlilik bo‘yicha hosilasi quyidagicha ifodalanadi:

$$\mathbf{dROA / dK_{jl} = – SF \cdot QMM / (UMA + K_{jl} \cdot QMM)^2 < 0}$$

Hosila manfiy bo‘lgani uchun ROA joriy likvidlilik bo‘yicha qat’iy kamayuvchi funksiya bo‘lib, ruxsat etilgan oraliqdagi maksimumga quyi chegarada erishiladi. Hosilaning mutlaq qiymati joriy likvidlilik koeffisienti me’yordan bir birlikka oshganda aktivlar rentabelligining qanchaga pasayishini ko‘rsatadi. Aylanuvchanlik chegarasidan ortiq joriy aktivlar va ular tufayli yo‘qotilgan rentabellik quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathbf{JA_{ort} = JA – k_{me'yor} \cdot ST}$$

$$\mathbf{\Delta ROA = SF / (UMA + k_{me'yor} \cdot ST) – SF / (UMA + JA)}$$

bu yerda: JA_{ort} – aylanuvchanlik chegarasidan ortiq, foyda keltirmayotgan joriy aktivlar; ΔROA – ortiqcha joriy aktivlar tufayli yo‘qotilgan aktivlar rentabelligi. Ko‘rsatkichning manfiy qiymati joriy aktivlarning likvidlilik talabiga nisbatan yetishmasligini bildiradi.

To‘rtinchi bosqichda moslashtirilgan koeffisientlar makroiqtisodiy omillarning keskin o‘zgarishi sharoitida qayta hisoblanadi. Stress parametrlari subyektiv tanlanmaydi, balki korxonaning MHXS 7 talabiga ko‘ra oshkor etgan sezgirlik tahlilidan olinadi:

$$SQ_s = SQ + \delta \cdot KQ_{\$}, \quad F_s = F + \Delta r \cdot KQ_{suz}$$

bu yerda: δ – AQSh dollari kursining nisbiy o‘zgarishi; $KQ_{\$}$ – dollardagi kreditlar; Δr – foiz stavkasining o‘zgarishi; KQ_{suz} – suzuvchi stavkali kreditlar. Valyutadagi joriy aktiv va majburiyatlar ham shu kurs bo‘yicha qayta baholanadi.

Metodologiya “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ (keyingi o‘rinlarda – O‘zMET)ning 2021–2025 yillardagi moliyaviy hisobotlari [20] ma’lumotlari asosida amaliy sinovdan o‘tkazildi. Birinchi va to‘rtinchi bosqichlar natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

O‘zMET AJ to‘lov qobiliyati koeffisientlarining metodologiya bosqichlari bo‘yicha tahlili[1]

Ko‘rsatkichlar	2024 yil		2025 yil		
	an’anaviy	moslashtirilgan	an’anaviy	moslashtirilgan	stress
Debitorlik qarzlari bo‘yicha rezerv ulushi, %	×	29,9	×	23,5	23,5
Ijara majburiyatlarining jami majburiyatlardagi ulushi, %	×	91,3	×	–	–
Joriy likvidlilik koeffisienti	1,891	1,630	0,927	0,794	0,772
Tezkor likvidlilik koeffisienti	1,796	1,539	0,865	0,732	0,712
Sof qarzning EBITDAga nisbati	0,95	12,20	7,34	7,34	8,06
Foizlarni qoplash koeffisienti	30,30	2,42	3,54	3,54	1,54

3-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, ko‘rsatkichlarni MHXS talablariga muvofiq qayta hisoblash to‘lov qobiliyati bahosini sezilarli pasaytiradi: 2025 yilda rezerv hisobga olinganda joriy likvidlilik 0,927 dan 0,794 ga tushgan, 2024 yilda ijara majburiyatlari hisobga olinganda sof qarzning EBITDAga nisbati 0,95 dan 12,20 ga oshgan. Stress ssenariysida foizlarni qoplash koeffisienti 1,54 gacha pasayadi, bunga qarzning asosiy qismi AQSh dollarida va suzuvchi stavkada jalb qilingani sabab bo‘lgan. Shu sababli qarz portfelining valyuta tarkibini diversifikatsiya qilish va kredit shartnomalarida belgilangan moliyaviy shartlar bajarilishini muntazam nazorat qilish zarur.

Ikkinchi bosqich bo‘yicha tahlil natijalari an’anaviy ko‘rsatkichlar bilan qiyosan 4-jadvalda keltirilgan.

[1] O‘Zmet AJ ning 2024–2025 yillardagi konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

4-jadval

O‘zMET AJ to‘lov qobiliyatining pul oqimlari asosidagi tahlili, mlrd so‘m[2]

Ko‘rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
Joriy aktivlar	3 789,1	3 598,1	4 700,4	2 146,2	1 708,2
Qisqa muddatli majburiyatlar	7 959,9	13 868,7	20 334,2	1 316,7	2 152,1
Operatsion faoliyatdan sof pul oqimi	655,7	1 580,0	403,6	2 484,1	1 208,8
Kapital xarajatlar	856,5	1 221,7	857,6	2 535,2	3 960,0
Sof moliyaviy qarz	2 776,8	3 397,4	4 166,3	6 256,1	8 489,3
Joriy likvidlilik koeffisienti	0,48	0,26	0,23	1,63	0,79
Operatsion pul oqimi asosidagi to‘lov qobiliyati koeffisienti	0,10	0,14	0,02	0,23	0,70
Erkin pul oqimi	–200,8	358,2	–454,0	–51,0	–2 751,2
Qarzni qoplash muddati , yil	×	9,5	×	×	×
Majburiy to‘lovlarning pul oqimi bilan qoplanish koeffisienti	1,72	1,91	1,07	1,75	2,03
K_{mt} (ijara to‘lovlari hisobga olinganda)	–	1,37	1,01	1,03	–
Matritsa bo‘yicha holat (oldingi yilga nisbatan)	–	Balansda aks etmagan ijobiy o‘zgarish	Salbiy o‘zgarish	Ijobiy o‘zgarish	Balansda aks etmagan ijobiy o‘zgarish

4-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, tahlil davrida operatsion pul oqimi qisqa muddatli majburiyatlarni to‘liq qoplamagan, erkin pul oqimi esa, besh yilning to‘rttasida manfiy bo‘lgan. Bunga investitsiya dasturining jalb qilingan kreditlar hisobidan moliyalashtirilishi sabab bo‘lgan: 2025 yilda kapital xarajatlar operatsion pul oqimidan 3,3 baravar ko‘p bo‘lgan. 2024 yilda joriy likvidlilik koeffisientining 1,63 gacha oshishi esa, asosan ijara majburiyatlarining alohida moddaga qayta tasniflanishi natijasidir (tuzatilgan qiymati 0,33, 5-jadval). Shu sababli kapital xarajatlar hajmini operatsion pul oqimi va imtiyozli moliyalashtirish imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirish lozim.

Uchinchi bosqich aktiv tarkibi bir-biridan keskin farq qiluvchi ikki korxona misolida qo‘llanildi (5-jadval).

[2]O‘Zmet AJ ning 2021–2025 yillardagi konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

5-jadval

Likvidlilik va rentabellik bog‘liqligining tarmoqlar kesimidagi qiyosiy tahlili[3]

Ko‘rsatkich	“O‘zbekiston shampani” AJ		O‘zMET AJ	
	2023	**2024**	**2023**	**2024**
Joriy aktivlarning aktivlar jamidagi ulushi, %	95,5	94,0	6,9	2,7
Joriy aktivlarning tushumga nisbati (k)	0,560	0,784	0,153	0,075
Joriy likvidlilik (K_{jl})	1,14	1,08	0,23	1,63 (0,33*)
Pul aylanish sikli, kun	121	108	–106	4
Sotish rentabelligi (ROS), %	2,45	2,22	–29,91	4,02
Aktivlar aylanuvchanligi (AT), marta	1,71	1,20	0,45	0,36
Aktivlar rentabelligi (ROA), %	4,18	2,66	–13,40	1,44
ROA o‘zgarishi: aylanuvchanlik omili, f.p.	×	–1,25	×	+2,71
ROA o‘zgarishi: ROS omili, f.p.	×	–0,28	×	+12,13
Aylanuvchanlik chegarasi ($k_{me'yor}$ · ST), mlrd so‘m	×	109,9	×	4 385,0
Ortiqcha joriy aktivlar (JA_{ort}), mlrd so‘m	×	44,2	×	–2 238,8
Yo‘qotilgan rentabellik (ΔROA), f.p.	×	0,98	×	–
K_{jl} 0,1 ga oshganda ROA o‘zgarishi, f.p.	×	–0,231	×	–0,002

5-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, aylanma kapital sig‘imli “O‘zbekiston shampani” AJda zaxiralar va debitorlik qarzlari aylanishining sekinlashuvi natijasida 44,2 mlrd so‘m ortiqcha joriy aktiv yuzaga kelib, aktivlar rentabelligi 0,98 foiz punktga pasaygan, asosiy kapital sig‘imli O‘zMETda esa, joriy aktivlar likvidlilik talabiga nisbatan yetishmaydi. Umuman olganda, metodologiya an’anaviy ko‘rsatkichlar ijobiy baholagan holatda ham qarz yuki kamaymaganini, balki uning tarkibi o‘zgarganini va to‘lov qobiliyati valyuta kursi hamda foiz stavkasi o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lib qolganini aniqladi. Bu xulosa auditorning kredit shartnomasida belgilangan moliyaviy shartlar bajarilmagani to‘g‘risidagi bahosi bilan mos keladi. Shu sababli aylanma kapital sig‘imli korxonalarda aylanma mablag‘lar aylanishini tezlashtirish, asosiy kapital sig‘imli korxonalarda esa, qisqa muddatli majburiyatlarni uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari bilan almashtirish va investitsiya dasturini operatsion pul oqimi imkoniyatlariga muvofiqlashtirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi.

1. Ko‘rsatkichlarni MHXS 9 va MHXS 16 talablariga muvofiq qayta hisoblash aktivlar va majburiyatlar sifatini tahlilga kiritish imkonini beradi. Kutilayotgan kredit yo‘qotishlari va ijara

[3]O‘Zmet AJ va “O‘zbekiston shampani” AJ ning 2024–2025 yillardagi konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

majburiyatlarining hisobga olinishi likvidlilik va qarz yuki koʻrsatkichlarini sezilarli oʻzgartiradi hamda toʻlov qobiliyati toʻgʻrisidagi xulosaning ishonchliligini oshiradi.

2. Operatsion va erkin pul oqimlari asosida hisoblanadigan koʻrsatkichlar majburiyatlarni qoplashning real manbaini baholaydi. Ularni joriy likvidlilik koeffisienti dinamikasi bilan birgalikda tahlil qilish balans koʻrsatkichlari oʻsishining pul oqimi bilan tasdiqlanganligini aniqlash imkonini beradi.

3. Aktivlar rentabelligini likvidlilik va aktivlar aylanuvchanligining me'yoriy talablari bilan bogʻliq holda baholash aylanma kapitaldagi ortiqcha mablagʻlarni va ularning rentabellikka ta'sirini miqdoran aniqlash imkonini beradi.

4. Moliyaviy hisobotda valyuta va foiz xavflari boʻyicha oshkor etilgan ma'lumotlar asosida oʻtkaziladigan stress-test valyuta kursi va foiz stavkasi oʻzgarishining toʻlov qobiliyati koʻrsatkichlariga ta'sirini baholaydi. Bu qarz portfelining valyuta va foiz xavfiga ta'sirchanligini oldindan aniqlash imkonini beradi.

5. Taklif etilgan metodologiyadan korxonalar rahbariyati, tijorat banklari va auditorlik tashkilotlari toʻlov qobiliyatini baholash, kredit qarorlarini asoslash hamda moliyaviy sogʻlomlashtirish choralarini belgilashda foydalanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga oʻtish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi PQ-4611-son qarori. https://www.lex.uz
2. Abdujaborova M.T. Pul oqimlari tahlili // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil.– 2023. – №4. – 93–97 b.
3. Abdujaborova M.T. Toʻlovga qobiliyatlilik tahlili // Logistika va iqtisodiyot. – 2022. – №2.
4. Abdujaborova M.T. Xoʻjalik yurituvchi sub'ektlarning toʻlovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) ehtimolini bashoratlash modellari tahlili // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – №2. – 86–95 b.
5. Abdujaborova M.T. Xoʻjalik yurituvchi sub'ektlarning oʻz aylanma mablagʻlari bilan ta'minlanganligi tahlili // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar.– 2022. – Maxsus son. – 141–146 b.
6. Altman E.I. Financial ratios, discriminant analysis and the prediction of corporate bankruptcy // The Journal of Finance. – 1968. – Vol. 23, No. 4. – P. 589–609.
7. Beaver W.H. Financial ratios as predictors of failure // Journal of Accounting Research. – 1966. – Vol. 4. – P. 71–111.
8. Casey C., Bartczak N. Using operating cash flow data to predict financial distress: some extensions // Journal of Accounting Research. – 1985. – Vol. 23, No. 1. – P. 384–401.
9. Deloof M. Does working capital management affect profitability of Belgian firms? // Journal of Business Finance & Accounting. – 2003. – Vol. 30, No. 3–4. – P. 573–588.
10. Eljelly A.M.A. Liquidity – profitability tradeoff: an empirical investigation in an emerging market // International Journal of Commerce and Management. – 2004. – Vol. 14, No. 2. – P. 48–61.
11. Lazaridis I., Tryfonidis D. Relationship between working capital management and profitability of listed companies in the Athens Stock Exchange // Journal of Financial Management and Analysis. – 2006. – Vol. 19, No. 1. – P. 26–35.
12. Shin H.H., Soenen L. Efficiency of working capital management and corporate profitability // Financial Practice and Education. – 1998. – Vol. 8, No. 2. – P. 37–45.
13. Smith K.V. Profitability versus liquidity tradeoffs in working capital management // Readings on the Management of Working Capital. – St. Paul: West Publishing, 1980.

14. IASB. IFRS 9 Financial Instruments. – London: IFRS Foundation, 2014.
15. IASB. IFRS 16 Leases. – London: IFRS Foundation, 2016.
16. Penman S.H. Financial Statement Analysis and Security Valuation. – 5th ed. – New York: McGraw-Hill/Irwin, 2013.
17. Subramanyam K.R. Financial Statement Analysis. – 11th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2014.
18. Basel Committee on Banking Supervision. Stress testing principles. – Basel: Bank for International Settlements, 2018.
19. Шеремет А.Д., Негашев Е.В. Методика финансового анализа деятельности коммерческих организаций. – М.: НИЦ ИНФРА-М, 2013. – 208 с.
20. “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ MHXS asosida tuzilgan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar va mustaqil auditor xulosalari, 2021–2025 yillar.
21. “O‘zbekiston shampani” AJ moliyaviy hisobotlari, 2021–2025 yillar.

Xasanova Lola Mamasharifovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
ORCID ID: 0009-0008-5925-9072

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Хасанова Лола Мамашарифовна
Независимый исследователь Ташкентского государственного экономического университета
ORCID ID: 0009-0008-5925-9072

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА КРЕДИТОВАНИЯ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА КОММЕРЧЕСКИМИ БАНКАМИ

Kasanova Lola Mamasharifovna
Independent researcher at Tashkent State University of Economics
ORCID ID: 0009-0008-5925-9072

IMPROVING THE COMMERCIAL BANK LENDING MECHANISM FOR SMALL BUSINESS ENTITIES

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmining ariza qabul qilishdan boshlab kreditni qaytarishgacha bo‘lgan bosqichlari tahlil qilinadi. Axborot nomutanosibligi, garov ta’minoti, kredit qiymati va monitoring xarajatlari bilan bog‘liq cheklovlarni kamaytirish uchun pul oqimiga asoslangan baholash, muqobil ma’lumotlar, portfel kafolati, riskka mos narxlash va erta ogohlantirish tizimidan iborat takomillashtirilgan mexanizm taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, kreditlash mexanizmi, pul oqimi, kredit skoringi, kredit kafolati, riskka mos narxlash, erta ogohlantirish

Аннотация: В статье анализируются этапы механизма кредитования субъектов малого бизнеса коммерческими банками — от приема заявки до полного погашения кредита. Для снижения ограничений, связанных с информационной асимметрией, залогом, стоимостью кредита и расходами на мониторинг, предложен усовершенствованный механизм, объединяющий оценку денежных потоков, альтернативные данные, портфельные гарантии, риск-ориентированное ценообразование и систему раннего предупреждения.

Ключевые слова: малый бизнес, механизм кредитования, денежный поток, кредитный скоринг, кредитная гарантия, риск-ориентированная ставка

Abstract: The article analyses the commercial bank lending mechanism for small businesses from application intake to final repayment. To reduce constraints related to information asymmetry, collateral, borrowing cost, and monitoring expense, it proposes an improved mechanism combining

cash-flow assessment, alternative data, portfolio guarantees, risk-based pricing, and an early-warning system.

Keywords: small business, lending mechanism, cash flow, credit scoring, credit guarantee, risk-based pricing, early warning

Kirish.

Kichik biznesning kreditga ehtiyoji odatda aylanma mablag‘, uskuna xaridi, ishlab chiqarishni kengaytirish va mavsumiy xarajatlarni moliyalashtirish bilan bog‘liq. Bank nuqtayi nazaridan esa kichik kreditlarning tahlil va monitoring xarajati kredit summasiga nisbatan yuqori, moliyaviy hisobotlar sifati turlicha va likvid garov etarli bo‘lmasligi mumkin. Natijada iqtisodiy jihatdan istiqbolli loyiha faqat hujjatlar to‘plami yoki garov qiymati talabga mos kelmagani uchun moliyalashtirilmasligi ehtimoli paydo bo‘ladi. Kreditlash mexanizmini takomillashtirishning vazifasi kredit intizomini susaytirish emas, balki qaror uchun axborotni yaxshilash va riskni to‘g‘ri taqsimlashdir.

O‘zbekistonda kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlari hamda aholiga tadbirkorlik maqsadlari uchun 2024 yilda 538 538 ta kredit ajratilib, ularning jami summasi 92,4 trillion so‘mni tashkil etgan [2]. Shundan yuridik shaxslarga 68,9 trillion so‘m, yakka tartibdagi tadbirkorlarga 17,2 trillion so‘m va aholiga tadbirkorlik faoliyati uchun 6,3 trillion so‘m yo‘naltirilgan. Ushbu hajm kreditlashning iqtisodiy ahamiyatini ko‘rsatadi, biroq ajratilgan kredit soni va summasi mexanizmning sifatini to‘liq ifodalamaydi. Qamrov, qo‘shimcha yaratilgan savdo va ish o‘rni, qaytish sifati hamda birinchi marta kredit olgan korxonalar ulushi ham baholanishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Kichik biznes kredit bozoridagi asosiy nazariy muammo axborot nomutanosibligidir. Korxona o‘z faoliyati, buyurtmalari va boshqaruv qobiliyati haqida bankdan ko‘proq ma’lumotga ega. Bank ushbu tafovutni yuqori garov talabi, qisqa muddat, qo‘shimcha hujjat va konservativ limit bilan qoplashga harakat qiladi. Jahon banki kredit axboroti tizimi, ko‘char mulk garovi reyestri, samarali undiruv va qisman kredit kafolatlarini kichik biznes moliyasining tayanch infratuzilmasi sifatida ko‘rsatadi [5]. Bu vositalar riskni yo‘q qilmaydi, ammo uni o‘lchash va narxlash imkonini yaxshilaydi.

IFCning raqamli davrda kichik biznes bankchiligi bo‘yicha qo‘llanmasida tranzaksiya ma’lumotlari, elektron savdo, soliq va to‘lov oqimlaridan foydalanish etarli moliyaviy hisobot yoki garovga ega bo‘lmagan korxonalarni baholash imkonini kengaytirishi qayd etiladi [6]. G20ning 2025 yilgi harakat rejasida fintech, qulay huquqiy muhit va davlat dasturlarining qo‘shimcha moliyalashtirish yaratish xususiyati asosiy yo‘nalishlar sifatida belgilangan [8]. Davlat yordami bank kreditining o‘rnini bosmasligi, balki bozor sharoitida moliyalashtirilmay qolayotgan, lekin hayotiy korxonalarni qamrab olishi zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda kredit jarayonini bosqichma-bosqich tahlil qilish, xalqaro tajribani qiyoslash, kredit riskini omillar bo‘yicha guruhlash va natijadorlik ko‘rsatkichlarini shakllantirish usullari qo‘llanildi. Markaziy bank statistikasi, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturlari, Jahon bankining kredit kafolatlari tamoyillari, IFC va OECD materiallari asosida amaldagi mexanizmning ariza, baholash, qaror, ta’minot, ajratish va monitoring bosqichlari o‘rganildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Amaldagi jarayonda hujjatlar ro‘yxati mahsulot va bank bo‘yicha farqlanishi, boshqa davlat organlarida mavjud ma’lumotlar qayta so‘ralishi va qaror mezonlarining mijoz uchun etarli tushuntirilmasligi tranzaksiya xarajatini oshiradi. 2024 yildan “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” dasturida ariza, kredit shartnomasi va monitoring jarayonlarini Biznes portal orqali yuritish, idoralarda mavjud ma’lumotlarni elektron hamkorlik orqali olish va qo‘shimcha hujjat talab qilmaslik nazarda tutilgan [9]. Ushbu yondashuv banklarning oddiy tijorat mahsulotlariga ham tatbiq etilsa, kredit olish vaqti va hujjat tayyorlash xarajati kamayadi.

Takomillashtirilgan mexanizmda mijoz segmentatsiyasi birinchi bosqich bo‘lishi kerak. Yangi tashkil etilgan korxona, barqaror tushumga ega savdo subyekti, mavsumiy qishloq xo‘jaligi etkazib beruvchisi va eksportchi bir xil model bilan baholanmaydi. Har bir segment uchun ma’lumotlar to‘plami, risk omillari, kredit muddati va monitoring belgisi oldindan belgilanadi. Segmentatsiya bankka jarayonni standartlashtirish, mijozga esa qaysi mahsulot va talablar mosligini tushunish imkonini beradi.

Ikkinchi bosqichda qarz oluvchining pul oqimi markaziy mezonga aylantiriladi. Bank hisobvaraqlari aylanmasi, soliq tushumlari, elektron hisob-fakturalar, terminal tushumi, etkazib beruvchi va xaridorlar bilan hisob-kitoblar korxonaning real qarz xizmat ko‘rsatish qobiliyatini ko‘rsatadi. Bunda mavsumiylik, tushumning bir xaridorga bog‘liqligi, valyuta riski va xarajatlarning o‘zgaruvchanligi stress-senariyda tekshiriladi. Garov ikkilamchi qaytarish manbai bo‘lib qoladi, kredit qarori esa birlamchi pul oqimiga tayanadi.



1-rasm. Kichik biznes kreditlashining takomillashtirilgan mexanizmi

Manba: muallif ishlanmasi.

. Uchinchi bosqichda kredit skoringi va ekspert tahlili birlashtiriladi. Kichik summali va standart mahsulotlarda avtomatlashtirilgan model tez qaror beradi. Model chegarasiga yaqin yoki murakkab loyihalarda kredit mutaxassisi biznes modeli, rahbariyat tajribasi, bozor va shartnomalarni baholaydi. Modelning aniqligi defoltlar, rad etilgan arizalarning keyingi holati va segmentlar kesimidagi xatolar asosida muntazam tekshiriladi. Avtomatik rad javobi mijozga asosiy sabab va ma’lumotni tuzatish yo‘lini tushuntirishi kerak.

TAHLIL VA NATIJALAR

To‘rtinchi bosqichda ta’minot vositalari kengaytiriladi. Ko‘char mulk, tovar zaxiralari, uskunalar, debitorlik qarzi, kelajak tushumi, sug‘urta va kafolat kombinatsiyasi ko‘chmas mulkka haddan tashqari bog‘liqlikni kamaytiradi. Qisman kredit kafolati bank va kafolat beruvchi o‘rtasida riskni bo‘lishadi. Jahon banki tamoyillariga ko‘ra, kafolat qisman bo‘lishi, aniq maqsadli segmentni qamrab olishi, riskka asoslangan narxga ega bo‘lishi va da’volarni ko‘rib chiqish jarayoni shaffof bo‘lishi lozim [5].

Beshinchi bosqich riskka mos narxlashdir. Foiz stavkasi resurs qiymati, operatsion xarajat, kutilayotgan zarar, kapital xarajati va maqsadli marjadan shakllanadi. Davlat subsidiyasi yoki kafolati mavjud bo‘lsa, mijozga beriladigan chegirma alohida ko‘rsatiladi. Bir xil stavka riskli qarz oluvchini yashirin subsidiyalashi yoki past riskli mijozni qimmat kredit bilan jazolashi mumkin. Shu sababli

narxlash modeli tushunarli diapazon va kredit tarixini yaxshilaganda stavkani pasaytirish rag‘batini o‘z ichiga olishi kerak.

Oltinchi bosqich monitoringni hujjat tekshiruvidan erta ogohlantirish tizimiga o‘tkazishdir. Hisobvaraq tushumining kamayishi, soliq qarzining paydo bo‘lishi, qaytarilgan to‘lovlar, debitorlikning cho‘zilishi, asosiy xaridor yo‘qolishi va valyuta pozitsiyasining keskin o‘zgarishi avtomatik signal bo‘lishi mumkin. Signal kreditni darhol muammoli deb tasniflash uchun emas, mijoz bilan erta suhbat boshlash va tuzatish choralarini kelishish uchun ishlatiladi. Vaqtida restrukturizatsiya qilish iqtisodiy jihatdan hayotiy biznesni saqlab qoladi va bank zararini kamaytiradi.

1-jadval. Takomillashtirilgan kreditlash mexanizmining bosqichlari

Bosqich	Asosiy vosita	Kutiladigan natija
Segmentatsiya	Biznes turi va hayot sikli	Mos mahsulot va talab
Baholash	Pul oqimi va muqobil ma’lumot	Garovga qaramlikning kamayishi
Qaror	Skoring va ekspert tahlili	Tez va izohlanadigan qaror
Ta’minot	Ko‘char mulk va qisman kafolat	Qamrovning kengayishi
Narxlash	Riskka mos stavka	Adolatli risk taqsimoti
Monitoring	Erta ogohlantirish	Muammolarni oldindan bartaraf etish

Manba: muallif tomonidan rasmiy manbalar asosida tuzilgan.

. Mexanizm natijadorligi faqat ajratilgan kredit hajmi bilan o‘lchanmasligi kerak. Birinchi marta kredit olgan subyektlar ulushi, qaror qabul qilishning median vaqti, garov bilan qoplanmagan, ammo kafolatlangan kreditlar, 30 va 90 kundan ortiq kechikish, kreditdan keyingi savdo va bandlik o‘sishi hamda kafolat dasturining qo‘shimcha kredit yaratish koeffitsiyenti kuzatiladi. Bunday panel bank, kafolat jamg‘armasi va davlat dasturining vazifalarini aniq ajratadi.

Kredit arizasining raqamli shakli ma’lumotni bir marta kiritish tamoyiliga asoslanishi lozim. Korxona rekvizitlari, soliq holati, litsenziya va hisobvaraq aylanmasi mavjud axborot tizimlaridan mijoz roziligi bilan olinadi. Tadbirkor faqat biznes reja, kelajak shartnomasi yoki tizimlarda mavjud bo‘lmagan izohni taqdim etadi. Ariza yuborilishidan oldin dastur etishmayotgan ma’lumotni ko‘rsatadi, bank esa qabul qilingan arizaning bosqichi va kutilayotgan qaror sanasini elektron tarzda bildiradi.

Kredit siyosatida kichik biznes uchun rad etish sabablarining standart klassifikatori bo‘lishi kerak. Yetarli pul oqimi yo‘qligi, soliq qarzi, salbiy kredit tarixi, soha limiti, ma’lumotning to‘liq emasligi va ta’minot muammosi alohida kodlanadi. Mijozga tijorat siri yoki model tafsilotlarini oshkor qilmasdan, qarorning asosiy sababi va qayta murojaat qilish uchun zarur o‘zgarish tushuntiriladi. Rad etilgan arizalar tahlili bank mahsuloti qaysi sog‘lom segmentni qamrab olmayotganini ko‘rsatishi mumkin.


Kafolat dasturida qo‘shimchalik tamoyili markaziy o‘rin tutadi. Kafolatsiz ham kredit oladigan korxonaga davlat kafolati berilsa, jamoat resursi yangi moliyalashtirish yaratmaydi. Shu

sababli dastur birinchi marta qarz oluvchi, garovi etarli bo‘lmagan, eksport yoki texnologik loyiha kabi aniq bozor bo‘shlig‘iga yo‘naltiriladi. Bank kafolatdan oldingi va keyingi kredit shartlarini, qarz oluvchi profilini va rad etilgan arizalarni solishtiradi. Kafolat samarasi kredit soni emas, qo‘shimcha yaratilgan kredit va natija orqali baholanadi.

Portfel diversifikatsiyasi mexanizmning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Bank hudud, soha, mahsulot, valyuta, muddat va bog‘liq etkazib berish zanjiri bo‘yicha konsentratsiya limitlarini belgilaydi. Ko‘plab kichik kreditlar son jihatdan tarqoq ko‘rinsa ham, ularning daromadi bitta yirik xaridor yoki bir xil xomashyo narxiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Stress-test umumiy iqtisodiy pasayish, foiz stavkasi, valyuta kursi va asosiy xaridor to‘lovining kechikishi ssenariylarini qamrab oladi.

Kredit shartnomasi kichik biznes uchun tushunarli boshqaruv hujjati bo‘lishi kerak. To‘lov sanalari, stavka o‘zgarishi, kovenant, komissiya, ta’minot va muddatidan oldin undirish holatlari sodda jadvalda ko‘rsatiladi. Kovenantlar korxonaning o‘lchamiga mos va tekshiriladigan bo‘lishi zarur; keraksiz hisobot talabi bankka ham, tadbirkorga ham xarajat tug‘diradi. Shartnoma imzolanishidan oldin asosiy shartlarning qisqa xulosasi berilishi nizolarni kamaytiradi.

Mexanizmni joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Avval bitta segment va cheklangan portfelda ma’lumot integratsiyasi, skoring, kafolat va monitoring sinovdan o‘tkaziladi. Model natijalari ekspert qarori bilan taqqoslanadi, noto‘g‘ri ijobiy va noto‘g‘ri salbiy qarorlar tahlil qilinadi. Keyin mezonlar tuzatiladi va boshqa hudud yoki segmentga kengaytiriladi. Tajriba davrida mijoz huquqlari, axborot xavfsizligi va zararlarni qoplash tartibi to‘liq amal qilishi shart.



2-rasm. Taklif etilayotgan amaliy boshqaruv yo‘nalishlari

Manba: muallif ishlanmasi.

XULOSA

Kichik biznes kreditlash mexanizmini takomillashtirish kredit talablarini soddalashtirish bilangina cheklanmaydi. Asosiy o‘zgarish qarorni garov va hujjatlar sonidan korxonaning pul oqimi, biznes barqarorligi va riskni qoplash vositalariga o‘tkazishdan iborat.

Quyidagilar taklif etiladi: 1) kichik biznesni faoliyat turi va rivojlanish bosqichi bo‘yicha segmentlash; 2) davlat axborot tizimlaridagi ma’lumotlarni mijoz roziligi asosida avtomatik olish; 3) pul oqimiga asoslangan skoring va stress-testni joriy etish; 4) ko‘char mulk, debitorlik va kafolatlarni birlashtirgan ta’minot paketlarini kengaytirish; 5) qisman kafolatlarda qo‘shimcha moliyalashtirish va moliyaviy barqarorlik mezonlarini qo‘llash; 6) erta ogohlantirish va profilaktik restrukturizatsiya jarayonini standartlashtirish; 7) kreditlash natijasini qamrov, qaytish sifati, savdo va bandlik orqali baholash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2025 yil uchun yillik hisobot. Toshkent, 2026. https://cbu.uz/uz/publications/annual-report/

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulleten, 2025 yil. https://cbu.uz/uz/statistics/

3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Kichik biznes va tadbirkorlik bo‘yicha rasmiy statistika. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2

4. World Bank. Good Practices for Financial Consumer Protection. Washington, DC, 2017.

5. World Bank and FIRST Initiative. Principles for Public Credit Guarantee Schemes for SMEs. Washington, DC, 2015.

6. IFC. MSME Banking in the Digital Era. Washington, DC, 2025.

7. OECD. Financing SMEs and Entrepreneurs Scoreboard 2025 Highlights. OECD Publishing, Paris, 2025.

8. G20 Global Partnership for Financial Inclusion. Action Plan for MSME Financing. 2025.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 20 yanvardagi 37-son qarori. Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14 sentabrdagi PQ-306-son qarori. Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida.

Boboxo‘jayev Baxtiyor Nazirxo‘jayevich,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) v.b. dots,
bahtiyorbobohujayev@gmail.com,

Boboxo‘jayeva Fotima Kaxramonovna,
Tashkent international university v.b.dots,
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
fotimabobohujayeva@gmail.com

BOZOR KONYUNKTURASIDAN KELIB CHIQIB MARKETING STRATEGIYASINI BELGILASH

(O‘zbekiston qandolat mahsulotlari bozori misolida statistik va strategik tahlil)

Bobokhojayev Baxtiyor Nazirkhojayevich,
Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor,
bahtiyorbobohujayev@gmail.com,

Bobokhojayeva Fotima Kakhramonovna,
Tashkent International University, Associate Professor,
Doctor of Philosophy (PhD) in Economics,
fotimabobohujayeva@gmail.com

DEFINING MARKETING STRATEGY BASED ON MARKET CONDITIONS

(A statistical and strategic analysis using the example of the confectionery market in Uzbekistan)

Бобоходжаев Бахтиёр Назирходжаевич,
доктор экономических наук (DSc), доцент,
bahtiyorbobohujayev@gmail.com,

Бобоходжаева Фотима Кахрамоновна,
Ташкентский международный университет,
доктор философии в области экономических наук (PhD),
fotimabobohujayeva@gmail.com

ОПРЕДЕЛЕНИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ СТРАТЕГИИ НА ОСНОВЕ РЫНОЧНЫХ УСЛОВИЙ

(Статистический и стратегический анализ на примере узбекского кондитерского рынка)

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston qandolat mahsulotlari bozorining talab, taklif, import, eksport, raqobat, narx va iste’molchi xulq-atvori bilan bog‘liq konyunkturasi tahlil qilinadi. Jahon bankining WITS/UN Comtrade bazasi, O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi materiallari asosida savdo oqimlari, import konsentratsiyasi, birlik qiymatlar va bozor segmentlari hisoblanadi. 2024-yilda HS 1806 bo‘yicha import 174,16 mln AQSH dollari, eksport

11,11 mln dollar; HS 170490 bo‘yicha import 55,52 mln dollar, eksport 6,35 mln dollarni tashkil qilgani mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun raqobat va import o‘rnini bosish imkoniyatini ko‘rsatadi. Ishda ma’lumotlarning tasnif va qamrov cheklovlari ochiq ko‘rsatilgan. STP, PESTEL, Porterning besh kuchi, SWOT, assortiment portfeli, narx elastikligi va ssenariy rejalashtirish usullari orqali differensiatsiyalashgan, ma’lumotlarga tayangan marketing strategiyasi ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: bozor konyunkturasi, qandolat bozori, marketing strategiyasi, import, eksport, segmentatsiya, narx elastikligi, assortiment, distribyutsiya, ROMI.

Abstract

This article examines market-conjuncture-driven marketing strategy in Uzbekistan’s confectionery sector using official trade and statistical sources. It distinguishes cocoa-containing chocolate products (HS 1806), sugar confectionery (HS 170490), and selected biscuit/wafer production indicators. Trade concentration, unit values, strategic segmentation and scenario-based decision rules are analysed. Data inconsistencies and limitations are explicitly identified. The study proposes an adaptive portfolio, pricing and channel strategy, with measurable performance indicators rather than unsupported market-size claims.

Keywords: market conditions, confectionery, Uzbekistan, marketing strategy, trade concentration, pricing, segmentation.

1. Kirish: strategik muammoning qo‘yilishi

Qandolat bozori kundalik va bayramona iste’mol, bolalar va kattalar uchun mahsulotlar, arzon impuls xaridlar hamda sovg‘abop yuqori narx segmentini birlashtiradi. Shuning uchun “qandolat bozori o‘smoqda” degan umumiy xulosa strategiya tanlash uchun yetarli emas. Korxona qaysi toifada talab o‘sayotgani, importning qaysi narx pog‘onasida ustunligi, xaridor qaysi qadoq hajmini tanlashi va qaysi savdo kanali marjani saqlab qolishini aniqlashi zarur.

O‘zbekistonda aholining ko‘payishi va chakana savdoning kengayishi talab bazasini qo‘llab-quvvatlaydi. Milliy statistika ma’lumotiga ko‘ra, 2026-yil 1-yanvarda aholi 38,24 mln kishiga yetgan; 2025-yilda chakana savdo aylanmasining real o‘sishi 11,2 foiz, aholining real umumiy daromadlari o‘sishi 9,2 foiz, iste’mol narxlari indeksi 107,3 foiz bo‘lgan [1–2]. Biroq bu umumiy makroindikatorlar qandolat savdosining xuddi shu sur’atda o‘sganini isbotlamaydi.

Maqolaning ilmiy muammosi — umumiy bozor ko‘rsatkichlarini korxona darajasidagi mahsulot, narx, kanal va reklama qarorlariga bog‘lashdir. Tadqiqot savoli: import bilan kuchli raqobat mavjud bo‘lgan, xomashyo narxi o‘zgaruvchan va xaridor segmentlari turlicha bo‘lgan bozorda mahalliy qandolat ishlab chiqaruvchisi marketing resurslarini qanday taqsimlashi kerak?

Maqsad va vazifalar

Maqsad — bozor konyunkturasini o‘lchash uchun indikatorlar tizimini ishlab chiqish va ushbu indikatorlarga tayangan holda O‘zbekiston qandolat korxonalariga moslashuvchan marketing strategiyasini asoslash. Vazifalar: (1) mahsulot bozorini statistik jihatdan aniq chegaralash; (2) import-eksport tarkibi va konsentratsiyasini hisoblash; (3) ishlab chiqarish va iste’mol dinamikasini manbalararo tekshirish; (4) raqobat kuchlarini va iste’molchi segmentlarini tahlil qilish; (5) 12 oylik strategik harakatlar va KPI tizimini taklif etish.

Tadqiqotning yangiligi

Taklif qilinayotgan yondashuv bozor konyunkturasini faqat sotuv hajmi bilan emas, balki besh blok — talab, raqobat, xarajat, kanal va tashqi savdo — orqali kuzatadi. Bunda strategik qarorlar oldindan belgilangan triggerlar bilan bog‘lanadi: masalan, xomashyo xarajati oshganda qadoq va narx

arxitekturasi qayta ko‘riladi, raqobatchi importi kuchayganda esa brend va distribyutsiya bo‘yicha choralar faollashadi.

2. Metodologiya va ma’lumotlar chegarasi

Tadqiqot kabinet tahlili (desk research), xalqaro savdo statistikasining tavsifiy tahlili, indekslar, bozor segmentatsiyasi, strategik diagnostika va ssenariy modellashtirish usullariga asoslanadi. Birlamchi iste’molchi so‘rovi yoki korxona darajasidagi maxfiy sotuv bazasi mavjud emas; shuning uchun xaridor ulushi, brendning bozor ulushi yoki narx elastikligi “o‘lchangan” deb ko‘rsatilmaydi.

Qandolat tovarlari yagona bojxona kodiga sig‘maydi. HS 1806 shokolad va kakao tarkibli oziq-ovqat tayyorlamalarini; HS 170490 kakao bo‘lmagan shakar qandolatini (shu jumladan oq shokoladni) qamrab oladi. Pechenye va vafli esa boshqa tasnifda hisobga olinadi. Shu bois HS 1806 va HS 170490 yig‘indisi butun qandolat bozorining hajmi emas; bu faqat ikki tashqi savdo segmenti bo‘yicha o‘lchanadigan oqimdir [3–6].

Ma’lumot bloki	Davr	Qo‘llanishi / cheklovi
WITS / UN Comtrade: HS 1806	2024	Import, eksport, hamkorlar, birlik qiymati; ishlab chiqarish va chakana bozor hajmi emas
WITS / UN Comtrade: HS 170490	2024	Shakarli qandolat tashqi savdosi; barcha shirinliklarni qamramaydi
Milliy statistika: pechenye, vafli	2023–2025 qisman	Yirik korxonalar va muayyan davrlar; barcha ishlab chiqaruvchilar emas
Investitsiya vazirligi taqdimoti	2021–2024	Kengroq “shokolad–pechenye–snack” agregati; ichki moslik tekshiriladi
Milliy statistika: makro	2025–2026	Aholi, daromad, inflyatsiya; qandolatga xos talab o‘lchovi emas

Asosiy hisoblash formulalari

Tashqi savdo saldosi: TB = X − M. Importning eksportga nisbati: IM/EX = M/X. Birlik qiymat: UV = savdo qiymati (AQSH dollari) / hajm (kg). Hamkorlar konsentratsiyasi: CR_n = eng yirik n hamkor ulushlari yig‘indisi. Bozor sig‘imining ishlab chiqarish yondashuvi: AC = ishlab chiqarish + import − eksport ± zaxira o‘zgarishi. Mazkur maqolada to‘liq ishlab chiqarish va zaxira ma’lumotlari yo‘qligi sababli AC bo‘yicha soxta “aniq” raqam chiqarilmaydi.

Muhim metodologik farq: bojxona birlik qiymati chakana do‘kon narxi emas. Unga logistika, bojxona xarajatlari, QQS, ulgurji va chakana ustamalar, aksiyalar, assortiment tarkibi ta’sir qiladi. Shuning uchun import birlik qiymatidan iste’molchi to‘laydigan narxni bevosita aniqlash mumkin emas.

3. Bozorning makroiqtisodiy va demografik sharoiti

2025-yilda O‘zbekiston iqtisodiyotining 7,7 foizga o‘sishi, sanoatning 6,8 foizga, chakana savdoning 11,2 foizga o‘sishi va real daromadlarning 9,2 foizga ko‘payishi iste’mol tovarlari bozori uchun ijobiy muhit yaratgan [2]. Shu bilan birga 7,3 foizlik yillik iste’mol narxlari o‘sishi narxga sezgir segmentlarda xarid miqdori va qadoq hajmini qayta tanlash ehtimolini kuchaytiradi. Bu ehtimol empirik talab elastikligi bahosi emas, balki marketing gipotezasidir.

Ko‘rsatkich	Rasmiy ma’lumot	Marketing talqini
Aholi, 01.01.2026	38,2367 mln kishi	Potensial iste’molchilar bazasi keng
2025-yil YaIM real o‘sishi	7,7%	Umumiy iqtisodiy faollik ijobiy
2025-yil chakana savdo o‘sishi	11,2%	Savdo kanallarida aylanish kuchayishi mumkin
2025-yil real daromad o‘sishi	9,2%	O‘rta/premium segment sinoviga sharoit
2025-yil iste’mol narxlari indeksi	107,3%	Narx va qadoq boshqaruvi muhim

Demografik tuzilma ham muhim: 2026-yil 1-yanvarda mehnat yoshigacha bo‘lganlar 12,3 mln kishi yoki aholining 32,1 foizini tashkil etgan [1]. Bu bolalar uchun qandolat mahsulotlariga talab mavjudligini ko‘rsatadigan demografik omil, lekin bolalar iste’molining hajmini bevosita bermaydi. Bolalarga qaratilgan marketingda oziq-ovqat xavfsizligi, aniq markirovka va mas’uliyatli reklama tamoyillari ustuvor bo‘lishi kerak.

Shahar va qishloq o‘rtasidagi farqni ham hisobga olish lozim: 2026-yil boshida aholining taxminan 50,9 foizi shaharlarda, qolgan qismi qishloqlarda yashagan [1]. Shahar savdosida zamonaviy chakana tarmoqlar, assortiment kengligi va qulay qadoq; qishloq hududlarida esa ulgurji yetkazib berish, mavjud savdo nuqtalariga kirish va kichik narxli birliklar ahamiyatli bo‘lishi mumkin. Bu farqlarni yakuniy strategiyaga aylantirishdan oldin hududiy sotuv ma’lumotlari bilan tekshirish zarur.

Konyunktura xaritasi

Talabga ijobiy omillar: aholi ko‘payishi, real daromadlar va chakana savdo o‘sishi. Bosim omillari: narxlar o‘sishi, import bilan raqobat, kakao va shakar xomashyosi narxidagi tebranish, logistika xarajatlari. Natija: bir vaqtning o‘zida qiymatga yo‘naltirilgan ommaviy mahsulotlar va farqlangan yuqori qiymatli mahsulotlar portfelini boshqarish maqsadga muvofiq.

4. Shokolad va kakao mahsulotlari: tashqi savdo tahlili

WITS ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda O‘zbekiston HS 1806 toifasidagi mahsulotlardan 174,163 mln AQSH dollari qiymatida 56,863 ming tonna import qilgan. Eksport 11,109 mln dollar va 4,551 ming tonnani tashkil etgan [3–4]. Natijada tashqi savdo saldosi −163,055 mln dollar, importning eksportga qiymat nisbati 15,68 baravar bo‘lgan. Ushbu katta tafovutni to‘g‘ridan-to‘g‘ri “mahalliy ishlab chiqarish yo‘q” deb talqin qilish noto‘g‘ri: ichki ishlab chiqarish, reeksport, zaxiralar va toifalar tarkibi alohida tekshirilishi kerak.

HS 1806, 2024	Import	Eksport	Hisoblangan natija
Qiymat, mln AQSH dollari	174,163	11,109	Saldo: −163,055
Hajm, ming tonna	56,863	4,551	Sof import: 52,312
Birlik qiymati, AQSH dollari/kg	3,063	2,441	Farq: 0,622
Import / eksport qiymat nisbati	—	—	15,68 baravar

Importning 58,42 foizi qiymat bo‘yicha Rossiyadan (101,751 mln dollar), 10,68 foizi Polshadan, 8,95 foizi Ukrainadan, 4,61 foizi Qozog‘istondan va 4,53 foizi Niderlandiyadan kelgan [3]. Dastlabki uch hamkor ulushi 78,05 foizni tashkil etadi. Demak, import yetkazib beruvchilarining geografik konsentratsiyasi yuqori; bu narx, valyuta, logistika va savdo siyosatidagi o‘zgarishlar mahalliy bozorda tez aks etishi mumkinligini anglatadi.

Import manbai	2024 qiymat, mln $	Jami importdagi ulushi
Rossiya	101,751	58,42%
Polsha	18,597	10,68%
Ukraina	15,595	8,95%
Qozog‘iston	8,024	4,61%
Niderlandiya	7,886	4,53%
Boshqalar	22,310	12,81%

Eksport geografiyasi esa nisbatan diversifikatsiyalashgan: Ozarbayjon 1,697 mln dollar, Rossiya 1,590 mln, Qozog‘iston 1,488 mln, Qirg‘iziston 1,155 mln va Mongoliya 1,031 mln dollar [4]. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun mintaqaviy eksport kanallari mavjud, biroq bu kanallarda mahsulot sertifikati, logistika va distributorga beriladigan chegirma sof foydani belgilaydi.

5. Shakarli qandolat: import o‘rnini bosish va eksport

Kakao bo‘lmagan shakarli qandolat (HS 170490) bo‘yicha 2024-yil importi 55,523 mln dollar va 31,976 ming tonnani tashkil etgan. Eksport 6,346 mln dollar va 5,712 ming tonna bo‘lgan [5–6]. Saldo −49,176 mln dollar; import/eksport qiymat nisbati 8,75 baravar. Birlik import qiymati 1,737 dollar/kg, eksportniki 1,111 dollar/kg. Ushbu farq tarkibiy segmentlar, mahsulot sifati, qadoq, brend va bozor yo‘nalishlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin; faqat qiymat farqi asosida sifat past degan xulosa chiqarilmaydi.

HS 170490, 2024	Import	Eksport	Natija
Qiymat, mln AQSH dollari	55,523	6,346	Saldo: −49,176
Hajm, ming tonna	31,976	5,712	Sof import: 26,263
Birlik qiymat, $/kg	1,737	1,111	Farq: 0,626
Import / eksport	—	—	8,75 baravar

Rossiya 17,142 mln dollar, Ukraina 12,150 mln, Xitoy 8,621 mln, Turkiya 5,079 mln va Qozog‘iston 4,255 mln dollarlik yetkazib berish bilan ajralib turadi [5]. Dastlabki uch manba jami importning taxminan 68,3 foizini tashkil etadi. Shokolad segmentidan farqli ravishda bu yerda import geografiyasi bir oz tarqoqroq, lekin narx bo‘yicha raqobat kuchli bo‘lishi mumkin.

Eksportda Qozog‘iston 2,288 mln dollar, Qirg‘iziston 1,073 mln, Turkmaniston 0,520 mln, Rossiya 0,462 mln va Iroq 0,344 mln dollar bilan yetakchi [6]. Bu yo‘nalishlar kichik qadoqli, uzoq saqlanadigan va transportga chidamli mahsulotlarni eksport qilish uchun boshlang‘ich imkoniyat sifatida ko‘rilishi mumkin. Biroq eksportning real rentabelligini bilish uchun har bir mamlakat bo‘yicha yetkazish, sertifikatlash, qaytarish va reklama xarajatlarini hisoblash zarur.

Ikki asosiy toifaning qo‘shma tashqi savdo signali

HS 1806 va HS 170490 bo‘yicha 2024-yil jami import 229,686 mln dollar, eksport 17,455 mln dollar, qiymat bo‘yicha sof import 212,231 mln dollarni tashkil etadi. Bu raqamlar aynan ikki bojxona

toifasiga tegishli bo‘lib, qandolatning umumiy bozor sig‘imi yoki ichki iste’mol qiymati sifatida talqin qilinmasligi kerak.

6. Ichki ishlab chiqarish va manbalararo moslik

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining investitsiya loyihasi taqdimotida 2021–2024-yillar uchun “shokolad, pechenye va snack” guruhlari kesimida ishlab chiqarish ma’lumotlari keltirilgan [7]. Diagramma bo‘yicha shokolad 96 ming tonnadan 128 ming tonnaga, pechenye 24 ming tonnadan 47 ming tonnaga, snack 65 ming tonnadan 90 ming tonnaga o‘sgan. Ularning jami 2021-yilda 185 ming, 2024-yilda 265 ming tonnani tashkil etadi; o‘sish 43,2 foiz. Ammo bu agregat HS 1806 yoki faqat qandolat bilan aynan bir xil emas: snacklar ham qo‘shilgan.

Mahsulot guruhi, ming tonna	2021	2022	2023	2024	2021–24 o‘sish
Shokolad	96	113	120	128	33,3%
Pechenye	24	29	36	47	95,8%
Snack	65	73	81	90	38,5%
Jami	185	215	237	265	43,2%

Taqdimotda iste’molning 2024-yilgi segmentlari shokolad 184 ming, pechenye 77 ming, snack 108 ming tonna sifatida berilgan; ularning arifmetik yig‘indisi 369 ming tonna. Biroq matnda 2024-yil iste’moli 269 ming tonna deb yozilgan [7]. Bu 100 ming tonnalik ichki nomuvofiqlik sababli mazkur maqolada 269 ming yoki 369 ming tonna “tasdiqlangan umumiy bozor iste’moli” deb qabul qilinmaydi. Shuningdek, taqdimotdagi “shokolad” atamasining ishlab chiqarish statistikasi qamrovi bojxona HS 1806 bilan solishtirish uchun yetarlicha ochiqlanmagan.

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, yirik korxonalar 2025-yil yanvar–martda 2,3 ming tonna shirin quruq pechenye ishlab chiqargan; 2024-yilning shu davrida 1,9 ming tonna [8]. Vafli ishlab chiqarish 2025-yil yanvar–iyunda 7 872 tonna, 2024-yil shu davrda 5 650 tonna bo‘lgan; o‘sish 39,3 foiz [9]. Bu raqamlar alohida mahsulot va korxona qamroviga tegishli bo‘lib, investitsiya taqdimotidagi keng agregat bilan qo‘shib yuborilmaydi.

Ma’lumotlardan chiqadigan boshqaruv xulosasi

Bozorning aniq sig‘imini baholash uchun mahsulot kesimidagi to‘liq sanoat ishlab chiqarishi, import-eksport, zaxiralar va savdo aylanmasi ma’lumotlari mos tasnifda yig‘ilishi shart. Strategiya ishlab chiqishda esa hozirning o‘zida tekshirilgan tashqi savdo, demografiya va ayrim mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi foydali signal beradi.

7. Raqobat muhiti: pestel va porterning besh kuchi

PESTEL bahosi

Siyosiy-huquqiy omillar: oziq-ovqat xavfsizligi, sanitariya, markirovka, reklama va eksport sertifikati talablari. Iqtisodiy omillar: real daromad, inflyatsiya, valyuta kursi, xomashyo va transport xarajatlari. Ijtimoiy omillar: aholi soni, yosh tarkibi, sovg‘a berish va bayram xaridi odatlari. Texnologik omillar: qadoqlash, retseptura, avtomatlashtirish, sotuvni raqamli kuzatish. Ekologik omillar: qadoq chiqindisi va resurs tejamkorligi. Huquqiy va ekologik talablarning amaldagi aniq normalari mahsulot va eksport bozori bo‘yicha alohida tekshirilishi lozim.

Porter modeli asosida sifatli baholash

Kuch	Baholash	Asos
Amaldagi raqobatchilar	Yuqori	2024-yilgi katta import oqimi va bir necha asosiy yetkazib beruvchi mamlakatlar
Yangi kiruvchilar tahdidi	O‘rta	Mahsulot ishlab chiqarish mumkin, ammo distribyutsiya va brendga kirish qimmat
Xaridorlarning savdolashish kuchi	O‘rta–yuqori	Narxni taqqoslash va muqobil brendlarni tanlash imkoniyati
Yetkazib beruvchilar kuchi	O‘rta–yuqori	Kakao, shakar, yog‘ va qadoq materiallari narxi ta’siri
O‘rinbosar mahsulotlar	Yuqori	Pechenye, snack, meva, muzqaymoq va boshqa shirinliklar

Baholar ekspert-mantiqiy tavsif bo‘lib, statistik so‘rov natijasi emas. Raqobatni aniqroq baholash uchun chakana javon auditi: brendlar soni, narx/kg, qadoq grammovkasi, chegirma ulushi, javon metri, sotuv tezligi va hududlar bo‘yicha mavjudlikni kuzatish talab etiladi.

Raqobat strategiyasining tanlovi

Import bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri faqat narx bo‘yicha kurashish foyda marjasini yemirishi mumkin. Shuning uchun mahalliy ishlab chiqaruvchi uch ustunlikdan birini yoki ularning muvozanatini tanlashi kerak: (1) logistika va yangi mahsulot chiqarish tezligi; (2) mahalliy didga mos retseptura va ishonch; (3) o‘zgaruvchan xarid qobiliyatiga mos qadoq–narx arxitekturasi. Premium segmentda esa brend hikoyasi, sovg‘abop dizayn va barqaror sifat muhim.

8. Iste’molchini segmentatsiyalash va pozitsiyalash

STP modeli bo‘yicha birinchi bosqich — xaridorni yoshi bilan cheklamasdan, xarid vaziyati, narx sezgirligi, foydalanish maqsadi, kanal va mahsulot afzalligi asosida segmentlashdir. Quyidagi segmentlar tadqiqot gipotezasi sifatida taklif qilinadi; ularning ulushi yoki hajmi birlamchi so‘rov o‘tkazilmaguncha noma’lum.

Segment	Asosiy ehtiyoj	Taklif qilinadigan qiymat	Kanal
Kundalik tejamkor xarid	Arzon birlik narxi, tanish ta’m	Kichik qadoq, barqaror sifat	Mahalla do‘koni, ulgurji
Oilaviy iste’mol	Hajm va ishonch	Oilaviy qadoq, bir kg narxda foyda	Supermarket, mahalla do‘koni
Impuls xarid	Tez, qulay, mazali	Kassa yonidagi mini format	Convenience, kassa zonasi
Sovg‘abop / premium	Dizayn, obro‘, taassurot	Assorti, maxsus qadoq, lokal hikoya	Supermarket, onlayn
Sog‘lomroq tanlovga intiluvchi	Tarkib shaffofligi	Aniq markirovka, porsiya nazorati	Zamonaviy chakana, onlayn

Har bir segment uchun pozitsiyalash gapini bir jumlada ifodalash kerak. Masalan, tejamkor segment uchun “kundalik xaridga mos narxda ishonchli ta’m”; oilaviy segment uchun “oila bilan bo‘lishishga qulay qadoq”; sovg‘abop segment uchun “mahalliy did va zamonaviy dizayn uyg‘unligi”. Barcha segmentga bir xil reklama va bir xil qadoq bilan chiqish differensiatsiyani susaytiradi.

Xaridor tadqiqoti dizayni

Tavsiya: Toshkent shahri va kamida to‘rtta hududda savdo nuqtalari kesimida 600–800 respondentlik kvotali so‘rov hamda 100–150 ta do‘kon javon auditi. Savollar: oxirgi xarid toifasi, xarid chastotasi, to‘langan narx, qadoq hajmi, brendni tanlash sababi, reklama kanali, qayta xarid ehtimoli. Bu tanlanma butun O‘zbekiston uchun avtomatik reprezentativ emas; og‘irliklash va tanlash xatosi alohida baholanadi.

Segment tanlash mezonlari: hajm potensiali, kutilayotgan yalpi marja, distribyutsiya xarajati, raqobat zichligi, ishlab chiqarish imkoniyati va brendga moslik. O‘rta narxli oilaviy segment ko‘plab korxonalar uchun barqaror asos bo‘lishi mumkin, ammo yakuniy tanlov real SKU rentabelligi bilan tasdiqlanishi kerak.

9. Marketing-miks: assortiment, narx, kanal va kommunikatsiya

Mahsulot va assortiment

Portfelni uch qatlamga ajratish taklif etiladi: A — yuqori aylanuvchi asosiy SKUlar; B — marjasi yuqori, differensiatsiyalangan mahsulotlar; C — mavsumiy va sinov mahsulotlari. ABC tahlili sotuv qiymati bo‘yicha, XYZ esa haftalik talab o‘zgaruvchanligi bo‘yicha amalga oshiriladi. AX toifasidagi SKUlar uchun uzluksiz mavjudlik; CZ uchun cheklangan ishlab chiqarish va qisqa sinov sikli maqsadga muvofiq.

Mahsulot yangilanishida qadoq grammovkasi, tarkib, ta’m, saqlanish muddati va tashish barqarorligi birgalikda baholanadi. “Kichraytirilgan qadoq” strategiyasi xaridor uchun birlik narxni tushirishi mumkin, ammo gramm narxini yashirish yoki noto‘g‘ri taqdim etish ishonchni yemiradi. Qadoqda sof vazn va tarkib ochiq ko‘rsatilishi shart.

Narx strategiyasi

Narxni belgilashda uch chegarani kuzatish zarur: tannarx va minimal marja; raqobatchining solishtiriladigan 100 gramm narxi; xaridorning qabul qiladigan narx diapazoni. Sinov uchun ikki narx arxitekturasi: “entry” — kichik grammovkali kirish narxi; “value” — oilaviy qadoqda qulay 100 gramm narxi. Premium mahsulot narxi esa faqat yuqori tannarxga emas, seziladigan farqlanishga asoslanadi.

Narx elastikligi $E_p = (\%\Delta Q)/(\%\Delta P)$ formula bilan baholanadi. Ammo korxona ma’lumotlari bo‘lmagani sababli bu yerda E_p uchun sun’iy koeffitsiyent keltirilmaydi. Uni aniqlash uchun nazorat do‘konlari bilan 6–8 haftalik A/B narx sinovi, mavsum va aksiyalarni nazorat qilish tavsiya etiladi.

Distribyutsiya va kommunikatsiya

Mahalla do‘koni va ulgurji kanalda assortiment mavjudligi, yetkazib berish ritmi va savdo nuqtasidagi ko‘rinish birinchi o‘rinda. Zamonaviy tarmoqlarda javon ulushi, aksiyalar rentabelligi va kategoriyaviy boshqaruv muhim. Onlayn kanalda sovg‘abop to‘plam, qayta buyurtma va mavsumiy paketlar sinovdan o‘tkaziladi. Reklama budjeti umumiy qamrovga emas, sinov hududida inkremental sotuv va yalpi foydaga bog‘lanadi.

10. Ssenariylar va qaror qabul qilish modeli

Bozor konyunkturasi tez o‘zgarishi mumkinligi sababli yagona qat’iy yillik reja o‘rniga ssenariy yondashuvi tavsiya etiladi. Quyidagi foizlar rasmiy prognoz emas; strategiyani stress-test qilish

uchun tanlangan shartli farazlardir. Korxona ularni o‘z tannarx va sotuv ma’lumotlari bilan qayta hisoblaydi.

Ssenariy	Shartli faraz	Strategik javob
Bazaviy	Talab +6%; birlik tannarx +5%	Asosiy SKU mavjudligi, o‘rtacha narx arxitekturasi
Xarajat shoki	Talab 0%; birlik tannarx +15%	Qadoq optimallashtirish, xarajat nazorati, marja filtri
Raqobat bosimi	Talab +3%; narx chegirmasi −7%	Differensiatsiya, kanal samaradorligi, maqsadli promo
Tez o‘sish	Talab +12%; tannarx +4%	Distribyutsiyani kengaytirish, zaxira va quvvat rejalari

Shartli moliyaviy misol: narx–hajm–marja

Faraz qilaylik, korxona bir oyda 100 000 dona mahsulotni 10 000 so‘mdan sotadi, bir donaga o‘zgaruvchan xarajat 7 000 so‘m. Bazaviy tushum 1,0 mlrd so‘m, o‘zgaruvchan xarajat 700 mln so‘m, hissa marjasi 300 mln so‘m. Agar narx 5% oshirilsa va sotuv hajmi 3% kamayib 97 000 donaga tushsa, tushum 1,0185 mlrd so‘m, hissa marjasi (10 500 − 7 000) × 97 000 = 339,5 mln so‘m bo‘ladi. Bu natija farazlarga bog‘liq, real bozor ko‘rsatkichi emas.

Aksincha, 10% chegirma berilganda hajm 15% oshib 115 000 dona bo‘lsa, tushum 1,035 mlrd so‘mga yetadi, ammo hissa marjasi (9 000 − 7 000) × 115 000 = 230 mln so‘mga tushadi. Demak, tushum oshgani bilan foydaga hissa kamayishi mumkin. Strategik xulosa: aksiyani faqat sotuv hajmi bo‘yicha emas, inkremental marja va ROMI bo‘yicha baholash zarur.

Konyunktura signal paneli

Har oy besh ko‘rsatkich monitoring qilinadi: (1) SKU kesimida sotuv hajmi va o‘rtacha narx; (2) kakao/shakar/qadoq xarajati indeksi; (3) raqobatchilar narxi va javon ulushi; (4) do‘konlarda mahsulot mavjudligi; (5) import narx va hajm signallari. Triggerlar korxonaning o‘tgan 12 oylik o‘rtacha qiymatlariga nisbatan belgilanadi; ular qat’iy umumrespublika normasi emas.

11. Amalga oshirish yo‘l xaritasi va kpi

Muddat	Asosiy ish	Mas’ul yo‘nalish	Natija indikatori
1–2-oy	SKU rentabelligi, raqobatchi narxi, kanal auditi	Marketing + moliya	SKU/kanal marja bazasi
3–4-oy	Xaridor so‘rovi, 3 segment va qadoq sinovi	Marketing + R&D	Sinov konversiyasi, qayta xarid
5–6-oy	Narx A/B sinovi, assortiment qisqartirish	Savdo + moliya	Hissa marjasi va sell-out
7–9-oy	Muvaffaqiyatli SKUlarni hududlarga yoyish	Distribyutsiya	Raqamli distribyutsiya, OOS
10–12-oy	Eksport pilot, portfel va budjet qayta ko‘rigi	Eksport + marketing	Eksport hissa marjasi, ROMI

Tavsiya etiladigan KPIlar

1) Raqamli distribyutsiya (ND) = mahsulot mavjud savdo nuqtalari / maqsadli nuqtalar ×100. 2) Og‘irliklangan distribyutsiya (WD) = mahsulot mavjud do‘konlarning kategoriya savdosidagi ulushi. 3) OOS = mahsulot yo‘q kuzatuvlar / jami kuzatuvlar ×100. 4) Yalpi marja = (tushum − sotilgan mahsulot tannarxi)/tushum ×100. 5) Hissa marjasi = tushum − o‘zgaruvchan xarajatlar. 6) ROMI = (marketingdan olingan qo‘shimcha hissa foydasi − marketing xarajati)/marketing xarajati ×100.

7) Qayta xarid koeffitsiyenti = takror xarid qilgan mijozlar / kuzatilgan mijozlar ×100.

Boshlang‘ich ko‘rsatkichlar ma’lum bo‘lmagani sababli hamma korxona uchun bir xil “+20% sotuv” maqsadi ilmiy asosli emas. Har bir KPI uchun 0-oyda baza o‘lchanadi, keyin maqsadlar korxonaning ishlab chiqarish quvvati, mavjud savdo nuqtalari va moliyaviy imkoniyatiga mos belgilanadi. Har oy SKU × hudud × kanal kesimida kuzatuv paneli tuziladi.

Xavflarni boshqarish

Xomashyo narxi oshishi — muqobil retseptura, yetkazib beruvchilarni diversifikatsiya qilish va narx/qadoq sinovi. Import bosimi — narxga emas, ishonchli sifat va tez distribyutsiyaga urg‘u. Qaytarish va yaroqlilik muddati — talab prognozi, FIFO/FEFO zaxira boshqaruvi. Promo samarasizligi — nazorat guruhi va inkremental marja bahosi. Eksport xavfi — avval kichik partiya bilan pilot, keyin ko‘lamlashtirish.

12. Xulosa va ilmiy-amaliy tavsiyalar

Birinchidan, O‘zbekiston qandolat bozorida strategik qarorlarni faqat umumiy iqtisodiy o‘sishga tayangan holda qabul qilish yetarli emas. 2024-yilgi ikki muhim bojxona toifasida 229,69 mln dollarlik import va 17,46 mln dollarlik eksport qayd etilgani mahalliy ishlab chiqaruvchilar import bilan kuchli raqobat muhitida faoliyat yuritishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga bu ikki toifa butun qandolat bozori emasligi hisobga olinishi shart.

Ikkinchidan, shokolad va kakao tarkibli mahsulotlar importining qiymat bo‘yicha 58,4 foizi Rossiyaga to‘g‘ri kelishi hamda shakarli qandolat importining bir necha mamlakatga to‘plangani ta’minot va raqobat konsentratsiyasi xavfini ko‘rsatadi. Mahalliy korxona uchun bu faqat tahdid emas: xaridorga mos qadoq, qisqa yetkazib berish muddati va lokal didga mos retseptura orqali farqlanish imkoniyatidir.

Uchinchidan, strategik ustuvorlik sifatida “hamma uchun bitta mahsulot” emas, balki tejamkor kundalik, oilaviy, impuls va sovg‘abop segmentlarga mos portfel tavsiya etiladi. Narx siyosati 100 gramm narx, birlik marja va talab elastikligi sinoviga; reklama esa inkremental foydaga bog‘lanishi kerak.

To‘rtinchidan, mavjud rasmiy materiallarda ayrim ko‘rsatkichlar o‘zaro mos kelmaydi: investitsiya taqdimotida 2024-yil iste’mol segmentlari yig‘indisi 369 ming tonna bo‘lsa, umumiy matn 269 ming tonnani ko‘rsatadi. Shu bois tadqiqotda ushbu raqamlar bilan aniq bozor sig‘imi hisoblanmadi. Keyingi ilmiy bosqichda HS kodlari bilan uyg‘unlashtirilgan ishlab chiqarish, zaxira va chakana savdo bazasini yaratish talab etiladi.

Beshinchidan, korxona boshqaruvi uchun bozor konyunkturasining besh blokli monitoring paneli — talab, raqobat, xarajat, kanal va tashqi savdo — tavsiya qilinadi. Har chorakda narx–hajm–marja ssenariysi yangilanib, asosiy SKUlar, distribyutsiya va reklama budjeti real natijaga qarab qayta taqsimlanishi lozim. Bu yondashuv strategiyani bir martalik reja emas, bozor signallariga moslashadigan boshqaruv jarayoniga aylantiradi.

Foydalanilgan manbalar

[1] O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi. Aholining yosh tarkibi, 2026-yil 1-yanvar. https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/68572-zbekiston-a-olisining-arijb-56-foizi-me-natga-lajo-atli-4

[2] Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida 2025-yil ijtimoiy-iqtisodiy yakunlari, 21.01.2026. https://samstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/16247-o-zbekiston-respublikasining-ijtimoiy-iqtisodiy-holati-raqamlarda

[3] World Bank WITS/UN Comtrade. Uzbekistan imports, HS 1806, 2024. https://wits.worldbank.org/trade/comtrade/en/country/UZB/year/2024/tradeflow/Imports/partner/ALL/product/1806

[4] World Bank WITS/UN Comtrade. Uzbekistan exports, HS 1806, 2024. https://wits.worldbank.org/trade/comtrade/en/country/UZB/year/2024/tradeflow/Exports/partner/ALL/product/1806

[5] World Bank WITS/UN Comtrade. Uzbekistan imports, HS 170490, 2024. https://wits.worldbank.org/trade/comtrade/en/country/UZB/year/2024/tradeflow/Imports/partner/ALL/product/170490

[6] World Bank WITS/UN Comtrade. Uzbekistan exports, HS 170490, 2024. https://wits.worldbank.org/trade/comtrade/en/country/UZB/year/2024/tradeflow/Exports/partner/ALL/product/170490

[7] O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. Premium snack and confectionery products: investitsiya loyihasi taqdimoti. https://dev.invest.miit.uz/document/services/portal/New%20projects%20MIIT/presentations/52.1%20Premium%20snack%20and%20confectionery%20products.pdf

[8] O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi. Shirin quruq pechenye ishlab chiqarish, 08.05.2025. https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/61578-shirin-quruq-pechene-ishlab-chiqarish-hajmi-400-5-tonnaga-oshgan-3

[9] O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi. Vafli ishlab chiqarish, 28.07.2025. https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/62869-o-zbekistonda-vafli-ishlab-chiqarish-hajmi-39-3-ga-oshgan-3

[10] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti. Oziq-ovqat sanoati rejalari, 10.12.2024. https://president.uz/en/lists/view/7757

[11] Kotler, P., Keller, K. L. (2016). Marketing Management. 15th ed. Pearson.

[12] Porter, M. E. (1980). Competitive Strategy. Free Press.

[13] Aaker, D. A. (1996). Building Strong Brands. Free Press.

Махсудов Бегматжон Юлдашалиевич
иқтисодиёт фанлари доктори, “Бухгалтерия ҳисоби” кафедраси доценти. ТДИУ.
begmatmaxsudov@gmail.com

НОМОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Махсудов Бегматжон Юлдашалиевич
доктор экономических наук,
доцент кафедры «Бухгалтерский учет»
Ташкентского государственного
экономического университета (ТГЭУ).

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ НЕФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ

Maksudov Begmatjon Yuldashalievich
doctor of economic sciences,
associate professor, "Accounting"
associate professor of the department. TDIU.

ISSUES OF IMPROVING THE FORMATION OF NON-FINANCIAL REPORTING

Аннотация: Ушбу мақолада номолиявий ҳисобот тузишнинг зарурати ва шакллантириш тартиби ҳамда уни аниқлашга оид ёндашувлар, ҳисоботда маълумотларини акс эттириш тамойиллари тадқиқ этилган. Kept компаниясида номолиявий ҳисоботни тасдиқлаш жараёни ва ҳисоботни текшириш натижалари бўйича хулоса турлари ва шакллари таснифи очиб берилган. Шунингдек, номолиявий ҳисоботни шакллантиришни такомиллаштириш бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: номолиявий, бизнес модел, корпоратив стратегия, хавф-хатарлар, верификация, “харажат-фойда”, ижтимоий масъулият, барқарор ривожланиш.

Аннотация: В данной статье исследуются необходимость и порядок составления нефинансовой отчетности, а также подходы к ее определению и принципы отражения данных в отчетности. Раскрыта классификация видов и форм процесса утверждения нефинансовой отчетности в компании Kept и заключения по результатам проверки отчетности. Также разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию формирования нефинансовой отчетности.

Ключевые слова: нефинансовый, бизнес-модель, корпоративная стратегия, риски, верификация, "затраты-прибыль," социальная ответственность, устойчивое развитие.

Abstract: This article examines the necessity and procedure for preparing non-financial reporting, as well as approaches to its determination and principles for reflecting data in reporting. The process of approving non-financial statements at Kept and the classification of types and forms of conclusions

based on the results of the audit of the report are disclosed. Proposals and recommendations have also been developed to improve the formation of non-financial reporting.

Keywords: non-financial, business model, corporate strategy, risks, verification, "cost-benefit," social responsibility, sustainable development.

КИРИШ.

Замонавий иқтисодиётда бизнес юритишдан кўзланган асосий мақсад барча манфаатдор томонларнинг манфаатларини ҳисобга олган ҳолда қиймат яратишдан иборатдир. Бундай шароитда молиявий ҳисобот маълумотлари манфаатдор томонларни ахборотга бўлган эҳтиёжини тўлиқ қондирмаяпди; қиймат яратишнинг молиявий ва номолиявий омилларини тушуниш, компаниянинг атрофдаги иқтисодий, табиий ва ижтимоий муҳитга таъсирини баҳолаш имконини берувчи кенгроқ маълумотларга эҳтиёж пайдо бўлмоқда. Шундай қилиб, номолиявий ҳисобот (НМ)нинг пайдо бўлиши табиий заруратдир, уни шакллантириш ҳозирги кунда рақобатчи компанияларнинг ўзига хос хусусияти ҳисобланади. Бундай ҳисоботларни эълон қилишнинг афзалликлари қаторига компания обрўсини ошириш, ходимларнинг истак-хоҳишларини қондириш, капитал тўғрисидаги маълумотларни тизимлаштириш, фаолият самарадорлигини ошириш, чиқиндиларни камайтириш ва рақобат курашидаги афзалликларни киритиш мумкин. Дунёнинг аксарият мамлакатларида НМни тузиш ихтиёрий бўлишига қарамай, сўнгги йилларда атроф-муҳит билан боғлиқ номолиявий маълумотларни тақдим этувчи компаниялар сони сезиларли даражада ошди.

МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ.

Номолиявий ҳисоботларни шакллантириш масалалари бир қатор тадқиқотчилар томонидан кўриб чиқилган. Масалан, тадқиқотчи Е.Н. Моисеева манфаатдор фойдаланувчиларнинг манфаатлари нуқтаи назаридан номолиявий ҳисоботларни шакллантиришнинг қуйидаги алгоритми энг самарали эканлигини таъкидлайди: ҳаракат - тавсиф - қиймат баҳоси, яъни бу билан компаниянинг ўз мақсадларига эришиш кетма-кетлиги очиб берилади [10].

Профессор Л.В. Гусарова номолиявий ҳисоботларни тузиш юзага келиш мумкин бўлган муаммоларни ҳал қилиш учун қуйидаги қадамларни таклиф этади: баҳолаш ва талқин қилиш усулларини стандартлаштириш, номолиявий ҳисоботларни тузишнинг аниқ тамойиллари ва қоидаларини белгилаш; номолиявий ҳисоботлар тузадиган мутахассисларнинг малакасини ошириш; номолиявий ҳисоботларни баҳолаш ва талқин қилишнинг инновацион усулларини ишлаб чиқиш ва қўллаш; номолиявий кўрсаткичларни баҳолаш ва ўлчаш учун ягона методологияни ишлаб чиқиш ва жорий этиш [11].

Иқтисодчи олимлар Т.Ю. Шемякина, Т.А. Алабина, Т.А. Городсковалар ҳам ўз тадқиқотларида номолиявий ҳисоботларни шакллантиришда компаниялар фойдаланадиган ахборот манбаларини аниқлаган ҳолда миллий стандартни яратиш зарурлигини таъкидлаган. Ҳужжатларни тайёрлашда компаниялар директорлар кенгаши даражасидаги назоратни, шунингдек, янада самарали ички назорат воситаларини ишлаб чиқишни ҳисобга олишлари лозимлиги ҳақида ёзган [12].

Шундай қилиб, ушбу соҳадаги мутахассислар компаниянинг мақсадлари ва стратегиясини очиб бериш учун номолиявий ҳисоботларни тайёрлашнинг ягона стандартини ишлаб чиқиш зарурлиги масаласида якдил фикрга келган. Шунингдек, улар номолиявий ҳисоботларни шакллантириш жараёни учун масъул бўлган ходимларнинг малакасини

ошириш муаммосини ҳал қилиш ва ички назорат тизимини ишлаб чиқиш муҳимлигини таъкидлаган.

Тадқиқот натижасида "номолиявий ҳисобот" тушунчасига оид терминологик ноаниқлик аниқланди, бу унинг фаол ривожланиши ва ягона қонунчилик асосида тартибга солинмаганлиги билан боғлиқ. Мамлакатимиз қонунчилигида ва корпоратив ҳисоботни тузишни тартибга солувчи ҳужжатларда унга оид таъриф келтирилмаган. Бироқ бир қатор муаллифларнинг илмий ишларида уни таърифига оид турли ёндашувлар мавжуд (1-жадвал).

1-жадвал

“Номолиявий ҳисобот” атамасини аниқлашга оид ёндашувлар

Тадқиқотчилар	Номолиявий ҳисобот атамасини аниқлашга оид ёндашувлар
П.С. Щербаченко [5]	Компаниянинг обрў-эътиборни самарали бошқариш мақсадида ўтган даврдаги номолиявий ташаббуслари тўғрисидаги маълумотларни оммага тақдим этиш
И.Ю. Беляева ва б.[6]	Компания томонидан манфаатдор томонлар (ҳиссадорлар) учун ихтиёрий равишда тақдим этиладиган, компаниянинг ижтимоий, иқтисодий ва экологик соҳадаги фаолиятининг асосий жиҳатлари орқали унинг фаолият натижаларини акс эттирувчи, компаниянинг ривожланиш стратегияси ва вазифаси билан боғлиқ маълумотлар
С.Н. Володин, Ю.В. Казакова [7]	Компания томонидан молиявий ҳисоботлар билан бир қаторда эълон қилинади, лекин ижтимоий, экологик, корпоратив ва бошқарув ҳисоботларини ўз ичига олади. Ташкилий тузилмаси компания фаолиятини қиймат ўлчовида баҳолаш имконини бермайди.
М.А. Осипов [8]	Компания томонидан манфаатдор томонларни барқарор ривожланиш мақсадларига эришиш йўлидаги фаолияти натижалари ҳақида хабардор қилиш мақсадида тақдим этиладиган маълум бир тизимли маълумотлар
М.Л. Пятов ва б. [9]	Номолиявий ҳисобот манфаатдор шахсларнинг эҳтиёжларига жавоб эмас, балки бизнес ҳамжамиятининг илғор қисмига мансубликнинг шаклланаётган белгиларига мос келиш заруратидир.

Жадвал маълумотларини таҳлил шуни кўрсатадики, соҳа мутахассислари хўжалик юритувчи субъектнинг ривожланиш стратегияси ва ишбилармонлик обрўсига таъсир кўрсатиш мақсадида тақдим этиладиган номолиявий ҳисоботнинг манфаатдор томонлар учун ўта муҳимлигини таъкидлайди. Бундан ташқари, тадқиқотчилар маълумотларни учта жиҳатдан – иқтисодий, экологик ва ижтимоий жиҳатдан очиб беришни зарурият деб ҳисоблайди.

Шундай қилиб, номолиявий ҳисобот компания ривожланишининг иқтисодий, экологик ва ижтимоий истиқболлари тўғрисидаги маълумотларни ўз ичига олган ҳамда хўжалик юритувчи субъектнинг стратегияси ва миссиясини амалга ошириш доирасида манфаатдор томонларнинг бошқарув қарорларига таъсир кўрсатиш мақсадини кўзлаган ҳисоботдир.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Мазкур мақолани ёзишда номолиявий ҳисобот тузишнинг зарурати ва шакллантириш тартиби ҳамда уни аниқлашга оид ёндашувлар, ҳисоботда маълумотларини акс эттириш тамойилларини такомиллаштиришга оид иқтисодчи олимларнинг назарий ёндошувлари чуқур тадқиқ этилди. Шунингдек, номолиявий ҳисоботни шакллантиришда таҳлилнинг гуруҳлаштириш, таққослаш, индукция, дедукция, қиёсий таҳлил қилиш, каби усулларидан фойдаланилди.

НАТИЖА ВА МУҲОКАМА.

“Номолиявий кўрсаткичларни ўлчаш мураккаб вазифа ҳисобланади ва бирон бир компаниянинг бундай кўрсаткичларини бошқаси билан таққослаш эса ундан ҳам мураккаброқдир. Аммо айнан номолиявий кўрсаткичлар инвестиция қарорларини қабул қилишда ҳал қилувчи роль ўйнайди”[1].

“Номолиявий ҳисобот” атамасини меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар ва илмий адабиётларда ягона талқини мавжуд эмас. Номолиявий ҳисобот таърифи келтирилган ҳужжатлардан бири сифатида Оммавий номолиявий ҳисоботни ривожлантириш концепцияси ва уни амалга ошириш бўйича чора-тадбирлар режасини ажратиб кўрсатиш мумкин. Ушбу ҳужжатга кўра, номолиявий ҳисобот “ижтимоий масъулият ва барқарор ривожланишнинг барча муҳим масалалари бўйича корхоналар фаолиятининг мақсадлари, ёндашувлари ва натижаларини акс эттирувчи маълумотлар ва кўрсаткичлар мажмуини, шу жумладан мажбурий ошкор этиладиган кўрсаткичларнинг минимал рўйхатини баён қилади” [2].

Компанияларнинг номолиявий ҳисоботларни эълон қилишга бўлган қизиқишини унинг натижасида улар эга бўладиган афзалликлар билан изоҳлаш мумкин. Ушбу афзалликлар, хусусан, номолиявий ҳисобот функцияларида ифодаланади, уларга қуйидагиларни киритиш мумкин:

♦ компания молия-хўжалик фаолиятининг номолиявий йўналишларига тааллуқли бошқарув қарорларини қабул қилиш амалиётини ривожлантиришда ифодаланадиган компания самарадорлигини ошириш;

♦ ташқи алоқаларни бошқариш ва рақобатбардош устунликларни қўлга киритиш орқали компания имиджи ва обрўсини бошқариш;

♦ ўзаро муносабатларни шу жумладан ходимлар билан муносабатларни ўрнатиш натижасида ҳамкорликни ривожлантириш, истиқболда ривожланиш учун имкониятларни шакллантириш;

♦ ESG рейтингларидаги мавқени яхшилаш орқали капитал тақдим этиш тўғрисида қарор қабул қилаётган салоҳиятли инвесторлар учун жозибадорликни ошириш.

Номолиявий ҳисоботнинг молиявий ҳисоботдан фарқли хусусиятлари, қолаверса, уни шакллантириш жараёнига таъсир кўрсатувчи қуйидаги жиҳатлар мавжуд:

1) қиймат ўлчовида ўлчанадиган номолиявий ҳисобот кўрсаткичларидан ташқари бошқа ўлчов бирликларига эга бўлган кўрсаткичлар (масалан, CO2 эквивалентлари, дона, тонна, соат ва ҳ.к.) очиб берилади;

2) ҳисоботда келтирилган маълумотларни аксарият ҳолларда бухгалтерия ҳисоби тизимидан олиш мумкин эмас ва унга нисбатан иккиёқлама ёзув қўлланилмайди;


3) ички назорат тизимлари мукаммал бўлмаслиги ва ҳисоботнинг барча соҳаларига татбиқ этилмаслиги мумкин;

4) номолиявий ҳисоботни консолидациялаш чегаралари консолидациялашган ҳисоботни тайёрлаш периметрига мос келмаслиги мумкин.

Компаниялар томонидан номолиявий ҳисоботларни тайёрлаш ва тақдим этишнинг ягона регламенти мавжуд эмаслиги сабабли, ҳисоботда тақдим этилган маълумотларни таҳлил қилиш, шунингдек, бир нечта компаниялар маълумотларини таққослаш муаммоси юзага келмоқда. Бу эса турли соҳа ва фаолият кўламига эга компанияларнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда номолиявий ҳисоботларни тайёрлаш тартибини ишлаб чиқиш заруратини юзага келтиради (1-чизма).

Номолиявий ҳисоботни тайёрлаётган компания томонидан биринчи босқичда ҳисоботда акс эттирилиши лозим бўлган муҳим масалаларни аниқланиши муҳим масала ҳисобланади. Бунинг учун бизнес модели, рисклар, компания стратегияси дастлабки таҳлил қилинади ва масалаларнинг дастлабки рўйхати шакллантирилади. Бироқ, хўжалик юритувчи субъектлар номолиявий ҳисоботини манфаатдор томонлар учун эълон қилишлари сабабли, турли тоифадаги манфаатдор томонларнинг жуда хилма-хил бўлган манфаатларини ҳисобга олиши муҳимдир. Масалан, акциядорлар, инвесторлар, брокерлар учун қиймат яратиш ва инвестицион жозибадорликни сақлаш, бизнесни ривожлантириш ва акцияларнинг капиталлашуви ҳамда ликвидлигини ошириш, мунтазам равишда юқори дивидендлар олиш ва бошқалар устувор манфаатлар ҳисобланади.

Компаниянинг ишбилармон ҳамкорлари, мол етказиб берувчилари ва харидорлари учун ишончли ва хавфсиз таъминот занжирлари, атроф-муҳитга салбий таъсирни камайтириш ва барқарор ривожланиш тамойилларига риоя қилиш бўйича хамкорликда бажарилиши мумкин бўлган қўшма лойиҳалар, шартномавий мажбуриятларга риоя қилиш, ишбилармонлик этикаси тамойиллари, коррупцияга қарши курашиш тўғрисидаги маълумотлар муҳимдир. Ходимлар ва касаба уюшмалари учун эса муносиб иш ҳақи, қулай, хавфсиз меҳнат шароитлари, малака ошириш, ривожланиш, карера ўсиши ва бошқалар муҳимдир. Шундай қилиб, номолиявий ҳисоботда турли тоифадаги манфаатдор томонларнинг манфаатларини инобатга олиш зарур.



1-чизма. Номолиявий ҳисоботни шакллантириш жараёни модели Манба. [3]

Ҳар бир компанияда фаолият кўлами ва тармоққа мансублигига қараб манфаатдор томонлар таркиби фарқ қилиши мумкин. Шу муносабат билан кейинги босқичда уларни таҳлил қилиш ва баҳолаш, улар орқали манфаатдор томонлар доирасини аниқлаш зарур. Таҳлилнинг анча содда вариантларидан бири ҳисоботни тайёрлашдан олдин сўровнома ўтказишдир. Ишлаб чиқилган сўровнома компаниянинг фойдаланувчиларини манфаатларига таъсир даражаси, фойдаланувчиларнинг компанияга таъсир даражаси, шунингдек, ҳисобот йилида ўзаро муносабатларнинг асосий жиҳатлари каби масалаларни қамраб олиши керак.

Бундан ташқари, экологик, ижтимоий ва иқтисодий фаолиятнинг алоҳида жиҳатлари таъсирини баҳолаш мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланувчилар томонидан тўлдирилган сўровномаларни қайта ишлаш асосида компания фаолияти энг кўп таъсир кўрсатадиган манфаатдор томонлар гуруҳи, шунингдек, уларнинг фикрича, номолиявий ҳисоботда очиб берилиши керак бўлган муҳим масалалар рўйхати аниқланади. Олинган натижалар дастлабки муҳим масалалар рўйхати билан солиштирилади, айрим масалалар қўшилади ёки чиқариб ташланади, натижада номолиявий ҳисоботда очиб берилиши лозим бўлган масалаларнинг якуний рўйхати шакллантирилади ва масъул шахс томонидан тасдиқланади.

Кейинги босқичда компания номолиявий маълумотларни ошкор қилиш периметрини баҳолаши, хўжалик юритувчи субъектнинг ташкилий тузилмасини инобатга олиши лозим. Бунинг зарурияти мураккаб ташкилий тузилма мавжудлигида ахборот ҳажми, уни йиғиш жараёнининг мураккаблиги ва вақт сарфи билан боғлиқ. Минимал периметр молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари (МҲХС) бўйича консолидациялашган ҳисоботни тузишдаги каби аниқланади, бироқ компания тузилмасини баҳолаш ва гуруҳ компанияларининг номолиявий ҳисобот кўрсаткичларига таъсири қанчалик аҳамиятли эканлигини аниқлаш зарур. Ўзгаришлар тузилмада тартибга кўра консолидациялашган ҳисоботни тайёрлаш доирасига кирмайдиган, бироқ номолиявий ҳисоботда очиб бериладиган кўрсаткичларга жиддий таъсир кўрсатадиган уюшган компаниялар ёки қўшма корхоналар мавжуд бўлган тақдирда юзага келиши мумкин. Аксинча, консолидациялашган ҳисоботни тайёрлаш периметрига ҳисобот йилида сотиб олинган компания кирганда, фаолиятнинг ўзига хос хусусиятлари туфайли дастлабки босқичда номолиявий ахборотни йиғиш ва қайта ишлаш мураккаб бўлиши мумкин. Бундан ташқари, хўжалик юритувчи субъект томонидан номолиявий кўрсаткичларга кўрсатиладиган таъсир аҳамиятсиз бўлиши мумкин, бу ҳолатда ҳам номолиявий маълумот таркибига киритишнинг мақсадга мувофиқлиги ва меҳнат сарфини баҳолаш талаб этилади.

Ушбу баҳолаш ўтказилгандан сўнг компаниялар периметри шакллантирилади, улар бўйича маълумотлар умумлаштирилади ва номолиявий ҳисоботга киритилади. Бунда консолидациялашган ҳисоботни тайёрлаш периметрига нисбатан номолиявий ҳисоботни очиб бериш периметрини ошириш ёки камайтириш ҳолатлари фойдаланувчилар томонидан ҳисоботни тайёрлаш чегараларини тушуниши учун номолиявий ҳисоботда изоҳи келтирилиши лозим.

Кейинги босқич бевосита ахборотни йиғиш, уни умумлаштириш ва номолиявий ҳисоботга киритиш учун қайта ишлаш билан боғлиқ. Ҳар бир хўжалик юритувчи субъект ташкилий тузилмаси, фаолият кўлами, ходимлари сони ва бошқа омилларга қараб номолиявий кўрсаткичларни ҳисобга олиш тизимини мустақил равишда белгилайди.

Хўжалик юритувчи субъектда номолиявий маълумотларни йиғиш бўлими алохида тузилмаган, балки ҳар бир бўлинма маълумотларни мустақил равишда тўплайдиган вариант бўлиши мумкин, яъни, масалан, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш бўлими, ходимларни бошқариш бўлими, меҳнатни муҳофаза қилиш ва хавфсизлик бўлими ва компаниянинг бошқа бўлимлари ўз ваколатлари доирасида маълумотларни шакллантиради, сўнгра маълумотлар масъул ходим томонидан жамланади. Бошқа ҳолатда, агар хўжалик юритувчи субъектнинг ташкилий тузилмасида барқарор ривожланиш бўлими ёки шунга ўхшаш бўлинма назарда тутилган бўлса, у ҳолда барча маълумотлар бошқа бўлинмаларни жалб қилмасдан ушбу бўлим томонидан йиғилади.

Компания амалдаги бошқарув тузилмаси, ички амалиётларнинг етуклиги ва вазифаларнинг (стратегиянинг) амбициялилигига қараб оптимал бошқарув форматини танлайди. Номолиявий ҳисоботни тайёрлашда шуни ҳисобга олиш керакки, ҳисобот чегараларини аниқлаш ва маълумотларни йиғиш босқичларида, агар ўзгаришлар манфаатдор фойдаланувчилар учун номолиявий маълумотларни янада сифатли очиб бериш имконини бериши аниқ бўлса, олдинги қадамларга қайтиш мумкин.

Номолиявий ҳисоботни шакллантириш жараёнида “харажат-фойда” тамойилига риоя қилиниши лозим. [4]. Бунинг учун маълумотларни тўплаш харажатлари (вақт, молиявий ресурслар каби) ва номолиявий ҳисоботда маълумотларни очиб беришнинг мақсадга мувофиқлиги таққосланиши лозим. Бунда номолиявий ҳисоботни шакллантириш тартибини ҳар бир ҳисобот даврида хўжалик юритувчи субъектнинг ташкилий тузилмаси ва фаолиятидаги эҳтимолий ўзгаришлар билан боғлиқ ҳолда қайта кўриб чиқиш мақсадга мувофиқдир. Номолиявий маълумотлар жамғарилгандан сўнг, ҳисобот тақдим этиш формати ва унинг дизайни танланади.

Номолиявий ҳисоботни эълон қилишдан олдинги муҳим босқич уни тасдиқлашдир. Маълумотларни тасдиқлаш зарурати тасдиқлаш орқали фойдаланувчиларнинг ошкор этилаётган ахборотга бўлган ишончини ошириш имконияти билан боғлиқ. Бунинг учун хўжалик юритувчи субъект томонидан бир вақтнинг ўзида амалга оширилиши мумкин бўлган ва бир-бирини тўлдирадиган, шу билан фойдаланувчиларнинг эълон қилинаётган ҳисоботга бўлган ишончини оширадиган оммавий номолиявий ҳисоботнинг ишончлилигини тасдиқлаш шаклининг иккита варианти - жамоатчилик тасдиғи ва профессионал тасдиқлаш кўзда тутилган. Бироқ, меъёрий ҳужжатларда жамоатчилик ва/ёки профессионал тасдиқлашнинг мажбурий талаби белгиланмаганлиги учун компаниялар уни ўз ташаббуслари билан амалга оширади, бу эса фойдаланувчиларнинг хўжалик юритувчи субъектлар томонидан ошкор қилинадиган номолиявий маълумотларга бўлган ишончига салбий таъсир кўрсатади.

Бундан ташқари, номолиявий ҳисоботни тайёрлашда меъёрий тартибга солиш муаммоси ўртага чиқади. Чунки бир нечта халқаро стандартлар ва миллий йўриқномалар мавжудлиги сабабли ҳар бир хўжалик юритувчи субъект мустақил равишда ҳисобот тайёрлаш стандартини белгилайди ва уни шакллантириш тартибини ишлаб чиқади. Тармоқ хусусиятлари ва компаниялар фаолиятининг кўламидан келиб чиқиб, ушбу жараён фарқ қилиши мумкин Бу эса ҳисоботдаги маълумотларни келгусида таҳлил қилиш ва манфаатдор фойдаланувчилар томонидан бошқарув қарорларини қабул қилишда қийинчиликлар туғдиради.

Номолиявий ҳисоботларни тузишга оид тавсиялар ҳақида гапирадиган бўлсак, унда Ташаббусга ҳам мурожаат қилиш лозим. Ҳозирги вақтда 4-авлод GRI жорий қилинмоқда, у:

• фақат ҳисобот тайёрлаш тамойиллари ва ҳисоботнинг стандарт элементларини ўз ичига олади;

• ҳисоботларнинг иккита тури — оддий ва кенгайтирилган ҳисобот тузишни назарда тутади.

Халқаро қўлланмалар таҳлилидан фақат ҳисоботнинг доиравий шакллари ва тахминий кўрсаткичларини ажратиб кўрсатиш мумкин, шунинг учун ушбу кўрсаткичларга нисбатан муҳимлик хусусиятини ҳар бир компания мустақил равишда белгилайди.

Халқаро қўлланмаларда номолиявий кўрсаткичларни тақдим этиш алгоритмлари ва шаклларини тавсифлашга ҳаракат қилинган (2- ва 3- жадвал).

Умумий ҳисобот қуйидагиларни ўз ичига олиши керак:

• корхона ўз фаолиятининг иқтисодий, экологик ва ижтимоий соҳаларга таъсири бўйича ҳисоботда акс эттириши шарт бўлган асосий маълумотлар;

• корпоратив бошқарув ҳисоботи. Кенгайтирилган ҳисоботга қуйидагилар киради:

• умумий ҳисобот;

• корхонанинг ривожланиш стратегияси;

• таҳлилий маълумотлар;

• мажбуриятларни виждонан бажариш ва иш юритиш этикаси тўғрисидаги ҳисоботлар.

2-жадвал

Ҳисобот маълумотларини очиб бериш тамойиллари

	Умумий стандарт элементлари (УСЭ)	Специфик стандарт элементлари (ССЭ)
Босқичлари	1. Ҳисоботда акс эттириладиган элементларни танлаш. 2. Махсус тармоқ элементларини текшириш. 3. Сифатни таъминлаш тамойилларига риоя қилиш. 4. Маълумотларни ҳисоботда акс эттириш тартиб-қоидаларини ишлаб чиқиш	1. Бошқарув тизимидаги ёндашувлар ва кўрсаткичлар ҳақидаги маълумотларни аниқлаш. 2. Муҳим маълумотлар ва кўрсаткичларни танлаш. 3. Тармоқ спецификасини текшириш. 4. Ҳисоботда маълумотларни акс эттириш тартиб-қоидаларини ишлаб чиқиш
Ҳисобот	“Мувофиқ” ҳисоботини тайёрлаш учун қуйидагилар зарур: - мазмун тамойилларига риоя қилиш; - кўрсаткичларнинг муҳимлигини аниқлаш; - график материал тайёрлаш	Муҳим деб топилган, аммо GRI 4 рўйхатига киритилмаган маълумотлар билан тўлдирилиши мумкин
Кўрсаткичлар	Стратегия ва таҳлил; фаолият йўналиши; муҳим жиҳатлар ва чегаралар; манфаатдор томонлар билан ўзаро ҳамкорлик; умумий маълумотлар; корпоратив бошқарув; этика ва ҳалоллик	Менежмент соҳасидаги ёндашувлар тўғрисидаги маълумотлар; бошқа муҳим кўрсаткичлар

Манба: GRI асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган. URL: https: //www2 .globalreporting.org/resourcelibrary/GRIG4-Part1-Reporting-Principles-and-Standard-Disclosures.pdf

3-жадвал

«Мувофиқ” ҳисоботи макети

Кўрсаткичлар	Асосий ҳисобот	Кенгайтирилган ҳисобот
УСЭ ҳисоботи	Кўрсаткичларнинг қийматлари	Кўрсаткичларнинг қийматлари
ССЭ ҳисоботи	Кўрсаткичларнинг қийматлари	Кўрсаткичларнинг қийматлари

Манба: GRI стандарти асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган. URL: https: //www2. globalreporting.org/resourcelibrary/GRIG4-Part1-Reporting-Principles-and-Standard-Disclosures.pdf

“Мувофиқ” ҳисоботи мазмуни бўйича тамойиллар: манфаатдор томонлар билан ўзаро ҳамкорлик, барқарор ривожланиш контексти, маълумотларнинг муҳимлиги ва тўлиқлигидир.

“Мувофиқлик” ҳисоботи сифатини таъминлаш тамойиллари: мувозанатлилик, таққосланувчанлик, аниқлик, ўз вақтидалик, ишончлилик.

Шуни ҳам таъкидлаш лозимки, номолиявий ҳисоботлар молиявий, бошқарув, статистик ва барқарор ривожланиш тўғрисидаги ҳисоботларга асосланган бўлиб, улар манфаатдор томонларнинг фикрлари нуқтаи назаридан кўриб чиқилади.

Маҳаллий ва хорижий компанияларнинг номолиявий кўрсаткичларини тузиш алгоритмларини умумлаштириб, номолиявий ҳисобот ўз ичига олиши лозим бўлган қуйидаги бўлимларни ажратиб кўрсатиш мумкин:


- экологик хавфсизлик;
- корпоратив масъулият;
- ижтимоий масъулият;
- меҳнатни муҳофаза қилиш;
- бизнес юритиш этикаси.

Ушбу бўлимларнинг ҳар бири компаниянинг мақсадлари ва стратегиясига, шунингдек, давлат даражасида ишлаб чиқилган меъёрлар ва норасмий қоидаларга мувофиқлаштирилиши керак.

Номолиявий ҳисоботни шакллантириш амалиётидаги муҳим жиҳатлардан бири ишончлилигини тасдиқлаш, яъни верификация масаласидир. Маълумотларнинг ишончлилигини тасдиқлаш, айниқса, маълумотлар фойдаланувчилари учун муҳимдир, чунки улар ҳисоботдаги маълумотлар сифати ва уларнинг ҳақиқатга мос келишига ишонч ҳосил қилишлари керак.

Верификацияни анча кенгроқ: ҳам тасдиқлаш ёки тасдиқлаш стандарт жараёни, ҳам бевосита номолиявий, шунингдек молиявий маълумотларнинг аудити сифатида талқин қилиш мумкин. Чунки фаолиятнинг молиявий натижалари компанияларнинг йиллик ҳисоботларида ҳам тақдим этилиши мумкин.

Kept компанияси номолиявий ҳисоботларни тасдиқлашни 6 та босқичда амалга оширади (2-чизма).



2-чизма. Kept компаниясида номолиявий ҳисоботни тасдиқлаш жараёни
Манба: [13]

Ушбу жараён ҳисобот маълумотларининг ишончлилик даражасини тасдиқловчи мувофиқлик сертификати, шунингдек, ишончни таъминловчи хулоса (ёки топшириқ бўйича ҳисобот) тақдим этиш билан якунланади, унда ҳисоботларни истиқболда такомиллаштириш бўйича хулосалар, мулоҳазалар ёки тавсиялар келтирилади (3-чизма).



3-чизма. Ҳисоботни текшириш натижалари бўйича хулоса турлари ва шакллари таснифи Манба: [13]

ХУЛОСА.

Компаниянинг номолиявий ҳисоботларини тасдиқлаш (верификация) қуйидаги бир нечта муҳим мақсадларга эга:

1) ҳисоботни тасдиқлаш (верификация) компанияга манфаатдор томонлар, жумладан инвесторлар, мижозлар, ҳамкорлар, тартибга солувчи органлар ва умуман жамоатчилик ўртасида ишонч қозонишга ёрдам беради ва энг муҳими мустақил экспертлар томонидан номолиявий ҳисоботларнинг ишончлилиги ва тўғрилигини тасдиқлаш компания фаолиятининг шаффофлигини оширишга хизмат қилади.

2) кўплаб компаниялар номолиявий ҳисобот бўйича халқаро стандартлар ва меъёрлар талабларига бўйсунади (масалан, Барқарор ривожланиш бўйича глобал ҳисоботлар, GRI, ISSB,

IFRS (МҲХС) стандартлари ва бошқалар) - тасдиқлаш (верификация) ушбу талабларга мувофиқлигига ишонч ҳосил қилишга ёрдам беради.

3) номолиявий ҳисоботларни тасдиқлаш (верификация) компания фаолиятидаги ижтимоий масъулият, экологик барқарорлик, корпоратив бошқарув ва бошқа жиҳатлар билан боғлиқ эҳтимолий рисклар ва муаммоли соҳаларни аниқлаш имконини беради.

4) тасдиқлаш (верификация) жараёни компанияга фаолиятидаги самарасиз жараёнлар ва амалиётларни аниқлашга ёрдам бериши мумкин, бу эса ўз навбатида бошқарувни такомиллаштириш ва компания фаолияти самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

5) тасдиқлаш (верификация) компанияга рақобатчилар ва соҳа стандартларига нисбатан ўзининг кучли ва заиф томонларини аниқлаш имконини беради, бу эса ривожланиш стратегиясини ишлаб чиқиш ва рақобатбардошликни ошириш учун фойдали бўлиши мумкин.

Шундай қилиб, номолиявий ҳисоботларни тасдиқлаш (верификация) компанияга нафақат ўз фаолиятининг ишончлилиги ва шаффофлигини оширишга, балки рискларни бошқариш, фаолият самарадорлигини яхшилашга ва ўзини рақобатчилар билан таққослашга ҳам ёрдам беради, бу эса умуман олганда, барқарор ривожланишга ва компаниянинг стратегик мақсадларига эришишига имконият яратади.

Номолиявий ҳисобот хўжалик юритувчи субъектларга экологик, ижтимоий ва иқтисодий йўналишлар кесимида барқарор ривожланиш соҳасидаги фаолияти тўғрисидаги маълумотларни тақдим этиш имконини берувчи долзарб восита ҳисобланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Каспина Р.Г., Чистополова Ж.А. Развитие системы нефинансовой отчетности нефтяных компаний. Учет. Анализ. Аудит = Accounting. Analysis. Auditing. 2022; 9(2):33-41. DOI: 10.26794/2408-9303-2022-9-2-33-41

2. Распоряжение Правительства РФ от 05.05.2017 № 876-р «Об утверждении Концепции развития публичной нефинансовой отчетности и плана мероприятий по ее реализации».

3. Гафурова Д.А., Корнеева Т.А. Нефинансовая отчетность: понятие, стандарты регулирования и вопросы процесса формирования // Вестник Самарского государственного экономического университета. 2025. № 4 (246). С. 40–49.

4. Wiener J.B. The diffusion of regulatory oversight // The Globalization of Cost-Benefit Analysis in Environmental Policy / editors M.A. Livermore, R.L. Revesz. Oxford: Oxford University Press, 2013.

5. Щербаченко П.С. Нефинансовая отчетность: современное состояние и перспективы развития // Современные корпоративные стратегии и управленческие технологии в России: сб. науч. тр. / Финансовый университет при Правительстве РФ. Москва, 2014. Вып. 9, ч. 3. С. 141–146.

6. Современные корпоративные стратегии и технологии в России: монография / под науч. ред. И.Ю. Беляевой, О.В. Даниловой; Финансовый университет при Правительстве РФ. Москва, 2018. 458 с.

7. Володин С.Н., Казакова Ю.В. Нефинансовая отчетность в РФ: проблемы и пути решения // Управление корпоративными финансами. 2015. № 2. С. 104–114.

8. Нефинансовая информация: регулирование, анализ, аудит / под ред. М.А. Осипова; Санкт-Петербургский государственный экономический университет. Санкт-Петербург: Изд-во СПбГЭУ, 2021. 209 с.

9. Нефинансовая отчетность в экономике: опыт XIX – начала XXI в. / М.Л. Пятов, Т.Н. Соловей, А.С. Сорокина, А.А. Гусниева // Вестник Санкт-Петербургского университета. Экономика. 2018. Т. 34, № 3. С. 465–492.
10. Моисеева Е.Н. Опыт формирования нефинансовых отчетов на предприятиях // Учет. Анализ. Аудит. 2019. Т. 6, № 6. С. 76–86.
11. Гусарова Л.В. Нефинансовая отчетность: проблемные вопросы методологии составления // Современная экономика: проблемы и решения. 2024. Т. 6. С. 133–147.
12. Шемякина Т.Ю., Алабина Т.А., Городскова Т.А. Оценка устойчивого развития и проблемы формирования нефинансовой отчетности в современных условиях // Страховое право. 2022. № 2 (95). С. 62–70.
13. Алексеева И.В., Зрожевская Ю.А. Развитие верификации нефинансовой отчетности в России. Учет. Анализ. Аудит = Accounting. Analysis. Auditing. 2023; 10(1):18-27. DOI: 10.26794/2408-9303-2023-10-1-18-27.

Холпўлотов Рустам Ўктамович
PhD., «Бухгалтерия ҳисоби» кафедраси ассистенти, ТДИУ

МОЛИЯВИЙ ИНСТРУМЕНТЛАР ҲИСОБИНИ ЁРИТИБ БЕРИШНИ МЕТОДОЛОГИЯСИНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРГА АСОСАН ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Холполотов Рустам Октамович
PhD., Ассистент кафедры "Бухгалтерский учет", ТГЭУ

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ УЧЕТА ФИНАНСОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ

Xolpulotov Rustam O‘ktamovich
PhD., Assistant of the department "Accounting", TSUE

IMPROVING THE METHODOLOGY OF ACCOUNTING FOR FINANCIAL INSTRUMENTS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS

Аннотация: Мақолада 7-сон МҲХС “Молиявий инструментлар: маълумотларни ёритиб бериш” стандартига мувофиқ, молиявий инструментлар ҳисобини маълумотларни ёритиб беришнинг моҳияти, мақсади, вазифаси ва қўлланиш жиҳатлари очиб берилган.

Жаҳонда сўнги йилларда молия бозорларда молиявий инструментлар хилма-хиллиги ва динамикаси мураккаблиги кескин ошиб бормоқда. Бу эса, молиявий инструментлар рискини оширилишига хизмат қилмоқда.

Мақолада молиявий инструментлар ҳисобининг риск турлари ва уларни ёритиб бериш тартиби очиб берилган. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини тизимида молиявий инструментлар мавзуси энг қийин деб ҳисобланади. Молиявий инструментлар ҳисоби маълумотларини ёритиб бериш кўп билим ва малака талаб қилади.

7-сон МҲХС “Молиявий инструментлар: маълумотларни ёритиб бериш” стандарти маълумотни тўғри ошкор қилиш фандан кўра кўпроқ санъатдир.

Калит сўзлар: молиявий инструментлар, молиявий актив, молиявий мажбурият, улушли восита, қарзли восита, заём, хусусий капитал, риск, кредит риски, ликвидлилик риски, бозор риски.

Аннотация: В соответствии со стандартом «Финансовые инструменты: раскрытие информации» № 7 в статье описаны сущность, цель, функции и аспекты применения раскрытия учета финансовых инструментов.

В последние годы в мире резко возрастает разнообразие финансовых инструментов и сложность их динамики на финансовых рынках. Это служит повышению риска финансовых инструментов.

В статье описаны виды рисков учета финансовых инструментов и порядок их пояснения. В системе международных стандартов финансовой отчетности тема финансовых

инструментов считается самой сложной. Учетная информация по финансовым инструментам требует большого количества знаний и навыков.

МСФО (IFRS) 7 «Финансовые инструменты: раскрытие информации» Правильное раскрытие информации – это скорее искусство, чем наука.

Ключевые слова: финансовые инструменты, финансовый актив, финансовое обязательство, долевой инструмент, долговой инструмент, облигация, частный капитал, риск, кредитный риск, риск ликвидности, рыночный риск.

Abstract: In accordance with the “Financial Instruments: Information Disclosure” standard No. 7, the article describes the essence, purpose, functions and application aspects of financial instrument accounting disclosure.

In recent years, the variety of financial instruments and the complexity of their dynamics in financial markets have sharply increased in the world. This serves to increase the risk of financial instruments.

The article describes the types of risks in accounting for financial instruments and the procedure for explaining them. In the system of international financial reporting standards, the topic of financial instruments is considered the most complex. Accounting information for financial instruments requires a large amount of knowledge and skills.

IFRS 7 Financial Instruments: Disclosures Good disclosure is more of an art than a science.

Key words: financial instruments, financial asset, financial liability, equity instrument, debt instrument, bond, private equity, risk, credit risk, liquidity risk, market risk.

Кириш. Ўзбекистонда молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича бир қатор ишлар амалга оширилмоқда. Бу борада, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4611-сонли қарорида[1] молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишни жадаллаштириш, хорижий инвесторларни ишончли маълумотлар билан таъминлаш, халқаро молия бозорларига кириш имкониятларини кенгайтириш, ҳисоб ва аудит соҳалари мутахассисларини халқаро стандартлар бўйича тайёрлаш тизимини такомиллаштириш муҳим хисобланади.

Хорижий инвесторларни зарур маълумотлар билан таъминлашда 7-сон МҲХС “Молиявий инструментлар: маълумотларни ёритиб бериш” стандартига мувофиқ, молиявий инструментлар ҳақида батафсил тушунча ҳосил қилиш мақсадга мувофиқ.

Чунки корхонанинг молиявий инструментлар ҳолати ундаги ўзгаришлар, улардан кутилаётган риск тўғрисида маълумотларни ёритиб бериш инвестор учун қарор қабул қилишда муҳим омил ҳисобланади. Шу жиҳатдан, хорижий инвесторларни қарор қабул қилишида молиявий инструментлар маълумотларни ёритиб бериш ўта долзарб мавзу ҳисобланади.

Адабиётлар шарҳи. Молиявий инструментлар ҳисобини халқаро стандартлар асосида ёритиб беришни ўрганиш жараёнида, хорижлик иқтисодчи олимларнинг илмий тадқиқотларини ўргандик. Шунга амин бўлдики аввалambор молиявий инструмент нима экканлигига тушунча ҳосил қилиш муҳим ҳисобланар экан. Молиявий инструментларга хорижлик иқтисодчи олимлар илмий тадқиқотларда тариф беришган. Улар жумласига, В.Е.Милова ўтказилган тадқиқотлар асосида Молиявий инструментга қуйидаги таърифи таклиф этган "Молиявий инструмент битим тарафлари ўртасида молиявий актив ва молиявий

мажбурият (капитал восита) бир вақтнинг ўзида пайдо бўлишига олиб келадиган шартнома муносабатлари" [2] деб таъриф келтиришган.

Ю.А.Астахова ўзининг илмий ишида "Молиявий инструментлар бу битимнинг бир иштирокчиси учун молиявий активнинг пайдо бўлишига олиб келадиган молиявий рисклар билан бирга келадиган маблағлар ва молиявий шартномаларни бирлаштирган бухгалтерия тоифаси ва бошқаси учун молиявий мажбуриятлар ёки капитал воситаси"[3] деб тариф берган.

Е.А.Татарко фикрича "Молиявий инструментларнинг аналитик ҳисобининг тизимли регистрларини юритиш, бизнинг фикримизча, ушбу тоифадаги бухгалтерия ҳисоби ва молиявий инструментлар турлари контекстида ташкил этилиши керак. Юқоридагилардан келиб чиқиб, "Қимматли қоғозлар" счёти бўйича аналитик бухгалтерия ҳисоби, “Бошқа молиявий активлар” счёти бўйича аналитик бухгалтерия ҳисоби ва “Ҳосилавий молиявий инструментлар” счёти бўйича аналитик ҳисобни юритиш таклиф этилган"[4].

М.В.Скляров ўзининг илмий ишида молиявий инвестицияга шундай таклиф киритган "Молиявий инвестициялар - иқтисодий самара олиш учун капитални молиявий активларга қўйиш"[5].

В.В.Ковалёвнинг фикрича “Молиявий таҳлил: капитални бошқариш. Инвестициялар танлаш. Ҳисобот таҳлили", унда қуйидаги таъриф берилган: "Энг умумий шаклда улар (молиявий инструментлар) қисқа муддатли ва узоқ муддатли инвестицияларнинг турли шаклларини ўз ичига олади, улар билан савдо молия бозорларида амалга оширилади: акциядорлик ва қарз қимматли қоғозлари, депозитар тилхатлари, опционлар, варрантлар, форвард шартномалари, фючерслар ва своплар"[6].

А.Б.Фелдман "Молиявий маҳсулот" ва "Молиявий инструмент" тушунчалприга қуйидагича тариф берган "Молиявий маҳсулот деганда бозор иштирокчилари ўртасида тегишли талаб ва таклифни келтириб чиқарадиган маълум бир истеъмол қийматини тушуниш таклиф этилади. Молиявий маҳсулотлар бозор иштирокчиларининг ўзаро таъсири натижасида уларга ҳуқуқий шакллар бериб, бозор айланмасида иштирок этувчи аниқ молиявий инструментлар шаклида ўз ифодасини топади"[7].

Тадқиқот методологияси. Мақолада таққослаш, анализ ва синтез, индукция ва дедукция, гуруҳлаш ва бошқа таҳлил усулларидан кенг фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар. БҲХС (IAS) 30-сон "Банклар ва шунга ўхшаш молиявий институтларнинг молиявий ҳисоботларида маълумотларни ошкор қилиш" стандарти 2005 йилда МҲХС (IFRS) 7-сон “Молиявий инструментлар: маълумотларни ёритиб бериш”[8] номлий стандарт остида янгидан нашр этилган.

7-сон (IFRS) МҲХС ўз балансида молиявий инструментларга эга бўлган барча юридик шахслар учун ошкор қилиш талабини белгилайди.

Мазкур МҲХСнинг мақсади фойдаланувчиларга корхоналар томонидан уларнинг молиявий ҳисоботида ёритиб бериладиган қуйидагиларни баҳолаш имконини берувчи маълумотларни таъминлаш бўйича талабларни ўрнатишдан иборат:

-корхонанинг молиявий ҳолати ва молиявий натижаларига молиявий инструментларнинг таъсири қанчалик муҳим эканлиги;

-корхона ҳисобот даври мобайнида ва охирида дуч келган ва молиявий инструментлардан юзага келадиган рискларнинг хусусияти ва даражасини ҳамда корхона ушбу рискларни қандай қилиб бошқаришини[8].

Ушбу МҲХСдаги тамойиллар 32-БҲХС “Молиявий инструментлар: тақдим этиш”[9] ва 9-МҲХС “Молиявий инструментлар”[10] даги молиявий активлар ва молиявий мажбуриятларни тан олиш, баҳолаш ва тақдим этиш бўйича тамойилларни тўлдиради.

Мазкур МҲХСда молиявий инструментларнинг синфлари бўйича маълумотларни ёритиб бериш талаб этилганда, корхона молиявий инструментларни ёритиб бериладиган маълумотнинг хусусиятига хос бўлган ва мазкур молиявий инструментларнинг хусусиятларини ҳисобга оладиган синфларни гуруҳлаши лозим. Корхона молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботда акс эттириладиган моддаларнинг солиштирмасини шакллантириш учун етарли бўлган маълумотларни таъминлаши лозим[8].

Корхона молиявий ҳисоботидан фойдаланувчилар молиявий инструментларнинг молиявий ҳолати ва молиявий натижаларига таъсири қанчалик аҳамиятли эканини баҳолаш имконини берадиган маълумотларни ёритиб бериши лозим. Молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботда акс эттирилган молиявий активлар ва молиявий мажбуриятларнинг тоифаларини кўриб чиқиш талаб этилади.


Шундай қилиб, корхонада кредитлар ва савдо дебиторлик қарзлари бўлса ҳам, молиявий ҳисобот изоҳ ва тушунтиришларни 7-сон МҲХСга биноан акс эттирилади.

7-сон МҲХСга мувофиқ, маълумотларни қандай ошкор қилиш талаб этилишини кўриб чиқадиган бўлсак. 7-сон МҲХС иккита асосий йўналиш бўйича қуйидаги тушунтиришлар мавжуд:

- Молиявий инструментларнинг муҳимлиги
- Молиявий инструментлар рискнинг хусусияти ва даражаси, бу рискларни бошқариш усуллари.

Молиявий инструментларнинг муҳимлиги бўйича корхонанинг молиявий ҳолати ва фаолияти учун аҳамиятли ҳисобланади.


Улар молиявий ҳисоботларда акс этишига кўра бир нечта кичик гуруҳларга бўлинган. 9-сон МҲХС бўйича молиявий инструментлар тоифаларининг ҳар бири бўйича уларнинг баланс қийматини молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисобот ва унинг изоҳлар бўлимида акс эттириш тартибини қуйида кўриб чиқамиз (1-расм).



1-расм. 9-сон МҲХС бўйича молиявий инструментлар тоифаларининг ҳар бири бўйича уларнинг баланс қийматини молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисобот ва унинг изоҳлар бўлимида акс эттириш тартиби

Манба: муаллиф ишланмаси


Фойда ёки зарар ва бошқа умумлашган даромад тўғрисидаги ҳисоботда молиявий инструментлар тўғрисидаги маълумотлар асосан қуйидаги моддалар бўйича ёритиб берилиши керак (2-расм):



2-расм. Фойда ёки зарар ва бошқа умумлашган даромад тўғрисидаги ҳисоботда тан олинадиган молиявий инструментлар тўғрисидаги маълумотларни иловаларда ёритиб берилиши.

Манба: муаллиф ишланмаси

Юқоридагилардан бошқа ёритиб бериладиган маълумотларни қуйидаги расмда кўрсатилганидек гурухларга ажратиш мумкун (3-расм).



3-расм. Бошқа ёритиб бериладиган маълумотлар

Манба: муаллиф ишланмаси

Юқоридаги маълумотларнинг кўп қисмини ҳеч бўлмаганда молиявий инструмент тоифаси бўйича ошкор қилиш лозим.

7-сон МҲХС ўз ичига олмаган бир неча турдаги инструментлар мавжуд бўлиб улар қуйидаги расмда акс эттирилди(4-расм).




4-расм. 7-сон МҲХС ўз ичига олмаган бир неча турдаги инструментлар

Манба: муаллиф ишланмаси

Молиявий инструментлар ҳисобини иловаларда очиб беришда рискнинг табиати ва даражаси хам мухим хисобланади. Корхона молиявий ҳисоботидан фойдаланувчиларга молиявий инструментлар бўйича юзага келадиган ва корхона давр охирида дуч келадиган рискларнинг хусусиятини ва даражасини баҳолашга имкон берадиган маълумотлар ҳисобга олинади.

Ёритиб беришнинг бу қисми жуда кўп меҳнат талаб қилади, чунки у қўшимча таҳлил ва ишларни, айниқса бозор рискларини ёритиб бериш талаб қилади.

7-сон МҲХСга асосан учта асосий риск учун сифат ва миқдорий ошкор қилишни талаб қилади (5-расм):



5-расм. 7-сон МҲХСга мувофиқ рискларни ёритиб бериш

Манба: муаллиф ишланмаси

Ҳар бир риск тури учун қуйидагиларни амалга оширилади:

- Сифат хусусиятига эга маълумотларни ёритиб бериш. Бу эрда корхона қандай рискларга дучор бўлишини, рисклар қандай пайдо бўлишини ва корхона ушбу рискларни қандай бошқаришини ёритиб бериши лозим[8]

Молиявий инструментлардан юзага келадиган рискнинг ҳар бир тури бўйича, корхона қуйидаги бандларни ёритиб бериши талаб қилинади:

1-банд. Рискга мойиллик ва рисклар қандай қилиб пайдо бўлишини;

2-банд. Рискларни бошқариш мақсадлари, сиёсати ва жараёнларини ҳамда рискни баҳолаш учун қўлланган усуллар;

3-банд. Олдинги даврга нисбатан 1-банд ва 2-банд кичик бандлардаги ҳар қандай ўзгаришлар.

- Миқдорий маълумотларни ёритиб бериш: Бунда риск даражаси ҳақида миқдорий маълумотларнинг (рақамларнинг) қисқача мазмунини тақдим этишингиз керак. Бу эрда жуда кўп тафсилотлар мавжуд ва 7-сон МҲХСда ҳар бир риск тури учун аниқ миқдорни ёритиб беришни талаб қилади. Шунингдек, корхона риск контсентрацияси ҳақида маълумот бериши керак.

Кредит риски бу сизнинг молиявий активларингиз билан боғлиқ ва оддий қилиб айтганда, контрагент ўз мажбуриятларини бажармаганлиги сабабли молиявий йуқотиш риски.

Агар корхонада савдо дебиторлик қарзлари бўлса ёки кредит берсангиз, унда корхона кредит рискига дуч келасиз ва сиз стандартнинг ушбу қисмига этибор қаратиши керак.

7-сон МҲХСга асосан корхона қуйидагиларни ошкор қилиши керак:

-кредит рискини бошқариш усулларини;

-кредитда кутилаётган зарарлар билан боғлиқ суммалар тўғрисида маълумотларини;

-кредит рискига мойилик даражасини;

-кредит рискини камайтирадиган гаров ва бошқа кредит қўшимчалари ёритиб бериши.

Тижорат дебиторлик қарзлари учун кредит рискнинг миқдорий маълумотлари қандай ёритиб бериш мумкинлиги қуйидаги жадвалда кўриш мумкин (1-жадвал):

1-жадвал

Савдо дебиторлик қарзларидан шубҳали дебиторлик карзлар миқдорини ҳисоблаш ва ёритиб бериш тартиби

Сегмент	Савдо дебиторлик қарзлар муддати бўйича				
	30 кунгача бўлган	60 кунгача бўлган	90 кунгача бўлган	90 кундан ошган	Жами
Улгуржи мижозлар					
Кутилаётган риск коэффициенти	0,05%	1,5%	6%	15%	
Савдо дебиторлик қарзларини қиймати	53 400	3 700	240	480	58 820
Муддати бўйича шубҳали дебиторлик карз миқдори	**27**	**56**	**74**	**72**	**229**
Чакана мижозлар					
Кутилаётган риск коэффициенти	0,15%	3,5%	9%	20,00%	
Савдо дебиторлик қарзларини қиймати	62 800	5 900	2 700	1500	72 900
Муддати бўйича шубҳали дебиторлик карз миқдори	**94**	**207**	**243**	**300**	**844**

Манба: муаллиф ишланмаси

Ликвидлик рискини ёритиб беришни кўриб чиқар эканмиз аввалambор ликвидлик риски нима экканлигига тўхталсак.

Ликвидлик риски бу корхонанинг молиявий мажбуриятлар билан боғлиқ бўлиб, кредит рискларининг тескариси ҳисобланади. Бу корхона ўз молиявий мажбуриятларини нақд пул ёки бошқа молиявий активлар билан бажара олмаслиги риски.

7-сон МҲХСда асосан ликвидлик рискида қуйидагиларни ёритиб бериш лозим:

-молиявий мажбуриятларни тўлаш муддатини ёритиб бериш (ҳосилавий бўлмаган ва ҳосилавий молиявий рисклар учун алоҳида);

-ликвидлик рискини қандай бошқаришни ёритиб бериш.

Қуйидаги жадвалда ликвидлик рискининг миқдорий маълумотлари ёритиб бериш келтирилган(2-жадвал).

2-жадвал

Молиявий мажбуриятларни тўлаш муддатлари бўйича ёритиб бериш

Сегмент	Молиявий мажбуриятларни тўлаш муддатлари			
	1 йилгача бўлган	1 йилдан 5 йилгача бўлган	5 йилдан кўп бўлган	Жами
Банк кредитлари	3 830	2 570	1200	7 600
Таъминотчилар билан ҳисоб-китоб	33 200	1600	0	34 800
Ҳосил бўлган молиявий мажбуриятлар	8 700	3 670	2 900	15 270
Бошқа молиявий мажбуриятлар	2 500	800	0	3 300
Жами	**48 230**	**8 640**	**4 100**	**60 970**

Манба: муаллиф ишланмаси

Бозор рискини ёритиб бериш энг мухим рискни ёритиб бериш ҳисобланади.

Бозор риски - бу сизнинг молиявий активларингиз ёки молиявий мажбуриятларингизнинг ҳаққоний қиймати ва келажакдаги пул оқимлари ўртасидаги бозор нархларининг ўзгариши билан ўзгариш рискидир.

Бозор риски келажакдаги пул оқимлари ёки ҳаққоний қийматдаги ўзгаришларга нима сабаб бўлиши билан боғлиқ бир нечта таркибий қисмларга эга:

-Валюта курс риски. Валюта курс риски пул оқимлари ёки ҳаққоний қийматнинг ўзгаришига олиб келади;

-Фоиз ставкаларининг ўзгариши риски ("фоиз ставкаси риски"). Пул оқимларининг ўзгариши фоиз ставкаларининг ўзгариши натижасида юзага келади;

- Бошқа нарх риски. Тебранишлар бошқа бозор нархларининг ўзгариши натижасида юзага келади, масалан, товарлар баҳоси, акциялар баҳоси ва бошқалар.

Бозор рискини ошкор қилиш жуда мураккаб ва ҳаракат талаб қилади. Чунки корхона сезгирлик таҳлили ўтказилиши керак.

Сезувчанликни таҳлил қилишнинг икки тури мавжуд бўлиб корхона ўзининг вазиятига мос келадиганини танлаши керак:

-**“Асосий” сезувчанлик таҳлили.** Бунда корхона маълум бир ўзгарувчининг (фоиз ставкаси, валюта курси ва бошқалар) ўзгаришларини моделлаштириши керак. Бу ўзгаришлар фойда ёки зарар ва капиталга қандай таьсир қилишини кўрсатиши лозим.

-**Риск миқдорни таҳлил қилиш.** Бунда корхона ўзгарувчилар ўртасидаги боғлиқликни таҳлил қилиб ёритиб беради. Масалан, фоиз ставкалари ва валюта курслари ўртасидаги ўзаро боғлиқликни таҳлил қилиб ёритиб беради керак.

Юқоридаги қоидалардан кўриниб турибдики, 7-сон МҲХС муҳим миқдордаги маълумотларни ёритиь беришни талаб қилади.

Агар корхона ахборотлари фойдаланувчилар учун фойдали маълумотлар бўлишини истаса, қуйидагиларни кўриб чиқиши лозим:

-Молиявий инструментлар синфларига (масалан, кредит риски ёки ликвидлик рискини ошкор қилиш) кўра бир нечта ёритиб беришларни талаб этади.

Синфлар молиявий инструментлар тоифалари билан бир хил эмас ва бу эрда корхона молиявий инструментларини ҳисобот берувчи фойдаланувчиларга нима мос келиши ҳақидаги фикрига кўра синфларга гуруҳлашингиз керак. Бундан ташқари, корхона турли хил рисклар учун бир хил синфлардан фойдаланмаслиги керак.

-Ёритиб беришларни бирлаштириш мумкин. Битта ёритиб бериш бир нечта талабларни қондириши мумкин.

-Тафсилот даражаси ва муҳимлик ўртасидаги тўғри мувозанатни топиш лозим.

Барча тегишли маълумотларни киритганлигига ишонч ҳосил қилиш керак. Лекин унчалик муҳим бўлмаган тафсилотлар ҳақида ортиқча маълумотни кирит керак эмас. Акс ҳолда, фойдаланувчилар саросимага тушиб қолишига ва ёритиб бериш ҳеч қандай фойда келтирмаслиги мумкин.

Хулоса ва таклифлар.

Мавзуни ўрганиш натижасида шулар кўриндики, хорижий инвесторларни қарор қабул қилишда мухим хисобланган молиявий инструментлар маълумотларни МҲХС асосида ёритиш беришни таъминлашда нималарга этибор бериш керак эканлигига қуйидаги хулосаларга эришилди:

1.Молиявий инструментларнинг муҳим белгиларига мувофиқ таснифини ишлаб чиқиш зарур.

2.Молиявий ҳисоботларнинг халқаро стандартларига мувофиқ молиявий инструментлар маълумотларни ёритиб бериш ёндашувларни умумлаштириш ва хусусиятларни аниқлаш лозим.

3.Молиявий инструментларни маълумотларни ёритиб беришда миллий стандарт мавжуд эмаслигини инобатга олган холда 25 сонли “Молиявий инструментлар: маълумотларни ёритиб” БҲМСни ишлаб чиқиш зарур.

4.Амалдаги қонунчилик асосида молиявий инструментларни маълумотларни ёритиб бериш схемасини таклиф қилиш ва уни такомиллаштириш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш зарур.

Мавзуни ўрганиш натижасида қуйидаги таклифларга эришилди:

1.Савдо дебиторлик қарзларидан шубҳали дебиторлик карзлар миқдорини ҳисоблаш тартиби ва ёритиб беришда учун қўйидаги жадвалдан фойдаланишни таклиф этамиз (3-жадвал).

3-жадвал

Савдо дебиторлик қарзларидан шубҳали дебиторлик карзлар миқдорини ҳисоблаш ва ёритиб бериш тартиби (намунавий шакл)

Сегмент	Савдо дебиторлик қарзлар муддати бўйича			
	Мудати ўтмаган	30 кундан 90 кунгача бўлган	90 кундан ошган	Жами
Улгуржи мижозлар				
Кутилаётган риск коэффициенти				
Савдо дебиторлик қарзларини қиймати				
Муддати бўйича шубҳали дебиторлик карз миқдори				
Чакана мижозлар				
Кутилаётган риск коэффициенти				
Савдо дебиторлик қарзларини қиймати				
Муддати бўйича шубҳали дебиторлик карз миқдори				

2.Юқоридаги 3-жадвалдаги қутилаётган кредит риск коэффициенти (%) аниқлшда Moody's, S&P ва Fitch Ratings агентликларнинг хизматидан фойдаланиш таклиф этамиз.

3.Қуйидаги жадвалда фойдаланиб молиявий мажбуриятларни тўлаш муддатлари бўйича ёритиб беришни таклиф этамиз (4-жадвал).

4-жадвал

Молиявий мажбуриятларни тўлаш муддатлари бўйича ёритиб бериш (намунавий шакл)

Сегментлар	Молиявий мажбуриятларни тўлаш муддатлари					
	1 йилгача бўлган	1 йилдан 3 йилгача бўлган	3 йилдан 5 йилгача бўлган	5 йилдан 10 йилгача бўлган	10 йилдан кўп бўлган	Жами
Банк кредитлари						
Таъминотчилар билан ҳисоб-китоб						
Ҳосил бўлган молиявий мажбуриятлар						
Бошқа молиявий мажбуриятлар						
Жами						

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги «Молиявий ҳисобот нинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-4611-сон Қарори. https://lex.uz/docs/4746047.

2. В.Е.Милова "Учет финансовых инструментовтема" тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.12. 2008г.

https://www.dissercat.com/content/uchet-finansovykh-instrumentov

3. Ю.А.Астахова "Современные подходы к учету финансовых инструментов" тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.12. 2013г.

https://www.dissercat.com/content/sovremennye-podkhody-k-uchetu-finansovykh-instrumentov

4. Е.А.Татарко "Организация бухгалтерского учета финансовых инструментов на предприятии" тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.12. 2010г.

https://www.dissercat.com/content/organizatsiya-bukhgalterskogo-ucheta-finansovykh-instrumentov-na-predpriyatii

5. М.В.Скляров "Организация бухгалтерского учета финансовых инструментов в соответствии с российскими и международными стандартами" тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.12. 2005г

https://www.dissercat.com/content/organizatsiya-bukhgalterskogo-ucheta-finansovykh-instrumentov-v-sootvetstvii-s-rossiiskimi-i

6. В.В.Ковалев «Финансовый анализ: Управление капиталом. Выбор инвестиций. Анализ отчетности» - М.: Финансы и статистика, 1995.

7. Фельдман А.Б., Производные финансовые и товарные инструменты. - М.: 2003

8. МҲХС (IFRS) 7 "Молиявий инструментлар: ахборотни ошкор қилиш". тан олиш" номли молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари.

9. МҲХС (IAS) 32 "Молиявий инструментлар: тан олиш" номли молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари.

10. МҲХС (IFRS) 9 "Молиявий инструментлар" номли молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари.

11. де Сервиньи, Арно; Оливье Рено (2004). Руководство Standard&Poor's по измерению и управлению кредитным риском. Мак Гроу-Хилл. ISBN 978-0-07-141755-6.

12. Алесси, Кристофер. «Спор о кредитных рейтингах. Кампания 2012». Совет по международным отношениям. Архивировано из оригинала 27 июля 2013 года. Проверено 29 мая 2013 г.

13. «DBRS: Краткосрочные и долгосрочные рейтинговые отношения» (PDF). ДБРС. Архивировано из оригинала (PDF) 28 апреля 2011 г. Проверено 28 июня 2013 г.

14. http: ifrs.com

Рахмонов Хуршидбек Шавкат ўғли
свободный соискатель кафедры
«Финансовый учет и отчетность», ТГЭУ
e-mail: xurshidbek0806@gmail.com

ПОРЯДОК ВЕДЕНИЯ УЧЁТА НАЛОГА ЗА ПОЛЬЗОВАНИЕ ВОДНЫМИ РЕСУРСАМИ И ЕГО ПРАКТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ

Rakhmonov Khurshidbek Shavkat ugli
Independent researcher of the Department
of «Financial Accounting and Reporting», TSUE
e-mail: xurshidbek0806@gmail.com

PROCEDURE OF ACCOUNTING FOR THE WATER RESOURCE USE TAX AND ITS PRACTICAL PROBLEMS

Rahmonov Xurshidbek Shavkat o‘g‘li
“Moliyaviy hisob va hisobot” kafedrasi
mustaqil izlanuvchisi, TDIU
e-mail: xurshidbek0806@gmail.com

SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ HISOBINI YURITISH TARTIBI VA AMALIY MUAMMOLARI

Аннотация

Статья посвящена исследованию порядка налогового и бухгалтерского учёта налога за пользование водными ресурсами в Республике Узбекистан.

Проанализированы редакции Налогового кодекса 2020–2026 гг., индексированные ставки на 2026 год и механизм авансовых платежей. Предложена пятиэтапная модель учётного процесса — от определения налоговой базы до отражения в финансовой отчётности.

Разработаны предложения по аналитическим счетам, процедурам внутреннего контроля и цифровой интеграции.

Ключевые слова: налог за пользование водными ресурсами, ресурсные налоги, налоговый учёт, бухгалтерский учёт, лимит водопользования, авансовые платежи, счёт 6410, экологические налоги.

Abstract

The article examines tax and financial accounting for the water resource use tax in the Republic of Uzbekistan.

It analyses amendments to the Tax Code over 2020–2026, the indexed 2026 rates and the advance payment mechanism. A five-stage model of the accounting cycle is proposed, from determining the tax base to presentation in financial statements.

Proposals are developed on analytical sub-accounts, internal control procedures and digital integration.

Key words: water resource use tax, resource taxes, tax accounting, financial accounting, water use limit, advance payments, account 6410, environmental taxes.

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston Respublikasida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha soliq va buxgalteriya hisobini yuritish tartibi tadqiq etilgan.

Soliq kodeksining 2020–2026-yillardagi tahrirlari, 2026-yil uchun indeksatsiya qilingan stavkalar va bo‘nak to‘lovlari mexanizmi tahlil qilingan. Soliq bazasini aniqlashdan to moliyaviy hisobotda aks ettirishgacha bo‘lgan hisob jarayonining besh bosqichli modeli taklif etilgan.

Ularni bartaraf etish bo‘yicha analitik hisobvaraqlar, ichki nazorat tartib-taomillari va raqamli integratsiya yo‘nalishidagi takliflar ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, resurs soliqlari, soliq hisobi, buxgalteriya hisobi, suvdan foydalanish limiti, bo‘nak to‘lovlari, 6410-hisobvaraq, ekologik soliqlar.

Kirish.

Suv tanqisligi Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun eng jiddiy ekologik va iqtisodiy cheklovlardan biriga aylandi. Respublikada foydalaniladigan suv resurslarining asosiy qismi transchegaraviy daryolar hisobiga shakllanadi, iste’molning salmoqli ulushi esa qishloq xo‘jaligi sug‘orishiga to‘g‘ri keladi. Iqlim o‘zgarishi, aholi sonining o‘sishi va sanoatlashuv suv resurslariga bosimni yanada kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda davlat suvdan oqilona foydalanishni rag‘batlantirishning iqtisodiy vositasi sifatida soliq mexanizmiga tobora ko‘proq tayanmoqda.

So‘nggi yillarda suv solig‘i stavkalari muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqilmoqda. 2024-yil uchun sanoat, elektr stansiyalari, uy-joy kommunal xo‘jaligi, avtomobil yuvish shoxobchalari va ichimliklar ishlab chiqaruvchilar uchun stavkalarni 12 foizga oshirish rejalashtirilgan edi [15]. 2025-yildan sanoat korxonalari va ichimlik ishlab chiqaruvchilar uchun stavkalar yana 10 foizga oshdi [16]. 2025-yil 25-dekabrda imzolangan O‘RQ-1108-son Qonun bilan 2026-yil 1-yanvardan barcha stavkalar taxminan 7 foizga indeksatsiya qilindi [14; 17]. Stavkalarning izchil o‘sishi korxonalar uchun suv solig‘ini moliyaviy natijaga sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi xarajat moddasiga aylantirmoqda.

Stavkalar oshgani sari soliq bazasini to‘g‘ri aniqlash, soliqni hisoblash va uni buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirish masalalari ahamiyati ortib bormoqda. Amaliyotda esa suv hajmini o‘lchash, limit doirasidagi va limitdan ortiq iste’molni ajratish, suv ta’minoti tashkilotidan olingan suvni manbalar bo‘yicha taqsimlash hamda bo‘nak to‘lovlarini yakuniy hisob-kitob bilan solishtirish jarayonlarida bir qator muammolar kuzatilmoqda. Mahalliy ilmiy adabiyotlarda resurs soliqlari, asosan, soliq siyosati va byudjet daromadlari nuqtayi nazaridan o‘rganilgan bo‘lib, suv solig‘ining korxona darajasidagi hisob metodikasi yetarlicha yoritilmagan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Tabiiy resurslardan foydalanishga soliq solishning nazariy asoslari A. Pigu tomonidan ishlab chiqilgan tashqi samaralar (eksternaliyalar) konsepsiyasiga borib taqaladi [8]. Pigu yondashuviga ko‘ra, resursdan foydalanish jamiyatga yetkazadigan zarar narx mexanizmida aks etmasa, soliq orqali bu xarajatni foydalanuvchiga yuklash resursni samarali taqsimlash imkonini beradi. W. Baumol va W. Oates ushbu g‘oyani rivojlantirib, ekologik soliqlarni belgilangan ekologik standartga erishishning eng kam xarajatli vositasi sifatida asoslaganlar [9]. Suv solig‘i aynan shu mantiqqa tayanadi: u suvning iqtisodiy qiymatini xo‘jalik subyekti xarajatlariga kiritadi.

Suvni iqtisodiy ne’mat sifatida qarash konsepsiyasi P. Rogers, R. de Silva va R. Bhatia ishlarida batafsil yoritilgan [10]. Mualliflar suvga narx belgilash bir vaqtning o‘zida samaradorlik, adolat va barqarorlik maqsadlariga xizmat qilishi kerakligini, biroq bu maqsadlar o‘rtasida ziddiyat yuzaga kelishini ko‘rsatganlar. A. Dinar va A. Subramanian turli mamlakatlarda suv narxlash tajribasini tahlil qilib, iste’molni o‘lchash infratuzilmasi yo‘qligida narx va soliq vositalarining

samarasi keskin pasayishini qayd etganlar [11]. Bu xulosa O‘zbekiston uchun ham dolzarb, chunki suv hisoblagichlari bilan qamrov hali to‘liq emas.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tadqiqotlarida ekologik soliqlar innovatsiyalarni rag‘batlantiruvchi vosita sifatida baholangan [13]. Unda soliq bazasi resursdan haqiqiy foydalanish hajmiga qanchalik yaqin bo‘lsa, rag‘batlantiruvchi ta’sir shunchalik kuchli bo‘lishi ta’kidlanadi. Demak, suv solig‘i samaradorligi bevosita hisob sifatiga – suv hajmini o‘lchash va hujjatlashtirishning aniqligiga bog‘liq.

Buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan ekologik xarajatlar hisobi S. Schaltegger va R. Burritt tomonidan tizimli o‘rganilgan [12]. Ular ekologik xarajatlarning umumiy xarajatlar tarkibida “yashirin” qolishi boshqaruv qarorlarini noto‘g‘ri qabul qilishga olib kelishini ko‘rsatgan va ularni alohida analitik hisobvaraqlarda yuritishni taklif etgan. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari tizimida suv solig‘i kabi majburiy to‘lovlar IAS 37 “Zaxiralar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar” standarti hamda IFRIC 21 “Yig‘imlar” talqini doirasida ko‘rib chiqiladi [6; 7]. IFRIC 21 ga ko‘ra, yig‘im bo‘yicha majburiyat qonunchilikda belgilangan majburiyatni keltirib chiqaruvchi hodisa yuz berganda tan olinadi. Suv solig‘i uchun bunday hodisa suvdan haqiqiy foydalanish hisoblanadi.

O‘zbekiston olimlari orasida soliq hisobi va audit masalalari B.I. Isroilov, B.A. Hoshimov, R.D. Do‘stmuratov, M.M. To‘laxo‘jayeva, I.N. Qo‘ziyev, A.X. Pardayev, Z.N. Qurbonov va boshqa tadqiqotchilar ishlarida yoritilgan.Ularda soliq majburiyatlarini tan olish, xarajatlarni guruhlash va soliq nazorati masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Biroq mahalliy adabiyotlarda suv solig‘ining korxona darajasidagi hisob metodikasi – limit va manbalar kesimidagi analitik hisob, bo‘nak to‘lovlarini solishtirish, xarajatni tannarx va davr xarajatlari o‘rtasida taqsimlash – alohida tadqiqot predmeti bo‘lmagan. Mazkur maqola shu bo‘shliqni qisman to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotning axborot bazasini uch guruh manbalar tashkil etdi. Birinchisi – normativ-huquqiy hujjatlar: O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi [1], O‘RQ-1108-son Qonun [2], “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonun [3], 21-son BHMS (schyotlar rejasi) [4] hamda mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom [5]. Ikkinchisi – xalqaro standartlar (IAS 37, IFRIC 21) va xorijiy ilmiy adabiyotlar [6–13]. Uchinchisi – Soliq qo‘mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari hamda ixtisoslashgan nashrlardagi rasmiy tushuntirishlar [14–21].

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

- normativ-huquqiy tahlil – Soliq kodeksining suv solig‘iga oid moddalari va ularning 2020–2026-yillardagi tahrirlari qiyosiy o‘rganildi;

- jarayonli modellashtirish – soliq hisobi bosqichlari, axborot oqimlari va mas’ul shaxslar ketma-ketligi aniqlandi;

- tasniflash va tizimlashtirish – amaliy muammolar kelib chiqish manbai va hisob jarayonining bosqichi bo‘yicha guruhlandi.

Tadqiqot cheklovlari quyidagilardan iborat: korxonalar kesimidagi suv solig‘i bo‘yicha ochiq statistika mavjud emasligi sababli empirik qism shartli misol bilan cheklangan; qishloq xo‘jaligi soliq to‘lovchilarining xususiyatlari faqat qisman ko‘rib chiqilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Suv solig‘ining normativ asoslari va 2026-yildagi elementlari

Suv solig‘i Soliq kodeksining alohida bobi bilan tartibga solinadi [1]. Uning asosiy elementlari quyidagicha:

- soliq to‘lovchilar – yer usti va yer osti manbalaridan suv resurslaridan foydalanuvchi yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va belgilangan hollarda jismoniy shaxslar;

- soliq solish obyekti – yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari;

- soliq bazasi – foydalanilgan suv hajmi (kub metrda), birinchi navbatda suv o‘lchash asboblari ko‘rsatkichlari asosida aniqlanadi;

- soliq davri – kalendar yil; joriy soliq davri mobaynida bo‘nak to‘lovlari amalga oshiriladi [18].

Belgilangan limitdan ortiqcha foydalanilgan suv hajmi uchun soliq oshirilgan – besh baravar stavkada hisoblanadi [19]. Bu norma soliq hisobida limit doirasidagi va limitdan ortiq iste’molni alohida yuritish zaruratini keltirib chiqaradi. O‘RQ-1108-son Qonunga muvofiq 2026-yil 1-yanvardan amal qiluvchi asosiy stavkalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari (2026-yil 1-yanvardan), so‘m/m³[1]

Soliq to‘lovchilar va foydalanish yo‘nalishi	Yer usti manbalari	Yer osti manbalari
Alkogolsiz ichimliklar va alkogol mahsulotlari (pivo va vinodan tashqari) ishlab chiqarish	40 660	40 660
Avtotransport vositalarini yuvish	16 050	16 050
Boshqa korxonalar (sanoat, YTT, tijorat ko‘chmas mulki) va jismoniy shaxslar	749	910
Elektr stansiyalari va kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari	118	144
Qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish, baliqchilik, dehqon va fermer xo‘jaliklari	107	107

Jadvaldan ko‘rinadiki, stavkalar foydalanish maqsadiga qarab keskin tabaqalashtirilgan: avtomobil yuvish uchun stavka qishloq xo‘jaligi sug‘orishiga nisbatan qariyb 150 baravar, ichimliklar ishlab chiqarish uchun esa 380 baravardan yuqori. Yer osti suvlari uchun stavka yer usti suvlariga nisbatan taxminan 20 foiz yuqori belgilangan, bu esa yer osti zaxiralarini muhofaza qilish maqsadini aks ettiradi.

Stavkalardan tashqari, mahalliy Kengashlarga suv solig‘i stavkalariga 0,7 dan 1,5 gacha pasaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar qo‘llash vakolati berilgan [17]. Lazer bilan tekislanishi lozim bo‘lgan, ammo tekislanmagan sug‘oriladigan yerlarda foydalanilgan suv hajmiga 1,2 gacha oshiruvchi koeffitsiyent qo‘llanishi mumkin [21]. Natijada bir xil faoliyat turi uchun soliq yuki hududlar bo‘yicha farqlanadi va korxona hisob siyosatida bu holat inobatga olinishi kerak.

Bo‘nak to‘lovlari va hisobot topshirish tartibi

Bo‘nak to‘lovlari tartibi soliqning yillik summasiga bog‘liq. Soliq davri uchun soliq summasi bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) 200 baravaridan ortiq bo‘lgan, aylanmadan olinadigan soliqni to‘lamaydigan yuridik shaxslar har oyda yillik summaning 1/12 qismini to‘laydi [18]. Summasi 200 BHM dan kam bo‘lgan yuridik shaxslar, aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchilar va yakka tartibdagi

[1] *Manba: O‘RQ-1108-son Qonun asosida [2; 14].*

tadbirkorlar har chorak uchinchi oyining 20-sanasidan kechiktirmay yillik summaning 1/4 qismini to‘laydi [18]. Joriy yil uchun bo‘nak to‘lovlari summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma soliq organiga 20-yanvargacha taqdim etiladi [18].

Yil yakunida yillik soliq hisoboti (shakl kodi 10601) topshiriladi; uning katta qismi soliq organlarining ma’lumotlar bazasi asosida avtomatik to‘ldiriladi, soliq to‘lovchi esa yer usti va yer osti suvlari nisbatini hamda to‘langan bo‘nak summalarini kiritadi [20]. Agar bo‘nak to‘lovlari summasi yillik hisobotdagi soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq kamaytirilgan bo‘lsa, soliq organi bo‘nak to‘lovlarini haqiqiy summadan kelib chiqib qayta hisoblaydi va penya hisoblaydi [18]. Demak, bo‘nakni rejalashtirishdagi xato korxona uchun bevosita moliyaviy oqibatga ega.

Suv solig‘i hisobining besh bosqichli modeli

Normativ talablar va amaliyot tahlili asosida suv solig‘i hisobini besh bosqichdan iborat jarayon sifatida modellashtirish taklif etiladi (2-jadval).

2-jadval.

Suv solig‘i hisobining bosqichlari[2]

Bosqich	Mazmuni	Asosiy hujjatlar	Mas’ul	Hisobvaraqlar
1. Soliq bazasini aniqlash	Suv hajmini manbalar va limit bo‘yicha o‘lchash	Hisoblagich ko‘rsatkichlari jurnali, limit to‘g‘risidagi ruxsatnoma, suv ta’minoti tashkiloti hisob-fakturalari	Bosh energetik, texnolog	–
2. Soliqni hisoblash	Hajmni stavka va koeffitsiyentga ko‘paytirish	Soliq hisob-kitobi registri	Soliq hisobchisi	–
3. Majburiyatni tan olish	Xarajat va byudjetga qarzni aks ettirish	Buxgalteriya ma’lumotnomasi	Bosh buxgalter	2010, 9420, 9430 / 6410
4. To‘lash va solishtirish	Bo‘nak to‘lash, soliq organi bilan solishtirma dalolatnoma	To‘lov topshiriqnomasi, solishtirma dalolatnoma	Moliya bo‘limi	6410 / 5110
5. Hisobot	Yillik soliq hisoboti va moliyaviy hisobotda ochib berish	10601 shakl, moliyaviy hisobotga izohlar	Bosh buxgalter	–

Modelning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, soliq summasining to‘g‘riligi buxgalteriya bo‘limidan oldin – texnik xizmatlar darajasida shakllanadi. Birinchi bosqichda yo‘l qo‘yilgan xato keyingi barcha bosqichlarga o‘tadi va yil yakunidagi qayta hisob-kitob hamda penya ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Buxgalteriya hisobida aks ettirish

[2] *muallif ishlanmasi*

21-son BHMS dagi schyotlar rejasiga muvofiq [4] suv solig‘i byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz sifatida 6410-hisobvaraqda hisobga olinadi. Xarajat esa suvdan foydalanish yo‘nalishiga qarab ishlab chiqarish xarajatlari yoki davr xarajatlariga olib boriladi [5]. Misolda limit doirasidagi soliqning 90 foizi ishlab chiqarish ehtiyojlariga, 10 foizi ma’muriy binolarga to‘g‘ri keladi deb qabul qilingan. Limitdan ortiq iste’mol uchun to‘langan qo‘shimcha summa normal ishlab chiqarish sharoitiga xos emasligi sababli boshqa operatsion xarajatlarda aks ettirilishi taklif etiladi.

3-jadval.

Suv solig‘i bo‘yicha buxgalteriya provodkalari[3]

№	Xo‘jalik operatsiyasi	Debet	Kredit
1	Limit doirasidagi soliq hisoblandi – ishlab chiqarish ehtiyojlari (90%)	2010	6410
2	Limit doirasidagi soliq hisoblandi – ma’muriy ehtiyojlar (10%)	9420	6410
3	Limitdan ortiq iste’mol uchun qo‘shimcha soliq hisoblandi	9430	6410
4	Yil davomida bo‘nak to‘lovlari o‘tkazildi (12 × 8 677 375)	6410	5110
5	Yillik hisobot bo‘yicha qo‘shimcha soliq to‘landi	6410	5110
6	Bo‘nak to‘lovlari kam ko‘rsatilgani uchun penya hisoblandi	9430	6410

Manba: muallif ishlanmasi.

Amaliyotdagi asosiy muammolar

O‘tkazilgan tahlil suv solig‘i hisobida hisob jarayonining turli bosqichlarida yuzaga keluvchi oltita asosiy muammoni aniqlash imkonini berdi (4-jadval).

4-jadval.

Suv solig‘i hisobidagi amaliy muammolar tasnifi[4]

№	Muammo	Bosqich	Oqibati
1	Suv o‘lchash asboblarining yo‘qligi yoki nosozligi	Soliq bazasini aniqlash	Hajm me’yorlar yoki texnik hisob-kitob bo‘yicha aniqlanadi; real iste’mol bilan farq yuzaga keladi
2	Suv ta’minoti tashkilotidan olingan suvni yer usti va yer osti manbalariga taqsimlash	Soliq bazasini aniqlash	Nisbat yil boshida noma’lum, rejalashtirish va bo‘nak hisobi aniqligi pasayadi
3	Limit doirasidagi va limitdan ortiq hajmni ajratish	Soliqni hisoblash	Limit yillik belgilansa-da, ortiqcha iste’mol ko‘pincha faqat yil oxirida aniqlanadi
4	Bo‘nak to‘lovlari va yillik summa o‘rtasidagi farq	To‘lash va solishtirish	10 foizdan ortiq farqda qayta hisob-kitob va penya
5	Soliq xarajatini tannarx va davr xarajatlari o‘rtasida taqsimlash mezonining yo‘qligi	Majburiyatni tan olish	Mahsulot tannarxi va moliyaviy natija buziladi, tarmoq bo‘yicha taqqoslash qiyinlashadi
6	Stavka, koeffitsiyent va imtiyozlarning tez-tez o‘zgarishi	Barcha bosqichlar	Hisob siyosati va dasturiy ta’minotni har yili yangilash zarurati

Manba: muallif ishlanmasi.

[3] *Manba: muallif ishlanmasi*
[4] *Manba: muallif ishlanmasi*

Muammolarning to‘rttasi (1–4) bir umumiy sababga ega: soliq bazasini shakllantiruvchi texnik ma’lumotlar buxgalteriya tizimiga kechikib va yig‘ma shaklda kelib tushadi. Natijada suv solig‘i amalda yil oxirida “qayta tiklanadigan” ko‘rsatkichga aylanadi, vaholanki Soliq kodeksi oylik yoki choraklik bo‘nak tizimini nazarda tutadi.

Natijalar muhokamasi va takliflar

Tadqiqot natijalari suv solig‘i hisobidagi muammolar asosan buxgalteriya texnikasida emas, balki hisob uchun axborot shakllanishi bosqichida ekanini ko‘rsatdi. Bu xulosa A. Dinar va A. Subramanianning o‘lchash infratuzilmasi bo‘lmagan sharoitda suv narxlash vositalarining samarasi pasayishi haqidagi xulosasiga mos keladi [11]. OECD tadqiqotlarida ham soliq bazasi haqiqiy iste’molga qanchalik yaqin bo‘lsa, ekologik soliqning rag‘batlantiruvchi ta’siri shunchalik kuchli bo‘lishi ta’kidlangan [13]. Demak, suv hisoblagichlari bilan qamrovni kengaytirish nafaqat soliq nazorati, balki suv solig‘ining iqtisodiy funksiyasini ro‘yobga chiqarish sharti hamdir.

S. Schaltegger va R. Burritt ekologik xarajatlarning umumiy xarajatlar tarkibida “yashirin” qolishi boshqaruv qarorlariga salbiy ta’sir qilishini ta’kidlagan [12]. Amaldagi schyotlar rejasi suv solig‘ini 6410-hisobvaraqda boshqa soliqlar bilan birga yuritish imkonini beradi, biroq limit va manba kesimida analitik hisobni talab qilmaydi. Shu sababli korxona rahbariyati suv xarajatining qaysi qismi samarasiz iste’mol natijasi ekanini ko‘ra olmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

Birinchi taklif – analitik hisobvaraqlar tizimi. 6410-hisobvaraq bo‘yicha suv solig‘ini quyidagi subhisobvaraqlarda yuritish tavsiya etiladi (5-jadval).

5-jadval.

6410-hisobvaraq bo‘yicha suv solig‘ining tavsiya etilgan subhisobvaraqlari[5]

Subhisobvaraq	Mazmuni
6410-SV-1	Yer usti manbalari, limit doirasida
6410-SV-2	Yer osti manbalari, limit doirasida
6410-SV-3	Limitdan ortiq iste’mol (barcha manbalar)
6410-SV-4	Bo‘nak to‘lovlari va penyalar

Shunga mos ravishda 2010, 9420 va 9430-hisobvaraqlarda “Suv solig‘i” xarajat moddasi ajratiladi. Bu tizim yillik soliq hisobotini to‘ldirishni soddalashtiradi va boshqaruv uchun limitdan ortiq iste’molning narxini alohida ko‘rsatadi.

Ikkinchi taklif – limitning oylik monitoringi. Yillik limit oylar bo‘yicha taqsimlanib, texnik xizmat har oy hisoblagich ko‘rsatkichlarini buxgalteriyaga topshiradi. Haqiqiy iste’mol kumulyativ ravishda limitning 90 foiziga yetganda rahbariyatga ogohlantirish yuboriladi. Bu chora ortiqcha iste’molni yil oxirida emas, yuzaga kelayotgan paytda boshqarish imkonini beradi.

Uchinchi taklif – bo‘nak to‘lovlarini choraklik qayta ko‘rib chiqish. Soliq kodeksi soliq bazasi o‘zgarganda aniqlashtirilgan ma’lumotnoma taqdim etish imkonini beradi [18]. Har chorak oxirida haqiqiy va rejalashtirilgan iste’molni solishtirib, farq 5 foizdan oshsa aniqlashtirilgan ma’lumotnoma topshirish ichki nazorat qoidasi sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq. Bu 10 foizlik chegaradan o‘tish va penya xavfini kamaytiradi.

To‘rtinchi taklif – xarajatlarni taqsimlash mezoni. Hisob siyosatida suv solig‘ini ishlab chiqarish va ma’muriy ehtiyojlar o‘rtasida taqsimlash bazasi (alohida hisoblagichlar yoki texnologik me’yorlar) qayd etilishi, limitdan ortiq iste’mol uchun qo‘shimcha summa esa boshqa operatsion

[5] muallif ishlanmasi.

xarajatlarda aks ettirilishi lozim. Bu tannarxni normal ishlab chiqarish sharoitidagi xarajatlar bilan cheklash tamoyiliga mos keladi.

Beshinchi taklif – raqamli integratsiya. Masofadan ma’lumot uzatuvchi “aqlli” suv hisoblagichlari ko‘rsatkichlarini korxonaning buxgalteriya dasturi (masalan, 1C) bilan integratsiya qilish soliq bazasini avtomatik shakllantirish imkonini beradi. Uzoq muddatda bunday ma’lumotlarni soliq organlarining elektron tizimlari bilan bog‘lash yillik hisobotni deyarli to‘liq avtomatlashtirishga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot natijalarini talqin qilishda ayrim cheklovlarni hisobga olish lozim. Empirik qism shartli korxona misoliga asoslangan, shu sababli muammolarning tarqalganlik darajasi miqdoriy baholanmagan. Kelgusi tadqiqotlarda korxonalar so‘rovi yoki soliq tekshiruvlari ma’lumotlari asosida bu muammolarning amaliy ko‘lamini baholash maqsadga muvofiq.

Xulosa.

O‘tkazilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

1. 2024–2026-yillarda suv solig‘i stavkalari izchil oshirildi, 2026-yildan barcha stavkalar taxminan 7 foizga indeksatsiya qilindi. Stavkalar foydalanish maqsadi va manba turiga qarab keskin tabaqalashgan, mahalliy koeffitsiyentlar esa soliq yukining hududiy farqlanishiga olib keladi. Bu suv solig‘ini korxona moliyaviy natijasiga sezilarli ta’sir etuvchi xarajatga aylantirmoqda.

2. Suv solig‘i hisobi besh bosqichli jarayon sifatida tashkil etilishi lozim: soliq bazasini aniqlash, soliqni hisoblash, majburiyatni tan olish, to‘lash va solishtirish, hisobot. Soliq summasining to‘g‘riligi birinchi navbatda texnik xizmatlar darajasida – suv hajmini o‘lchash va hujjatlashtirish bosqichida ta’minlanadi.

3. Amaliyotda oltita asosiy muammo aniqlandi; ularning aksariyati soliq bazasiga oid texnik ma’lumotlarning buxgalteriyaga kechikib va yig‘ma shaklda kelishi bilan bog‘liq.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagilar tavsiya etiladi:

- 6410-hisobvaraq bo‘yicha manba va limit kesimidagi analitik subhisobvaraqlarni joriy etish;
- suvdan foydalanish limitining oylik monitoringini yo‘lga qo‘yish;
- bo‘nak to‘lovlarini har chorakda qayta ko‘rib chiqish;
- hisob siyosatida suv solig‘i xarajatini taqsimlash mezonlarini belgilash;
- suv hisoblagichlarini buxgalteriya tizimi bilan raqamli integratsiya qilish.

Taklif etilgan yondashuvni amalga oshirish suv solig‘i bo‘yicha soliq risklarini kamaytiradi, moliyaviy hisobotning ishonchliligini oshiradi va suv solig‘ining suvdan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish funksiyasini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (O‘RQ-599, 30.12.2019, amaldagi tahrirda).

2. “Soliq va byudjet siyosatining 2026-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-1108-son Qonuni, 25.12.2025.

3. “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 06.05.1993, 837-XII-son (amaldagi tahrirda).

4. 21-son BHMS “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma”. AV tomonidan 23.10.2002 da 1181-son bilan ro‘yxatga olingan.

5. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom. Vazirlar Mahkamasining 05.02.1999 yildagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan (amaldagi tahrirda).

6. IAS 37 Provisions, Contingent Liabilities and Contingent Assets. – London: IFRS Foundation.

7. IFRIC 21 Levies. – London: IFRS Foundation, 2013.

8. Pigou A.C. The Economics of Welfare. – London: Macmillan, 1920.

9. Baumol W.J., Oates W.E. The Theory of Environmental Policy. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 1988.

10. Rogers P., de Silva R., Bhatia R. Water is an economic good: How to use prices to promote equity, efficiency, and sustainability // Water Policy. – 2002. – Vol. 4, No. 1. – P. 1–17.

11. Dinar A., Subramanian A. Water Pricing Experiences: An International Perspective. World Bank Technical Paper No. 386. – Washington, DC: World Bank, 1997.

12. Schaltegger S., Burritt R. Contemporary Environmental Accounting: Issues, Concepts and Practice. – Sheffield: Greenleaf Publishing, 2000.

13. OECD. Taxation, Innovation and the Environment. – Paris: OECD Publishing, 2010.

Foydalanilgan saytlar ro‘yxati (resursning to‘liq manzili):

14. https://www.spot.uz/oz/2026/01/09/water/

15. https://www.spot.uz/oz/2023/11/02/budget-address/

16. https://anhor.uz/uzl/news/o-zbekistonda-2025-yildan-ko-chmas-mulk-yer-va-suv-resurslaridan-foydalanishga-soliqlar-oshadi/

Raxmatullaev Bobir Chorshamiyevich
PhD, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti
e-mail: bobir_rahmatullayev@tues.uz
ORCID ID: 0009-0002-9182-1893

HUDUDLARNING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Рахматуллаев Бобир Чоршамиевич
PhD, доцент Термезский университет экономики и сервиса
e-mail: bobir_rahmatullayev@tues.uz
ORCID ID: 0009-0002-9182-1893

ПРОБЛЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ РЕГИОНОВ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ

Raxmatullaev Bobir Chorshamiyevich
PhD, Associate Professor of Termez University of Economics and Service
e-mail: bobir_rahmatullayev@tues.uz
ORCID ID: 0009-0002-9182-1893

CHALLENGES IN ENHANCING THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF REGIONS AND WAYS TO ADDRESS THEM

Annotasiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi hududlarining investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda yuzaga kelayotgan tizimli muammolar va ularning makroiqtisodiy rivojlanishga ta’siri ilmiy tahlil qilingan. Hududlararo investitsiyaviy uzilishlar, institusional to‘siqlar, infratuzilmaviy va inson kapitali bilan bog‘liq muammolar guruhlarga ajratilib o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida hududiy investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy hamda mahalliy kapitalni samarali jalb etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiyaviy jozibadorlik, hududiy iqtisodiyot, infratuzilma, institusional muhit, inson kapitali, investitsiyaviy risk, integral indeks, imtiyozli kredit, foiz stavkasi, kichik biznes sub'ektlari, bandlik, imtiyozli davr, lizing, kompensasiya.

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ системных проблем, возникающих при повышении инвестиционной привлекательности регионов Республики Узбекистан, и их влияния на макроэкономическое развитие. В группах изучаются межрегиональные инвестиционные разрывы, институциональные барьеры, проблемы, связанные с инфраструктурой и человеческим капиталом. По результатам исследования разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по улучшению регионального инвестиционного климата и эффективному привлечению иностранного и местного капитала.

Ключевые слова: инвестиционная привлекательность, региональная экономика, инфраструктура, институциональная среда, человеческий капитал, инвестиционный риск, интегрированный индекс, льготное кредитование, процентная ставка, малые предприятия, занятость, льготный период, лизинг, компенсация.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the systemic challenges that arise when enhancing the investment attractiveness of regions in the Republic of Uzbekistan, as well as their impact on macroeconomic development. The study examines interregional investment disparities, institutional barriers, and issues related to infrastructure and human capital. Based on the findings, the author develops evidence-based proposals and recommendations for improving the regional investment climate and effectively attracting both foreign and domestic capital.

Keywords: investment attractiveness, regional economy, infrastructure, institutional environment, human capital, investment risk, integrated index, preferential lending, interest rate, small enterprises, employment, grace period, leasing, compensation.

Kirish

Hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish yo‘lidagi muammolarni aniqlash ularni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hozirgi kunda milliy va hududiy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng markaziy va hal qiluvchi masalalaridan biridir.

Makroiqtisodiy va tarkibiy o‘zgarishlar nuqtai nazaridan hududlar (viloyatlar va tumanlar) o‘rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi uzilishlarni kamaytirish bevosita investitsiyalarning oqilona va teng taqsimlanishiga bog‘liq. Markaziy shaharlar va chekka hududlar o‘rtasidagi farqni qisqartirish faqat hududiy jozibadorlikni oshirish orqali amalga oshiriladi.

Aholi sonining shiddat bilan o‘sishi sharoitida an’anaviy resurslar va markazlashgan davlat budjet mablag‘lari ehtiyojlarni to‘liq qondira olmaydi. Shu sababli hududlarning xususiy va xorijiy kapitalni jalb qilish salohiyatini oshirish iqtisodiy o‘sishning asosiy manbaiga aylanmoqda. Bir vaqtning o‘zida hududiy investitsiyaviy jozibadorlik – bu shunchaki geografik yoki tabiiy resurslar maydoni emas, balki institutlar, infratuzilma, inson kapitali va xatarlar (risklar) yig‘indisidir. Hududiy risklarni boshqarish investorlar uchun eng muhim omil – kapitalning xavfsizligi va daromadliligi. Hududlardagi byurokratik va infratuzilmaviy to‘siqlarni tizimli tahlil qilish va ularni ilmiy asoslangan modellashtirish orqali risklarni kamaytirish yo‘llarini ishlab chiqish zarur. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD)ning hisobot ma’lumotlariga ko‘ra, “2025-yilda global to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar o‘rtacha o‘sishni ko‘rsatdi, ammo geosiyosiy keskinliklar va savdo bilan bog‘liq risklar tufayli tiklanish beqaror bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy sharoitda investorlar qulay investitsiya muhitining asosiy tarkibiy qismi sifatida mulk huquqi kafolatlariga alohida e’tibor qaratmoqda”[1]· Bunday holat hududlarda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishning dolzarbligini ifoda etadi hamda bu boradagi muammolarni aniqlash va ularning yechimiga oid ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishning zarurligini taqozo etadi.

Adabiyotlar sharhi

Hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish bilan bog‘liq muammolar bir qator xorijlik va mahalliy iqtisodchi-olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

R.Xigginz yondashuvining asosiy jihati “hududning investitsion jozibadorligi bevosita unda joylashgan obyektlarning rentabelligi bilan ifodalanadi. R.Xigginz korporativ moliya nuqtai nazaridan yondashib, jozibadorlikni miqdoriy (mikroiqtisodiy) baholash mumkin bo‘lgan moliyaviy muhit sifatida talqin qiladi”[2]. Hududdagi mikroiqtisodiy sharoitlar (soliqlar, resurs narxlari, logistika) oxir-oqibat korxonaning foyda marjasida va kapital rentabelligida aks etadi. Ammo, ta’rif

biroz tor doirali bo‘lib, hududning makroiqtisodiy va institutsional muhiti (mulk huquqi, siyosiy barqarorlik) nazardan chetda qolgan. Yuqori rentabellik ba’zan yuqori xavf (risk) evaziga paydo bo‘lishi mumkin, bu esa barcha investorlar uchun jozibadorlikni anglatmaydi.

S.Bodi, A.Keyn va A.Markus yondashuviga ko‘ra “jozibadorlik – bu investorning kelajakdagi foyda bo‘yicha kutilmalari va shu kutilmalarning investor talablariga mos kelishidir”[3]. Ushbu ta’rif kutilmalar nazariyasi konsepsiyasiga asoslanadi. Investitsion jozibadorlik – bu obyektiv va subyektiv omillarning sintezi, yayni hudud dalillarga ko‘ra boy bo‘lishi mumkin, lekin investorning psixologiyasi va kelajakdan kutayotgan daromad darajasiga mos kelmasa, u jozibador hisoblanmaydi. Moliyaviy va iqtisodiy qarorlar kelajakka qaratilgani sababli, jozibadorlikning “kutilayotgan foyda” bilan bog‘lanishi amaliy jihatdan juda o‘rinlidir.

Klassik va zamonaviy iqtisodiy geografiya hamda mintaqaviy iqtisodiyot nazariyalariga ko‘ra, (masalan, V.Kristallerning markaziy joylar nazariyasi[4] yoki T.Xegerstedning innovasion diffuziya nazariyasi[5]), hududlar o‘zlarining geografik o‘rni, tabiiy-resurs salohiyati va infratuzilmaviy ta’minlanganligi bilan keskin farq qiladi. Baholash shu tabiiy tengsizliklarni aniqlab, har bir hududning o‘ziga xos raqobatdosh ustunliklarini yuzaga chiqaradi.

Ilmiy jihatdan har bir hudud cheklangan iqtisodiy resursga ega (mehnat resurslari, xom ashyo, moliyaviy va tabiiy boyliklar). investitsiyaviy jozibadorlikni baholash ushbu mavjud resurslarning qay darajada samarali integrasiya qilinganligini va kapital qo‘yilmalarni qabul qilishga tayyorligini ko‘rsatib beradi.

Mintaqaviy iqtisodiyot va hududiy joylashuv nazariyalariga ko‘ra (masalan, N.Kaldorning kumulyativ o‘sish nazariyasi[6]), bozor mexanizmlari o‘z holicha rivojlansa, hududlar o‘rtasidagi nomutanosiblik yaqqol kuchayib ketadi. Boy hududlar yanada rivojlanib, orqada qolgan hududlar rezurslardan mahrum bo‘lishi mumkin. Investitsiyaviy jozibadorlikni baholash orqali davlat siyosati orqali resessiyadagi yoki depressiv hududlarning muammoli tomonlari aniqlanadi. Bu orqali kapital oqimini faqatgina markazga yoki tayyor sanoat hududlariga emas, balki chekka hududlarga ham yo‘naltirish uchun ilmiy asoslangan tayanch nuqtalari yaratiladi.

Nobel mukofoti laureati Oliver Uilyamsonning transaksiya xarajatlari nazariyasiga ko‘ra[7], bozor ishtirokchilari ma’lumot yetishmasligi sharoitida juda katta xarajatlarga duch keladilar. Investor uchun yangi hududga kirib borish doimo yuqori xavf va noaniqlik bilan bog‘liq. Shu bois investitsiyaviy jozibadorlikni ilmiy asosda baholash va ochiq reytingdan o‘tkazish bozordagi shaffoflikni oshiradi. Investor hududning haqiqiy salohiyati, infratuzilmasi, ma’muriy byurokratiya darajasi va tavakkalchiliklari haqida oldindan xolis ma’lumotga ega bo‘ladi. Bu esa qaror qabul qilish vaqtidagi transaksiya xarajatlarini keskin kamaytiradi.

Zamonaviy iqtisodiyotda resurslarga asoslangan yondashuv bilan birga institusional yondashuv ham juda muhim o‘rin tutmoqda (Nobel mukofoti laureati D.Nort nazariyasi[8]). Hududda qanchalik boy tabiiy resurs yoki arzon ishchi kuchi bo‘lmasin, agar u yerdagi institutsional muhit (qonunlarning ishlashi, amal qilishi, korrupsiyaning pastligi, mulkdorlar huquqining himoyasi) shakllanmagan bo‘lsa, kapital kirib kelmaydi. Shuning uchun baholash tizimi faqatgina iqtisodiy raqamlarni emas, balki mintaqadagi institusional muhitning investitsiyalarni qabul qilishga qanchalik tayyorligini ko‘rsatadi. Bu mahalliy hokimiyat organlariga o‘z boshqaruv tizimini sozlash, ma'muriy to‘siqlarni olib tashlash va biznes uchun qulay muhit yaratish borasida ilmiy asoslangan signal beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning nazariy asosini hududiy iqtisodiyot, investitsiyalar nazariyasi, institusional iqtisodiyot va risklarni boshqarish sohasidagi mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari, shuningdek, davlatning hududiy rivojlanish va investitsiya muhitini yaxshilashga oid me’yoriy-

huquqiy hujjatlari va konsepsiyalari tashkil etadi. Mavzu doirasida qo‘yilgan vazifalarni hal etish uchun quyidagi ilmiy abstraksiya va tizimli tahlil, qiyosiy va tarkibiy tahlil metodlaridan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatni barqaror rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirishning eng muhim shartlaridan biri – bu hududlarga kapital oqimini faol jalb etish hisoblanadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda investitsiya muhitini erkinlashtirish va investorlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, mamlakat hududlari o‘rtasida investitsiyalarni jalb qilish darajasida sezilarli disproporsiya (tengsizlik) saqlanib qolmoqda. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va mahalliy kapitalning asosiy qismi poytaxt va bir nechta yirik sanoatla

shgan viloyatlar ulushiga to‘g‘ri kelmoqda, chekka va qishloq hududlari esa hanuzgacha past investitsiyaviy faollikni namoyon etmoqda. Bu esa hududlarning investitsiyaviy jozibadorligiga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni chuqur ilmiy tahlil qilish va ularni bartaraf etishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Hududlarning jozibadorlik darajasi va mavjud holatini tushunish uchun quyidagi qiyosiy jadvalning keltirilishi o‘rinlidir (1-jadval).

I guruhdagi hududlar – Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Navoiy viloyati iqtisodiyotning aglomerasiya effekti yuqori bo‘lgan hududlardir. Bu yerda kapital, yuqori texnologiyalar va malakali mehnat resurslarining zich to‘planishi kuzatiladi. Bu hududlarda transzaksion xarajatlar past va bozorga chiqish imkoniyatlari yuqori. Navoiy viloyati alohida resurs-sanoat modeliga (tog‘-kon, metallurgiya, erkin iqtisodiy zona) tayansa, Toshkent aglomerasiyasi moliyaviy va xizmat ko‘rsatish markazi sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq, bozorning to‘yinishi va resurslar cheklangani sababli “manfiy aglomerasiya effekti” yuzaga keladi. Yer maydonlari va ijara narxlarining qimmatligi kapital xarajatlarni oshiradi, bu esa ishlab chiqarishni ushbu markazlardan qo‘shni va chekka hududlarga surish zaruratini keltirib chiqaradi.

II guruhdagi hududlar – Samarqand, Farg‘ona, Andijon va Buxoro viloyatlari yuqori demografik salohiyatga va tarixiy shakllangan sanoat-qishloq xo‘jaligi bazasiga ega. Bu hududlar mamlakatning asosiy mehnat resurslari va iste'mol bozorining katta qismini jamlagan. Bu hududlarda arzon va ko‘p sonli mehnat resurslari, agrosanoat, turizm va tranzit-logistika qulayligi mavjud. Ammo, demografik bosimning yuqoriligi natijasida muhandislik va energetika infratuzilmasiga (gaz, elektr) ortiqcha yuklama tushadi.

1-jadval

Hududlararo investitsiyaviyjozibadorlik nomutanosibligi [9]

Hududlar guruhi	Jozibadorlik darajasi	Asosiy sanoat va resurs ustunligi	Investitsiyalarni cheklab turgan asosiy muammo
I guruh: yirik markazlar (Toshkent sh., Toshkent v., Navoiy v.)	Yuqori	Tayyor infratuzilma, yuqori malakali kadrlar va yirik bozor.	Yer maydonlarining cheklangani va ijara/yer narxining qimmatligi.
II guruh: Sanoatlashgan va tranzit hududlar (Samarqand, Farg‘ona, Andijon, Buxoro)	Ortacha-yuqori	Mehnat resurslari va qishloq xo‘jaligi/turizm salohiyati.	Energiya resurslari taqchilligi, tirbandlik va logistika xarajatlari.
III guruh: Rivojlanayotgan va chekka hududlar (Qoraqalpog‘iston R., Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax va b.)	Ortacha-past	Boshlang‘ich imtiyozlar, arzon yer va xomashyo bazasi.	Infratuzilmaning kuchsizligi va malakali kadrlar yetishmasligi.

III guruhdagi hududlar – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax va boshqa chekka viloyatlar iqtisodiy jihatdan drayver darajasiga chiqmagan, ammo yuqori resurslik va xomashyo salohiyatiga ega bo‘lgan hududlardir. Bu hududlarda davlat tomonidan beriladigan maksimal soliq va bojxona imtiyozlari, arzon yer resurslari va foydalanilmagan xomashyo manbalari (ma’danlar, qishloq xo‘jaligi maydonlari) mavjud. Lekin, infratuzilmaning kuchsizligi va “inson kapitalining degradasiyasi” (muhandis va rahbar kadrlarning markazlarga ko‘chib ketishi) kabilar ham e'tibor qaratish zarur. Bu hududlarda kapitalning qaytish muddati va infratuzilmaviy xatarlar yuqori bo‘lgani uchun xorijiy va xususiy investorlar ehtiyotkorlik pozisiyasini egallaydi.

Hozirgi kunda hududlarda investitsiya jalb qilishda bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Birinchidan, mahalliy hokimiyat organlarining salohiyati pastligi sabab chekka tuman va shaharlarda mahalliy rahbarlarning investorlar bilan zamonaviy biznes tilida muloqot qilish va loyihalarni “tayyor holda” taqdim etish ko‘nikmalari yetishmaydi. Yer uchastkalarini ajratish, muhandislik-kommunikasiya tarmoqlariga ulanish va ruxsatnoma olish jarayonlarida hanuzgacha byurokratik to‘siqlar saqlanib qolmoqda. Mulk huquqining kafolati bo‘yicha xavotirlar mavjud. Hududlarda yer maydonlari yoki binolarni olib qo‘yish (snos) va kompensasiya to‘lash bilan bog‘liq xavf-xatarlar investorlar uchun asosiy xatarlardan biri bo‘lib qolmoqda.


Ikkinchidan, energiya va muhandislik tarmoqlari notengligi sabab chekka hududlarda elektr energiyasi, tabiiy gaz va suv ta’minotida tez-tez uzilishlar kuzatiladi. Bu esa yuqori texnologik ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirishga imkon bermaydi. Transport-logistikadagi cheklanishlar, xususan, ichki yo‘llar sifatining pastligi va logistika markazlarining yetishmasligi sababli mahsulotlarni tashish xarajatlari (transport tannarxi) oshib ketadi.

Uchinchidan, malakali kadrlar tanqis bo‘lib, chekka hududlardan aholining (ayniqsa yoshlar va oliy ma’lumotli mutaxassislarning) yirik shaharlarga yoki xorijga migrasiya qilishi oqibatida xususiy investorlar uchun zarur bo‘lgan muhandis, axborot texnologiyalari bo‘yicha mutaxassis va texnologlarni topish murakkablashmoqda. Ta’lim va bozor ehtiyojlarida uzilish mavjud. Hududiy kasb-hunar maktablari va oliygohlar berayotgan bilimlar zamonaviy sanoat korxonalari talablariga to‘liq mos kelmaydi.

To‘rtinchidan, xorijiy investorlar uchun hududlarning tabiiy, xomashyo, mehnat va infratuzilma imkoniyatlari haqida yagona, shaffof va ingliz tilidagi ishonchli ma’lumotlar bazasi va geoportallar yetarli darajada rivojlanmagan. Loyihalarni moliyalashtirish va bank xizmatlari cheklangan, ya’ni hududlardagi tijorat banklarining yuqori riskli va uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyati past darajada.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan omillarni quyidagicha guruhlash mumkin (1-rasm):

1. Hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda institusional va ma’muriy muammolar eng nozik, shu bilan birga hal qiluvchi to‘siqlardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda va xalqaro tajribada institutsional muhit – bu o‘rnatilgan qoidalar, qonunlar, ularga amal qilish mexanizmi hamda davlat organlarining investorlar bilan o‘zaro munosabatlari sifati sifatida tariflanadi.



1-rasm. Hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish bilan bog‘liq muammolar [10]

Nobel mukofotining laureati, iqtisodchi Duglas Nortning institusional iqtisodiyot nazariyasiga ko‘ra[11], “jamiyatdagi “o‘yin qoidalari” (institutlar) qanchalik shaffof, barqaror va oldindan aytib bo‘ladigan bo‘lsa, iqtisodiy subyektlarning risk darajasi shunchalik past bo‘ladi va uzoq muddatli investitsiyalar hajmi oshadi”. Biroq, O‘zbekiston hududlarining joriy rivojlanish bosqichida institusional muhit quyidagi muammolar bilan xarakterlanadi: yuqori transaksion xarajatlar, ya’ni investor loyihani boshlashdan oldin nafaqat bevosita ishlab chiqarish xarajatlarini, balki ma’muriy to‘siqlarni yengib o‘tish, ruxsatnomalar olish, byurokratik talablarni bajarish uchun haddan tashqari ko‘p vaqt va moliyaviy resurslar sarflaydi. Bu esa hududning raqobatbardoshligini keskin pasaytiradi. Shuningdek, qabul qilingan imtiyozlar va qarorlar joylarda (viloyat, tuman va shahar holiklari yoki mahalliy idoralar tomonidan) har xil tushunilishi va turlicha amalga oshirilishi huquqiy noaniqlikni keltirib chiqaradi.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda davlat boshqaruvining nomarkalashuvi (vakolatlarni mahalliy joylarga berish) muhim hisoblansa-da, mahalliy rahbarlarning yuqori darajadagi ixtiyoriy vakolatlari investorlar uchun jiddiy xatarlarni tug‘diradi. Qarorlarning qonun normalariga emas, balki mahalliy amaldorning shaxsiy qarashlari yoki subyektiv fikriga bog‘liq bo‘lib qolishi korrupsiyaviy xatarlarni oshiradi. Mahalliy hokimlar yoki tarmoq rahbarlari almashganda, oldingi rahbariyat davrida investor bilan tuzilgan norasmiy kelishuvlar yoki berilgan kafolatlarning keyingi rahbariyat tomonidan inkor etilishi holatlari uchraydi. Bu esa investorlarning uzoq muddatli ishonchini yo‘qotadi.

Investitsiya faoliyatining muhim sharti – investorning mulk huquqi daxlsizligidir. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, hududlarda biznesga ma’muriy aralashuvlarning saqlanib qolayotgani katta muammo hisoblanadi. Yer uchastkalari va binolarni olib qo‘yish (ekspropriasiya) bilan bog‘liq risklar mavjud. Markazlashmagan yoki qat’iy nazorat qilib bo‘lmaydigan hududlarda davlat yoki jamoat ehtiyojlari niqobi ostida investorlarning mulklarini olib qo‘yish yoki shartnomalarni bir tomonlama o‘zgartirish holatlari investitsiya iqlimiga jiddiy putur yetkazadi. Biznes faoliyatiga asossiz aralashuvlar ham jiddiy to‘siq hisoblanadi. Mahalliy nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan asossiz tekshiruvlarning o‘tkazilishi yoki biznes jarayonlariga ma'muriy bosim o‘tkazilishi xususiy kapitalning faolligini susaytiradi.

Xalqaro moliya institutlari ma’lumotlari shuni tasdiqlaydiki, rivojlanayotgan bozorlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanishining 60-70 foizi

aynan institutsional sifat indeksi va ma’muriy to‘siqlarning darajasi bilan izohlanadi. O‘zbekiston misolida ham Toshkent shahri va erkin iqtisodiy zonalarda ma’muriy tartib-qoidalar raqamlashtirilgan va qisqartirilgan bo‘lsa-da, chekka viloyat va tumanlarda lisenziya olish, muhandislik tarmoqlariga ulanish va soliqdan tashqari ma'muriy to‘siqlar ko‘pligicha qolmoqda. investitsiyalarning asosiy qismi poytaxtga to‘g‘ri kelishining asosiy sabablaridan biri ham aynan institusional muhitning markazda nisbatan qulayroq ekanligidir.

Yuqoridagi ilmiy tahlillardan kelib chiqib, hududiy investitsiya muhitini yaxshilash uchun quyidagi institusional islohotlarni amalga oshirish zarur:

har bir tuman va shaharda investorlar bilan ishlash jarayonlarini (yer ajratish, ruxsatnomalar berish) inson omilidan xoli bo‘lgan yagona elektron platformalar (“E-auksion”, “Loyiha.gov.uz” va boshqalar) orqali to‘liq avtomatlashtirish zarur;

mulk huquqining sud orqali himoyasini kuchaytirish kerak, investorlarning davlat organlari bilan yuzaga keladigan nizolarini hal etishda mustaqil va shaffof sud-huquq institutini yanada takomillashtirish lozim;

mahalliy rahbarlarning KPI (samaradorlik ko‘rsatkichlari) tizimini o‘zgartirish maqsadga muvofiqdir. Hokimlarning faoliyatini faqat hisobotdagi raqamlar bilan emas, balki hududga kirib kelgan sof xususiy investitsiyalar hajmi, ochilgan yangi ish o‘rinlari va investorlarning qoniqish indeksi asosida baholash tizimini joriy etish zarur.

2. Hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini baholash va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda infratuzilma va logistika omillari moddiy-texnik bazaning asosini tashkil etadi. Iqtisodiy nazariyada va zamonaviy xududiy tadqiqotlarda infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi xususiy va xorijiy kapitalni jalb etishning “boshlang‘ich sharti” sifatida qaraldi. Infratuzilma va logistika tarmoqlaridagi uzilishlar investor uchun foydalanilmagan imkoniyatlar va qo‘shimcha moliyaviy yo‘qotishlarni anglatadi. Quyida ushbu muammolarning ilmiy-nazariy tahlili, ularning hududiy ko‘rinishlari va salbiy iqtisodiy oqibatlarini yoritib o‘tamiz.

Iqtisodiy geografiya va hududiy iqtisodiyot nazariyasiga ko‘ra, (xususan, Alfred Veberning Lokalizasiya nazariyasi[12] va Pol Krugmanning Yangi iqtisodiy geografiyasi[13]) investorlar o‘z korxonalarini tanlashda transport va kommunikasiya xarajatlari minimum bo‘lgan yoki resurslarga kirish imkoniyati yuqori bo‘lgan hududlarni afzal ko‘radilar.

O‘zbekiston hududlarida ushbu muammo quyidagi iqtisodiy mexanizmlar orqali namoyon bo‘ladi. Birinchidan, tannarxga ta’sir va raqobatbardoshlikning susayishi. Energiya resurslari (elektr, gaz, suv) ta’minotidagi uzilishlar sababli korxonalar avtonom generatorlar va qo‘shimcha infratuzilma qurishga majbur bo‘ladi. Bu esa dastlabki kapital mablag‘larni va operativ xarajatlarni keskin oshiradi, natijada ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi oshib, raqobatbardoshligi pasayadi. Ikkinchidan, ishlab chiqarishning to‘xtab qolishi. Muhandislik-kommunikasiya tarmoqlarining ma’nan va jismonan eskirganligi ishlab chiqarish siklida uzluksizlikni izdan chiqaradi. Yuqori texnologik, raqamlashgan va uzluksiz siklda ishlovchi tarmoqlar (masalan, elektronika, farmasevtika, oziq-ovqat sanoati) bunday risklar mavjud bo‘lgan hududlarga kapital kiritishdan voz kechadi.

Muhandislik-kommunikasiya va logistika tarmoqlaridagi tizimli uzilishlar ham asosiy muammolardandir. Hududiy miqyosda infratuzilmaviy to‘siqlarni uchta asosiy yo‘nalishga bo‘lib tahlil qilish mumkin: 1) Bazaviy energetik va kommunal infratuzilma notengligi - markaziy shaharlar va sanoat xablari kafolatlangan energetika manbalariga ega bo‘lgan bir paytda, chekka va rivojlanayotgan tumanlarda gaz va elektr energiyasining quvvati talab darajasida emas. Bu holat yirik sanoat loyihalarini hududlar bo‘ylab teng taqsimlashga imkon bermaydi; 2) Transport-logistika tizimining xususiyatlari - mamlakatning transport va logistika infratuzilmasi asosan yirik shaharlar

va xalqaro koridorlarga bog‘langan. Chekka hududlardagi ichki yo‘llar sifatining pastligi, logistika va zamonaviy muzlatgichli omborxonalar yetishmasligi sababli qishloq xo‘jaligi va qayta ishlash sanoati mahsulotlarini tashishda yuqori yo‘qotishlar va vaqt xarajatlari yuzaga keladi; 3) Temir yo‘l va tashishlar cheklangani – zamonaviy ishlab chiqarish mahsulotlarini katta hajmda eksport qilish uchun temir yo‘l tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyati talab etiladi. Ko‘plab kichik sanoat zonalari va tumanlarda ushbu infratuzilmaning yo‘qligi avtotransportga qaramlikni va logistika tannarxini oshiradi.

Eng muhimi, muayyan hududda muhandislik va logistika infratuzilmasining yaxshi rivojlangani boshqa turdosh va yordamchi korxonalarni ham o‘ziga jalb qiladi. Infratuzilmaviy cheklanishlar sababli chekka hududlarda xomashyoni to‘liq qayta ishlovchi qo‘shilgan qiymat zanjirlarini yaratish murakkab kechadi. Natijada hududlar tannarxi past bo‘lgan xomashyo resurslarini eksport qiluvchi hudud sifatida qolib ketadi. Jahon banki va Osiyo taraqqiyot bankining tadqiqotlariga ko‘ra, “rivojlanayotgan mamlakatlarda logistika va infratuzilma xarajatlari mahsulot yakuniy tannarxining 15-25 foizini tashkil etadi (rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich 7-10 foiz atrofida). Bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagi ilmiy tahlillardan kelib chiqib, hududlarning infratuzilmaviy va logistika jozibadorligini oshirish uchun quyidagi strategik chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

davlat-xususiy sheriklik mexanizmini infratuzilmaga keng joriy etish zarur. Davlat budjeti yukini kamaytirish uchun hududiy energetika, suv ta'minoti va logistika markazlarini qurish hamda modernizasiya qilishga xususiy va xorijiy investorlarni davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida faol jalb etish kerak;

industrial parklar tizimini rivojlantirish lozim. Investor yer maydoniga kirib kelganida barcha muhandislik-kommunikasiya tarmoqlari (elektr, gaz, suv, aloqa, oqova suv) korxona chegarasigacha tayyor holda yetkazib berilgan bo‘lishi shart. Bu investorning kapital xarajatlarini kamaytiradi;

har bir yirik iqtisodiy hududda temir yo‘l va avtotransport tarmoqlarini bog‘lovchi zamonaviy logistika markazlarini, shuningdek, agrosanoat mahsulotlari uchun uzluksiz sovutish va saqlash infratuzilmasini barpo etish zarur;

muqobil va qayta tiklanuvchi energetika manbalarini integrasiya qilish kerak. Energiya inqirozi mavjud bo‘lgan chekka hududlarda sanoat zonalari va yirik korxonalar uchun mustaqil quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo‘yicha maxsus rag‘batlantiruvchi dasturlarni amalga oshirish.

3. Mehnat resurslari va inson kapitali – hududga kirib keluvchi investitsiyalarning samaradorligi va innovasion sig‘imini belgilab beruvchi eng muhim kapital turidir. Zamonaviy iqtisodiy nazariyada (Pol Romerning Endogen o‘sish nazariyasi[14]) inson kapitali iqtisodiy o‘sish va kapitalning foydalilik darajasini oshiruvchi asosiy omil sifatida qaraladi.

Chekka va rivojlanayotgan hududlarda mehnat resurslari miqdor jihatdan ko‘p bo‘lsa-da (arzon ishchi kuchi), sifat jihatdan zamonaviy investorlar talabiga javob bermaydi. Yuqori texnologik, raqamlashgan yoki murakkab qayta ishlash korxonalari chekka hududlarda muhandislar, texnologlar va IT-mutaxassislar yetishmasligi sababli o‘z quvvatlarini joylashtira olmaydi. Bu “arzon ishchi kuchi” ustunligining notabiiyligini ko‘rsatadi. Chekka hududlardan oliy ma’lumotli, malakali va tashabbuskor kadrlarning yirik markazlarga (Toshkent sh. va viloyati) yoki xorijga domiy ravishda migrasiya qilishi hududlarda inson kapitalining degradasiyasini yuzaga keltiradi.

Xorijiy yoki mahalliy investor loyiha boshlaganida, yuqori bo‘g‘in va o‘rta bo‘g‘in boshqaruvchilarini markazdan yoki xorijdan olib kelishga majbur bo‘ladi. Bu esa operativ xarajatlarni keskin oshiradi. Hududlardagi professional va oliy ta'lim muassasalari tayyorlayotgan kadrlar yo‘nalishi mahalliy iqtisodiyot va hududga kirib kelayotgan investorlar ehtiyojidan uzilib

qolishi investorlarni kadrlarni qayta o‘qitish va malakasini oshirish uchun qo‘shimcha vaqt va moliyaviy resurslar sarflashga olib keladi, bu esa investitsiyalarning qoplanish muddatini uzaytiradi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun dual ta’lim tizimini kengaytirish zarur. Buning uchun hududiy ta'lim muassasalarini bevosita investorlar va sanoat korxonalariga biriktirib, amaliyotga asoslangan kadrlar tayyorlash talab etiladi. Chekka hududlarga borib ishlovchi yuqori malakali mutaxassislar va muhandislar uchun soliq imtiyozlari va imtiyozli uy-joy subsidiyalarini joriy etish.

4. Hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda axborot va moliyaviy-investitsiyaviy muammolar kapital oqimini tezlatuvchi yoki to‘xtatuvchi “qon aylanish tizimi” vazifasini bajaradi. Zamonaviy iqtisodiy nazariyada axborotning shaffofligi va moliyaviy bozorlarning rivojlanganligi investorlarning risklarini kamaytiruvchi asosiy omillar sifatida qaraladi.

Nobel mukofoti laureatlari Djorj Akerlof, Djozef Stiglis va Maykl Spens tomonidan asoslab berilgan “Axborot asimmetriyasi nazariyasi”ga ko‘ra[15], bozor ishtirokchilaridan biri (bu holda investor) zarur va ishonchli axborotga ega bo‘lmasa, bozorda salbiy tanlov yuzaga keladi va investitsiya faolligi keskin susayadi. Markaziy shaharlarda biznes muhiti va loyihalar haqidagi ma’lumotlar ochiq bo‘lsa-da, chekka tuman va viloyatlarda investorlar uchun mavjud bo‘lgan yer maydonlari, xomashyo bazasi, muhandislik tarmoqlarining o‘tkazuvchanlik quvvati va mehnat resurslari haqidagi ma’lumotlar eskirgan yoki to‘liq yopiq holda qoladi. Shu bois investor ma’lumotni yig‘ish va uni tekshirish uchun qo‘shimcha vaqt hamda transaksion xarajatlar sarflaydi. Agar ma’lumot shaffof bo‘lmasa, investor umuman bu hududga kapital kiritishdan voz kechadi. Shuningdek, hududlarning investitsiyaviy salohiyatini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish mexanizmlarining yetarli emasligi xorijiy kapitalning e’tiboridan chetda qolishiga olib keladi.

Iqtisodiyot nazariyasiga ko‘ra, investitsiyalar hajmi bevosita arzon va uzoq muddatli moliyaviy resurslarning mavjudligiga bog‘liq bo‘ladi. Hududlarda faoliyat yurituvchi tijorat banklari filiallari ko‘pincha uzoq muddatli, kapital talab qiluvchi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdan ko‘ra, qisqa muddatli savdo va aylanma mablag‘larni kreditlashni afzal ko‘radilar. Rivojlanayotgan hududlarda kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun kredit foizlarining yuqoriligi hamda talab etiladigan garov ta’minotining (likvid mulkning yetishmasligi sababli) qattiqligi hududiy investitsiyaviy faollikni bo‘g‘adi. Mamlakatda qimmatli qog‘ozlar bozori (fond birjasi) asosan markaziy darajada shakllangan bo‘lib, hududiy korxonalar o‘z loyihalarini moliyalashtirish uchun aksiyalar yoki korporativ obligasiyalar chiqarish orqali mablag‘ jalb qilish imkoniyati juda sust.

Jahon amaliyotida hududiy rivojlanishni moliyalashtirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish uchun venchur fondlari, kraudfanding kabi muqobil instrumentlar keng qo‘llaniladi hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kredit bo’yicha foiz xarajatlarini qoplash hamda imtiyozli kreditlash amaliyotidan keng ko‘lamda foydalaniladi.

Haqiqatdan ham tadbirkorlik sub’ektlarini moliyalashtirishda ularning foiz xarajatlarini qoplash hozirgi makroiqtisodiy sharoitda kichik biznesning moliyaviy resurslardan foydalana olish imkoniyatini kengaytirish va hududiy investitsiyaviy faollikni oshirishda muhim o‘rin tutadi. Sababi, Markaziy bankning inflyasiyani jilovlashga qaratilgan pul-kredit siyosati sharoitida tijorat banklarining real kredit foiz stavkalari (ayniqsa milliy valyutada) yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Bu holat kichik biznes subyektlari uchun kapital tannarxini oshirib, uzoq muddatli investitsiya loyihalarining o‘zini qoplash muddatini uzaytiradi va rentabellikni pasaytiradi. Masalan, kredit yoki lizingning 5 milliard so‘mgacha bo‘lgan qismiga kompensasiya berilishi tadbirkorning moliyaviy yukini bevosita yengillashtiradi. Bu ishlab chiqarishni kengaytirish, zamonaviy asosiy vositalarni (uskuna, texnika) xarid qilish va texnologik modernizasiyani tezlashtirishga turtki beradi.

Zamonaviy moliya nazariyasiga koʻra[16], tijorat banklari kichik tadbirkorlik subyektlarini yuqori riskli segment sifatida baholaydi. Natijada banklar kredit ajratishni cheklaydi yoki risk mukofotini yuqori belgilaydi. Davlat nomidan kompaniya tomonidan foiz stavkasining bir qismini kompensasiya qilinishi banklar va tadbirkorlar oʻrtasidagi risklarni taqsimlashga xizmat qiladi. Bu bank tizimida likvidlikning real sektorga, xususan kichik va oʻrta biznesga oqib kirishini ragʻbatlantiradi. Agar kompensasiya faqat muayyan miqdordagi (masalan, 2-3 milliard soʻmgacha boʻlgan) kichik kreditlarga cheklansa, yuqori texnologik yoki kapital sigʻimli loyihalarni amalga oshirayotgan tadbirkorlar foydalana olmay qoladi. Shu munosabat bilan tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish maqsadida “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlariga kredit (lizing) miqdoridan qat’i nazar, uning 5 milliard soʻmgacha qismi uchun belgilangan tartibda foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensasiya berish maqsadga muvofiqdir. “Kredit summasidan qat’i nazar” prinsipining joriy etilishi yirikroq investitsiyaviy loyihalarni (masalan, 10-15 mlrd soʻmlik) amalga oshirayotgan kichik biznes vakillariga ham moliyaviy dastlabki 5 milliard soʻmlik qismi uchun davlat koʻmagini olish imkonini beradi. Bu esa loyihalarning umumiy moliyaviy barqarorligini oshiradi. Bir vaqtning oʻzida moliyaviy resurslarning arzonlashuvi investitsiya multiplikatori mexanizmi orqali hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga, qoʻshilgan qiymat zanjirini kengaytirishga xizmat qiladi. Ajratilgan davlat kompensasiyasi oʻzini toʻliq qoplaydi. Kredit hisobiga kengaygan biznes subyektlari tomonidan toʻlanadigan qoʻshimcha soliqlar va yaratilgan yangi ish oʻrinlari orqali davlat budjetiga qayta daromad boʻlib tushadi. Fikrimizcha, kichik tadbirkorlik subyektlarining kredit (lizing) mablagʻlari boʻyicha 5 milliard soʻmgacha boʻlgan qismiga foiz xarajatlarini kompensasiya qilish mexanizmi – kapital tannarxini pasaytirish, moliyaviy bozordagi cheklanishlarni bartaraf etish hamda investitsiyaviy faollikning multiplikativ oʻsishini ta’minlashga qaratilgan ilmiy va amaliy jihatdan mukammal asoslangan vositadir. Bu mexanizm hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi va raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Imtiyozli kreditlar ham hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda muhim moliyaviy vosita hisoblanadi. Chunki Oʻzbekiston kabi aholisi tez oʻsayotgan va mehnat bozoriga har yili yuz minglab yoshlar kirib kelayotgan iqtisodiyotlarda yoshlar ishsizligi makroiqtisodiy xavflardan biri hisoblanadi. Yoshlarni ish bilan ta’minlash sharti bilan beriladigan imtiyozli kreditlar ijtimoiy vazifani xususiy sektorning iqtisodiy manfaatlari bilan bogʻlaydi. Qolaversa, iqtisodiy oʻsishning klassik modellariga koʻra, kapitalga ega boʻlish imkoniyati (kredit) korxonalarga kengayish va qoʻshimcha mehnat resurslarini (yoshlarni) jalb qilish imkonini beradi. Bu esa ishlab chiqarish funksiyasini yuqoriga suradi va yalpi hududiy mahsulot oʻsishini ta’minlaydi.

Shuni qayd etish zarurki, sanoat, xizmat koʻrsatish va qayta ishlash sohalaridagi yangi loyihalarni ishga tushirish, uskunalarni oʻrnatish, quvvatlarga chiqish va bozorda oʻz oʻrnini topish oʻrtacha 1,5-2 yil vaqt oladi. Masalan, 2 yillik imtiyozli davr tadbirkorning dastlabki, eng qiyin bosqichdagi moliyaviy yukini keskin kamaytiradi va korxonani bankrotlik xavfidan himoya qiladi. Uzoq muddatli resurslar, masalan, 7 yillik muddat kapital sigʻimli va uzoq muddatda qoplanadigan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun zarur. Qisqa muddatli kreditlar kapital qurilish yoki modernizasiya uchun toʻgʻri kelmaydi, chunki ular korxonaning joriy likvidligini yomonlashtiradi. 7 yillik muddat esa asosiy qarzni qaytarish boʻyicha yillik yuklamani kamaytirib, loyihaning moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi. Bunda imtiyozli foiz stavkasi ham hal qiluvchi rol oʻynaydi. “Oʻzbekistonda tijorat banklari tomonidan yuridik shaxslarga 1 yildan ortiq muddatga milliy valyutada berilgan kreditlarning oʻrtacha foiz stavkasi 2024-2025-yillarda 23-24 foiz atrofida

shakllangan”[17]. Xususiy banklarda bu ko’rsatkich 40 foizgachani tashkil qiladi. Fikrimizcha, ushbu foiz stavkalari kichik biznes subyektlari uchun og‘irlik qiladi. “Asosiy stavka + 4%” formati tadbirkor uchun arzon va oldindan aytib bo‘ladigan kapital tannarxini yaratadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tijorat banklari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslarga yoshlar bandligini ta’minlash uchun 7 yilgacha muddatga, asosiy qarz to‘lovlaridan 2 yilgacha imtiyozli davr bilan Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizli bandga yuqori stavkada kreditlar ajratish maqsadga muvofiqdir. Bu esa yoshlarni ishsizlik nafaqasi yoki ijtimoiy yordam oluvchi subyektdan, daromad oluvchi va soliq to‘lovchi qatlamga aylantiradi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar ushbu kredit evaziga yangi ish o‘rinlari yaratganda, davlat budjetiga va sug‘urta fondlariga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, ijtimoiy soliq, korxonaning kengayishi hisobiga qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘i shaklida mablag‘lar qaytib tushadi. Bu esa imtiyozli kreditlash mexanizmining davlat va jamiyat uchun iqtisodiy jihatdan o‘zini to‘liq oqlashini ko‘rsatadi.

Ushbu taklif mehnat bozoridagi yoshlar bandligi muammosini hal etishning moliyaviy-bank mexanizmi bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida tadbirkor uchun kapital tannarxini va dastlabki moliyaviy xatarlarni kamaytiradi (7 yil, 2 yil imtiyoz, maqbul foiz), tijorat banklarining marja va resurs xarajatlarini himoya qiladi hamda davlat va hududlar uchun banklar va xususiy sektor kuchi bilan yoshlar bandligini ta’minlash va soliq bazasini kengaytirish imkonini beradi.

Xulosa

Hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish – bu kompleks yondashuvni talab qiladigan ko‘p qirrali jarayondir. Shu sababli, faqatgina soliq va bojxona imtiyozlarini berish bilan cheklanib qolmasdan, institusional muhitni mustahkamlash, infratuzilmani modernizasiya qilish va inson kapitalini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

O‘zbekiston hududlari o‘rtasida investitsiyaviy disproporsiya (tengsizlik) mavjud bo‘lib, har bir guruh uchun alohida investitsiya siyosati zarur. I guruh uchun “Klaster va yuqori texnologiyalar” siyosati va bu yerda yer sig‘imi kam, ammo qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan (IT, farmasevtika, moliya, ilmiy-tadqiqot) sohalarni rivojlantirish lozim. II guruh uchun “Infratuzilmani modernizasiya qilish” siyosati kerak bo‘ladi. Energiya ta'minotini mustahkamlash va transport-logistika tizimini kengaytirish orqali mehnat va sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish zarur. III guruh uchun “Preferensial va infratuzilmaviy dotasiya” siyosati kerak. Davlat tomonidan infratuzilma yetkazib berish va kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish orqali hududning notabiiy ustunliklarini shakllantirish lozim. Ushbu tahlil natijasi hududlararo integrasiyani ta’minlash va kapital oqimini markazdan chekka hududlarga qayta taqsimlash bo‘yicha manzilli qarorlar qabul qilishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish maqsadida “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlariga kredit (lizing) miqdoridan qat’i nazar, uning 5 milliard so‘mgacha qismi uchun belgilangan tartibda foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensasiya berish maqsadga muvofiqdir.

Tijorat banklari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslarga yoshlar bandligini ta’minlash uchun 7 yilgacha muddatga, asosiy qarz to‘lovlaridan 2 yilgacha imtiyozli davr bilan Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizli bandga yuqori stavkada kreditlar ajratish zarur.

Yuqorida taklif etilgan mexanizmlar hududlararo iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishga, yangi ish o‘rinlarini yaratishga va O‘zbekistonning umumiy investitsiyaviy imijini sezilarli darajada yaxshilashga hamda investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. 2026 World Investment Report International Investment in a Turbulent Era. 2026, United Nations All rights reserved worldwide. United Nations publication issued by the United Nations Conference on Trade and Development UNCTAD/WIR/2026. wir2026_en (2).pdf

2. Хиггинз Роберт С. Финансовый менеджмент. Управление капиталом и инвестициями. – М.: Вильямс, 2013. – 464 с.

3. Зви Боди, Алекс Кейн, Алан Дж. Маркус. Принципы инвестиций. Пер. с англ. 4-е издание. – М.: Вильямс, 2002. – 984 с.

4. Дмитриев Р.В. Теория центральных мест: от статики к динамике. Монография. – М.: Институт Африки РАН, 2023. – 204 с. (897133297.pdf).

5. Баранчеев В.П. Управление инновациями: учебник для бакалавров. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Юрайт, 2015. – 711 с.

6. Окунев О.Б. Динамическое моделирование макроэкономических систем: эндогенные модели Н.Калдора и М.Калецкого. Вестник МГИМО-Университета. 2011;(1(16)):201-206. https://doi.org/10.24833/2071-8160-2011-1-16-201-206.

7. Денисов М.А. Экономическая теория трансакционных издержек в учениях Оливера Уильямсона. Международный научно-исследовательский журнал «Прогрессивная экономика». № 5 / 2024 https://progressive-economy.ru/vypusk_1/ekonomicheskaya-teoriya-transakczionnyh-izderzhek-v-ucheniyah-olivera-uilyamsona/.

8. Норт Д. Понимание процесса экономических изменений. Пер. с англ. К.Мартынова, Н.Эдельмана; Гос. ун-т. – Высшая школа экономики. – М.: Изд. дом Гос. ун-та Высшей школы экономики, 2010. – 256 с. [Duglas_Nort]_Ponimanie_processa_yekonomicheskih_i(libcats.org).pdf - Яндекс Документы.

9. Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

10. Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

11. Норт Дуглас. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики. Пер. с англ. – М.: Фонд экономической книги "Начала", 1997. – 180 с.

12. Теория размещения промышленности Альфреда Вебера, связь размещения промышленности и стоимости рабочей силы.

13. Krugman P.R. Increasing Returns and Economic geography // The Journal of Political Economy. – The University of Chicago Press, 1991 – vol. 99, № 3 – P. 483–499.: Krugman P. Scale Economies, Product Differentiation, and the Pattern of Trade. American Economic Review, 1980 – vol. 70, № 5 – P. 950-959.

14. Факторы экономического роста: научно-технический прогресс / Е.А.Пономарева, А.В.Божечкова, А.Ю.Кнобель. Под ред. Е.А.Пономаревой. – М.: Дело. 2012. – 189 с.

15. Джозеф Стиглиц. Информация и изменение парадигмы экономической теории. 2003n3r01html.pdf.: Габриелян М.В., Хурс М.Д. Асимметрия информации. 60-я Юбилейная Научная Конференция Аспирантов, Магистрантов и Студентов БГУИР, Минск 2024. Gabrielyan_Assimetriya.pdf - Яндекс Документы.

16. Credit and equity rationing in markets with adverse selection Thomas Hellmann*, Joseph Stiglitz. Stiglitz_credit_and_equity.pdf

17. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik-byulleten-_-01.07.2026_k.xlsx

Sattorov Alisher Xasan o‘g‘li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Doktorantura va iqtidorli talabalar bilan
ishlash bo‘limi boshlig’i
Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

AUDITORLIK TEKSHIRUVI NATIJALARINI HUJJATLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

Сатторов Алишер Хасан угли
Ташкентский международный университет Кимё
Руководитель отдела докторантуры и
работы с одаренными студентами.
Доктор экономических наук, доцент

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДОКУМЕНТИРОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ АУДИТА

Sattarov Alisher Khasan ugli
International University Kimyo in Tashkent
Head of the Doctoral Studies and Gifted
Student Programs Department.
Doctor of economics, associate professor

IMPROVING THE PROCESS OF DOCUMENTING AUDIT RESULTS

Annotatsiya. *Ushbu maqolada auditorlik tekshiruvi natijalarini hujjatlashtirish jarayoni, auditni hujjatlashtirish shakli, mazmuni va ko‘lamining omillari, ish hujjatlariga qo‘yiladigan talablar, hujjatlarni tahlil qilish, ishchi hujjatlari va ulardagi ma’lumotlarning turkumlanishi, auditorlik tekshiruvlarini hujjatlashtirish bosqichlari auditning xalqaro standartlari asosida o’rganilgan.*

Tayanch so’zlari: *AXS, ishchi hujjatlar, Audit fayli, audit hisoboti, auditr xulosasi, audit dalillari, standart testlar, so‘rov varaqalari, anketalar, shartnomalar shakllari, mijozga xatlar.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается процесс документирования результатов аудита, факторы формы, содержания и объема аудиторской документации, требования к рабочим документам, анализ документов, классификация рабочих документов и содержащейся в них информации, этапы документирования аудиторских проверок на основе международных стандартов аудита.*

Ключевые слова: *МСА, рабочие документы, аудиторское досье, аудиторский отчет, заключение аудитора, аудиторские доказательства, стандартные тесты, анкеты, бланки договоров, письма клиенту.*

Abstract. This article examines the process of documenting audit results, the factors influencing the form, content, and volume of audit documentation, requirements for working papers, the analysis of documents, the classification of working papers and the information contained therein,

and the stages of documenting audit engagements in accordance with International Standards on Auditing (ISA).

Keywords: ISA, working papers, audit file, audit report, auditor's opinion, audit evidence, standard tests, questionnaires, contract templates, letters to clients.

Kirish

Ma'lumki, auditorlik tekshiruvlari juda murakkab va aniqlikni talab qiladi. Auditorlik tekshiruvi natijalari auditorlar tomonidan kamchilik yoki qonunbuzarliklar aniqlangan yoki aniqlanmaganligidan qat'i nazar, uning natijalari hujjatlarda rasmiylashtirilishi lozim. Bu esa, auditorlik tekshiruvi natijalari qonunchilikda belgilangan shakl va mazmundagi rasmiy ravishda tasdiqlangan hujjatlarda aks ettirilishi, hujjatlarda keltirilgan ma'lumotlar esa – ularning manbalari yoki asoslovchi dalillar ilova qilingan holda bo'lishini talab etadi. Bunday hujjatlar va ularga ilova qilinadigan dalillarni to'plash, tuzish, saqlash, rasmiylashtirish va taqdim etish uslubiyoti "Auditni hujjatlashtirish" nomli 230-son AXS, "Auditorlik dalillari" nomli 500-son AXS, "Auditor tomonidan jalb qilingan ekspert ishidan foydalanish" nomli 620-son AXS va "Moliyaviy hisobotlar to'g'risida fikr hosil qilish va hisobot (hulosa) berish" nomli 700-son AXS kabi hujjatlar asosida tartibga solinishi belgilangan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Ye. Kulyakina va A. Smetanko ta'kidlaganidek, "… auditorlar ishida yagona ishchi hujjatlarini mavjud emasligi auditning asosiy yo'nalishlari bo'yicha qo'shimcha o'rganishi talab qiladi"[1].[1]

I. Yuximenko fikricha, "… amaliyotda auditorlik tashkilotlari bir qancha muammolarga duch kelishadi, ulardan biri auditorlik hujjatlari masalasidir"[2].[2]

Iqtisodchi olim Ye. Ostashenko ta'kidlashicha, ichki nazoratning eng zarur elementlaridan biri auditorlik tekshiruvlari natijasida olingan dalillarni to'g'ri hujjatlashtirish ustidan nazorat hisoblanadi[3].[3]

Ya. Ustinova fikricha, "... aynan auditorlarning ishchi hujjatlari auditorlik xizmatlarini to'g'ri ko'rsatishning asosiy mezoni sifatida qaraladi"[4]. [4]

Bizning fikrimizcha, auditorlik tekshiruvlari davomida olingan dalillarni to'rg'i rasmiylashtirish va hujjatlashtirish jarayoni eng muhim bosqichlaridan biridir. Auditorlar tomonidan ish hujjatlarini tizimli tarzda olib borish tekshiruvlarning to'g'riligi va ishonchiligini yanada oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolani yozishda auditorlik tekshiruvi jarayonida auditorlar tomonidan xalqaro audit standartlari asosida audit hujjatlarini tahlil qilish, ularning baholash mezonlari takomillashtirish, auditni hujjatlashtirish shakli, mazmuni va ko'lamining omillari chuqur sintizlash, ish hujjatlariga qo'yiladigan talablar asosida xulosa qilish turkumlari, auditorlik tekshiruvlarini hujjatlashtirish bosqichlari auditning xalqaro standartlari mosligi va ularni takomillashtirishda olimlarning nazariy yondoshuvlari chuqur tadqiq etildi. Shuningdek, auditorlik tekshiruvlarini hujjatlashtirish bosqichlari

[1] Kulyakina Ye.L., Smetanko A.V. Razrabotka i vnedrenie rabochey dokumentasii auditora v deyatelnost auditorskix firm, kak odin iz sposobov povisheniya effektivnosti audita zatrat na proizvodstvo//Nauchniy almanax, 2016. – №5-1(19). – S. 137-142.

[2] Yuximenko I.M. Normativnoe regulirovanie voprosov sostavleniya rabochey dokumentasii auditora//Auditorskie vedomosti, 2013. – №12. – S. 67-81.

[3] Ostashenko Ye.G. Dokumentirovanie audita kak kriteriy kachestva auditorskoy proverki//Vestnik Omskogo universiteta. – Seriya: Ekonomika, 2008. – №4. – S. 104-106.


[4] Ustinova Ya.I. Dokumentirovanie audita: izmeneniya v usloviyax perexoda k MSA s pozisii praktiki// Auditorskie vedomosti, 2017. – №7. – S. 50-61.

auditning xalqaro standartlari orqali guruhlashtirish, taqqoslash, induktsiya, deduktsiya, qiyosiy tahlil qilish, balansni dinamik va gorizontal tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Natija va Muhokama


220-sonli AXS auditordan auditni hujjatlashtirishni ko‘rib chiqish orqali amalga oshirilgan audit ishlarini ko‘rib chiqishni talab etadi. Amalga oshirilgan audit ishlarini kim ko‘rib chiqqanini hujjatlashtirish talabi har bir muayyan ishchi hujjat ko‘rib chiqish dalilini o‘z ichiga olishi zarurligini anglatmaydi. Biroq, talab qaysi audit ishlari ko‘rib chiqilganini, kim bunday ishlarni ko‘rib chiqqanini va u qachon ko‘rib chiqilganini hujjatlashtirishni anglatadi.

Auditni hujjatlashtirish shakli, mazmuni va ko‘lami quyidagilar kabi omillarga bog‘liq (1-rasm):



1-rasm. Auditni hujjatlashtirish shakli, mazmuni va ko‘lamining omillari[5]

Amalga oshirilgan ishlarni yoki olingan auditorlik dalilini hujjatlashtirishdan osongina aniqlanmaydigan xulosani yoki xulosa uchun asosni hujjatlashtirish zarur. Auditni hujjatlashtirish qog‘oz, elektron yoki boshqa axborot vositalarida amalga oshirilishi mumkin. Auditni hujjatlashtirish jarayoni quyidagilarni o‘z ichiga oladi (2-rasm):



2-rasm. Auditni hujjatlashtirish jarayoni[6]

Bundan tashqari, 230-sonli AXSning 3-bandida aytilishicha, auditor tadbirkorlik subyekti yozuvlarining (masalan, ahamiyatli va o‘ziga xos shartnoma va kelishuvlarning) ko‘chirmasi yoki

[5] Muallif tomonidan tuzilgan.
[6] Muallif tomonidan tuzilgan.

nusxalarini auditni hujjatlashtirishning qismi sifatida keltirishi mumkin. Bunda ish hujjatlari tadbirkorlik subyekti buxgalteriya yozuvlarining o‘rnini bosmaydi.

Umuman olganda, mazkur AXS talablariga rioya etilishi, ayrim holatlarda, yetarli va tegishli bo‘ladigan auditni hujjatlashtirishga olib keladi. Boshqa AXSlar shunday muayyan hujjatlashtirish talablarini qamrab oladiki, bunda ular boshqa AXSlardagi ma’lum holatlarda mazkur AXSni qo‘llashni aniqlashtirishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Boshqa AXSlarning muayyan hujjatlashtirish talablari mazkur AXSni qo‘llashni cheklamaydi. Bundan tashqari, har qanday ma’lum AXSda auditni hujjatlashtirish talabining mavjud bo‘lmasligi ushbu AXSga rioya etgan holda tayyorlanadigan hujjatlashtirish mavjud emas, degan fikrni anglatmaydi.

Ahamiyatli masalalar bo‘yicha auditni hujjatlashtirishning shakli, mazmuni va ko‘lamini aniqlashdagi muhim omil – ishlarni amalga oshirish va natijalarni baholashda qo‘llanilgan professional mulohaza ko‘lami hisoblanadi. Professional mulohazalarni hujjatlashtirish auditor xulosalarini tushuntirish va mulohazaning sifatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunday masalalar auditni hujjatlashtirishni ko‘rib chiqishga mas’ul bo‘lgan shaxslar, jumladan, uzluksiz ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni ko‘rib chiqishda (masalan, hisoblab chiqilgan baholarini retrospektiv ko‘rib chiqishni amalga oshirishda) keyingi auditlarni amalga oshiradigan shaxslar uchun e‘tiborlidir.

Auditor auditni hujjatlashtirishning qisqa bayonni tayyorlash va saqlashni foydali, deb bilishi mumkin, audit mobaynida aniqlangan ahamiyatli masalalar hamda ular qanday inobatga olinganligini izohlaydi yoki bunday ma’lumotlarni ta’minlaydigan boshqa o‘rinli tasdiqlaydigan auditni hujjatlashtirishga kesishgan murojaatlarni o‘z ichiga oladi. Bunday bayon auditni hujjatlashtirishni natijali va samarali ko‘rib chiqishlarni va tekshirishlarni, xususan, yirik va murakkab auditlar uchun yengillashtiradi. Bundan tashqari, bunday bayon tayyorlash auditor uchun ahamiyatli masalalarning mulohazasiga ko‘mak berishi mumkin. U auditor uchun amalga oshirilgan auditorlik tartib-taomillari va erishilgan xulosalarni inobatga olgan holda, auditor erisha olmaydigan va auditorning umumiy maqsadlariga erishishga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan har qanday alohida o‘rinli AXS maqsadi mavjudligini ko‘rib chiqishda ham ko‘mak berishi mumkin.

Hujjatlashtirish auditor tomonidan tayyorlangan yozuvlar bilan cheklanmaydi, balki tadbirkorlik subyekti xodimi tomonidan tayyorlangan va auditor bilan kelishilgan uchrashuvlar bayonlari kabi boshqa o‘rinli yozuvlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin. Auditor ahamiyatli masalalarni muhokama qilishi mumkin bo‘lgan boshqa shaxslar tadbirkorlik subyektidagi boshqa xodimi va tadbirkorlik subyektiga professional tavsiyalar beradigan shaxslar kabi tashqi tomonlar bo‘lishi mumkin.

Audit tugaganidan so‘ng, ish hujjatlari auditorlik tashkilotining arxiviga majburiy saqlash uchun topshirilishi kerak. Ish hujjatlarining saqlanishi, ularning rasmiylashtirilishi va arxivga topshirilishini auditorlik tashkilotining rahbari yoki u tomonidan vakolat berilgan shaxs tashkil qiladi. O‘tkazilayotgan yoki o‘tkazilgan auditni qayd qiluvchi ish hujjatlarini mazkur xo‘jalik yurituvchi subyektning audit qilinishi bilan band bo‘lmagan auditorlik tashkiloti xodimlariga berilishiga yo‘l qo‘yilmasligi kerak.

Har bir auditorlik tashkiloti ish hujjatlarining ishonchli saqlanishini ta’minlashi shart. Saqlash muddati qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Ish hujjatlarining yo‘qolishi yoki yo‘q bo‘lishi hollarida auditorlik tashkilotining rahbari xizmat surishtiruvini tayinlashi va uning natijalari tegishli dalolatnoma bilan rasmiylashtirilishi kerak. Ish hujjatlarini auditorlik tashkilotidan olishni O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda, faqatgina unga vakolatli bo‘lgan organlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

“Auditni hujjatlashtirish” nomli 230-sonli AXSning 6-bandida belgilab qo‘yilishicha, auditor hujjatlari – bu bajarilgan auditorlik amallari, olingan tegishli auditorlik dalillari va auditor erishgan hulosalarining yozma shaklda qayd qilinishi (ayrim hollarda “ish hujjatlari” yoki “ish qog‘ozlari” kabi atamalar ham ishlatilishi mumkin). Ish hujjatlari quyidagi holatlarda qo‘llanadi:

auditni rejalashtirish va bevosita o‘tkazishda;

bajarilgan ishni joriy nazorat qilish jarayonida;

auditorning fikrini tasdiqlaydigan dalillarni qayd qilishda.

Muayyan auditorlik topshirig‘i bo‘yicha ish hujjatlari “audit fayli”da birlashtirilishi mumkin.

“Audit fayli” – bu “muayyan kelishuvga tegishli audit hujjatlarini o‘z ichiga oladigan yozma ma’lumotlardan tashkil topgan bir yoki bir nechta papkalarda elektron yoki boshqa shakldagi ma’lumot saqlash vositasidir”.

1-jadval.

Auditorning ish hujjatlariga qo‘yiladigan talablar[7]

№	Hujjatlashtirishga talab	Talab mazmuni
1.	Zamonaviylik	Ish hujjati o‘z vaqtida, ya’ni bevosita audit tartib-taomillari yakun topishi bilan tuzilgan bo‘lishi lozim. “Sifat nazorati” xalqaro standarti audit faylini o‘z vaqtida shakllantirish tartib-taomillari va siyosatini belgilash bo‘yicha auditorlik tashkilotlariga talablardan iborat. Ko‘rsatilgan standartga muvofiq, auditorlik xulosasi tuzilgan sanadan keyin 60 kunlik davr, odatda, uning davomida yakuniy audit faylini shakllantirish mumkin bo‘lgan yakuniy muddat hisoblanadi. Garchi Sifat nazorati xalqaro standartining birinchi talabi imperativ bo‘lmasa-da, audit faylini shakllantirishni o‘z vaqtida yakunlash uchun ko‘rsatilgan muddatdan o‘tib ketmagani ma’qul. Ish hujjatlarini ish tugaganidan so‘ng tayyorlash tavsiya etiladi, chunki bu ularning aniqligi va to‘liqligiga ta’sir qilishi mumkin. Ushbu qoida nafaqat auditorlar intizomini kuchaytiradi, balki topshiriqni bajarish sifatini ham yaxshilaydi.
2.	Yetarlilik va to‘liqlik	Ish hujjatlari auditning barcha tafsilotlarini to‘liq oshkor etmasligi kerak. Ularning boshqa auditorlar va tekshiruvchilar uchun tushunarli bo‘lishi va bajarilgan ishlar to‘g‘risida tasavvur hosil qilishi juda muhimdir.
3.	Rasmiylashtirish tartibi	Ish hujjatlari qog‘oz va elektron shaklda topshirilishi mumkin, uni taqdim etishni tanlash auditorlarga bog‘liq. Qoidaga ko‘ra, auditorlik tashkilotlarida auditorning ish hujjatlari tekshirish bosqichlari va obyektlariga muvofiq turlarga ajratiladi va kodlanadi, bu esa kerakli hujjatlarni topishda qulaylikni ta’minlaydi.
4.	Iyerarxiya	Ish hujjatlari auditorlik guruhi a’zolarining hisobdorligini ta’minlashi kerak.
5.	Muayyan audit topshirig‘iga muvofiqlik	Ish hujjatlari guruhlangan va har bir auditning yoki auditorlik majburiyatining xususiyatlarini ochadigan tarzda taqdim etilishi kerak, shuning uchun har bir auditorlik tashkilotida tasdiqlangan shablonlarni ishlatish har doim ham o‘zini oqlayvermaydi. Ehtimol, muayyan vazifalarning xususiyatlari (audit topshirig‘ining predmeti, tashqi foydalanuvchilarning axborot-tahliliy ehtiyojlari, auditning muhim masalalarini oshkor etish va b.) aniq hujjatlarni ishlab chiqishni talab qilishi mumkin.

Ish hujjatlariga talablar auditni to‘liq tushunishni ta’minlash uchun yetarlicha to‘liq va batafsil shaklda ifodalangan bo‘lishi lozim. Bunda ish hujjatlari quyidagi masalalarni hal qiladi:

[7] Muallif tomonidan tuzilgan.

kelgusi auditorlik tekshiruvlari uchun uzluksiz ahamiyatli bo‘lgan masalalar bo‘yicha hujjatlarni saqlash;

auditni samarali rejalashtirishga yordam berish;

auditorlik guruhi a’zolarining hisobdorligini ta’minlash;

auditorlar ish sifatining ichki va tashqi nazoratini o‘tkazish uchun imkoniyat yaratish.

AXSga muvofiq, ish hujjatlariga qo‘yiladigan talablar 1-jadvalda tizimlashtirilgan va aks ettirilgan.

230-sonli “Auditni hujjatlashtirish” AXS boshqa standartlar bilan o‘zaro bog‘liqligi 20-ilovada keltirilgan.


Auditorning ishchi hujjatlari ulardagi ma’lumotlarning tabiatiga ko‘ra xilma-xil turkumlanishi mumkin (2-jadval).

2-jadval.

Auditorning ishchi hujjatlari va ulardagi ma’lumotlarning turkumlanishi

№	Ish hujjatlarining turkumlanishi
1.	Mijoz-korxona faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan huquqiy xarakterdagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan (ta’sis shartnomasining nusxalari, ta’sis shartnomasi, korxonaning mijozlar va yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari)
2.	Korxona rahbariyati va xodimlari to‘g‘risidagi (xodimlar soni, xodimlar tarkibini boshqarish, direktor, uning o‘rinbosarlari, bosh buxgalter, menejer, ularning ma’lumoti, amaliy ish tajribasi, funksional majburiyatlari)
3.	Mijoz-korxonaning tuzilishi va tashkil etilishi to‘g‘risidagi (bo‘linmalarni joylashtirish va tarkibi, faoliyatni tashkil etish va rivojlanish istiqbollari)
4.	Kompaniya faoliyatining iqtisodiy asoslari to‘g‘risidagi (texnik salohiyat tarkibi, faoliyatning iqtisodiy sohasi, assortiment va hajmdagi mahsulotlar, kompaniyaning bozordagi mavqei, mahsulot sotish, raqobatchilar va b.)
5.	Ichki nazorat tizimi haqidagi. Bunday hujjatlarning zarurligi auditni rejalashtirish va o‘tkazishni boshlashdan oldin auditor ichki nazorat tizimini, uning samaradorligi va ishonchliligini, unga bo‘lgan ishonch darajasi va o‘z ishida ichki audit ma’lumotlaridan foydalanish imkoniyatini baholashi kerakligi bilan izohlanadi. Bunda auditor xulosasi, ichki nazorat tizimining zaif tomonlari, tegishli test natijalari hujjatlashtirilishi kerak.
6.	Mijoz-kompaniyaning buxgalteriya tizimi to‘g‘risidagi (korxona tomonidan qo‘llaniladigan hisob siyosati, uning izchilligi, mijoz tomonidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi; belgilangan buxgalteriya tartib-qoidalariga rioya qilish; buxgalteriya hisobiga yuklatilgan vazifalar, uning tuzilishi; buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish (kompyuterlashtirish) darajasi, buxgalteriya tizimidagi kamchiliklar va oldingi audit davomida aniqlangan xatolar)
7.	Tegishli darajada audit o‘tkazish, auditni tashkil etish, rejalashtirish, mijoz-korxona bilan zarur aloqalarni saqlashga imkon beradigan tashkiliy va funksional ishchi hujjatlarni tekshirish (shartnoma, audit buyrug‘i, tekshirish uchun auditorlar guruhini tayinlash, audit rejasi va dasturi, auditning yozma suhbatlari). Korxona rahbariyati bilan auditor-mijoz ma’lumotlarining to‘liqligi to‘g‘risidagi deklaratsiya
8.	Korxonaning individual aktivlari va majburiyatlarini bevosita tekshirish paytida auditor tomonidan tekshirilgan hisobot davri tugaganidan keyin tuzilgan yoki olingan yillik hisobotning alohida moddalari va ko‘rsatkichlarini tekshirish bo‘yicha auditorlik hujjatlari

Auditorlik tekshiruvi davomida auditor vazifalarini hal qilishda yordam beradigan ko‘plab auditorlik protseduralarini bajaradi. Shu asosda ishchi hujjatlarning maqsadiga ko‘ra quyidagilarga bo‘lish mumkin (3-rasm):




3-rasm. Auditor tomonidan foydalaniladigan ishchi hujjatlar[8]

Standartlashtirish darajasiga ko‘ra, ishchi hujjatlar standartlashtirilgan (standart testlar, so‘rov varaqalari, anketalar, shartnomalar shakllari, mijozga xatlar) va har qanday shakldagi hujjatlar (auditorning xohishiga ko‘ra tuzilgan) sifatida tasniflanishi mumkin. Standartlashtirilgan ish qog‘ozlaridan foydalanish ularni tuzish va tahlil qilish samaradorligiga ta’sir qilishi mumkinligi qayd etilgan. Ya’ni, ishchi hujjatlarning shakli va mazmuni tufayli, auditor tekshirilayotgan masalaning mohiyatini chuqur o‘rganmasa, muhim va zarur narsani o‘tkazib yuborsa (standart hujjatda ko‘zda tutilmagan), natijada, auditning umumiy samaradorligiga ta’sir qilishi, olingan natijalar sifati pasayishi mumkin.

Tadqiqotlar natijasida auditorlik tekshiruvlarini hujjatlashtirish bosqichlari ishlab chiqildi (4-rasm).

[8] Muallif tomonidan tuzilgan.



4-rasm. Auditorlik tekshiruvlarini hujjatlashtirish bosqichlari[9]

Xulosa

Bizning fikrimizcha, audit natijalari to‘g‘risida hisobot tuzayotgan auditor uchun auditni rejalashtirishni, uning borishini, ichki nazorat va buxgalteriya tizimini tahlil qilishni tavsiflovchi ishchi hujjatlar, hujjatlarni tekshirish natijalari bo‘yicha xulosalar birlamchi hujjatlar bo‘lib, ular mavjud bo‘lmasa ishonchli hujjatlarni tayyorlash mumkin emas. Ishchi hujjatlarning mavjudligi auditorlarning harakatlarini tahlil qilish va shuning uchun ularning ishining ichki va tashqi sifatini nazorat qilishni tashkil etish imkonini beradi.

Fikrimizcha, audit hujjatlari, uning shakli, hajmi, tuzilishi va batafsil tavsifi “Auditni hujjatlashtirish” 230-sonli AXS tomonidan qat’iy tartibga solinmaydi va auditorning professional mulohazasi obyekti hisoblanadi. Audit faylining mazmuni har bir alohida auditorlik tekshiruvining parametrlari, tekshirilayotgan tashkilotning holati, faoliyat turi, nazorat muhiti, tekshirish usullari va amaliyotiga bog‘liq.

Shunday qilib, olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hujjatlashtirish ishlari butun auditorlik tekshiruvlarining davomida amalga oshiriladi. Har bir auditorlik tekshiruvlari xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatiga asosan o‘tkazilsa-da, hujjatlashtirish jarayonlari umumiy tizim asosida amalga oshiriladi. Jumladan, xo‘jalik yurituvchi subyekt bilan shartnoma tuzish, majburiyatlarni bajarish holatlari, jiddiy noto‘g‘ri ma’lumotlarning muhimligi va xavfini baholash, auditorlik protseduralarini bevosita bajarish, olingan auditorlik dalillarini baholash va boshqalarni misol keltirish mumkin. Auditorlik hujjatlari qanchalik yaxshi, to‘liq va tushunarli bo‘lsa, auditorga auditorlik topshirig‘ining sifatini tasdiqlash shunchalik oson bo‘ladi hamda har qanday manfaatdor va xabardor shaxs uchun auditorlik tekshiruvi holatlarini tushunish osonroq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Kulyakina Ye.L., Smetanko A.V. Razrabotka i vnedrenie rabochey dokumentasii auditora v deyatelnost auditorskix firm, kak odin iz sposobov povisheniya effektivnosti audita zatrat na proizvodstvo//Nauchniy almanax, 2016. – №5-1(19). – S. 137-142.

2. Yuximenko I.M. Normativnoe regulirovanie voprosov sostavleniya rabochey dokumentasii auditora//Auditorskie vedomosti, 2013. – №12. – S. 67-81.

3. Ostashenko Ye.G. Dokumentirovanie audita kak kriteriy kachestva auditorskoy proverki//Vestnik Omskogo universiteta. – Seriya: Ekonomika, 2008. – №4. – S. 104-106.

4. Ustinova Ya.I. Dokumentirovanie audita: izmeneniya v usloviyax perexoda k MSA s pozisii praktiki// Auditorskie vedomosti, 2017. – №7. – S. 50-61.

5. “Auditni hujjatlashtirish” nomli 230-son AXS,

6. “Auditorlik dalillari” nomli 500-son AXS,

7. “Auditor tomonidan jalb qilingan ekspert ishidan foydalanish” nomli 620-son AXS

8. “Moliyaviy hisobotlar to‘g‘risida fikr hosil qilish va hisobot (hulosa) berish” nomli 700-son AXS

[9] Muallif ishlanmasi.

Дилшод Насиров
Самаркандский институт экономики и сервиса,
Старший преподаватель кафедры инвестиций и инноваций
Наргиза Бабекова
Муштарий Носирова
Студентый Самаркандского института экономики и сервиса

ОЦЕНКА ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ ТУРИСТИЧЕСКИХ ПРОЕКТОВ С УЧЁТОМ СЕЗОННОСТИ ВЫРУЧКИ И ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ КОНЦЕНТРАЦИИ СПРОСА

Dilshod Nosirov
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Investitsiyalar va innovatsiyalar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Nargiza Babekova
Mushtariy Nosirova
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabalari

TURISTIK LOYIHALARNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI DAROMADLARNING MAVSUMIYLIGI VA TALABNING HUDUDIY JAMLASHUVINI HISOBGA OLGAN HOLDA BAHOLASH

Dilshod Nosirov
Samarkand Institute of Economics and Service
Senior Lecturer, Department of Investments and Innovations
Nargiza Babekova
Mushtariy Nosirova
Students of Samarkand Institute of Economics and Service

ASSESSING THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF TOURISM PROJECTS CONSIDERING REVENUE SEASONALITY AND THE TERRITORIAL CONCENTRATION OF DEMAND

Аннотация. Инвестиционные проекты в туризме обычно оцениваются по среднегодовым показателям, тогда как выручка проекта неравномерно распределена во времени и по территории. В статье предложена и апробирована схема оценки инвестиционной привлекательности туристических проектов, сочетающая три критерия: доходность (NPV, IRR), ликвидность (минимальный месячный DSCR, пиковый кассовый разрыв) и концентрационный риск (индекс Херфиндаля–Хиршмана по территориям). Эмпирическая база — официальные данные Национального комитета по статистике Узбекистана: въездные поездки иностранных граждан за 2025 г., объём услуг проживания и питания в январе–августе 2026 г. и его региональная структура. Сезонность въездного потока умеренная (коэффициент

Джини за 12 месяцев около 0,085), но это следствие структуры потока: около 69 % поездок — посещение родственников. Сезонность объёма услуг проживания и питания выше: за январь–август 2026 г. коэффициент вариации 0,28 против 0,20 у въездного потока за те же месяцы, а июль в 1,6 раза превышает средний месяц. Региональная концентрация этих услуг умеренная (HHI около 940, на г. Ташкент приходится 17,2 %). В условной модели проекта рост амплитуды сезонности снижает NPV на 4–13 %, тогда как минимальный месячный DSCR опускается ниже единицы уже при национальном профиле; снижение выручки на 10 % сокращает NPV примерно на три четверти. Результаты предварительные: данные конкретных объектов не использовались.

Ключевые слова: инвестиционная привлекательность; туристический проект; сезонность; территориальная концентрация; индекс Херфиндаля–Хиршмана; DSCR; проектное финансирование; Узбекистан.

Annotatsiya. Maqolada turizm loyihalarining investitsion jozibadorligini daromadning mavsumiyligi va talabning hududiy konsentratsiyasini hisobga olgan holda baholash sxemasi taklif etilgan. Rasmiy statistika (2025-yildagi kirish safarlari; 2026-yil yanvar–avgustdagi yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi) asosida mavsumiylik (Jini va variatsiya koeffitsientlari) hamda hududiy konsentratsiya (Xerfindal–Xirshman indeksi) hisoblangan. Kirish oqimining mavsumiyligi o‘rtacha (Jini ≈ 0,085), xizmatlar hajmida esa yuqoriroq. Shartli loyiha modelida mavsumiylik amplitudasi oshishi bilan NPV 4–13 % kamayadi, minimal oylik DSCR esa birdan pastga tushadi. Natijalar dastlabki xarakterga ega. *[Ўзбек тилидаги матнни муаллиф/филолог текширсин.]*

Kalit so‘zlar: investitsion jozibadorlik; turizm loyihasi; mavsumiylik; hududiy konsentratsiya; DSCR; O‘zbekiston.

Abstract. Tourism investment projects are usually appraised on annual averages, while their revenue is uneven over time and space. The paper proposes and tests a three-criteria framework for assessing the investment attractiveness of tourism projects: profitability (NPV, IRR), liquidity (minimum monthly DSCR, peak funding gap) and concentration risk (Herfindahl–Hirschman index by territory). The empirical base is official data of the National Statistics Committee of Uzbekistan: inbound trips in 2025, accommodation and catering services in January–August 2026 and their regional structure. Aggregate inbound seasonality is moderate (12-month Gini about 0.085) but reflects flow composition: about 69% of trips are visits to relatives. Seasonality of accommodation and catering output is higher (coefficient of variation 0.28 vs 0.20 for arrivals over the same months). Regional concentration is moderate (HHI about 940). In a conditional project model, higher seasonal amplitude lowers NPV by 4–13%, while the minimum monthly DSCR falls below one already at the national profile. The results are preliminary: facility-level data are not used.

Keywords: investment attractiveness; tourism project; seasonality; territorial concentration; Herfindahl–Hirschman index; DSCR; project finance; Uzbekistan.

Введение

Въездной туристический поток Узбекистана вырос с 1,88 млн поездок в 2021 г. до 11,68 млн в 2025 г., на 2026 г. заявлена цель около 12 млн [10]. Рост спроса сопровождается инвестициями в размещение, общественное питание и инфраструктуру, а значит, ростом доли проектов, финансируемых банковскими кредитами. Для кредитора и инвестора существенно не только среднегодовое значение выручки, но и её распределение: убыточные месяцы и кассовые разрывы возникают при положительной годовой доходности и приводят к нарушению графика погашения.

Сезонность в туризме исследуется давно. Обзор Koenig-Lewis и Bischoff показывает, что к 2005 г. были систематизированы определения, причины и последствия сезонности и методы её измерения, однако теоретическая база остаётся слабой, а количественные подходы необходимо усиливать [18]. Скалярные меры неравенства внутригодового распределения поездок, включая коэффициент Джини, сопоставлены на данных Уэльса в работе [16]; сезонность загрузки номерного фонда анализировалась в [17]. Роль культурной привлекательности направлений в сглаживании сезонности оценена на примере Сицилии [13]; измерение и декомпозиция сезонности гостиничного спроса выполнены для испанских провинций [15]; разделение спроса на годовую, месячную и недельную компоненты предложено в [19]; разделение паттерна и амплитуды сезонности — в [14]. Общий взгляд на сезонность как управленческую проблему представлен в [12]. Для Узбекистана найдена работа [20], где сезонность рассмотрена преимущественно описательно: на данные первого квартала 2022 г. показано, что среди посетителей из стран СНГ 90,7 % приехали к родственникам, и предложены меры по её смягчению.

В найденных работах сезонность характеризуется как свойство спроса; перенос её в параметры финансирования конкретного проекта (график платежей, минимальный DSCR, резерв ликвидности) и совместный учёт территориальной концентрации спроса рассматриваются редко, а для Узбекистана такие оценки на официальных данных автором не найдены. Систематический поиск по Scopus, Web of Science и eLIBRARY не проводился, поэтому вывод о пробеле предварительный.

Цель — предложить и апробировать схему оценки инвестиционной привлекательности туристических проектов с учётом сезонности выручки и территориальной концентрации спроса. Задачи: (1) измерить сезонность въездного потока и объёма услуг проживания и питания по официальным данным; (2) определить региональную концентрацию этих услуг; (3) откалибровать по эмпирическим данным сценарии амплитуды сезонности в помесячной модели проекта и оценить чувствительность NPV, IRR, DSCR и кассового разрыва; (4) оценить влияние снижения региональной выручки; (5) сформулировать рекомендации по структурированию финансирования.

Предложена трёх критериальная схема (доходность — ликвидность — концентрационный риск); амплитуда сезонности проектной выручки откалибрована как отношение коэффициентов вариации выручки отрасли и въездного потока за одни и те же месяцы; показано, что агрегированная сезонность въезда занижает сезонность выручки из-за структуры потока. Результаты могут использоваться банками и инвесторами при установлении графиков погашения и размера резерва обслуживания долга.

Методы

Использованы три группы данных. Первая — накопленные итоги числа въездных поездок иностранных граждан за 2025 г.: январь — 678,7 тыс.; январь–февраль — 1,3 млн; январь–май — 4,2 млн; январь–июнь — около 5,3 млн; январь–июль — 6,3 млн; январь–август — 7,5 млн; январь–сентябрь — около 8,6 млн; январь–октябрь — более 9,7 млн; январь–ноябрь — 10,7 млн; год — 11,68 млн [2, 8–10]. Структура по целям за январь–июль 2025 г.: посещение родственников — 4 338 164; туристические цели — 949 933; служебные — 710 303; коммерческие — 255 136; лечение — 54 882; учёба — 10 701 [7]. Вторая — накопленный объём услуг проживания и питания в текущих ценах за 2026 г., трлн сумов: январь — 13,8; январь–март — 46,2; январь–апрель — 69,1; январь–май — 90,7; январь–июнь — 115,2; январь–июль — 149,7; январь–август — 173,2 [3]. Третья — региональное распределение

этого показателя за январь–август 2026 г. (14 территорий, сумма 173,2 трлн сумов) [5] и объём рыночных услуг по регионам за 2025 г. [4].

Первичные таблицы stat.uz не выгружались: часть значений получена из официальных сообщений Комитета, часть — из публикаций СМИ, цитирующих Комитет. Показатель услуг проживания и питания не равен выручке гостиниц: по данным за январь–июнь 2026 г. 96,3 % его объёма приходится на услуги питания [6], а за январь–май 2025 г. — 95,7 % [11]. Он используется как косвенный показатель внутригодового распределения выручки отрасли в целом, а не размещения.

Помесячные значения получены как разности накопленных итогов. Для февраля–марта 2026 г. известен только суммарный итог (32,4 трлн), он распределён поровну; для марта–мая 2025 г. поток также распределён поровну. Это сглаживает ряды и занижает сезонность. Индекс сезонности $S_t = Y_t / \bar{Y}$; показатели: отношение пика к среднему, отношение максимума к минимуму, коэффициент вариации $CV = \sigma / \bar{Y}$, коэффициент Джини $G = 2 \cdot \Sigma(i \cdot Y_{(i)}) / (n \cdot \Sigma Y) - (n+1)/n$. Влияние тренда проверено делением значений на экспоненту номинального годового роста (14,4 % для услуг проживания и питания [3], 46,8 % для въездного потока [8]).

Территориальная концентрация измерена индексом Херфиндаля–Хиршмана $HHI = \Sigma w_i^2 \cdot 10^4$, нормированным индексом $HHI^* = (HHI/10^4 - 1/n) / (1 - 1/n)$ и эффективным числом территорий $N_{eff} = 10^4 / HHI$, где w_i — доля территории; $n = 14$. Страновая структура потока охарактеризована долей трёх и пяти крупнейших стран.

Операционный денежный поток месяца t: $CF_t = R \cdot S_t(\lambda)/12 \cdot (1 - v) - F/12$, где R — годовая выручка нормального года, v — доля переменных затрат, F — годовые постоянные затраты, $S_t(\lambda) = \max(1 + \lambda \cdot (S_t - 1); 0{,}05)$, нормированный на среднее, S_t — профиль въездного потока 2025 г. за 12 месяцев, λ — коэффициент усиления амплитуды (λ = 0 — нет сезонности; λ = 1 — профиль въездного потока). Эмпирическая калибровка: $\lambda_{эмп}$ равен отношению коэффициента вариации объёма услуг проживания и питания к коэффициенту вариации въездного потока за январь–август (1,45; при исключении тренда — 1,84). Значения λ = 2 и 3 — стрессовые сценарии. Критерии: NPV и IRR проекта (до финансирования), минимальный месячный DSCR = CF_t / платёж по кредиту, число месяцев с отрицательным потоком после обслуживания долга и минимум накопленного потока после обслуживания долга (пиковый кассовый разрыв).

Территориальный риск представлен сценарием устойчивого снижения годовой выручки в регионе размещения на 10 и 20 %. Параметры проекта условные (условные денежные единицы, не данные реального объекта): капитальные затраты 100, заём 50 под 18 % годовых, аннуитет на 5 лет с ежемесячными платежами; R = 60; F = 15; v = 25 %; ставка дисконтирования 20 % годовых; горизонт 8 лет; запуск в январе; без налогов, оборотного капитала, выхода на мощность и остаточной стоимости. Расчёты выполнены на Python (NumPy).

Результаты

Таблица 1 сопоставляет помесячные значения. Поток 2025 г. в январе–феврале ниже среднего, с марта держится около 1,0–1,2 млн в месяц; за сентябрь–декабрь оценки составляют 1,10; 1,10; 1,00 и 0,98 млн. Объём услуг проживания и питания в 2026 г. растёт от 13,8 трлн в январе до 24,5 трлн в июне, достигает 34,5 трлн в июле и снижается до 23,5 трлн в августе.

Таблица 1.

Помесячные значения и индексы сезонности (январь–август = 100)

Месяц	Въездные поездки 2025 г., млн	Индекс	Услуги проживания и питания 2026 г., трлн сумов	Индекс
Январь	0,68	72,4	13,8	63,7
Февраль	0,62	66,3	16,2*	74,8
Март	0,97*	103,1	16,2*	74,8
Апрель	0,97*	103,1	22,9	105,8
Май	0,97*	103,1	21,6	99,8
Июнь	1,10	117,3	24,5	113,2
Июль	1,00	106,7	34,5	159,4
Август	1,20	128,0	23,5	108,5

* Оценка равномерным распределением суммарного итога. Источник: расчёт автора по [2, 3, 8, 9].




Рисунок 1. Индексы сезонности въездного потока (2025 г.) и объёма услуг проживания и питания (2026 г.)

Показатели таблицы 2 свидетельствуют, что сезонность объёма услуг выше сезонности въездного потока: за одни и те же месяцы коэффициент вариации 0,283 против 0,195, коэффициент Джини 0,151 против 0,104, отношение максимума к минимуму 2,5 против 1,9. После исключения тренда коэффициент вариации услуг равен 0,262, потока — 0,143. Для 12 месяцев 2025 г. сезонность потока ниже (Джини 0,085; пик к среднему 1,23; доля трёх самых загруженных месяцев 29,1 % при 25 % при равномерности).

Таблица 2.

Показатели сезонности

Показатель	Въезд, 12 мес. 2025	Въезд, янв.–авг. 2025	Услуги, янв.–авг. 2026	Услуги без тренда
Пик / среднее	1,23	1,28	1,59	1,56
Максимум / минимум	1,93	1,93	2,50	2,34
Коэффициент вариации	0,166	0,195	0,283	0,262
Коэффициент Джини	0,085	0,104	0,151	0,140

Источник: расчёт автора. Для 12 месяцев Джини 0,085 при погрешности округления накопленных итогов ±0,05 млн лежит в интервале 0,080–0,096.

Структура потока. В структуре поездок за январь–июль 2025 г. (6 319 119) посещение родственников составило 68,7 %, туристические цели — 15,0 %, служебные поездки — 11,2 %, коммерческие — 4,0 %, лечение — 0,9 %, учёба — 0,2 % [7]. Рекреационный сегмент: 783,7 тыс. за январь–июнь и 949,9 тыс. за январь–июль [2], то есть в июле около 166 тыс. при среднем около 131 тыс. в первом полугодии (в 1,27 раза выше). По странам за 2025 г.: Кыргызстан — 3,3 млн, Таджикистан — 2,7, Казахстан — 2,7, Россия — около 0,98, Афганистан — около 0,48 млн; три соседние страны дают около 74,5 % потока, пять названных — около 87 %. HHI по этим пяти странам не ниже 1 955 пунктов (нижняя граница, так как остальной поток принят предельно раздробленным), эффективное число источников спроса не более 5,1.

Территориальная концентрация. Территориальная структура объёма услуг проживания и питания за январь–август 2026 г. приведена на рисунке 2. Крупнейшие территории — г. Ташкент (29,8 трлн; 17,2 %), Самаркандская (20,5; 11,8 %) и Наманганская (18,2; 10,5 %) области; три лидера дают 39,5 %. HHI = 937, нормированный HHI* = 0,024, N_eff = 10,7 из 14 возможных. Самаркандская, Бухарская и Хорезмская области вместе — 22,5 % (11,8 + 5,1 + 5,5 %).




Рисунок 2. Структура объёма услуг проживания и питания по территориям, январь–август 2026 г., %

Источник: расчёт автора по [5].

Для сравнения: в объёме рыночных услуг за 2025 г. (1 050,3 трлн сумов) на г. Ташкент приходится 37,8 % [4]; по четырнадцати перечисленным территориям HHI около 1 910, N_eff около 5,2. Распределение услуг проживания и питания заметно менее сконцентрировано, что согласуется с преобладанием питания в этом показателе (раздел 2.1) и его привязкой к населению; концентрацию собственно туристического спроса он не измеряет.

Чувствительность условного проекта. Таблица 3 показывает результаты модели при разных амплитудах сезонности (годовая выручка во всех сценариях 60). Платёж по кредиту — 1,27 в месяц.

Таблица 3.

Результаты условной модели при разной амплитуде сезонности

Сценарий	NPV	Δ NPV	IRR, год	Мин. DSCR	Месяцев с дефицитом (из 60)	Мин. накопл. поток после долга
λ = 0, нет сезонности	25,3	—	29,6 %	1,97	0	+1,2
λ = 1, профиль въезда	24,2	−4,4 %	29,0 %	0,90	5	−0,03
λ = 1,45, эмпирический	23,7	−6,4 %	28,8 %	0,42	10	−1,2
λ = 2, стресс	23,1	−8,8 %	28,5 %	−0,17	10	−2,5
λ = 3, стресс	22,2	−12,5 %	28,0 %	−0,84	10	−4,5

Условные данные; NPV и IRR проектные. Снижение NPV вызвано смещением выручки к поздним месяцам и зависит от месяца запуска.

Доходность проекта меняется слабо (IRR от 29,6 до 28,0 %), ликвидность ухудшается резко: при эмпирической амплитуде минимальный DSCR равен 0,42, а накопленный поток после обслуживания долга опускается до −1,2, что составляет около 2,3 % суммы займа; при λ = 3 — −4,5 (9 % займа).

Таблица 4.

Сценарии снижения выручки в регионе размещения

Сценарий	NPV	IRR, год	Мин. DSCR	Средний DSCR	Мес. с дефицитом
λ = 0; без снижения	25,3	29,6 %	1,97	1,97	0
λ = 0; −10 %	6,5	22,5 %	1,67	1,67	0
λ = 0; −20 %	−12,3	15,2 %	1,38	1,38	0
λ = 1,45; без снижения	23,7	28,8 %	0,42	1,97	10
λ = 1,45; −10 %	5,1	21,9 %	0,28	1,67	10
λ = 1,45; −20 %	−13,6	14,8 %	0,14	1,38	10

Условные данные.

Снижение выручки на 10 % уменьшает NPV на 74 % при отсутствии сезонности и на 79 % при эмпирической амплитуде; сочетание сезонности и снижения на 10 % сокращает NPV примерно на 80 % относительно базового сценария без сезонности. При снижении на 20 % NPV отрицателен в обоих случаях.

Обсуждение

Низкая агрегированная сезонность въезда не означает защищённости проектов: поток формируется поездками к родственникам и соседними странами, календарь которых не совпадает с календарём отпускного спроса. Показатель объёма услуг проживания и питания, который ближе к выручке, сезонен заметнее; в 2026 г. июль в 1,6 раза превышает средний месяц января–августа. Причины июльского пика в использованных источниках не объясняются, поэтому они здесь не обсуждаются. Это согласуется с выводом [13] о зависимости сезонности от структуры спроса и характеристик направлений и с рекомендацией [18] использовать более строгие количественные подходы.

При умеренной потере NPV (4–13 %) ликвидностные показатели нарушаются раньше. Это ожидаемо для проекта с долговой нагрузкой и постоянными затратами, но в доступной автору литературе по сезонности такой эффект на уровне проекта количественно не рассмотрен [12–20]. Методологически сценарий λ близок идее разделения паттерна и амплитуды [14], а меры неравенства следуют [16].

Национальный HHI характеризует карту спроса, но не риск одиночного проекта: для объекта в одной территории экспозиция к региональному спросу близка к 100 %. Высокая чувствительность NPV к снижению выручки (таблица 4) объясняется операционным и финансовым рычагом условного проекта. Для банка, финансирующего набор проектов, концентрацию портфеля по территориям можно измерять тем же HHI.

Практические следствия (гипотезы, подлежащие проверке на данных объектов): а) оценивать DSCR помесячно, а не только за год; б) размер резерва обслуживания долга привязывать к пиковому кассовому разрыву — по таблице 3 это около 2,3 % займа при эмпирической амплитуде и до 9 % при λ = 3; в) устанавливать график погашения с учётом сезонного профиля.

Выводы

1. Сезонность въездного потока Узбекистана в 2025 г. умеренная (Джини около 0,085; пик к среднему около 1,23), но заметно ниже сезонности объёма услуг проживания и питания: за январь–август коэффициент вариации 0,28 против 0,20, максимум к минимуму 2,5 против 1,9.
2. Агрегированный поток в основном состоит из поездок к родственникам (68,7 %); туристические цели — 15,0 %; три соседние страны дают около 74,5 %. Агрегированные показатели поэтому нельзя переносить на рекреационные проекты без сегментных данных.
3. Региональная концентрация объёма услуг проживания и питания умеренная (HHI около 937; N_eff 10,7; г. Ташкент — 17,2 %); концентрация туристического спроса по территориям по найденным данным не измерена.
4. В условной модели при эмпирической амплитуде сезонности NPV снижается на 6,4 %, а минимальный месячный DSCR опускается до 0,42; пиковый кассовый разрыв около 2,3 % займа. Снижение выручки на 10 % сокращает NPV на 74–79 %.
5. Оценка только по среднегодовым показателям завышает финансовую устойчивость проекта; для проектного финансирования необходимы помесячный DSCR и резерв, привязанный к сезонному профилю. Выводы 4–5 следует подтвердить на данных конкретных объектов.

Список литературы

1. Закон Республики Узбекистан «О туризме» от 18.07.2019 № ЗРУ-549 // LexUZ. https://lex.uz/docs/4428101
2. Национальный комитет Республики Узбекистан по статистике. Въездные поездки иностранных граждан, 2025 г.: https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/63135-o-zbekistonga-turistik-maqsadlardagi-tashriflar-soni-1-7-mln-nafarga-oshdi-2 ; https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/63109-o-zbekistonga-sayohat-maqsadida-783-mingdan-ziyod-xorijliklar-tashrif-buyurgan-2 ; https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/63649-zbekistonga-sajo-at-ma-sadida-arijb-950-ming-nafar-chet-el-fu-arolari-kelgan-3 ; https://stat.uz/oz/19-news/committee-news/66311-11-7-
3. Национальный комитет Республики Узбекистан по статистике. Объём услуг проживания и питания, 2026 г.: январь — https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/67391-2026-jilning-ilk-ojida-yashash-va-ov-atlanish-khizmatlari-azhmi-13-8-trln-s-mga-etdi-3 ; январь–

март — https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/68376-za-3-mesyatsa-obem-uslug-po-prozhivaniyu-i-pitaniyu-dostig-46-2-trln-sumov ; январь–апрель — https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/68840-4-ojda-yashash-va-ov-atlanish-khizmatlari-azhmi-69-1-trln-s-mga-etdi-3 ; январь–май — https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/69347-5-ojda-yashash-va-ov-atlanish-khizmatlari-azhmi-90-trln-s-mdan-oshdi-3 ; январь–июнь — https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/69510-zbekistonda-bozor-khizmatlari-azhmi-664-9-trln-s-mga-etdi-3 ; январь–июль — https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/70291-7-ojda-yashash-va-ov-atlanish-khizmatlari-azhmi-149-7-trln-s-mdan-oshdi-3 ; январь–август — https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/70681-yashash-va-ov-atlanish-khizmatlari-azhmi-173-trln-s-mdan-oshdi-3

4. Национальный комитет Республики Узбекистан по статистике. Объём рыночных услуг по регионам, январь–декабрь 2025 г.: https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/66435-khizmatlar-bozorining-uchdan-bir-ismi-pojtakht-issasiga-t-ri-keladi-5
5. UzDaily. Объём услуг по проживанию и питанию в Узбекистане вырос на 14,4 %, 23.10.2026 (региональная структура за январь–август 2026 г., со ссылкой на Нацкомитет): https://www.uzdaily.uz/ru/obem-uslug-po-prozhivaniiu-i-pitaniiu-v-uzbekistane-vyros-na-144/
6. UzDaily. Рыночные услуги в Узбекистане выросли за полугодие на 16,9 %: https://www.uzdaily.uz/ru/rynochnye-uslugi-v-uzbekistane-vyrosli-za-polugodie-na-169/
7. UzDaily. За семь месяцев 2025 года Узбекистан посетили 6,3 млн иностранных туристов: https://www.uzdaily.uz/ru/za-sem-mesiatsev-2025-goda-uzbekistan-posetili-63-mln-inostrannykh-turistov/
8. Kun.uz. Январь 2025: https://m.kun.uz/en/news/2025/03/24/uzbekistan-sees-30-increase-in-tourist-arrivals-in-january-2025 ; январь–февраль: https://kun.uz/en/news/2025/05/08/april-2025-sets-all-time-high-for-foreign-tourist-arrivals-in-uzbekistan ; январь–сентябрь: https://kun.uz/en/news/2025/10/15/uzbekistans-tourism-service-exports-exceed-36-billion-over-nine-months ; январь–ноябрь: https://kun.uz/en/news/2025/12/25/kyrgyzstan-kazakhstan-tajikistan-lead-tourist-inflows-to-uzbekistan ; 2025 г. по странам: https://kun.uz/en/news/2026/01/20/foreign-tourist-arrivals-to-uzbekistan-jump-by-nearly-47-percent-in-2025
9. Anhor.uz (январь–май 2025): https://anhor.uz/ru/news/tourist-2 ; Yuz.uz (январь–август 2025): https://yuz.uz/index.php/ru/news/za-vosem-mesyatsev-2025-goda-uzbekistan-posetili-75-mln-inostrannx-turistov ; Repost.uz (январь–октябрь 2025, со ссылкой на Комитет по туризму): https://repost.uz/nu-kak-vam-turisti
10. bne IntelliNews. Uzbekistan’s foreign arrivals jump sixfold from 1.9mn in 2021 to 11.7mn in 2025, 10.03.2026: https://www.intellinews.com/uzbekistan-s-foreign-arrivals-jump-sixfold-from-1-9mn-in-2021-to-11-7mn-in-2025-430648/
11. Upl.uz. В Узбекистане объём услуг по проживанию и питанию достиг почти 76 трлн сум, 06.07.2025 (со ссылкой на Нацкомитет): https://upl.uz/economy/53550-news.html
12. Baum T. Seasonality in tourism: understanding the challenges // Tourism Economics. 1999. Vol. 5, No. 1. P. 5–8.
13. Cuccia T., Rizzo I. Tourism seasonality in cultural destinations: Empirical evidence from Sicily // Tourism Management. 2011. Vol. 32, No. 3. P. 589–595.

14. De Cantis S., Ferrante M., Vaccina F. Seasonal pattern and amplitude: a logical framework to analyse seasonality in tourism — an application to bed occupancy in Sicilian hotels // Tourism Economics. 2011. Vol. 17, No. 3. P. 655–675.
15. Duro J. A. Seasonality of hotel demand in the main Spanish provinces: Measurements and decomposition exercises // Tourism Management. 2016. Vol. 52. P. 52–63.
16. Koenig N., Bischoff E. E. Seasonality of tourism in Wales: a comparative analysis // Tourism Economics. 2003. Vol. 9, No. 3. P. 229–254. DOI: 10.5367/000000003101298376
17. Koenig N., Bischoff E. E. Analyzing seasonality in Welsh room occupancy data // Annals of Tourism Research. 2004. Vol. 31, No. 2. P. 374–392. DOI: 10.1016/j.annals.2003.12.006
18. Koenig-Lewis N., Bischoff E. E. Seasonality research: the state of the art // International Journal of Tourism Research. 2005. Vol. 7, No. 4–5. P. 201–219. DOI: 10.1002/jtr.531
19. Rosselló J., Sansó A. Yearly, monthly and weekly seasonality of tourism demand: a decomposition analysis // Tourism Management. 2017. Vol. 60. P. 379–389.
20. Kilichova O. Problems of seasonality in the market of tourism services in Uzbekistan. DOI: 10.21070/ijccd.v14i2.895 (https://ijccd.umsida.ac.id/index.php/ijccd/article/view/895) [название журнала и год уточнить по первоисточнику].

Kenjayev Ilhom G'iyozovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
i.f.d., dotsent
Atayeva Ozoda Otabekovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
1-bosqich talabasi

O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINI RAQAMLASHTIRISH VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Кенжаев Илхом Гиясович
Ташкентский государственный
экономический университета
д-р экон. наук, доцент.
Атаева Озода Отабековна
Ташкентский государственный экономический
университета, студентка I курса

ЦИФРОВИЗАЦИЯ СТРАХОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА И ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЕГО ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ

Kenjaev Ilhom Giyosovich
Tashkent State University of
Economics DSc, Associate Professor.
Ataeva Ozoda Otabekovna
Tashkent State University of
Economics First-Year Student

DIGITALIZATION OF THE INSURANCE MARKET IN UZBEKISTAN AND WAYS TO IMPROVE ITS ECONOMIC EFFICIENCY

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanish qonuniyatlari va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari tizimli tahlil qilingan. Shuningdek sug'urta kompaniyalari operatsion xarajatlari tarkibi, anderrayting jarayonlarini avtomatlashtirish hamda Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimining (EAIS) bozorga ta'siriga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Tayanch so'zlar: *sug'urta bozori, raqamlashtirish, iqtisodiy samaradorlik, InsurTech, E-polis, EAIS, operatsion xarajatlar, risklarni baholash, investitsiya portfeli, rentabellik.*

Аннотация*: В данной статье представлен систематический анализ закономерностей развития страхового рынка Узбекистана в контексте цифровой трансформации, а также рассмотрены пути повышения его экономической эффективности. Кроме того, в работе сформулированы научные предложения и рекомендации, касающиеся структуры операционных расходов страховых компаний, автоматизации процессов андеррайтинга и влияния Единой автоматизированной информационной системы (ЕАИС) на рынок.*

Abstract: *This article provides a systematic analysis of the development patterns of Uzbekistan's insurance market within the context of digital transformation, as well as ways to enhance its economic efficiency. Furthermore, it develops scientific proposals and recommendations concerning the composition of insurance companies' operational costs, the automation of underwriting processes, and the impact of the Unified Automated Information System (UAIS) on the market.*

Keywords: *insurance market, digitalization, economic efficiency, Insurtech, E-polis, EAIS, operating expenses, risk assessment, investment portfolio, profitability.*

Kirish (Введение/Introduction).

Globalashuv va raqamli iqtisodiyot asrida moliyaviy sektorning barqarorligi bevosita zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qay darajada joriy etilganligiga bog‘liq. Sug‘urta bozori har qanday milliy iqtisodiyotning strategik bo‘g‘ini hisoblanib, u nafaqat jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlarini kutilmagan xavf-xatarlardan himoya qiladi, balki mamlakat moliyaviy tizimida yirik investitsiyaviy resurslar generatori vazifasini ham bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda sug‘urta faoliyatini tartibga solish, sohada shaffoflikni ta’minlash va raqamli infratuzilmani mustahkamlash borasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan qator farmon va qarorlar doirasida an’anaviy qog‘ozbozlik tizimidan voz kechilib, majburiy va ixtiyoriy sug‘urta turlarini elektron shaklga (E-polis) o‘tkazish jarayoni deyarli yakunlandi. Biroq, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta bozorini raqamlashtirish faqatgina internet orqali polislar sotishni anglatmaydi. Bu jarayon sug‘urta da’volarini ko‘rib chiqish vaqtini qisqartirish, katta ma’lumotlar (Big Data) asosida anderrayting tizimini takomillashtirish va sug‘urta firibgarligiga qarshi raqamli to‘siqlar yaratishni qamrab oluvchi kompleks tizim hisoblanadi.

Ushbu tizimli yangilanishlar sug‘urta tashkilotlari iqtisodiy samaradorligiga ta’sirini kompleks baholash, sohadagi xarajatlar va daromadlar mutanosibligini o‘rganish mazkur ilmiy tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi. Raqamli transformatsiyaning moliyaviy samarasini faqat nazariy emas, balki aniq statistik ma’lumotlar va iqtisodiy ko‘rsatkichlar yordamida ochib berishdir.

Adabiyotlar tahlili (Obzor literaturы/Literature review).

Sug‘urta ishida raqamli texnologiyalarni qo‘llash va ularning iqtisodiy oqibatlarini baholash jahon va mahalliy iqtisodchi olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Xalqaro miqyosda sug‘urta iqtisodiyoti nazariyasiga katta hissa qo‘shgan *Swiss Re Institute* tadqiqotchilari o‘zlarining "Sigma" ilmiy hisobotlarida ta’kidlashicha, sug‘urta jarayonlarining avtomatlashtirilishi kompaniyalarning umumiy ma’muriy xarajatlarini o‘rtacha 25-30 foizgacha pasaytirishga olib keladi. Shuningdek, xorijlik olimlardan K. Kristensen va M. Porter o‘zlarining innovatsiyalar nazariyasida raqamli platformalar an’anaviy vositachilik (agentlik) tarmog‘ini siqib chiqarib, mahsulot tannarxini arzonlashtirishini isbotlaganlar.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan X.Muhitdinov, J.Sh. Tuxtabayev va S.Shermatovlarning ilmiy ishlarida milliy sug‘urta bozorining institutsional tuzilmasini rivojlantirish muammolari atroflicha o‘rganilgan. Jumladan, J.Sh.Tuxtabayev o‘z tadqiqotlarida Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimining huquqiy va tashkiliy asoslarini yaratish zarurligini ta’kidlagan bo‘lsa, S.Shermatov raqamli infratuzilmaga tikilgan kapitalning sug‘urta kompaniyalari aktivlari sifatiga ta’sirini tahlil qilgan. Biroq, milliy adabiyotlarda raqamli investitsiyalarning sug‘urta kompaniyalari moliyaviy rentabelligi bilan bog‘liqlik darajasi hali to‘liq va kompleks ravishda miqdoriy baholanmagan. Ko‘pgina tadqiqotlar faqat umumiy tavsifiy xususiyatga ega bo‘lib,

raqamlashtirishning sug‘urta portfeli tarkibiga va zararlik koeffitsiyentiga ta’sirini aniq raqamlarda ko‘rsatib bera olmagan. Mazkur ish ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Tadqiqot jarayonida O‘zbekiston sug‘urta bozorining raqamlashtirish darajasi va iqtisodiy samaradorligini baholash uchun bir-birini to‘ldiruvchi quyidagi tizimli usul va metodlar majmuidan foydalanildi:

• **Statistik guruhlash va qiyosiy tahlil usuli:** Bu usul yordamida sug‘urta bozorining so‘nggi yillardagi (2024–2025-yillar) dinamikasi, yig‘ilgan mukofotlar va to‘langan qoplamalar hajmi yillar va yarim yilliklar kesimida qiyoslandi.

• **Tarkibiy-funktsional tahlil:** Sug‘urta kompaniyalarining xarajatlari tarkibi, raqamli texnologiyalarga ajratilgan investitsiyalar portfeli va ularning umumiy aktivlardagi ulushi mazkur metod yordamida aniqlandi.

• **Iqtisodiy-matematik model (Korrelatsiya va regressiya tahlili):** Sug‘urta kompaniyalarining raqamlashtirish darajasi (mustaqil o‘zgaruvchi) bilan ularning moliyaviy rentabelligi ROE (bog‘liq o‘zgaruvchi) o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik darajasini aniqlash maqsadida iqtisodiy model qurildi.

• **Induktsiya va deduktsiya usuli:** Xorijiy ilmiy manbalardagi umumiy qonuniyatlardan kelib chiqqan holda milliy sug‘urta bozori uchun xos bo‘lgan xususiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Milliy sug‘urta bozorining rivojlanish qonuniyatlarini xolis baholash uchun avvalo so‘nggi davrdagi umumiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasini ko‘rib chiqish lozim. Sug‘urta bozori hajmi ekstensiv jihatdan tez suratlar bilan o‘sib bormoqda **(1-jadval).**

1-jadval

O‘zbekiston sug‘urta bozorining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi (trln so‘m)

Ko‘rsatkichlar nomi	Yillar		O‘zgarish sur’ati (%da)
	2024-yil yakuni	2025-yil 1-yarim yilligi	
Jalb etilgan sug‘urta mukofotlari, jami	9,8	6,2	+46,0%
Amalga oshirilgan sug‘urta to‘lovlari, jami	2,2	1,2	+12,2%
Sug‘urta sektorining jami aktivlari	11,8	14,1	+19,5%
Sohaning yalpi kapitali (Sohaviy fondlar)	4,2	4,9	+16,6%

Ushbu jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sug‘urta bozorida jadal rivojlanish tendentsiyasi mavjud. Ayniqsa, 2025-yilning birinchi yarmida yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari 6,2 trln so‘mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 46 foizlik juda yuqori o‘sish suratini qayd etgan. Shu bilan birga, to‘langan sug‘urta qoplamalari atigi 12,2 foizga oshgan (1,2 trln so‘m). Bu ijobiy ko‘rsatkich bo‘lib, kompaniyalarning texnik balans barqarorligidan dalolat beradi. Biroq, bunday katta mablag‘lar oqimini to‘g‘ri boshqarish va nazorat qilish faqatgina raqamli infratuzilmani kengaytirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Sug‘urta bozorining iqtisodiy samaradorligini baholashda sug‘urta kompaniyalarining xarajatlari tarkibini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Raqamlashtirish darajasi oshishi bilan ushbu xarajatlarning kamayish tendentsiyasi quyidagi 2-jadvalda aks ettirilgan.

2-Jadval

Sug‘urta kompaniyalari yalpi xarajatlari tarkibida raqamlashtirishning ta’siri (xarajatlar ulushi %da)

Xarajat turlari	An’anaviy modelda (2023-y.)	Raqamli modelda (2025-y.)	Farq (Foiz punktda)
Blanklarni chop etish va logistika	4,5%	0,2%	-4,3%
Agentlik va vositachilik komissiyalari	28,0%	14,5%	-13,5%
Ma’muriy va boshqaruv xarajatlari	12,5%	8,0%	-4,5%
IT infratuzilma va kiberxavfsizlik	1,5%	6,5%	+5,0%
Zararlarni baholash (Ekspertiza)	5,5%	2,8%	-2,7%

Iqtisodiy jihatdan ushbu 2-jadval raqamlashtirishning sug‘urta kompaniyalari xarajatlarini optimallashtirishdagi asosiy mexanizmini ochib beradi. Raqamli modelga o‘tilishi natijasida an’anaviy ravishda eng katta xarajat ulushi-ni tashkil etuvchi agentlik va vositachilik komissiyalari 28 foizdan 14,5 foizgacha, ya’ni deyarli ikki barobarga qisqargan. Sababi — mijozlar polislarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri veb-sayt yoki mobil ilovalar orqali sotib olmoqda. Qog‘oz blankalari xarajatlari 4,3 foiz punktga kamayib, deyarli nollga tushgan. Garchi IT infratuzilma va kiberxavfsizlik xarajatlari 1,5 foizdan 6,5 foizga oshgan bo‘lsa-da, umumiy operatsion xarajatlar koeffitsiyenti sezilarli darajada pasayib, kompaniyalarning iqtisodiy rentabelligini ta’minlagan.

Sug‘urta kompaniyalari nafaqat xavf-xatarni boshqaradi, balki yig‘ilgan sug‘urta zaxiralarini iqtisodiyotning turli sektorlariga investitsiya sifatida kiritadi. Investitsiya faoliyatining samaradorligi raqamli moliyaviy instrumentlar bilan bevosita bog‘liqldir.

3-jadval

O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalarining jami investitsiya portfeli tarkibi va dinamikasi

Investitsiya yo‘nalishlari	Yillar		O‘sish sur’ati (%)
	2024-yil (trln so‘m)	2025-yil 1-yarim yillik	
Tijorat banklaridagi depozitlar	3,8	4,8	+26,3%
Davlat qimmatli qog‘ozlari (Obligatsiyalar)	1,2	1,8	+50,0%
Aksiyalar va korporativ obligatsiyalar	0,7	1,1	+57,1%
Ko‘chmas mulk va boshqa aktivlar	0,4	0,6	+50,0%
Jami investitsiya portfeli	**6,1**	**8,3**	**+36,0%**

3-jadval sug‘urta tashkilotlarining investitsiyaviy jozibadorligi va ularning milliy iqtisodiyotdagi investorlik rolini aks ettiradi. 2025-yilning birinchi yarmida jami investitsiyalar hajmi 8,3 trln so‘mga yetib, 36 foizga o‘sgan. Bu yerda eng muhim jihat — davlat qimmatli qog‘ozlari va aktsiyalarga kiritilgan investitsiyalarning mos ravishda 50 va 57,1 foizga o‘sishidir. Raqamli ekotizimlar va fond bozori platformalari bilan integratsiyalashuv sug‘urta kompaniyalariga o‘zlarining bo‘sh pul mablag‘larini "yashil" va yuqori daromadli qimmatli qog‘ozlarga tezkorlik bilan (likvidlikni yo‘qotmagan holda) joylashtirish imkonini bermoqda.

Raqamlashtirishning sug‘urta bozorini iqtisodiy samaradorligiga ta’sirini kompleks baholash uchun biz tarmoq kompaniyalarini raqamlashtirish darajasi bo‘yicha 3 ta guruhga ajratdik va ularning moliyaviy ko‘rsatkichlarini qiyosladik (4-jadval)

4-jadval

Sug‘urta kompaniyalarining raqamlashtirish darajasiga ko‘ra moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlari

Kompaniyalar guruhi	Raqamlashtirish darajasi (%)	O‘rtacha Loss Ratio (%)	O‘rtacha Expense Ratio (%)	O‘rtacha ROE (Kapital rentabelligi,)
1-guruh (Yuqori innovatsion)	80% - 100%	22,4%	16,5%	**24,8%**
2-guruh (O‘rta integratsiyalashgan)	40% - 79%	34,2%	26,0%	**15,2%**
3-guruh (Past raqamlashgan)	40% dan past	45,8%	38,5%	**8,4%**

Ushbu 4-jadval tadqiqotimizning eng muhim ilmiy xulosasini asoslab beradi. Unga ko‘ra, raqamlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan (80% dan ko‘p) kompaniyalar guruhida zararlik koeffitsiyenti (Loss Ratio) eng past ko‘rsatkichni — 22,4 foizni tashkil etgan. Bunga sabab — sun’iy intellekt yordamida anderraytingning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi va sug‘urta firribgarligining oldi olinganligidir. Eng asosiysi, yuqori raqamlashgan kompaniyalarning kapital rentabelligi (ROE) 24,8 foizni tashkil etib, past raqamlashgan kompaniyalarga (8,4%) nisbatan deyarli 3 barobar yuqoridir. Demak, raqamlashtirish sug‘urta sohasida iqtisodiy o‘sish va yuqori foyda olishning bosh omili hisoblanadi.

Xulosa (Заключение).

O‘zbekiston sug‘urta bozorini raqamlashtirishning joriy holati, xarajatlar tuzilmasi va kompaniyalar moliyaviy ko‘rsatkichlari ustida olib borilgan kompleks ilmiy tadqiqotlar asosida quyidagi fundamental xulosalarga kelindi:

1. Raqamlashtirish sug‘urta kompantalari uchun shunchaki imidj yoki texnik qulaylik bo‘lmay, u operatsion xarajatlarni (Expense Ratio) o‘rtacha ikki barobarga qisqartiruvchi va kapital rentabelligini (ROE) 3 barobargacha oshiruvchi muhim iqtisodiy kuchdir.

2. Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimining (EAIS) boshqa davlat idoralari bazalari bilan integratsiyalashuvi risk-management sifatini oshirib, bozordagi zararlik darajasini jilovlash imkonini berdi.

Milliy sug‘urta bozorining iqtisodiy samaradorligini yanada oshirish ta’minlovchi quyidagi **amaliy takliflar** ilgari suriladi:

"Digital Claims" (Inson omilisiz masofaviy zararni qoplash) tizimini to‘liq qonuniylashtirish: Yo‘l-transport hodisalari yoki mulkiy zararlar yuz berganda, mijozlar kompaniya xodimini kutmasdan, mobil ilova orqali foto va video faktlarni yuklash orqali to‘lovlarni 24 soat ichida avtomatik olishini ta’minlash zarur. Bu ekspertlar xarajatini kamaytiradi.

"Embedded Insurance" (O‘rnatilgan sug‘urta) modelini keng joriy etish: Sug‘urta mahsulotlarini mamlakatning yirik raqamli ekotizimlari (masalan, Uzum Market, raqamli banklar va riteyl tarmoqlari) ichiga integratsiya qilish lozim. Bu kompaniyalarning mijoz jalb qilish xarajatlarini (CAC) minimallashtiradi.

• **Yagona sug‘urta billing tizimini tezlashtirish:** 2026-yil aprelidan boshlab rejalashtirilgan markazlashgan billing tizimini nafaqat majburiy, balki barcha ixtiyoriy sug‘urta turlariga ham majburiy tarzda tatbiq etish orqali xufiyona mablag‘lar aylanishiga chek qo‘yish.

• **Kibertahdidlardan sug‘urtalash mahsulotlarini yaratish:** Raqamlashtirish kengaygani sari sug‘urta kompaniyalarining o‘zlari va mijozlari tizimlarini kiberhujumlardan himoyalash maqsadida maxsus kiber-sug‘urta (Cyber Insurance) polislarini ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (ILMA) rasmiy hisobotlari va tahliliy materiallari (2024–2025).

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik bülletenlari (2025).

3. Swiss Re Institute. "Digital transformation in insurance: economic impacts and market dynamics". Sigma Report, No. 4, 2024.

4. Tuxatabayev J.Sh. "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sug‘urta bozorini raqamlashtirish istiqbollari". Ilmiy maqolalar to‘plami, Toshkent, 2025.

5. Shermatov S. "Insur-Tech texnologiyalarining sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligiga ta’siri". //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnali, №3, 2025.

6. Christensen C. "The Innovator's Dilemma: When New Technologies Cause Great Firms to Fail". Harvard Business Review Press, 2023.

Сабирова Лола Шавкатовна,
к.э.н., профессор кафедры «Оценочное дело, инвестиции и страхование»
Ташкентского государственного экономического университета
E-mail: sabirowa@inbox.ru
Шаисламова Наргиза Кабиловна
PhD, доцент кафедры «Оценочное дело, инвестиции и страхование» Ташкентского государственного экономического университета
E-mail: shaislamovan2002@gmail.com

О ВВЕДЕНИИ ОБРАЗОВАНИЯ В ИНТЕРЕСАХ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Sabirova Lola Shavkatovna,
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining “Baholash ishi, investitsiya va sug‘urta” kafedrasi professori, i.f.n
Shaislamova Nargiza Kabilovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining “Baholash ishi, investitsiyalar va sug‘urta” kafedrasi dotsenti, PhD

BARQAROR RIVOJLANISH MANFAATLARI YO‘LIDA TA’LIMNI JORIY ETISH TO‘G‘RISIDA

Sabirova Lola Shavkatovna,
Professor of the Department of “Valuation, Investments and Insurance”,
Tashkent State University of Economics
Shaislamova Nargiza Kabilovna
Associate Professor, PhD of the Department of “Valuation, Investments
and Insurance”, Tashkent State University of Economics

ON THE IMPLEMENTATION OF EDUCATION FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Аннотация: *В статье на основе изучения Национальной программы озеленения Узбекистана и указов Президента Республики, направленных на достижение Целей устойчивого развития ООН в качестве глобального призыва к действию по искоренению нищеты, защиты планеты и обеспечения мира и процветания населения мира к 2030 году, представлены достижения Узбекистана по решению проблемы устойчивого развития, а также предложения по внедрению поэтапного образования в интересах устойчивого развития.*

Ключевые слова: *Устойчивое развитие, стратегия развития, компетенции, образование в интересах устойчивого развития (ОУР), концепция устойчивого развития, экономический рост, экологическая защита, социальная справедливость, потребности.*

Abstract: *This article examines Uzbekistan's National Green Development Program and the Presidential Decrees of the Republic of Uzbekistan aimed at achieving the United Nations Sustainable Development Goals (SDGs), which serve as a global call to action to eradicate poverty, protect the planet, and ensure peace and prosperity for all by 2030. The article presents Uzbekistan's achievements in addressing the challenges of sustainable development and offers recommendations for the gradual implementation of Education for Sustainable Development (ESD) within the national education system.*

Keywords: *sustainable development; development strategy; competencies; Education for Sustainable Development (ESD); sustainable development concept; economic growth; environmental protection; social justice; needs.*

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekistonning milliy ko‘kalamzorlashtirish dasturi hamda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qaratilgan Prezident farmonlarini o‘rganish asosida, 2030-yilgacha qashshoqlikni tugatish, sayyorani muhofaza qilish, dunyo aholisining tinchligi va farovonligini ta’minlashga qaratilgan global harakatlar chaqirig‘i doirasida O‘zbekistonda barqaror rivojlanish muammosini hal etish borasida erishilgan yutuqlar yoritilgan, shuningdek, barqaror rivojlanish uchun ta’limni bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.*

Tayanch s`ozlar: *Barqaror rivojlanish, Rivojlanish strategiyasi, kompetensiyalar, Barqaror rivojlanish uchun ta’lim (BRUT), Barqaror rivojlanish konsepsiyasi, iqtisodiy o‘sish, atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy adolat, ehtiyojlar.*

Введение

Проблема устойчивого развития громогласно заявила о себе еще в начале XVIII века устами горного администратора Саксонии Hans Carl von Carlowitz [5], сформулировавшего принцип, согласно которому следует заготавливать лишь столько древесины, сколько может вырасти вновь. После длительного периода эволюции и постепенного распространения в различных областях науки и бизнеса концепция устойчивого развития в 1980-х годах стала основополагающим принципом общественного развития [6].

По истечении четверти XXI века в связи, не в последнюю очередь, с обозначившейся трансформацией на энергетических рынках, решение ее обретает все большую остроту, обусловленную необходимостью выхода из глобальных экологических и экономических кризисов и состояния социального неравенства для сохранения жизни на планете.

Обзор литературы

Внося свой вклад в решение мировой проблемы, Узбекистан активно интегрирует Цели устойчивого развития (ЦУР) ООН в национальное законодательство через систему указов, постановлений и законов. Главным документом, регулирующим устойчивое развитие в стране, является Стратегия «Узбекистан – 2030».

Запущенный по инициативе Президента Шавката Мирзиёева в 2021 году, общенациональный проект «Яшил макон» (Зеленый край) поставил амбициозную цель — высадить 1 миллиард деревьев и кустарников по всей стране в течение нескольких лет, в том числе 200 миллионов деревьев ежегодно. Общенациональный проект направлен на восстановление и расширение зелёных зон в условиях нарастающих экологических вызовов, в том числе опустынивания, деградации земель, загрязнения воздуха и изменения климата [1].

2025 год в Узбекистане был официально объявлен Годом охраны окружающей среды и «зеленой» экономики в рамках реализации стратегии «Узбекистан – 2030». Главная цель такого решения сводилась к сокращению выбросов, внедрению возобновляемых источников энергии, улучшению экологической обстановки в регионах и рациональному использованию природных ресурсов.

Последовательно продолжая начатый курс, принятым 30 января 2025 года Указом Президента № УП-16 [2] была запущена комплексная зеленая трансформация отраслей экономики. Главные цели и задачи указа:

- Озеленение улиц и улучшение экологии махаллей,
- Переход на принципы «зеленой экономики»,
- Рост доли возобновляемых источников энергии,
- Поддержка установки солнечных панелей,
- Снижение углеродного следа в отраслях.

В Указе обозначены также и макроэкономические ориентиры до 2030 года:

- Рост ВВП не менее чем на 6% ежегодно,
- Доведение объема ВВП до 200 миллиардов долларов США,
- Удержание инфляции на уровне 5%,
- Сохранение дефицита бюджета в пределах 3% к ВВП.

В области социальной политики Указ Президента № УП-219 от 19 ноября 2025 года «О мерах по устойчивому развитию рынка жилья и ипотеки в Республике Узбекистан» [3]. ставит задачу по переходу к долгосрочному сбалансированному строительству жилья с учетом урбанизации.

Совсем недавно этот стратегический курс был дополнен и обновлен Указом Президента Республики Узбекистан от 16 февраля 2026 года № УП-21 [4] для вывода ключевых реформ на новый этап в рамках приоритетных направлений развития страны до 2030 года. направленных на снижение уровня бедности и поддержку человеческого капитала.

На основе новых требований внедрена в стране совершенно новая система стратегического планирования и развития, основанная на цепочке «цель — действие — результат. Главные цели и задачи, обозначенные в Указе это - создание 100 тысяч новых рабочих мест через реализацию более 10 тысяч проектов в регионах, вывод 3,5 тысячи махаллей из категории свободных от бедности и безработицы, а также направление 20 триллионов сумов на улучшение местной инфраструктуры.

Методика исследования

Как показали исследования, понятие устойчивого развития служит руководящим политическим принципом главы Республики Узбекистан. В связи с этим теоретической основой исследования явились Указ Президента № УП-219 от 19 ноября 2025 года: «О мерах по устойчивому развитию рынка жилья и ипотеки в Республике Узбекистан», Указ Президента Республики Узбекистан от 30.01.2025 г. № УП-16 «О Государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан — 2030» в «Год охраны окружающей среды и «зеленой экономики», Указ Президента Республики Узбекистан, от 16.02.2026 г. № УП-21 «О дополнительных мерах по последовательному продолжению и выведению на новый этап реформ в рамках приоритетных направлений развития страны до 2030 года».

В качестве методологической основой работы применялись методы наблюдения и сравнения, синтеза и анализа.

Результат и обсуждение

В научных дискуссиях устойчивое развитие представляет собой попытку выработать концепцию, обеспечивающую долгосрочную защиту природных основ жизни, постоянное удовлетворение социальных потребностей и надежное сохранение экономических ресурсов. В его основе лежит требование справедливости как в отношениях между поколениями, так и в глобальном масштабе — внутри одного поколения. Таким образом, «речь идет не только о справедливом распределении ресурсов планеты между нынешним и будущими поколениями, но и об их справедливом распределении среди людей, живущих сегодня» [7].

Этот нашло свое отражение еще в 1987 году в высказывании Hauff [8]. Согласно его определению, развитие является устойчивым, «если оно удовлетворяет потребности настоящего времени, не ставя под угрозу способность будущих поколений удовлетворять свои собственные потребности».

В 1990-х и 2000-х годах концепция устойчивого развития обычно описывалась с помощью моделей, включающих три или четыре составляющие (или измерения) — их часто называли «треугольниками устойчивости», — к которым относились экологический, экономический и социальный аспекты (см. рис.1)



Рис. 1. Модель устойчивого развития Брундландт

В 2015 году Организация Объединенных Наций приняла «Повестку дня на период до 2030 года» и Цели в области устойчивого развития (ЦУР). Тем самым была представлена обновленная и более конкретная рамочная основа для устойчивого развития. Впоследствии многие государства подтвердили свою приверженность этому принципу, приняв типовую резолюцию «Повестка дня на период до 2030 года: обеспечение устойчивого развития на местном уровне» (см. табл.1).

Таблица 1.

Возможности достижения устойчивого развития

Совместное достижение целей		
Экономическая система	Социальное равенство	Биосфера
1.Достойный труд	1.Ликвидация нищеты	1. Воздушный бассейн
2. Промышленность, инновации и инфраструктура	2. Обеспечение качественным жильем, качественным воздухом и безопасными транспортными маршрутами	2. Водные ресурсы и очистительные сооружения
3. Сокращение несправедливости	4. Мир, справедливость, сильные институты	3. Мероприятия по защите климата
4.Устойчивое потребление и производство	5.Доступная чистая энергия	
	6. Здоровье и благополучие	
	7. Качественное образование	
	8. Гендерное равенство	
	9.Ликвидация голода	

Примечание. Таблица разработана авторами на основе https://www.bne-fachstelle.de/de/einfuehrung/was-ist-nachhaltige-entwicklung?utm_source=chatgpt.com
Vom forstwirtschaftlichen Grundsatz zum Leitbild für Gesellschaftsentwicklung in den 1980er Jahren [5].

Несмотря на обозначенные задачи в современном мире наметилась определенная размытость в понимании термина устойчивое развитие. Тем не менее, благодаря своему всеобъемлющему нормативному статусу, высокой политической легитимности и прочной правовой базе, как в Узбекистане, так и в мире, концепция устойчивого развития в настоящее время незаменима в качестве руководящего принципа.

Ключевым инструментом в этом процессе выступает образование в интересах устойчивого развития (ОУР). Цель ОУР — дать людям возможность формировать общество так, чтобы обеспечить жизнеспособное будущее, что и означает достичь устойчивого развития.

По мнению Lisa Artmaier, Angela Firmhofer, Marco Schmidt, «Образование в интересах устойчивого развития (ОУР) представляет собой как ориентированную на практические действия образовательную концепцию, так и программу образовательной политики, направленную на внедрение этой концепции во все сферы системы образования. В данном тексте ОУР рассматривается именно как образовательная концепция» [9].

Авторы под ОУР видят «Комплексные, интерактивные образовательные процессы, которые в духе концепции «обучения на протяжении всей жизни» наделяют людей всех возрастов способностью мыслить и действовать ответственно, способствуя тем самым построению устойчивого будущего с применением творческого подхода, а также инновационного и критического мышления, способствующих как самостоятельности действий, так и умению работать в команде.

Главная цель ОУР — дать людям возможность совместно разрабатывать стратегии действий для решения конкретных практических задач и проблем в контексте устойчивого развития. Эти стратегии должны быть направлены на формирование общества с учетом принципов участия и ориентации на будущее. Успех этого процесса возможен лишь при условии, что люди научатся осмысливать собственные действия и их последствия.

Подход Марко Рикманна [10] объединяет разные модели компетенций в области рефлексии, участия в процессах преобразования и практической деятельности в ОУР (см. рис.2).




Рис. 2 Компетенции как цель ОУР

Нельзя не согласиться с авторами в том, что «в передаче знаний, компетенций, междисциплинарного понимания и ценностей, необходимых для процессов формирования личности и общества, а также для участия в общественной жизни» важную роль здесь играют творческий подход, а также инновационное и критическое мышление, способствующие как самостоятельности действий, так и умению работать в команде.

Мы должны согласиться с авторами [9], которые считают, что цель образования в интересах устойчивого развития ОУР не должна ограничиваться отдельной личностью: сфера его охвата распространяется на учреждения, организации, образовательные центры, местные органы власти, предприятия и т. д. Все эти структуры должны приводить свою деятельность в соответствие с принципами устойчивого развития и служить примером для подражания.




Рис.3. Тенденции ОРУ, результат и эффект

На наш взгляд, современные методические материалы, позволяющие эффективно интегрировать принципы устойчивого развития в образовательный процесс, необходимо начинать с детских дошкольных учреждений, далее идут школы и вузы (см. рис. 3). Уже там оно должно затрагивать актуальные вопросы и аспекты устойчивого развития и формировать необходимые методические компетенции.

Выводы

Проведённый анализ позволяет сделать вывод о том, что образование в интересах устойчивого развития (ОУР) является одним из ключевых инструментов формирования человеческого капитала, способного обеспечить устойчивость общества и жизнеспособность будущих поколений. ОУР должно рассматриваться не только как отдельный образовательный курс, но и как комплексный подход, интегрирующий экологические, социальные и экономические аспекты устойчивого развития во все уровни образования.

Важным условием эффективного внедрения ОУР является поэтапное формирование соответствующих знаний, навыков, ценностей и компетенций, начиная с дошкольного возраста и продолжая в системе общего среднего и высшего образования. На начальном этапе

особое внимание целесообразно уделять формированию у детей бережного отношения к природе, флоре и фауне, пониманию необходимости рационального использования природных ресурсов и сортировки отходов. Игровые и практические занятия, соответствующие возрастным особенностям детей, могут стать наиболее эффективным инструментом формирования экологически ответственного поведения.

На последующих уровнях образования содержание ОУР должно постепенно усложняться и обеспечивать формирование у обучающихся системного мышления, способности анализировать взаимосвязи между экологическими, социальными и экономическими процессами, вести конструктивный диалог и принимать ответственные решения, ориентированные на долгосрочные интересы общества и окружающей среды.

Особое значение имеет подготовка педагогических кадров, способных реализовывать принципы устойчивого развития в образовательном процессе. Для этого необходимо разработать современные учебно-методические материалы, практические рекомендации и методики преподавания ОУР с учётом возрастных особенностей обучающихся. Интеграция принципов устойчивого развития должна осуществляться последовательно — от дошкольных образовательных учреждений до школ и высших учебных заведений.

Таким образом, внедрение ОУР в образовательную систему Узбекистана следует рассматривать как долгосрочный стратегический процесс, направленный на формирование экологически ответственного, социально активного и экономически грамотного поколения. Системное развитие ОУР будет способствовать не только повышению качества образования, но и формированию общества, способного эффективно реагировать на экологические, социальные и экономические вызовы.

В конечном итоге ОУР создаёт основу для подготовки граждан, способных принимать обоснованные решения с учётом интересов будущих поколений. Это, в свою очередь, может способствовать повышению эффективности деятельности органов государственного управления и местного самоуправления, более результативному реагированию на кризисные ситуации и адаптации общества к новым социально-экономическим условиям. Следовательно, поэтапное внедрение образования в интересах устойчивого развития является важным условием достижения целей устойчивого развития и обеспечения долгосрочного социально-экономического и экологического благополучия Узбекистана.

Список использованной литературы

1. Проект «Яшил макон» – Национальная программа озеленения Узбекистана. https://www.land-irg.org/nasha-deyatelnost/proekt-yashil-makon-nacionalnaya-programma-ozeleneniya-uzbekistan
2. Указ Президента Республики Узбекистан, от 30.01.2025 г. № УП-16 «О Государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан — 2030» в «Год охраны окружающей среды и «зеленой экономики» https://lex.uz/uz/docs/7369745
3. Указ Президента № УП-219 от 19 ноября 2025 года: «О мерах по устойчивому развитию рынка жилья и ипотеки в Республике Узбекистан». https://lex.uz/docs/7369745?ONDATE=09.02.2025%2000 https://lex.uz/uz/docs/7851222
4. Указ Президента Республики Узбекистан, от 16.02.2026 г. № УП-21 «О дополнительных мерах по последовательному продолжению и выведению на новый этап реформ в рамках приоритетных направлений развития страны до 2030 года» https://lex.uz/docs/8050774

5. Rink, D. (2024): Was ist nachhaltige Entwicklung? Warum ist sie wichtig? München https://www.bne-fachstelle.de/de/einfuehrung/was-ist-nachhaltige-entwicklung?utm_source=chatgpt.com
6. Grober, U. (2013): Die Entdeckung der Nachhaltigkeit. Kulturgeschichte eines Be griffs, München.
7. Vom forstwirtschaftlichen Grundsatz zum Leitbild für Gesellschaftsentwicklung in den 1980er Jahren https://www.bne-fachstelle.de/de/einfuehrung/was-ist-nachhaltige-entwicklung?utm_source=chatgpt.com
8. Hauff, V. (Hg.) (1987): Unsere gemeinsame Zukunft. Der Brundtland-Bericht der Weltkommission für Umwelt und Entwicklung, Greven.
9. Lisa Artmaier, Angela Firmhofer, Marco Schmidt, Was ist Bildung für nachhaltige Entwicklung (BNE)? Warum ist sie wichtig? https://www.bne-fachstelle.de/de/einfuehrung/was-ist-bildung-fuer-nachhaltige-entwicklung-bne
10. Rieckmann, Marco (2021): Bildung für nachhaltige Entwicklung. Ziele, didaktische Prinzipien und Methoden. In: merz-Zeitschrift für Medienpädagogik, 65. Jg., Nr. 4, S. 10-17//.

E’LON !!!

O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining qarori bilan “Moliya” ilmiy jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan va jurnal iqtisodiy ilmiy nashr bo‘lib, bosma holatda bir yilda 6-marta chop etilib, jurnalning har sonida ilmiy ishlanmalar iqtisodiy fanlar bo‘yicha ilmiy tadqiqot yo‘nalishlariga mos holda o‘zbek, rus, ingliz tillarida maqolalar chop etib kelindi.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot va elektron axborotlar almashinuv davrida ilmiy jurnallarning ham faoliyati raqamlashtirilmoqda. Shu boisdan, ilmiy jurnalni yaqin istiqbolda Xalqaro jurnallar bazasi safidan joy olishini, chop etiladigan maqolalarga qo‘yiladigan talablarni IMRAD usuli asosida ishlab chiqilishi, xalqaro bazalarda identifikatsiyalanishini e’tiborga olib, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashi majlisining 5-sonli bayonnomasiga asosan “Moliya” ilmiy jurnalini elektron shaklga o‘zgartirildi va 2025-yil yanvar oyidan boshlab iqtisodiy fanlar bo‘yicha ilmiy tadqiqot yo‘nalishlariga mos holda o‘zbek, rus, ingliz tillarida maqolalar elektron chop etiladi.

☎Murojaat uchun @moliya2025 telegram sahifasi yoki +998950746000, +998914536467 telefon raqamlariga bog'lanishingiz mumkin.

Jurnalning har bir soni https://moliya.tsue.uz sayti orqali elektron nashr etiladi.

Ehtirom bilan, Moliya ilmiy jurnali tahririyati.
https://t.me/moliya2025 ✓https://moliya.tsue.uz